



Martti Larni

Zo'raki muttaham yoki to'rtinchi umurtqa

Roman




YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2016

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84 (4Fin)

L - 22

Larni, Martti

Zo'raki muttaham yoki to'rtinchi umurtqa: roman. Martti Larni / Ruschadan Sami Abduqahhor tarjimai. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 384 b.

ISBN 978-9943-27-749-6

Fin yozuvchisi va jurnalisti Martti Larning «Zo'raki muttaham yoki to'rtinchi umurtqa» romani 1957-yilda bosilib chiqdi va hozirga qadar Finlyandiyada bir necha bor nashr etildi.

Romandagi voqealar muallif urushdan keyin borib ko'rgan Amerika Qo'shma Shtatlarida sodir bo'ladi. Biroq, Larni amerikacha voqelikni har tomonlama batafsil yoritib berishga intilmaydi. «Zo'raki muttaham yoki to'rtinchi umurtqa» – amerikacha «hayot kechirish»ning ba'zi tomonlarini o'tkir satira tig'iga oladi; yozuvchi asosan mubolag'a va karikaturaga murojaat qilib, hozirgi, bizning kunlardagi Amerika axloqini tasvirlaydi.

Martti Larning o'ziga xos o'tkir tilda yozilgan kitobining tarjima etilishi kitobxonga hozirgi zamon fin adabiyotining o'lmas asarlaridan biri bilan tanishish imkonini beradi.

Ruschadan
Sami ABDUQAHHOR
tarjimai

ISBN 978-9943-27-749-6

© Martti Larni, «Zo'raki muttaham yoki to'rtinchi umurtqa». «Yangi asr avlodi», 2016-yil.

*Do'stim! Do'stim!
Bizni ishonarli tasvirlashga urinma!
Yaxshisi, mubolag'a
qilib gapiraver!
Jerom K.Jerom*

BIRINCHI BOB

QISSAMIZ QAHRAMONI IEREMIYA SUOMALAYNENNING¹ QANDAY QILIB OLAM FUQAROSIGA AYLANGANI

Qahramonimizning ota-onasi o'z farzandlariga nom qo'yishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rishlari kerak edi. Unga Ieremiya Youxanaynen degan nom berishdi. Bu hodisa mana bunday yuz bergan edi: yosh ota o'g'liga nom qo'yish arafasida ulfatlari bilan katta o'tirish qildi. Ertasiga ertalab noshud er xotinidan bema'ni, bir chaqaga qimmat odamsan degan mazmunda bir etak achchiq gaplarni jim turib eshitishga majbur bo'ldi. Shu sababdan ham tiyrak ko'z bolani cho'qintirish va nom qo'yish uchun olib kelishganda ota-ona bir-birovlaridan g'amgin yuz o'girib, chetga qarashardi. Bir yil muqaddam boshlangan turmush osmonida birinchi qora bulutlar ko'lanka tashlagan edi. Buni yolg'iz ruhoniygina sezdi. Bola yaxshi hamki hayotning hali bu tomonlaridan bexabar, uning bilgani faqat yo'rgak bilan onasining qo'llari edi. Cho'qintirish marosimini boshlagan ruhoni ota-onadan bolaga qanday nom qo'yishlarini so'raganda onaning lablari shunday qisildiki, uni iskanjadan farq qilib bo'lmasdi. Bu ishga aralashgisi kelmay turgan ota istar-istamas ming'irlab qo'ydi:

– Bordi-yu, ungayam otasining nomini berib qo'ya qolsak nima qiladi? Ya'ni, Ieremiya Youkaxaynen deb...

¹ Suomalaynen – fin (Suomi – Finlyandiya). – *Tarjimon izohi.*

Nafsilamr gapni aytganda, ikkinchi otni tushirib qoldirsa ham bo'ladi.

Shunday qilib, boshqa taklif bo'lmaganidan kommersant Ieremiya Youkaxaynen Suomalaynenning to'ng'ich o'g'li otasining nomi bilan ataldi. Bu voqea «Viipuri shahrida, xudoyi taoloning 1908-yil, sentabrning to'rtinchi kunida» yuz berdi.

Oradan yetti yil o'tgach, Viipuridagi oddiy bolalarni o'taketgan shumtakalarga aylantirib beruvchi eng yirik korxonona – shahar xalq maktabi o'z ro'yxatiga Yere Suomalaynen deb uning nomini tirkab qo'ydi.

Bola shu nom deb ko'p iztirob chekdi; uning o'qimishli odam bo'lib yetishishida ham ehtimol shu narsa sababchi bo'lgandir. U pedagog bo'lish niyatida universitetga kirdi. Kirdi-yu, uning jazosini tortdi – tahsilni tamomlashi bilan uni to'rt yil muddatga naq Laplandiyaga o'qituvchilik qilgani yuborishdi.

U o'rtamiyona odam bo'lganligidan shunchaki bir oddiy insonligiga darrov iqror bo'la qoldi... Holbuki o'zining jaydari odamligini tan oluvchi kishilar kamdan-kam topilardi. Yere o'qishni davom ettiraverdi. Oradan to'rt yil o'tib, u uch diplomning egasi bo'ldi. Bu vaqt ichida qabariq shishali ko'zoynak taqqan, hassacha tutib bir amallab inglizcha gapirishi, uning asosiy belgilari bo'lib qolgandi. U otasi sinib, bor-yo'g'idan ajralganiga qadar turli tillar va adabiyot bilan shug'ullanishda davom etdi.

Bu paytda Yere odamning sochlari to'kilib, tishlari tushib, xom xayol surish yo'qola boshlagan yoshga etib qolgandi. Ammo u yoshlikka mansub ana shu xususiyatlarni yo'qotmay, jurnalistlik qila boshladi. Onasi vafot etib, dadasi «panoh beruvchi» uyga tushib qoldi. Yere esa uylanishni hamon xayoliga ham keltirmasdi; u yuragi muhabbat dardida o'rtanib sevgan qizining nozik qo'lini so'rab, dadasiga murojaat qilganda nozik qo'l o'rniga qiz otasining tepkisiga duch kelgan yigitlarni ko'p ko'rgan edi.

Yere Suomalaynen «Kundalik yangiliklar» gazetasining chet el bo'limida ishlardi. Garchand u urushni yoqtirmovchi, umrini ilm-fan egallash yo'liga baxsh etgan bo'lsa-da, ikki urushda qatnashishiga to'g'ri keldi. Barcha vijdonli olim odamlarday u harbiy burchini avval batalon oshxonasida, keyin rota mirzasi lavozimida o'tadi va bo'shab ketishiga bir hafta qolganda kapral harbiy unvoni olishga muyassar bo'ldi. Urush tugagach, «Kundalik yangiliklar» uni Londonga o'zining maxsus muxbiri qilib yubordi. Oradan bir yil o'tmay, uni Londondan chaqirib olishdi. Chunki ana shu vaqt ichida u o'zining tanishlariga yozgan maktublaridan bo'lak hech narsa yozib yubormadi. Yereni avvaliga birov bilmagan, keyinchalik jahonga mashhur bo'lib ketgan yozuvchilar kabi jurnalistlar olamida uzoq vaqt hech kim bilmasdi, u qalam bilan o'zini tanitolmasdi, lekin keyinroq uni «kashf etishdi». Yolg'on yozib qancha pul ishlash mumkin bo'lsa, haqiqatni yozib ham shuncha pul ishlash mumkin, deb taxmin qilib yurgan qandaydir bir huquq professori Yere Suomalaynenni o'zining «Haqiqat so'zi» gazetasiga bosh muharrir qilib oldi. Shu kundan boshlab uning e'tiqodi, yakka-yu yagona maqsadi faqat chin haqiqatni yozish bo'lib qoldi. «Haqiqat so'zi» butun borlig'i bilan fosh qilishga kirishib ketib, senzuraning cheklashiga qarshi kurash bilan shug'ullanar, gazetasining egasi – noshir esa nuqul jarima to'lardi. Ularning har ikkalasini ko'p odam yomon ko'rar va ayni vaqtda ulardan hayiqishar ham edi.

Odamlar haqiqatga g'oyat qiziqib qarashlari sababli «Haqiqat so'zi»ning shuhrati tez orada keng yoyilib ketdi. Gazeta o'ziga Shopengauerning: «Haqiqat – duch kelgan har kimning, hatto uni bilishni istamagan odamning bo'yniga osilib oladigan fohisha emas» degan hikmatini, shuningdek, huquq professori Kolunovning o'zi o'ylab topgan: «Agar haqiqat bo'lmasa men bo'riday uvlashga tayyorman» so'zlarini shior qilib olgan edi.

Yere Suomalaynenning nomi shuhrat topib ketdi. Shahar sudida magistr Suomalayneni «dunyodagi o'taketgan yolg'onchi» sifatida darhol ozodlikdan mahrum qilish kerak degan fikrga kelishlariga qaramay, allaqanday kuusamolik bir voiz uni «dunyodagi eng haqiqatgo'y matbaachi» deb atadi.

«Haqiqat so'zi» aksari Finlyandiya va ba'zan boshqa mamlakatlarni dam yoqlasa, dam qoralab chiqardi. Gazeta Adlondagi balda yelkasini yarim beligacha ochib yuruvchi xonimlardan ham battar yalang'och fikr aytish darajasiga borib qolgandi. Tahririyat ana shu hozirgi zamon xonimlari bilan bu borada musobaqa qilmasligi kerakligi, aks holda sudga tushishi muqarrar ekanini unutib qo'yardi. Yere Suomalaynenning haqiqatgo'yligi sekin-asta o'zining bo'ynini bo'g'ib kelayotgan sirtmoqqa aylanib borardi: uni vatanparvar emaslikda va xavfli xom xayollikda ayblab, ovozini o'chirishini, yaxshisi vatanidan chiqib ketishini shama qilishardi.

Ammo Yerening hali aytadigan gapi ko'p edi. Unda aytib ulgurilmagan fikrlar – mehnatkash dehqon omboridagi dondan va yalqov uyidagi axlatdan ko'ra ham ko'proq edi.

U tinimsiz, hormay-tolmay gapirardi. Uni Katayanok qamoqxonasiga tashlab, dam olishga majbur etmagunlaricha gapiraverdi. Yere sakkiz oy jim yotdi. Shundan keyin u fuqarolik huquqidan foydalanib «yotgan joyi»dan chiqqanda ikkinchi marta uni «kashf etishdi».

Bu safar uni Finlyandiyada mehmon bo'lib turgan amerikalik fin «kashf etdi». Yere u bilan tasodifan «Alko» restoranida, bir stolda o'tirib tanishib qoldi. U janobning ismi – Isaak Rivers, hunari – massajchilik, unvoni – «vrach-fizioterapevt» edi. Ko'rinishdan xushchaqchaq bu odamning eng yaxshi ko'rgan ishi – pivoxo'rlik edi. U sochini hamisha tarab, moylashni unutmagani kabi tomog'ini pivo bilan ho'llab turishni ham unutmadi. Bu odam bilan tanishuv uchinchi krujkadan keyin yuz berdi. Ular tanishgan zahotilari bir-birovlarini sensirab gapira boshladilar.

– Mister Suomalaynen, sen yashashing kerak bo'lgan mamlakatda yashamayapsan, – dedi fizioterapevt Yerening tarjimai holi bilan naridan-beri tanishib chiqqach, – sening iste'doding bilan men jahondagi barcha olamshumul narsalar mujassamlashgan Amerikaga allaqachonlaroq ko'chib ketgan bo'lardim.

– Nimani ko'zda tutyapsan, men uncha tushunolmay turibman, – javob qildi Yere. – Axir, kasb-korim oddiy chet tillar o'qituvchisi-yu, jurnalist. Nazarimda Amerikada mening u kasbimga ham, bu kasbimga ham muhtojlik bo'lmasa kerak.

– O, turgan gap, bundaylar achib yotibdi. Bu so'zing to'g'ri. Ammo, boya aytdim-ku, Amerika jahonda hamma narsada birinchi o'rinda. Bilishimcha, sen dunyodagi birinchi haqiqatgo'y odam ekansan, demak, seni Sem amaki quchog'ini keng ochib qarshi olsa ajab emas.

Yere bir nafas xayol surib qoldi. Keyin o'ychanlik bilan:

– Men butun qalbim va jismim bilan fin farzandiman, – dedi. – Buni hatto mening otimdan ham payqash mumkin. Men o'z vatanimni tashlab ketolmayman.

Mister Rivers takabburlik bilan jilmaydi.

– Odam qayerdagi haqiqatni ochiq ayta olsa, o'sha yer uning vatani. Sen yaqin orada butun olam fuqarosi bo'lib ketishing mumkin, biroq otingni... Jerri Finn deb o'zgartirishing kerak! Ha, aytganday, sen ingliz tilini bilasanmi?

– Inglizlarning o'zlari qanday bilsa shunday bila-man, amerikalik finlardan ko'ra yaxshiroq gapiraman, – mag'rur javob qaytardi Yere. Bu paytda u ichkilikdan qoni xiyla qizib, kayfi oshgan odamlarga o'xshab, tilidan maqtanish tushmaydigan bo'lib qolgandi.

– Unday bo'lsa o'key! Juda soz! – xitob qildi mister Rivers. Bundan qirq ikki yil muqaddam, bola paytida u bu yerlarda batraklik qilgan va qadrdon qishlog'i Ilmoy-lada uni Iysakki Yokinen deb atashardi.

– Shunday tasodif yuz berdiki, – deb yozgan bo'lardi yozuvchimiz Xenrikki Yuutilaynen, – barmog'ini ho'llab

taqdir o'zining yangi sahifasini ochdi. Mister Isaak Rivers bilan jurnalist Yere Suomalaynen eng yaqin do'st bo'lib ketishdi. Yere chindan ham butun olam fuqarosi-ga aylanishga ahd qildi, mister Rivers esa kafillikni o'z zimmasiga oldi.

Ertasiga ular Amerika Qo'shma Shtatlarining elchixonasiga borishdi. Mister Rivers elchiga qanday yumush bilan kelganlarini bayon etdi, Yere bo'lsa uning gapini tarjima qilib turdi. Shundan keyin u dadil qadam tashlab, butun kerakli qog'ozlarni jamladi-da, elchixonaga ariza topshirdi. Yere professor Kolunovga muhojirlik ruxsatnomasini olgan zahoti gazeta muharrirligi lavozimidan iste'fo berajagini aytib, ogohlantirib qo'ydi.

Semizdan kelgan, o'n bir chet el universitetning faxriy fan doktori, mitti va yugurdak ko'zlari o'ynab turuvchi huquq professori Yerega boshdan-oyoq nigoh tashlab chiqdi-da, hayrat bilan so'radi:

- Nega bunday qilyapsiz?
- Iqlimni o'zgartirishim kerak ekan, - javob berdi Yere.
- Yolg'on! Siz dunyodagi yolg'onchilarning eng yolg'onchisisiz! Hatto rost gapirayotganingizda ham yolg'on ishlatasiz.
- Gap biror narsa orqali nom chiqarishda, - kamtarlik bilan so'z qo'shdi Yere.
- Siz hamisha nimadandir noliysiz, - so'zida davom etdi faxriy fan doktori, - sizga jannat iqlimi, jahan-namning sara jamoatchiligi bo'lsa. Busiz ko'nglingiz joyiga tushmaydi. Xo'sh, shunday qilib, iqlimni o'zgar-tirish kerak, deng?
- Xuddi shunday. Lekin mening ko'nglimga, ayniqsa, qamoqxona iqlimi uncha o'tirishmadi.
- Oliy maqsadlar-chi? Siz bundan bir yil muqaddam butun hayotimni haqiqatga, faqat haqiqatga bag'ish-layman, deb va'da bergan edingiz. Emil Zolya: «Haqiqat uzoq yo'lga ravona bo'ldi...» degan ekan.
- Men ham yo'lga ravona bo'lmoqchiman, - uning so'zini bo'ldi Yere.

Haqiqatgo'y yurist tank singari Yere sari bostirib kelarkan, uning ko'zlaridan ko'zini uzmay gapni ilib ketishiga sira imkon bermadi.

– Janob magistr, – kinoya bilan so'zida davom etdi u. – Fransuzlarda bir maqol bor: «Boshdagi qasmoqdan qutulishning eng yaxshi yo'li boshning o'zini kesib tashlash». Sizga maslahatim shuki, haqiqatdan yuz o'girish, undan voz kechishning eng to'g'ri yo'li ham muhojirlik ruxsatnomasini kutib o'tirmay shu topdayoq «Haqiqat so'zi» tahririyatini tashlab chiqib ketishdir.

Yerening hayotida bu o'n oltinchi marta kavushining to'g'rilab qo'yilishi edi. Yere darhol mister Rivers bilan uchrashgani «Xelsinki» mehmonxonasiga yugurdi. Lekin u yerda Riversning o'zi tugul soyasi ham yo'q edi. Faqat mehmonlar ro'yxati daftarida: «AQShga qaytib ketdi» degan qisqagina yozuv qolgandi. Yere yana erkin fikr va shaxsiy tashabbus ramzi bo'lib qoldi. Gazetadagi haqiqatgo'ylik faoliyati tufayli u avvalgi kasbi – o'qituvchilikka qaytishi uchun hech qanday asos qolmagan edi. Shu tufayli u ikki yil bir sinfda qolib o'qiyotgan qovoqbosh landovurlarga va chet elga ketayotgan savdogarlarga xususiy yo'l bilan dars bera boshladi: har ikkala toifaning ham til bilishi deyarli bir saviyada edi. Ba'zilarining ikki-uch ingliz so'zini chala-yarim talaffuz etishi uchun barmoq bilan jag'larini ushlab turishga to'g'ri kelardi. Boshqalari bo'lsa ingliz tilini yaxshi o'rganib olsam kerak, degan umidda cho'ntagida darslik olib yurardi. Yere tirikchilik vajidan ularni bu yo'ldan qaytarmasdi.

Oradan yarim yilcha vaqt o'tgach, Yere mister Riversdan quyidagi mazmunda xat oldi:

Bruklin yanvarning oltinchi kuni 1952

Mr Jerri Finn

Senga bu katta olamdan Nyu-Yorkdan salom nahot kelishga hozirlik ko'rib bo'lgan bo'lsang biznesni kengaytirish kerak edi sening yordamingga muhtojman elchixonaga Xelsinkiga xat yozib jo'nashingni tezlashingni ilti-

mos qildim ishlar a'lo ikkovimizga ham pul to-pishning to'la seansini amalga oshirish imkoni bor mo'ljalimcha keyinroq borib gaplashgani-mizdek katta Saksessga ega bo'lasan shun-day qilib qachon kelishingni yoz.

*Senga salom bilan
Mr Isaak Rivers Dostor
881-41 st. Bruklin N. Y.*

Yere doctor Riversga navbat kutib yotganini ma'lum qilib, javob yozib yubordi. Shu damdan boshlab u g'amgin bo'lib xayol daryosiga sho'ng'ib ketdi, Shopen-gauerni o'qiy boshladi. Yere doctor Riversga bir ta-lay haqiqat so'zlarini yozib xumordan chiqishi mum-kin edi. Lekin allaqachonoq oltmish to'rt yoshni urib qo'ygan odamga unda beixtiyor hurmat hissi uyg'onib, bu fikrdan qaytdi. Ochig'ini aytganda, shundan keyin u uzoq saqlangan vino bilan konyaklarnigina hurmat qiladigan odamlar ehtirosiga tushuna boshladi.

Qissamiz oqimini susaytirmaslik uchun ba'zi bir muhim tafsilotlarni tushirib qoldiramiz. Psixologik ho-latlarni chetlab, yanvar oyidan to'g'ri iyunga o'tamiz. Ivan kuni yaqinlashib qolganda Yere Suomalaynen o'zining qurol kuchi bilan Amerika Qo'shma Shtatlari hukumatini ag'darmoqchi emasligi, o'z sha'niga biron siyosiy dog' tushirmagani, olam fuqarosi bo'lishdek oli-janob istak uning qalbida jo'sh urayotgani, har ikkala oyog'i bilan yerda mustahkam turgani, qo'llarini ko'kka cho'zib xudoga iltijo qilayotgani to'g'risida muqaddas qasam ichdi.

Uzoq va har tomonlama qilingan so'roqdan so'ng amaldorlar uning harbiy biletini, barmoqlari izini, o'pkasini, yuragini, siydigini, qon bosimini, oilaviy ahvolini sinchiklab tekshirib chiqishdi. Yere Suoma-laynenning vasiylikka hech kimni olmagani, qonunsiz tug'ilgan bolalari yo'qligi, aliment to'lamasligini, shu-

ningdek nasl-nasabida jinniyu, araqxo'r, ko'p xotinlik, olti barmoqlik, o'g'rilik qilgan yoki qorong'idan qo'rqish kasali bo'lgan hech kim yo'qligini aniqlashdi.

Ehtimol, kitobxon birato'la Yere Suomalaynenning tashqi belgilarini ham bilib qo'ya qolishni istar: bo'yi – olti fut va ikki dyuym, vazni – bir yuz uch amerika qadog'i; irqi – oq tanli; ko'zining rangi – elektr yorug'ida ko'kish-kulrang; kunduz kunlari – ko'k ko'z; sochining tusi – qo'ng'ir, moylab taraganida olmaxonga o'xshab sarg'ish tusda ko'rinadi, yuzi – chuvak, burni – qirra, tishi – o'ziniki. Yana boshqa belgilari shuki, soqol qo'ymagan, tirnoqlarining rangi birmuncha oqish, tizzalari va bilaklarini yung bosgan; fin, shved va ingliz tillarida gaplashadi; ko'zoynaq taqadi, shabko'r; tabiati birmuncha yuvosh, tortinchoq, tajovuzkorlikni bilmaydi, ba'zan g'alati qiliqlar ham qiladi; jumladan, adi-badi aytishib o'tirmay, barmoqlari izini berib, bir dyujina suratini topshirdi. Nechanchi o'lchamda botinka kiyishini aytdi; mutlaqo qarshilik ko'rsatmay chechakka, toshma tifga qarshi emlatdi; bergan barcha ma'lumotlari to'g'ri ekaniga o'z vijdoni va nomusini o'rtaga qo'yib qasam ichdi.

Shunday qilib, Yere Suomalaynen butun olam fuqarosiga aylandi. Finlyandiyadan jo'nab ketishdan ancha ilgari nomini Jerri Finn deb o'zgartirib oldi. Bu haqda «Rasmiy xabarlar» hamda «Kundalik yangiliklar» gazetalarida shunday vaziyatlarda beriladigan maxsus e'lonlar bosilib chiqdi. Shunday qilib, kitobxonga endi janob Yeremiya Suomalaynen degan nomni unutishga to'g'ri keladi. Bizning ham uning olijanob avlodiga hech qanday qo'shimchamiz yo'q. Chunki biz yaxshi bilamizki, har bir avlodning katta bir qismi tuproq ostida yotgani holda mister Jerri Finn hayot yuribdi.

IKKINCHI BOB

**JERRI FINNING XIROAMALIYOTCHIGA
ASSISTENT BO'LGANI VA BOLG'ACHA
SOTIB OLGANI**

Umrida birinchi marotaba okeanni kesib o'tayotgan odamning esida hamma narsadan ko'ra ko'proq qoladigan narsa, kemaning Nyu-York gavaniga kelib to'xtash daqiqasi bo'ladi. Modomiki, bu haqda bizga qadar ham oltmish mingdan ortiq xotiralar kitobi yozilgan va shuncha miqdorda turist byurolarining reklama prospektlari e'lon etilgan ekan, biz bu haqda yozib o'tirmay, mister Jerri Finning to'rt soat davomida qat'iy va har tomonlama qilingan so'roq hamda tintuvga bardosh berib, axiyri kemadan sohilga tushgan fursatini bayon etish bilan cheklanamiz. Mayda rasmiyatdan kelib chiqadigan barcha qoidalarga u imkoni boricha soddadillik bilan qarashga tirishdi, chunki bunday hollarda ma'murlarning ma'lum darajada shubha bilan qarashlari tabiiy joiz ekanini uning o'zi yaxshi bilardi. Avvaliga uni xufiya ravishda qimmatbaho tosh va narkotik mollar olib ketayotgan ashaddiy kontrabandist emasmikan, deb gumon qildilar; keyin siyosiy muhojir, josus, sharmu hayosiz adabiyotlar tarqatuvchi, atomchi-fizik, butun dunyo bo'ylab qidirilayotgan mashhur qotil deb shubha ostiga oldilar. Oxir-oqibatda u ham ko'plar qatori baxt izlab yurgan soddadil odamlardan biri ekanini, janatga tushmasa ham, harqalay cherkov kengashiga qatnashishi mumkinligiga amin bo'lishdi.

Ularni shubhaga solgan narsa uning familiyasi bo'ldi: Qo'shma Shtatlar maxfiy politsiyasi ro'yxatida ikki mingdan ortiq Finn familiyasi erkaklar bor edi. Bordi-yu, Yere o'zining asl familiyasini qoldirganda ham, baribir, uni quvib chiqargan bo'lardilar. Chunki, muhojir amaldorlarning fikrlariga qaraganda, finlarning

o'zlaridan bo'lak hech kimning bunaqa familiyani talafuz etishga tili kelishmasdi.

Harqalay, Jerri tergov xonasida ichki kiyimda u yoqdan-bu yoqqa yurganda ham, bojxona amaldorlari va politsiya xodimlari taftish qilib dastlabki so'roq olib borganlarida ham, derazadan odamni hayratga soluvchi Nyu-Yorkning osmono'par binolari jamollarini ko'z-ko'z qilib, viqor bilan boqqanda ham o'zini yo'qotib qo'ymay, g'oyat yengil sezdi. Tergovchilarning ham kayfiyatlari chog' edi. Chamasi, ularning kayfiyatini chog' qilgan narsa ichki kiyimda yurgan odamning, ya'ni qissamiz qahramonining o'tirib mehnat qiluvchilar toifasiga mansub ekanini bildirib, ishtonining belidan pasti xiyla siyqalanib ketgani bo'lsa kerak.

Amaldorlar mayda-chuyda rasmiyatlarini tamomlagach, Jerrining Amerika tuprog'iga ilk bor qadam qo'yishi bilan qizg'in tabriklab, yangi muvaffaqiyatlar tiladilar va uni sohilda kutayotgan Isaak Rivers qo'liga shaxsan topshirdilar.

Mister Rivers tug'ma optimist edi: u odamlarning har qanday baxtsiz, qora kunida ham ularning yaxshi tomonini ko'ra olish qobiliyatiga ega edi.

– Tag'inam baxti kulgan odam ekansan, oson qutuldung. Ko'plar Ellis-Aylend oroliga tushib, u yerda o'z taqdirlari hal bo'lishini kutib yotadilar. Xo'sh, yuklaring qani?

– O'zim bilan. – Xotirjam jilmayib javob berdi Jerri uncha katta bo'lmagan portfelini silkitib.

– Bor bisoting shumi?

– Shu.

– E, politsiyaning shubhalanganicha bor ekan. Odatda ko'chib keluvchilar o'zlari bilan bir dunyo yo'q yerdagi ashqol-dashqollarini ortib kelishadi. Turgan gap, ular qimmatli xotiralar, albatta...

– Mening xotiralarim yuragimda, – dedi Jerri oshnasi orqasidan qolib ketmaslik uchun odamlar devorini yorib o'tib borarkan.

– Bugun biz shahar aylanmaymiz, to‘g‘ri Bruklinga ketaveramiz, – dedi Isaak Rivers tirsaklarini rosa ishga solib port maydonidan chiqib, avtomobil to‘xtaydigan joyga etib olishganda.

Ularday madori qurib holdan toygan Jerri mashinaga sirg‘alib kirdi-yu, o‘zining bo‘ljajak hamkasabasi yoniga, birinchi o‘rindiqqa o‘tirdi. Oradan bir daqiqa o‘tmay, ular Nyu-Yorkning eng serqatnov gavjum joyiga etib bordilar. Manxetten – Nyu-Yorkning ishchan qismi bo‘lsa, Bruklin – uning yotoqxonasi. Ular ulkan shaharning to‘rt million odami kechasi-yu kunduzi shovqin-suron aralash uxlaydigan ana shu azamat yotoqxonona tomon yo‘l olishdi. Asli o‘zi fin bo‘lgan doktor Rivers mana o‘ttiz yildirki, shu yerda xususiy amaliyot bilan shug‘ullanib keladi.

Jerrining hadeganda umidsizlikka tushaverish kasali bor edi. Darhaqiqat, necha marotaba u ikki qiyin, mushkul yo‘ldan har ikkalasini ham tanlab olib, murodiga yetolmagan, unga qolganda teshikkulchadan faqat teshigi-yu, yong‘oqdan atigi quruq po‘chog‘i tegardi! Mana shu topda u ustoz ko‘rmay mulla bo‘lgan doktor yonida xiroamaliyot haqida uning ma‘ruzasini eshitib ketar ekan, Jerri tobora umidsizlikning mudhish botqog‘iga botib borardi. Axir, xiroamaliyot degan narsada alifni tayoq deyolmaydigan odam kutilmagan-da «doktor»ga sherik va assistent bo‘lib o‘tiribdi!

Ularning baxti kulib Bruklin tomonga eson-omon o‘tib olishdi. Mana, Qirq birinchi ko‘chaga ham yaqin qoldi. Ammo shu dam birdan ko‘cha harakati to‘xtadi. Avtomobillarning bir-biridan o‘tib gudok berishi shu zahoti qu-loqni qomatga keltiruvchi ayyuhannosga aylandi. Borgan sari avjga chiqayotgan bu hayqiriqqa hushtak bilan qich-qiriqlar qo‘shildi. Jerri vahima bilan o‘rtog‘iga qaradi:

– Nima, biron falokat yuz berdimi?

Mister Rivers bosh chayqadi:

– Yo‘q, unchalik emasdir. Bas boylashib aytamanki, bu biz yo‘l berishimiz kerak bo‘lgan bironta tantanali yurishga o‘xshaydi. Kel, ungacha chekib olaylik.

U Jerriga sigareta berib, keyin so'zida ohista davom etdi:

– Bularga ko'nika bilish kerak. Bu yer senga Ko'hna dunyo emas.

Yaqinlashib kelayotgan shovqin hamda ola-g'ovur ichida fan-far bilan barabanlarning ovozi eshitildi. Ana, tantanali namoyishning oldingi safi ko'rindi. Hammadan oldinda ellikka yaqin cho'miladigan kostyumli chiroyli qizlar safi tantanali marsh ostida qadam tashlab kelardi. Ular dam-badam uzun mis trubalarni chalib qo'yar va marsh ohangiga monand go'zal bo'ksalarini silkitib borardilar. Mister Rivers ma'nodor yo'talib oldi-da:

– Ayollar mana shu taqlid kiyinishganda, ayniqsa erkaklar bilan chivinlarga yoqadi, – dedi. – Men bu namoyishni port ishchilarining ish tashlashi bilan bog'liq bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

Ko'chada namoyishchilarning birinchi plakatlari paydo bo'lganda mister Rivers o'z shubhasi noo'rin ekanini izohlashga oshiqdi:

– Nazarimda, men xato qilganga o'xshayman. Bu bor-yo'g'i oddiy reklama shov-shuvi ekan.

Jerri xuddi cherkovda o'tirganday bukchayib, avtomobil oynasidan yarim yalang'och go'zallarni va ular baland ko'tarib borayotgan plakatlarni ko'rishga urinardi. Mister Rivers kulib yubordi.

– Butun mashmashaning sababi mana endi ayon bo'ldi. Bu oddiy sion musiqasi, itoatli gunohkorlar ko'targan dahmaza, gapimga tushunyapsanmi, bu ikki haftadan beri hammayoqqa jar solayotgan yangi diniy oqim.

– Demak, cherkov reklamasi ekan-da? – hayron bo'ldi Jerri.

– Ha, shunga o'xshagan gap. Umuman, bo'lmag'ur, qarashgayam arzimaydigan narsa.

Lekin Jerri qarab to'ymasdi. Biqqa semizligidan yalang'och orqasida bironta umurtqa suyagi ko'rinmayotgan, sochlari och sariq go'zal qiz bir plakatni

boshi uzra baland ko'tarib turardi. Plakatga quyidagi ma'nodor so'zlar yozilgan edi:

Bugun Xagar-skverga millionlab kishilar to'planadi. Bu yerda mashhur pastor Gin Petersen yangi nasroniylik to'g'risida va'z aytadi. Sen ham kell! Bizning birodarlik safimizga kir va unga o'z vasiyatingni qoldir!

Boshqa bir plakatda bundan ham o'tkirroq so'zlar yozilgan edi:

Bizning birodarligimiz abadiy, huzur-halovat bag'ishlaydi.

Mister Rivers cho'ntagidan jajjigina arrachasini olib, tirnoqlarini tekislay boshladi, Jerri bo'lsa shu kunning chaqiriqlarini o'qishda davom etdi:

Pastor Petersenning yangroq pand-nasihatlarini eshitgani shoshiling! U o'n bir bolaning otasi. O'z vazifasini muvaffaqiyatli bajarib yaqinda Afrikadan qaytib keldi. Butun olamga mashhur kino yulduzi Lilian Tutti bizning birodarligimiz safiga kirdi. Sen ham kir! Biz yangi nasroniylik uchun kurashayotirmiz. Bizga g'ayridinlarning po'pisa-do'qlari pisand emas...

Jerri ko'zlarini uqalab, boshini chayqadi. Nazarida, qachonlardir u ana shunga o'xshagan narsalarni tushida ko'rgan edi. Gapiirishga og'iz juftladi-yu, ammo gapirolmadi. Mister Rivers iljayib qo'ydi:

– Bularning bariga ko'nika bilish kerak...

Yarim yalang'och go'zallar namoyishi hamon davom etardi. Sekin-asta Jerrining miyasida qiziq bir kashfiyot tug'ildi: go'zallarning bari xuddi bir tomchi suvday bir-birlariga o'xshar edi. Mister Rivers bunday bir xillik umum standart bilan aniqlanishi, hech kim undan chekina olmasligi xususida donolik bilan tushuntirib berdi.

Tinimsiz oqib borayotgan namoyishning keti ko'rinmasdi. Tez orada ularga ikkinchi orkestr yetib oldi-da, jadal suratda Shopenning allaqanday g'amgin kuyini chala boshladi. Orkestr orqasidan tevaragi qora satin bilan o'rab qo'yilgan yuk mashinasi kelardi. Unga g'oyat ulkan tavrot ortilgan edi. Mashinaning bortlariga kumush suvi yugurtirilgan harflar bilan quyidagi so'zlar yozilgan edi:

Biz hozir tavrotning yangi tarjimasini yarim bahosiga sotayotganimizni iblis bilib qolsa, rosa g'azablanadi.

Jerri ko'zlarini yumdi. Uning xotirasiga onasining: «Juda ko'p odamlar xudoga ishonadi, ammo xudoning o'zi ishonadigan odamlar juda kam topiladi, degan so'zlari keldi.

Aftidan, marosim tugay deb qolganga o'xshaydi, chunki ularni kuzatib kelayotgan olomonning chapak va hushtaklari qattiqroq eshitila boshladi. Namoyishchilar etagida xuddi bitta odamday bir xil och sariq sochli o'nta qiz saf tortib kelmoqda edi. Ularning qo'lidagi plakatta quyidagi so'zlar yozilgan edi:

Ushbu reklama namoyishini quyidagi firma hamda kompaniyalar tashkil qildi va mablag' bilan ta'minladi...

Shundan keyin uzundan-uzoq nomlar ro'yxati, firmanomi va belgilari ko'rsatilib, oxiri chiroyli yakunlovchi jumla bilan tugallangan edi:

Faqat yangi nasroniylikni qo'llab-quvvatlayotgan firmalardangina o'zingizga kerak mollarni sotib olingiz!

Sal kam ikki chaqirimga cho'zilib ketgan namoyish tufayli to'xtab qolgan avtomobillar uyumi yana yo'lga tushdi va sekin-asta yurishi tezlashdi. Mister Rivers to'qqizinchi marotaba:

– Bunga ko'nika bilish kerak, – deb qo'ydi. – Bu senga Ko'hna dunyo emas. A? Iya, nega nafasing chiqmaydi?

– Ha, mutlaqo to'g'ri gap... Lekin buning aksi... Men anavi samoviy sayl to'g'risida o'ylab qoldim... – Jerri shu so'zlarni zo'rg'a ayta oldi.

– U yoqqa ko‘p odamlar borish ishtiyoqida shoshiladi-yu, ammo pachava joyi shuki, u yoqdan hech kim qaytib kelmaydi, – dedi mister Rivers. – Bu to‘g‘rida gapirishning ham foydasi yo‘q.

– Harqalay, g‘alati-da... – xo‘rsinib oldi Jerri.

– Buning hech qanday g‘alati joyi yo‘q. Sen shuni yaxshi bilib qo‘yki, nasroniy ham odam, u o‘z qalbida nafrat hissi sezmagani hamma odamni sevadi.

Nihoyat, mister Rivers o‘zining muddatga bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olgan «pontiak» mashinasini besh qavatli uy yonida to‘xtatdi-da:

– Mana yetib keldik. Bizning Bruklin shu, – dedi.

Mister Riversning kvartirasi ikkinchi qavatda ekan. Eshikka qoqilgan kichik temir taxtakachga: «Doktor Isaak Rivers, xiroamaliyotchi. Qabul kunlari – har kuni» deb yozib qo‘yilgandi. Uning yoniga «Bugun qabul yo‘q» degan qog‘ozcha qistirilgan. Mister Rivers qog‘ozchani sug‘urib olib, mister Finnga qaradi:

– Seni kelishing munosabati bilan bugun o‘ynab oladigan bo‘ldim, – dedi. – Bir necha dollardan quruq qoldim, hay, mayli, hechqisi yo‘q: endi ikkovlashib, umum kuch bilan uni qaytarish chorasini ko‘ramiz.

Jerri qalbida u deb butun bir kundan, faqatgina kundan emas, hatto dollarlardan voz kechgan odamga chuqur hurmat hissi uyg‘ondi. Jerri pul oddiy kunda ham, bayramda ham tinmay ishlashini, protsent va miqdorining ortishini yaxshi bilardi. Odamlar pulni ishlab topishmaydi, uni «yasashadi».

Mister Riversning uni mister Finn uchun sira kutilmagan antiqa sovg‘a bo‘ldi. Yaxshilab jihozlangan, besh xonadan iborat bu uy – juda keng va g‘oyat saranjom-sarishta edi. Oshxona kichik laboratoriyaga o‘xshardi. Qabulxona chinakam vrachlarning qabulxonalaridan farq qilmasdi.

Mister Rivers unga o‘z yotoqxonasida yashashni taklif etdi. U bunday paytlarda aytiladigan odatdagi rasmiy shartni eslatishni ham unutmadi:

– To o'zingni tutib olib, uy-joyli bo'lguningcha shu yerda yashab turasan.

Kelajakni ham belgilab bergan ana shu amaliy taklifdan so'ng hamkasabalar bejirimgina xollda o'tirib, katta krujkada pivo icha boshlashdi. Shu orada birgalashib ishlash, o'zaro yordam, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida ham kelishib olishdi. Olam fuqarosi Jerri Finning endigi vazifasi uning ilgarigi faoliyatlaridan osmon bilan yercha farq qilardi. Jerri avvallari hozirgi zamon romanlaridagi siyqasi chiqib ketgan: «...U shu bugundan boshlab o'z hayotini qayta qurishga kirishdi» degan jummalarga ishonchsizlik bilan qarardi. Mana endi o'zi ham hayotini butunlay yangidan boshlashi kerak. Qarang-a, qanday ajoyib bashorat qiluvchilar ekan bu yozuvchilar!

Erkaklarning kelajagi bo'lsa, ular yaxshi odam xisoblanadi, ayollarning esa, buning aksicha, o'tmishlari bo'lsagina durust ayol sanaladi. Ammo Jerri o'zining na o'tmishi, na kelajagi bor, deb xavotir olardi. Uning o'tmishi dastlabki so'roqda barmoqlaridan iz olishgandayoq tugagan edi, kelajagi bo'lsa, mana xiroamaliyotga kelib taqalyapti. Mister Rivers unga yangicha yashash qoidasini belgilab berdi. Shu bugundan boshlab oshxona yumushi va ovqat pishirish, xonalarni supurish-sidirish, qabulxonani hamisha sarishta tutish, ayniqsa, birgalashib qilinayotgan sherikchilik ishini keng targ'ib-tashviq qilish Jerri Finn zimmasiga yuklandi.

– Men senga har haftada o'ttiz dollardan to'layman – bu sening maoshing. Inneykeyin, olib kelgan har bir bemoring uchun yana bir dollardan qo'shimcha haq beraman. – Yarim soatcha davom etgan pand-nasihatiga yakun yasadi mister Rivers. Bu gap davomida Jerri o'zini o'rindiq bilan devorga qisib qo'yilgan odamday his etdi. U xo'jalikdagi har qanday yumushga rozi bo'ldi, ammo mister Rivers targ'ib-tashviq masalasida og'iz ochganida bechora Jerrining ko'ziga butun dunyo qorong'i bo'lib ketdi.

– Men, haligi, bu targ‘ib-tashviq ishiga butunlay yaramayman, – umidsizlik bilan ming‘irladi u ko‘ylagi yoqasini yechib tashlarkan.

Mister Rivers uchun bu sira kutilmagan gap bo‘ldi.

– Bunga yaramayman, deganing nimasi? Axir, bizning biznes faqat shunga asoslanib kengayishi kerakku! Sening asosiy ishing bemor topib kelish bo‘ladi, meniki esa ularni davolash. Hamma gap mana shunda! Yo‘l-yo‘lakay men senga hunar o‘rgataman. Ikki yilga qolmay doktor bo‘lib chiqasan.

– Doktor bo‘lib?

– Ha! Hozirgi zamon doktori bo‘lib chiqasan – fizioterapevt.

Jerri qo‘li bexos yaxshi ko‘rgan yigiti qo‘liga tegib ketgan qizday ko‘zini yumdi. Ammo mister Rivers o‘zini yo‘qotmadi. U muzlatkichdan yana ikki shisha pivo oldi, sho‘r mag‘iz chaynar ekan, o‘n beshinchi marotaba takrorladi:

– Bunga ko‘nika bilish kerak. Bu yer senga Ko‘hna dunyo emas.

Jerri bosh chayqadi.

– Qanday qilib men xiroamaliyotni targ‘ib va tashviq etaman?

– Qanday xohlasang, shunday. Axir, u Ko‘hna dunyoda hech baloga o‘rganmaganmiding?

– O‘rganganmiz, lekin ana shu xuroamaliyotni o‘tmagan edik-da.

– Albatta o‘tmagansizlar. U yoqda hamma sohalar bo‘yicha orqada qolingani besh qo‘lday ravshan-ku. Eng qizig‘i, ahvollari shu-yu, qanday qilib bir necha pachag‘i chiqqan avtomobil qura olishdi ekan.

Jerri bu gapdan xafa bo‘lmoqchi edi, lekin o‘zining olam fuqarosiga aylangani, milliy g‘urur unga yarashmasligini eslab, bu fikrdan qaytdi. O‘rnidan turib, deraza yoniga keldi. Derazadan Bruklin manzarasi ko‘zga yaqqol tashlanib turardi. Avtomobillar chumoliday izma-iz zich o‘tib borar, yo‘lkalarda odam demagan g‘ij-

g'ij. Hamma qayoqqadir oshiqardi. Odamlar vaqtning har bir daqiqasini pulga chaqib, fursatni g'animat bilardi. Lekin shunga qaramay, ko'pchilik odamda puldan ko'ra vaqt mo'lroq edi.

– Agar xohlasang, sof havoda sayr qilishing mumkin – taklif etdi mister Rivers bir daqiqacha jim o'tirishganlaridan keyin, – faqat uydan uzoqlashib ketma, adashib qolasan.

Mister Rivers, yoshlarga nojo'ya ishlari tufaili o'rnak bo'lolmay zo'r ishtiyoq bilan ezgu maslahatlar beruvchi keksa bo'ydoqlarga o'xshab, Jerriga otalarcha nasihat ohangida gapirdi.

Jerri mister Riversning taklifini ma'qullab, aylanib kelgani otlandi. Xiroamaliyotchi uni ostonagacha kuza-tib chiqar ekan, hamon pand-nasihatini qo'ymasdi:

– Bir soatdan keyin qorong'i tushadi. Mana shundan ehtiyot bo'lish kerak. Bu yer senga odam oyog'i yetmagan pastqam, xilvat joy emas. Hamma vaqt, hamisha nimadir sodir bo'lib turadi. Men hech qachon qurolsiz yurmayman.

– Qurolsiz? – hayrat bilan qayta so'radi Jerri.

– Albatta! Mening cho'ntagimda doimo to'pponcha yuradi. Har ehtimolga qarshi, talonchilar bosib qolishi mumkin. Sen ham qurol topib olsang yomon bo'lmasdi.

Jerri o'zining ustunligini payqab, miyig'ida kuldi-da:

– Hozircha bu mamlakatda mening... dushmanlarim yo'q, – dedi.

– Dushmanlaring yo'q, to'g'ri, lekin puling payida yurganlar yo'q emas. Yaxshisi, oldindan qurol topib olganing ma'qul.

Jerri sherigiga o'zining cho'ntagida atigi uch dollaru, yana bir necha mayda chaqadan bo'lak hech vaqosi yo'qligini aytib, dadil qadam tashlab, odamlar bir-birini quvib o'tishga oshiqayotgan ko'chaga chiqib ketdi.

Dim avgust kuni. Kech kira boshlab, havoni nafasni qaytaruvchi asfalt hidi bosib ketgan. Odamlar o'z bolalarining tarbiyasi bilan shug'ullanmoq uchun sho-

sha-pisha uylariga qaytar edilar. Jerri vitrina oldida to'xtamoqchi edi, shu zahoti o'ng va chap biqiniga turtki tushdi. Nyu-York yotoqxonasi o'larday tor va gavjum edi.

U pirtavolida habashlar so'zlashib o'tirgan sokin bir jin ko'chaga burildi. Ular terisining qoraligi kecha qorong'iligi bilan qo'shilishib ketgandi. Sanqi itlar biron yegulik to-pish harakatida sochilib yotgan qog'oz axlatlarni titishar, navbatma-navbat kichik do'koncha yoniga chopib kelib, goh chap, goh o'ng orqa oyoqlarini ko'tarar edilar. Do'konchada meva va gazetalar; atir va otkritkalar sotilardi. Jerri o'zining xotirasi yaxshiligiga, adashib qolmay qaytib keli-shiga ishonib yo'lini davom ettirdi. Allaqanday tagdarvoza yonida o'tirgan ikki yoshlar chamasidagi bir bola achchiq ko'z yoshi to'kib yig'lardi. Jerri engashib, unga bir sent pul berdi. Bola pulning chaqa ekanini ko'rib, nafrat bilan tosh yo'lga uloqtirib tashladi-da, avvalgidan besh battar bo'kirib yig'lashga tushdi.

Jerri butun vujudi bilan sezgir, nozik tabiat odam bo'lganidan, qushlarni va bolalarni yaxshi ko'rardi. Darhaqiqat, kaptarlar tinchlik ramzi bo'lsa, bolalar ota-onalariga soliqlarni kamaytiruvchi vosita vazifasini bajaradilar. Jerri bolaning yelkalarini silab, undan nega yig'layotganini so'radi. Bola dilidagini ochib soladigan ochiq ko'ngil ekan, bir dam yig'isidan to'xtab:

– Dadam meni aldadi, – dedi, – u muttaham, ablah!

– Yo'q, qo'zichog'im, otang haqida bunday deyishing noto'g'ri.

– Rost aytyapman, u meni aldadi... – Qaysarlik bilan dedi bola.

– Xo'sh, u senga nima qildi? – surishtira boshladi Jerri.

– Menga havo shari olib berdi, uni dunyodagi eng kattasi, dedi.

– Sen bundan xursand emasmisan?

– Yo'q, Tommining shari menikidan katta ekan.

Jerri uning so'zini ma'qullab jilmaydi-da, nariga o'tib ketdi. Bola yerga chalqancha yotib olib, boyagidan ko'ra

yana ham qattiqroq bo'kirib yig'lay boshladi. Uning o'pkasi dunyodagi eng ulkan, eng qudratli o'pkaga o'xshardi.

Allaqanday yo'lakdan chiqqan bir odam Jerrining yo'lini to'sib, sigareta so'radi. Jerri cho'ntagiga qo'l soldi-yu, beixtiyor mister Riversning: avvalo o'zingga qurol sotib ol. Bu yerda har kuni, albatta, nimadir sodir bo'lib turadi, degan so'zlarini esladi. U qurolni sevmas, nima uchundir undan qo'rqardi. Jerri, hatto harbiy xizmatni ham qo'lga qurol ushlamay o'tashga muvaffaq bo'lgan edi. Nima qilgandayam, u axir, taraqqiyot g'oyat imillab odimlagan Ko'hna dunyoda sodir bo'lgan edi-da...

Qorong'i tushib, Jerri orqasiga qaytdi. U uylardan ancha naridan o'tishga, buning uchun pirtavolning eng chetidan yurishga tirishardi. Sal yurgach, uning e'tibori-ni kichkinagina o'yinchoq do'konining vitrinasi tortdi. Omadning kelgani mana shu-da! Vitrinada har turli mayda-chuydalar orasida tuzzukkina bir bolg'acha yotardi. Jerri darhol etikdo'z Yoonas Suxonenni esladi, uni Kuopio shahri chekkasida etikdo'zlik ustaxonasi bo'lardi. Kichik, bo'yi atigi bir yarim metr keladigan, nimjon Yoonas Suxonen hamisha o'zining himoya quroli sifatida ko'krak cho'ntagida bolg'acha olib yurardi. Jerri do'konga kirib, bolg'achaning narxini so'radi. Sotuvchi o'yinchoqni diqqat bilan ko'rib chiqib, hurmat va iltifot bilan dedi:

– Bolg'achaning bahosi o'n besh sent. Ammo yangi mijoz orttirish niyatida sizga uni o'n sentga sotaman.

– O'rab bering.

Keksa, ozg'in, yuzlari burishgan do'kondorning o'z ishining ustasi farang ekani yaqqol sezilib turardi. U odatdan tashqari sergap bo'lsa-da, ayni vaqtda aql bo-var qilmas darajada xushmuomala, gap qaytarishni mutlaqo bilmaydigan o'ta sertakalluf odam edi. Uning basharasi uzoq vaqt oftob yuzini ko'rmagan, so'lib qolgan olxo'rini eslatardi.

– Bu bolakay uchun tengi yo'q, a'lo darajadagi o'yinchoq, – dedi u quvonchli va shodiyona ovozda

bolg'achani qog'ozga o'rab uzatar ekan. – Ko'p ajoyib o'yinchoq-da bu, faqat bolalar derazani sindirib qo'yish-masa bas. Yo bo'lmasam, bir-birovlarini urib, boshlarini yorib o'tirishmasa bo'lgani! Sizning bolalaringiz ko'pmi?

– Yo'q. Uncha ko'p emas, – javob qildi Jerri nima uchundir sholg'omday qizarib.

– Ikkitami yo undan ko'proqmi?

– Ochig'ini aytsam, bironta ham yo'q.

– Juda soz! Men tushunib turibman. Sizning oilangiz yangi mehmon kutyapti... Oldindan o'yinchoq sotib olish – bu juda oqilona ish! Eh, ayting, ayting, ishqilib o'g'il tug'ilsin-da! Qiz bo'lsa ham ziyon qilmaydi. Baribir o'g'ilga ham, qizga ham bab-baravar g'amxo'rlik qilish kerak. Bolalar yosh paytida ota-onaning boshini og'ritishadi, katta bo'lganda yurak o'ynog'i qilishadi. Yo'q, menda shaxsan hech qanday e'tiroz yoki shikoyat yo'q! Mening ikki o'g'il va bir qizim bor...

– Mana, oling, – uning so'zini bo'ldi Jerri do'kondorga o'n sent uzatar ekan.

– Rahmat, tashakkur, janob. Siz o'ta madaniy tilda gapirar ekansiz. Chamasi, biron yerda o'qigan bo'lsangiz kerak?

– Ha, bir hisobga qaraganda shundoq.

– Balki, universitetda o'qigandirsiz, janob?

– Ha, bir necha yil universitetda o'qiganman.

– O'qituvchi bo'lsangiz kerak, shundaymi, janob?

– Ha, janob, siz adashmadingiz.

– Mana ko'rdingizmi, janob, – zo'r ko'tarinkilik bilan so'zida davom etdi chol. – Men odamlar bilan shunchalik ko'p muloqotda bo'lamanki, ularning qo'l harakatiga, gaplashish uslubiga qarab, kasb-korlarini sira adashmay aytib bera olaman. Sizning qo'l harakatingiz va gapirish odatingizga qaraganda o'qituvchi bo'lishingiz kerak. Shunday emasmi? Mening o'g'illarim ham universitetda o'qiydi. Frenk uchinchi kursga o'tdi, Edvin ikkinchi kursda o'qimoqda. Frenkning ishi yirik, o'qishni qoyil qilyapti. Ikki marta surati gazetalarda chiqdi.

Bolakayning kelajagi porloq, tushunyapsizmi azizim, qayd qilaman: uning kelajagi porloq.

– Kim bo'lib chiqadi o'qishni tugatganda?

– Kim bo'lib deysizmi? Men buni bilmayman, ammo hozirdanoq futbol komandasining kapitani. Eh, janob, bilsangiz edi, bu ota-ona uchun qanday quvonch! Turgan gap, Edvinning ham durustgina imkoniyatlari bor. U basketbolga qiziqadi.

– Demak, ular biron ilmga o'qishmayotgan ekan-da?

– Nimalar deyapsiz, janob? Men hozirgina sizga ularning universitetda o'qiyotganlarini aytdim-ku.

– Nahotki, biron hunar o'rganishni ko'zda tutmay o'qishayotgan bo'lsa?

Bunday savoldan o'yinchoqlar sotuvchi do'kondor hayratga tushdi. U Jerrining goh qo'liga, goh yuziga tikilar ekan, nega shu mahalgacha bu laqma odamning boshidan sochlari to'kilib ketmaganiga aqli yetmayotganday ko'rindi. Sotuvchi o'n sent chaqani g'aladonga tashlab, Jerri yoniga yaqinroq keldi.

– Afandim, – dedi u ovozigam mumkin qadar ma'nodor ohang berishga tirishib, – xo'sh, ayting-chi, yosh yigitda bundan ham ortiq porloq kelajak bo'lishi mumkinmi? Agar mening bolalarim zo'r muvaffaqiyat bilan futbol o'ynay olmasa, u taqdirda biron imtihon topshirish hamisha ularning qo'lidan keladi. Edvin vrach bo'lish uchun imtihon topshirmoqchi.

– Bu juda uzoq yo'l, – o'z fikrini bildirdi Jerri.

– Ha, aftidan shunday bo'lsa kerak. Edvin ham bunga ikki yilcha sarf qilish kerak, deb taxmin etayotgan edi.

– Balki, u yigirma yil demoqchi bo'lgandir?

– Yo'q, yo'q. Tug'ishgan singlimning o'g'li bir yil ichida vrachlik imtihonlarini to'la topshirdi. Ha, aytganday, mening ismim – Kronikopelos. Men Gretsiyada tug'ilganman. Sizning familiyangiz-chi?

– Finn. Mister Kronikopelos, siz bilan tanishganimdan benihoya xursandman.

– Xo‘sh, demak, siz Finn. Men bu yerdagi, Bruklindagi bir necha finnlarni taniyman. Jumladan, Albert Finn, ha, aytganday, u sizga xuddi bir tomchi suvday o‘xshaydi. Hozir u Sing-Sing qamoqxonasida. Sizning qarindoshingiz emasmi u, janob?

– Yo‘q, janob...

– Innaykeyin, men yana bir Ivan Finn degan kishini taniyman. Chiroyli yigit o‘zi. Bundan bir yilcha oldin odam o‘g‘irlab qo‘lga tushgan edi. Balki bunisi sizning qarindoshingizdir?

– Yo‘q, janob...

– Yana Jerri Finn degani ham bor. Uyam sizga juda o‘xshaydi. Lekin u sizdan xiyla baland bo‘y. O‘tgan hafta bechoraning omadi kelmadi: bankni urmoqchi bo‘lib turganida qo‘lga tushib qoldi. Balki, o‘sha sizning qarindoshingizdir?

– Ha... Albatta...

Jerri yuzlari sholg‘omday qizarib ketganini o‘ziam sezdi. U o‘yinchoq bolg‘achani cho‘ntagiga solarkan, so‘zlarni buzib gapda davom etdi.

– Mister Kronikopelos, siz bilan tanishganimdan benihoya xursandman. Ehtimol, biz yana uchrashib qolarmiz. Men Jerri Finn bo‘laman.

O‘yinchoqlar sotuvchi bir irg‘ib tushib, hamsuhbatidan o‘zini orqaga tashladi, cho‘qinib oldi, qo‘llarini keng yozib, butun gavdasi bilan kassani to‘sdi. Uning boyadan beri ravon va jadal oqayotgan so‘zlari bir-biriga urilib, battar jadallashib ketdi. Fikr-o‘ylari oto‘yinday gir aylanib, uyiga kech qaytgan erini koyib fig‘oni falakka chiqqan xotinning xom xayollari singari chuvalib ketdi.

Jerri tezroq ko‘chaga chiqib olishga shoshildi. Ko‘chada ikki radio karnayi o‘rnatilgan, xilma-xil yorqin bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan reklama avtomobili dunyodagi eng yaxshi tish pastasini maqtash bilan band edi.

Jerri Qirq birinchi ko‘chaga yetib olganda, o‘zini deyarli uyda deb his qildi. Bu yoqda manzara ham o‘zgar-

di. Ko'zni qamashtiruvchi reklama chirog'lari aql bovar qilmas darajada go'zal va jozibali yong'in tasavvurini berardi. Qizg'ish tovlanib turgan avgustning qora osmoni xuddi do'zaxning orqa devoriga o'xshab tagsiz ko'cha ustida osilib turardi. Nyu-York yotoqxonasi o'z qora chiroqlarini yoqdi, odamlar yotgani hozirlik ko'rardi.

Jerri soatiga qaradi. Vaqt chorak kam yetti edi. U qadamini sekinlatib, vitrinalarni tomosha qila boshladi. Shu palla kutilmaganda allaqanday olag'ovur, olomonning guldurosi qulog'iga chalindi; yo'lovchilar to'xtashdi. O'nlab politsiya avtomashinalari reklama namoyishiga yo'l ochib kelmoqda edi. Oradan bir daqiqa o'tmay, atirgullar bilan bezatilgan ochiq mashina ko'rindi. Unda atrofini to'rt maneken qizlar o'ragan, oq smoking kiygan yosh yigit tik turar hamda olomonni tabriklar edi. Xaloyiq behad zavqlanar, jinni polkaga raqs tushishni yaxshi ko'rgani kabi u har qanday tomoshani sevardi. Ammo olam fuqarosi Jerri Finn buni ko'rib hayratda qoldi. U nima hodisa bo'layotganiga sira tushunib yetmasdi. Allaqanday davangir bir odam uning chap oyog'i panjasini qattiq bosib olgandagina, Jerri undan so'rashga jur'at qildi:

– Kechirasiz, bu yerda nima bo'layotganini aytolmay-sizmi?

Davangir odam Jerri oyog'i ustidan oyog'ini olib, unga befarq nazar solib chiqdi. Reklama mashinasi ancha yaqinlashib qolgandi. Olomonning zavqli qiyqiriqlaridan quloq qomatga kelay derdi. Jerri yonida turgan keksagina bir janobdan yuz berayotgan hodisa tafsilotini bilmoqchi bo'ldi. Ammo u janob quruqqina qilib:

– Nima balo, o'zingiz ko'rmayapsizmi? – dedi.

Ovozlari do'rillab qolgan ikki o'spirin gapga aralashdi. Ular olam fuqarosiga ma'nodor ko'z tashlab, o'zlarini tutib turolmay piqirlab kulib yuborishdi. Ulardan biri:

– Bas boylashib aytamanki, bu yigit hozirgina Texas yoki Alabamadan kelgan, u Nyu-Yorkda nima bo'layotganiga tushunolmay garang, – dedi.

Ikkinchisi uning fikrini tasdiqladi:

– Ha, u biron pastqam burchakdan, tupkaning tagidan kelganga o'xshaydi. Axir, Billi Benksni tanimagandan keyin!..

Jerri chindan ham o'zini dunyoning allaqaysi xudo bexabar burchagida tug'ulganday sezdi. Shu o'spirinlarga madaniy tilda ikki og'iz bir nima deb qo'ymoqchi bo'lib, endi og'iz juftlagan edi, boyagi janob murojaat qilib qoldi:

– Chamasi, siz noqulay bir joyda turib qolganga o'xshaysiz. Nahotki, siz butun Bruklinning faxri va quvonchi bo'lgan bizning azamat Billini ko'rmayotgan bo'lsangiz?

– Marhamat qilib, mening bexabar ekanimni kechiring, – itoatkorona iltimos qildi Jerri. – Afsuski, men chindan ham Billi Benksni va uning nega bunday shuhrat qozonganini bilmayman.

Janob yuziga, birovni ma'rifatga oshna qilish imkoniyatiga erishgan odamda bo'ladigan rohatbaxsh tabassum yoyildi. U beparvo sigareta tutatdi-da, hamsuhbati ongidan nodonlik changini qoqishga kirishdi:

– Billi Benks bruklinlik yigit. U yaqinda jahon rekordi qo'ydi: Billi ikki hafta mobaynida oyog'i bilan emas, ikki qo'lida Bostondan Nyu-Yorkka yurib keldi. Bu har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun rosa chiniqish kerak. Billi xuddi ana shunday toblangan yigitlardan. Mana, endi u boyib ketdi. Bugun unga yana yuz mingni mo'may sanab berishdi!

– Nima uchun, axir? – Soddadillik bilan taajjub ichida so'radi Jerri.

– Shuning uchunki, u endi butun jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan «Pep-Pep» ismalog'ining reklamachisi bo'ladi. Endi uning oldida kelajakning barcha eshiklari lang ochiq. Radio bilan televideniye uni talashib yotibdi, Gollivud kinofilmga qatnashishini so'rab orqasidan yalinib yuribdi.

Olomon siyraklashib, uning katta bir qismi Bruklin qahramoni, shon-shuhrat va boylikka yo'l ochgan Billi

Benks orqasidan ketdi. Jerri notanish janobga qanoatlanarli izoh olganidan minnatdorchilik bildirdi.

– Tashakkur sizga, janob, – iltifot bilan dedi u. – Agar ruxsat etsangiz, yana bitta savolim bor.

– Marhamat.

– Chamasi, Billi Benks kasal yoki invalidmi?

– Nega endi?

– Uning oyog'i falaj yoki shunga o'xshagan biron kasali bordirki...

– Yo'q, bilishimcha, uning hech qanday kasali yo'q. Soppa-sog'. O'zingiz xozirgina uni mashinada turgani-ni, bizlarni tabriklaganini ko'rdingiz-ku!

– Mutlaqo to'g'ri, – qandaydir parishonxayollik bilan uning so'ziga qo'shildi Jerri. – Ammo men hali ham bir narsaga tushunmayapman: odamning ikkala oyog'i soppa-sog' bo'lsa, qo'lda yurishga nima hojat?

Ma'rifat nurini tarqatuvchi sigaretasini bir tomonga iring'itib, jahl bilan Jerriga qaradi. Shundan keyin orqasiga burilib ketarkan, o'ziga-o'zi dedi:

– Nodon! Qanday qilib pul yasash kerakligini tushunmaydi-ya...

Jerri nihoyat, «Doktor Isaak Rivers, xiroamaliyotchi» degan bejirim yozuvli eshik tagiga kelganda o'zini g'oyat kichik, arzimagan odam ekanini butun vujudi bilan his etdi.

UCHINCHI BOB

JERRI FINNING XIROAMALIYOT BILAN TANISHGANI, O'ZINING MASHHUR NUTQINI SO'ZLAGANI

Oradan ikki kun o'tib, doktor Rivers bilan olam fuqarosi Jerri Finn o'zlarining shinamgina oshxonalarida nonushta qilib o'tirishardi. Hurmatli xiroamaliyotchi sherigiga qarab:

– Shu vaqtgacha ishimiz yomon bo'lmadi, – deb so'z boshladi. – Lekin endi biznesni kengaytirishga kirishmoq zarur. Hozir mening atigi ellikka yaqin doimiy

kasallarim bor. Ular ham barmoq orasidan sirg'alib tushayotgan qum kabi birin-ketin qo'ldan chiqib ketyapti. O'nga yaqinini ajal tortib, bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda turibda. Qolganlari, aftidan, tuzalib ketadigan ko'rinadi.

Jerri gapni bo'lmaslik uchun hech nima demadi. Mister Rivers so'zida davom etdi:

– Agar biz yana yangi yuzta bemorga ega bo'lsak, har haftada daromadimiz ikki yuz dollarga ko'payadi. Bili-shimcha, sen shu bugundanoq o'zingning asosiy ishing bilan shug'ullana boshlashing kerak. Xo'sh, bu haqda sen nima deysan?

– Qanday ish bilan?

– Kasal topib kelish-da.

Botinka ichiga tushib qolib, chiqib ketolmagan no'xat singari Jerri og'zidagi ovqati tomog'iga kelib tiqildi. Umidsizlik to'liqini birdaniga ishtahani ham, hayot quvonchilarini ham yuvib ketdi. Nazarida botinkasi oyog'ini qisib, yoqasi ham tor kelib qolganday bo'ldi. Boshqa odamlar hech bo'lmaganda o'zlarining yuraksizliklariga iqror bo'ladilar. Ammo Jerri lom-mim demadi. Biroq mister Rivers kelajakka umid bilan qaraydigan, o'ta optimist, suyak-suyagigacha shu ruh bilan sug'orilgan odam edi. U og'ziga salat solar ekan, o'z dalillarini asoslashga kirishdi.

– Bir haftada ikki yuz dollar qo'shimcha daromad olish – bu hazil gap emas. Shunday qilib, biz avvaldan kelishib qo'yganimizdek, sen topib kelgan har bir bemoring uchun bir dollardan haq olasan. Bugun biz Leykavenyu bilan Xagar-skverda reklama mitingi uyushtiramiz. Sen nutq so'zlab, murojaat qilasan.

– Men?

– Xuddi sen.

– Nima mavzuda?

– Turgan gap, xiroamaliyot haqida gapirasan, ammo aslini olganda, gaping mening to'g'rimda bo'ladi.

– Axir, men sen to'g'ringda hali hech baloni bilmayman-ku?

– Gap shunda, bilmaganing yaxshi-da. Notiq o'zi gapirayotgan narsasini qanchalik kam bilsa, odamlar uni shunchalik zo'r ishtiyoq bilan eshitadilar.

Mister Rivers salfетка bilan lab-lunjini artdida, qo'li bilan silliq moylab taralgan sochini silab qo'ydi. Bir krujka pivo ichib, qorni rosa qappayganini sezgach, sigareta tutatdi. Keyin harsillab-gursillab o'rnidan turdi.

– Shunday qilib, bugun kech soat yettida, – dedi u qat'iy.

Mister Rivers qornini shapatilaganicha o'z xonasiga kirib ketdi. Yangi assistent g'amgin qiyofada oshxonaga yo'l oldi. Iflos idish-tovoqlarni o'zi yuvadigan mashinaga tiqib, Jerri muzlatkichdan bir shisha viski oldi-da, ahvoli-ruhiyasini ko'tarish uchun bir ryumka ichdi. Xuddi shu lahza eshik qo'ng'irog'i chalindi.

– Eshikni och! – o'z xonasidan turib qichqirdi mister Rivers.

Jerri yana bir ryumkani otib, eshikka yugurdi.

– Bemor keldi! – oradan bir daqiqacha o'tgach, xabar qildi u.

– Xonaga boshlab kir, – dedi xiroamaliyotchi va o'rnidan turib, esnaganicha oppoq doktor xalatini kiya boshladi.

Doktor Rivers qabuliga bu bemorning birinchi keliishi edi. Jerri qizarib ketgan ko'zlarida ma'yus qo'rqinch o'ti yonib turgan darmonsiz, nimjon cholga qaradi.

– Ko'ylagingizni yeching! – buyurdi xiroamaliyotchi bemorga. Shundan keyin Jerriga qarab:

– Sen kasallik varaqasini to'ldir, – dedi.

Jerri kartochkaga kasalning shaxsiga oid ma'lumotlarni yozib chiqib, qabulxonada yuz berayotgan manzarani kuzata boshladi.

– Xo'sh, nima shikoyatingiz bor? – so'radi doktor, chol ustki kiyimlarini beligacha yechib, qoqlangan baliqni eslatuvchi gavdasini ko'rsatib yalang'och bo'lgach.

– Oyog'imning mazasi yo'q. Sanchib og'riydi. Zo'rg'a yuraman.

– Ko‘ramiz, – dedi xiroamaliyotchi cholni stol ustiga yotqizar ekan.

Bemorning kasali ko‘z ochib yumguncha aniqlandi. Mister Rivers o‘zining changakday qiyshiq barmoqlari bilan bemorning orqa suyaklariga urib chiqayotib, assistentiga kasalning manbai qayerdaligini ko‘rsatdi:

– Pastdan sanaganda beshinchi umurtqa joyidan siljibdi. O‘ng tomonda – bemaza kemirchak, ana shu asabga tahdid qilib turibdi. Issiq tutish va elektromassaj qilish kerak. Qani, biroz uqalab, chigalini yozaylik-chi!

Mister Rivers massajchiga xos baquvvat barmoqlari bilan kasalning umurtqalarini uqalay ketdi. Chol haddeb og‘riqdan qichqirar, bir amallab stoldan sirg‘alib tushib qochish yo‘lini izlardi. Ammo mo‘jizakor shifokor o‘z o‘ljasini qo‘yib yubormasdi. Har safar u turay deganda yana yotqizib olib, «biroz uqalab, chigal yozish»da davom etardi.

– Voy, og‘riyapti... og‘rib ketdi!... – ingrab yolvorardi bemor, – qo‘yvoring, jon doktor, qo‘yvoring meni!..

Ammo doktor qo‘yib yubormasdi. U har qanday odam tanasining sihat-salomatligi, ruhining tetikligi umurtqalar holatiga bog‘liq ekanini yaxshi bilardi. Shu tufayli shafqatsizlik bilan barmoqlarini bemorning har bir umurtqa suyagi orasidagi bo‘shliqqa sanchar, bu yovuz qiynoqni mamnun iljayib davom ettirar edi. U bemorning gardanidan dumg‘azasigacha, keyin buning aksini qilib, dumg‘azadan gardanigacha barcha umurtqa suyaklarini sanab chiqdi. So‘ngra arfa chalayotganday, bosh barmog‘i bilan butun umurtqalarni bosib o‘tdi. Shu ish bilan band ekan, ayni mahalda hujayralar haqida, asablar holati, moddalar almashinishi va kemirchakli qotishmalar to‘g‘risida ajoyib-g‘aroyib fikrlar aytdi. Bemorning ohista ingrashi rosmana dod-voyga aylanganda doktor uni yupatishga kirishdi:

– Ochig‘ini aytsam, sizning shu mahalgacha tirik yurganingizning o‘zi bir mo‘jiza. Butun umurtqalarinigiz o‘z shaklini yo‘qotgan va ular naq bir dyum chapga siljigan! Innaykeyin, har bir umurtqa ostida kemirchak

paydo bo'lgan. Jumladan, mana, manavi yerda. Mana bu yerda ham!

U bo'yin umurtqalaridan biriga barmoq niqtab ko'rsatdi. Keyin xuddi ksilofon chalayotganday cholingning umurtqalarini birma-bir bosib chiqdi.

– Bo'ldi... Bas qiling... – ingrab derdi bemor. – Majolim qolmadi... o'lar bo'lsam, o'lib bo'ldim...

– Rost-da! Hech bo'lmaganda manavi umurtqa ostida to'planib qolgan kemirchak do'mboqni bir ko'ring! Voy, jin chalgur-ey! Naq sholg'omday keladi-ya! Voy manavi-chi? – u chaqqon, to'quvchi qizning piltakash ninasidan ham jadal harakat qilardi. Barmoqlari bir joyda turmas, yangi-yangi izlanish bilan pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga chopardi. Bemor og'riqdan o'zini qo'ygani joy topmas, rahm-shafqat so'rab tinmay yolvorardi:

– Sizga o'n dollar to'laganim bo'lsin, faqat meni shu qiynoqdan xalos qiling!

– Mening qabul bahom qat'iy – ikki dollar, undan ortiq ham emas, kam ham, – dedi ehtirossiz tyulendek beparvolik bilan doktor.

Baxtsiz, jafokash bemor doktor qo'lidan chiqib ketish uchun butun kuch-quvvatini yig'ib yana bir urinib ko'rdi, ammo mister Rivers o'ljasi makkorlik bilan qo'lidan sirg'alib chiqishi mumkinligini oldindan bilganidan bemor o'z harakatini hali boshlamay turib, doktor yovvoyi mustangga mingan poygachi chavandozday uning ustiga minib oldi. Jerri bunday mudhish tomoshani ko'rishga ortiq toqat qilolmay, kasalga orqasini o'girib oldi. Oradan bir daqiqacha vaqt o'tgach, xonaga jimlik cho'kdi. Doktor bemor ustidan tushib, peshanasidagi terlarini artardi. Keyin u bemorning jonsiz tanasini azob-uqubat to'shagidan ko'tarib, karavotga olib borib yotqizdi-da, Jerriga mutlaqo xotirjam ohangda:

– Cholga bir qultum viski ber, – dedi.

Oradan ikki daqiqa chamasi vaqt o'tgach bemor o'ziga keldi. U bir ko'tarishda stakandagi viskini bo'shatdi. Karavotdan turib, shoshilib kiyina boshladi.

– Ikki dollar. Indinga yana kelasiz, – dedi doktor unga.

Bemor mister Rivers qo'liga ikki dollar tutqazar ekan, minglab jinoiy ishlar tasvirlangan romanlarda yozilganiday, unga zaharxanda nazarda qarab qo'ydi. Mister Rivers bemorga kamzulini kiyishiga yordamlashmoqchi bo'luvdi, chol qat'iy rad etdi va to'ng'illab:

– Shu ko'rsatgan yordamingiz ham yetar, – dedi.

– Darrov ketyapsizmi? – orqasidan chiqdi serg'ayrat doktor va yo'l ustida, stol ustida yotgan bir necha reklamalardan oldi. Ularga doktorning yoshlik yillarida tushgan surati va xiroamaliyotning shifobaxsh kuchi to'g'risidagi chuqur va serma'no, hikmatli gaplari bitilgan edi.

– Ehtimol, siz manavilarni do'stlaringiz orasida tarqatishni istarsiz, do'stlaringiz ham bu yerga kelib yordam va shifo olishi mumkin, – dedi xushnud ohangda doktor bemorga o'zining bir dasta bosma asarlari to'plamini – reklamalarni uzatdi.

Bemor g'oyat chiroyli qilib bosilgan matnlarga, hatto qayrilib ham qaramay, reklamalarni dastasi bilan polga irg'itdi-da:

– Uyalsangiz bo'lardi! – dedi xitob qilib.

Shundan keyin u shoshilib, o'zini eshikka urdi, xayr-ma'zurni nasiya qilib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Mana shundaylar ham uchraydi, – dedi mister Rivers sodir bo'layotgan butun voqealarni indamay, beparvo kuzatib o'tirgan assistentiga gap uqtirar ekan. – Ba'zilar birinchi davolashdagi ana shu tekshirishni ko'rib kapalaklari uchib ketadi. Lekin keyin baribir yana kelishadi.

U jumlasini tugatmay, ko'cha eshigining qo'ng'irog'i sabrsizlik bilan jiringladi.

– Eshikni och, – dedi mister Rivers, – bemorni xonaga boshlab kir.

Eshik tagida hozir chiqib ketgan bemor turganini ko'rib, Jerri ko'zlariga ishonmay, orqasiga tisarildi. Bemor shaxdam qadam tashlab qabulxona tomon yurdi.

– Men qo'ltiqtayog'imni unutib qoldiribman, – dedi u muloyimlik bilan.

– Kechirasiz, men ham sezmaabman, – deya javob qildi doktor. – Mana u, marhamat! Menga qarang, aytgan gapim esingizda bo'lsin-a, indinga yana kelasiz.

Bemor hech nima demadi. U faqat eshikka yetganda, go'yo ozgina xijolat tortayotganday iymajibgina so'radi:

– Soat nechada?

– Soat ikkida, janob...

– Rahmat, doktor.

Mister Rivers polda sochilib yotgan reklamalarni yig'ishtirib olib, unga uzatdi:

– Manavilarni ham unutmang.

Bemor ularni olib, cho'ntagiga solarkan:

– Shu bugunoq butun tanish-bilishlarimga bo'lashib beraman, – dedi. – Ha, shunday! Shifo talab odamlar juda ko'p... Yana bir bor tashakkur sizga, janob doktor!

Betoblik qiynab, sillasini quritgan, o'larday ozg'in, faqat yakshanba kunlarigina jon kiradigan bu nimjon odam qabulxonada qo'ltiqtayog'ini unutib qoldirgandi. U xudo borligini ham uzun quloq gaplardan eshitganu, lekin shunga qaramay o'zining hozirgacha tirik yurgani uchun xudoga ming qatla shukur qilardi. Chol chiqib ketgach, mister Rivers bilan olam fuqarosi Jerri Finn bir qultumdan viski ichishib shu bugungi kun rejasini tuzishga kirishdilar. Biznesni kengaytirish, xiroamaliyot mo'jizalarini xalqqa yetkazish kerak edi. Bu olijanob tabiblikning muxlisi va davomchisi qilib, bir vaqtlari Ko'hna dunyo, olamdagi yagona haqiqatgo'y deb atagan mister Jerri Finn tanlandi; mana, endi u tabibga bemor yetkazib berishga hozirlik ko'rmoqda.

Xagar-skver–Bruklinning «odam eng gavjum» qismi bo'lib, bu yerda ozod mamlakatning ozod fuqarolari o'z fikrlarini so'z erkinligi huquqlaridan foydalanib, bemalol bayon eta oladilar. Bu yerda har kim o'z gapini ma'qullab, o'zganing gapini chipakka chiqarishi mumkin. Erkin fikr bayon qilish shu darajaga borib yetgan-

ki, hatto parkda asli joyi faqat Garlem bo'lgan habash ashulachisi Marian Andersonga qo'shiq aytishga ruxsat berishgan.

Kun odamga xush yoqadigan darajada iliq bo'lib, muzqaymoq bilan koka-kola sotish uchun benihoya qulay edi. Shuningdek, butun jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan hamda jonga teguvchi terlashga qarshi dorini keng ko'lamda targ'ib etgan «Transpirant» shirkati ham katta faoliyat ko'rsatdi. Ularning shiori: «O'z yaqinlaringizni qo'lansa ter hidi bilan azoblab nima qilaszlar? «Aysedora»ning atigi bir necha tomchisi sizni bu yoqimsiz terlashdan butunlay xalos etadi!»

Soat millari yettiga yaqinlashib borardi. Oq smoking kiyib olgan Jerri Finn doktor Rivers bilan parkning yonbosh xiyobonida sayr qilib yurarkan, o'zini haqiqiy erkak kabi tutishga tirishardi. Uning butun vujudini allaqanday og'ir va noma'lum bir vaziyat qoplab olganidan u o'zini battar yo'qotib qo'ygandi. Ammo, doktor Rivers, biz avvallari ham qayd qilib o'tganimizdek, hamma narsaga optimist ko'zi bilan qarardi. Shu sababdan unga har qanday vaziyat oldindan ravshan, hech bir jumboqli masala bo'lmasdi. U shu topda odamlar oqimi to'ldirayotgan Leyk-avenyuga umid ko'zi bilan qarardi. Uning hayotida yuz berishi kerak bo'lgan va u sakkiz yuz dollar to'lab tashkil qilayotgan buyuk parvoz sodir bo'lishi kerak edi. Ana shu parvozni uyushtirishni jahonga mashhur «Sterling va uning o'g'li» reklama firmasiga topshirgan edi.

Soat bir daqiqa kam yettida birinchi fanfar sadolari eshitildi. Allaqaysi bir darvozadan radioavtomobil chiqib keldi. Uning karnaylaridan hammaga taniqli sho'x kuy taralardi. Kuy orasida dam-badam qisqacha axborot takrorlanardi: «Kasallik yengildi! – Odam hayoti uzaytirildi! Bu reklama emas, aniq fakt! Bu mutlaqo to'g'ri ma'lumot! Jahonga dong taratgan professor Jerri Finn nutq so'zlaydi...»

Jerrining a'zoyi badanini titroq bosdi. Oppoq smokingning qo'ltig'i osti muzdek terdan qorayib qoldi,

ko'zoynagini tuman pardasi qoplab, xiralashib ketdi. Ammo doktor Rivers shanba kuni jon kirgan dangasaday jonlanib ketgandi. U barmoqlarini qirsillatib, Jerining biqiniga ohista turtib qo'yarkan, zavq bilan gap ma'qullardi:

– Jerri, do'stim! Qara, anavi yoqqa qara! Yo'q, ular mendan sakkiz yuz dollarni harqalay, bekorga shilib olishmabdi!

Jerrining ko'zi, mast odam oldida faqat chayqalib turgan tumanni ko'rganday, tumandan bo'lak hech nimaning ilg'amasdi.

Ohista yurib kelayotgan radioavtomobil tevarakatofga maqtov atrini socha-socha parkning markaziy xiyoboniga burildi. Mashina orqasidan qo'llariga katta plakatlar ko'tarib olgan to'qqizta yarim yalang'och go'zal qizlar kelishardi. Ularning bari xuddi bir tomchi suvday Merilin Monroga o'xshardilar. Dunyoning gadoy topmas bir chekkasida yashab, katta bo'lgan Jerri Finn, mana shu Merilin Monro dunyodagi xotin zotining eng xarakterli tipi ekanini, qariyb ikki oydan beri shu tip xotinlar go'zalligining andozasi etib tasdiqlanganini mutlaqo bilmasdi. Merilin Monro – ayollar uchun namuna, andoza, norma edi.

Radioavtomobil parkning markaziga yetganda to'xtadi. Barcha Merilinlar xuddi soqchi farishtalarday tevarakka saf chekdilar. Ular chindan ham farishtalarga juda o'xshardilar: ularning jozibali gavdalariga bu dunyoning liboslari kiydirilib, qaynab o'tirilmagandi.

Bir necha daqiqa ichida butun Xagar-skver odamlar bilan liq to'ldi. Olomon orqasidan bir qadam qolmay muzqaymoq va koka-kola sotuvchilar, har xil xayr-ehson jamiyatlarining vakillari – sadaqa yig'uvchilar, nihoyat, dunyodagi ustasi farang olg'ir kissavurlar izma-iz kelardi. Milliy gimn sadolari yangradi. Shundan keyin suxandon jimlik saqlab, quloq solishni iltimos qildi.

– Hozir gap millionlab dollarni saqlab qolish ustida boryapti.

Mister dollar haqida gap borgan joyda hamma mustasnosiz quloqqa aylanadi. Bu yerda ham darhol jimlik cho'kdi, suxandon hech qanday monesiz so'zida davom etdi:

– Amerika xalqi o'tgan yil mobaynida kasalxona bilan doktorlarga qatnagani uchun sakkiz milliard dollar mablag' sarfladi. O'zingiz bir o'ylab qarang-a, bu kishi boshiga necha dollardan tushadi! Agar professor Jerri Finning oqilona maslahatlariga quloq solinsa, bu raqamni bir necha barobar kamaytirish mumkin bo'ladi. Biz bugun xaloyiqqa jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan professor Jerri Finni taqdim etish sharafiga muvassar bo'lganimiz bilan behad faxrlanamiz. Qani marhamat qiling, mister Finn!

Professor Finn shalpaygan qadam bilan minbarga chiqdi. Merilinlar faxriy qorovul kabi uning atrofini qurshab olishdi. Xuddi shu lahzaning o'zida radioavtomobildan uch marta tantanali fanfar sadolari yangradi. Olomon qizg'in qarsak chalib, minbarga va uni o'rab turgan hozirgi zamonning to'qqiz nazokatli sarvqad malaklari yoniga yaqinroq surilib keldi. Bu hol odamning yuziga qaramaydigan nudistlar klubini eslatardi.

Jahondagi eng buyuk haqiqatgo'y, olam fuqarosi Jerri Finn o'z nutqini bunday deb boshladi:

– Qimmatli fuqarolar! Ma'lumki, har bir odamda umurtqa yoki orqa suyak bo'ladi. Ular turli xil. Ba'zi odamlarda umurtqalari xuddi alifday to'g'ri, boshqa birlarida qiyshaygan bo'ladi. Umuman olganda, mutlaqo umurtqasiz odamlar ham yo'q emas. Jumladan, bunday shaxslar toifasiga ko'pgina davlat arboblari, kongress a'zolari va ba'zi bir erkaklar kiradi. Bunday odamlarga odatda hayotda ko'pgina mushkulotlarni boshdan kechirishga to'g'ri keladi, chunki umurtqasiz odamni hech kim hurmat qilmaydi...

Gulduros, ma'qullagan ovozlar Jerrining so'zini bo'lib qo'ydi. Olomon qisib qo'ygan, quvonch va shodlikdan yuragi yorilib ketay degan doktor Rivers peshanasidagi yirik ter donalarini artdi. Projektor-

lar o'zlarining o'tkir nurlari bilan osmonni qilichdek kesdi. Jerri cho'ntagidan nutqi yozilgan qog'ozni olib, so'zida davom qildi:

– Kasalning qanday balo ekanini o'zinglar yaxshi bilasizlar. Har bir maktab bolasi ko'zoynak taqadi, yasma tish qo'yadi, me'da kasaliga giriftor, bo'ladi, tama-ki yo'taliga chalinadi. Kattalar ham bundan mustasno emas, ularning har birida agar tekshirib ko'rilsa, biron og'ir kasal topiladi. Xo'sh, bularning bari nimadan? Bunga sabab shuki, odamlar o'zlarining orqa suyaklari bilan qiziqmaydilar. Butun olamga dong taratgan ameri-ka vrachi, doktor Palmer birinchi marta xiroamaliyotchi-lar maktabini tashkil qilganida hamma unga kulgan edi. Hozir hech kim kulmaydi. Chunki, umurtqalarning noto'g'ri holati asab tarmoqlarini qisib qo'yishi va bu-ning orqasida odamda minglab kasalning paydo bo'lishi isbotlab berildi. Shunday qilib, umurtqalarni o'z joyi-ga qo'ymoq zarur – hech shubha yo'qki, ular albatta o'z joyiga qo'yiladi, tabiiy holatiga keltiriladi! Buning uchun siz vaqtni qo'ldan boy bermay xiroamaliyotchi-ga murojaat qilishingiz kerak. Bruklin faxrlansa arziy-digan, o'zining beqiyos davolari bilan cho'loqlarni oyoq-qa turg'izgan, mayib-majruhlarni raqsga tushira olgan dunyodagi eng yaxshi xiroamaliyotchi, mashhur doktor Isaak Rivers shu yerda yashaydi!

Mana shu so'zlar aytilgan fursatda merilinlardan biri xaloyiqqa qo'lidagi plakatini balandroq ko'tarib ko'rsat-di. Unga atigi birgina so'z: «Chapak chalinglar» deb yo-zilgan edi. Olomon gulduros chapak chalib yubordi. Ra-dioavtomobildan yana fanfar sadolari yangradi. Shun-dan so'ng professor Finn so'zida davom etdi:

– Mana, o'zinglar ham ko'ryapsizlar, mening yonim-da dunyodagi eng go'zallarning go'zali to'qqiz farishta turibdi...

Uning so'zi yana og'zida qoldi. Olomon orasida turgan ayollar hushtak chalib, g'ala-g'ovur ko'tarishdi. Ularga javoban erkaklar ovozlari boricha «ura» deb baqirishdi.

Avtomobildagi suxandon olomonni tinchlanishga chaqirdi. Mister Finn gapini qolgan joyidan oldi:

– Mana shu go‘zallarning xaloyiqqa yaxshi ko‘rinib turgan pastdan sanaganda to‘rtinchi umurtqalariga-cha bir qaranglar-a (shu-payt merilinlarning baribir-dan orqalariga o‘girildi), ular xuddi nafis san‘at asariga o‘xshaydilar. Siz ularning umurtqalaridan bironta nuqson topa olmaysiz. O‘z vaqtida doktor Isaak Rivers-ga murojaat qilgan har bir kishi ana shunday benuqson va jozibali qomatga ega bo‘lishi mumkin. Esda tutinglar: doktor Isaak Rivers! Qirq birinchi ko‘cha, sakkiz yuz saxon birinchi uy. Keyinchalik yuz beradigan qabul vaqtidagi ur-to‘polonda mayib bo‘lib qolmaslik uchun oldindan doktor qabuliga yozilib qo‘yinglar! Isaak Rivers sizni har qanday kasaldan xalos etadi. Keksalar o‘z yoshligiga qaytadi, dafn etish byurosi ishsiz qoladi. Yaxshilar, esda tutinglar: Isaak Rivers! Xiroamaliyot butun jahonni qoyil qiladi. Bir vaqtlar kelib jam-miki cherkovlar Isaak Rivers haqiga duo o‘qiydi. Shuni esda tutingki, biz umurtqalarimiz tufayligina hayotmiz. Qani kelinglar, butun olamga dunyodagi eng yaxshi umurtqalar faqat bizda, bizning Amerikamizda ekanini ko‘rsatib qo‘yaylik...

Jerri nutqini tamomlashi bilan radioavtomobildan uzluksiz lentaday xitob yangradi: «Isaak Rivers, Isaak Rivers, Isaak Rivers, Isaak Rivers...»

Sakkiz yuz dollarga tushgan bu tomoshaning oxiri munosib natija bilan tugadi: barcha merilinlar xuddi bir odamday xalq orasiga keng yoyilgan «Jonginam, yelkang qalbimni o‘rtar» ashulasini boshlab yuborishdi.

Doktor Rivers minbarga chiqar ekan, bir vaqtlari o‘z vatanida o‘rgangani allaqanday qo‘shiqni xirgoyi qilib borardi:

*Amerikada shunday
Tugma bossang bas –
Barcha ish yurishar,*

*Bari bitar, rost.
Amerikalik qirol
Shod yashar shundoq.
Apelsin yeb, tugma
Bosadi quvnoq...*

Jerri Finn, hatto o'z so'ziga o'zi ishonmay qoldi. U zig'ircha tasavvurga ega bo'lmagan narsasi to'g'risida butun boshli nutq so'zladi. Jerri eski vatanida odamlar ba'zida shunday qilishlarini eslab, o'zini yupatdi. Uning xotirasiga xalq xo'jaligi bo'yicha o'zini mutaxassis deb bilib, hatto doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan bir tanishi keldi. U dissertatsiyasiga manba qilib telefon kitobi bilan bir necha eski xalq qo'shiklarini olgan edi. Chamasi, u ham o'z kasbi kori xususida durustgina o'ylamagan ko'rinadi.

TO'RTINCHI BOB

JERRINING XIROAMALIYOT BILAN SHUG'ULLANA BOSHLAGANI VA O'Z BOLG'ACHASINI BIRINCHI MARTA ISHGA SOLGANI

Reklama chindan ham ajoyib mo'jizali kuchga ega, u odam o'zi ilgari bor-yo'qligini xayoliga ham keltirmagan narsani keyinchalik uning hayotiy zaruratiga aylantirib qo'yadi.

Mana, hozir ham shunday bo'ldi: minglab bruklinliklar erta-yu kech o'zlarining umurtqalari to'g'risida o'ylaydigan bo'lib qoldilar. Xotinlar Merilin singari benuqson qomatga erishishga, sira tortinmay to'rtinchi umurtqagacha yechinib, yalang'och yursa bo'ladigan darajaga yetishishga harakat qila boshladilar. Qisqasi, umurtqa jamoat fikrini uyg'otib, hammayoqni to's-to'polon qilib yubordi. To'g'ri, ba'zi hayosiz odamlar, jamoat fikri bu qandaydir biron shaxsning fikri, epidemiya ana shundan boshlanadi, deb isbot qilishga urinadilar. Ammo hamma vaqt tevarak-atrofidagi odam-

larda ishonchsizlik tug'dirish, barcha narsadan uning qadr-qimmatini emas, faqat bahosini qancha turishini surishtiruvchi surbetlar haqida gapirib o'tirishdan nima ma'ni? Kim biladi deysiz, balki ular ilk muhabbat bilan uylanib, shu ahvolga tushib qolishgandir!.. Yaxshisi, keling, kutilmaganda shov-shuv uchun mavzu, a'lo darajadagi daromad uchun manba bo'lib qolgan mister Riversning doktorlik tajribasi haqida gapiraylik.

Hali tong otmay turib, doktor Isaak Riversning qabulxonasi oldida uzundan-uzoq navbat paydo bo'la boshladi. Soat to'qqiz yarimga yetganda navbatning keti naq chorak milga cho'zilib ketib, politsiya ma'murlari bemorlarga tartib nomerlari ulashib chiqishga majbur bo'ldi. Soat o'n birga borib doktor Rivers bemorlardan olinadigan qabul haqini uch dollarga oshirdi. Shundan keyin ham navbat bo'shshamadi – undan faqat ikki kishi chiqib ketdi. Chiqib ketganlarning biri o'larday xasis bo'lib, bermoqchi bo'lib turgan ikki dollarni ham savdolashishni ko'ngliga tugib kelgandi. Ikkinchi bemor iqtisodchi professor bo'lib, bundan atigi bir necha kun burun inflyatsiyaning halokatli roli haqida kitob nashr ettirgan edi.

Qabulning birinchi soatlari xiyla sarosimali o'tdi. Ammo keyinchalik doktor Rivers va uning yordamchisi professor Finn ishlab chiqarishda o'zini yaxshi oqlagan, oshirilgan talabni bekamu ko'st qondirish imkonini beruvchi seriyali-uzluksiz ishlash usulini eslab qolishdi. Keng xonada shu zahoti ikkinchi xona barpo etilib, bu yerda bemorlarni professor Finn qabul qila boshladi. Bemorlarning jinsi masalasi – kim erkaklarni, kim ayollarni qabul qilishi chek tashlash yo'li bilan ajrim qilindi. Taqdir Jerri Finnga bemor ayollarni qabul qilishni ravo ko'rdi.

U bir yo'la to'rt bemorni qabul qilar ekan, o'z mehnatini quyidagi tarzda taqsimlab oldi: birinchi bemorning umurtqasini ko'rib bo'lgunicha ikkinchi bemor tog' quyoshi nurini qabul qilib turadi, uchinchi bemor ki-

yinayotganida to'rtinchisi yechinadi. Bu samarali usul juda qo'l kelib, professor bir soatda sakkiztadan bemor ko'rishga ulgurardi. Shunday qilib, uning daromadi bir soatda yigirma to'rt dollarga yetdi. Ammo doktor Rivers hamon undan norozi edi. Jerri pul maydalamoq uchun uning xonasiga kirganida, doktor Riversning o'zi bir soatda o'ntadan bemor qabul qilayotganini aytdi. Tushdan keyin bu jadal sur'at yana ham oshirilib, doktor har soatda o'n ikkitadan odam ko'ra boshladi. Bunday jadal sur'atga u quyidagi usulni qo'llab erishmoqda edi: ikki bemorni bir yo'la stolga yotqizib har ikkalasining umurtqalarini bir mahalda tekshirishga kirishadi. Bu yangi usulning yana bir nozik hamda ustun tomoni shu ediki, har ikkala bemor ham davolanish paytida bir-biridan uyalib baqirib-chaqirmas, dod-voy qilmas, tishini tishiga qo'yib, hamma qiynoqqa chidab berardi.

Qoq tush mahalida ular sakkiz daqiqali tanaffus e'lon qilib, ovqatlanib olishdi. Bu orada bemorlar ham biron nima tamaddi qilib olishlari mumkin edi.

Tanaffusdan keyin zo'r berib ishlash, safarbarlik yana ham yangi sur'at bilan davom ettirildi. Soat oltiga borib doktorlar qabul qilgan bemorlarning soni uch yuztadan oshib ketdi. Soat sakkizda qabulni to'xtatishdi. Keyingi uch kun davomida bemorlar yog'ilib kelishda davom etdi. Shundan so'ng oqim sekin-asta siyraklasha boshladi. Birinchi hafta ichidayoq doktor Rivers reklama uchun sarf qilgan xarajatlarini to'la qoplab, bankka qo'ygan jamg'armasi yana bir ming dollarga ko'paydi. Professor Finnga jami bo'lib sakkiz yuz dollar tegdi. Bunday moddiy baza qahramonimizning dunyoqarashini sezilarli darajada o'zgartib yubordi. Shu mahalgacha uning eng yaqin samimiy do'sti, sevgan narsasi o'zining ich ko'ylagi edi. Endi bo'lsa o'zidagi iliq samimiyat va zavqli his-tuyg'ularning bari ana shu pulga o'tganini sezib qoldi. To'g'ri, shunday damlar ham bo'lardiki, u pulning o'ziga bunday yaqinligini tan olmasdi. Lekin bu ko'ngilchanlik bilan aytilgan gapni har zamonda bir

eshitishga to'g'ri kelardi. Shunday qilib u o'zi ham kutmagani holda umurtqalar doktori – allaqanday zo'ra-ki muttaham, firibgar bo'lib qoldi. Bo'lib qoldi-yu, o'z taqdiriga qarshi borishni istamadi. «Kasal ko'rgan» birinchi kunlarda yomon uxladi. U tuni bilan karavotda yotar, uxlashga urinar, nuqul sovliqlar sanab chiqar edi. Chunki kun bo'yi sigir bilan qo'ylarni ko'ra berib me'dasiga tegib ketardi.

Kunlarning birida uning qabuliga yoshi nechadaligi noma'lum bo'lgan bir xonim keldi. Uning og'zida ham, barmoqlarida ham tilla yarqirardi. Jerri undan yechinishini iltimos qilganida, xonim boshqa bemorlarga ikkilangan nazarda qarab olib, ohista dedi:

– Men doktor bilan tanho gaplashshoqchi edim.

Oradan yarim soat o'tib, xonim o'zi istagan imkoniyatga erishdi. Xonimning doktorga tikilgan nazarida hayrat, chuqur hurmat, ayni vaqtda qo'rqinch hislari omitxa bo'lib, ta'rifga sig'maydigan ifoda kasb etgandi. Olamdagi barcha vrachlar kunda bemorlarning ana shunday nazarlariga duch keladilar. Ular ko'ziga esa doktorlar allaqanday sehrigar odam bo'lib ko'rinadi. Jerri yangi kartochka olib to'ldira boshladi.

– Ismingiz?

– Agnes Louson... El-o-u-es-o-en, – javob berdi xonim.

– Turmushga chiqqanmisiz?

– Ha, albatta.

– Yoshingiz?

– Mening yoshimmi... Nima, buni yozish juda zarurmi?..

Kitobxonga avvaldan ma'lumki, Jerri Finn – sipo va muloyim odam. U hozir ham ana shu nozik masalaga chap berib, ayni muddaoga o'tdi:

– Xo'sh, qayeringiz og'riydi, xonim?

– Ochig'ini aytganda... men soppa-sog'man, – u gapini ancha uzoqdan boshladi. – Men o'zimni yaxshi sezaman. Asosan, siz bilan erimning sog'lig'i xususida maslahatlashib olgani huzuringizga kelgan edim.

– Nega eringizning o'zi vrachga murojaat qilmaydi? Yoki u yurolmaydimi, o'zi kelib uchrashish imkoniga ega emasmi?

– O, u yuradi, kelib uchrashishi ham mumkin, ammo... Ruxsat etsangiz men cheksam?

– Marhamat, marhamat, xonim.

Jerri xonimga chekish uchun olov tutar ekan, ayni vaqtda unga yana bir sinchiklab ko'z soldi. U g'alati bir his bilan uning yuziga, yorqin oq-sariq sochlariga qaradi. Oldida ellik yoshlar chamasidagi Merilin Monro o'tirardi. Aftidan Louson xonim yuragida katta bir sirni saqlab yurgan bo'lsa kerak. Jerri zo'r qiziqish bilan uning so'zini tinglashga shaylandi.

– Bizning turmush qurganimizga uch oy bo'ldi, – ohista so'z boshladi ayol. – Aniqroq qilib aytsam, uch yarim oyga qadam qo'ydi. Nazarimda hamma narsa joyida-yu, lekin erim menga nisbatan xiyla sovuq... Turgan gap, u juda xushmuomala, sertakalluf va jonkuyar, ammo ayni vaqtda xuddi begona odamday o'zini yot sezadi. U shu mahalgacha biron marta menga yaqin kelgani yo'q. Siz doktor, mening nima haqda gapirayotganimga tushunib turibsiz, shunday emasmi?

– Ha, albatta. Davom etavering.

– Men uning bundayligi sababiga tushunolmay hayronman. Erim faqat yelkamga qoqadi-yu, shu bilan cheklanadi. Bunga, axir, chidab bo'ladimi! Siz gapimga tushunib turibsiz-a, doktor?

– Ha, albatta. Tortinmay ochiq gapiravering.

– Shu bilan beshinchi marta erga tegishim. Erkak kishining bunday sovuqligi menga juda g'alati tuyuladi. Axir, bu xotinlarni haqorat qilish, tahqirlash-ku! Yosh qizchalar bilan ana shunday munosabatda bo'lish mumkin, ammo ayollar bilan emas-da. Doktor, sizdan erimni yaxshilab tekshirib ko'rishingizni iltimos qilardim. Men erkaklarning bunday sovuqqonligi umurtqalarga bog'liq bo'ladi, deb eshitgan edim...

Jerri ayolning bo'yalaverib qaroqchilar niqobiga o'xshagan, ifodasiz yuziga qaradi. Uning ko'zi oldida

to'yi kuniyoq qanoti kuygan kapalakday adoyi tamom bo'lgan bechora xotin namoyon bo'ldi. Uning beshinchi nikohi chindan ham kishini hayajonga soladigan drama ediki, uning qahramoni birinchi parda boshlanmay turib o'zini o'zi o'ldirgan. Jerri qabulida o'tirgan xonimda yaxshi tasavvur qoldirish uchun chakkalarini ishqalar, xonada u yoqdan bu yoqqa o'ychan holda yurar edi.

– Kechirasiz, Louson xonim, – dedi u ohista, – men yoshingizni bilishim kerak. Biz doktorlarga hamma narsani ochiq-oydin gapirib berish mumkinligini o'zingiz ham yaxshi bilasiz.

– Noyabr oyida sakson ikki yoshga to'lganman.

– Yo'g'e, nahotki! – xitob qildi Jerri. – Ko'rinishingizdan hech kim buncha yoshda deb o'ylamaydi.

Xonim mamnun jilmaydi, ko'zlari atrofi tirishdi. U sochlarini ko'tarib, qulog'i orqasidagi chandiqlarni ko'rsatdi va:

– Ikki marta operatsiya qilib, yuz terimni torttirganman, – dedi. – Ha, aytmoqchi, har ikkala operatsiyani ham Yevropada qildirganman. Bundan tashqari, men bir necha gormon in'eksiyasi olganman.

– Harqalay sizday ayolni uchratmagandim, – dedi Jerri hayratda. – Xushomad deb o'ylamang-ku, men sizni boyadan beri o'zimdan ancha yosh deb o'tirgan edim. Hozirgi eringizning yoshi nechada, saksonlardan oshganmi?

– Yo'-o'q... unchalik emas... Birmuncha yoshroq...

– Yoshroq, necha yoshda bo'lmasa? Uyalmay gapiravering, Louson xonim. Men doktorman, bor gapni ochiq aytaverishingiz mumkin.

Louson xonim bir necha daqiqa jim turdi-da, so'ngra dona-dona qilib:

– Hozirgi erim yaqinda yigirma oltiga to'ldi, – dedi.

– Yigirma oltiga?!

– Ha. Erkak zoti shu yoshidanoq hafsalasiz bo'lsa, demak, uning biror yerida kasali bo'lishi kerak. Men umrim bino bo'lib bunaqasini uchratmaganman. To'g'ri,

qarindosh-urug'larim Charlzni «senga faqat puling uchun uylangan», deb ishontirishmoqchi bo'lishadi, aslida hasad qilganlaridan shunday deyishadi. O'zim ham birinchi marta turmushga chiqqanimda erimning qarindosh-urug'lari mening to'g'rimda xuddi shunday deyishgan edi. U vaqtda men endi o'n yetti yoshda, erim esa allaqachon yetmishni urib qo'ygani edi. Lekin shunga qaramay, turmushimiz yomon emas edi. Hozir-chi!

Louson xonim birdan yig'lab yubordi. Darvoqe, uning ko'zlari hali zarur bo'lib qolgan paytda obi diyda qilishga qodir edi. Jerri uning eri bilan gaplashishga va'da berarkan, agar erining hafsalasizligi umurtqalarining xastaligi tufayli bo'lsa, hech shubhasiz, uni tuzatib yuborish mumkin, deb qat'iy ishontirdi.

– Doktor, sizga qancha to'lashim kerak? – so'radi Louson xonim titroq ovozda.

– Ikki dollar, – javob berdi Jerri hech o'ylab turmay.

– Ikki dollar? – takrorladi u. – Qimmatli doktor, o'tinaman, mening ustimdan kulmasangiz. Hozircha, hech bo'lmasa, manavini olib turing.

U Jerriga yuz dollarli qog'oz pul uzatdi-da, so'zida davom etdi:

– Agar Charlzning sovuq munosabati o'zgarib, menga chin erkakdek qaray boshlasa, doktor, siz nima demoqchi bo'layotganimga tushunib turibsiz-a, unda men sizga istaganingizcha haq to'lashga tayyorman. Bordi-yu, Charlzni tuzatib bo'lmasa, unda men ajralishni talab qilaman. Bu haqda o'z advokatim bilan allaqachonoq maslahatlashib ko'rganman. U, ajralish uchun zarur bo'lgan barcha asoslar bor, deb meni ishontirdi. Ammo doktor siz, balki o'zingizning turli tadbir-choralaringiz bilan uni tuzatarsiz. Aks holda, qarindosh-urug'larim nikohimizdan ko'p o'tmayoq ajralish payiga tushib qolganimni eshitishsa, meni yengiltakka chiqarib qo'yishadi.

– Xiroamaliyotda qanday imkoniyatlar bor bo'lsa, barini ishga solaman, – javob berdi Jerri. – Buning uchun

avvalo eringiz bilan suhbatlashsam degandim.

– Balki, siz uni hozir qabul qilarsiz? Erim meni mashinada kutib o'tiribdi.

Professor Jerri Finning yuzi devorday oqarib ketdi. Ammo u o'zining qo'rqib ketganini sezdirishni xohlamasdi.

– Qabul qilaman, – dedi u duduqlanib, – men tayyorman...

Xonim xonadan chiqib ketdi, Jerri katolik cherkovining astar-avrasini ag'darib tashlagan Lyuterga o'xshab ko'kragi ustida qo'llarini qovushtirib oldi. So'ngra hamkasabasi mister Rivers bilan maslahatlashgani uning xonasiga otildi. Ammo doktor oldida uch bemor davolanayotgan bo'lib, to'rtinchisi chiqib ketishga tayyorlansa, beshinchisi yechinmoqda edi. Shu sababdan doktor Jerrining so'zini eshitib maslahat berishga vaqti yo'q edi. U o'ylab ham o'tirmay:

– Menimcha, unga badanini ishqalashimizning nafi tegmasa kerak. Mayli, harqalay, bir urinib ko'r-chil! – dedi.

Mister Louson Jerridan ancha novcha, yelkalari keng, dev kelbat odam bo'lganligidan unga bo'yi yetib umurtqa suyaklarini ushlab ko'rish oson emasdi.

– Menda qanday ishing bor? – so'radi u professor Finndan og'zidagi sigaretani labi bilan u yoqdan-bu yoqqa surar ekan. Ayni vaqtda u shlyapasini ham ma'noli qilib ko'zigacha bostirib kiyib olgandi.

Jerri Louson xonimga qaradi-da:

– Xonim, eringiz bilan yakka qolib gaplashsam dedim. Agar malol kelmasa, bir daqiqagina kutish xonasida o'tirib tursangiz, – dedi.

Mo'jizalarga ishonuvchi xonim ko'ngli to'q bo'lib xonadan chiqdi. Jerri mister Charlz Louson bilan yolg'iz qoldi. Vaziyat g'oyat keskinlashib borardi. Charlz Louson tashqi ko'rinishidan kino ekranlarida va ko'plab jinoiy ishlar tasvirlangan romanlarda ta'rif etilgan toifadagi o'larday dag'al, tutgan yerini kesadigan badfe'l odam edi. Egnida ajoyib kostyum, oyog'ida qimmatba-

ho botinka, boshida shlyapa. Kiyinishda saxiy bo'lsada, so'zga kambag'al, bilib olgani uch-to'rtta maza-bemaza so'zlardangina iborat edi.

– Menda nima ishing bor edi, to'nka?

Jerri beixtiyor cho'ntagini paypaslab, bolg'achaning yonida ekaniga ishonch hosil qildi.

– Mister Louson, – dedi u yasama takalluf bilan, – siz men bilan bunday ohangda gaplashishni bas qilarsiz, deb o'ylayman.

– Mening gap ohangimning yomon yeri yo'q. O'zingku ming'ir-ming'ir qilayotgan. Xo'p, bo'пти, qani aytadigan noma'qul gapingni ayt, nima demoqchisan?

– Xotiningiz menga tashvishlanayotganini aytdi va...

– Mening xotinim-a? – shartta uning so'zini bo'ldi mister Louson. – Aha-a-a, demak, sen ana shu yalmog'iz kampirning tashvishini qilayotgan ekansan-da! Xo'sh, nima kerak ekan unga? Senga ham mening isrof-garchiligim, pulni shamolga sovurishimdan nolidimi? Jin chalgur, o'zi bo'lsa shaftoliqoqidek qurib-qaqshab ketganidan maishat ham kor qilmay qo'rgan!

Mister Louson qo'llarini cho'ntagiga solib, sigaretani tuplab tashladi-da, uni oyog'i bilan ezib o'chirdi. Jerri vaziyatning tobora keskinlashib borayotganini sezar, ammo boya olgan yuz dollari uni dadilroq gapirishga majbur etardi.

– Ish xiyla jiddiy, mister Louson, siz xotiningizni mensimasmishsiz, erlik burchingizni ado etmas emishsiz.

Mister Louson ko'kragini kerganicha Jerri ustiga tahdid qilib kela boshladi.

– Menga qara, hoy tabib! Sen nega harom tumshug'ingni mening oilaviy hayotimga suqyapsan? Men seni Amerikaga Ko'hna dunyodan yaqinda kelganingni shu yerda eshitib qoldim. Nima balo, bizni qanday yashashga o'rgatmoqchimisan?

– Agar bunga zarurat tug'ilsa, nima, bu ish ham qo'limdan keladi, – javob qildi Jerri.

– Yo'q, xato qilasan, bizga yevropalik o'qituvchilar kerak emas. Har qancha ish bo'lsa, sizlarsiz o'zimiz udalaymiz. Qani ayt-chi, nima kerak senga bu yerda?

Jerri lablarini qon chiqar darajada tishladi, ammo yuz dollar uni yana gapda davom etishga majbur qildi.

– Hurmatli mister Louson, men sizni aslo ranjitmoqchi emas edim. Ammo xotiningiz yordam soʻrab murojaat qilgani uchun bu gaplarni sizga aytishni burchim deb bildim.

– Mening xotinim-a?! U moʻmiyo uch oydan beri meni davolatgani doktorma-doktor yugurib yuribdi. Bilmaydiki, avvalo oʻzining aqlini peshlatib olishi kerak.

– Xoʻp, nega boʻlmasa erlik burchingizni ado etmaysiz?

Mister Louson qoʻllarini choʻntagidan olib, oʻzining chaqaloqning kallasiday keladigan mushtini Jerrining tumshugʻi oldida oʻynatdi:

– Ovozingni oʻchir! Sakson ikki yoshli yalmogʻizga oʻzing uylangan boʻlganingda butunlay boshqa vaʼz-nasihat oʻqirding!

– Mister Louson, sizdan oʻtinib soʻrayman, bu yerda haqoratli gaplarni bas qiling!

– Hoy tabib, yoʻqol bu yerdan! Yevropangga tuyogʻingni shiqillatib qol!

Jerri gʻazabdan oʻzini ortiq tutib turolmay qoʻllarini keng yozib, eshikni koʻrsatdi va toʻsatdan qichqirdi:

– Yoʻqoling! Men bunday muttahaamlar bilan gaplashib oʻrgangan emasman! Hozir joʻnang bu yerdan!

Mister Louson shlyapasini battarroq bostirib, tishlari orasidan gʻijinib dedi:

– Dunyoda tugʻma koʻr odamlar boʻladi, lekin shundaylar ham borki, koʻzlarini asray olmay koʻr boʻlib qolishadi.

Goʻyo jumlasining oxiriga nuqta qoʻyganday u zardast mushti bilan Jerrining naq qanshariga tushirdi. Bechora noshud xiroamaliyotchi gardani bilan stolga chunon borib urildiki, koʻzlaridan bayram kunidagi mushaklarday ming xil oʻt chaq nab ketdi. Ammo miyasi gʻoyat tez ishlardi. Jerri darhol choʻntagidan kichkina oʻyinchoq bolgʻachasini olib, kutilmaganda raqibiga tashlandi-da, uning tizzalariga ura ketdi. Mister Louson-

ning reflekslari yaxshi ishlaganidan shu zahoti oyoqlari mayishib, ag'darilib tushdi-yu, o'rnidan turolmay qoldi.

Mister Rivers yordamchisi xonasidagi tapir-tupurni eshitib, u tomon yugurdi. Bemorning tiz cho'kib qolganini ko'rib ming'irlagancha koyina boshladi:

– Erkaklarni faqat men qabul qilaman, deb kelishib olgan edik-ku, axir!

U shunday deb mister Lousonni ikki qo'ltig'i ostidan ushlab, o'z xonasiga olib chiqib ketdi. Yo'l-yo'lakay odatdagi tasalli va pand-nasihatini aytib borardi:

– Tizzaning darmonsizlanishi va oyoqning falaj bo'lishi umurtqalar tufayli yuz beradi. Siz bu yerga ancha oldinroq kelishingiz kerak edi. Ha, allaqachon kelishingiz kerak edi...

Oradan sal o'tib, Jerri doktor Riversning xonasiga mo'raladi. Uning ko'z oldida ajoyib manzara namoyon bo'ldi: yarim beligacha yechintirilgan mister Louson polda hushsiz yotar, doktor Rivers uning ustiga minib olib, yosh erning umurtqalarini metinday baquvvat barmoqlari bilan ezib ko'rmoqda edi.

Jerri ohista yuvinishxonaga kirib, g'urra bo'lgan qanshariga latta ho'llab bosarkan, bundan keyin hech qachon eru xotin orasiga tushmaslikka, ular janjaliga aralashmaslikka muqaddas ont ichdi.

Harqalay, uzoq davom etmagan bu shahvoniy komediya aralash fojia unga naqd yuz dollar keltirganidan Jerri mamnun bo'ldi va uni mister Rivers bilan bo'ladi-gan hisob-kitobga qo'shmadi.

Ayollar muhabbatning ma'nisiga yetishsa, erkaklar uning qadriga yetishadi.

BESHINCHI BOB

**JERRI FINNING OLAMGA MASHHUR
DOKTOR ALBERT XINSEYGA XODIM
TUSHGANI VA YO‘LDAN OZIB ALDANGANI**

Oradan ikki kun o‘tib, Nyu-Yorkning eng keng tarqalgan bulvar gazetasida Louson xonimning beshinchi eridan ajralishi haqidagi xabar bosilib chiqdi. «Boylukda tengi yo‘q neft qirolichasi, – deb yozardi gazeta, – bu safar yangi turmush o‘rtog‘i bilan atigi bir yuz o‘n to‘rt kungina yashadi. Louson xonim erini samimiy munosabatda bo‘lmaganlikda, erlik burchini ado etmaganlikda aybladi. Mister Charlz Louson ilgarilari ham tovlamachilik qilgani, xotinlar nomusiga tajovuz etgani uchun bir necha marta sud javobgarligiga tortilgan va jazo muddatini tamomlab kelgan edi. Shuni ham qayd qilish kerakki, mashhur neft qirolichasi 82 yoshga kirdi. Uning hozirgi eri esa 26 yoshda».

Xabarning yakunlovchi qismi sifatida quyidagi so‘zlar qora harflar bilan alohida ajratib bosilgan edi: «Qadimiy noyob buyum shunday narsaki, uning iste‘mol qiymati tushgan sari bahosi oshib boraveradi».

Jerri bu xabarni ovozini chiqarib o‘qidi, ammo mister Rivers bundan odam qiziqadigan hech qanday gap topmadi. U faqat miyig‘ida kulib qo‘ydi-da:

– Men hamisha aytaman-ku, nikohni bekor qilib, ajralishning eng yaxshi chorasi – mutlaqo uylanmaslik, – dedi.

– Ehtimol mister Louson xotirangda bordir? – so‘radi Jerri.

– Yo‘q.

– Haligi, mening qansharimga tushirib ketgan bezori-da.

– E, haligi bir chaqa ham to‘lamay jo‘nab qolgan muttahammi? Men tag‘in tekshirib ko‘raman, deb unga o‘n daqiqadan ortiq vaqt sarf qilib yurganimni ayt-maysanmi?

Doktor Rivers Jerri qo'lidan gazetani olib, xabarni o'qib chiqdi-da, fikrini o'zi to'qigan hikmatli gap bilan yakunladi:

– Eru xotinlik – ikki kishining o'yini, bunda har ikki tomon ham yutqazadi.

Bugungi ish kuni naqd ikki yuz dollar foyda bilan yakunlandi. Oxirgi bemorning chiqib ketganiga mana yarim soatdan oshdi. Doktorlar mister Rivers xonasida bemorlarning kasallik kartochkalarini tartibga solib o'tirishardi. Isaak Rivers professorlik darajasiga ko'tarilgan, xiroamaliyotchining yordamchisi bo'lib qolgan bizning qahramonimiz Jerri uchun ikki hafta burun qanday sirli jumboq bo'lib ko'ringan bo'lsa, hozir ham shunday jumboqligicha qolgan edi. Bu oddiy massajchi doktorlik to'nini kiyib, besh panjasini og'ziga tiqib, odamlar umurtqalaridan dollar sog'ib olmoqda edi. Ba'zi paytda Rivers u joydan-bu joyga ko'chib yurib yozish-chizishni o'rganib olgan, o'z yoshini mutlaqo unutib qo'ygan amerikalik yarim daydi, yarim qashshoq fin – abadiy navqiron yigitga o'xshardi. Ba'zida esa, o'zining sirini fosh etuvchi nimai-ki xislati bo'lsa, barini yashirib, hech kimga qo'shilmay yakka-yolg'iz kun ko'rayotgan kishi tasavvurini berardi. U biron marta bo'lsin, o'z hayoti va qarindosh-urug'lari to'g'risida gapirmagan, bunga mayl ham bildirmagan edi. Bu o'rinda u o'z avlod-ajdodi bilan faxrlanishni ep ko'rmaydigan xachirga o'xshab ketardi.

Shunday daqiqalar ham bo'lardiki, Jerri ustozining benihoya g'ayrat-shijoatiga, mehnatchanligiga, qalbida umidsizlikdan zarracha asar yo'qligiga, shu tufayli har qanday bulutli kunda ham unga quyosh hamisha kulib boqqan hayotiga qoyil qolardi. Shunday fursatlar ham uchrardiki, kasbdoshining kaltabinligi, idrok doirasining torligi Jerrining g'ashini keltirardi. Ba'zan amerikacha bir maqol atay Isaak Rivers sha'niga to'qilganga o'xshardi: «Fermer qanchalik laqma bo'lsa, u yetishtirgan kartoshka shunchalik yirik bo'ladi». U shunday

odamlar toifasiga kirar ediki, soddalik bilan o'rtamiyonalik orasidagi tor yo'ldan bimalol o'ynab-kulib o'tib keta oladi va oynaga qarab, o'zidan hamisha to'la qanoat hosil qiladi.

Mister Rivers allaqanday qo'shiqni xirgoyi qilardi. U o'zidan va o'zining barcha muvaffaqiyatlaridan mamnun edi. Bir hafta ichida besh yuz to'qson yangi bemor ko'rildi! U endi Nyu-Yorkning eng rasm bo'lgan, har qanday bemorning nima kasal ekanini kasaliga qarab emas, kissasiga qarab aytib beradigan vrachlar bilan bimalol bellashish darajasiga borib qolgandi.

Eshik qo'ng'irog'i chalinib vrachlarning qilib turgan ishlari bo'linib qoldi. Mister Rivers soatiga qaradi.

– Chorak kam to'qqiz. Bunday bemahalda kim o'zini qabulxonaga uryapti ekan?

– Ochaymi eshikni? – so'radi Jerri.

– Qani, chiqib qara-chi.

Jerri eshikni qiya ochib qaradi. Ammo kelgan odam eshikni lang ochib yuborib, jadal ichkariga kirdi.

– Doktor Rivers siz bo'lasizmi? – so'radi kirib kelgan past bo'yli, qizarib ketgan ko'zlari bejo o'ynab turgan begona kishi.

– Yo'q, mening ismim Finn.

– Juda soz. Men doktor Popkin, butun jahonga dong taratgan, mashhur doktor Xinseyning xodimi bo'laman. Balki siz meni tanirsiz?

– Ismingiz yodimda, – javob berdi Jerri, o'zi bu nomni birinchi marotaba eshitib turgan bo'lsa ham.

Doktor Rivers o'z xonasidan ko'z tashlab, mehmon qo'ltig'idagi portfelni ko'rдию, begona odam nima maqsadda kelganini fahmlaganday dedi:

– Menga sug'urtaning hojati yo'q...

– Sug'urta deysizmi? – so'radi begona odam.

– Ha, xuddi shunday. Men allaqachon o'z hayotimni, avtomobilim, sog'lig'im, jamg'armam, hatto kelajakda qiladigan sayohatimgacha sug'urta qildirib qo'yg'anman.

– O, juda soz, g'oyat go'zal ish! – zavq bilan xitob qildi begona odam va yarg'oq boshidan shlyapasini oldi. – Menam shunday qilishim kerak. Mening ismim – doktor Robert Popkin. Turgan gap, siz meni tanisangiz kerak-a?

– Yo'q, tanimayman, – dedi bosh chayqab mister Rivers, – Men Isaak Rivers bo'laman.

Doktor Popkin o'zining yumshoq, kichik qo'lini uzatdi. Vrach-ginekologning nozik, ingichka barmoqlari massajchining bahaybat changalida yo'qolib ketdi va ayanchli qirsilladi.

Ular ichkari xonaga kirishdi, doktor Popkin odaticha sinchkov nazar bilan uyning devorlariga osib tashlangan umurtqalarning turli holati va shakllari tasvirlangan jadvallarga ko'z solib chiqdi. Doktor Popkinning so'zlashga kelganda suyagi yo'q edi. U so'zlar tomog'imda zanglab qolmasin deb qo'rqardi.

– Men sizning oldingizga qiziq bir taklif bilan keldim, – sira tutilmay gap boshladi u va ayni vaqtda faqat us-tara bilangina tarab, oroyish bersa bo'ladigan boshini chaqqon silab qo'ydi.

– Favqulodda qiziq bir taklif bilan keldim, hurmatli janoblar! Sizlarning bemorlaringiz orasida xotin-qizlar haddan tashqari ko'p, shunday emasmi? Ular orasida hamma yoshdagi ayollar bor.

Mister Rivers Jerriga jiddiy nazar tashlab, o'zicha ko'nglidan o'tkazdi: «Agar sen, azizim, men bilan Jer-rini tabiblik qilayotganimiz uchun ushlab olgani kelgan bo'lsang xato qilasan: menda xiroamaliyot bilan shug'ullanish va yordamchim uchun qonuniy ruxsat-noma bor».

Mehmon javob kutardi.

– Janoblar, men sizlarning professional sirlaringni bilib olish niyatida emasman, – dedi u xavotirlanish-masin degan niyatda shosha-pisha. – Ammo, bilasizmi, kasbdoshlar, gap mana bundoq: men doktor Albert Xinseyning xodimiman. Innaykeyin...

– Uning o‘zi kim? – Popkinning gapini bo‘ldi mister Rivers.

– Nahotki, sizlar doktor Xinseyni tanimaysizlar? Men uning ismini harfma-harf aytaman: X – xachir, I – ilmoq, N – narvon, S – sa‘va, E – yelim, Y – yo‘g‘on – Xinsey, Albert Xinsey. U bultur keng yoyilib ketgan va yilning eng noyob kitobi deb shuhrat qozongan «Ersiragan xotin» asarining muallifi. Hozir u...

– Men kitob olmayman! – qat‘iy xitob qildi mister Rivers.

– Albatta, siz sotib olmaysiz, qimmatli doktor. Hozir gap kitob sotib olish ustida emas, balki hamkorlik qilish to‘g‘risida boryapti.

– Men hech qanday hamkorlikni istamayman, – yana ham jiddiyroq ohangda e‘tiroz bildirdi mister Rivers.

Ammo doktor Popkin bundan qilcha ham xijolat tortmay, gapida davom etdi:

– Janoblar, ruxsat etinglar, men asl maqsadni tushuntirib beray. Gap bundoq, mening do‘stim Albert Xinsey hozir yangi asar yozyapti, uning dastlabki reklamasi ertadanoq boshlanadi. Kitob Muhabbat maktabi yoki hozirgi zamon ayollarining uyda va uydan tashqaridagi jinsiy xulqi, eng yangi ilmiy usulda to‘plangan fikrlar asosida deb ataladi.

Mister Rivers cho‘qinib oldi. Bu masala Jerri Finnda ma‘lum darajada qiziqish uyg‘otdi:

– Kitobning mavzusi kishida qiziqish uygotadi, – deb qo‘ydi.

– Yo‘q, azizim, balandroq oling, u inqilob qiladi, – javob berdi doktor Popkin. – Keng jamoatchilikni hamisha uch narsa: pul, muhabbat va jinoyat qiziqtirib keladi. Kimki muhabbatni ilmiy usulda asoslab berolmasa, u pul va jinoyatlar to‘g‘risida yozadi. Doktor Xinsey uchun keng ko‘lamdagi, tom ma‘nosi bilan muhabbat deb atalgan soha uning asosiy mutaxassisligi hisoblanadi. Bir golland vrachi ana shu masalaga qo‘l urgan edi, ammo u ta‘rif va tavsif etgan ideal nikoh bizning shov-shuvlar asosiga qurilgan hayotimiz oqimiga javob

bera olmaydi. Doktor Xinsey noyob usul qo'llab, o'zining yangi asarini ilmiy asosga qurilgan so'rovnomalar to'ldirish yo'li bilan barpo etmoqchi. Kam deganda o'n minglab ayollarning jinsiy hayotiga oid fikrlar to'planadi, o'rganiladi. Shu ish bilan shug'ullanuvchi barcha xodimlar qayergaki xotinlar yig'ilsa, o'sha yerga borib, ularning fikrlarini to'playdilar. Doktor Xinseyning ilmiy asosda tasdiqlab berishicha, xotinlar o'zlarining nozik ichki sirlarini ko'pincha popga, vrachga va o'ynashlariga ishonib aytishlari mumkin ekan. Biz ana shu kasbdagi kishilardan hozir to'rt yuzdan ortiq xodim yolladik. Ular maxsus so'rovnomalar to'ldirishni boshlab yuborganlar. Endi tasavvurning yanada to'laroq bo'lishi uchun bizga xiroamaliyotchi ham kerak.

Doktor Popkin savol nazarida umurtqa bobining ustasi faranglariga qaradi va:

– Sizlar tibbiyot faniga xizmat ko'rsatishni istaysizlarmi? – dedi.

– Siz, aniqrog'i doktor Xinseyga demoqchi bo'lsangiz kerak, – gap qistirdi mister Rivers.

– Mutlaqo to'g'ri. Aslini olganda, bularning har ikkalasi ham bir gap. Men sizlarni kundan-kunga xotin-qizlarni ko'proq qabul qilayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlar osongina o'z bemorlaringizga bizni qiziqtirgan qaltis savollarni berish imkoniga egasizlar.

– Jumladan qanday? – qiziqib so'radi Jerri.

Doktor Popkin portfelini ochib, undan bir dasta so'rovnoma varaqalari oldi.

– Mana ular, bunga siz osongina tushunib olasiz. Jumladan, deylik, bemor, bu yerdagi savollardan biron-tasiga javob berishni istamasa, siz shu xonaga «Javob qaytara olmadi» yoki «Bilmaydi», deb yozib qo'yasiz. Bemorlarning nomlarini yozib o'tirish shart emas, faqat yoshi va oilaviy ahvoli to'laroq qayd etilsa bas. Har bir to'latilgan so'rovnoma uchun siz asar yozib tugatilganidan va yarim million nusxada bosib chiqarilganidan keyin uch dollardan haq olasiz. Doktor Xinseyning

taxminicha, katolik cherkovi o'z mazhabidagi kishilarga bu kitobni sotib olishni va o'qishni taqiqlab qo'ysa kerak, ana shu sababdan ham ikki haftaga qolmay kitobning adadi kam deganda bir million nusxaga etsa ajab emas. Xo'sh, asl maqsad mana shu, janoblar, endi sizlarning fikringizni eshitsam.

Mister Rivers yelka qisdi.

– Menda hech qanday fikr yo'q, chunki, hozir men faqat erkaklarni qabul qilyapman. Xotinlar masalasida mister Finn bilan gaplashasiz.

Doktor Popkin Jerriga murojaat qildi:

– Ha, aytganday-a! Axir Xagar-skverda ajoyib nutq so'zlab, hammani qoyil qilgan siz edingiz-da! Men o'shanda shaxsan eshitolmadim. Ammo mening doimiy mijozim, ko'p yillardan beri menda davolanib kelayotgan Louson xonim sizning to'g'ringizda gapirib berdi. Siz Yevropadan yaqinda keldingizmi?

– Ha.

– Siz u yerda vrachlik tajribasi orttirgan bo'lsangiz kerak?

Jerri o'zining gazetachilik sohasidagi muvaffaqiyatsizliklarini eslab, sal bo'yin tovlab:

– Shunchaki, – deb qo'ydi.

– Ha, albata. Axir Yevropada hech qanday ozodlik bo'lmaganidan keyin u yerda yaxshilik anqoning urug'ida! Har bir mamlakatda vrach ishining qanday bo'lishi kerakligini davlat belgilab beradi. Bu yerda unday emas: aksincha, davlatning nima ish qilishi kerakligini vrachlar belgilab beradi. Xo'p, mayli, o'z ishimizga qaytaylik. Demak, siz so'rovnoma to'ldiruvchi xodimimiz bo'lishga rozisiz? Shuni yaxshi bilib qo'yingki, bu narsa juda uzoqni ko'zlab qilinyapti – bunday ilmiy-tekshirish ishlari butun jahonda ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi.

Jerri biron maslahat olish niyatida mister Riversga qaragan edi, kekxa xiroamaliyotchi faqat to'ng'illabgina qo'ydi:

– O'zing hal qil, sening ishing.

Biroz o'ylab olgach, Jerri Finn fanga va butun jahonda ijtimoiy rivojlanishga yordam berishga ahd qildi.

Ertasi ertalab soat sakkizda uning qabuliga yoshi nechadaligi noma'lum bo'lgan bir ayol kirib keldi. U o'zini ikki haftadan beri qiynayotgan bel og'rig'idan shikoyat qildi. Xonim kiyimlarini yechar ekan, Jerri stolga kelib o'tirib, so'rovnomaga qarab so'roq boshladi:

– Davolashni boshlashdan oldin sizdan bir necha savollarga javob berishingizni iltimos qilardim. Birinchidan, yoshingiz nechada?

– Men bu savolga javob bermayman, – dedi xonim qat'iy rad etib.

– Hech bo'lmasa... taxminan ayting?

– Qirqdan kam.

– Erga tekkaningizga ko'p bo'ldimi?

– Bir oydan oshdi.

– Bu birinchi nikohingizmi?

– Yo'q, beshinchisi.

– Birinchi marta turmushga chiqqaningizda necha yoshda edingiz?

– Adashmasam, endi o'n oltiga kiruvdim.

– O'shanda siz hali qizmidingiz?

Xonim yechinishdan to'xtab:

– Men bu savolga javob bermayman, – dedi.

Jerri so'rovnomaning shu xonasiga «Bilmayman» deb yozib qo'ydidida, savol berishda davom etdi:

– Siz birinchi marotaba erkak kishi bilan qanday vaziyatda aloqada bo'lgansiz: a) ehtiros bilan, zo'r hayajon ichidami; b) rahmingiz kelganidanmi; v) bola ko'rish niyatidami?

Xonim hech qanday javob qilmay, shoshilib kiyina boshladi. Jerri so'rovnomaning shu xonasiga «Javob bera olmadi» deb yozib qo'ydidida, yana so'roqni davom ettirdi:

– Nikohdan so'ng eringizga xiyonat qilganmisiz: a) bir martami; b) har zamondami; v) doimomi?

Hech qanday javob bo'lmadi. Jerri so'rovnomadan ko'z uzib qaradiyu, beixtiyor o'zini orqaga tashladi: be-

mor ayol sotsiologiya fanining beg'araz xizmatkori yoniga uzatilgan qo'l masofasi baravar yaqin kelib:

– Ablah! – deb qichqirdi, – mana Yevropadan qanday marazlarni olib kelishgan ekan! Bechora, baxtsiz Yevropadan!

Unga e'tiroz bildirish foydasiz edi, ayol butun g'azabini yuqoridagi jumla bilan to'kib solib, orqasiga burildi-da, o'zining bel og'rig'i bilan ko'zdan g'oyib bo'ldi.

San'at yo'li mashaqqatli yo'l deyishardi, fan yo'li esa undan ham battar chiqdi: tushga qadar Jerri hammasi bo'lib atigi uchta so'rovnomanini to'ldirishga muvaffaq bo'ldi, bular ham chala yarim edi. Lekin u o'n bir bembordan mangu ajradi. Bruklin ayollari ijtimoiy rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan ilmiy tekshirish ishlari-ga allaqanday g'alati munosabatda yondashar edilar: ba'zilari, chamasi, yuksak xulq-atvorli bo'lsalar kerakki, hatto otga ham shim kiydirishga tayyor, boshqa birlari doktor Xinsey qip-qizil laqma, lekin u o'zidan ko'ra battarroq laqmalarni topib, ular ustidan kulmoqchi, deb hisoblar edilar.

Odamlarni ajrata bilishda, psixologik idrok borasida hamisha o'rtamiyona hisoblangan Jerri Finn, Xinsey so'rovnomalarini to'ldirish uchun eng muhim narsa – o'ta chaqqon, ko'zboyloqchiday epchil, bezbet, sezdirmay – xamirdan qil sug'urganday sir oladigan orsiz, shilqim bo'lish kerak ekanini bilmasdi. U tutgan so'roq yo'li qalbi sof va iffatli ayolni buzuq qilib ko'rsatishi va buning aksicha, behayo, axloqsizni noyob ayolga aylantirib qo'yishi mumkinligini tushunib yetmasdi. Jerrining muvaffaqiyatsizlikka uchraganiga asosiy sabab, uning haqiqatgo'ylikka sadoqati edi. Jerri ayol kishining qurolga o'xshashini, qurol bilan esa o'ynashib bo'lmasligini unutib qo'ygandi.

Mister Rivers hazilakam tashvishga tushib qolmadi. Uning ba'zi doimiy mijozlari «Yevropalik professor» ularning izzat-nafsilarini oyoq osti qilib, misli ko'rilma-gan darajada haqorat etganidan, ayollarning musaffo

nomus-orini ijtimoiy ilmiy tekshirishlar botqog'iga tortuvchi nomunosib xatti-harakatidan shikoyat qilishdi. Ustiga-ustak, bir necha anonim telefon qo'ng'iroqlariga zo'rba-zo'r bardosh berdi. Ana shu noma'lum telefon qoqqanlar uning hurmatli kasbi sha'niga amerika tilidagi mavjud eng kurakda turmaydigan so'zlarni aytib, o'zini qora yerga qorib tashlashdi. Mister Rivers bularning bariga chidagach, kasbdoshi bilan jiddiy gaplashib olishga qaror qildi.

– Sen bemorlarni haqorat etishni darhol bas qil, – dedi u qat'iyat bilan Jerriga.

– Men hech kimni haqorat qilayotganim yo'q. Faqat bir necha savollar berdim, xolos, – javob qildi Jerri xud-di jasur askar Shveykka o'xshab anoyilik bilan.

– Shu bugundan boshlab davolashga aloqasi bo'lmagan har qanday bemaza savollar berishni butunlay taqiqlayman. Doktor Xinsey sho'rimizga sho'rva to'kmoqchi, tushunsangchi shuni?! Barcha ayollar bizdan bezib, ketib qolishyapti. Men axir reklama uchun sakkiz yuz dollar sarflagan bir paytda shunday qilib o'tirsang-a! Doktor Popkinga so'rovnoma to'ldirishni to'xtatdim, deb xabar ber.

Jerri indamadi. Bunday nozik masalaga, hatto yaqin borish kerak emasligini endi uning o'zi ham yaxshi tushunib olgan edi. Jerri xatosiga iqrar bo'ldi:

– Xotinlar – chindan ham sira tushunib bo'lmaydigan xalq... Men buni o'z tajribamdan bildim...

– Ha, tajriba – dunyodagi eng yaxshi o'qituvchi. Shuning uchun ham unga kam haq to'lashadi, – dedi mister Rivers. – Xotin zoti bilan umuman juda ehtiyot bo'lib gaplashish kerak. Axir bir xotin boshqa xotin qanday yashayotganini juda bilgisi keladi, ammo ularning birontasi ham o'zining fosh bo'lishini aslo xohlamaydi, butun sir-asrorini maxfiy tutishga tirishadi.

Mister Rivers yana gapida davom etardiyu, lekin qabulxonasida o'tirgan bemorlarni kuttirib qo'ya olmasdi.

– Xo'sh, demak, menimcha, masala ravshandir? – dedi u va jadal yurib xonasiga chiqib ketdi. U yerda

doktorni yalang'och bo'lib yechinib o'tirgan uch bemor kutardi.

Jerrining o'zi yolgiz qoldi. Jim o'tiraverish tez orada joniga tegib, xiroamaliyot bo'yicha qo'llanmani varaqlay boshladi. Ertalabki radio xabariga ko'ra, hozirgi zamon jinsiy hayotning Sokrati, deb nom olgan, misi chiqqan siyqa asarlarning amerikalik muallifi bo'lmish Albert Xinseyni Jerri allaqachonoq unutib ulgurgan edi.

Kunning ikkinchi yarmi xiyla osoyishtalikda o'tdi. Soat birdan to oltigacha hammasi bo'lib o'n to'qqizta bemor keldi. Ulardan ikkitasi birinchi marta davolanmoqda edi. Kasallari ham uncha og'ir emas edi, begona odamning yordamisiz o'zlari mustaqil yura oladigan, qabul haqini shu zahoti naqd to'laydigan bemorlar edi. Professor Finn endi yangi usul qo'lladi: u juda kam, ammo soz gapirardi. Boshqacha qilib aytganda, hozirgina qo'llanmadan o'qib olgan o'git-nasihatlarni oqizmay-tomizmay bemorlar e'tiboriga havola qilardi.

...Yomon kemirchak tugunlari odatda dumg'aza yon-tevaragida paydo bo'ladi. Har kungi, odatdagi hayotda odamning orqa suyagi oldinga juda oson egilib qoladi. Uni orqaga qaytarib, o'zining asl holiga keltirish kerak. Og'ir vaziyatlarda shakli buzilgan umurtqalarning shu qismlarini ultra yuksak chastotali tok bilan nurlantirishning nafi – foydasi katta.

O'zining qisqa muddatli vrachlik faoliyati davrida professor Finn shuni yaxshi fahmlab oldiki, xotinlarning eng ko'p og'riq sezadigan joyi belining pastida – xushro'y muskullar ikkita jozibali kulib turgan yoqimtoy chuqurcha hosil qilgan bo'ksalarida bo'lar ekan. Umuman, bel og'rig'i haddan tashqari og'ir yukni ko'tarishdan paydo bo'ladi. Millionlab ayollar uchun o'z erlarining qanday og'ir yukligi hammaga ayon ekan, u taqdirida ayollarimizning tez-tez bel og'rig'i bo'lib turishlaridan sirayam ajablanmaslik kerak.

Jerri uchun xiroamaliyot mutlaqo yangi ufqlar ochib berdi: u yuzlab turli xil orqa suyaklar mavjudligini

bildi. Garchand, allaqanday ilmiy hisobotga qaraganda, Amerikada Merilin Monro tipidagi ayollar bir million to'qqiz yuz ming kishi bo'lsada ularning hammasi xiroamaliyotchi uchun mutlaqo bir-biriga o'xshamagan tiplar hisoblanadi. Har bir ayolning orqa suyagi faqat uning o'ziga xos, shu shaxsga mansub shakl chiziqqa egaki, u jinoiy qidiruv politsiyasi odatda oladigan, bir-biriga sira o'xshamagan barmoq izlarini eslatadi.

Qabulni tugatgan professor Finn endigina doktorlik xalatini yecha boshlagan edi, shu palla xonaga yoshgina bir juvon kirib keldi. Ehtiyotkorlik bilan qilingan taxminiga qaraganda, uning yoshi yigirma ikki bilan qirqlar orasida edi. Bu ko'k ko'z, qo'ng'ir sochli juvonning bo'yi 5 futu 8 dyuym kelardi. U yaxshi kiyingan, ayniqsa, zo'r mahorat bilan pardoz qilgan edi.

– Men, nazarimda, ozgina kechikib qoldim, shekilli. Doktor qabul qilyaptimi hali? – so'radi u jilmayib papirosi kulini torsherning qalpog'i ustiga chertib, to'kar ekan.

– Ha, kechikdingiz, albatta, – javob berdi professor Finn, ammo o'zi stolga o'tirib, yangi kartochka oldi. – Ismingiz?

– Joan Louford...

Jerri juvonning nomini yozib bo'lib, unga qaradi.

– Siz meni qayoqdandir taniydinganga o'xshab turibsiz, shunday emasmi, doktor?

– Balki... Shunday bo'lsa kerak.

– Bunga sabab shuki, men xuddi quyib qo'yganday, Joan Kroufordga juda-juda o'xshayman. Buni o'zim ham bilaman. Farqimiz faqat Krouford xonim mendan sal kattalar. U kishi San-Antonioda, Texasda, bir ming to'qqiz yuz sakkizinchi yilda tug'ilganlar. Men ham asli Texaslikman, Joan Krouford menga qarindosh bo'ladi, faqat juda uzoq qarindosh. Shuning uchun ham har ikkalimizning tashqi ko'rinishimizda ko'p o'xshashlik bor. Shuniyam aytib qo'yay, Krouford xonimning og'izlari sal kattaroq, innaykeyin, oyoqlari ham menikiga nisbatan ancha durkun...

Professor Finn yoʻtalib, qovogʻini solib oldi. U kasallik tarixiga tikilar ekan:

– Louford xonim, yoshingizning nechada ekanini bilishim mumkinmi? – dedi.

– Albatta, mumkin. Men hali oʻttizga ham kirganim yoʻq.

– Turmushga chiqqanmisiz?

– Hozircha yoʻq. Mening ikkinchi erim bundan yarim yil muqaddam qazo qildi. O-oh, bu qandayin dahshat edi! Ammo, xudoga ming qatla shukurki, uning hayoti tuzukkina sugʻurta qilingan edi.

– Sizning qayeringiz ogʻriydi?

– Menimi? Hech qayerim. A, haya, albatta... Mening tez-tez boshim qattiq ogʻrib turadi. Keyingi vaqtlarda uxlamasam turolmaydigan boʻlib qoldim. Mana, bugun ham kechasi tuzukkina uxlamaganimdan kun boʻyi aspirin ichib yuribman. Akam menga sen juda koʻp chekasan, deydi. Bu axir, menimcha, boshga hech qanday taʼsir qilmasa kerak. Men chekkanimdayam tutunni ichimga tortmay chekaman, shunday boʻlsayam, mana...

– Belingizda sanchiq sezasizmi? – uning soʻzini boʻldi Jerri.

– Baʼzi-baʼzida.

Jerri oʻrnidan turdi.

– Marhamat qilib, belingizgacha yechining, keyin manavi stolga kelib qorningiz bilan yoting.

Louford xonim hayratdan hangu mang boʻlib qoldi.

– Nima? Men yechinishim kerakmi?

– Men belingizni koʻrishim kerak, faqat yarim belingizgacha echsangiz bas.

– Lekin, doktor... men yechina olmayman... menda haligi yoʻq... Yoʻgʻ-e... ustimda faqat mana shu tanamga yopishib turgan koʻylak bilan paypoq ushlaydigan belbogʻ bor, xolos.

Professor Finning yuzi olovday yonib ketdi. Birinchi marta u oʻzining ana shu qisqa muddatli vrachlik davrida koʻrayotgan odami oddiy bemor emas, goʻzal

chehrali, bu chiroyi aqlining ham o'rnini a'lo darajada bosa oladigan yosh juvon ekanini payqab qoldi. To'g'ri, uning irodasiz ekanidan dalolat beruvchi iyagi birozgina kichik edi, lekin yuz-ko'zi chindan ham Joan Krouford chehrasini yaqqol eslatib turardi. Jerri bir daqiqa xiroamaliyotni unutib, erkaklarning go'zal jononlarning kelishgan oyoqlaridan zavqlanishlari, ularning momiq bo'yinlaridan o'pishlari ma'nosiga faqat shu topda yetganday bo'ldi.

– Louford xonim, – sal duduqlanib dedi u, – agar malol kelmasa manavi stolga yotsangiz, men tashxis qo'yishim kerak.

– Tashxis? Bu nima degani? – qiziqib so'radi juvon.

– Kasal turini aniqlash.

– Menda hech qanday kasal yo'q. Doim kamtar va odobli hayot kechiraman...

– O, albatta, Louford xonim! Ammo sizning umurtqalaringizga, aftidan, biron ziyon-zahmat yetgan, ya'ni shikast yegan yeri bordirki, shu sababdan boshingiz og'riyotgan bo'lsa kerak.

Louford xonim kinofilmlardan o'rgangan nazarda professor Finnga tikildi-da, ohista so'radi:

– Doktor, siz meni nima qilmoqchisiz?

– Orqa suyagingizni ko'rmoqchiman.

– Menga tegmaslikka so'z berasizmi?

Jerri Finn yoshligidan eshik tagida o'tirib o'rganagan uyatchan odam emasmi, darhol til-jag'dan qoldi. U o'z ko'nglida, yaxshi hamki xotin-qizlar kasalliklari bo'yicha vrachning yordamchisi emasligidan taqdirga qayta-qayta tashakkur aytdi. Asta-sekin unga iroda kuchi qaytib, tund ovozda dedi:

– Louford xonim, o'zingiz yaxshi bilasizki, xiroamaliyot odamning umurtqasini o'rganishga asosiy diqqat-e'tiborini safarbar etadi. Shunday ekan, agarda siz xiroamaliyotdan biron ko'mak kutayotgan bo'lsangiz, o'zingizni ko'rsatishingiz kerak. Marhamat qilib, stolga yoting.

– Men xiroamaliyotni doimo nima uchundir boshqa bir narsa deb xayol qilib yurardim, – dedi unga javoban Louford xonim. – Men albatta, orqa suyagimni ko‘radi-gan bo‘lsangiz hech qanday qarshiligim yo‘q, lekin... men o‘larday qitiqdan qo‘rqaman...

Professor Finning qo‘llari beixtiyor musht bo‘lib tugildi. U o‘zini tutib turolmay:

– Louford xonim! Siz meni masxarabozga aylantirmoqchimisiz? – deb xitob qildi.

Shundan keyin u stol yoniga kelib o‘tirarkan, sigareta tutatdi-da, quruqqina qilib:

– Qabul tugadi – dedi.

Louford xonim sumkasidan sigareta olib, xotirjamlik bilan Jerri yoniga keldi:

– Chekib olishga ruxsat eting, doktor? Rahmat.

U qo‘lini Jerrining yelkasiga qo‘yib, uzr so‘ragan ohangda so‘z boshladi:

– Siz mening gapimni noto‘g‘ri tushundingiz. Rost aytyapman: chindan ham men qitiqdan qo‘rqaman. Undan tashqari, ozgina uyatchanman. Hatto o‘zimdan o‘zim uyalib ketaman. Bir necha marta shu deb azob tortganman.

Professor Finning qalbida allaqanday dilafgorlik hukm surardi. U juvonning qo‘lini o‘z yelkasidan olib qo‘ydi-da, tussiz-ta‘sirsiz ovozda:

– Louford xonim, nimani kutypsiz? – dedi.

– Hech nimani. Ha-ya, albatta. Menda bir taklif bor. Doktor, uyimga o‘zingiz kela olmaysizmi? U yerda men o‘zimni ancha erkin sezardim. Uyim juda yaqin: bu yerdan shimol tomonga yurilsa, ikki ko‘cha nari, xolos.

– Yo‘q, – qat‘iy rad etdi Jerri, – biz bemorlarni uyiga qatnab davolamaymiz.

– Yaxshi. Bo‘lmasa, men sizga qancha pul to‘lashim kerak?

– Hech qancha. Ketaverishingiz mumkin.

Juvon papiros qoldig‘ini kuldonga tashlab, yelkasini qisarkan, g‘alati yo‘sinda hazilomiz xayrlashdi:

– Kechirsinlar, Yevropalik doktorni bezovta qildim.

Jerri indamadi. U ko'zlarini bemordan uzmay tikilib turgan bo'lsa-da, juvon unga nigoh tashlamay, Jerri ko'rmagan allanimani ko'rayotganga o'xshadi. Kutilmaganda uning ko'ngliga bir fikr kelib qoldi. U o'rnidan irg'ib turib, hozirgina chiqib ketgan juvon orqasidan yugurdi. Zinapoyada yetib olib:

– Louford xonim, sizning uyingizga qachon borishim mumkin! – deb so'radi.

– Ertaga kechqurun. Soat to'qqizda.

Louford xonim sumkasidan tashrif qog'ozini olib uzatdi.

– Mana mening manzilim. Siz bilan tanishganimdan benihoya xursandman, janob doktor. Aminmanki, siz ham mendan xafa emassiz. Mana, ko'rdingizmi doktor, biz san'at ahllari birmuncha boshqalarga o'xshamagan xalqmiz.

Louford xonim chiqib ketdi. Chuqur o'ygaga botgan Jerri xonaga qaytib kelganida, uni og'zi qulog'ida mister Rivers kutardi.

– Bugun kechki ovqat pishirmaydigan bo'lding, – dedi ko'ngilchanlik bilan u, – biz «Saratoga» restoraniga boramiz. Bugun mening tug'ilgan kunim ekani esimga tushib qoldi: ertalab rosa oltmish besh yoshga kiribman.

Jerri o'z kasbdoshini, keksa jismida go'dak qalbi jo'sh urayotgan hamkasabasini chin yurakdan qizg'in tabrikladi.

Oradan bir necha daqiqa o'tib, ular ko'chaga chiqishdi. Manxettenning osmono'par baland binolari tepasiga minib olgan to'lin oyni ko'rib, zavq bilan tomosha qilishdi.

– Bu qanday mo'jiza-a! Hozir, axir, oynning to'lishgan vaqti emas-ku? – hayron bo'lib dedi mister Rivers.

– Bu mamlakatda hamma narsa bo'lishi mumkin, – dedi professor Finn yengil kinoya bilan. Chunki bugungi so'nggi bemor uning qalb osoyishtaligini buzib ketgan edi.

Ikkala doktor endi mashinaga o'tirishganda birdan Manxetten tepasidagi boyagi to'lin oy portlab, havoda rang-barang harflardan: «Kolo-Nol» tish pastasidan foydalaning... degan so'zlar hosil etib, yerga sochilib tusha boshladi.

– Qachon qarama, faqat reklamani ko'rasan – xo'rsinib dedi horg'in ovozda Jerri.

– Buning nimasi yomon? – so'z qotdi mister Rivers mashinasini yurgizar ekan. – Agar ana shu reklama bo'lmaganda, keyingi bir hafta ichida uch yuz dollar naqd foyda olmagan bo'larding.

Jerri bahslashib o'tirmadi. Faqat uning ko'nglidan: nima sababdan ana shu tish pastasini ishlab chiqarib, yana reklama qilishadi, axir har bir odamning tishi deyarli yasamaku, tun bo'yi u tishlar suv solingan stakanda tursa, bundan nima naf? – degan arzimagan gap o'tdi.

Atigi bir necha daqiqa muqaddam Louford xonimning chiroyli qilib bo'yalgan lablariga qarab, uni kuzatar ekan, Jerri tasodifan juvonning yarqillab turgan chiroyli tishlarini payqab qolgandi. Bunday tishlarni mashhur «Arnold D. Ettvud va K°» plastmass firmasi ko'plab ishlab chiqarardi.

Mister Rivers mashinasini «Saratoga» restorani oldida to'xtatib, zavq bilan:

– Bugun xarajatni men to'layman, – dedi.

OLTINCHI BOB

JERRI FINNING IKKINCHI MAROTABA BOLG'ACHASINI ISHGA SOLGANI, LEKIN SHUNGA QARAMAY O'Z OZODLIGI VA MUSTAQILLIGINI YO'QOTGANI

– Bugun kechqurun Xagar-skverda katta miting bo'ladi, – dedi mister Rivers o'z assistentiga, ertasiga ular kechki ovqatni yeb bo'lib chekib o'tirishganlarida.

– Sen u yoqqa borishni xohlamaysanmi?

Jerri horg'in qiyofada javob berdi:

– Yo'q... Boshqa joyga borishim kerak.

– Boshqa joyga borishim kerak?

– Ha, taklif qilinganman. Bir tanishimni borib ko'rishim kerak.

Mister Rivers taajjublandi:

– Axir, bu yerda seni hech qanday tanishing yo'q-ku!

O'z rahbari oldida ishonchini yo'qotmaslik uchun Jerri bo'sh vaqtlarida kasal ko'rishligini aytmadi. Shu sababdan ko'ngliga tasodifan birinchi kelgan gapni aytib, yolg'onni shunday do'ndirdiki, hatto uyalishga ham ulgurolmay qoldi.

– Qarindoshlarimdan biri Amerikaga sayyoh bo'lib kelibdi, shuni borib ko'rmoqchiman.

– Unday bo'lsa, men ham birga bora qolay? – dedi doktor Rivers o'ta soddaligiga borib.

– Ovora bo'lib nima qilasan... Boshqa, vaqting bo'lgan paytda borarsan.

Jerri mister Riversni chalg'itmoqchi bo'ldi:

– Bugun Xagar-skverda kim nutq so'zlarkan?

Mister Rivers kechqurun chiqqan gazetani olib, e'lonlar sahifasini ko'zdan kechira boshladi.

– Mitingda asosiy notiq Robert Popkinning xotini – Popkin xonim ekan.

– Robert Popkin, – takrorladi Jerri doktor Xinseyning xotinlarning uyda va uydan tashqaridagi jinsiy hayoti to'g'risida fikr to'plash uchun so'rovnoma to'ldirishga agent yollab yurgan quv va tilyog'lama xodimni eslar ekan. – Bu Robert Popkin o'sha meni doktor Xinsey ishiga tortgan xodim bo'lmasin tag'in?

– Yo'q, – javob qildi mister Rivers, – uning xotini bu.

Jerri doktor tepasiga kelib, mister Rivers yelkasi osha miting haqidagi e'lonni o'qib chiqdi. Kam deganda besh yuz dollarga tushgan bu e'lon quyidagi xushxabarni ma'lum qilardi:

Amerika ayollari! Sizning nomus-oringiz bir pul bo'lay deb turibdi. O'tgan yili o'zining axloqsiz va haqoratdan

iborat bo'lgan «Ersiragan xotin» asarini bostirgan yozuvchi Albert Xinsey hozir ikkinchi sharmandali kitobi, shu kecha-kunduzda keng ko'lamda reklama qilinayotgan «Muhabbat maktabi»ni bosib chiqarishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Agar butun omma ko'zi oldida xotinlar ichki dunyosi ana shunday sharmandali tarzda tasvirlansa, ularning or-nomusi nima bo'ladi?

Amerikada 15 milliondan ortiq a'zosi bo'lgan 14 mingta xotin-qizlar jamiyati bor. Bu jamiyatlarning hammasi katta g'ayrat-shijoat bilan doktor Xinseyning asari birona ham begunoh kitobxon qo'liga tushib qolmasligi uchun zo'r faoliyat ko'rsatib ishga kirishmoqlari zarur. Xotinlarni erkaklar zulmidan qutqarish ittifoqining Bruklin bo'limi (XEZQI) bugun kechqurun soat 8 da Xagar-skverda norozilik mitingi uyushtiradi. Mitingda XEZQI-ning raisasi, qirq sakkizta har turli xotin-qizlar uyushmalarining a'zosi, 1928-yildagi go'zal-sohibjamollar qirolichasi va to'rt marotaba Bruklin xonim unvoniga sazovor bo'lgan Robert Popkin xonim nutq so'zlaydi.

Barcha ayollarning ishtirok etishi majburiy.

**XEZQIning Bruklin mahalliy bo'limi.
Lyuchiya Chedvik – faxriy rais.
Lola Makdauell – kotiba va xazinachi.**

– Olamni ayollar boshqarishyapti, – dedi gazetani bir tomonga uloqtirib mister Rivers. – Xudoga ming bor shukurki, sen so'rovnoma to'ldirishni o'z vaqtida to'xtatding. Aks holda, biz oldin barcha ayol, keyin butun erkak bemorlarimizdan ajragan bo'lardik.

– Mitingni sen radio orqali eshita qolsang bo'lmaydimi? – so'radi professor Finn.

– Bu gaping judayam to'g'ri, – mister Rivers jonlanib ketdi. – Ha, rosti bilan ko'pchilik to'plangan va vaziyat keskin yig'ilishga ishtirok etish xatarli.

Oradan olti daqiqa o'tgach, mister Rivers radioni buradi, kerakli to'liqinni topib, divanga kelib o'tirdi. G'azabli ovoz efirni titratmoqda edi:

...Eshittirishlar Bruklin, Manxetten va Bronks studiyalari orqali olib borilayotir. Bizning mikrofonlarimiz Xagar-skver markaziga o'rnatilgan. Bu yerga, mitingga yuz mingga yaqin ayollar, bir necha o'nlab erkaklar, shuningdek, politsiyaning talay kuchi to'plangan. Mitingni XEZQIning Bruklin bo'limi nomidan Elen Batler xonim ochadi. Qani, marhalat, Batler xonim.

– Tashakkur sizga, mister Ken. Hurmatln tinglovchilar! Ayollarsiz bizning Amerikamiz nima qila oladi? Amerikani Amerika qilgan biz bo'lamiz. Mana endilikda bizni axloqsizlikning eng jirkanch botqog'iga tortmoqdalar. Doktor Albert Xinsey o'zining bemaza «Ersiragan xotin» degan kitobi bilan biz xotinlar jinsiga asrimizda eng og'ir haqorat toshini otdi. Hozir doktor Xinsey avvalgidan ham batarroq sharm-hayosiz yangi asarini bosmaga tayyorlamoqda. Doktor Popkin menga bir necha so'rovnomalar bilan tanishish imkonini berdi. Tanishdimu, ijtimoiy rivojlanishning yuksalishiga ko'maklashaman, deydi. Aslida jahondagi barcha onalarni, xotinlarni, opalarni, singillarni, qizlarni haqorat qilmoqda. Yo'q, u fanga hech qanday ko'mak bermaydi, faqat olam ko'zi oldida axloqsizligimizni fosh qiladi va bizning nikohdan oldin hamda undan keyingi gunohlarimizni ochib beradi. XEZQI pulga sotib olsa bo'ladigan eng yaxshi odamlarimiz ish ko'rayotgan Kongressdan bu masala bilan jiddiy shug'ullanishini talab qiladi. Shu bilan mitingni ochiq deb e'lon etishga ruxsat berasizlar. Mitingga Xotinlar Milliy uyushmasi Markaziy Komitetining raisasi Alva Ritter xonim iltifot ko'rsatib, homiylik qilishga rozi bo'ldilar. Rahmat sizga, ayollar!

– Rahmat, Batler xonim!

Qimmatli radio eshituvchilar! Siz «Blits»ni tatib ko'rdingizmi? Sizga ma'lumki, «Blits» dunyodagi eng yaxshi solod¹dan tayyorlanadi. «Blits» jahondagi eng yaxshi pivo. U chanqoqni bosadi-yu, odamni semir-

¹ Solod – yorma, arpa, bug'doy va hokazo, pivo, vino sanoatida ishlatiladi (*tarj.*).

tirmaydi. Qimmatli vaqtingizning bir daqiqasini ham «Blits»siz o'tkazmang!

Xagar-skverdan olib borayotgan eshittirishimiz davom etadi. Hozir havo juda dim, qilt etgan shamol sezilmaydi. Termometr soyada farengeyt bo'yicha 80 gradusni ko'rsatmoqda.

Eh! Eh! Ehe-he-hey! Dunyodagi eng mashhur nav «Filipp Morris» sigaretasini chekishni tavsiya etadilar, u tomoqni qichitmaydi, undan o'pka raki paydo bo'lmaydi! «Filipp Morris!» «Filipp Morris!» «Filipp Morris!» Eh! Eh! Ehe-he-he-hey!..

Hurmatli tinglovchilar! Bruklin, Manxetten va Bronks to'liqlari bo'yicha UDFS gapirmoqda. So'z Robert Popkin xonimga.

– Qimmatli tinglovchilar! Qimmatli ayollar! Biz hazil-mutoyibaga tushunamiz, ammo pornografiyaga – sharm-hayosizlikka chiday olmaymiz. Har bir erkak xotinlar haqida doktor Xinseydan ko'ra ko'proq biladi, ammo ular bilganlarini ichlarida saqlaydilar, bu haqda og'iz ochmaydilar, chet elga sotish mumkin bo'lgan ming tonnalab qog'ozni ana shunday bema'ni kitoblarni bosib chiqarishga sarf qilmaydilar. Mana, men butun olamga xotinlarning jinsiy xulqi to'g'risida doktor Xinseyning yuzlab xodimlaridan ko'ra ko'proq va qiziqroq hodisalarni gapirib berishim mumkin edi. Ammo axloq nuqtai nazaridan men bunday qilmayman, ovozim boricha qichqirib: «Mana, meni ko'rib qo'yinglar, men boshimdan oyog'imgacha va oyog'imdan boshimgacha mana bundayman!» deb hammaning diqqatini o'zimga tortmayman. Agar doktor Xinseyning yangi kitobi bosilib chiqib, uni pochta tarqata boshlasa, biz xotinlar, ana shu kitobga qarshi boykot e'lon qilamiz. Uning bironta nusxasini sotib olmaymiz – hatto o'qib chiqqan tanish-bilishlarimizdan so'ramaymiz! Doktor Xinseyning adabiy ijodi butun millatimiz uchun katta xavf tug'dirmoqda. U har ikkala jins o'rtasida misli ko'rilmagan qonli to'qnashuv yuz berishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shunday bo'lgan taqdirda xotinlarni erkaklar zulmidan qutqarish Ittifoqi o'zining nimaga qodir ekanini ko'rsatib qo'yadi. Mana hozir, mening nutqimdan keyin, bizning Ittifoqimiz foydasiga xayr-ehson to'plash boshlanadi. Uni to'plovchilar – oktabr oyida o'tkaziladigan Butunamerika go'zallik tanlovining nomzodlaridir. Siz ularning kiyimlaridan, bo'ksalaridagi ensiz belbog' va haqiqiy qoplon terisidan tikilgan siynabandlaridan tanib olishingiz mumkin...

– Qimmatli tinglovchilar! Siz o'zingizni horg'in his qilypasizmi? Bir stakan «Buggenxeym» pivosidan iching, shu zahoti hordig'ingiz chiqadi. U sizni tetik va bardam qiladi, undan semirmaysiz!

Bahosi tushirilgan tayyor kiyimlar bozori chaqqon. «Diggels va aka-ukalari» firmasi o'zining butun zaxirasini sotib bitirmoqda. Narxlar haddan tashqari pasaytirilgan. Bunday arzon-garovga sotishga o'zimizniyam ko'zimiz qiymaydi, lekin ilojimiz yo'q, mollarimizning bekor taxlanib yotishini yomon ko'ramiz. Yodingizda tuting: «Diggels va aka-ukalari»...

– ...sadaqa to'plovchi qizaloqlar yoningizga kelganda qurimsoqlik qilmay yaxshi himmat ko'rsatinglar, ishqilib, ehsoninglar bir dollardan kam bo'lmasin. Kelajakda mablag' bizga yanada ko'proq kerak bo'ladi. Chunki oldimizda biz xotinlarning butun hokimiyatni o'z qo'limizga to'la oladigan soat yaqinlashib kelmoqda. Tibbiyot hozir shu qadar hamma narsaga qodir bo'lib ketganki, erkaklarga bo'lgan ehtiyoj sekin-asta yo'qolib bormoqda, yaqin orada ular butunlay keraksiz bo'lib qoladilar. Qo'g'irchoq bilan kitobni tashlab, erkaklar to'g'risida o'ylay boshlagan maktab yoshidagi qizlarni ko'rib, men astoydil, chin qalbidan achinaman. Garchand ular o'zlaridan katta dugonalarining erga tekkach, ranglari o'chib, ozib-to'zishlarini, sochlari pahmoq bo'lib, o'zlari shalvirab qolishlarini, yasama tishlari esa suvli stakanda naq ertasi peshingacha turishini yaxshi bilganlari holda baribir erga tegish orzusidan qaytmaydilar. Ba'zi

yosh qizlar kichik baliq yoki qisqichbaqaga qo'l tek-kizgani qo'rqadilaru, ammo bemaza bir maishatparast maxluq sal imo qilsa bormi, o'ylamay-netmay o'zlari-ni uning bo'yniga otishlaridan goyat afsuslanaman. Afsuski, shunday xotinlar ham borki, ular ma'qul bir siynaband tanlash uchun ikki kunlarini sarf qiladilar, ammo er tanlashga kelganda bir daqiqa ham ko'plik qiladi, deb o'yladilar. To'g'ri, hozirgi urushdan keyingi davrda siynaband tanlashga nisbatan er tanlash xiy-la cheklanib qolgan. Shu bilan birga, ularning baland martabali ta'siri ham shu daraja kamaygan.

Men taassuf bilan qayd etamanki, xotinlarimiz o'zlari-ga ko'ylaklik sotib olayotganlarida materialning sifati va chidamliligi to'g'risida aniq ma'lumot olishga tirishadi-lar, lekin er tanlashda, hatto o'zlarini tuqqan onalaridan ham maslahat so'rab o'tirmaydilar. Baribir, biz yaxshi bilamizki, erkaklar – faqat qorong'ida o'z fe'l-atvorlarini ko'rsatishadi. Dunyoda millionlab erkaklar faqat xotin-lar yolg'izlikni yomon ko'rishlari natijasidagina er bo'lib kelmoqdalar. Bizning o'n to'rt ming xotin-qizlar uyush-malarimiz ana shu bema'nilikni tag-tomiri bilan yulib tashlash uchun kurashmoqda. Bundan keyin xotin-qizlarimiz jamoat faoliyatiga keng jalb etilishi kerakki, ular yolg'izlik balosidan qutulib, erkaklarning uylanish uchun qilgan butun xatti-harakati zoe ketishi lozim.

Keyingi yillarda jinlar o'rtasidagi ziddiyat tobora keskin tus olib boryapti. Agar doktor Xinseyga o'xsha-gan odamlar hech qanday jazo tortmay bizni haqorat qila bersa, ikki oradagi qaramaqa-qarshilik yana ham kuchayadi. To'g'ri, fohishalar – xotinlar, lekin xotinlar-ning hammasi ham, hatto Parijdagi xotinlarning ham-masi ham fohisha emas – bu ko'rinib turgan haqiqat!

Xotinlar kelin bo'lib unashtirilganlarida katta imti-yozlarga ega bo'ladilaru, nikohdan keyin hammasidan mahrum bo'lib qoladilar. Chunki er ham avtomobilga o'xshagan bir gap: uni ko'z qorachig'ingday asrama-sang, almashtirishga to'g'ri keladi. Agarda xotinlarning

hammasi yetarli darajada oqila bo'lganlarida, ular faqat unashtirilgan qolar, keyinroq nikohdan o'tish haqida barcha takliflarni qat'iyon rad etgan bo'lar edilar.

Xotinlarimiz erlarini sanamga aylantirib, ularga sajda qilishlariga, xizmatlarini beminnat o'tashlariga millionlab misol keltirish mumkin: shuningdek, millionlab misollar borki, ba'zi xotinlar erlarini boplab qo'lga olganlaridan ular laqma va beozor buzoqqa aylanib qoladilar va bunday erlarga endi na sut, na meva sharbati darkor bo'ladi...

– Qimmatli tinglovchilar! Yaqingacha ham go'zallik tabiatning eng oliy in'omi, u juda kam odamlar mahriga beriladi, deb hisoblar edilar. Hozir esa har bir xotin-qiz go'zallik sovuni – «Diamant»dan foydalanib, benihoya xushro'y va chiroyli bo'la olishi mumkin. «Diamant» fusunkor ayollar jozibasining aslo o'lmas siridir. Doimo xotirangizda tuting: dunyodagi eng yaxshi go'zallik sovuni «Diamantdir». «Di-a-mant!»

...Hurmatli ayollar! Hozirgi zamonning psixologiyasi xotinlarni juda ko'p turlarga ajratadi. Shunday ayollar borki, ular polvonday baquvvat, boshqa biri tarvuzday xo'ppa semiz, yana bir toifasi faqat pardozga zo'r beradi, ba'zi xotinlar mehr-shafqatli va yovuz-g'arazgo'y, qaynoq ehtirosli va muzdek sovuq, kamsuxan va vaysaqi-ezma, oqila-dono va serg'ayrat, tajang va serjahl bo'ladilar. Ammo ularning hammasi bir narsada – o'zlariga izzat-hurmat talab qilishida yakdil, yakfikrlar. Doktor Xinsey bo'lsa barcha xotinlardan ularning nomus-orini tortib olmoqchi. Unday bo'lsa biz bolalarimiz ko'ziga qanday qaraymiz? Innaykeyin, biror erkakka zavq bilan nazar tashlashga haqqimiz bormi? Yo'q, aslo yo'q! Biz erkaklarga sira muhtoj emasligimizni ko'rsatib qo'yishimiz kerak. Bir umrga ozod bo'la olgan xotin baxtiyordir. Erkaklarni laqillatib keta olgan xotin esa undan ham baxtliroq! Hurmatli ayollar! Mening gapimga ishona bering: o'ziga er o'rniga itni do'st qilib olgan xotin dunyoda baxtililarning baxtlisidir. Hech bo'lmasa

spanel zotidan boqish kerak. Qora bo'lsa ham, malla bo'lsa ham mayli.

Agar xotin kishi it tanlasa, bu uning birinchi muhabbati bo'lishi mumkin. Bordiyu, uni yaxshilab parvarish qilsa, o'z vaqtida it solig'ini to'lab tursa, to'rt oyoqli qadrdonini ko'rgazmaga olib borsa va nihoyat, «Layf» jurnalida itining suratini chiqartirsa, bu uning so'nggi muhabbati bo'ladi. Hech qachon, baribir, bir kun emas, bir kun qochib ketadigan erkakka bunchalik ishonch bilan qarash kerak emas. Erlar begona ayollar atrofida girdikapalak bo'ladilaru, o'z xotinlarini it bo'lib qopadilar. Yaxshi tarbiya ko'rgan it esa buning xuddi aksini qiladi. Mitti spanel hamisha to'rt oyoqda yuradi, er bo'lsa – faqat majlislardan charchab qaytgan paytlarida shunday vaziyatga tushadi. Lekin u o'zini jimgina stol ostiga kirib ketadigan yaxshi it singari tutmaydi, yo'q, avval u pol qiyshiq, stol turmayapti, deb uni ag'darib tashlaydi, keyin xotinini it deb haqorat qiladi. Haqiqiy itga suyak tekkanda jimgina o'z joyiga kirib ketadi: ammo er oldiga ovqat qo'yilganda yosh boladek injiqlik qiladi! Qarigan it suyak g'ajiy olmaydi. Er bo'lsa qarigani sari xotinini kemira boshlaydi. Itning egasi iti o'lib qolganida o'ziga osongina yangi it topib oladi. U it qiz bola qo'lini qanday yalasa kampir qo'lini ham shunday mehribonlik bilan yalay beradi. Xotin bechora eridan qutulganida, eri uni shu daraja joniga tegib, o'lar holatga solgan bo'ladiki, u juvonda yangi er topish uchun zig'ircha ham majol qolmaydi. Birga yashab topgan barcha jamg'armalar esa ko'mish marosimiga va qazo qilganning tabiatiga o'xshash og'ir qabr toshi qo'yishga sarf etiladi...

– Hurmatli tinglovchilar, qimmatli xotinlar! Biz siz bilan Robert Popkin xonim nutqining birinchi qismini eshitdik. Olomon shod-xurram. Ma'qullagan ovozlar va qarsaklarni sizlar ham eshitayotibsizlarmi? Ha, shunday, qimmatli tinglovchilar, miting zo'r muvaffaqiyat bilan o'tmoqda. Ammo «Sani Bruk» viskisi ichilmagan yig'inni yig'in deb bo'lmaydi. «Sani Bruk» – kishini tetik

va bardam qiladi, qalbdagi yaxshi fikrlar uyg'otadi. «Sani Bruk» – eng keng tarqalgan, eng sevib ichiladigan, jahonda talabgori eng ko'p viski hisoblanadi. Bu – mam-lakatimiz haqli ravishda faxrlansa arziydigan viskilar qiroli. Viskilarning a'lo navini qidirib, ovora bo'lib yur-manglar. Sani Bruk – sizning viskingiz, u faqat sizga atab, maxsus siz uchun chiqarilgan!..

Shunday qilib, qimmatli tinglovchilar, biz yana Robert Popkin xonimga so'z beramiz. Qani, marhamat Popkin xo...

Soat chorak kam to'qqiz bo'lib qolgani uchun Jerri radioni o'chirdi. Mister Rivers allaqachon uxlab qolgan va tushida istehzoli jilmayardi. Bu yasama kulgi umu-man tushga ishonmaslik oqibati emas, balki doktorning yasama tish qo'ygani natijasida paydo bo'lgan edi. U havas kelar darajada qattiq uxlardi.

Jerri kostyumini kiyib, ko'krak cho'ntagiga grelkani soldi, keyin elektromassaj apparatini olib, ohista xonadan chiqdi. Olazarak, tovushsiz qadam tashlarkan, nim qorong'i pod'ezd tomon ketdi. Bu yerda allaqanday yigit va o'quvchi qiz so'zsiz muhabbat izhor qilish bilan band edilar. Ozod ta'lim sistemasining tarbiyalanuvchilari atrofdagilardan zarracha ham uyalmay o'zlarining jo'shqin yoshlik muhabbatlari o'tida qovurilar edilar. Jerri uzoq davom etayotgan bo'saning hali-beri tugashiga ko'zi yetmay ularni chetlab o'tdi. Eshik tagida ko'chadan kirib kelayotgan odamga urilib ketdi. U kishi hamisha charm portfelini qo'ltig'idan qo'ymaydigan doktor Popkin edi.

– Omadni qarang! – xursand bo'lib ketdi mitti doktor, – men sizni izlab kelayotgan edim.

Jerri juda zarur bir ish bilan ketayotganini aytmoqchi bo'luvdi, ammo tibbiyotning iste'dodli arbobi o'qday otilib chiqayotgan o'zining so'zlaridan bo'lak hech gapni eshitmadi.

– Professor Finn, nima uchun siz so'rovnoma go'ldirishni to'xtatib qo'ydingiz? Bizga ko'rsatgan har qanday

qimmatli yordamingiz sizni Amerika fuqarosi etib qabul qilinishingizni osonlashtiradi-ku, nahot buni o'zingiz bilmasangiz?

– Buni men yaxshi bilaman, ammo bemorlar boshqa fikrda. So'rovnomalaringiz menga xalaqit beryapti. Umuman, xotin-qizlarning vajohati yomon, yaxshisi, ularning izzat-nafsiga tegmaslik kerak.

– Vajohati yomon? Siz nima to'g'rida gapiryapsiz?

– Men hozirgina Xagor-skverdan olib berilgan eshitirishni tingladim. U yerga yuz ming xotin yig'ilib katta norozilik mitingi o'tkazishyapti va...

– Yuz ming! – gapni bo'ldi hayrat bilan doktor Popkin. – Bu biz kutgandan ham ortiq-ku! Do'stim, axir bu nur ustiga nurku! Afsuski, men mitingga yetib borolmadim... Demak, siz yuz mingdan ortiq deysizmi?!

– Ha, vajohatlari ham haddan tashqari yomon, – takrorladi Jerri. – Men sizning bunchalik xursand bo'lishingiz boisiga tushunolmayapman, doktor, buning ustiga sizning... kechirasiz doktor, axir sizning turmush o'rtog'ingiz...

– Nutq so'zladi, – doktor Popkin ikkilanayotgan Jerri-rining mushkulini oson qildi. – Ming afsus, men nutqni eshitishga ulgurmadim. Sho'rlik ba'zida nutq so'zlash oldidan o'zini juda yo'qotib qo'yadi. Ha, aytganday, qalay, uning ovozi sizga yoqdimi?

– Ovozi yoqimli ekan... lekin nutqi juda keskin va qoralovchi.

– Nutqni tanqid qila ko'rmang: uni men yozib berganman...

– Siz?..

– Ha, men. Men hamisha xotininning nutqlarini yozib beraman. Buning evaziga u ham ba'zi masalalarda menga yordam beradi.

Jerri bosh chayqadi:

– Hech narsaga tushunolmay qoldim. Nazarimda, butun miting doktor Xinsey va uning yangi kitobiga qarshi norozilik bayon etib tashkil qilingan-ku.

– Mutlaqo to'g'ri. Gap shu yerda qolsinu bularning bari doktor Xinsey puliga va uning shaxsiy tashabbusi bilan uyushtirildi.

– Nahotki shunday bo'lsa?

Doktor Popkin Jerrining yelkasiga qoqdi va:

– Siz yaqinida jonga tekkan o'sha eski hovli – Yevropadan kelganingiz uchun bular sizning ko'nglingizga uncha o'tirishmayapti. Bilasizmi, qimmatli professor, bizda hamma narsani reklama bajaradi. Har qanday tadbir-chora qo'llab ko'riladi. Agar buyum haqida sira gapirilmasa uni hech kim xarid qilmaydi. Nima gapiirilganining ahamiyati yo'q, ishqilib, biron nima deyilsa bas. Indamay o'tilsa boshlangan har qanday zo'r ish, yaxshi tashabbus baribir barbod bo'lishi mumkin. Mitingga bu qadar ko'p odam yig'ilganiga men chin qalbidan xursandman. Agar radio orqali yuz ming deyilgan bo'lsa, demak, parkka kam deganda ellik ming odam kelgan bo'ladi. Bu – doktor Xinseyning yangi kitobiga yana yigirma ming obunachi degan so'z.

Jerrining ruhi tushib ketdi. Qanday anoyi odamlar bu yozuvchilar – o'z asarlarini o'zlari reklama qilishni bilmasalar! Qarang, kitobni har kim yoza berar ekanu, ammo uni pullashga kelganda ishning ko'zini biladigan olg'ir odam kerak bo'larkan. Isaak Rivers: «Bunga» ko'nika bilish kerak. Bu yer senga Ko'hna dunyo emas deb juda to'g'ri aytgan ekan.

Jerri shoshilib qoldi.

– Kechirasiz, doktor, men ketishim kerak.

Doktor Popkin uning qo'lini mahkam ushladi:

– Demak, siz so'rovnomaga to'ldirishni yana davom ettirasiz-a? O'zim ham shunday qilasiz deb o'ylodim? Bir vaqt kelib yangi-yangi ufqlar ochayotgan tibbiyotimiz tarixi yozilganda doktor Xinseyning nomi bilan sizning ismingiz ham solnomada bir qatorda turadi!

Jerri bir amallab doktordan qutuldi-yu, trotuar bo'ylab yugurganicha ketdi. Biroq doktor Polkin unga yetib oldi. Jerri qadamini yana jadallatdi, oxiri chopish-

ga tushdi. U xavotir bilan yoniga ko'z qirini tashlab, o'zi bilan yonma-yon bab-baravar chopib ketayotgan mitti doktorni ko'rdi, u ham bir qadam ortda qolmay chopib borardi.

– Demak, siz so'rovnoma to'ldirishni davom ettirasiz, – harsillagancha qichqirdi xotinlar jinsiy xulqi haqidagi ilmning jonkuyari, – men sizni juda yuqori baholayman, mister Finn. Siz – tengi yo'q shaxs, noyob iste'dodsiz...

Jerri qadamini yana ham tezlatib, yo'l ustida bir necha yo'lovchilarga urilib, biqiniga turtib o'tdi va kutilmaganda allaqanday kattakon uyning qop-qorong'i hovlisiga burildi. Bu yerda iz quvib kelayotgan ta'qibchisini axlat qutilari bilan avtomobil siniqlari uyumi orasida rosa aylantirdi. Keyin yana ko'chaga otilib chiqib, manzil yozilgan kartochkaga ko'z soldida, tez mo'ljal olib, o'zini ko'cha eshigiga urdi. Ikkinchi qavatda u «Joan Louford» degan yozuvli kichik taxtacha osilgan eshikni osongina topib oldi.

Jerrining yuragi qattiq urardi, oyoqlari o'larday charchagan odam oyog'iday majolsiz edi. U butun yo'lni poygachi otday chopib kelganiga qaramay, besh daqiqa kechikkan edi. Eshikdagi qo'ng'iroq tugmasini bosishdan oldin bo'yinbog'ini tuzatib, grelka bilan elektromassaj do'ppayib turgan cho'ntaklarini paypaslab ko'rdi – hammasi joyida. Shimining orqa cho'ntagiga qo'l yubordi – bolg'acha ham o'rnida. Ochig'ini aytganda, bu harakatlarning bari uning ruhiy holatini bildiruvchi belgilar edi.

Ammo bunday asabiylashmasa ham bo'larkan: Joan Loufordning o'zi cho'milganda kiyiladigan eng yangi kostyumda, go'zal va yoqimli jilmayib unga peshvoz chiqdi.

– Doktor, meni kutib qolmang deb, kiyinib turibman, – dedi Louford xonim zo'r samimiyat bilan.

Jerri, bemori kiyingan emas, yechingan deb o'ylovdi, ammo o'zining vazifasi goyat jiddiy ekanini eslab, ayol badaniga qaramaslikka tirishdi. U grelka va elektromas-

saj apparatlarini olib, uy bekasidan elektr shtepselining qayerdaligini so'radi. Keyin bemorni ko'rish uchun kushetka bor-yo'qligi bilan qiziqdi! Kostyumini yechib tashlab, ko'ylagi yenglarini shimarib oldi.

– Boshlasak bo'ladi, – dedi Jerri rasmiy ovozd.

– Doktor, avval biron qadah vino ichib olishni istamaysizmi? – nozlanib so'radi undan Louford xonim.

– Rahmat, iltifotingiz uchun tashakkur.

To'rtinchi qadahdan keyin Louford xonim:

– Ichayotganimiz rang-barang bo'lsin uchun endi viski olib kelsam-a? – deb taklif qildi.

Jerri «yo'q» deganday bosh chayqadi va soatiga qarab qo'ydi. Chorak kam o'n edi. Vaqting ketdi – naqding ketdi, degan gap bor, bu safar uning birdan-bir oladigan haqi shu yerda o'tkazgan vaqti bo'ladiganga o'xshaydi. Jerri vironi maza qilib icharkan, xonaga chaqqon ko'z solib chiqdi. Louford xonimning uyi did bilan jihozlangan edi.

– Uyingizda xonalar nechta?

– Beshta.

– Bunday shinam besh xonali uyda bitta o'zingiz turasizmi?

– Ha. Hozircha. Ba'zi paytlarda akam mehmon bo'lib keladi. Qani, viski olib kelaymi?

– Yo'q, rahmat.

Jerri nimaga rozi bo'lib, nimadan bosh tortishi kerakligini g'ira-shira fahmlardi. Nihoyat u:

– Marhamat qilib kushetkaga yoting, men orqa suyaklaringizni ko'ray, – dedi sipolik bilan.

Louford xonim bu iltimosni darhol bajo etdi, ammo uning so'zini butunlay anglab yetmadimi, harqalay, professor Finn yana ham muloyimlik, iymanish bilan:

– Louford xonim, marhamat qilib qorningiz bilan yoting, – dedi.

Bemor xo'rsinib xiroamaliyotchiga orqasini o'girib yotdi. Jerri dardga chalingan umurtqani izlay ketdi. Uning sinchkov barmoqlari epchil harakat qila boshladi. Oradan bir daqiqacha o'tgach, u dorilamon xitob qildi:

– Pastdan to‘rtinchi umurtqa! Shu joyda kichik tunguncha paydo bo‘pti. Siz, qachonlardir biron og‘ir ish qilib, belingiz og‘rib qolganmidi?

– Esimda yo‘q...

– Ehtimol, u bundan ko‘p yillar oldin sodir bo‘lganidir. Mana, o‘sha kemirchak asabni ezib turganidan og‘riq oyoqqa va boshga tarqalmoqda.

Xuddi shu daqiqada bemor orqasiga o‘girilib, sira kutilmaganda:

– Doktor, siz uylanganmisiz? – deb so‘rab qoldi.

– Yo‘q... bo‘ydoqman, – javob berdi Jerri bir nafas xayol surib. Uning xotirasiga Isaak Riversning qo‘lbola hikmatli gapi keldi: «Hamma erkaklar ham birday nodon emas – ba‘zilari kekxa bo‘ydoqligicha qoladi. Keksa bo‘ydoq esa xotinlarni uylangan erkaklardan ko‘ra yaxshiroq biladi, agar buni u bilmaganda kekxa bo‘ydoq bo‘lib yurmas edi. Eng muhimi, u o‘zini tutishda me‘yorini ham esdan chiqarmaydi».

– Demak, uylangan emassiz? – quvonch bilan takror so‘radi Louford xonim.

– Ha, albatta... lekin buning sizni to‘rtinchi umurtqangizga nima daxli bor?

– Bilmayman. Xo‘sh, endi men nima qilishim kerak?

Ma‘lumki, kekxa bo‘ydoq xotini bo‘lmagani uchun xotindan shikoyat qilmaydi, bolalari ham yo‘qki, ularning sho‘xliklari to‘g‘risida gapirib bersa. Shuning uchun u o‘z ishi haqida so‘zlaydi. Jerri xiroamaliyot to‘g‘risida so‘zladi. Xona o‘rtasiga chiqib, bemorga o‘git-nasihat bera boshladi:

– Bir kunda uch mahal mana bunday qilasiz. Birinchidan: avvalo dastlabki vaziyatda turasiz – mana bunday. Keyin qo‘lingizni belingizga tirab (bosh barmoq orqa tomoningizda bo‘lsin), so‘ngra yelkangizni baland ko‘tarib, mana bunday qilib bor kuchingiz bilan belingizni qisasiz. Innaykeyin, oyog‘ingizni yelkangiz barobarida ochib qo‘lingizni ikki yonga yozasiz. Shundan keyin qo‘lingizni dam-badam orqaga va oldinga zarb

bilan tashlab, ayni vaqtda gavgangizni egib, mana bunday harakat qilasz...

Bu amaliy mashg'ulotdan Jerrining peshanasida marjon ter paydo bo'ldi, yuzi bilan bo'yinlari sholg'omday qizarib ketdi.

– Dardga asosiy sabab shu to'rtinchi umurtqa ekaniga o'zingiz aniq ishonasizmi? – so'radi Louford xonim sal ishonqiramay.

– Agar men xato qilayotgan bo'lsam, ko'rganim uchun mutlaqo haq olmayman.

Bemorning ikkilanayotgani Jerrini talvasaga solib qo'yib uning barmoqlari yana go'zal xotinning jozibali yelkasi bo'ylab to'rtinchi umurtqani izlab ketdi. U barmog'ining uchini umurtqa orqasidagi chuqurchaga endi botirmoqchi bo'lgan ham ediki, bemor ayol kutilmaganda dod solib odamlarni yordamga chaqira boshladi. O'zini yo'qotib qo'ygani Jerri darhol qo'lini tortib oldi, a'zoi badaniga titroq kirdi. Bemorning dod-voyi tobora avjga chiqib, u sochlarini yoyib tashladi. So'nggi moddada tikilgan ensiz siynabandini yirtib, polga uloqtirdi. Xuddi shu lahzada Jerri qulog'iga eshik kalitining aylangani eshitildi. Eshik lang ochilib xonaga... Charlz Louson otilib kirdi! Bu o'sha – yaqinginada Jerri to'qnashib qolgan Charlz Lousonning xuddi o'zginasi edi. Louford xonim ingrashdan to'xtab, yig'idan qizarib ketgan ko'zlarini ishqalar edi. Eshikda tomoshatalab qo'ni-qo'shnilar va farrosh paydo bo'ldi. Charlz jabrlanuvchi ayolga tashlanib, jahl bilan so'radi:

– Bu gazanda senga nima qildi?

– Aytmayman, aytolmayman... – g'amgin ingradi u.

– Aytmasang ham hammasi ravshan, – dedi ma'noli qilib Charlz.

U Jerriga noxush nazar tashlab, keyin eshik tomon o'girildi va shu yerda turgan xaloyiqqa, to'g'rirog'i, farroshga murojaat qildi:

– Gap nimadaligini ko'ryapsizlar-a? Dodlagan qich-qiriqni ham eshitdinglar. Manavi maraz singlimning no-

musiga tegmoqchi bo'lganida u o'zini himoya qilib dod soldi, yordamga chaqirdi. Mana endi jinoiy ish qo'zg'al-sa shu ko'rganlaringizni sudda gapirib berasizlar.

O'nlab juft ko'z bu g'ayritabiiy tomoshaning nima bilan tugashini qiziqish bilan ko'rardiyu, lekin Charlz hammani chiqarib yuborib, eshikni yopib oldi. Xaloyiq yuz bergan voqeani zinada turib muhokama qila boshladi. Shundan keyin Charlz Jerri yoniga kelib, uni so'roqqa tutdi.

– Sen nega mening singlimga yopishding?

– Bu yerda qandaydir anglashilmovchilik yuz berdi, – o'zini himoya qilishga tirishdi Jerri. – Men tushunolmay qoldim.

– Men hammasiga tushunib turibman. Sen uning nomusiga tajovuz qilmoqchi bo'lgansan.

– Yolg'on! – xitob qildi Jerri va xalatini kiyayotgan Louford xonimga yordam so'ragan qiyofada tikildi, – Louford xonim, aslida ish qanday bo'lganini akangizga o'zingiz tushuntirib bering.

– Men biron nima deyishni xohlamayman, – javob berdi ohista entikib u.

– Mana ko'rdingmi! – quvonch bilan dedi Charlz, – agar sen negr bo'lganingda bormi, xomtama bo'lma, shak-shubhasiz elektr stulda o'lib ketarding. Hozir bo'lsa qamoqxona bilan qutulasan. Guvohlar bor.

Jerri o'zini qo'lga olishga harakat qilib ko'rdi.

– Men xiroamaliyotchiman, buni o'zingiz ham yaxshi bilasiz. Louford xonim o'zining bel og'rig'ini ko'rsatish uchun meni uyiga taklif etdi. Louford xonim, men rostini aytyapman-a, shundaymi?

– Men hech nima deyishni istamayman, – quruqqina takrorladi juvon.

Charlz Jerriga g'olibona nazar tashladi.

– Hoy tabib, qo'y bu bo'lmag'ur yolg'oningni, bari-bir hech ish chiqmaydi. Sen singlimni badnom qilding. Buning uchun pul to'lashing kerak.

– Pul to'lashim kerak?

– Ha. Yoki puldan cho'zasan yoki unga uylanasan.

Jerri bu mashmasha sababchisi bo'lgan ayol oyog'i ostiga yiqilib, yolvora boshladi:

– Louford xonim, bunday tamagirlikka siz nima deysiz?

– Siz buni tamagirlik deb hisoblasangiz, unda men jim o'tirishimga to'g'ri keladi.

Charlz shlyapasini ko'zigacha bostirib kiydi. Jerri uning maqsadiga tushungan bo'lsa ham lekin kechik-kandi.

– Charli! Judayam qattiq urma! Yuziga ehtiyot bo'! – qichqirdi juvon.

Jerri qop-qora qonga bo'yalgan lablarini artarkan, Charlz oyog'i ostiga ag'darilib tushdi. Xuddi shu fursatda u o'zining yengil quroli borligini esladi. Charlz hali g'alaba nash'asini surib ulgurmay, Jerri bolg'asi bilan uning tizzalariga ura ketdi. Charlzning cho'ntagiga tiqqan qo'llari shu ondayoq qamchiday ikki yoniga jonsiz shalvirab tushdi. Bu orada Jerri bolg'achasi bilan uning tirsagiga ham urib ulgurgan edi. U ehtiyoti shart Charlzning ikkinchi tirsagiga ham bir tushirib, dushmanini butunlay safdan chiqardi. Shundan keyin Jerri polda cho'zilib yotgan raqibining qo'tig'i ostidan ko'tarib, tashqariga, zinaga olib chiqib tashladi. Xonaga qaytib kirib juvondan bu qilg'ilik boisini tushuntirib berishini talab etdi:

– Louford xonim, bu insofdan emas, muttahaamlik. Men bu ishni politsiya ajrim qilib berishini talab qilaman. Men bilan bunday hazillar ketmaydi.

Ayol Jerriga hayrat va iltijo nazarida tikilib:

– Tinchlaning, xotirjam bo'ling, professor, – dedi. – Charli o'zi shunday jahli tez, tajang odam. U faqat meni himoya qilmoqchi edi-da.

– U do'q bilan qo'rqitib, meni tovlamoqchi edi! – qichqirdi Jerri.

– Yo'q, yo'q. Sira ham! Axir mana o'zingiz ham ko'rib turibsiz-ku, qanday qaltis ahvolda qoldim men. Uyda istiqomat qiluvchilar endi mening ustimda g'iybat qilib,

mish-mish tarqatishadi. Odamlarning tabiati shunaqa. Hozir axloqli bo'lish modaga aylangan.

– Odamlarning gap-so'zi meni qiziqitirmaydi.

– Meni qiziqitiradi. Axir, gap bu yerda xotin kishining nomusi ustida ketyapti. Mening nomusim ustida! Siz tushunyapsizmi buni?

– Yo'q.

Louford xonim ro'molchasini olib, Jerrining iyagidagi qon izlarini arttdi. Har holda uning fe'li keng, tabiati yumshoq ko'rinadi. Sonlari bo'lsa undan ham yumshoq edi. U Jerrining ko'zlariga tik qarab, ohista so'radi:

– Nahotki, menga uylanishni taklif etishsa – bu tamagirlik bo'lsa?

Shu kezda Jerri, o'z sovchilariga hazil-mutoyiba bilan: – Ha, bu sira kutilmagan ish bo'ldi-da! – deb javob beruvchi yosh qizga o'xshardi. Ma'lum bo'ldiki, xotin kishining qalbiga uning orqa suyagi orqali qo'l solish kerak ekan.

Ammo Jerri bir ish qilsa, avval puxta o'ylab, keyin undan qaytmaydigan odamlardan edi. U sovuqqongina so'radi :

– Louford xonim, nega siz meni masxarabozga aylantirmoqchisiz?

– «Louford xonim, Louford xonim» – jahl bilan dedi ayol. – Meni «Louford xonim» deb chaqirsang jonim chiqib ketadi. Men sen uchun Joanman. O'zingning isming nima?

Jerri hali biron nima deb ulgurmay, eshik yana lang ochildi-da, xonaga biroz oqsab, politsiyachilarni boshlab, Charlz kirdi.

– Xo'sh, bu yerda nima bo'lyapti? – surishtirishdi hukumat vakillari.

Joan churq etmay o'zini chetga olib, Jerriga javob qilish imkonini berdi.

– Qonunga xilof hech nima yuz berayotgani yo'q, – dedi xotirjamlik bilan Jerri.

– Hech nima? Bilasizmi, bunday ishlar uchun Qo'shma Shtatlar tuprog'idan quvib chiqarishlarini?

Avvaliga siz xotinlarga yopishsangiz, keyin erkaklarni tutib ursangiz!

– Bu yolg'on gap, – boyagiday xotirjam javob berdi Jerri.

– Chamasi, u hamma narsani rad etadiganga o'xshaydi, – gap qistirdi Charlz, – u allaqachon qutulichimiz kerak bo'lgan yevropalik daydilardan. Tasqara kelgindilardan...

– Faqat men gapiraman! – qat'iyat bilan uning so'zini bo'ldi politsiyachi va Jerriga murojaat qildi: – Qani, qurolingizni ko'rsating!

– Menda hech qanday qurol yo'q, – dedi soddalik bilan Jerri.

– Sizda allaqanday zarbdor qurol bor ekan, – so'zida qattiq turib takrorladi politsiyachi. – Allaqanday tayoqmi yoki bolg'ami?

Jerri cho'ntagidan bolg'achasini oldi.

– Bu mening ish asbobim.

– Nima, siz duradgormisiz yo slesarmi?

– Men xiroamaliyotchiman.

– U qanaqa hunar?

– Vrachman, bel og'rig'ini davolayman.

Politsiyachi Jerrining qo'lidan bolg'achani olib, muoyim jilmaydi, u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'rdi. Uning o'g'li xuddi ana shunday bolg'acha bilan yaqinda shaxsiy avtomashinaning qanotini pachaqlab tashlagan edi.

– Bu bolg'achani nima qilasiz? – so'radi politsiyachi Jerriga sinovchan nazar tashlab.

– Kasallarning refleksini tekshiraman.

– Nimasini tekshirasiz?

– Reflekslarini.

– Bu nima o'zi.. u odamning qayerida bo'ladi?

– U odamning hamma yog'ida, butun g'avdasida bo'ladi. Xiroamaliyotlar uni ko'proq odamning tizzasidan oson topib olishadi.

– Bo'lmag'ur safsatangizni qo'ying. Mana, menda hech qanday siz aytgan o'sha... lif... lix-rekslar yo'q.

– Refleks har bir odamda boʻladi. Sizda ham bor. Politsiyachi Jerriga bolgʻachani qayta uzatarkan: – Qani, koʻrsat-chi? – dedi.

Jerri politsiyachining tizzalarini bolgʻaladi. Qattiq qoʻl va talabchan tartib-qoida nazoratchisi shu onda agʻdarilib tushib, emaklab qoldi. U oʻrnidan turmoqchi boʻlib intilgan edi, yana polga agʻdarildi.

– Ablah! – politsiyachi qichqirib, quroli qiniga qoʻl choʻzdi, ammo Jerri shu zahoti uning ikki tirsagiga bolgʻa bilan zarba berdi. Keyin birdan orqasiga oʻgirilib, har ehtimolga qarshi oʻziga yaqin turgan Charlzning qoʻl va oyoqlariga bolgʻacha bilan urib, yana ishdan chiqardi. Shundan soʻng har ikkalasining shalpayib yotgan tanasini eshikka olib chiqib qoʻydi-da, zudlik bilan xonaga qaytib kirib, kostyumi, grelka va elektromassaj apparatini oldi. Raqiblarning qoʻl-oyoqlari yana oʻz holatiga qaytgunicha Jerri bu yerdan juftakni rostlab ulgurishi kerak edi. Ammo uning qochishiga Joan xalaqit berdi. U Jerri boʻyniga oʻzini otib hayajon bilan qichqirdi:

– O, Jerri, juda boplading! Qoyilman senga, meni butunlay rom etding! Mana, seni chinakam erkak desa boʻladi...

U tishga yopishgan saqichday Jerriga yopishib oldi; uning issiq bagʻrida shu topda kartoshka pishirib olsa boʻlardi. Joan vaqtni tejab uni birinchi koʻrishda sevib qolgandi.

– Qani yur, men seni yashirib qoʻyay... – ehtirosli shivirladi u.

Soʻngra, kitobxonlar koʻp marta kinofilmlarning oxirida koʻrgan oddiygina boʻsa kekxa boʻydoqlarni mohirlik bilan jilovlab olishda ajoyib bir vosita boʻlib xizmat qilgani yana bir bor namoyish qilindi.

Jerri qoʻltigʻiga oʻzining grelka bilan elektromassaj apparatini qisib, ana shu ajoyib bemor uyidan koʻchaga chiqib olganida, soat millari ertangi kunning bir necha daqiqasini koʻrsatib turardi. U hali oʻz mustaqilligini yoʻqotgani yoʻq, ammo mustaqilligining cheklanishiga u endi rozi edi.

Oradan ikki kun o'tib, Joan Louford xonim bilan xiroamaliyotchi Jerri Finn qo'shni shtatga jo'nab ketishdi. Bu yerda ularning rasmiy nikohlari muborakbod qilindi. Mana shundan keyin Jerri xotinlarning kechqurundan ko'ra ertalab boshqacharoq ko'rinishlarini bilib oldi...

YETTINCHI BOB

JOAN FINN O'ZINING G'AMGIN QISSASINI GAPIRIB BERGANI VA ERIGA HAYOTINI QIMMATROQ SUG'URTA ETISHNI MASLAHAT QILGANI

– Yosh yigitlar tez va o'ylamay-netmay, bemulohaza ish tutadilar, – dedi mister Rivers hamkasabasining uylanganini eshitib. Jerri iliq tabrik so'zlari eshitaman, deb o'ylagan edi. Mister Rivers davom etib, bunday dedi:

– Ishonchim komilki, xotining ishingga xalaqit bermas. Aks holda, biz hamkorlik qila olmaymiz. Turgan gap, avvalo, men seni tabriklashim, biron nima sovg'a qilishim kerak edi. Lekin, yaxshisi, men sovg'a-salomni sen ajrashgan paytingda qilaman.

Jerrining yuzi ma'yuslandi. Bundan bir necha daqiqa ilgari u o'zining xizmatdosh o'rtog'iga ana shu muhim yangilikni aytgani kelgan edi, hamkasabasi bo'lsa uni xuddi achchiq dori yutganday kutib oldi.

– Xo'sh, sen endi albatta xotining uyiga ko'chib ket-sang kerak? – so'radi mister Rivers.

– Ha. Shu bugun ko'chib o'taman.

– Afsus. Bir oy birga yashaganimiz menga juda ma'qul tushuvdi.

– Hamma yaxshiliklaring uchun tashakkur, – dedi ko'ngli yumshab, erib ketgan Jerri. – Men o'zimning orqa-oldimni yig'ishtirib olganimdan keyin seni biror kuni mehmonga chaqiraman.

Jerri buyumlarini yig'ishtira boshladi. Uning mol-dunyosi hozircha uncha ko'p emas edi – hammasi bir

jomadonga joylandi. Mister Rivers kuyov bolani o'z mashinasida olib borib qo'yishni taklif qildi. Ammo o'zi hamon to'ng'illashini qo'ymasdi:

– Ma'lum bo'ldiki, demak, sen uning uchinchi o'ljasidan. Xotinlar chindan ham sira tushunib bo'lmaydigan xalq. Ular oxir-oqibatda barcha erkaklarni muttaham, ablah deb qoralash uchun albatta, nikoh kursisida, oshxona, kirxona, tug'ruqxona va ota-onalar kengashida o'tirib chiqishlarini shart deb biladilar. Undan keyin ajralishadi: ko'p hollarda nafaqa, boshqacha qilib aytganda bir o'zing ikki kishi qilgan xato uchun jarima to'lashga majbur bo'lasan.

– Isaak, nima sababdan sen bunday badjahlsan? Gaplaring bir mahallari uyli-joyli bo'lgan odamning gaplariga o'xshaydi.

– Ha, men uylangan edim.

– Sen-a?

– Men. Shundan beri o'ttiz yil o'tdi. Ammo, aysh-farog'ati uzoqqa cho'zilmagan edi. Biz hammasi bo'lib atigi to'rt kun birga yashagan edik.

– Nima uchun ajrashib ketdinglar?

– Shuning uchunki, ochig'ini aytganda, er-xotin bo'lganimiz uchun ajralishdik. Xotanim o'larday qo'li ochiq, isrofgar edi. Bir kuni men uni kartoshka po'stini qalin artayotganini ko'rib qolib, kartoshka tozalagich sotib olish kerak dedim. U kartoshka artishni butunlay tashlab, ota-onasi uyiga ko'chib ketdi. Ana o'shandan beri bu ishni o'zim qilaman. Sen ko'mak bergan keyingi bir oy bundan mustasno.

Ikkalasining ham ruhi tushgan, kayfiyatlarining mazasi yo'q edi. Mister Rivers Jerrini uyi eshigigacha kuzatib keldi-da, muloyimlik bilan:

– Qabulga kechikib qolmaslik uchun ertalabga budilnik sotib ol, – dedi. – Bilasanmi, muhabbat ko'r bo'ladi, ammo bemorlarning ko'zi ochiq.

Jerri nimadir demoqchi bo'lgan edi. Lekin o'ziyam sezmaganda holda kamsuqum erlar toifasiga kirganidan, faqat andisha bilan:

– Rahmat, Isaak. Sen yaxshi do'stsan, – deb qo'ya qoldi.

Bunga Isaak:

– Agar xotining bilan chiqisha olmasang, yana o'zimiznikiga qaytib bor, – deb javob qildi. – Harqalay sen mening uyimda tovuqning qaqillashini eshitmaysan.

Jerri yana bir karra: «Rahmat, Isaak deb», jomadoni ni ko'tarib yangi uyining ostonasidan xatladi.

Xonalar bir og'iz «kerak!» degan so'z tufayli keltirilgan jihozlar bilan shinam bezatilgan edi. Oddiy amerikalik eng avval uy sotib oladi, keyin ana shu uydan nariroq ketish uchun avtomobil xarid qiladi. Jerri Finn hali qarz va bir necha muddatga nasiyaga mol olish singari savdo-sotiqning ajoyib tomonlaridan bexabar edi. Uning na uyi, na mashinasi, na qarzlari bor edi. Jerrining ana shularning bariga ega bo'lgan xotinigina bor edi, xolos.

Uzoq totli bo'sadan so'ng Jerriga o'zini uyimdaman deb his etishga ruxsat berildi. Yoqimli sentabr oqshomi dimoqni chog' etishga chorlardi. Joan derazalar pardasini tushirib, g'ashga tegayotgan chiroqni o'chirdi. U o'z tajribasidan yaxshi bilardiki, fotosurat bilan sevgi qorong'ida yaxshi chiqadi. Joan tabiatan ishchan va faol xotin edi, Jerri esa buning aksicha: hamisha sust-kash, bo'shang, tashabbuskorlik yetishmas edi. Joanning tashabbuskorligi natijasida mana endi ular turmush qurishdi, bir-birovlarining nomlarini va yoshlarini bilishdi, bir-birovlarini sevish va janjallashish uchun qonuniy huquqqa ega bo'lishdi. Turgan gap, Jerri uzoqni ko'rolmasligi vajidan hozircha xotini boshqa xotindan farq qila olmasdi. Nazarida, ko'chada ko'rgan yuzlab qiz-juvonlar Joanning xuddi o'zi edi. U buning siri – Joan ham ma'lum darajada xotin-qizlar standarti – andozasi ekanini, ularning namuna nusxalari jurnal hamda gazetalarning birinchi sahifalarini, atir-sovun qog'ozlarini bezab turishida ekanini bilmas edi.

Jerri juda tortinchoq odamligini, undagi bu xususiyatni biz ilgari ham qayd qilib o'tgan edik. Ammo

tortinchoqlik shu darajaga borib etdiki, Jerri birinchi nikoh oqshomidayoq och qolib, toza iztirob tortdi. U xotiniga ovqat masalasida og'iz ochishga jur'at etmadi. Joan bo'lsa, aftidan, faqat rezinka saqich chaynab qorin to'yg'azardi. Hatto o'pishayotganida ham rezinkasini og'zidan qo'ymasdi. O'pishdan oldin xushbo'y saqichini tilining uchida labi tagiga berkitib qo'yardi!

Hozirgacha ham o'rta asr nodonlik botqog'ida yashab kelayotgan Yevropaliklar Amerikaning milliy o'yini beysbol, deb o'ylaydilar. Ular bu o'rinda ham xato o'ylashadi! Asosiy ermak beysbol emas, chaynaladigan rezinka saqich-ku!

Shunday qilib, ularning bir yostiqa bosh qo'yishlari och qolish, rezinka saqich chaynash va son-sanoqsiz bo'sa olish bilan nishonlandi. Biroq, Isaak Rivers aytganiday, bunga ko'nika bilish kerak edi!

Nikohli hayotning boshlanishi progress belgisi ostida o'tishi uchun Joan radioni burab qo'ydi. Ular qo'l ushlashib, yonma-yon o'tirib, allaqanday sovun firmasining she'rga solingan e'loni ilovasida Shubert Serenadasini tinglar edilar. Jerrining Shubertga rahmi kelib ketdi. Ammo ana shu «Serenada» sovuni bahonasida odamlar mumtoz musiqani eshitayotganlaridan birmuncha tasalli topdi.

– Yevropada ham radio bormi? – so'radi Joan.

– Bor, – tasdiq ishorasini qilib javob berdi Jerri.

– Rostdan-a? Demak, taraqqiyot asta-sekin u tomonlarga ham borayotibdi, degin. Xo'sh, televideniyeqa qachon ega bo'lishadi ular?

– U erda televideniye ham bor.

– Nahotki? Balki, ularda avtomobil, hatto kino ham bordir?

– Bular ham bor.

– Xo'sh, unday bo'lsa, bu yerda gapirishganlaridek ular uncha qoloq emas ekanlar-da. Meni sevasanmi?

– Sevaman.

– Seni men juda yaxshi ko'raman! Hatto talaffuzingdagi urg'uni ham sevaman. Yevropada qaysi tilda gapirishadi?

- Har turli tilda. Men fin tilida gapirardim.
– Demak, sen finmisan?
– Ha.
– Sening o'sha Finlyandiyang qayerda? U Koreyaga yaqinmi?
– Ha... deyarli yonginasida.
– Ah, men seni qanday sevaman-a! Ha, aytmoqchi, Koreyaning o'zi qayerda?
– Deyarli Finlyandiyaning yonginasida.
– U yerda bir tilda so'zlashishadimi?
– Deyarli bir tilda. Hatto Koreya grammatikasini fin yozib bergan.

Joan ma'qullab bosh silkidi. U uchinchi erining bunday beqiyos bilimdonligidan, ikki barvasta erkakka bir o'zi bas kelib, g'olib chiqqanidan zavqlanib, qoyil qolib o'tirardi. Uning Jerrisi umurtqalar bobida haqiqiy Edison edi.

- Jerri, sen meni sevasanmi?
– Juda sevaman! – baqirib xitob qildi u. Chunki xud-di shu fursatda radio allaqanday tamaki firmasining jinoyatchilar hayotidan olingan eshittirishini berayotgan bo'lib, kimdir kuchi boricha qichqirib yordamga chaqirardi. Shu sababdan Jerri o'z ovozi o'zi zo'rg'a eshitardi. U iztirobli nazarda radiopriyomnik tomonga qarab, boshqa bir to'lqinni topishni taklif etdi. Xotini e'tiroz bildirdi:

– Yo'q, yo'q. Men uni oxirigacha eshitmoqchiman. Jinoiy ishlarga bag'ishlangan eshittirishlarni juda yaxshi ko'raman. Sen ham bularga ko'nikishing kerak. Oh, qanday ajoyib o'lim manzarasi!

- Qani endi ko'nika olsam!.. – dedi Jerri xo'rsinib.
– Ko'nikishing kerak. Men seni chinakam erkak qilib tarbiyalayman. Qani, aytchi, sevasanmi meni?

Jerri og'ir xo'rsindi:

– Albatta! Lekin men bu yurtning odat, rasm-rusmlarini hali yaxshi bilmayman

– O-o, turgan gap! Lekin sen ularni tez o'rganib olasan. Men seni juda sevaman, butun vujudim bilan

o'larday sevaman! Seni haqiqiy erkak qilib yetishtirishga va'da beraman. Sen boksni o'rganishing kerak, har bir haqiqiy erkak mushtlashishni yaxshi bilmog'i shart. Oh, men seni qanday sevaman-a!..

Jerri o'z tajribasidan shuni yaxshi bilib oldiki, xotirlarning gap favvorasini to'xtatishning eng ma'qul vositasi – bo'sa! Keyinroq fahmlab qoldiki, agar xotirlarning og'zi yopiq bo'lsa, ular burunlari bilan ham gapirishlari mumkin ekan. Nikoh unga umr bo'yi berilgan qamoqday tuyuldiki, baxtsiz mahbus o'zining benuqson xulq-atvori bilan ham uni na yengillata, na qisqartira olardi. Buning ustiga u shu topda o'larday och edi. Ochlik – bu har kuni boshqatdan boshlanadigan voqeaga o'xshardi. Sabr kosasi to'lib-toshgan Jerri axir bo'lmagach, o'zining butun kuch-irodasini to'plab, shama qilib o'tirmay ochiqdan-ochiq:

– Men ochdan o'lay deyaipman, – dedi.

– Nahotki? Unday bo'lsa nega sen o'zing bilan biron yegulik narsa olib kelmading? – taajjublanib so'radi Joan va tilining uchi bilan pastki labi ostidagi rezinka saqichini olib, ustki labi tagiga joyladi. – Xo'p, mayli, buning uchun seni koyib o'tirmayman. Qani, aytchi, sevasanmi meni?

Jerri hadeganda javob qilmagani uchun Joan radio ovozini sal pasaytirib (Joanni polga ishlatiladigan yangi zamaska haqidagi reklama qiziqtirmasdi), baxtsiz xotin qiyofasiga kirdi. U g'amginlik bilan ohista qo'shiq boshladi.

– Qani aytchi, qo'shiq yoqadimi senga? – bexosdan so'rab qoldi Joan.

– Yoqadi, – javob berdi Jerri mister Riversning hamma vaqt dunyodagi eng yaxshi go'sht va meva konservalari bilan to'lib-toshib yotuvchi ajoyib muzlatkichini eslab.

– Men sendan o'zim aytayotgan qo'shiqni so'rayapman.

– Yoqadi, albatta-da...

– Ah, biram shirinsankil!.. Erol hech qachon qo'shiq aytishimga yo'l qo'ymasdi.

– Qanaqa Erol?

– Ikkinchi erim-da, oti Erol edi. Men qo'shiq boshladim deguncha uning jini qo'zirdi. Umuman, o'zi fortepyano musiqani yaxshi ko'rardi, lekin menga fortepyano chalishga ruxsat bermasdi. Juda zolim, bag'ritosh edi.

– Unga sening chalishing yoqmasmidi?

– Yo'q, yoqardi! Nuqul u pianinoda bitta barmoq bilan chalib bo'lmaydi, deb aytardi. Juda shafqatsiz, berahm odam edi. Afsuski, qazo qildi. Biz u bilan uch haftadan mo'iroq yashadik. Qanday dahshat-a, baliq ovlagani borib, cho'kib o'ldi.

– Birinchi eringchi? – sal ikkilanib turib so'radi Jerri.

– Men uni deyarli eslay olmayman. Oradan ko'p vaqt o'tib ketdi: ikki yildan oshdi-yov. U bilan atigi ikki hafta yashaganimizdan keyin vafot etdi.

– U ham cho'kib o'ldimi?

– Yo'q, u ov paytida halok bo'ldi. Allakim uni yovvoyi bug'u deb otib qo'yibdi. Oh, men endi hech qachon jurnalist zotidan er qilmayman.

Jerri seskanib ketdi.

– Sening erlaring jurnalistlarmidi?

– Ikkalasi ham jurnalist edi. Tomni uncha yaxshi bilmasdim. Chunki u bilan raqs paytida bir martagina uchrashdig-u turmush qurdik. Erol ikki oyga yaqin ko'nglimni ovlab, orqamdan yuruvdi. Biz u bilan ruhiy kasalliklar shifoxonasida birga bo'luvдик.

Jerri quloqlari shang'illab, miyasiga qon tepganini sezdi-yu, boshqa hech nimani so'ramay qo'ya qoldi. Uning erim badavlat deb ishonib, muhabbat qo'yib tekkan xotiniga rahmi kelib ketdi.

Biroz sukut etgach, Joan o'zining g'amgin qissasini eriga so'zlab berdi. Bu hikoyalar g'oyat ma'yus, iztirobli edi. Avvalo ular juda oddiy, odatdagi hodisalar bo'lgani uchun ham shunday edi... Agar hurmatli kitobxonlarimizga bunday hodisalarni o'qish zerikarli bo'lsa, u

bu sahifalarni tashlab, navbatdagi bobga o'ta berishi mumkin. Bundan qissamiz syujetiga putur yetmaydi. Keling, mayli, Finn xonim o'z tarixini so'zlab bersin, xalalqit bermaylik!

– Men Tommi o'lganida uncha kuyib-pishganim yo'q. U juda qattiqqo'l, zulmkash edi. Ustiga ustak jirkanch odatlari bor edi. Bir safar yasama tishlarimni og'ziga solib olib, kun bo'yi og'zidan qo'ymadi. Yana bir yomon odati – nuqul no'shpiyoz yerdi. Uzoq vaqt men ana shu piyoz hididan qutulolmay garang bo'lib yurardim. O-o, no'shpiyozni jinim qanday sevmasligini bil-sang edi! Tomning hayoti durust sug'urta qilingan edi, lekin qarzlari ham talaygina bor edi. O'sha pallada men juda asabiy bo'lib qoldim, shundan keyin Charli akam meni ruhiy kasalliklar shifoxonasiga joylab qo'ydi. Erol bilan shu yerda tanishdik. Men uning jurnalist ekanini bilmagan edim. Ko'rinishidan sodda odamga o'xshardi. Biz bir-birimizni sevib qoldik-da, shifoxonada turmush qurdik. Erol bor molu mulkini sotib, biz u bilan to'y sayohatiga Janubiy Amerikaga jo'nadik. Qaytib kelganimizdan keyin Erol hayotini katta pulga sug'urta qildir-di. Shundan sal vaqt o'tmay uni otib qo'yishdi. Jerri, meni sevasanmi?

– Sevaman, sevaman, – javob qildi Jerri horg'in.

– Unday bo'lsa ertagayoq hayotingni, albatta sug'ur-ta qildirishing kerak. Faqat aytishga arziydigan bahoga, kattaroq pulga sug'urta qildir.

Jerrining nazarida joni tanasidan chiqib ketayotgan-day tuyuldi. Churq etmadi. Joan sigareta tutatib, re-zinka saqichini bir daqiqaga olib qo'ydi. Jerri qorong'ida o'tirishganiga qaramay xotining yuzini ko'rmoqchi bo'lib, unga tikilarkan, bexosdan so'rab qoldi:

– Erol kasalxonaga nega tushgan edi?

– Kasal edi.

– Tushunarli, lekin nima kasal edi?

– Yaroqsizlik kompleksi. U «l» harfini talaffuz etolmay halak edi.

– O'zing nima kasal eding? – vahima bilan so'radi Jerri.

– Qo'rqoqlik kompleksi. Menga hamisha kimdir bos-tirib kirib, otib tashlayotganday bo'lib ko'rinardi. In-naykeyin, atom bombasi hujumidan yomon qo'rqardim. Nima, hozir hamma odamlar nimadandir qo'rqishlarini sen bilmaysanmi? Men chamasi boshqalardan oldin-roq qo'rqadigan bo'lib qolgandim. Jinnixonagayam shu sababdan tushganman. Qani, aytchi, Jerri, meni sevasanmi?

Jerri bu savolga kutilmagan savol bilan javob berdi:

– Joan, nima uchun sen menga turmushga chiqding?

– Seni bir ko'rishdayoq sevib qoldim. Senda allaqan-day ekzotikaga xos nimadir bor, yana qaydam. Bundan tashqari sen – doktorsan. Mening texaslik bir dugonam doktorga tekkan, juda yaxshi yashaydi. Amerikada bi-ronta kambag'al doktor yo'q. Men kambag'allikni yo-mon ko'raman.

– Afsuski, men kambag'alman, – dedi Jerri g'amgin ohangda. – Buning ustiga men doktor ham emasman.

Joan torsherni yoqdi, chiroq uning haqiqiy dahshat ifodasi qoplagan yuzini yoritdi.

– Nima, xiroamaliyotchi doktor emasmi? – hayrat bi-lan so'radi u.

– Yo'q, faqat tabib, u yog'ini so'rasang, men hali xiroamaliyotchi ham emasman.

– U... un-nday bo'lsa s-sen-n kim-san ax-xir?

– Sobiq jurnalist va o'qituvchi.

Joan hayajonini bosa olmadi. Lablari titrab-qaq-shab, oradan bir daqiqa o'tmay, yig'lay boshladi. Ko'z yoshlari kipriklaridagi bo'yoqni, yuzidagi upa-elikni yu-vib tushardi. Bularning bari qanday tez yuz berdi-ya! Kecha – kelin edi, bugun – xotin, ertaga, ehtimol, beva-dir!.. Joan xazina qidirgan edi, buning o'rniga o'zi xazi-na izlab yurganga duch keldi...

Jerri xotiniga tasalli berish burchi deb bilib:

– Joan, ke, qo'y, xafa bo'lma... – dedi. – Tinchlan. Hammasi o'z joyiga tushadi, o'nqlanib ketadi.

– Sen chinakam doktor boʻlmasang, qayoqdan hamma narsa oʻnglanib ketsin! – yigʻi aralash dedi u.

– Lekin xiroamaliyot oddiy davolashdan koʻra, tezroq boyib ketish imkonini beradi, – tushuntirdi Jerri astoydil. Uning gapidan bol tomardi. – Mana, koʻrasan. Mister Riversni esla, u qanday boy-badavlat, xuddi Krez¹ ning oʻzi deysan!

– Krez ham xiroamaliyotchi edimi? – soʻradi Joan sekin-asta oʻzini bosib olarkan.

– Ha, – javob qildi Jerri labini tishlab. U tarixdan faqat Odam Ato va Momo Havo, yana Avraam Linkolinigina biluvchi goʻzal va latofatli xotini koʻnglini ovlamoqchi edi.

Yosh kelin-kuyov orasidan esib oʻtgan birinchi boʻron sekin-asta bosila boshladi. Jerri shu topda butun vujudi bilan aniq sezdi, uning hayotdagi haqiqiy isteʼdodi bundan keyingi olijanob kasbi – enagalik qilish ekan. Mana, u birinchi marta xotinini oʻzi oʻpib, xiroamaliyotning aql bovar qilmaydigan imkoniyatlari va uning yorqin istiqbollari toʻgʻrisida kuyib-pishib gapira ketdi. Uning gapiga qaraganda, umurtqa suyaklarini davolash oldida koʻrichak yoki tomoq bezlarini operatsiya qilish fil bilan pashshani tenglashtirishdek gap! Vrachlarning Makka-yu Madinasi bemorlarning qornida emas, ularning umurtqalarida!

Joan tamomila tinchlanib, yana oʻz xazina izlovchisining «ekzotikaga xos» talaffuzini seva boshladi.

– Har nima boʻlganida ham sen oʻz hayotingni sugʻurta qildirishing kerak, – dedi jiddiy ohangda Joan. – Ertagayoq shu ishga kirish, kattaroq pulga qilaver.

Jerri bunday shoshqaloqlikning sababiga tushunmas edi, u qarib-chiriguncha yashashni moʻljallab qoʻygan, hech boʻlmaganda oʻzidan oldin oʻtgan Tom bilan Eroidan koʻra uzoqroq yashashni koʻzlagan edi. Shu tufayli tortinib oʻtirmay:

¹ Krez – gʻoyat boy-badavlat kishi. (Afsonaviy Yandiy podshohi Krez nomidan kelib chiqqan)

– Men o'lariday ochman. Rostanam yegulik hech narsang yo'qmi? – dedi.

– To'xta-chi, qarab boqay, – dedi Joan va yugurganicha oshxonaga chiqib ketdi. Oradan bir daqiqa o'tmay qaytib keldi-da, bu gal eridan sevish-sevmasligini surishtirmay noz-istig'no bilan:

– Jonginam, qovurilgan jo'xori parrakka – kornfleksga hushing qalay? – deb so'radi.

– Hozir balo bo'lsa ham olib kelaver, – javob qildi ochdan o'lay deb turgan er.

– Unday bo'lsa, mana, ozgina kornfleksdan ye. Bu dunyodagi eng tansiq emish. Yevropada ham kornfleks bormi?

– Umuman yo'q. Ya'ni, aytmoqchimanki, u yerda bu narsani juda kam iste'mol qilishadi.

– O-o! U yoq qanday qashshoq-a! Koka-kola bilan chaynaladigan rezinka bormi?

– Topiladi. Ammo bular ham u yerda hali rasm bo'lgan emas.

– Voy-bo'o', u yoq shunday og'izga olib bo'lmaydigan qashshoq degin? Axir, na qovurilgan jo'xori parrak, na koka-kola, na chaynaladigan rezinka topilmasa-ya! O'sha bemaza Yevropangda sho'rlik odamlar amal-taqal qilib yashashar ekan-da bo'lmasam? Kunda ochlikdan millionlab odamlarning o'lishi bejiz emas ekan. Ha, aytmoqchi, Yevropaning aholisi qancha?

– Besh yuz millionga yaqin.

– Shuncha ozmi?! Amerikada kam deganda bundan o'n chandon ortiq. Yoki har holda shunga yaqinroq. Hozir aniq esimda yo'q. Maktabda o'qigan vaqtimdan beri ko'p yillar o'tib ketdi. O'sha mahalda ham Amerika dunyoda eng katta mamlakat edi. Ikkinchi o'rinni Texas egallardi.

Jerri xotining gap favvorasini yana bo'sa bilan yopib, uning e'tiborini va'da qilingan jo'xori parrakka tortdi. Mazasi sellyulozani eslatuvchi, margarin yog'ida qovrilgan bir kosa jo'xori parrakni urib olgan Jerri uyqu

tashvishiga tushib qoldi. Ammo Joan yotishdan oldin hayotdagi eng markaziy masala – pul haqida gaplashib olishni istardi. Pul – tillar tafovutini tan olmaydi. Dollar – gapira olish yoki gapni shart kesib qo'yishdek qudratli kuchga ega. Qanchadan-qancha odamlar qarzga osongina pul olib qo'ya qolmay, shu deb uylanadilar yoki erga tegadilar!

Joan o'ta sinchkovlik bilan inventarizatsiya o'tkazib, oilaviy kassada besh yuz o'n ikki dollar naqd pul borligini aniqladi. Ana shundan besh yuz o'n dollarini o'z sumkasiga joyladi. Qolgan ikki dollarini erining qo'lga kutilmagan xarajatlar uchun berdi. Ovoz huquqidan mahrum bo'lgan Jerri tushgan puldan bir chaqasini ham yashirib qolmaslik haqida qattiq ogohlantirildi. Soddadil xazina izlovchi, shu kundan boshlab, er va xotin o'rtasida pul masalasida bo'ladigan qisqa gap uzun monologga aylanishiga ko'nikib ketishi kerak edi.

Joan oiladagi xarajatlar hajmini birpasda hisoblab chiqib, eriga uqtirdi:

– Ikki yuz dollar bevosita mening o'z xarajatlarim uchun kerak. Uch yuz dollarini bolalarimga yuboraman.

– Bolalarimga?! – xitob qildi Jerri. – Nima, hali sening bolalaring ham bormi?

– Ha, albatta. Ikki o'g'il, bir qiz.

– Sen axir, haligi... Uzoq turmush qurmagansan-ku..

– hayrat va hayajondan duduqlanib qoldi Jerri.

– Ular men hali erga tegmay turib tug'ilgan, – parvoyi falak javob qildi Joan. – Yudjin hozir o'n ikkiga chiqdi. Rut o'nga, Tomas sakkizga kiradi. Yudjinni men maktabda o'qib yurgan vaqtimda tuqqan edim.

Jerri mushti bilan chakkasiga urar ekan, o'zining ruhiy holatini ortiq yashirib o'tirishga urinmasdi ham. Bexosdan iztirob ichida ingrab:

– Joan, ichishga visking yo'qmi? – deb so'radi.

– Albatta bor!

U stol ustiga shisha va ryumkalar keltirib qo'ydi. Jerri har qanday odob va odamshavandalikni yig'ishtirib

shishaning og'zidan katta ho'pladi, tomoq qirib, afti bu-rushdi. Shundan keyin nafrat, qahr-g'azab, ko'z yoshi, alam omixta ohangda so'radi:

– Joan! Nega sen bu haqda oldinroq hech nima demading?

– Viski to'g'risidami?

– Yo'q, bolalaring to'g'risida.

– Kecha bu haqda allanima deganday bo'luvdim shekilli? O'rni kelmagan bo'lsa kerak. Ha, aytganday, Finlyandiyada ham viski bormi?

– Yo'q. U yerda yog'ochdan olingan spirt ichishadi, – alam bilan dedi Jerri. – Bolalaring qayerda?

– Ah, yurtingda qashshoqlik avjga chiqqan ekan-a! Bolalarimmi? Ular ota-onam yonida, Texasdagi fermada turishadi. Nahotki, sen ham yog'ochdan olingan spirt ichgan bo'lsang?

– Yo'q, lekin shu topda bo'lsa ichardim...

– Voy xudoyim-ey, Jerri! Lekin hammasi viskidan o'ta bersin! Qani aytchi, sevasanmi meni?

Jerri o'rnidan turdi, shishadan yana bir ho'plab xotiniga yovvoyi nazarda tikildi. U ichgan arog'i bekor ketmasligi uchun ovozi boricha bo'kirgisi kelib ketdi:

– Sevaman, sevaman seni! Seva-man! Kaltakni sevgan itday sevaman!

Joan eriga zavq bilan boqarkan, hayajon va shodlikdan chinqirdi:

– O'h, mastligingda qanday sher bo'lib ketar ekan-san! Qani endi, azizim, seni behad sevishimni bilsang! Yur, yotib uxlaymiz, Jerri! Qani, yura qol, yur, azizim, quvonchim, shirinim, jonginam!..

Jerri shishaning oxirgi tomchisigacha ichib tugatdida, xotiniga suyanganicha yotoqxonaga tomon ketdi. Nazarida u allaqanday tubsiz jarga qulab ketayotganga o'xshardi. Jarlikdan reklama barabanlarining quloqni bitiruvchi suroni eshitilardi. Sabr kosasi limmo-lim to'ldi. G'am-anduh o'tida qovrilgan, azob chekayotgan jafokashga bir surbet hazil qilib aytgan ekan: «Agar

g'am-azobdan qutulmoqchi, mayda-chuyda ko'ngilsiz hodisalarni unutmog'chi bo'lsang, oyog'ingga torgina botinka sotib ol yoki uylangin!»

Uni qutqarib qoladigan payt kelgan, lekin qutqaradigan odam yo'q edi.

SAKKIZINCHI BOB

RESTORAN METRDOTELI ORASIGA CHO'CHQA YOG'I TIQILGAN NOVOS BIQIN GO'SHTI BAHOSINI ASOSLAB BERGANI, KITOBFURUSHNING DURDONALAR BILAN BRIKET SOTMOQCHI BO'LGANI

– Xo'sh, birinchi kecha qalay o'tdi? – so'radi mister Rivers Jerri ertalab ishga yetib kelganida.

Jerri uyqusirab javob berdi:

– Rahmat, og'ayni! Mana, o'zing ham ko'rib turibsan-ki, tirikman...

Muhabbat ham xuddi korsetga¹ o'xshab, odamni qozonda boridan ko'ra yaxshiroq qilib ko'rsatadi. Ammo Jerriga muhabbat buning aksicha ta'sir qildi: u xomush va mudrab o'tirar, bemorlarga parishonxayollik bilan savol berar, umurtqalarni ixtiyorsiz siypab ko'rar edi. Lekin ichini it tatalab, qalbi alamdan yonmoqda edi. Muhabbat pulga sotilmaydi. Shunga qaramay uning evaziga to'lash kerak. Jerri xotiniga ta'na qilmoqchi emas, yo'q, xotirlarda gunoh yo'q, hamma ayb o'zini o'zi himoya qilolmagan erkaklarda.

Qabulga ertalabdan odatdagidan ko'ra bemorlar ko'proq keldi. Ular orasida yevropalik ajoyib doktorning shon-shuhratini eshitib, birinchi marotaba qadam ranjida qilgan bemorlar ham anchagina bor edi. Birovlar o'zlarining qorin og'rig'ini, boshqalari yurak o'ynog'ini, yana bir toifasi skleroz kasalini davolatgani kelgan edi-

¹ Korset – belni xipcha qilish uchun ichdan bog'lanadigan irbar belbog'. (*Tarj.*).

lar. Ajablanarli narsa shu ediki, odamlar dunyoga dong taratgan eng yaxshi doktorlarga ishonmay xiroamali-yotchilar oldiga kelishardi. Mana shundan ham inson organizmining hayotiy faoliyatida umurtqalar naqadar muhim ahamiyatga egaligi ko'rinib turibdi.

Tushga yaqin doktorlar nonushta qilgani tanaffus e'lon etishdi. Mister Rivers oshxonasiga kirib ketdi. Jerri yangi oilaviy o'chog'i tomon yo'l oldi. U eshikka qoqilgan «Joan & Jerri Finn» yozuvini ko'rib, endilikda, jamiyatda tutgan o'rni aniq ekanini yaqqol sezdi. Xonadan dahshatli shovqin-suron, allaqanday dod-voy va qichqiriqlar eshitilardi. Bu atigi radio ekan, xolos. Joan hamon o'rnida yotib keng tarqalgan, jinoyatchilar hayotidan olib yozilgan «Bir daqiqada besh o'lim» degan romanni o'qir edi. U sevimli erini ko'rish bilan karavotdan sapchib turib, yuvinish xonasiga yugurdi. Uning yasama tishi o'sha yerda – suvli stakanda turardi. Joan tishsiz o'pishishni istamasdi. U erini o'pib, behad sevishini aytib, shundan keyin kundalik turmush masalasiga o'tdi:

– Ah, seni qanday kutganimni bilsang edi! Och qolib, qornim piyozning po'sti bo'lib ketdi! Jonginam, nonushtaga nima pishirmoqchisan?

Jerri dovdirab qoldi:

– Nima, nonushta hali tayyor emasmi?

– Yo'q albatta. Axir shu mahalgacha sen yo'q eding-ku.

– Men shoshib turibman... tanaffus vaqtim bir soat, xolos.

– Unday bo'lsa tezroq ishga kirish.

– Nima, menga nonushtani sen tayyorla, demoqchimisani?

– Bo'lmasa kim tayyorlaydi? Nahotki, meni ovqat pishiradi, deb o'ylayotgan bo'lsang? Qani, aytchi, sevasanmi meni?

Jerri xotinini ohista nari surib qo'ydi. U jinnixonalarning nimaga hamisha bunday to'lib-toshib yotishiga

endi ajablanmasdi: u yerga har kuni poyandozlarni qoqish o'rniga o'z xotinlarini savalagan yuzlab erlar keltirilardi.

Joan erining bunday toshyurakligi, birinchi navbatda kamsuxan bo'lib qolganiga tushunmay:

– Jonginam, senga nima qildi? – deb so'radi. – Oh, bilsang edi, ertalabdan beri qanday nafis, nazokat bilan yozilgan romanni o'qiyotganimni! Shunday chiroyli, shunday joziba bilan o'ldiradiki, asti so'rama! Innaykeyin, bu yerda ajoyib, nozik muhabbat to'g'risida hikoya qilinadi! Bir yosh yigit o'z o'gay onasi – rassomni sevib qoladi. Jerri, men yana boshqatdan suratlar ishlay boshlasam, deb turibman, sen bunga nima deysan? Hozir bu juda odat bo'lib ketgan. Erol hamisha, senda iste'dod bor, derdi. To'g'ridir balki, nega desang men tagi irlandiyalikman-da. Ochig'ini aytsam, kasalxonada ozgina suratlar ham ishlab ko'rgan edim. Undan keyin she'rlar yozdim. Ularni Erol gazetalarga yuborardi. Oh, jonginam, men ko'p narsalarga qiziqardim. Innaykeyin, falsafiy kitoblarni ko'p o'qirdim. Bunday kitoblarni Erol kasal bo'lmasidan oldin sotib olib bergan edi. shu sababdan hamma erkaklar menga ishqiboz bo'lib qolishadi. Ular mening husn-malohatim va iste'dodimni sevishadi... Jerri, Jerri!

U tosh qotgan qiyofada eshik tomon yurdi. Yurdi-yu, allanechuk bo'lib ketdi: nazarida yoki uning o'zi uydan chiqmaslikka o'rgangan hayvonga aylanib qolgan yoki xotini misli ko'rilmagan latofatu nazokatning sehrli koniki, u ohanrabodek o'ziga tortadi.

– Joan, hozir ketishim kerak, – dedi u ohista, – kiyingin-da, bironta restoranga borib, nonushta qilib kel. Men ovqat pishirishga ulgurmayman.

– Nahotki meni o'pmay, shundayicha chiqib ketaverasan?

Jerri uning istagini bajardi. Joan qo'lini silkitib xayrlashdi va barmog'ini bir necha bor labiga bosib, unga bo'sa yo'lladi. Shundan keyin tezroq o'rniga yotib, o'qishni davom ettirishga oshiqdi.

Olam fuqarosi Jerri Finning tarvuzi qo'ltig'idan tushib, bo'shashib turganida ko'zi bexosdan burnining to'g'risidagi restoranga va dunyoda tengi yo'q qovurdoq pishiriladi, deb maqtalgan e'longa tushdi. Kishining dimog'ini qitiqlaydigan yozuvlar orasida: Bizning restoranimiz jurnalistlar bilan rassomlarning eng yaxshi hordiq chiqaradigan joylari sifatida ham butun olamga mashhur degan eslatma bor edi.

Jerri bir chetdagi stolga borib o'tirdi-da, ofitsiantni kuta boshladi. Oshxona tomondan so'lakni oqizib, ishtahani karnay qiladigan antiqa hidlar dimoqqa urilardi. Jerri ofitsiantni kuta-kuta oxiri mudray boshladi. Bir-vaqt uni ofitsiant uyg'otdi. Jerri ofitsiantning ko'rinishidan xuddi quyib qo'yganday Joanga o'xshab ketishini ko'rib, picha xijolat tortdi.

– Marhamat qilib, qovurdoq bering, – muloyimlik bilan iltimos qildi Jerri.

– Mana, o'zingiz tanlang, – dedi oldiga menyuni ochib qo'yarkan, restorandagi Joan.

Jerri ovqatlar nomiga ko'z solib chiqdi: xumchada dimlab pishirilgan go'sht, langet, orasiga cho'chqa yog'i tiqilgan novvos biqin go'shti...

– Menga cho'chqa yog'i tiqilgan novvos biqin go'shti keltiring. Qancha turadi o'zi?

– To'rt dollar. Butun ovqat, maxsus buyurtma bilan pishiriladi.

– Mm... menga maxsus buyurtma bilan pishirilmasa ham bo'laveradi...

– Shunday-ku, lekin bu ovqat maxsus buyurtma bilan pishiriladi.

– Judayam qimmat ekan. Men sobiq jurnalistman. Sigirning biqin go'shti menga arzonroq tushmasmik?

– Orasiga cho'chqa yog'i tiqilgan novvos biqin go'shti sigir go'shti bo'lmay nima?

Jerrining ishtahasi tomda karnay chalishdan to'xtadi.

– Xonim, siz novvos bilan sigir orasida qanaqa farq borligini bilasizmi?

– Albatta... yo'g'-e, bilmayman. Men biron marta ham fermada bo'lgan emasman.

– Yaxshi, unday bo'lsa metrdotelni bu yoqqa chaqirib yuboring. Balki farqni u bilar.

Metrdotel – muloyim xatti-harakatli, yuz-ko'zidan sar-taroshga o'xshab ketuvchi odam kelib, sof ingliz tilida:

– Janob direktor nima istaydilar? – deb so'radi.

– Kechirasiz, men faqat sobiq gazeta muharririman.

– Juda soz. Sizga bulyon yoki kotlet tavsiya etishim mumkin: ular juda arzon va mutlaqo ot go'shtidan tayyorlanmaydi.

– Yana bir bor uzr so'rayman. Men orasiga cho'chqa yog'i tiqilgan novvos biqin go'shti yemoqchi edim. Lekin nima uchun u bu qadar qimmat, tushunolmay qoldim?

– Atigi to'rt dollar-ku.

– Aql bovar qilmaydigan narx! Buning ustiga siz uni sigir go'shtidan pishirar ekansiz!

Metrdotel stolga o'tirib, Jerrining ko'ziga tik qararkan:

– Afandim, – dedi nasihatimiz ohangda. – Umuman, sigirning nimaligini o'zingiz bilasizmi? Qachon bo'lmasin fermada bo'lganmisiz? Turgan gap, men qoramol fermasini ko'zda tutib gapiryapman.

– Menga ovqat kerak, – javob qildi Jerri.

– Bu gapimizga xalaqit bermaydi. Gazetachilar hamma vaqt faqat yeyishni yo ichishni xohlaydilar. Ayniqsa, sobiqlari. Endi qovurdoqning bahosini aniqlash uchun biz xom ashyoning dastlabki manbaiga, ya'ni sigirga, umuman, o'tmishga nazar tashlab chiqaylik. Sigir – yirik shoxli qoramolning urg'ochisi. Yirik shoxli qoramol esa kavsh qaytaruvchilar toifasidan bo'lib, qo'sh tuyuqlilar oilasiga kiradi.

– O'tinib so'rayman sizdan, janob, ochdan o'lay deyapman! – xitob qildi Jerri.

– Kechirasiz, janob, iltimos qilardimki, mening so'zimni bo'lmang. Shunday qilib, yirik shoxli qoramolning shoxi son jihatidan ikkita bo'lib, ba'zan bittayam

bo'lmasligi mumkin, bu, albatta, uning zotiga bog'liq – ichi bo'sh muguzlar bosh suyakda hosil bo'ladi, ya'ni bir-biriga mutanosib, ikki simmetrik holda joylashib, bo'rtib chiqqan peshana suyagiga o'rnashgan bo'ladi.

Metrdotel cho'ntagidan qalam olib, menyuning hoshiyasiga allaqanday sxemalar chizar ekan, tushuntirishda davom etdi:

– Yirik shoxli qoramolning tish joylashish tartibi, ya'ni sxemasiga kelsak, u quyidagicha bo'ladi. Mana, o'zingiz e'tibor qiling-a:

60006

= 32

61616

Jerri ro'molchasi bilan peshanasini artadi, metrdotel qovurdoqning kelib chiqish tarixini bayon etishda davom etdi:

– Shunday qilib, sigir yirik shoxli qoramolning urg'ochisi hisoblanadi. Uning ovozi muloyim va past pardali bo'lib, altga o'xshaydi. Qarashlari ochiq va o'ziga xos. Eng muhimi, u sut ishlab berish qobiliyatiga ega. Xulosa qilib aytganda, sigir turli-tuman qayla tayyorlash uchun tengi yo'q noyob xom ashyolar yetkazib beradi. Bundan tashqari u yosh go'daklarga ona sut berib, o'sib kelayotgan millionlab yosh avlodning sog'lom-baquvvat kamolga yetishiga ko'maklashadi, o'z bolalarini emizish to'g'risida tashvishlanayotgan hozirgi zamon onalariga beqiyos yordam ko'rsatadi. Ustiga-ustak, odamlar yana ularning terisini shilib oladi. To'g'ri, sigirning atigi bir marta terisi shilinadi, ammo odam ikki, uch, hatto undan ortiq ko'pincha, uzluksiz ravishda, butun hayoti davomida terisi shilib olinadi. Siz, shubhasiz, sigirning erkagini buqa yoki ho'kiz deb atalashini eshitgandirsiz? Amerika Qo'shma Shtatlarida eng yaxshi buqalar qishloq xo'jalik ko'rgazmalarida namoyish qilinadi. Ko'rgazmada g'olib chiqqaniga mukofot beriladi. Xuddi shu usul bilan xotin-qizlar orasidan ham go'zallik qirolichasi saralab, tanlab olinadi. Is-

paniya bilan Meksikada buqalarni arenaga olib chiqib, olomonning xursandchiligi uchun navbatma-navbat qilich sanchib o'ldiradilar.

Texasda buqalarni ushlab olishda lassodan foydalaniladi. Vashingtonda esa to'g'ridan-to'g'ri otadilar. Agar bironta xotinga sigirsan desangiz, odatda jahli chiqib, xafa bo'ladi. Ammo erkakni ho'kizsan, deb atasangiz, u faqat qizarib ketadi, xolos. Qovurdoq uchun bop keladigan eng yaxshi go'sht – hozir ham sigirning orqasi yoki soni. Bunday go'sht fermaning o'zida faqat yigirma sent turadi, do'konda to'qson sent, bizda, restoranda esa, mana, to'rt dollarga yetadi. Nima uchun shunday? Shuning uchunki, biz bu go'shtning kafilini olamiz, unga javobgarmiz. Bas, shunday ekan, demak, bu ot go'shti emas, mol go'shti, sof sigir go'shti! Binobarin, qovurdoq maxsus buyurtma bo'yicha pishirilishi natijasida o'z-o'zidan ma'lumki, uning bahosi to'rt dollar turadi.

Metrdotel o'z tavsiyanomasini tugatib, o'rnidan turdida, Jerridan buyurtma kuta boshladi.

– Mening hammasi bo'lib ikki dollarim bor, – xo'rsinib dedi Jerri – demak, men orasiga cho'chqa yog'i tiqilgan novvos biqin go'shti buyura olmayman.

– Shu holingizga meni qovurdoq tavsiya etishgacha olib kelganingizni qarang, a! – jahl bilan dedi metrdotel. – Sizningcha, bu qiliqni nima deb atasa bo'ladi?

– Kechirasiz, janob, uzr. Agar malol kelmasa, yana bitta savolim bor edi: ilgari, restoranga qadar kim bo'lib ishlagan edingiz?

Metrdotel xavotir bilan yon-veriga qarab olib, deyarli shivirlab dedi:

– Men universitetda zoologiya bo'yicha professor edim. Bundan bir necha yil muqaddam bizning shtatimizda barcha maktab va universitetlarda tadrijiy rivojlanish qonunlarini o'qitishni ta'kidlovchi yangi qonun chiqdi. Shundan keyin men kasbimni o'zgartirishga majbur bo'ldim. Bundan afsus qilayotganim yo'q. Axir, profes-

sorlarning qanday qiyin sharoitda hayot kechirishlari o'zingizga yaxshi ma'lum-ku! Ularning maoshlari shu daraja kam, arzimagan, bechoralar allaqachon soya-bondan foydalanmay qo'yishgan. O'z tajribamga suyanib ayta olay, to'rt muchasi sog' va ikkala qo'lini dollarga cho'zgan odamga ilmiy ish sira to'g'ri kelmaydi. Shu tufayli bizning mamlakatimiz Yevropaga dimlangan cho'chqa go'shti bilan radiodastur yuborib, u yoqdan doim olimlar oldirib keladi.

Metrdotel tevarak-atrofiga yana bir qarab olib, rasmiy ovozda muloyimlik bilan so'radi:

- Qanday xizmatlari bor, janob?
- Kotlet bilan bir finjon kofe bering.
- Bajonu dil. Ellik sent to'lang.

* * *

Ana shu yuqoridagi voqealar sabab bo'lib, Jerrining tanaffusi g'oyat cho'zilib ketdi. Ayniqsa, ikki daqiqali gapni ikki soatga cho'zgan metrdotel butun ishning pachavasini chiqardi. Jerri nihoyat, ishxonasiga yetib kelganida mister Rivers qabulxonasi oldida haqiqiy jang bormoqda edi.

- Jerri! Yordam bering! - allaqayoqdan mister Riversning qichqirgani eshitildi.

Jerri ikkinchi qavatga yugurib chiqdi. Bu yerda Isaak Rivers doktor Robert Popkin bilan rostakamiga solishmoqda edi. Garchand Jerri ilgarilari boks musobaqalariga ishtirok etmagan bo'lsa-da, ginekologning ingichka barmoqlarini o'z ustozlari sochlari orasidan ajratib olarkan, ringda hakamlikni qotirib tashladi.

- Janoblar, nima gap o'zi? - taajjub bilan so'radi u.

- Manavi zuluk bizni bemor ayollarimizdan butunlay mahrum etmoqchi.

- Kechirasiz... Kechirasiz... ish aslida bundoq emas-ku, axir, - doktor Popkin e'tiroz bildirdi. - Men faqat professor Finni kutayotgan edim. Shu orada ba'zi bemor ayollar bilan suhbatlashib olishni o'zimga ep ko'rdim, xolos.

– Uning ana shu suhbatidan keyin qabulxonada bit-ta ham ayol qolmadi, – shunday deb, Isaak Jerrining nima sababdan kech qolgani sababini so‘radi.

– Sira bas kelib bo‘lmaydigan to‘siqlar chiqib qoldi oldimdan... Sizga ularni keyinroq tushuntirib beraman.

– Buning nimasini tushuntirish kerak!.. – qo‘l sil-tadi Isaak. Keyin Popkinga g‘azabli nazar tashlab, za-harxandalik bilan qo‘shib qo‘ydi: – Men seni manavi jin-siy janob bilan allaqachonoq orani ochiq qilgansan, deb o‘ylovdim.

– Menimcha, ichkari kirib, eshikni yopib gaplashsak qulayroq bo‘larmidi? – dedi Jerri zinada nima bo‘layot-ganiga qiziqib to‘plana boshlagan odamlarni ko‘rib.

– Men roziman, – dedi xursand bo‘lib ketgan doktor Popkin.

Ammo Isaak Rivers boshqa fikrda edi:

– Siz hozirning o‘zidayoq tuyog‘ingizni shiqillatib qo-ling, bu yerda turqingizni boshqa ko‘rmay!

Keyin yana qo‘shib qo‘ydi:

– Jerri, mening qabulxonamda ikkita bemor kutib o‘tiribdi. Sen, marhamat qilib, manavi sassiq ko‘zanni bu yerdan yo‘qot! Oldingga solib haydab chiqar. Bu ah-moqona jinsbozlik bozorini tugatish kerak!

Isaak xonasiga kirib ketdi, Jerri doktor Popkin bilan eshik tagida qoldi.

– Professor Finn, sizga ana shunday madaniyatsiz, qo‘pol bir kasbdosh bilan ishlashga to‘g‘ri kelayotganiga chin ko‘nglimdan afsuslanaman, – ohista so‘z boshla-di doktor Popkin. – Men sizni ko‘rgani keluvdim. Poy-lab o‘tirib, qabulxonangizdagi bemor ayollarga ba‘zi bir savollar bera boshladim. Haligi, so‘rovnomalarimizda-gi o‘zingiz bilgan savollardan. Ular boadab va mutlaqo zararsiz savollar. To‘g‘ri, kutib o‘tirgan yigirmaga yaqin ayollar shovqin-suron solib, ketib qolishdi. Qarang-a, shu ham gap bo‘ptimi?! Amerikada hozir qirq million-dan ortiq jinsiy balog‘atga yetgan xotin-qiz bor – ular soni kundan-kunga ortib boryapti. Men mushtdakki-

na bir xonim bilan gaplashib ulgurmay, birdan kasbdoshingiz kirib qolib, bekordan-bekorga mushtlashib ketsa bo'ladimi?! Urishib-so'kib qo'ya qolsa go'rga ediya, u jismoniy kuch ishlatdi! Qo'lidan boshqa narsayam kelmaydi-da o'zi!..

– Haligi, siz gaplashgan xonimchi?

– U sizni ichkarida kutib o'tiribdi. Xo'sh, endi ish masalasiga ko'chaylik. Siz rostakam so'rovnoma to'ldirishni rad etdingizmi?

– Ha. Rad etdim. Butunlay bosh tortaman.

– Nega, axir? Insoniyatga buyuk xizmat ko'rsatishni istamaysizmi?

– Bu mening qurbim yetmaydigan, uddasidan chiqolmaydigan ish.

– Men u taqdirda, siz kuni kecha bu mamlakatga kelib, halitdanoq o'z fuqarolik burchini ado etishdan bosh tortyapti, degan xulosaga kelaman.

Jerri sabrsizlik bilan uning so'zini bo'ldi:

– Doktor Popkin! Hammasi ravshan! Mening ketishim kerak.

U ostonadan ichkariga kirib, eshikni yopmoqchi edi, pakana doktor botinkasi uchini uning tagiga tiqib, eshikni to'sib qoldi. Jerri bor kuchi bilan raqibining oyog'ini itarib tashlashga urindi, lekin uddasidan chiqolmadi. Oxiri qo'lini shimining orqa cho'ntagiga tiqishdan bo'lak iloj topmadi. U eshikni kattaroq qiya ochib, bosib kirayotgan raqibining ikki tizzasiga bolg'acha bilan ikki tushirdi. Keyin chuqur sukunat ichida eshikni bemalol yopib, ichkariga kirib ketdi.

Ezgu niyat va yaxshi orzu bilan boshlangan xususiy ishda har bir uddaburon odam o'zing uchun o'l yetim qabilida ish tutadi. Iloji boricha ishni dadil olg'a surishga harakat qiladi. Doktor Popkin ham shu yo'ldan bordi. Ammo xiroamaliyotchilar ham o'z ozodligi va mustaqilligini himoya qiluvchi xususiy ish egalari edi. Jerrining ozodlik ramzi – uning bolg'achasi, edi, Isaak Rivers esa o'zining baquvvat mushtlariga va eshitgan

odam sholg'omday qizaradigan bir dunyo so'z boyligiga ishonardi.

Qabulxonada uni kutib o'tirgan o'smir qiz Jerrini ko'rgan zahoti o'rnidan turdi. U qizcha bilan ixtiyorsiz ravishda ko'rishdi-da, oppoq xalatini kiyib, stolga o'tirdi. Yangi kartochka olib to'latishga shaylandi.

– Noming? – so'radi u.

– Estella Govard.

– Yoshing?

– O'n ikkida.

– Erga tekkanmisan?

– Menmi?

Jerri kartochkadan bosh ko'tarib qizchaga qaradi-yu, avtoruchkasini cho'ntagiga solib, otalarcha mehribon ohangda so'radi:

– Kichik xonimchanning qayerlari og'riydi?

– Hech qayerim. Meni oyim yubordilar, so'raboq-chi, doktor biznikiga kelib ketolmaydimi, dedilar. Biz shu uyda turamiz, oltinchi qavatda.

– Oying doktorga o'zi kelolmaydigan darajada og'ir yotibdimi?

– Yo'q, oyim kasal emaslar.

– Bo'lmasa kim kasal?

– Laura.

– Unga nima qildi?

– U tez kunda bola ko'radi. O'tgan safar uchta tuqqan edi. Lekin bolalarining hammasi nobud bo'ldi. Oyim, doktorning yordami tegishi mumkin, deb meni yubordilar.

Jerri labini tishladi.

– Laura sening singlingmi?

– O, yo'q, Laura – bizning itimiz.

Shuning bilan uchinchi marotaba hayvonot doktori bo'lishga taklif etilishi edi. Jerri, qizchani ba'zi bemorlar doktor Xinsey so'rovnomasini to'ldirganim uchun g'azablanib, mendan o'ch olgani yuborishmadimikin deb shubhalanib qoldi. Qizchanning ko'ziga tikilib, jiddiy ohangda so'radi:

– Mening oldimga seni kim yubordi?

– Oyim.

– Yaxshi. Hozirning o'zida uyingizga borib, o'sha Lau-rangizni ko'raman.

Qizcha Jerrini oltinchi qavatga boshlab chiqdi. Bu baxtli oilaviy hodisa olamga to'rtta spanel hadya etgan edi. Yuvosh ona bolalariga o'z tili bilan birinchi surish marosimini o'tkazmoqda edi. Ammo Govard xonim o'zi yaxshi taniydigan xiroamaliyotchi professor Finni qizi boshlab kelayotganini ko'rib g'oyat taajjublandi. U qiziga ta'na nazarida tikilib:

– Ikki soatdan beri qayoqda eding? – deb so'radi.

– Men doktorni kutib o'tiruvdim, – soddalik bilan javob berdi qizcha.

– Kutib o'tiruvdim? Voy, yaramas qiz-ey! Men axir doktorga bir necha marta qo'ng'iroq qildim, seni hatto qorangni ko'rmabdi-yu? Ayt, qaysi go'rda eding?

Jerri o'rtada anglashilmovchilik yuz berganini fahmlab, Estellani bu ko'ngilsiz voqeadan qutqarib qolish niyatida murosa qilgan ohangda dedi:

– Qizingiz adashib mening qabulxonamda kutib qolibdi, Govard xonim. Siz bunday anglashilmovchilik yuz berganidan afsuslanmasangiz ham bo'ladi. Yevropada men itlarni davolaydigan xususiy kasalxonam bor edi. Bunday vaziyatlarni ko'p ko'rganman, ular menga besh qo'lday tanish.

Jerrida yolg'on gapirish odati yo'q edi, rostini aytganda hozir ham u yolg'on gapirayotgani yo'q, o'zini reklama qilmoqda edi. Ma'lumki, reklamada har qanday yo'l va tadbir-chorani qo'llash mumkin. U ham duch kelgan vositani ishga solmoqda edi. Shu narsa ham aniqki, keyinchalik u o'zining bu qilmishiga yarasha jazosini xo'p tortdi. Lekin hozir gap bunda emas.

It ishqibozlari bir-birlariga ma'lum darajada yaqinlik sezib, qon-qardoshlik his-tuyg'ularini baham ko'radilar. Shu sababdan ham Govard xonim professor Finning it

bilan qiziqishini eshitib, zavq va hayajondan qulfi dili ochilib ketdi.

– O, qanday soz bu! Faqat yumshoq ko'ngil va olijanob odamlargina itni yaxshi ko'radi. O'zingiz ayting, doktor, manavi jajji kuchuk bolachalari qanday chiroyli-a?

– Go'zallikda tengsiz bular, – Jerri uning fikrini tasdiqladi, – rostdanam bejirim ekanlar. Agar men it qidrib yurgan bo'lganimda hech shubhasiz ana shu zotdan olgan bo'lardim.

– Siz Bruklin Spanel klubining a'zosimisiz?

– Yo'q... Bu mamlakatga kelganimga endigina bir oy bo'ldi, xolos.

– Ha-ya, darhaqiqat! Sizda shu mahalgacha, hatto spanel yo'q deng! Professor, mana endi hammasi joyida bo'ladi, men sizga ana shu kuchuk bolachalardan birini sovg'a qilaman. Oradan bir oy o'tgach, ular ichidan qaysi biri ko'nglingizga yoqsa o'shani bemalol tanlab olasiz. Shundan keyin siz, albatta, bizning klubimizga a'zo bo'lib kirasiz. Men tavsiyanoma berishim mumkin. Bilasizmi, professor, bizning klubga faqat tavsiyanoma bilangina a'zolar qabul qilinadi.

Jerri itbozlar jamiyatiga bir balo bo'lib kirib qolmaslik uchun Govard xonim ko'ngliga qattiq botmaydigan biron bahona izlashga tushdi. Uning vaj-korsonlari ko'paygani sari xonimning qiziqishi, faolligi avjga chiqardi.

– Yo'q, yo'q, sizda albatta kuchuk bo'lishi shart. Mening imonim komilki, shundan so'ng sizning umr yo'ldoshingiz ham spanellar bilan qiziqqa boshlaydi. Biz odamlarni qancha ko'p bilsak, shuncha itlarni qizg'in seva boshlaymiz. Aminmanki, siz endi ana shu jozibador, dilkash spanellarni ko'rgani har kuni kelib turasiz, shunday emasmi?

Chiqib ketishdan oldin Jerri Lauraning mukofotlari, medallari va faxriy yorliqlari, kolleksiyalari bilan tanishishga majbur bo'ldi. Va nihoyat, o'z yelkasiga yana

bir yangi tashvish ortgan uy bekasiga g'oyat qizg'in, samimiy minnatdor chilik bildirdi.

Jerri ishiga oshiqardi. Qabulxonasida mister Riversga duch keldi. Isaak shuncha mahaldan beri birinchi marta ruhiy tushkin va umidsiz kayfiyatda o'tirardi.

– Men sen bilan jiddiy gaplashib olmoqchiman, – dedi u deyarli titroq ovozda. – Ishingning pachavasi chiqib, kundan-kunga orqaga surilib ketyapti. Bugun nechta bemor qabul qilding?

– Chamamda, o'n to'qqizta shekilli, – javob qildi Jerri.

– Men qirqqa yaqin bemorni qo'ldan chiqardim. Ulardan atigi ikkitasi birinchi marta kelishi.

Isaak cho'ntagidan qalamtaroshini olib, tirnoqlarini tozalar ekan, go'yo xayolidan o'tkazayotganday gapida davom etdi:

– Doktor Popkin sho'rimizga sho'rva to'kib ketdi. Men uni bizga vrachlar ittifoqi xufiya ravishda yo'llamaganmikin, degan shubhadaman. Doktorlar bizni ko'risholmaydi, ularning o'zlari ham bizdan besh battar qip-qizil muttahaam bo'lganliklari uchun biron ziyon-zahmat yetkazishdan ojizlar. Shu sababdan ular boshqa yo'llar izlab topib, bizni bemorlarimizdan mahrum qilishga ti-rishmoqdalar. Senga yana bir narsa to'g'risida shuni aytib qo'ymoqchi edimki...

– Eshitaman.

– Ovqatlanmoq uchun bunday uzoq tanaffus qilib yurish ishimizga to'g'ri kelmaydi.

– Bugun shunday bo'lib qoldi, men ovqatlandim...

– Ishlash kerakligini ham unutmaslik zarur. Jerri, u hali yana gapiradi, deb o'ylab, so'zining davomini kutib indamay o'tirardi. Bemorlarni qabul qilish tugab, doktorlarga bir-birovlarining gaplarini eshitishga qulay sharoit tug'ilgan payt edi. Jerri bir talay xo'jalik ishi bilan injiq go'zal xotini kutayotgan oilaviy o'choqqa uncha oshiqayotgani ham yo'q edi. Isaak o'zining muqaddas burchini ado etishga kirishgan ruhonydek vazmin yo'tala boshlagan edi, xuddi shu palla ularga

xalaqit berishdi. Hozir, behisob turli-tuman xayr-ehson yig'uvchilarning uyma-uy yurib, xonadonma-xonadon o'tib, ular tinchini buzadigan kechki soat boshlangan edi. Birinchi bo'lib eshikni taqillatgan allaqanday yigit Missisipi vodiysida suv toshqini vaqtida ziyon ko'rgan fuqaroga yangi va eski kiyim-bosh yig'moqda edi. Undan keyin maktab duxovoy orkestri uchun pul yig'ishga qo'lida rasmiy ruxsatnomasi bo'lgan o'quvchi qizcha eshik qoqdi. Bunday olijanob ishga Isaak bir dollar hadya qilargan ekan, qizchadan:

– Orkestrlaring kattami? – deb so'radi.

– Biz uni endi tashkil qilyapmiz, – javob berdi qizcha jamoat ishonchiga vakolat olgan shaxsga xos hozir-javoblik bilan.

– Demak, sizlar bu pulga truba sotib olasizlarmi?

– Yo'q, orkestrchilarga forma olamiz. Tashakkur sizga, janob!

Qizcha chiqib ketib, o'rniga o'rta yoshli bir ayol kirdi. Unda ham fuqaroni o'z oilaviy o'chog'ida bezovta qilish huquqi beradigan rasmiy ruxsatnoma bor edi. Bu ayol ko'r bo'lgan va aqldan ozgan professional bokschilar uchun sanatoriy qurishga xayr-in'om yig'ayotgan ekan. Isaak sadaqa berishdan bosh tortib, o'ziga yana bir dushman orttirdi. Shundan keyin allaqanday sarg'ish soch Merilin nusxa ayol kelib, gapni aylantirib o'tirmay to'ppa-to'g'ri Isaakning vatanparvarlik his-tuyg'ularini uyg'otishga kirishdi:

– Siz Koreyada urush ketayotganini bilasizmi? – so'z boshladi ayol.

– Ha, bu haqda men ba'zi narsalarni eshitgandim, – dedi, Isaak Merilin uy ichiga o'zini urolmasligi uchun oyog'i bilan eshikni to'sib olargan ekan.

– Shuningdek, Koreyada har kuni millionlab amerikalik yigitlar halok bo'layotganini bilsangiz kerak?

– Bunisini eshitganim yo'q...

– U yoqdan har kuni kelayotgan millionlab nogironlarni eshitgandirsiz?

– Shuncha ko'pmi ular?
– Bundan keyin ham shu narsa davom eta berishini siz xohlaysizmi?

– Hech qachon. Xudo saqlasin!

– Yaxshi, unday bo'lsa, manavi yordam varaqasiga imzo chekib, himmatingizga yarasha bir necha dollar in'om qiling.

– Nima maqsad uchun?

– Shavkatli askarlarimizning o'yin-kulgi qilishi, ko'ngil ochishlari uchun. Gollivuddan Koreyaga bir guruh atoqli kino yulduzlari boradi. Ular askarlarga revyu – antiqa tomoshalar ko'rsatishadi. Atoqli kino aktrisalriga qancha to'lash kerakligini o'zingiz yaxshi bilasiz.

Isaak yoniga kelgan Jerriga hayron bo'lgan nazarda ko'z tashlab ming'irladi:

– Nima maqsadda mablag' yig'ilayotgani baribir menga aniq emas. Qanday qilib bu atoqli kino yulduzlar askarlarni halokatdan qutqarib kolishlari mumkin? Buning aksi bo'lmaydimi, bu holda askarlarga ikki yoqlama o'lim tahdid qiladi-ku!

Ehson yig'uvchi ayol tushuntirishda ortiq davom etmay, qo'yin daftariga belgicha qo'ydi-da, besh Merilin gapirsa yetadigan ovoz bilan zo'r ko'tarinki ruhda dedi:

– Odam o'layotgani siz uchun hech narsa emasmi? Yaxshi qoling! Bir umrga alvido!

– Xonim! – orqasidan qichqirdi Isaak. – Siz qachon bo'lmasin umurtqalaringizni sira tekshirtirganmisiz?

Gap shu bilan tamom bo'ldi. Ostonada keng yelkali, bahaybat bir pahlavon paydo bo'lib, eshik tagida gaplashmoqchi emasligini darhol oshkor qildi. Jimit Merilinni osongina chetga surib qo'yib, Isaakni ichkariga itarib kirgizdi-da, o'zi ham kirib, eshikni yopib oldi.

Isaak bilan Jerri faqat bir-birovlariga qarar, ammo kutilmagan mehmonga zig'ircha bo'lsin qarshilik ko'rsatishga ojiz edilar.

– Mening otim Nord, – dedi yangi mehmon. – Uolli Nord.

– Ismingiz qanday yoziladi? Harfma-harf aytib ber-ring-chi? – qiziqib soʻradi Amerikada amerikacha hayot kechirishni istab qolgan Jerri.

– En-o-er-de – Nord.

– Qayeringiz ogʻriydi? – oʻz navbatida surishtirdi Isaak.

– Menimi? Meni hech qayerim. Sizlarga yordam bergani keldim, kitobfurushman. Dunyodagi eng noyob kitoblarni yarim bahosiga sotaman.

Isaak ogʻir xoʻrsinib, Jerriga qaradi:

– Men kechki ovqat pishirgani oshxonaga kirib ketdim. Sen, nazarimda, uyingga shoshilib turuvding, shundaymi? Oʻzingga ham maʼlumki, men hech qachon hech qanday bahoga kitob sotib olmayman.

Isaak shoshilganicha xonadan chiqib ketdi. Jerri qochib ketish payiga tushuvdi, mister Nord osongina jon beradigan odamlardan emas ekan. Kitobfurush sabr-toqatdan tashqari maqsadiga yetish uchun kerak boʻladigan gʻayrat, jasorat, kuchga ham ega edi.

– Qimmatli janob! – deb soʻz boshladi u. – Koʻrinishingizdan, taʼkidlab oʻtishga ruxsat eting, siz adabiyotni jonidan ham sevadigan odamga oʻxshaysiz. Chunki ziyoli odamdagi bu fazilatni aslo koʻzdan yashirib boʻlmaydi. Siz, hech shubhasiz, juda koʻp oʻqiysiz, shundaymi?

– Umuman olganda, ha... – javob berdi Jerri xuddi yoqimli qitiqlash sezganday.

– Darhol sezdim buni, – ruhlanib, jonlanib ketgan mehmon charm jomadonini ochib, ichidagi kitoblarni stol ustiga olib qoʻya boshladi.

– Oʻzingizni behuda ovora qilmang, – shoshilib dedi Jerri. – Hozir menda kitob sotib olish uchun hech qanday mablagʻ yoʻq.

– Albatta, albatta! Xuddi shu sababga koʻra kitoblarni nasiyaga sotishni tashkil qilganmiz. Talaffuzingizga qaraganda siz Bruklinda tugʻilgan boʻlsangiz kerak-a? Balki siz, hatto Yevropada tugʻilgandirsiz? Yoki Angliyadami?

– Men nasiyaga kitob sotib olmayman. Umuman, qarzga mol olishni yomon ko'raman.

– Yevropaliklar o'qishni yaxshi ko'radigan xalq bo'ladidi. Turgan gap, savodxonlari-da. Amerikada u yerdan ko'ra ko'proq o'qishadi, albatta. Chunki madaniyatda u etakchi mamlakat hisoblanadi.

– Bekorga ovora bo'lmang, men, har qanday shart qo'ysangiz ham baribir, kitob olmayman.

Zabardast kitobfurush Jerrining gaplarini mutlaqo eshitmas edi. U kitoblarni stol ustiga yoyib chiqib, ko'tarinkilik bilan so'zida davom etdi.

– Mana, dunyodagi eng noyob ensiklopediya lug'ati. Bahosi atigi olti dollar bo'lib, pulini o'n ikki oy ichida to'lashingiz mumkin.

– Men nasiyaga hech nima sotib olmayman.

– Manavi ajoyib kitob, mashhur kinoaktrisa Meymi Guggenxeymning yurak sirlaridan hikoya qiladi. Bu g'oyat nafis asar atigi besh dollar. Uni atoqli kinodramaturg Ben Snarik yozgan. To'lov muddati o'n sakkiz oy.

– Men nasiyaga hech narsa sotib olmayman.

– Yoki, mana, hayvonlar haqidagi olamda juda kam uchraydigan kitob! Uning mualliflari – dunyodagi eng mashhur va atoqli olimlar...

– Siz mening nima deyayotganimni eshityapsizmi? Nasiyaga hech pima olmayman!

Bu safar Jerri shunday qattiq baqirib berdiki, hatto soatim to'xtab qolmadimi, deb o'zi ham cho'chib ketdi. Ammo ma'rifatning jonkuyar targ'ibotchisi hayotida bundan ham qattiqroq baqirishlarni ko'rgan va bunga ko'nikib ketgan edi. U qo'lga kichkina bir kitobcha olib tavsianomani davom ettirdi:

– Siz, balki mumtozlarni sevarsiz? Chunonchi, yevropalik mumtozlarga hushingiz qalay? Anatol Fransning amerikaliklar uchun moslab qayta ishlab, qisqartib bosilgan asarlar majmuasi. Bor-yo'g'i bir yuz ikki betdan iborat. Bahosi atigi 35 sent.

– Bir yuz ikki betdan iborat deysizmi?

– Mutlaqo shunday. Qanday ajoyib g'oya, a to'g'ri emasmi? Lekin, baribir har bir romanning syujeti daxlsiz ravishda to'la saqlanib qolgan.

– Anatol Fransning tanlangan asarlari bir yuz ikki betdan iborat, – dedi ohista Jerri o'zining boshi aylanayotganini sezib.

– Agar sizcha, bu ham g'oyat uzun, keng ko'lamda bo'lsa, mana, Viktor Gyugoni oling. Bu undan ham ixchamlashtirilgan – hammasi bo'lib sakson bet, xolos!

– Ular asarini bunday qisqartirib tashlashga kim ijozat beradi?

– Noshir, albatta.

– Qani endi buni Anatol Frans bilan Viktor Gyugoning o'zi bilsa edi...

– Biz ularning fikrini so'ramaymiz. Hatto ana o'shanday mayda-chuyda janoblar bilan gaplashib o'tirmaymiz ham. Ular o'zlarining ana shu yolg'on-yashiq uydirmalarini bosib chiqarganimiz uchun rahmat deyishsin.

Jerrining dili xufton bo'lib ketdi.

– Bu asarlarni qisqartirishning nima keragi bor? – hamon hayrat bilan so'rardi u.

– Buning nimasiga tushunmaysiz, yo'lda ketayotib, o'qish mumkin bo'lsin deb bosib chiqarilgan. Hozirgi zamonda hech kim uyda kitob o'qimaydi. Uyda bundan bo'lak ham zarur ishlar bor. Darhaqiqat, bu g'oyat noyob ish emasmi, axir Frans bilan Gyugoning butun asarlari qandaydir ikki soat ichida o'qib tashlansa? Bundan tashqari odamlar hozir katta, qalin kitoblarni uylarida saqlamaydilar.

– Arzon-garov, oldi-qochdi kitoblar-chi?

– O, kechirasiz, janob! Men sizni bunday kitoblar qiziq-tirishini bilmabman. Bizda ularning eng yangilarining yangisi bor. Mana, dunyoda eng keng yoyilgan, qo'lmaqo'l bo'lib ketgan «Yulduzlar kunduzi nur sochmoqda» kitobi. Ikki ming olti yuz bet, bahosi o'n bir dollar, xolos. Qandaydir bir hodisa tasvir etiladi, zo'r kitob. Balki oltin jazavasi davridagi Amerika tarixiga oiddir.

– Uni kim yozgan?

– Loretta Plits, neft qirollaridan birining yoshgina xotinchasi, sobiq go'zallik qirolichasi. Mana, o'zingiz ko'ring: muqovaning oxirgi betida uning surati bor. Ros-ti bilan ham go'zal ayol! Ruksat eting, ana shu kitobni sizga yuboray? Afsuski, biz bunaqa kitoblarni nasiyaga sota olmaymiz.

– Ovora bo'lmang.

– Balki manavi qiziqarli kitob sizning e'tiboringiz-ga loyiqdir? U «Dunyodagi eng buyuk jinoyatchi» deb ataladi. Muallifi – jahondagi eng zo'r yozuvchi Vinsent Durrel.

– Amerikaning eng zo'r yozuvchisi shumi?

– Undan ham baland! Axir, men sizga, jahondagi eng zo'r yozuvchi, deb aytyapman-ku!

– Bo'lsa, Steynbek, Folkner, Xemingueylar-chi, ular qaysi toifaga kiradi?

– Familiyalariga qaraganda, ular biron yevropalik saf-sataboz, hatto kitoblari amerika tiliga tarjima qilishga arzimaydigan odamlar bo'lsa kerak. Kishi ruhini hozir saf-satabozlik qiziqirtirmaydi. Ularni jonli voqelik: o'lim va muhabbat o'ziga jalb etadi. Manavi beqiyos kitob xususi-da siz nima deysiz. Buni olsangiz – butun jahon tarixi cho'ntagingizda! To'qson bet, xolos, ichida bir dunyo rasmlari ham bor! Bahosi suvtekin – 35 sent. Bordi-yu, ki-tob sizga yoqmasa, pulingizni qaytarib olishingiz mumkin. Mana bunisi – jahon adabiyotining tarixi. Jumladan, bu kitobga ba'zi yevropalik yozuvchilar ham kirgan, shuning-dek, Janubiy Koreyaning eng yirik lirik shoirlarigacha ki-tobdan keng o'rin berilgan. Kitob kichkinagina-yu, ammo mazmuni bir olam. O'ttiz ikki bet, 15 sent...

– Bo'ldi, bas! – baqirib berdi Jerri.

– Bizda tavrotning yangi tarjimasi ham bor. G'oyat ajoyib matnda berilgan.

– Siz mening gapimni eshitmayapsizmi? Meni sizning ana shu qisqartib, qolipga solgan adabiy briketlaringiz mutlaqo qiziqirtirmaydi.

– Qisqartib, qolipga solib deganingiz nimasi?
 – Jahon adabiyoti durdonalarini qisqartib, buzib, bir necha betga keltirib chiqarish mudhish jinoyat emasmi?!
 – Biz ana shunday qilib chiqarganimizdan keyin ular haqiqiy durdonaga aylandi! Axir, bizning vazifamiz – asarlarni yaxshilashda. Ularning hammasida bitta kasal – soʻz koʻp. Siz tuzatib bosilgan asarlarni oʻqishni yomon koʻrasizmi?

– Ha, yomon koʻraman.

– Siz mening didimni tanqid qilmoqchi boʻlyapsizmi?

– Ha.

– Unday boʻlsa yolgʻiz meni emas, butun Amerikani haqorat qilgan boʻlasiz. Es-hushi joyida odam Dantening oʻn betga keltirilgan «Ilohiy komediya»sini oʻqish imkoniga ega boʻlsa, u hech vaqt oʻsha asarning toʻla nashrini qidirib yurmaydi. Hozirgi zamon odamiga koʻp oʻqishga toʻgʻri keladi. Shu sababdan klassiklarning behuda safsatalarini oʻqib oʻtirishga uning vaqti yoʻq, buning ustiga har kuni chiqib turgan yangi bestsellerlarni oʻqishi kerak.

Jerri gʻazabini bosmoqchi boʻlib sigareta tutatdi.

– Muhtaram yigit, – dedi u tishini tishiga bosib, – kitoblaringizni yigʻishtirib, yoʻqoling bu yerdan tezroq!

Adabiy taraqqiyotning mard jonkuyari taajjub bilan:

– Nahot siz chindan ham hech nima sotib olmaysiz?
 – dedi.

– Yoʻq, olmayman.

– Nasiyaga ham-a? Axir, bizning shartlarimiz benihoya qulay va yengil-ku...

– Bas, yetar, boʻldi! Yoʻqoling bu yerdan! Joʻnang, hozir!

Oshxonadan fartuk kiygan, qoʻlida katta pichoq bilan Isaak Rivers chiqdi. U ogʻiz ochib gapirmasa ham qarashi, butun turqi uning nima demoqchi ekanini ravshan koʻrsatib turardi. Keng yelkali, zabardast kitobfurush oʻzining durdonalarni va briketlarini yigʻishtirib, shoshilinch eshik tomon yurdi. Ammo eshikdan chiqishdan oldin:

– Laqma kallavaramlar! Miyasi yo‘q to‘ng‘izlar! – deb qichqirdi.

Eshik shiq etib yopilganda, Isaak Jerriga ta‘na bilan:

– Axir sening yoningda bolg‘acha bor edi-ku!.. – dedi.

Isaak oshxonasiga qaytib kirib ketdi. Jerri yolg‘iz qoldi. Oxiri, o‘zini dadil tutib, salmoqli qadam tashlab uyiga – barcha azamat va buyuk erlar kichkina bo‘lib qoladigan, kichkina xotinlar esa katta, buyuk bo‘lib ketadigan, ko‘z yoshlari jahondagi eng qudratli oqimga o‘xshaydigan, ko‘pgina erlar maxsus erkaklar kasali – uyni qo‘msash dardi ilashtirib oladigan joyga qarab ketdi.

TO‘QQIZINCHI BOB

JERRI FINNING O‘Z HAYOTINI YUZ MING DOLLARGA SUG‘URTA QILDIRGANI VA SHUNDAN KEYIN G‘AMGA TUSHIB QOLGANI

Jerri uyga ketayotgan edi. Havo birdan o‘zgardi, izg‘irin turib, xiyla kunning sovugani sezildi. Sentabr osmonida qoramtir kulrang bulutlar karvoni suzib yurar, rang-barang reklama yozuvlari ko‘zni qamashtirib porlardi. Ko‘cha hamma vaqtdagidek gavjum, olag‘avur, tirband. Odamlar yolg‘izlikni kuchliroq his qilmoq uchun to‘planishar edi. Ko‘pgina do‘konlar, endi behisob dorixonalar savdo-sotig‘ini yanada rivojlantirsin deb, o‘z eshiklariga allaqachon qulf urgan edilar. Kunduz kuni odamlar asosan narxlari tushirilgan mol sotuvchi do‘konlardan, kechqurun esa, dorixonalardan xarid qiladilar. Dorixonalarning ish soati bolalar uxlagani karavotlariga yotqiziladigan, kattalar vaqtni o‘tkazgani kino yoki restoranga boradigan paytdan boshlanadi. Dorixonalar tashnalikni qondiradigan sovuq ichimliklar, issiq sosiskalar, muzqaymoq bilan

sho'r danaklar, shuningdek, neylon paypoqlar bilan savdo qilardi. Shunday dorixonalar ham borki, xaridor chiqqani uchun bahosi ancha tushirilgan aspirin bilan surgi dorisi ham sotib olish mumkin edi.

Jerri mollarini bepul taklif etuvchi bir necha vitrinarni ko'rdi. Agar siz, o'n pachka chaynaladigan tabak sotib olsangiz, o'n dona qog'oz dastro'mol ilova sifatida bepul berilar ekan, odamlarga bu ilova ma'qul tushib qolib, ular chaynaladigan tabak sotib oladigan bo'lishdi. Minglab oilalarda tabak hidi singib ketgani ham shundan.

Izg'irin tobora kuchayib, yo'lovchilar jadal qadam bosishardi. Darvozaxonalar yo'laklariga berkinib olgan mayda savdogarlar va turli-tuman tilanchilar sovuqdan qotib qolgan qo'llarini ishqalar, baqirib-chaqirib yo'lovchilarga o'zlarini otardilar. Havo shu qadar bemazalashib ketdiki, hatto shamol ham ayanchli guvillab, o'zini duch kelgan eshik va derazalarga urar, yo'lovchilar oyog'i ostiga tashlanib, minglab etaklarni ko'tarar, ko'cha bo'ylab qog'oz parchalarini chirpirak qilib uchirib yurar edi. Yomg'ir shivalab, piyoda yo'lovchilar boshpana qidirib o'zlarini dorixonalarga urishdi. Ammo Jerri Finn hech qayerda to'xtamay, uyga oshiqardi.

Latofatli Joan uni ostonadayoq shirin bo'sa bilan qarshi oldi.

– Jonginam, muncha kech qolmasang? – so'radi u. – Seni sabrsizlik bilan kuta-kuta toqatim toq bo'lib ketdi. Ikkita kichkina sovg'acha tayyorlab o'tiribman senga.

Birinchi sovg'a akasi Charlz ekan. U o'zining kekxa neft qirolichasi bilan rasmiy ravishda ajrashibdi. Charlz oyog'ini chekish stoli ustiga qo'yib, xuddi o'z uyida o'tirgandek kresloda yalpayib o'tirardi. Qo'lida viski to'latilgan stakan, shlyapasi gardaniga surilib tushib, bir amallab turardi.

– Ey, oshna! – qichqirdi u eshikdan kirib kelgan Jerri-riga. – Bugun mo'maygina dollar yasab keldingmi?

Jerri javob qilmadi. Joan ikkinchi sovg'achani unga tezroq ko'rsatishga shoshildi. Bundan bir soat muqaddam Joanning ilhom bulog'i qaynab ketib, bo'yoq qalamlar bilan bir necha etyud – xomaki suratlar ishlagan ekan, Jerriga shularni ko'rsatdi. U xotini bo'z matodan ko'ra o'zining yuziga bo'yoqlarni mohirlik bilan o'rinliroq ishlatganiga qattiq ishonch hosil qildi. Shunday bo'lsa ham xotining nozik izzat-nafsini haqorat qilishni istamay, faqat ohista xo'rsinib:

– Chindan ham... ha, albatta, – dedi. – Odamning biron nima bilan qiziqqani yaxshi gap, albatta.

– Qiziqqani? – qayta so'radi Joan. – Seningcha bu faqat qiziqishgina xolosmi? Bo'lmasa, manavilarni qara, mana! Bu yerda Janubiy Amerikaga oid syujetlarni tasvirlaganman. Uni «Luk» jurnalida chiqqan suratdan nusxa ko'chirib ishladim. Charli, sen ishlagan nusxa originalidan ko'ra yaxshiroq chiqqan, deyapti.

– Chindan ham shunday ekan. Ha, albatta...

– Manavi Yujinning portreti. Uni fotosuratiga qarab ishladim. Qani, Jerri endi o'zing rostini ayt, qalay, suratlar ishlash qo'limdan kelarkanmi? Men rassomlar uyushmasiga a'zo bo'lib kirmoqchiman, mana ko'rasan, shon-shuhrat qozonaman. Kasalxonada moy bo'yoqlar bilan surat ishlagandim, lekin bo'yoq o'lgur hamma yoqni iflos qilib, bulg'atib tashladi! Eng muhimi, hozir bo'yoq qalamda surat ishlash rasm bo'lgan.

– Ha, albatta, – rozi bo'ldi Jerri va ko'z qirini qaynag'asiga tashladi. U qo'lidagi viskisini sekin-asta shoshilmay ichar, g'amgin xayol surar ekan, yangi qarindoshiga nafrat to'la nazarda tikilib o'tirardi.

Joan ko'rib bo'lingan etyudlarni ehtiyotkorlik bilan divandan yig'ishtirib olib, stolga eltib qo'ydi.

– Nahot sen xotining bilan faxrlanmaysan? – so'radi Joan maftun etuvchi jozibali tabassum bilan.

– Faxrlanaman... Nega endi faxrlanmas ekanman...

– Yevropada ham rassomlik san'ati bilan qiziqishadimi?

– Iloji boricha...

– O, ularning bu yerga kelib oʻrganib ketishlari kerak ekan. Allaqanday jurnalda Yevropa suratlariga koʻzim tushib qolgan edi. O-oh! Ular gʻoyat ayanchli!

– Sen ularni koʻproq koʻrishing kerak.

– Ah, Jerri, jonginam, nimasini aytasan, men bir dunyo suratlar koʻrganman! Birgina Texasning oʻzidagi xalq maktabida ajoyib suratlarning oʻzi qanchadan-qancha! Afsuski, u paytda men surat chizishni hali bilmas edim...

Charlz maʼnodor yoʻtalib olib, singlisidan soʻradi:

– Joan, viskingdan yana bormi? Keyin, qorin ham rosa ochdiyu.

Bu gap Joanni ranjitib, xafa qilganday koʻrindi.

– Nahot, sen boshqa biron nima toʻgʻrida gapirishni bilmasang?

U akasi stakaniga yana viski toʻlatib, eridan soʻradi:

– Sen biron yegulik olib keldingmi?

– Yoʻq...

– Hech narsa olib kelmadingmi? Unday boʻlsa, hoziroq doʻkonga yugur.

Charlz raqibining oʻngʻaysiz ahvolga tushib qolgani, ojiz va uquvsizligini koʻrib, kinoyali jilmaydi. Chindan ham bu kelgindining popugini pasaytirib qoʻyadigan fursat yetgan edi-da! Charlz axloqsiz bir kuyni hushtak qilib chala boshladi. Bundan uning jinoyat olamiga mansub boʻlgan oliy meni koʻzga yaqqol tashlanib turardi.

– Jerri, sen darhol u-bu olgani doʻkonga chop, – takrorladi yana Joan.

– Doʻkonlar allaqachon yopildi-ku, – dedi shoxi sindirilgan er qoʻrqa-pisa.

– Doʻkonlar yopiq boʻlsa dorixonalar ochiq. Tezroq borib kel. Charlzning ham qorni ochib ketdi. Shundaygina qoʻshni uy – dorixona.

– Menda pul yoʻq, – dedi gʻamgin Jerri.

– Pul? Pulni nima qilasan?

– Sening akangga... yegulikni nimaga sotib olaman?..

Joan qo'lini Jerrining yelkasiga qo'yib, atoqli kino yulduziday unga joziba bilan tikildi.

– Ah, jonginam Jerri, sen qanday shirintoy laqmasan! Nahot, shu mahalgacha biz hamma narsani faqat nasiyaga olishimizni o'zing bilmasang? Faqat ko'chadagi buzuq xotinlargina haqlarini naqd olishadi...

– Hammasi ham emas, – so'z qo'shdi Charli va gap orasida stakandan bir ho'plab oldi.

– Ha, albatta, mustasnolari ham bor. Men, umuman, sirasini aytyapman. Mana, men, kam deganda ellikta do'kondan nasiyaga mol olganman. Erga tegdim, endi undan ham ko'proq olsam bo'ladi. Jerri, jonginam!.. Oh, seni qanday sevishimni bilsang edi! Seni qancha ko'p sevsam, shuncha yaxshi anglab olyapman. Yevropaliklar hamma narsaga naqd pul to'lashlarni oqibatidan, aftidan, ana shunday qashshoqlanib qolishgan bo'lishsa kerak...

– Ular bizdan qarzdor – singlisining so'zini bo'ldi Charli. – Ha, Yevropaning bizdan bir dunyo qarzi bor!

– Ha, albatta, bu ma'lum gap! – javob qildi Joan. – Xo'p, mayli, bir amallab to'lashar, balki...

– Hech-da, bo'lmagan gap! – istehzo bilan jilmaydi Charlz. – Hadeganda to'laydigan anoyilarga o'xshamaydi ular!.. – Axir bir yilgina konyak yoki shunga o'xshagan o'zlarining bemaza boshqa matohlarini ichmay turganlarida allaqachonoq qarzlaridan uzilgan bo'lardilar.

Jerri o'zini bosolmay, g'azabi qaynab ketdi:

– Agar amerikaliklar ham bir yil ovqatsiz o'tirganlarida o'z avtomobil va muzlatkichlari pulini bemalol to'lay olgan bo'lardilar.

Charlz shlyapasini ko'zlarigacha tushirib bostirib kiyarkan, o'rnidan turdi. Jerrining qo'li beixtiyor hami-sha bolg'acha turgan orqa cho'ntakka intildi. Biroq to'qnashuv yuz bermadi. Joan ayni vaqtda ular orasiga tushib ikkalasini ajratib qo'ydi.

– Nega nuqul bir-birovlaringni xafa qilasizlar? Charli, o'tir joyingga! Jerri! Sen tezroq do'konga bora qolsang-chi! Mazali narsalardan ko'proq ol.

Jerri o'limga hukm qilingan odamday do'konga qarab ketdi. Turmush qurganining ikkinchi kuni Jerri nazari-da birinchi kunga nisbatan xiyla durust bo'ladiganga o'xshab ko'rindi. U uyda zerikib qolaman deb xavotir olmasa ham bo'ladi. Joan hayotni rang-barang qilishda suyagi yo'q, ustasi farang ayol edi. Eru xotin turmushi-da ham Joan hech shubhasiz Jerriga nisbatan katta tajribaga ega edi. Jerri o'zi sevib qolgan mana shu ayol uchun faqat tajriba qilinayotgan uchinchi quyon xizmatini o'tardi, xolos. U xotinini (faqat xayolida) araqqa o'xshatdi: oldin u odamni qizdiradi, keyin qip-qizil ahmoq qilib qo'yadi.

Charlz singlisi bilan yolg'iz qoldi.

– Eringning turqini ko'rishga sira toqatim yo'q, – dedi u. – Buning Tom bilan Eroidan ham bemaza va sovuq chiqdi.

– Yo'g'-e, unchalik emas, unda allaqanday yoqimtoy, kishini o'ziga tortadigan nimadir bor, – e'tiroz bildirdi Joan. – O'zi o'qimishli, ko'p narsani biladi.

– Ha, aqlidan ozguncha o'qiganga o'xshaydi o'ziyam. Erishgan martabasi shuda.

– Harqalay juda madaniyatli odam.

– Uning madaniyatidan bizga nima foyda, biznes ahamiyatga molik. Hamma narsani faqat shu hal qiladi.

– U bir necha tilda gaplashishni biladi.

– Bilsa nima qipti! Dunyoda eng keragi faqat amerika tili. Hamyoningda dollaring bo'lsa, xohlagan mamlakatingda xohlagan odaming bilan bemalol gaplashib ketaverasan.

– Biroq, Charli, hamma vaqt ham butun narsani faqat pul hal qilmaydi.

Charlz o'rnidan turib, singlisi yoniga keldida, uning ko'zlariga sinchiklab tikildi.

– Joan, nima balo, yana jining qo'zib qoldimi? Gapingga qaraganda bizning biznesimiz ikkinchi darajali narsaga tushib qolganday tasavvur tug'ilyapti. Menga qara, harqalay sen uni yaxshi ko'rib qolmagandirsan, axir? Yoki monastirga ketmoqchimisani?

– Men buni tushuntirib bera olmayman, ammo uning qandaydir yaxshi tomonlari bor.

– Nima, men uning yaxshi yoki yomon tomonlarini pishirib yermidim, biz biznes qilishimiz kerak. Behuda safсата bizning ishimiz emas. U hayotini sug'urta qilishga tayyormi?

– Yo'q, hali. Bu to'g'rida gaplashdim, ammo...

– Gaplashdim emish! Sen uni majbur qilishing kerak! Unga Tom bilan Eroidan ko'ra ko'proq summa belgila! Mayda-chuyda ish bilan ovora bo'laverish jonimga tegib ketdi.

– Bordiyu, shubhalanib qolsachi?

– Baribir. Sug'urta varaqasi imzolansa bas. Ana o'shanda hamma narsa ravshan bo'ladi-qoladi. Shu bugunog' ishni bir yoqlik qilish kerak. Keyin mashina sotib olasizlar.

– Nima uchun?

– Bu sening ishing emas. Mashina sotib olasizlar va Jerri rulga o'tiradi. Qolgan gapni menga qo'yib berasan, o'zim to'g'rilayman.

Joan yuzida g'amgin ifoda paydo bo'ldi.

– Men nima uchundir qo'rquyapman...

– Behuda tashvish. Sen Tom bilan ham, Erol bilan ham hozirgiday qo'rqqan eding. Hamma narsa xamirandan qil sug'urganday silliq bitdi. Joan, viskidan olib kel!

– Bordi-yu, mendan shubha qila boshlasalar-chi...

– Avval bir ho'plam bo'lsa ham viskidan olib kel-sang-chi!

– Unda mening ishim chatoq bo'ldi, deyaver...

– Nima balo, qulog'ing karmi? Ko'p yozg'iravermay, viskidan olib kel!

Joan indamadi. Allaqanday tushunib bo'lmaydigan ichki his-tuyg'u o'zining mo'ljalidagi hisob-kitobni, aniqrog'i, akasining mo'ljallagan rejasini buzib yubordi. U kutilmaganda o'zida hayajonli yig'iga ehtiyoj sezdi.

Dorixonadan qaytgan Jerri olib kelgan narsalarni ko'tarib oshxonaga o'tdi va kechki ovqat tayyorlashga kirishdi. U inson hayoti uylanmasdan oldin va undan keyin qanday bo'lishini mana, yaxshi bilib oldi. Kolbasani yoqqa solib qovurar ekan, miyasida pishirayotgan ovqatiga sira daxli bo'lmagan minglab noyob fikrlar jo'sh urardi. Jerri hozirgi zamon nikohlarida ba'zi bir olijanob fazilatlar mavjudligini ravshan ko'rди. Jumladan, xotinlar tez-tez oshxonaga kirib erlariga xalaqit berishmaydi.

Kechki ovqatni yeb bo'lishgach, Jerri o'zining bu turmushi baribir uzoqqa bormasligi to'g'risida jiddiy xavfsirab qoldi. Ayniqsa, Joan unga hayotini sug'urta qildirish to'g'risida yana gap ochganda, Jerri o'z xavotiri juda o'rinli ekaniga to'la ishonди. Buning ustiga, Charlz sug'urta xodimi bo'lib chiqib, u bunday arzimagan ishlarni ko'z ochib-yumguncha rasmiylashtirib tashlashini aytdi.

Jerri iloji boricha bosh tortishga tirishdi. Chunki u sug'urtani boy-badavlat bo'lib o'lish uchun tirik paytingda odamni kambag'al-qashshoq umr kechirishga majbur qilishini yaxshi bilardi.

– Jerri, jonginam, sen hayotingni sug'urta qildirish kerak! – tinmay ta'kidlar edi Joan. – Har bir odam, u agar chindan ham o'z xotinini sevsa, albatta hayotini sug'urta qildirishi kerak.

– Bizda bunga hech qanday mablag' yo'q, – xotiniga tushuntirishga urinib ko'rди Jerri.

– Tejab-tergab xarajat qilamiz, – qattiq turib oldi Joan. – O'zing o'ylab ko'r, xudo ko'rsatmasin birdan sen haligi tasodifan o'lib qolsang, unda men...

– Unda sen yana erga tegasan, – jumlasini tugalladi Jerri.

Stol ustiga sug'urta hujjatlarini allaqachon yozib ulgurgan Charlz Jerrining so'nggi so'zlarini eshitib, unga qarab qichqirdi:

– Menga qara, oshna, safsata sotishni bas qil! Bo'ldi, yetar!

– Charli! – yana oraga tushdi Joan. – O'tinamam sendan, o'zingni bos! Jerri hech qanday yomon gap aytmoqchi emas. U menga o'xshagan xotin xohlagan mahalda o'ziga yangi er topa olishini yaxshi biladi. Rostda, bo'lmasa, kasalxonada hamma vrachlar yoppasiga meni sevib qolisharmidi?! Ular mening ko'zlarimga, qizlarniki kabi ko'kraklarimga, kelishgan oyoqlarimga maftun bo'lishgan edi, o'tganimda zavq bilan qarashardi, yana...

– Joan, bas qil! – so'zini kesdi Charli. – Hozir faqat biznes to'g'risida o'ylash kerak, vassalom. Xo'sh, tabib, qani ayt, joningni qancha pulga baholaysan?

– Ellik, – Jerri og'zini ochib ulgurmey javob qildi Joan.

– «Ellik» emish, – jirkanib, masxara qildi Charliz. – Hisobga to'g'ri bo'lsin desang, yuz ming deyaver! Yuz ming.

– Sug'urta badallarini kim to'laydi! – g'o'ldirab so'radi Jerri.

– Senda, sen to'laysan, – javob qildi Charlz. – Bo'pti! Qani, bu yoqqa kel, bu yerga ba'zi bir ma'lumotlarni yozib qo'yish kerak. Tug'ilgan vaqting bilan joyingni ayt. Ota-onangning yoshi... Urug'-aymog'ing orasida sil kasali, qon bosimi, uzoq cho'zilgan ichburug'i va shunga o'xshagan kasalliklar bilan og'rganlar bormi?

Jerri javob bermay jim o'tirardi.

– Jonginam, nega indamaysan? – dedi Joan. – Axir, Charli bu ishni faqat bizning foydamizni ko'zlab qilyapti.

– Sening foydangni ko'zlab, – aniqlab dedi Jerri. – Menda unday katta sug'urtani to'lash uchun yetarli mablag' yo'q.

– Biz nasiyaga yashab, sugʻurta badallarini pul qarz olib toʻlaymiz. – Uni yupatishga tirishib dedi Joan. – Mening hamma tanish-bilishlarim shunday qilishadi.

Jerri indamadi, oʻzini sovib qolmasligi uchun yangi yangi kelgindilar hamisha tashlanib turgan pechkaga tushib qolganini u endi fahmladi. Toʻla huquqli har bir amerikalik oʻtga moy sepib turishi mumkin boʻlib, u faqat oʻzining qoshigʻiga puflaydi. Jerrining boyatdan beri jim oʻtirgani sugʻurta xodimini zarra boʻlsin xijolat qilmadi, u gʻoyat ibtidoiy badxatlik bilan varaqalarni toʻldirdi-da, avtoruchkasini Jerrining qoʻliga tutqazdi.

– Qani, endi imzo chek, manavi yerga, – deb buyurdi. U barmogʻi bilan boʻsh satrni niqtab koʻrsatdi.

– Men oʻz xohishimga qarshi imzo chekmayman, – keskin dedi Jerri.

Ammo jumlasini tugatib ulgurmay, Charlz koʻkragiga toʻpponcha tirab muloyim ohangda dedi:

– Men bir daqiqa kutaman. Afsuski, seni yaxshi uslubga oʻrgatishga toʻgʻri kelyapti. Qani, boʻla qol, gajakdor imzongni chekib yubor! Boʻlmasa, biqiningdan darcha ochib qoʻyaman!

– Jerri, qoʻl qoʻy, qoʻya qolsangchi imzongni! – qichqirdi Joan. – Mana, allaqachon yarim daqiqa oʻtib ketdi! Charli bizning foydamizni koʻzlab shunchalik jonini halak qilayotganini koʻrmayapsanmi? Jerri, jonginam, tezroq boʻla qol! Men oʻq otilishidan juda qoʻrqaman!..

Olam fuqarosi Jerri Finn xotini bilan toʻpponcha irodasiga boʻysundi. U oʻz qoʻli bilan hayoti yuz ming dollarga sugʻurta qilinishini soʻrab yozilgan ariza tagiga imzo chekdi, innakeyin, butun avlod-ajdodi, yetti pushtigacha kam deganda, yuz yildan yashaganiga, oʻzini dunyodagi eng sogʻlom odam ekaniga muqaddas qasam ichdi.

– Jerrining vrachlarga koʻrinishi kerak emasmi? – soʻradi Joan Charlz oʻz qogʻozlarini yigʻishtirib olar ekan.

– Buning hojati yoʻq, – javob qaytardi iltifotli aka. – Bu yogʻini oʻzim toʻgʻrilayman.

U hujjatlarni kostyumining qo'yin cho'ntagiga solib, butunlay xotirjam ohangda:

– Sug'urta ikki kun ichida tasdiqlanadi, – dedi. – Joan, menga ketar jafosiga yana bir qultum viski ber. – U to'pponchasini cho'ntagiga solib qo'yib, o'zini kresloga tashladi. Jerriga do'stona nazar solib, qo'shib qo'ydi: – Gap bundoq bo'пти, og'ayni! Mana endi istagan narsang to'g'risida suhbatlashishimiz mumkin. Xo'sh, qalay, bizning Amerika senga yoqdimi? Durust mamlakat, shunday emasmi?

– G'oyat jozibali, – javob qildi Jerri ma'yus.

– Bu yer senga yoqqan bo'lsa, yaxshi, albatta.

Charlzga bir ryumka viski tekkach, u Jerriga nozik sevgi izhor etdi:

– Ah, Jerri, jonginam, seni qanday sevishimni bil-sang edi-ya!

Joan jimib qolgan erining bo'yniga qo'l tashlab, quchoqlab, tilining uchi bilan chaynayotgan rezinka saqichini pastki labi tagiga joyladi-da, uning lablaridan shunday qaynoq bo'sa oldiki, bu o'yin Charlz nazari-da haddan tashqari rostga o'xshab ketdi. Tosh'yurak sug'urta xodimi, bo'sa olish – faqat sof bir anatomik hodisa ekanini, ikki juft tarang lablarning qovushmog'i uchun muskullarning egiluvchan va sezgir bo'lishi ki-foya ekanini tushunmas edi.

Garchand bu anatomik tomoshada Jerri hal qiluvchi rol o'ynamay, oddiy ishtirokchi bo'lsa-da, Charlz har ikkovini ham qoraladi. Chunki bo'sa olish uchun albatta ikkita bosh kerakligini u yaxshi bilardi.

– Ko'ngilni ozdirib yubordinglar! – baqirdi u. – Bir-biringni yalashni bas qillaring, hoy harom qotgur-lar! Joan, nima balo, esingni edingmi? Dastlaringdan o'lib bo'ldimu.

Eru xotin orasi sal uzoqlashdi. Charlz viskisini ichib bo'lib, ketishga otlandi. U singlisiga yana bir bor ta'kid-lash uchun eshik tagida orqasiga o'girildi:

– Mashina haqidagi gap esdan chiqmasin. So‘zingda mahkam tur!

Joan ma’qul ishorasini bildirib, bosh irg’adi va qimmatli akajoniga eng yaxshi sog’lik-salomatlik tiladi.

Charlz chiqib ketganidan keyin xonaga bir daqiqalik jimlik cho’kdi. Jerri o’zini majolsiz kresloga tashladi va hozir bosgan qadaming mohiyatini o’ylay boshladi. Hamma narsa juda tez, ko’z ochib yumguncha yuz berdi! U o’zini parvardigorning marhamati bilan g’olib chiqqan his etdi. Mana, endi u lattaga aylandi. Odamlarning umurtqalarini davolab kelgan shifokorning o’zi umurtqasiz bo’lib o’tiribdi.

– O, uyimizdagi jimlikni qara! – nihoyat, tilga kirdi Joan va radioni burab qo’ydi. – Jimlikni jinim sevmaydi. Jerri, sen meni haliyam juda sevasanmi?

U javob bermadi. Joan erining tizzasiga o’tirib olib, gapini davom ettirdi:

– Mana hayotingni sug’urta qildirding, endi mashina sotib olishimiz zarur.

– Qarindosh-urug’laring mening sug’urtamdan tezroq foydalana olishlari uchunmi... – alam bilan dedi Jerri. – Yo’q, Joan. Bu o’yin haddan tashqari chuqurlashib ketdi.

– Qanaqa o’yin?

– Manavi majburiy o’yin-da.

– Jerri, sen nimalar deyapsan? Bizning uyimizda hech qanday majburiy ish bo’lmaydi. Hamma narsa xohish bilan ixtiyoriy ravishda bo’ladi. Chunki biz ozodlikni sevamiz, ammo avtomobil ham juda kerak. Mashinang bo’lsa ko’chada yurish xavfsizroq. Qani, ayt-chi, jonim, biz ertagayoq mashina sotib olamizmi?

– Qaysi pulga mashina olasan, axir?

– Menga qara, Jerri, jonginam! Nahot sen shu mahalgacha hech baloni o’rganmagan bo’lsang? Qarzga olish mumkin bo’lgan, pulning nima keragi bor?

– Mashinani kim haydaydi?

– Senda.

– Menga mashina haydagani ruxsat berishmaydi. Ko'zim o'jiz.

– Sirasini aytsam, buning sariq chaqalik ahamiyati yo'q. Turgan gap, hammasini Charlining o'zi to'g'rilaydi. U butun politsiya bilan apoq-chapoq. Charlining ta'siri juda katta! Bir safar hatto uning surati gazetalarda bosilib chiqqan edi.

– Uni tutib berganlarga katta pul mukofoti va'da qilishgan edimi? – zaharxanda qildi Jerri tizzasidan lato-fatli tantiq jononni tushirib yuborarkan.

Ammo Joan endi uning so'zlarini eshitmay, butun diqqat-e'tibori radioda edi. U radioni yana balandlab qo'yib, erining tizzasiga chiqib oldi, hayajon va zavq bilan uning qulog'iga qichqirdi:

– Jerri! Bir daqiqagina jim o'tirgin! Ana shu eshittirishni tinglamoqchiman. Chikagodan olib berishyapti! Mana, darrov tamom bo'ldi-qoldi! Ah, qanday qiziq ediya! Ular darrov tamom qilishdi!

– Kimlar?!

– Nima deysan?

– Ular deganing kim va nimani tamom qilishdi?

– Go'zallik ko'rik-tanlov. Nahot eshitmagan bo'lsang, bir necha kundan beri butun dunyo og'zida shu gapku? Juda ajoyib! Mo'-o'ji-za!..

Jerri gardaniga tobora yangi-yangi sinovlar tushayotganidan aqli-hushimni yo'qotib qo'ymasam yaxshi edi, deb xavotir olardi. Joan shu qadar jiddiy va hayajon ichida o'tirardiki, Jerri hatto uning og'irligini ham sezmasdi. U changak bo'lib qolgan qo'llari bilan erining qo'lini qisardi. Suxandon avaliga bir talay e'lonlar bilan radio tinglovchilarni siylagach, keyin kunning eng qiziq xabarlariga o'tdi. Joanning tobora hayajoni ortib borar, u erining qo'lini qattiqroq qisar ekan, tinmay qichqirardi:

– Mana, hozir, hozir boshlanadi, eshityapsanmi? Eshityapsanmi?

Jerri eshitmoqda edi.

– UBSM, Chikago va Milvoki studiyalari gapiradi. Qadrli radio tinglovchilar va teletomoshabinlar! Bu eshittirish barcha to'liqlar bo'yicha olib borilmoqda. Har bir o'qimishli va zamonni kuzatib borayotgan fuqaroga ma'lumki, bugun Chikago shahrida jahon go'zallik tanlovi bo'lib o'tdi. Bizning buyuk qit'amizning barcha aholisi allaqachonlaroq ayollarimizni bemustasno go'zal, deb topgani sababli bugungi tanlov erkaklar orasida o'tkazildi. Avval ham xabar qilganimizday, bu – xalqaro tanlov. U dunyodagi eng go'zal, eng mard erkakni, ya'ni boshqa erkaklarga bu yilning andazasi – etaloni bo'lib xizmat qiladigan erkakni tanlab berishi kerak! Tanlovda g'olib chiqqan erkak uchun Mister Universum degan maxsus faxriy unvon ta'sis etildi. Tanlovga qatnashish uchun hammayoqdan talabgorlar keldi. Yolg'izgina Janubiy Afrikaning markaziy qismida yashovchi bushmenlardan vakil kelgani yo'q, xolos. Gap shundaki, bushmenlar, hech shubhasiz, o'zlarini dunyodagi eng go'zal xalq deb biladilar, shu tufayli tanlovga qatnashishni ortiqcha ish deb hisoblaganlar. Endi bevosita tanlovning o'ziga o'tamiz.

Bu olijanob ko'rikka birona odam o'z ixtiyori bilan kelmadi – erkaklarning beqiyos kamtarligi azaldan bizga ma'lum! Shu sababga ko'ra ularni majburiy suratda sahnaga keltirishga va mo'tabar hakamlar huzuridagina qo'l-oyoqlaridagi kishanlarni yechib olishga to'g'ri keldi. Hakam to'rt soat mobaynida g'oyat katta, jiddiy ish olib bordi. Raqiblarning jismoniy sihat-salomatligi o'rganib chiqildi, ular orasida birona yassi oyoq yoki boshqa xatarli aqldan ozgan odam topilmadi. Ularning har biri yurishni, o'qishni va yozishni bilarkan. Nihoyat, hakam o'ta yakdillik bilan dunyodagi eng go'zal erkak deb, mashhur daniyalik pivochining yakka-yu yagona o'g'li mister Anastasius Antonio Jovanni Stabutopulosni topdi va unga «Mister Universum» unvonini berdi. Yaqinginda o'n to'qqiz yoshga to'lgan mister Stabutopulos Kopengagen shahrida, daniyalik yunon oilasida

tug'ildi. Uning otasi mana yigirma yildirki, butun dunyoga dong taratgan va eksport qilinayotgan pivo pishirib keladi. Shunday qilib mister Universum – Anastasius Stabutopulosdir. Uning tanlovdagi g'alabasi mutlaq ko'pchilik ovoz bilan erishilgan haqiqiy g'alaba! Chunki mo'tabar hay'at Daniyaning birinchi mukofotini unga berish bilan birga ana shu mamlakatga uning siyosiy ziyrakligi va uzoqni ko'ra olishi, sariyog'ining g'oyat sifatligi, pishloqlarining arzonligi, eksportbop a'lo darajadagi pivosi, vrachlarning erishgan olamshumul muvaffaqiyatlari, ya'ni beqiyos murakkab operatsiyalar bilan mo'jizakor in'eksional yordamida yosh amerikalik erkaklarni niholday barq urib ochilgan go'zal xotinlarga aylantirishdagi ajoyib yutuqlari uchun o'zining tashakkuri va minnatdorchiligini izhor etadi.

Hurmatli tinglovchilar! Siz, balki bu mister Universumning o'zi qanaqa odam deb bilishga oshiqayotgandirsiz. Biz ham shuni ko'zda tutib, tanlov hakamining raisasi Evelin Sanders xonimni studiyamizga taklif qilganmiz, o'zingiz yaxshi bilsangiz kerak, u butun jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan «Faqat xotinlar uchun» jurnalining bosh muharriridir. Shuningdek, Sanders xonim Milliy Kosmetika komissiyasining kotib bo'lib ishlaydi. Sanders xonim, so'z sizga.

Rahmat mister Kroyger. Gap bunday, qimmatli tinglovchilar! Men tanlov tamom bo'lgan zahoti «Niloket» mehmonxonasida maxsus uyushtirilgan ziyofat paytida mister Universum bilan yaqindan tanishish sharafiga muyassar bo'ldim. Qariyb ikki soat mobaynida men ana shu dunyodagi tengsiz go'zal erkak bilan yonma-yon o'tirdim. Hadeb uning lo'mbillagan, kishini hayratda qoldiradigan nafis mo'ylov maysasi sabza urgan lablariga qarab, cho'pillatib o'pging keladi! Mister Universumning vazni – kiyim-boshsiz 318 qadoq. Chaqnab turgan ko'zlariga ajoyib quyuq kipriklari mayin soya tashlab turadi. Nigohini shimol shu'lasida deb faraz etishingiz mumkin, ko'zi tushgan har bir xotin-qiz yu-

ragini cho'g'day yondiradi. Uning yuzi – sehrli ko'zgu-ga o'xshaydi, sochlarini tabiat barra qo'zichoqnikiday nozik va mayin jingalak qilib yaratgan. Gavdasi quyib qo'ygandek bejirim, kelishgan ko'krak kengligi – 68 dyuym. Men ana shu ilohiy zotdan sening erkaklik go'zalligingning siri nimada, deb so'raganimda, u beqiyos joziba bilan: «Ehtimol, buning siri o'zimni jarrohlar qo'liga topshirib, jinsimni o'zgartirmaganimda bo'lsa kerak», deb javob berdi. Mana shu javobdan ham ravshan ko'rinib turibdiki, u juda aql-hushi joyida yigit. Ochig'ini aytsam, go'zallik va aql bir-biri bilan bunday uyg'un kelishi juda kam uchraydigan bir hol. Men mister Universumning ovqat rejimi bilan ham qiziqdim, u barcha buyuk odamlarga o'xshab kamtarlik bilan: «Men ko'proq kartoshka bilal pishloq iste'mol qilaman, innaykeyin, dadam pishirgan pivo-dan ichaman», dedi.

Parvardigorning gullari qiyg'os ochilib yotgan ulkan chamanzorda yolg'iz bir gul – mister Universum. U hozir besh mingdan ortiq nikoh taklifnomalari oldi, uning olti ming dollar turadigan avtomobili, bir necha yuz oltin pivo krujkalari va...

– Bo'ldi, bas qil! – qichqirdi Jerri va xotinini surib tashlab, radioni o'chirgani otildi. – Men bunga ortiq bardosh berolmayman.

Joan hangu mang, hayrat ichida dedi:

– Jerri, jonginam, senga nima bo'ldi? Devorday oqarib ketding...

– Joningga tegdi... Endi pichoq borib suyakka qadaldi!..

– Men joningga tegdimmi?

– Yo'q, hayot! Hayot jonga tegdi...

Jerri boshini ikki qo'llab ushlaganicha xona o'rtasida turardi.

– Ah, xudoyim-ey, – tashvishga tushib qoldi Joan, – kasal-pasal bo'lib qolmadingmi ishqilib? Voy, qanday dahshat bu... tag'in hali sug'urta tasdiqlanganicha ham

yo'q! Qani yur, biroz damingni ol, men senga joy solib beraman. Sen hali o'lmasliging kerak! Hech bo'lmasa yana ikki kun yasha... Qani, ayt, meni sevasanmi?

Jerri xotining yordamida zo'r-bazo'r karavotga yetib oldi-yu, horg'inlik bilan:

– Bu haqda hadeb so'rayverma, siyqasi chiqib, qadr-sizlanib qoladi... – dedi.

O'NINCHI BOB

JOANNING BELI LAT YEGANI VA MUTAXASSISGA YORDAM SO'RAB MUROJAAT QILGANI

– Xo'sh, ikkinchi kecha qalay o'tdi? – ertasi ertalab yuzlari devorday oqargan, uyqusiragan Jerri qabulxonaga kirib kelganda so'radi undan mister Rivers.

– Rahmat, Isaak! Harqalay hayotim bir xilda o'tyapti, deb shikoyat qilmasam ham bo'ladi. Bu rang-barang hayot naq tongotarga qadar davom etdi... Xotanim atigi bir soat burun uxladi.

Isaak, kuyovlik gashtini hali kam surgan odamni bu qadar hayosiz, surbet bo'lib qolishiga sira ishongisi kelmasdi. U soddadillik bilan kasbdoshining bunday o'lar holatga yetganiga sabab, uning beqiyos baxti bo'lsa kerak, kutilmagan tole uni shu holga solgan, deb o'yladi.

– Balki sen to'g'ri tanlagandirsan... – davom etdi Isaak. – Men axir, sening xotining bilan tanish emasman. Lekin uning to'g'risida eshitganman... Turli xil ovozalari tarqalgan edi...

– Uning to'g'risida nimalar deyishgan edi? – qulog'i ding bo'lib so'radi Jerri.

– Ha, hech nima... e'tibor qilishga arzimaydigan gap.

– O'tinaman sendan, hammasini gapirib ber. Xavotir bo'lma, ochiq gapiraver.

Isaak go'yo nimanidir eslab olganday harakat qiladi-da, keyin sekin gap boshladi:

– Xotining ishning ko‘zini biladigan juda omilkor xotin. Erkaklar bilan qanday gaplashish kerakligini suv qilib ichib yuborgan...

– Uning to‘g‘risida nimalar deyishadi? – qichqirdi Jerri.

– Umuman, aytadigan hech gap yo‘q... Men sizlarning oilaviy ishlaringizga aralashishni istamayman.

– Isaak! Menga qara, gapni boshladingmi, endi uni oxiriga yetkaz. Bu gaplaring mening baxtinga mutlaqo xalaqit bermaydi.

– Men har bir oshiq ko‘r va kar bo‘lishini yaxshi bilaman. Shafqatsiz, toshyurak xotin ko‘ngilchan, rahmdil odamning miyasini suyultirib, esini og‘dirib yuborishi mumkin.

Jerrining toqati toq bo‘lib ketdi.

– Nega muncha gapni aylantirib, rezinkaday cho‘zasan? Sendan takror so‘rayman: xo‘sh, uning to‘g‘risida nimalar deyishadi?

Isaak Jerriga otalarcha bir nazar tashlab oldida, jiddiy ohangda dedi:

– Uzunquloq gaplarga qaraganda xotiningning oldingi erlari bir muncha g‘alati vaziyatda qazo qilishgan, o‘limlari oldidan ular hayotlarini katta pulga sug‘urta etib ulgurishgan. Ha, shunisi ham borki, bular balki, turgan-bitgani g‘iybat, shunchaki uydirma gap bo‘lishi ham mumkin. Ehtimol, ularga ahamiyat berib o‘tirishning hojati ham yo‘qdir. Shaxsan men bir-birlaringga yulduzlaring to‘g‘ri kelib, baxtiyor ekanliklaridan benihoya xursandman. Ochig‘ini aytsam, hozirgi zamonda bunday uzukka ko‘z solganday mos kelishlik juda kam uchraydigan hol. Menga qara, Jerri! Nima qildi senga? Hoy! Nima balo, gapimni eshitmayapsanmi?

Jerri toshga aylanganday qotib qolgan edi. U indamay bir nuqtaga tikilganча o‘tirardi. Keyin bexosdan oyoqlari yo‘q bo‘lib qolganday butun gavdasi bilan kresloga ag‘darildi, og‘ir xo‘rsindi:

– Rahmat, senga Isaak... – dedi. – Menga shularning barini aytib berib, juda katta xolis xizmat qilding.

Isaak azaldan optimist odam bo'lganidan qorani oq deb tasdiqlash odati bor edi. Lekin hozir u ko'rgan chinakam oq narsa faqat Jerrining yuzi edi. Isaak tashvishga tushib qoldi.

– Menga qara, sen bu gaplarni o'zingga uncha yaqin olma. Sen axir yolg'on-yashiq, g'iybat gap mayda josusga o'xshashini eshitmaganmisan, undan qo'rqsang ham, ammo nafrat bilan qarashni bilishing kerak. Avvaliga bir odam ikkinchi odamga yo'q yerdagi bo'lmag'ur gapni sir qilib aytadi. U ikkinchi odam ozgina qo'shib uchinchi odamga yetkazadi, shunday qilib, u katta bir yanglikday og'izdan-og'izga ko'cha beradi.

– Ha, bu chindan ham ajoyib yangilik ekan, – g'ol'diradi ma'yuslik bilan Jerri. – Endi men sen gapirib bergan o'sha voqeaning davomini aytib berishim mumkin. Isaak, men kecha kechqurun hayotimni sug'urta qildirdim.

– Juda soz! Har bir odam shunday qilishi kerak.

– Yirik summaga...

– To'g'ri qilibsiz. Men ham hayotimni uch mingga sug'urta qildirib qo'yanman.

– Meniki ko'proq. Balanddan olaver.

– Qanchaga?

– Yuz ming dollarga.

Endi oqarib ketish navbati Isaakka keldi. Avvaliga u cho'qinib oldi, keyin so'kindi, oxiri so'radi:

– Mast emasmiding?

– Yo'q.

– Aqlim bovar qilmaydi. Agar ichmagan bo'lsang, nima balo, butun aqlu- hushingni xotining olib qo'yanmidi?! Yuz ming dollar-a! Buning qancha pul ekanini bilasanmi o'zing?

– Albatta. Bu juda katta pul. Agar rasmiy kursga solib hisob qilinsa, bu yigirma uch million fin markasi degan so'z.

– Ko'proq chiqadi, undan ham ko'p! O'lay agar, ko'p! Yolg'iz millioner odamgina bunday summaga

sug'urta qildirishi mumkin! Jerri, sen tentak bo'lib qolibsana, yoki qip-qizil jinnisan. Axir, sening bir yillik daromading hatto sug'urta badalini to'lashga ham yetmaydi-ku!

– Buni o'zimam bilaman.

– Bilasan? Bilsang endi nima qilmoqchisan?

– Pul qarz olaman va nasiyaga yashayman. Har bir odam o'zini boy-badavlatman deb tasavvur qilsa, rosti bilan boy bo'lib ketishi va qarzga yashashi mumkin.

Isaak umidsizlikdan o'zini yo'qotib qo'yishiga sal qoldi.

– Jerri, bilasanmi, agar hozir bemorlarni qabul qilish vaqti bo'lmaganda men sen bilan chiqib o'larday ichgan bo'lardim. Haqiqatdan bo'lak hamma narsani vino ichish bilan unutish mumkin. Ammo haqiqatning o'zi qayoqda – shuni bilishni istayman, ayt?

– Xuddi shu savolni allaqachonlaroq mister Pilat ham bergan edi.

– U vaqtda hali dollar yo'q edi.

– Ammo gangsterlar bor edi. Isaak, bordi-yu, men bilan biron kutilmagan kori hol ro'y bersa, tanamni kuydirib xokimni Finlyandiyaga jo'natishlarini buyur...

Isaak bu gaplarni qo'polgina bir hazilga aylantirishga urinib ko'rди:

– Xokingni Finlyandiyaga yuborib nima qilamiz? U yerda buning nima ekaniga tushunmay, rak kasaliga qarshi dori ekan, deb ichib yurishsa-ya...

Qabulxonaga birin-ketin bemorlar kirib kelib, suhbat bo'linib qoldi. Xiroamaliyotchilar yana o'zlarining umurtqa o'yinlarini boshlab yubordilar. Jerri birinchi bo'lib o'n bir yildan beri mister Riversga muntazam qatnab kelgan Rechel Simpson xonimni qabul qildi. Isaak ellikka emas, oltmishga yaqinlashib qolgan bu mijoziga «Maxtal bo'lib qolgan qiz» deb nom bergan edi. Simpson xonim benihoya qushlarni sevardi. U o'zi bilan qayerga borsa eng yaxshi ko'rgan qushchalari – Jek bilan Muriel solingan qafasni birga olib borardi.

– Men o'zimning kanareykalarimsiz bir daqiqa ham yashay olmayman, – dedi Simpson xonim beligacha yechinib, xiroamaliyot stoliga qorni bilan yotarkan.

– Qushchalar juda yoqimtoy bo'ladi, – ma'qulladi Jerri uning so'zini va bemorning beliga elektromassaj apparatini o'rnatdi. – Bu sizni bezovta qilayotgani yo'qmi?

– Yo'q, hechqisi yo'q, ular yoqimtoydan ko'ra yaxshiroq. Kichik farishtalar, deyavering. Doktor, sizni uylandi, deb eshitdim, shu rostmi?

– Ha, rost, yaqinginada, sizni bezovta qilmayaptimi?

– Men shu bugun eshitib qoldim. Bezovta qilmayapti, lekin manavi yerda ozgina og'riq turganga o'xshaydi...

– Manavi joyda-chi?

– U yerda ham. Sizning birinchi marta uylanishingizmi?

– Birinchi marta.

– E, unday bo'lsa, bu jihatdan qandaydir yangilik bor... Men ham bir marta erga tegmoqchi bo'lgan edim. Ammo keyin ma'lum bo'ldiki, kuyov kanareykalarni suymas ekan. Biz vaqtni o'tkazmay ajrashib ketdik. Hamma vaqt ham ishni nikohga yetkazmay turib ajratib ketgan ma'qul. Hozir menga erkak zotining oti ham kerak emas. Qani endi, doktor, ertalab tong pallada Jek bilan Murielning jozibali sayrashidan uyg'onib ketish naqadar rohat ekanini bilsangiz edi! Ammo devor ortidan, qo'shnimning uyidan butunlay boshqa gap eshitaman. Xudoning bergan kuni ertalab erkak kishining: «Qaysi go'rda qoldi botinkam? Hoy, sigirga o'xshab yotavermay tezroq o'rningdan tursangchi, mening paypog'imni yamab ber!» degan dag'al ovozi eshitiladi. Oh, naqadar dahshat bu, doktor! Xudo haqqi, g'oyat dahshat! Jek bilan Murielga nonushtalarini berganimda ular menga mehribon boqib, sho'x sayrab, minnatdorchilik bildiradilar. Xuddi shu fursatda devor orqasidan serjahl erkakning: «Sen bu vetchinani qaysi bir rezinka sotadigan do'kondan olgan eding? Qachon tuxum quymoq qilishni o'rganasan?» degan qo'pol qichqirig'i eshitiladi. O, bu

razolat-ku! Men qafasga suv quyganimda Jek bilan Muriel quvonishib «choʻmiladi»lar, menga nazokat bilan boqib, tashakkur izhor qiladilar. Xuddi shu daqiqada qoʻshnimning jirkanch oʻshqirishi yangraydi: «Xotin! Soqol olgani muncha suving issiq! Sen nima, meni kuydirib, jizgʻinak qilmoqchimisan? Sovuqroq suv keltir! Sekinroq, nima balo, yuzini kesib olsin deb atay turt-yapsanmi?» Oh-h, doktor! Men bunday qichqiriqlarni devor ortidan xudoning bergan kuni eshitaman. Shu sababdan ham erga tegishni istamayman...

– Qalay, ogʻriq sezmayapsizmi?

– Ozgina sezilyapti. Har bir xotin uchun erga tegmoq koni iztirob...

– Qoʻllaringizni uzating, endi butunlay boʻshashtiring, iyagingizni yostiqqa tirang. Bezovta qilayotgani yoʻqmi?

– Sal-pal. Mayli, hechqisi yoʻq... Innaykeyin, bu erkak zotidan to goʻrga kirguningcha ham qutulmaysan! Jek bilan Muriel oʻlganidan keyin ular ichiga somon tiqtirib qoʻyaman. Pardoiz oynamni bezatadi ular....

Jerri indamay quloq solar, kanareykalarga hamda uylanmay turib ajralib ketgan butun erkaklarga havas bilan qarardi. Simpson xonim uch dollariga arzigulik elektromassaj olib, bel uqalatib, oʻzini olamda eng baxtiyor odam deb his qildi. Jerrini shubha kemirmoqda edi. Tushga qadar vaqt xuddi falaj odamning jon talvasasiday rosa choʻzildi. Jerriga oʻzining boy-badavlat boʻlib oʻlishi uchun ham quvontiradigan gap emas edi. U xotiniga nonushta pishirib bergani tushga yaqin uyiga kelganida Joan hali oʻrnida yotar va yangi olgan komiksni varaqlar edi. Jerri nonushtani tayyorlab, xotinini chaqirdi. Joan nonushtani karavotga keltirishni iltimos qildi. Jerri uning xohishini bajo qildi.

Nonushta vaqtida ogʻir sukunatni Joan buzdi:

– Jerri, bugun kechasi sen meni quvnoq Magdalina, akamni esa inkvizitor¹ deb atading, bu bilan nima demoqchi boʻlganding?

¹ Bu yerda zolim, shafqatsiz, berahm odam maʼnosida.

– Nima degan bo'lsam, shuni aytdim-da.
– Sen bizni haqorat qilmoqchimidig?
– Yo'q, men bu gaplarni xushomad, ya'ni maqtov ma'nosida aytgan edim.

– Ah, qanday bahosi yo'q odamsan-a! Sen g'oyat nozik o'xshatishlarga ustasan! Jerri, sen urushda bo'lganmisan?

Bu kutilmagan savol xiroamaliyotchini taajjubga soldi.

– Ha. Bir emas, ikki urushda bo'lganman.

– Aftidan, juda qiziqarli bo'lsa kerak? Juda maroqli edimi?

– Juda ham. Haddan tashqari.

– Rostdan-a?

– Sen Yevropaning ulkan mozorlarini ko'rishing kerak edi, chunki...

– Amerikaning o'zida ulardan ham kattaroq mozorlar bor.

– Nahot bu yerning hatto mozori ham dunyodagi eng ulkani bo'lsa?

– Albatta... To'xta, sen bu bilan nima demoqchisan?

– Hech nima. Ovqatingni ye, sovib qolay deyapti.

Jerri xotinini yolg'iz qoldirib, oshxonaga kirib ketdi. Uzini g'oyat horg'in sezdi. Hamma narsa o'larday uning joniga tekkan. Nasiyaga sotib olingan oziq-ovqat totsiz, bemazaga o'xshardi. U ovqatini chala-yarim yeb ishga shoshildi. Joanning qovog'i osildi. U desert – ovqatdan keyin eyiladigan meva yoki shirinlik – erining shirin so'zi, erkalashi, qalbaki chaqaday darhol maydalash lozim bo'lgan bo'sasini kutardi. Joan ana shularning bariga muyassar bo'ldi. Lekin oz miqdorda bo'lgani uchun o'zi uni to'ldirishga tirishdi.

– Sen menga haligacha biron marta yaxshi ko'ra-man, deb aytmadig-a, – norozi ovozda dedi Joan erini ostonada to'xtatib.

– Shunday zarurmi bu? – so'radi dag'al ohangda Jerri.

– Menimcha zarur! Sen hali xotin zotini yaxshi bil-maysan. Kinoga tez-tez tushib turishing kerak.

Jerri o'zini bir nafasga artist deb tasavvur etib, kino andozalarga taqlid qilishga tirishdi. Joan bundan o'zini behad baxtiyor sezdi. Shundan keyin ham u erini hade-ganda qo'yib yubormadi.

– Jerri, sen suratlarimni baget ustaxonasiga olib borib, ramkalarga soldirib kel. Judayam chiroyli ram-kalar yasashni buyur.

Joan erining qo'ltig'iga bo'yoq qalamlarda ishlangan o'nlab suratlarini qistirdi. Saldan keyin Jerri suratlarini yerto'laning ochiq oynasidan ichkariga uloqtirib, o'zini ezgu, xayrli ish qilgan odamday sezdi – bu bilan u jahon tasviriy san'atiga ham katta xolis xizmat ko'rsatdi. Jerri qalbini umidsizlik to'foni qopladi.

Oradan uch kun o'tib, Joan eriga quvonchli xabar yetkazdi:

– Jonginam, shunday baxtlimanki, asti so'rama! Toleimning cheki yo'q aslo!

– Nima balo, bo'yimda bo'ldi, demoqchimisan? – shubhalanib so'radi Jerri. Uning uchun endi olamda mumkin bo'lmagan hech nima yo'q edi!

– Yo'-g'e! Seni qara-yu! Aksincha, bu narsa yuz ber-ganda ishimiz pachava bo'lardi! Birona ham hozirgi zamon ayoli ortiq tug'ishni istamaydi. Bunga ehtiyoj ham yo'q. Agar mabodo bola kerak bo'lsa, bir donasi ming dollardan Kanadadan istagancha sotib olishing mumkin. Bilasanmi, Kanadada nikohsiz bolalar shun-cha ko'p tug'iladiki, hatto ularni chet elga ham so-tishadi. Bir vaqtlari Charli ham ana shu biznes bilan shug'ullangan edi...

– Bu axir qonunga xilof-ku, jinoyat!..

– Rostdan-a? Yo'q. Balki Yevropada shundaydir. Le-kin bizda emas. Amerikada istagan narsangni bermalol sotish yoki olish mumkn... Ha, aytmoqchi, jonginam, sal bo'lmasa qanday baxtga erishganimizni aytish xayo-limdan ko'tarilay debdi! Bilasanmi gap nimadaligini? Sening sug'urtang tasdiqlandi!

Joan qo'ynidan sug'urta varaqasini olib, eriga uzatdi.

– Birinchi badalni sentabr oyi ichida to'lash kerak ekan, – gap qistirdi go'yo shunchaki aytayotganday.

Jerrining hatto hujjatni ochib qarashga ham hushi yo'q edi. U faqat ma'yus ohangda:

– Birinchi badali necha pul bo'ladi? – deb so'radi.

– Unchalik ko'p emas. To'rt ming dollardan sal oshsa kerak.

– To'rt ming! Bu, axir mening bir yillik maoshimdan ham ko'p-ku! Demak, men bir yilda ikki marotaba to'rt ming dollardan to'lashim kerak! Joan, buning hech qanday xursand bo'ladigan joyi yo'q. Biz bunday ko'p pul to'lash imkoniga ega ham emasmiz.

– Nega ega emas ekanmiz?

– Pul yo'qda.

– Yo'q bo'lsa qarz olishing mumkin. Menga qara, bir gal sen mister Rivers juda badavlat odam, deb aytgan eding. Ana o'shandan qarz olsang nima qiladi?

– Mumkin emas, mumkin emas, Joan.

– Keyin o'zing yana allaqanday mister Krez o'taketgan piru badavlat odam deganding. Undan qarz so'rasang bermaydimi?

– Yo'q. U o'lib ketgan...

– Eh, attang-a, chakki bo'lgan ekan! Qara, kelib-kelib biz uning yordamiga muhtoj bo'lganimizda-ya! Qachon o'lgan o'zi?

– Taxminan ikki ming to'rt yuz yil burun.

– Jerri! Sen jinni bo'lib qolibsana! Axir, u mahalda sening urug'ing ham yo'q ediku! Hatto Amerika bo'lmagan.

– Ammo Lidiya bor edi.

– Jerri! Mening huzurimda tanish ayollarning nomini atashni bas qil! Men rashk qilmayman, lekin erkaklar sobiq jazmanlari to'g'risida gap ochishlarini jinim sevmaydi. Lidiyang kim o'zi?

Jerri nigohini uzoq o'tmish asrlarga tashladi-da, muqaddas tushda bashorat qilayotgan avliyoday ohista gapira ketdi:

– Kichik Osiyoning g‘arbiy qismidagi qadimiy mam-lakat bo‘lib, uning bir boshi sharqda, Xalis daryosiga borib tutashgan mustaqil davlat. Uning so‘nggi hukm-dori Krezni bizning eramizdan oldingi 546-yilda Eron podshosi Kir yengib, g‘olib chiqqan. Krez juda ham boy edi; u mister Riversdan ham badavlatroq edi... uning boyligi mening qarzlarimdan ko‘ra ko‘p edi... Dar-haqiqat, garchand men Krez bo‘lganimda ham...

– Jerri, sen juda poyma-poy gapirayotibsan. O‘zing bilasan-ku, axir, Amerikada millionlab odamlar mister Krezdan ko‘ra badavlatroq. Shunday bo‘lgach, u almi-soqdan qolgan foydasiz gapni gapirib nima qilasan?

– Shuning uchun gapirayotibmanki, mening undan boshqa badavlat tanishim yo‘q, – ma‘yus javob qildi Jer-ri va sug‘urta hujatlarini cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

– Bu qog‘ozlarni menga ber, – shoshilib dedi Joan.
– Sen ularni yo‘qotib qo‘yishing mumkin, u taqdirda men...

Joan jumlasining yarmini ichiga yutib, o‘rniga qan-daydir biron bahona izlay ketdi:

– Men aytmoqchi edimki... bu hujjatni yaxshisi uyda saqlagan ma‘qul...

Yolg‘on gap haqiqat o‘rnini bosa olmaydi. Lekin shunga qaramay, u odamlar orasida keng yoyilgan. Jerri ham Joanning yolg‘on gapirayotganini ravshan ko‘rib turardi. Uning ko‘zlari ham, lablari ham yolg‘on gapirmoqda edi. Joan og‘zini yolg‘on bilan bulg‘ab, ha-rom qilmaslik uchun shu topda bor haqiqatnigina ayti-shi maqbul bo‘lar edi. Yoki surbetlar maslahatiga amal qilib, burni bilan gapirishga o‘tmog‘i lozim edi.

Jerri shu turishida bir Napoleonga, bir hamyonini oldi-rib yuborishdan qo‘rqqan odamga o‘xshab qo‘lini qo‘yniga solganicha haykalday qotib qolgan edi. Sug‘urta hujjati hali uning cho‘ntagida edi. Jerri o‘ta xotirjamlik bilan:

– Joan, o‘yin tamom bo‘ldi, – dedi.

– Qanday o‘yin? Darvoqe, Jerri, jonginam, bugun men yangi karta sotib oldim. Poker o‘yini senga yoqadimi?

Jerri indamadi. U hamon qo'lini ko'kragiga qo'ygani-cha mag'rur turar, o'zining tantana qiladigan fursati yaqinlashib kelayotganini yaqqol sezar, chunki yuz ming dollarli sug'urta hujjati uning cho'ntagida yotar edi. Mana uning besh panjasi varaqani mahkam ushlab turibdi. Jerri uni shu bugunoq bekor qiladi. U xotiniga sal begonalashgan, ayni mahalda shafqatli nazar tashlab olib:

– Men sug'urtani bekor qilmoqchiman, – dedi.

Joanning ko'zlarida qo'rqinch, xavotir o'ti lov etib yondi!

– Bunday qilolmaysan! Bunga qanday botinasan, Jerri! Jerri, azizim, buni Charli eshitib qolsa naq ikkalovimizni ham o'ldiradi-ya.

Jerri xotiniga nonushta tayyorlab berishniyam unutilib, eshikka otildi. Joan orqasidan yugurdi. Jerri endi eshikni ochib ulgurgan ham edi, xotini uning kostyumi etagiga osilib yig'lashga tushdi. Ammo xiroamaliyotchining qarori qat'iy bo'lib, u bundan qaytmoqchi emas edi. Jerriga dumday osilib olgan xotini zinapoya maydonchasigacha surgalib bordi, bu yerda Jerri bexosdan orqasiga o'girilib, shiddat bilan bir sakragan edi, Joan ushlab qololmay yiqilib tushdi. Shu topda qadimiy bir naql o'zini oqladi – yuqoriga chiqish, zo'r berib chiqish kerak, pastga esa atigi bir qadam qo'yilsa bas. Joan ham shunday bo'ldi: u o'zini to'xtatolmay, zinada pilapoyadan pillapoyaga ag'darilib, faqat tashqari eshikka yetganidagina to'xtadi. Xotinlar zotiga mansub bo'lgan histuyg'uga bo'ysunib u qo'llari bilan faqat yuzini himoya qildi. Joan yuzini asrab qoldi-yu, ammo beldan ajradi. Yuz-ko'zida bironta tirnalgan joy, yara-chaqa yo'q, lekin beli, ayniqsa, quymuchi o'n bir temir beton pillapoyalarga birma-bir urilib chiqdi. Joan ayanchli ingrab, o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Biroq majolsiz oyoqlar lat egan tanaga xizmat qilishdan ojiz edi. Joan ag'darilib tushib, hushidan ketdi.

Bu tomoshani o'n bir pillapoya tepasidan ko'rib turgan Jerri Joan endi, hech shubhasiz, o'zi bilan o'zi ovo-ra bo'lib qolganini aniq sezdi. U artistday o'ynayotgani yo'q, rosti bilan hushidan ketgan edi. Jerri xotini yoniga chopib tushib, uni ohista qo'lga ko'tarib, yotoqxonasiga olib chiqib qo'ydi. Joan eshitilar-eshitilmas ingrarkan, bilinar-bilinmas ko'zlarini ochdi. Shundan keyin go'yo chuqur uyquga ketganday jimib qoldi. Jerri telefon kito-biga tashlanib, yaqin orada yashovchi vrachlar adresi-ni qidira boshladi. U telefon go'shagini olib, uch-to'rt raqamni hali terib ulgurmay, Joan horg'in ovozda:

– Jerri, kimga telefon qilyapsan? – deb so'radi undan.

– Tirikmisan o'zing? – xitob qildi u va go'shakni joyi-ga qo'yib, xotini yoniga yugurdi. – Joan, qattiq lat eding-mi? Vrachlardan birortasini chaqiraymi, yoki tez yor-dam kelsinmi?

– «Tez yordam»ing kerak emas, – dedi Joan past ovoz-da, – u haddan tashqari qattiq shang'illaydi! O't uchi-rish mashinasidan ham yomon shovqini.

– Xo'sh, nima qilamiz endi?

– Ko'chaning narigi betida, bizdan sal narida vrach-lar uyi bor... o'sha yoqqa olib bor meni...

– Nimada? Taksidami?

– Bilmadim, – dedi iztirob ichida Joan. – Mana, ko'ryapsanmi, bizga shaxsiy mashina naqadar zarur. Jerri, shu bugunoq mashina sotib olishimiz kerak...

Jerrning esiga o'zidan bir qavat yuqorida birinchi jahon urushining allaqanday veterani yashashi, unda hozirgi zamon matohi – kreslo-aravasi borligi tushib qoldi. Nogiron qo'lidan yarador bo'lgan edi, ammo har kuni kechqurun sadaqa so'ragani chiqib ketayotib ana shu ekipajdan foydalanar edi. U ma'lum joy va ma'lum soatda sadaqa so'rash uchun qonuniy ruxsatnomaga ega edi. Oyoqlarini ayab, aravada yurar, aravaga esa hurmat shunday zo'r ediki, hatto avtomobillar unga yo'l berardi. Jerri bir so'z demay, xotini o'rinda xotirjam yotganicha qoldirib, yuqori qavatga yugurdi. Urush ve-

terani Konelli Jerrining taklifiga darhol rozi bo'ldi: u aravasini o'ta imtiyozli shart bilan, ya'ni har soatiga yarim dollar yoki uch soatga bir dollar to'lash sharti bilan Jerri bilan ijaraga berdi. Shuni ham aytish kerakki, bu transport vositasi egasiga kechqurun soat oltidan kechikmay, ya'ni qorong'i tusha boshlab, ko'chalar yorishishi bilan qaytarib berilishi kerak edi. Arava liftga osongina sig'di. Uni qo'l va oyoq bilan boshqarish mumkin bo'lib, tezlikni o'zgartiruvchi va ajoyib tormozi bor edi. Jerri o'z qavatiga tushib, mashina qanday ishlashini sinab ko'rish maqsadida unga minib olib, to'ppa-to'g'ri xotinining yotoqxonasiga haydab kirib bordi. Joan karavot chetida o'tirib, zo'r berib ingrardi.

– Jerri! – dahshat ichida qichqirdi u. – Nima balo qilmoqchisan?

– Hech nimani so'rama. Seni hozir doktorga olib boraman.

Joan goh aravaga, goh eriga qarab qattiq tashvish ichida dedi:

– Menga bu dahmazang yoqmayapti. Bir gal meni bunda olib borishing mumkin, lekin baribir mashina sotib olishing kerak... Mayli, usti ochiq – sport modelidan bo'lsayam mayli. Faqat arzon-garoviga yopishma. Xo'pmi? Menga va'da ber-chi?

Jerri va'da bermadi. Buning o'rniga xotinini aravaga yaxshiroq joylashib olishiga ko'maklashib yubordi. Yana ham qulay bo'lsin uchun orqasiga ikkita yostiq qo'yib berdi. Joan eriga qayg'uli nazarda qarab olar ekan, asta so'radi:

– Jonginam, bordiyu men o'lib qolsam, sen unda nima qilasan? Balki belim butunlay singandir.

– Sen o'lmaysan, – xotiniga tasalli berishga tirishib dedi u, garchand o'limdan va soliqlardan odam hech qayoqqa qochib qutulolmasligini o'zi yaxshi bilgani holda.

Jerri yo'lga chiqishga shaylangan oxirgi daqiqada Joan pardoz-andoz qilmaganini eslab qoldi.

– Joan, hozir buning vaqti emas, – qat’iy dedi Jerri, – axir, bir amallab vrachlar seni baxtsiz hodisaga yo’liqqaningni payqab olishar. Vaqt ketyapti, zudlik bilan yo’lga tushish kerak.

– Men hech qayoqqa bormayman, – dedi uzil-kesil Joan. – Men vrachlarni yaxshi bilaman. Ular hammadan oldin bemorning tashqi qiyofasiga e’tibor berishadi, innaykeyin, dardini so’rab, u yoq-bu yog’ini ko’ra boshlashadi. Jerri, sumkachamni olib ber!

Er itoat qilishga majbur bo’ldi. So’ngra, u xotin kishining g’oyat epchillik bilan odam ko’zi oldida tashqi qiyofasini butunlay o’zgartirib yubora olishining guvohi bo’ldi. Darhaqiqat, Joan bir zumda o’zgardi-qoldi. Jerri shu topda nochor surgalib yuruvchi, boshpana izlab o’zini har tomonga urgan, oxir-oqibat... tovuqqa yem bo’lgan baxtsiz chuvalchangday sezdi.

– Joan, senga tushunolmay qoldimku, – dedi toqati toq bo’la boshlagan er. – Agar chindan ham beling og’riyotgan bo’lsa, hammadan oldin tibbiy yordam kerak senga.

Joan o’ziga oroyish berishni tugatib, norozi qiyofada qars etib sumkasini yopdi:

– Sen xotinlar qalbini hech qachon tushunmaysan! Nahotki, Yevropada hamma erkaklar shunday zolim bo’lsa?

– Yo’q, hammasi emas. Ba’zilari borki, xotinlarining yuziga tarsaki tortib yuborishni biladilar. Injiqlik bilan tajanglik kasaliga eng yaxshi davo, menimcha, ana shu shapaloq.

– Jerri, Jerri! Muncha mudhishsan! Voy xudoyim-ey, belim og’rib ketyapti...

Joan chindan ham oqarib ketdi. Yuzi o’zi qo’ygan upadan ham oqroq edi. Jerri andishasizlik qilib nojo’ya gapirganiga achinib, darhol uzr so’radi. Oxiri yo’lga chiqishga ruxsat berilib, Jerri o’zining go’zal, pari-paykar xotini oh-voylab, ingrab o’tirgan aravani uydan g’ildiratib chiqdi. Endi liftga kirib joylashgan ham

edilarki, Joan yana allanimani eslab qolib, qo'li bilan to'xtashga ishora berdi:

– Meni uyga qaytarib olib kir.

– Nimaga?

– Qayt, qaytar orqaga! Men shu holda qanday qilib o'zimni doktorga ko'rsataman! Oyoqlarimni ko'ryapsanmi, o, qanday dahshat! Naq ikki haftadan beri yunglari qirilmabdi. Tezroq qaytar! Menga yordamlashib yuborasan.

Xiroamaliyotchi Jerri Finn sabr kosasini oxirigacha shimirdi. U itoatkorlik ramziga aylanib, boshqa gap qaytarib o'tirmadi. U uyga kiringach, xotining kelishgan boldirlarini sovunlab, epichillik bilan ustara tortdi, keyin sochiqni issiq suvga ho'llab, yaxshilab artdi va pushtirang boldirlariga boplab upa sepib chiqdi. Jerri o'z nikohini bekor qilib, ajralish oldidan xotining oxirgi iltimosini ham yerda qoldirmaslikka jazm qildi. Zamonning o'zgarishini qarang-a! Jerrining yoshlik paytlarida yaxshi tarbiya ko'rgan erlar o'z xotinlarining naq tizzaga chiqay degan botinkalari ipini o'tkazib berardilar, hozir bo'lsa, ular o'z xotinlarining oyoqlarini qirib qo'yadigan bo'lganlar!

Joanning chehrasi yorishib ketdi. Yuziga va bo'yinlariga qizillik yugurdi.

– Rahmat, azizim, – dedi u horg'in jilmayib, – mana endi oyoqlarim butunlay boshqa tusga kirdi. To'g'rimi gapim? Yevropada ham xotinlar oyoqlarini qirishadimi?

– Bilmadim. Ehtimol...

– Balki, ular doim och-yalang'och yurganlari sababli, oyoqlarida yung o'smas? Amerikalik ayollarning oyoqlari juda seryung. Bu yaxshi alomat: demak, bizlar juda sog'lom ayollarmiz! Jerri, qani ayt, sevasanmi meni?

Jerri xotini yonida, allaqayoqqa tikilganча indamay turardi. Nihoyat, u uyqudan uyg'onganday sergak tortib:

– Ha, albatta, – dedi. – Sen endi hoynahoy, o'zing yura olsang kerak?

Joan bu savolga javoban shart aravadan turdi. Ammo bir-ikki qadam bosmay, oyoqlari titrab, chalishib qattiq qichqirganicha polga yiqildi. Pushaymon degan dovul ikkinchi marotaba Jerri qalbini alg'ov-dalg'ov qilib o'tdi. U kechirim so'rab, yana xotinini aravaga o'tqazdi. Shundan keyin ular yosh qayliqlarday barcha bo'lib o'tgan, hatto aytishlariga qaraganda, eru xotin munosabatlari ni mustahkamlovchi mayda-chuyda arazu gina-kuduratni unutib, yo'lga chiqdilar.

Ko'cha odatdagicha gavjum. Odamlar faqat bilaklarini ishga solib, qayoqqadir oshiqadilar. Jerri urush veterani Konelli «siri»ni mana shu yerda chinakamiga payqab oldi: eng tiqilinch, tirband joyda ham odamlar aravaga yo'l berar edilar.

– Jerri, azizim, muncha tez haydamasang! – Joan bir necha marta eriga tanbeh berdi.

Ammo g'amxo'r er bu ogohlantirishlarni eshitmasdi. U yengil gildirab ketayotgan aravani to chorrahagacha choptirib bordi. Bu yerda politsiyachi yopirilib kelayotgan avtomobillar oqimini bir nafasga to'xtatdi. Qayrilishdagi kutilmagan tezlikdan Joan ko'zlarini yumib oldi. Shu topda u hayotini saqlab qolishga bironta ham vrach kafil bo'lolmaydigan og'ir kasal qiyofasida edi. Oradan yana bir daqiqacha o'tib, ular olti qavatli vrachlar uyining to'ppa-to'g'ri pod'ezdiga kirib borishdi. Jerri birinchi eshik yonida aravani to'xtatdi. Unga: «Doktor Dreyk, mutaxassis. Ko'richakni operatsiya qilishda jahonda birinchi», degan yozuvli taxtacha osilgan edi. Jerri yozuvga ko'z solib chiqqach, dadil qo'ng'iroqni bosdi va kuta boshladi. Saldan keyin eshik qiya ochilib, malla sochli Merilin horgin ovozda:

– Nima kasalsiz? – deb so'radi.

– Xotinimning beli lat yegan, – dedi shoshilib Jerri, – ahvoli juda og'ir. Doktor hozirning o'zidayoq qabul qila olmaydimi?..

– Qabul qila olmaydi, – so'zini bo'ldi hamshira. – Doktor Dreyk mutaxassis. U faqat ko'richaklarnigina operatsiya qiladi.

Eshik yopildi. U odatdagicha: yordam so'rab kelgan bemorlar burni oldida yopilganday yopildi. Jerri qo'shni eshik yoniga kelib, yozuvga jadal ko'z soldi: «Doktor Vess, mutaxassis». U qo'ng'iroq tugmasini bosdida, og'riqdan iztirob chekayotgan Joanga bir necha tasalli beruvchi so'z aytdi. To eshik qiya ochilib, labiga papiros qistirgan ikkinchi Merilin paydo bo'lgunicha oradan besh daqiqadan mo'lroq vaqt o'tdi.

– Siz shu soatga oldindan yozilib qo'yanmidingiz? – so'radi hamshira Jerrini tamaki tutuniga burkab.

– Ulgurolmadik... falokat hozir yuz berdi.

Yoqimtoy, istarasi issiq darvozabon aravada o'tirgan bemorni endi ko'rdi, boshini qimirlatdida:

– Doktor Vess sizga hech qanday yordam bera olmaydi, – dedi. – U yolg'iz bodomcha bezlarni operatsiya qiladi. Uning mutaxassis ekanini eshikdagi yozuvdan bilmadinglarmi?

Eshik ohista yopilib, Jerriga undagi yozuvning oxirigacha o'qish imkoni tug'ildi: «Faqat bodomcha bezlari olib tashlanadi. Operatsiya qonsiz va og'riqsiz bajariladi. Sakkizta diplomi bor».

Jerri peshanasidagi sovuq terlarni artib, aravani uchinchi eshik tagiga g'ildiratib keldi. Bunda faqat: «Doktor Jeyms U. D. Geyden, butun olamga mashhur mutaxassis. Qabulga albatta oldindan yozilish shart» deb yozilgan edi, xolos.

Jerri xotiniga qarab olib:

– Joan, bu yoqqa ham bir qo'ng'iroq qilib ko'rsam-mikin? – dedi.

– Bilganingni qil, – horg'in javob berdi Joan.

Eshikni sochlari qizg'ish mis rangli bir zot ochdi. Uning og'zi shunday kichik ediki, agar qulupnay yemoqchi bo'lsa, albatta uni ikki bo'lakka bo'lib yeyishi kerak edi.

– Sizga qanday yordam qilishim mumkin? – xushmuomalalik bilan so'radi eshik ochgan zot.

– Menga emas, xotinimga yordam kerak.

Hamshira aravada harakatsiz yotgan Joanni ko'rib, uning tepasiga keldi, qulog'idagi ziragini sinchiklab ko'ra boshladi.

– Ha, ammo qulog'ingiz allaqachon teshilgan ekanu?

– U-ku shunday-a, lekin nima uchun siz buning tashvishini qilyapsiz? – Joanning jahli chiqib ketdi. – Mening belim singan, menga tibbiy yordam kerak.

– Men juda afsuslanaman. Biroq doktor Geyden mutaxassis. U faqat zirak taqish uchun xonimlarning qulog'ini teshadi, xolos. Bundan tashqari, sizlar hech bo'lmaganda vaqt masalasida oldindan kelishib olishingiz lozim edi!

Joan ko'zlarini yumib, noiloj xo'rsindi. Jerri hamshiraga murojaat qildi:

– Oyim qiz! Siz hech shak-shubhasiz dunyodagi eng go'zallarning go'zalisiz, menga qarang, aytingchi, mana shu uyda mening xotiningga yordam bera oladigan biron-ta mutaxassis bormi?

– Ha, albatta, bor! Oltinchi qavatga chiqing, afandim. Mana, marhamat, liftdan foydalanishingiz mumkin.

Jerri xotini oltinchi qavatga olib chiqib, yana bir boshdan yozuv taxtachalar olamini o'rgana boshladi.

«Doktor Enriko Yensen, mutaxassis. Singan boldir suyaklari».

«Doktor Uolt Bernet, mutaxassis. Singan jag'lar va pachoq burunlar. Boksyorlar uchun maxsus davo qo'llaniladi».

«Doktor Leo Keypxart, mutaxassis. Chopilgan, kesilgan yaralar».

«Doktor J. G. L. P. Brixer, mutaxassis. Lat egan umurtqalar... »

– Axiri mana topildi! Xayriyat-ey! – xitob qildi Jerri va aravani yaqinroq g'ildiratib keldi.

Joan g'amgin jilmayib qo'ydi, eshik ochilishi bilan u birdan ingray boshladi.

– Ichkariga kirishdan oldin uch yuz dollar to'lashlaring kerak, – dedi xuddi bir tomchi suvday Joanga o'xshagan hamshira qiz.

– Menda faqat o'n dollar bor, – dedi Jerri.

– Unday bo'lsa sizlarga biz hech qanday yordam ko'rsata olmaymiz. Doktor – mutaxassis, uning eng past qabul haqi – bir ko'rish uchun uch yuz dollar.

– Men pulini keyinroq topib kelishga harakat qilaman, – yalinib, iltijo bilan dedi Jerri.

– Doktor hech kimni nasiyaga davolamaydi. O'zinglarga arzonroq turadigan boshqa doktor izlanglar. Garmlda suvtekin davolaydigan Yevropadan qochib kelgan muhojir – vrachlar bor, o'shalarga borib uchranglar.

– Yo'q, yaxshi qiz... Biz u yoqqa bora olmaymiz. Nahotki, siz doktor bilan gaplashib berolmaysiz, balki u....

– Men aytgan gaplarni aynan takrorlashi uchun doktorni sizga chaqirib berishim kerakmi? – so'zini bo'ldi ayol. Keyin yarim jirkanch ohangda qo'shib qo'ydi:

– Xotiningizni tezroq biron kasalxonaga olib borishni maslahat beraman.

– Bu yaqin orada jamoat shifoxonasi, ya'ni haligi, bepul qaraydigan kasalxona topiladimi?

– Bepul qaraydigan? Nimalar deyapsiz o'zi?

– Oddiy shifoxona... Men jamoat, davlat yoki shahar kasalxonasini so'rayapman.

Hamshira unga boshdan-oyoq ko'z solib chiqdi:

– Janob, mening fahmimcha, siz chet elliksiz.

– Men Jerri Finnman.

– Buning ahamiyati yo'q. Sizdaqalarni yaxshi bilaman. Qayta siz, xotiningizni Angliyagami yoki Shveysiyagami, yo bo'lmasa shunga o'xshagan biron mamlakatga olib borib davolatsangiz soz bo'lardi. U yerda balki jamoat yo'li bilan davolatishingiz mumkin....

Eshik qattiq yopilib, Jerri yiqilib tushmaslik uchun aravaning suyanchig'ini mahkam ushlab qoldi. U bir so'z demay aravasini lift tomon g'ildiratib ketib, tugmachani bosdi. Ular pastki qavatga tushib kelayotganlarida Joan ko'zlarini ochib, mungli ingradi:

– Jerri, sen boya aytgan o'n dollarni qayoqdan olding? Biz axir, tushgan pulning hammasini bitta qoldirmay

menga berasan, deb qattiq shartlashib olgan edik-ku! Sen halol emassan.

Jerri indolmay qoldi. U ana shu o'n dollarni o'zining shaxsiy xarajatlari uchun yashirib qolgan edi. Shu topda Jerri o'zini hayoti sekin-asta elektr stuli tomon borayotgan jinoyatchiday sezdi. Kundan-kunga orttirayotgan tajribasini hisobga olmaganda, u bor narsasidan ajradi.

Lift birinchi qavatga yetib, to'xtadi. Jerri aravani eshikka g'ildiratib chiqdi.

– Endi meni qayoqqa olib bormoqchisan? – tashvish bilan so'radi Joan.

– O'zim ham bilmayman. Balki Angliyaga yoki Shveysiyaga...

– Yo'q, Jerri! Men Amerikani tark etishni istamayman!

Allaqanday ochiq chehrali bir janob ularga eshikni ochishga ko'maklashib, poyma-poy amerika tilida so'radi:

– Janoblar, sizlarga biron nimada yordamim tegmasmikin?

– Marhamat qiling, – dedi Jerri, – bizga shu yaqin oradagi kasalxonani ko'rsatib qo'ysangiz.

– Bu yerdan ikki ko'cha narida, shimol tomonda bor, janob.

– O'key, ming rahmat sizga!

Kreslo-arava yana yo'lga tushdi. Yo'lovchilar unga yo'l berishar va o'zlaricha, ziyoli xizmatkor badavlat bekasini xarid qilgani bozorga olib ketyapti, deb o'ylar edilar. Xizmatkorning yuqori tabaqaga mansub odam deb o'ylab yo rus podshosining amakivachchasi yoki Ruminiyaning sobiq qiroli uyining a'zosiga chiqarishardi.

Jerri arava yurishini sekinlatib, avliyo Mariya kasalxonasi darvozasi yonida to'xtatdi. Qari rohiba eshikdagi darchani ochib qaradi-da, bo'g'iq ovozdagi:

– Sizlarga nima kerak edi? – deb so'radi.

– Falokat yuz berdi, – javob qildi nafasi qisilib qolgan Jerri. – Xotinim belini sindirib qo'ydi, og'ir miya chayqalishi azob bermoqda.

Rohiba cho'qinib olib, surishtira boshladi:

– Sizlar qaysi qavmdan bo'lasizlar? – deb so'radi.

– Bizlar Iegov shohidligi qavmidan, – o'ylab-netib o'tirmay dedi Jerri.

– Biz sizlarni qabul qila olmaymiz. Bizning kasalxonamizda faqat katolik mazhabidagi kishilar davolanadi. Nahot sizlar bu yer katolik kasalxonasi ekanligini bilmasanglar?

– Bu yerga yaqin joyda boshqa biron shifoxona bormi?

– Balki bordir, lekin bizga u haqda biron nima bilish man etilgan.

Rohiba eshikdagi darchani yopdi, ular yopiq eshik oldida bu dunyoda hayotning chirkinligi va papa taxtining ulug'vorligi xususida o'y surib qolishdi. Joan yig'lab yubordi. Endi unga hamma narsa befoyda bo'lib ko'rindi. Axir, u kim uchun pardoz-andoz qilgan, o'ziga zeb bergan, lablari bilan qoshlarini bo'yagan edi? Kimni deb u oyog'idagi yungni qirdi?

– Kim uchun? Kimni deb? – xitob qildi Joan umidsizlik bilan yuzlaridan oqib tushayotgan ko'z yoshlarini artar ekan.

Aftidan, Jerri savol mohiyatiga tushunmadimi, javob sal chetga chiqib ketdi:

– Rim papasi uchun, deb...

Xuddi ana shu ularning umidsizligi ayni avjga chiqqan bir pallada, sira kutilmaganda g'oyibdan yordam kelib qoldi. Allaqanday o'rta yosh erkak, ko'rinishidan bordan ko'ra ko'proq yo'qqa ishonadigan odam yo'lidan to'xtab, xayrixohlik bilan so'radi:

– Sizlar kasalxonaga keldinglarmi yo u yerdan chiqib ketyapsizlarmi?

– Unisi ham, bunisi ham, – dedi hamma narsa joniga tegib ketgan Jerri. – Biz qariyb ikki soatdan beri xotinimni qaraydigan vrach topolmay garangmiz.

Notanish odam Joanga bir qarab olib:

– Falaj bo‘lib qoldingizmi? – deb so‘radi.

– Butunlay emas, – dedi Jerri. – Uning beli sinib qoldi.

– Demak, uning beli lat egan. Buning mutaxassisi kerak.

– Ha, albatta. Alohida vrach bo‘lishi kerak!.. Alohida vrachga alohida haq to‘lash lozim.

Notanish odam iyagini qashidi, ko‘rinishidan u ni-manidir eslamochiga o‘xshadi. Birdan yuz-ko‘zi yorishib ketdi:

– Chamamda, men sizlarga haqiqiy zarur vrachni taklif eta oladiganga o‘xshayman.

Joanning ham, Jerrining ham yuziga qon yugurdi. Notanish yo‘lovchi shoshilmay gapida davom etdi:

– Lat yegan bel... bel og‘rig‘i... juda to‘g‘ri. Mana endi esimga tushdi. Bu yerdan bir necha ko‘cha o‘tgach, chap qo‘lga burilasizlar. Uyning nomeri xotiramda yo‘q, shundaygina Stiva dorixonasining qarshisida. Ana o‘sha yerda butun dunyoga dong taratgan mashhur xiroamaliyotchi yashaydi. Yaqinda uning yoniga Yevropadan bir kasbdoshi ham kelgan...

– Rivers! – xitob qildi Joan.

– Xuddi o‘zi! – xursand bo‘lib ketdi notanish odam.

– Doktor Rivers. Xonim, sizga yordam bersa faqat o‘sha yordam bera oladi. Agar siz, bir amallab uning kasbdoshi qabuliga kira olsangiz yana ham yaxshi, nur ustiga nur bo‘lardi. – Uning nomi...

– Jerri! – Joan boyagidan ham qattiqroq qichqirib yubordi. – Meni faqat seni o‘zing davolashing mumkin! Qani, tezroq yur uyga!

Arava yana jadal yo‘lga tushdi. Notanish odam uzoq fursat bu g‘alati oilaviy safar orqasidan boshini qimir-latganicha qarab qoldi.

O'N BIRINCHI BOB

**HOZIRGI ZAMONNING MISLSIZ OILAVIY
MOJAROSI YUZ BERGANI VA JERRI FINNING
JOMADONINI OLIB, CHIQIB KETGANI**

Xiroamaliyotning yosh professori Jerri Finn puxta tekshirib chiqqanidan keyin, asosiy kasal to'rtinchi umurtqada ekanini aniqladi. Pastdan sanaganda, to'rtinchi umurtqada. Dumg'aza ham, yetti pusht ajdodlarimiz hali daraxtlarda yashab, emaklab yurgan paytdan bizga meros bo'lib qolgan to'rtinchi umurtqa ham biroz lat egan edi. Joanning badanidagi har yer-har yerda ko'zga tashlanib turgan momataloq va qontalash joylar yupqa pergamentga ishlangan geografik xaritaga o'xshardi.

Jerri xotiniining umurtqalarini uqalab, silab chiqdi. Uning barmoqlari ostida umurtqalar tovaga tushgan qahva donasiday qasirlab ketdi. Qorni bilan yotgan Joan ohista ingrardi.

– Jerri, barmoqlaringni bunday qattiq botirma! O'lay deyapman...

Ammo Jerri bunga etibor bermay, davolashda davom etdi. Umurtqalarni kam deganda yigirma martacha sanab, barini bir boshdan qayta-qayta chimdib chiqib, keyin to'rtinchi umurtqa ustiga issiq tutuvchi kompress qo'ydi va bemorni qavima ko'rpaga o'rab tashladi. Shundan so'ng sigareta tutatib, karavot yonida turgan yumshoq past kursiga o'tirdi. Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Joan mudray boshladi. Uning yuzida bolalarga xos sodda ifoda namoyon bo'lib, ma'naviy yetuk emasligi bilan to'la uyg'unlashib ketdi. Jerri qalbida xotini-ni faqat uxlab yotgan qiyofada ko'rish istagi uyg'ondi. Bordiyu, shunday bo'lganda, hech shubhasiz, ularning hayoti g'oyat tinch-totuv va baxtli kechardi! Chunki har qanday odam ham uxlab yotganida yaxshi odam. Hatto qonuniy xotining ham.

Xotinini rostakam uxlab qolganiga ishonch hosil qilgan Jerri aravani egasiga qaytib berishga oshiqdi. Mister Konelli soatiga qarab, bu transport vositasi uch soatu o'n daqiqa mobaynida foydalanilganini qayd qildi. Urush veterani benihoya olihimmat va hotamtoy odam edi: u faqatgina bir dollar olish bilan cheklanib, aravaning foydalanilishdan qolgan o'n daqiqa vaqtni Jerriga hadya qildi. Jerri o'n dollarli bir dona qog'oz pul berib, qaytimiga gadoy yiqqan bir etak mayda chaqa oldi.

– Xotiningizdan doktorlar nima kasal topishdi? – Jerri chiqib ketay deb turganida so'rab qoldi mister Konelli.

– Aytadigan hech nima, – sal bo'yin tovlab javob berdi Jerri, keyin jahl bilan qo'shib qo'ydi, – bordiyu, boshqa biron jiddiy gap bo'lsa, murda yorib ko'rilganda bilinadi.

– Harqalay o'z ishini yaxshi bilgan bironta bilimdon mutaxassisga ko'rsatish kerak edi, – gap qotdi yetmish yoshga kirayotgan, sog'liq masalasida hazillashishni yomon ko'ruvchi urush qahramoni.

– Men xuddi siz aytganday qildim. Biz o'nlab mutaxassislarni aylanib chiqdik.

– Juda yaxshi. Ha, aytmoqchi, sizni yaqinda Yevropadan kelgan deb eshitdim, shu rostmi?

– Ha, bir oydan sal oshdi.

Urush veteranining xotini ham yo'lakka chiqib qiziqish bilan Jerriga ko'z tashladi. Bir necha daqiqa sergap er-xotinning vaysashlarini eshitishga majbur bo'lgan Jerri o'zining oilaviy hayotidan butun uy xabardor ekaniga to'la ishonch hosil qildi.

– Men sizning xotiningizni juda yaxshi bilaman, – dedi Konelli xonim, – Joan bu uyda uch yildan beri yashaydi. Oltinchi qavatda turuvchi Govard xonim sizni ulardan kuchuk bola olmoqchi ekaningizni aytdi.

– Menimi?

– Ha. Govard xonim sizning sobiq it doktori ekaningizni ham gapirib berdi. Yaqinda Bruklin Spanel klubiga a'zo bo'lib kirarmishsiz.

– Mutlaqo to'g'ri. Rost gap, – parishonxayollik bilan javob qaytardi Jerri.

– Bizniyam kuchugimiz bor edi. Judayam ajoyib, bahosi yo'q kuchuk edi qurg'ur, – g'amgin ohangda so'z qo'shdi urush veterani, – o'lib qoldi...

– O'ldirishdi, – uning so'zini tuzatdi xotini, – allaqanday berahm, bag'ritosh odam unga margimush yedirib qo'yibdi.

– Juda aqlli it edi... – deb xo'rsindi mister Konelli.

– Nomi Fido edi, – yana qo'shimcha qildi xotini.

– Mutlaqo to'g'ri. Fido juda aqlli it edi. Bir safar qiziq bo'ldi. Biz u-bu xarid qilgani shaharga tushib ketayotgan edik. Bundan uch yilcha muqaddam...

– Yo'q, uch yil emas, ikki yil, – erining so'zini bo'ldi xotini. – Avgustda roppa-rosa ikki yil bo'ladi.

– Sen haq gapni aytding, – rozi bo'ldi er. – Ha, shunday, ikki yil burun biz uchovlon, ya'ni men, xotinim, Fido aylanib kelgani uydan chiqdik...

– Xarid qilgani ketayotgan edik.

– Xuddi shunday. Biz xarid qilgani ketayotgan edik...

– Mister Kronikopelos do'koniga borayotgan edik. Balki siz uni tanirsiz? O'zi yunonlardan. Qaysi kuni undan siz kichik bolg'acha ham sotib olgan edingiz.

Jerri o'zining sholg'omday qizara boshlaganini sezib, ming'irladi:

– Ha, ehtimol, esimga tushdi... Darhaqiqat, sotib olgan bo'lishim kerak...

Mister Konelli o'z hikoyasida davom etdi, garchand uning gapi bir necha bor bo'linganiga qaramay u butun boshli tarixni gapirib berdi.

– Shunday qilib, biz mayda-chuyda sotib olgani Kronikopelos do'koniga qarab ketdik. Omborimizda kalamush paydo bo'libdi deng...

– Sichqonlar, – gap qo'shdi xotini.

– Mutlaqo to'g'ri. Modomiki, omborimizda sichqonlar paydo bo'lgan ekan, ularni zaharlaydigan dori olish kerak.

– Jon, sen hamma gapni chalkashtirib yubording. Biz zaharlovchi dori uchun emas, qopqon olgani borgan edik. Xo‘p, mayli, gapiraver.

– Shunday qilib, biz qopqon sotib oldik...

– Kechirasan, Jon. Qopqonni men sotib olgan edim!

– To‘g‘ri, sen sotib olgan eding. Shunday qilib, mening xotinim qopqon sotib oldi, manavinday jimit qopqoncha. Shundan keyin hammamiz uyga qaytib keldik. Shu de-sangiz, bir vaqt sezib qoldikki...

– Yo‘q, men sezib qoldim!

– Shunday, xotinim sezib qoldi. Bir vaqt qarasak, qopqon yo‘q. Qidirishga tushdik. Qidirdik, qidirdik, oxir topib oldik...

– Uni men topib oldim-ku, axir!

– Demak, xotinim uni topib oldi. Xo‘sh, siz uni qayer-da ekan, deb o‘ylaysiz? Kuchugimizning dumida ekan. Butunlay tushunolmay qoldik: bu dardisar qopqon qachon va qanday qilib itimizning dumiga ilinib qoldi ekan? Harqalay, qopqon itning dumini qisib, osilib yotar, Fido joni boricha vangillardi.

– Darvoqe, bu yaxshi saboq bo‘ldi, – yana gap qo‘shdi xotin.

– Ha, albatta. Bu Fido uchun juda yaxshi saboq bo‘ldi. It degan narsa dumini to‘g‘ri kelgan joyga tiqaverishi kerak emas.

– Yo‘q, xavfli narsalar bilan ehtiyotkorona muomala qilish uchun senga saboq bo‘ldi.

– Ha, albata. Darhaqiqat, men uchun katta saboq bo‘ldi....

– Shuningdek, Fido uchun ham.

– Keyin Fido og‘rib qoldi...

– Oradan ikki oy o‘tib...

– Uni doktorga olib bordik...

– Uni men olib bordim. Sen u mahalda band eding – pul ishlayotgan eding.

– Xuddi shunday, doktorga itni xotinim olib bordi. Lekin kech qolgan edi.

– Gap menda emas edi, – uning soʻzini keskin boʻldi xotini, – Fidoni oʻsha zahoti doktorga olib borganman.

– Ha, chindan ham shunday boʻluvdi. Xoʻsh, doktor aniqladiki, it yegan narsa...

– Oʻzi yemagan, unga yedirishgan!

– Ha, itga yedirishgan narsa margimush ekan. Shundan keyin Fido oʻlib qoldi. Biz toza qaygʻurdik.

– Hammadan koʻra men koʻproq gʻam chekdim, – taʼkidladi xotin.

Jerri ularning gʻam-qaygʻusiga chin yurakdan hammadlik bildirdi, achinib, yana chiqib ketish taraddudiga tushib qoldi. U urush veteranining oʻta beozor va yuvoshligiga xotining esa choʻrtkesish mahoratiga qoyil qoldi. Bu beqiyos ahil oila uni eshikkacha kuzatib chiqib, yana ostonada gapga tutdi.

– Mening ishonchim komilki, siz mister Finn, ingliz emassiz? – soʻradi Konelli xonim..

– Yoʻq, men ingliz emasman...

– Bu yaxshi. Inglizlarni oʻlarday jinim sevmaydi, Jon ham ularni yoqtirmaydi.

– Sira toqatim yoʻq, – tasdiqladi uning soʻzini er.

– Mister Finn, siz fransuz emasmisiz?

– Yoʻq, yoʻq...

– Yana ham yaxshi. Men fransuzlarni yomon koʻraman. Jon ham shunday.

– Ha, albatta, – uning soʻziga qoʻshildi yuvosh er.

Jerri ketmoqchi boʻlib, bir-ikki qadam tashlagan edi, er-xotin ham unga ergashdi.

– Kechirasiz, mister Finn, siz nemis ham, rus ham emassiz, shundaymi? – xavotir bilan soʻradi Konelli xonim.

– Yoʻq, men olam fuqarosiman.

– O, bu qanday soz! Meni, shu desangiz, ruslarni koʻrsam ham, nemislarni koʻrsam ham ensam qotadi. Jonning ham ularni koʻrgani koʻzi yoʻq.

– Haq gap, – mister Konelli xotini soʻzini tasdiqladi.

– Sirayam jinim sevmaydi. Agar bu yerda yolgʻiz irlandi-

yaliklar yashaganda bormi, Amerika qanday baxtli o'lka bo'lardi!

– Rost, bilasizmi, mister Finn, men irlandiyalikman. Jon bo'lsa yuz foiz amerikalik.

– Meni afv etinglar, – dedi iltifot bilan Joan. – Xotim kutib qoldi. Tezda borishim kerak. Sizlar juda-juda mehribon odamlar ekansizlar.

– Butun irlandlar shunday mehribon bo'lishadi, – dedi Konelli xonim. – Agar sizga yana arava kerak bo'lib qolsa, darrov chiqingu olib ketavering. U Jonga faqat kechqurun kerak, xolos...

Jerri, odamlarning ba'zi paytlarda muruvvatli, insonparvar bo'lishlari to'g'risida xayol surar ekan, bemor xotini yoniga yugurdi. Joan allaqachon uyg'ongan va soppa-sog'ga o'xshardi.

– Qayoqda eding? – hushyor tortib so'radi u.

– Aravani egasiga eltib berdim.

Joan qaddini ko'tarib, yarim yonboshlab, navbatdagi savolni berdi:

– Jerri, qani ayt, nega mendan o'sha o'n dollarni yashirib qolding? Marhamat qilib, hoziroq pulni menga ber!

– Menda endi o'n emas, to'qqiz dollar qoldi.

– To'qqiz!

– Ha. Bir dollarni mister Konelliga aravaning ijara haqiga berdim.

– Shuni bekor qilibsana. Boshqa bir safar to'layman, deb qo'ya qolishing mumkin edi. Mayli, bo'lmasa qolgan to'qqiz dollarni sumkamga solib qo'yib, o'zing yonimga kelib o'tir.

Jerri buyruqni bajo etdi. Undan endi asta-sekin Finnlar oilasidan chiqqan mo'min-qobil, yuvosh Fido paydo bo'la boshlagan edi. U qo'ldan ovqat yer, bekasi-ning oyog'i ostida, polda uzala tushib yota olardi.

– Qalay, o'zingni durust sezyapsanmi? – so'radi Jerri.

– Ancha durust, lekin o'rnimdan turay desam belim og'riydi. Meni o'pgin bir.

Bechora Jerrining yashirib qolishi, o'g'irlashi kerak bo'lmagan narsa faqat shu edi. Bu sohada u endi ozgina tajriba orttirgan bo'lib, bunday saboq uchun muallimasi – Joandan har qancha minnatdor bo'lsa arzirdi. Joan hech shubhasiz, hozirgi zamon texnikasini muvaffaqiyatli qo'llay oladigan iste'dodli pedagog edi. U o'payotgan paytida mislsiz epchillik bilan nozik qo'lchasini erining qo'yin cho'ntagiga yuborib, uning yonidan xamiridan qil sug'urganday sug'urta hujjatini sug'urib oldi.

– Uni o'zim yashirib qo'yaman, – dedi xotirjamlik bilan u. – Bo'lmasa yo'qotib qo'yishing mumkin. Jerri, meni sevasanmi?

– Sug'urta qog'ozlarini menga ber! – qat'iy ohangda dedi Jerri. – Men uni bekor qilaman. Haddan tashqari katta summaga qilingan. Menga bunday sug'urtaning keragi yo'q.

– Sen faqat o'zingni o'ylaysan. Berahm, zolimsan.

Jerrining yuzida g'amgin ifoda paydo bo'lib, u talabchan nazarda Joanning ko'kish ko'zlariga tik boqdi va keskin suratda dedi:

– Joan, hozir hazilning o'rni emas. Qog'ozlarni yaxshilikcha bermasang, o'zim olaman.

– Dod deyman.

Jerri Joanning dodlashini kutib turmay, o'ng qo'li bilan bilagini mahkam ushlab, chap kafti bilan og'zini yopdi. Og'iz ochishga ulgurmagan suyukli xotining qo'lidan hujjatlar tushib ketdi. Ko'z ochib yumguncha u erning qo'yin cho'ntagidan joy oldi. Oilaviy mojaroga yaxshi musiqali fon bo'lsin deb Jerri radioni balandlab qo'ydi. Joan radio ovozi bosib baqirishga urinmadi, o'zini karavotga otib, butun gapini ko'z yoshlari bilan bayon qildi. Lekin bu namgarchilik shu gal erga hamma vaqtdagiday sehrli ta'sir ko'rsatmadi. Jerri ko'z yoshlarida faqat suv bilan xlorli natriy, ya'ni oddiy qilib aytganda, osh tuzi birikmasidan hosil bo'lgan sho'r suvnigina ko'rgan kimyogar singari sovuqqonlik bilan qarab turardi.

Jerri Finn garchand sadizmni – birovni azoblab laz-zatlanishni tarannum etuvchi o'nlab kinofilmlarni ko'rgan bo'lishiga qaramay, o'zi shu toifaga kirmas edi. Yo'q, u aksincha, sadizmga nafrat bilan qarardi! Lekin hozir u Joanning ko'z yoshlariga, yuzlarini yuvib, kuldiringichlari va iyaklariga oqib tushayotgan osh tuzi eritmasiga befarq qaramoqda edi. Turgan gap, ular eru xotin bo'lganliklari uchun bunday sovuq munosabatda bo'lishga haqlari bor edi. Jerri ajralish kerak, degan achchiq haqiqatni endi ravshan ko'rib turardi. U as-toydil miyona jomadonchasiga buyumlarini yig'ishtirib sola boshladi. Ayni vaqtda xotinning ho'ngrab yig'lashi shunday avjga chiqdiki, u radioning bo'kirishini bosib ketdi.

Olam fuqarosining yer yuzining biron burchagida na uyi, na vatani bor edi, shu sababdan u yashamoqchi bo'lgan palatkaning qoziqlari hech qachon mustahkam qoqilmas edi. Jerri uydan chiqib ketishga, xotiniga so'nggi alvidoni aytishga, o'zi davolay boshlagani uchun bemorga oxirgi vrach ko'rsatmalarini berishga hozirlandi. Jomadonini yo'lakka olib chiqib qo'yib, radioning ovozini pasaytirdi. Joan karavoti yoniga ham er, ham vrach sifatida yaqin kelib:

– Sen ikki kun mobaynida qimirlamay o'rningda yotishing kerak, – dedi, – innaykeyin, lat yegan joyga isitadigan kompress qo'yish lozim, – xotirjam davom etdi u. – So'ngra uncha katta bo'lmagan shar, yaxshisi tennis koptogi bo'lsin, olishing kerak. Bir kunda uch mahal quyidagi muolajani takrorlash lozim: avvalo polga chalqancha yotib, sal belingni egasan, umurtqalaring ostiga koptokni qo'yib, unga butun og'irligingni tashlab, shunday harakat qilasaniki, koptok barcha umurtqa suyaklaringga navbatma-navbat tegishi kerak...

Joan zo'r diqqat bilan tingladi. Biroq Jerrini emas, radioni. Nihoyat, Joan baqirib berdi:

– Jerri! Jim-ey! Bing Krosbi ashula aytyapti, nahot eshitmayotgan bo'lsang?

Jerri eshik tomon chekina boshladi. Bing Krosbi eng so'nggi, hali ohori to'kilmagan musiqali yangilikni: «Muhabbatim mening porlamoqda Arabistonning moviy tunida»...ni aytmoqda edi. Jerri arab ayollari to'yga qadar bo'lajak erlarini ko'rish huquqidan mahrum ekanliklarini esladi. Amerikada bo'lsa buning aksi edi: xotinlar o'z erlarini to'ydan keyin kamdan-kam ko'rishadi.

Bing ashulasini tugatib, dunyodagi eng ajoyib televizorlar maqtovini keltirayotgan suxandonga gal berdi. Jerrining qulog'iga Joanning zavq bilan qichqirgani eshitildi:

– Oh, qanday erkak-a? Asl-a, asl!

Xuddi shu palla chiqib ketmoqchi bo'lib eshik tagida turgan Jerriga Joanning ko'zi tushib qoldi.

– Qayoqqa o'tlanib qolding? – taajjub bilan so'radi u.
– Nima balo, kechki ovqat pishirmoqchi ham emassan, shekilli?

Jerri qimir etmadi, og'iz ham ochmadi. Joan zavqlanib gapida davom etdi:

– Qani, ayt-chi, nahot sen Bing ovozi sevib qolmading? U jahonda tengi yo'q qo'shiqchi. Haqiqiy irland tenori. Irlandiyaliklar haqiqiy ashulachilar sifatida butun jahonga mashhur xalq. Voy, xudoyim-ey, Bingni qanday sevaman-a!

Jerri indamadi. U o'zida yana bir kattakon kamchilik mavjud ekanini, ya'ni Irlandiya tenoriga o'xshab qo'shiq ayta olmasligini fahmlab qoldi. Jerri xotini yoniga ohista yurib kelib, befaraq ohangda:

– Joan, biz ajrashmog'imiz kerak, – dedi.

– Ajrashmoq? Nima sababdan? – Joan hayrat bilan so'radi.

– Eru xotin bo'lganimizdan keyin ajrashamizda. Yana, bir-birimizga sira to'g'ri kelmaganimiz tufayli. Mening tabiatim og'ir.

Joan o'z kasalini ham unutilib, sapchib o'rnidan turdi, erining bo'yniga osildi. Jerri, xotininning qo'li beixtiyor

qo'yin cho'ntagimga tushib qolmasin deb, sergaklanib buning oldini oldi.

– Yo'q, Jerri, sen og'ir emassan, – dedi Joan, – Tom bilan Erol sendan ko'ra og'irroq edi – ular ham meniga o'xshab Amerikada tug'ilgan bo'lishlariga qaramay, meni tushunishmas edi. Balki bu daraja oqila ekanim ularning asablariga tegib, g'azablarini qo'zg'agandir. Gapning sirasini aytganda, otam oddiy fermer bo'lishiga qaramay, meni o'qitgan. Charlzni ham.

Joanning nozik qo'li yana erining cho'ntagi tomon ohista yo'naldi. Biroq Jerri uning har ikkala bilagidan ushlab olib, unga xalaqit berdi. Xotining ko'zlariga tik boqib, g'amgin va ma'yus:

– Joan, – dedi, – men sening tenging emasman, senga sirayam arzimayman. Men pastkash, yaramas bir maxluqman. Butun umrim deyarli qamoqxonalarda o'tib ketdi...

– Jerri, jonginam, buning nima ahamiyati bor! Charli ham ikki marta qamoqda o'tirgan. Ha, Erol ham! Al-laqanday axloqiy buzuvlik uchun qamoqda o'tirgan. Yo'q, o'g'rilik qilgan edi, shekilli. Hozir aniq xotiramda yo'q. Oh, Jerri, shu topda seni qanday sevishimni bilsang edi!

– Men juda og'ir jinoyatlar qilganman, – ma'yus davom etdi Jerri. – Men gangsterman.

– O-o, men axir gangsterlarni jonimdan ham yaxshi ko'raman-ku! Ular o'lgiday kuchli va jasur bo'ladilar! Hatto o'limdan ham qo'rqmaydilar.

– Hamma gap shunda-da. Men o'limdan qo'rqaman...

– Sening hech qanday qo'rqadigan joying yo'q. Kam deganda ikki hafta xotirjam yura berishing mumkin. Men tezroq Charlz bilan gaplashishim kerak.

– Nima to'g'rida?

Joan nima deyishni bilmay, tutilib qoldi. Jerri uni qo'pollik bilan itarib tashlab, yurakni kemiruvchi ovozda:

– Aktrisa! – dedi.

– Joan darhol o'zini o'nqlab oldi:

– Yoshligimda aktrisa bo'lishni orzu qilardim. Menga iste'doding bor, deyishardi. Bundan tashqari, men Joan Kroufordga judayam o'xshayman. Jerri, sen qalbi oltin odamsan!

– To'g'ri aytding. Mening qalbim ham oltinga o'xshash mustahkam. Endi uni gavhar to'kib ham rom qilolmay-san. Akang bilan tiling bir, sen ham uning jinoyatlariga sheriksan. Avval meni aql bovar qilmaydigan darajada yirik pulga hayotimni majburan sug'urta qildirdinglar, endi kutilmagan baxtsiz hodisa rejasini tuzib, meni o'ldirish payiga tushdinglar.

– Yolg'on! – xitob qildi Joan. – Biz hali hech qanday reja tuzganimiz yo'q. Bu yo'q yerdagi gaplarni o'zing o'ylab chiqaryapsan. Bu gaplar faqat sening tasavvuringda, xayolingda bor... O, qanday ayanchli odamsan! Men mana endi yevropalik erkaklarning bari qo'rqqoq bo'ladi, deyishganiga aniq ishonдим. Ular o'zlarining madaniyatli ekanliklari bilan maqtanishadi-yu, ammo musht-lashishni bilishmaydi.

– Nimani tillashyapsizlar? – kutilmaganda Charlz-ning past ovozi eshitildi.

U eshikni o'z kaliti bilan ochib kirganini er-xotin payqamay qolishgandi. Jerri beixtiyor shimining orqa cho'ntagini paypaslab ko'rdi. Bolg'acha joyida edi. Kostyumining qo'yin cho'ntagini ham tekshirib chiqdi. Sug'urta qog'ozlari ham yonida.

– Eshik tagida qanday jomadon turibdi? – so'radi Charlz, – sal bo'lmasa unga urilib ketib, oyog'im sinay dedi. Joan, biron qultum viski topiladimi?

Charlz esnay-esnay suyanchiqsiz divanga kelib o'tir-di, shlyapasini gardaniga surib qo'ydi.

– Ha, aytganday, nima to'g'risida safsata sotayotgan edinglar? – qo'lga viski olarkan, yana savolini takrorla-di Charlz.

Joan bilan Jerri jim o'tirishardi. Charlz bir qultum ichib:

– Nima balo, telefon buzilib qolganmi? – deb so'radi. – Kun bo'yi qo'ng'iroq qildim, go'shakni hech kim olmadi.

– Biz bir necha soat uyda yo‘q edik, – botinmaygina dedi Joan. – Jerri meni kasalxonaga olib bordi...

– Seni urdimi u? – ko‘zlari ola-kula bo‘lib surishtirdi Charlz.

– Yo‘q... o‘zim zinadan yiqilib, belim lat edi. Hozir ancha tuzukman, durust sezyapman o‘zimni, faqat boshim og‘riydi.

– Kamroq chekish kerak, – singlisiga maslahat berib, Jerri tomon ko‘z tashladi u.

– Xo‘sh, sening biznesing qalay? – jim turgan kuyovidan so‘radi Charlz. – Bugun durustroq pul ishladingmi?

– Jerri biroz charchagan, – izoh berishga shoshildi Joan, – bugun uning uchun og‘ir kun bo‘ldi.

– Pul hech kimga osonlikcha tushmaydi, – gap qotdi Charlz, – Ha, men sizlarga xushxabar olib keldim: sug‘urta – o‘key.

– Xabarimiz bor, – dedi Joan eriga xavotirli ko‘z tashlab qo‘yib.

– Eringga bir balo bo‘lganmi o‘zi? – taajjublandi Charlz. – Bu mo‘g‘ullar o‘larday og‘zi bo‘sh odamlar-da! Qo‘llaridan bundan bo‘lak ish kelmaydi ham.

– Jerrini xafa qilma, – dedi Joan.

Jerri qimir etmay turar va ozodlikka chorlovchi eshikka qarab qo‘yardi. Joan uning yoniga kelib, yarashishga, murosaga chaqirgan ohangda:

– Jonginam, sen ham viski xohlaysanmi? – dedi.

– Yo‘q, – kaltagina javob qildi u.

– Ering yaxshi narsalarning farqiga bormaydi, – dedi Charlz va o‘rnidan turib kerishar ekan, Jerri yoniga keldi. – Xo‘sh, og‘ayni, hayoting sug‘urta qilindi, endi nima deysan? Men tez va epchil harakat qildim va...

– Va ahmoqona ish qilding! – deb uning jumlasini tugatdi Jerri mister Rivers hikmatli so‘zlarini eslab.

– A-a, hali shunday degin? – Charlzning so‘z ohangi o‘zgardi. – Menga qara, og‘zingni behudaga ochaversang tanobingni tortib qo‘yaman-a! Bilib qo‘y, bu yer kuchli

odamlar mamlakati! Biz biznes qilish va mushtlashish bilan tirikmiz! Tahlil qilgani qoningni so'nggi marta qachon olgan edilar?

Joan ular orasiga tushishga oshiqdi.

– Charli, nega muncha qizishasan? Joyingga borib o'tir, Jerrini o'z holiga qo'y.

– Qornim och, – javob qildi aka, – eringni oshxonaga chiqarib yubor.

Jerri tishini tishiga shunday qattiq bosdiki, hatto jag'lari qirsillab ketdi. U shaxdam eshik tomon yurib borib, jomadonini qo'liga oldi.

– Nima balo, vataningga quyvon bo'lmoqchimisan? – surishtira boshladi Charlz.

Jerri unga javoban faqat kinoyali jilmayib qo'ydi.

– Yaxshi qol, Joan, – dedi u hasratli ovozda va eshikni ochdi.

Biroq Charlz ikki sakrab, uning yonida paydo bo'lib eshikni to'sdi:

– Men bilan hazillasha ko'rma-ya! – baqirdi u. – Men bilan ham, mening singlim bilan ham! Bordiyu, ayta-digan gaping bo'lsa, qani ayt, qulog'im senda. Kostyuningni echib qo'y, manavi yerga o'tir!

– Jerri, tashlab ketma meni, – iltijo bilan dedi Joan. – Seni sevaman!.. Charli, ketkizma uni!

– Tashla jomadonni! – qichqirdi Charlz. – Men tayyorman.

– Ahmoqlar bilan mushtlashmayman, – dedi Jerri quruqqina.

– Sen mushtlashmasang men mushtlashaman! – bo'kirdi Charlz va Jerri qo'lidan jomadonni tortib oldi. – Men yevropalik maxluqlar bilan istagan paytda mushtlashishga tayyorman, ayniqsa, inglizni so'rab o'tirmayman ham.

– Jerri ingliz emas, Finlyandiyadan kelgan! – qichqirdi Joan to'qnashuvga yo'l qo'ymaslik maqsadida.

– Bunday mamlakat yo'q! – javob qildi qizishib ketgan Charlz.

– Bor, bor, – uqtira boshladi Joan. – Bu haligi Koreya yonida... Voy xudoyim-ey, yarasha qolsalaring-chi endi! Qarindosh-urug'larning urishishiga balo bormi... Charli, joyingga o'tir, o'zingni bos, Jerri, sen men bilan oshxonaga yur, o'zim yordamlashib yuboraman senga.

Jerrining qarori qat'iy edi:

– Men ketaman!

U endi jomadonni olgani engashgan ham edi, iyagiga tushgan zarbdan yo'lakning narigi boshiga uchib ketdi.

– Mana og'ayni, endi bolg'achang bilan fokus ko'rsatolmaysan! – qichqirdi Charlz. – Men senga ko'rsatib qo'yaman! Sariq maymun!

Jerri devor tagida yuztuban yotardi. Uning bir qo'li qorni ostida bukilib qolgan, ikkinchisi bemajol chetda shalvirab yotardi. Jerrining hushi joyida-yu, ammo o'rnidan turolmasdi. U ko'zlarini yumib yotarkan, qulog'ini ding tutib, o'zini behush qilib ko'rsatmoqchi bo'ldi.

– Charli! Nima qilib qo'yding?! – dahshat ichida qichqirdi Joan.

– Yaqiniga borma! Mazasi qochib qoldi, mayli, picha dam olsin.

– O'lib qolsachi?

– Qanday laqma xotinsan, Joan. Hammani qo'yib uni o'ladigan qilib urarmidim? O'zlaring boya nima mashmasha qilayotgan edinglar?

– Men bilan ajrashmoqchi, – yig'lamsirab dedi Joan. – Qancha harakat qilsam ham bo'lmayapti!..

– Bo'pti, yaqinda ajraladi, oz qoldi! – xunuk iljayib qo'ydi Charlz.

– Yo'q, men undan ajralishni istamayman...

– Istamaysan?

– Yo'q, Charli. Sen meni tushunishing kerak. U ni-manidir sezyapti, bir baloni payqab qolganga o'xshaydi... u bilan baxtsiz hodisa bo'lishini istamayman. Charli, men... men uni sevaman...

– Sendan xuddi shu talab qilinadi-da.

– Yo'q, men uni chinakamiga sevib qoldim, rost. Bu avvalgiday yolg'on o'yin emas, Charli. Shu bugun uni sevishimga aniq ishondim. Jerri bilan hech qanday hodisa yuz bermasligi kerak. Bir umr uning xotini bo'lib qolishni istayman. Charli, bu juda xatarli o'yin. Bordiyu, u o'lib qolsa, men bu olamda yolg'iz yashay olmayman...

– Miyovlashingni bas qil, Joan! Sen yana aqldan ozyapsan. Sug'urta hujjatlari qani?

– Menda...

– Qani berchi, ko'rmoqchiman.

– Yo'q, Charli, ularni senga bermayman.

– Men faqat ko'z yugurtirib chiqmoqchiman, xolos!

– Senga uni ko'rsata olmayman.

– Joan, hozirning o'zidayoq menga sug'urta qog'ozlarini ko'rsatmasang, meni boshqa aka, deb atama. Bildingmi? Sen uchun bundan buyon faqat oddiy Charlz Louson bo'lib qolaman. Hoziroq qog'ozlarni cho'z. Bo'lmasa...

– Ular menda emas... Jerrining cho'ntagida...

Jerrining nazarida butun a'zoi badaniga elektr quvati urilganday bo'ldi. U bor iroda kuchini to'plab, o'zini himoya qilishga shaylaidi. Charlz tepasiga kelib, oyog'i bilan turtib narigi yog'iga ag'darganida ham o'likdek qimir etmay yota berdi. Bu payt uning qo'li orqa cho'ntagiga borib qolgandi. Sug'urta xodimi endi engashib uning qo'ynidan hujjatlarini olmoqchi bo'lganda u qo'qqisdan chap qo'li bilan raqibining shlyapasini iyagigacha tushirarkan, o'ng qo'li bilan bolg'achani chaqqon ishga soldi – bu safar Jerri dushmanining tizzalariga emas, qoq peshanasiga tushirdi. Bu shunday tez sodir bo'ldiki, hatto Charlz nima gapligini bilmay ham qoldi. U zarbdan gandraklab shlyapasini ko'tarishga urindi. Ammo Jerri shlyapani tag'in ham bostirib kiygizib qo'yib, zarb berishda davom etdi. Yaxshi hamki, shlyapaning fetri qalin ekan, uning joniga oro kirdi. Lekin shunga qaramay, mag'lubiyatga uchragan dushman bor bo'yi bilan polga

cho'zilib, uzala tushib yotardi. Uning shlyapasi iyagi-ga qadar bostirib kiygizilgancha qolgan edi. Jerri biron kutilmagan sovg'a-salomga duch kelib qolmaslik uchun har ehtimolga qarshi Charlzning tirsaklari va tizzalariga ham ura ketdi. Shundan keyin galstugini to'g'riladi-da, to'zib ketgan sochlarini tarab, eshikka yo'l oldi.

Joan qo'llari bilan yuzini berkitganicha divanning bir burchagida g'ujanak bo'lib yotardi. Jerri go'yo shu topdagina niqob ostidan haqiqiy odamni ko'rganday, xotiniga rostakam joni achishib, mehri tovlanarkan, dedi:

– Yaxshi qol, Joan!

Joan divandan sakrab turib, o'zini eriga emas, telefonga otdi.

– Men politsiya chaqiraman! – qichqirdi u. – Seni ushlab olib qamab qo'yishadi.

O'z-o'zini himoya his-tuyg'usi Jerrini qat'iy harakat qilishga majbur etdi. U xotini yoniga yugurib kelib, uni mahkam quchoqlab, dast ko'targanicha yotoqxonasiga olib kirib o'rniga yotqizib qo'ydi.

– Ablah, nafratlanaman sendan... – ilonday to'lg'anib dedi Joan.

– Senga nisbatan menda nafrat hislari yo'q, – dedi xotirjam Jerri, – lekin, har holda, ko'ngil to'q bo'lgani yaxshi...

Jerri shu jumlaning so'nggi so'zini aytarkan, xotining reflekslarini sinab, oyoq-qo'lini bolg'acha bilan ishdan chiqardi. Joan dod solmoqchi bo'lgan edi, Jerri uning lablariga labini shunday qattiq bosdiki, u karaxt bo'lib qoldi. Shundan so'ng Jerri yo'lakka qarab yugurib, jomadonna ola ko'chaga otildi.

Qisqagina oilaviy mojaro ana shunday tugadi. Uning boshqa odatdagi oilaviy mashmashalardan farqi shuki, janjal paytida raqiblar bir-biriga sariyog'li tort otishmadi, hech kim uy jihozlarini ag'darib to's-to'polon ko'tarmadi.

Nyu-York yotoqxonasi g'ira-shira bo'la boshladi. Ko'chalardagi millionlab reklama chiroqlari parillab

yondi. Ko'chalar tunda ham xotirjamlikni bilmasdi. Hatto tungi shamol ham allaqayerda uxlab qolganu, lekin ko'chalar uyg'oq edi. Yosh kelin-kuyov uyi derazasida sehrli to'lin oy shu'lasi o'ynardi...

O'N IKKINCHI BOB

JERRI FINNING ISHSIZ QOLGANI VA UNING OYGA UCHMOQCHI EKANINI AYTGANI, SHUNINGDEK, JOANNI ERINING YANGI MANZILINI BILOLMAY XUNOB BO'LIB O'TIRGANI

Jerri Finn ozodlikka chiqib, hushtak chalgancha maza qilib yuribdi, deb o'ylash xato bo'lardi. Yo'q, aksincha, u yosh oqizmay, ich-ichidan yig'lamoqda edi. Jerri mister Rivers uyiga yetib kelganda, uning yuragi xuddi o'zining beomon bolg'achasi zarb berganday qattiq ura boshladi. Eshikni ochgan Isaak o'zining kasbdoshini quyidagi so'zlar bilan kutib oldi:

– Aha! Hisob-kitobni to'g'rilab, orani ochiq qilgani keldingmi? Juda soz, qani ichkariga kir, darhol aniqlab, ishni bir yoqlik qilamiz.

Jerri o'zini shunga o'xshash ma'noda kutib olinishini oldindan kutgan edi, chunki Isaakning ma'lum me'yorgacha optimist ekanini yaxshi bilardi. Ana shu me'yorga yetgach, u realist bo'lib qolardi va o'yin qoidasini buzgan hamkasbini shafqatsiz quvib yuborishi hech gap emasdi.

– Hayotimdagi birinchi haqiqiy qora kunlar sen uylangan fursatdan boshlandi, – dedi jiddiy qiyofada Isaak.

– Mening hayotimda ham shunday, – so'z qo'shdi Jerri ham aks sadoday, keyin uning gapi davomini kutib, jim qoldi.

– Men o'z amaliyotimni reklama qilish uchun sakkaz yuz dollar to'ladim, – deya davom etdi Isaak. – Birinchi

kunlarda ishimiz juda yurishib ketdi, odam ko'p keldi, sen ham, men ham talay pul ishlab oldik. Xo'sh, keyinchi? Undan keyin sen xotinlar yubkasini o'zingga bayroq qilib, mana bir haftadan oshibdiki, shu bayroq ostida marsh qilib yuribsan. Ishga xohlagan mahalingda kelasan. Ustiga-ustak, butun bemor ayollarni hurkitib, qochirib yubording. Bugun esa, tushki ovqatdan keyin ishga kelishni xayolingga ham keltirmading, oxir-oqibatda, mana, biz yangi bemorlardan ham, eski bemorlardan ham ajradik.

– Lekin, Isaak... bugun men sira yengib bo'lmaydigan to'siqqa duch kelib qoldim... – o'zini oqlashga urinib dedi Jerri. – Xotinimning beli sinib, voy-voylab yotibdi...

– Seni esa miyang aynib qolibdi. Bemorlarimiz o'lgunday hissiz odamlar, ular yana qachon bizning qabulimizga kelishlarini aytmay juftakni rostlab qolishdi. Hozirgina men hisob-kitob qilib, sen uylangandan beri naqd ikki ming dollar yo'qotganimni aniqladim. Sen bizning zamonamizda har bir bemor uchun shiddatli kurash olib borish kerakligini tushunmaysan. Odamlarga xizmat qila olishni bilish kerak. Ular yarim kun mobaynida boks bileti uchun navbatda turishlari mumkinu, ammo xiroamaliyotchi qabuliga shu vaqtning choragini ham sarflashni istamaydilar.

Isaak cho'ntagidan bir dasta pul olib, yigirma dollarlik qogozlardan besh donasini hamkasbiga uzatdi.

– Mana sening to'qqiz kunlik maoshing va bemorlarni jalb etganing uchun qalam haqing.

Jerri pulni hamyoniga solib qo'ydi, lekin bundan bu dunyo baribir yorishib ketmay, o'sha-o'sha ko'rimsiz holicha qoldi. U hayotning nozik tomonlarini ko'rmas edi. Kelajak ko'ziga qorong'i va g'amgin ko'rinardi, o'tmishda esa baxtiyor va yorqin sahnafalar bo'lmagandi. Butun olam baxtli nikohlarga to'la edi-yu, ammo u faqat tolei past er-xotinlarnigina ko'rardi, ularning yostiqlarigacha ingrayotganday tuyulardi.

– Men endi nima qilaman? – so'radi chorasiz qolgan Jerri.

– Bu yog'iga bir narsa deyolmayman, – javob qildi Isaak. – Yaxshisi, xotiningdan so'ra.

– Mening xotinim yo'q endi...

– Bo'lmasa kim ustingdan tegirmon toshi yurgizyapti?

Isaak o'ylab qolib, sapchib o'rnidan turib ketdi:

– Nima deding? Xotinim yo'q, deysanmi? Nima balo, o'lib qoldimi?

– Yo'q, uni tashlab chiqib ketdim...

– Xunuk ish bo'libdi. Juda xunuk ish. Xotinni tashlab chiqib ketib bo'lmaydi – faqat boshqa erkak bilan o'rinda yotganida ushlab olsang, o'ynashi ustida pijamang bo'lsa, boshqa gap. Bunday paytda tashlab chiqib ketishga qonun ham yo'l beradi.

Jerrining battar kayfi buzildi. U, oxirigacha aytib bo'linib ojiz va notavon bo'lib qolgan eski psalomga o'xshardi.

– Isaak, menga biron yo'l-yo'riq ko'rsat, – iltijo qildi u. – Xotinim bilan birga yashay olmayman. Hayotim xavf ostida...

– Bo'lmasa uni sen ham do'pposla, – bo'kirdi Isaak. – Faqat yuziga tega ko'rma. Mening bir sherigim bor edi, nemis edi. U mahalda men Minnesota shaxtasida ishlardim. Xo'sh, ana o'sha nemis har haftada ikki marta xotinini rosa do'pposlar edi. Urgandayam xumordan chiqib, shunday urardiki, bechorani bejab tashlardi. Nuqul yalang'och ketiga tushirardi, esimda bor, kamar bilan urardi.

– Yo'q, Isaak... Bu jiddiy masala.

– Turgan gap. Shuning uchun ham maslahat beryapmanda. Bir gal mening o'zim ham xotinimni do'pposlamochi bo'lgandim. Lekin uraman deb bel bog'lab, qo'l ko'targunimcha qahru g'azabim so'nib, jahldan tushib qoldim...

Jerri sabrsizlana boshladi. Isaak shu topda yana o'zgalarning g'am-alamlarini faqat sho'x va quvnoq rangda ko'radigan optimistga aylangan edi.

– Demak, sening shu gaplaringdan meni ko'chaga quvyapsan, degan xulosa chiqarishim kerakmi? – so'radi Jerri ruhi tushib.

– Yo‘q, Jerri. Bu uydan o‘zingni o‘zing haydading. Men seni yorqin kelajak bilan ta‘minlagan edim, sen bo‘lsang uy lanib o‘tiribsan. Turgan gap, buning hech qanday yomon tomoni yo‘q. Ammo shuni aytish kerakki, sen o‘z amaliyotingni oilaviy hayotga almashtirding. Bu kechirarsiz, albatta. Bu ishing bilan hatto mening nominga ham dog‘ tushirding.

Jerri allanimani eslamog‘chiday jim qoldi. Nihoyat:

– Sen, axir, meni kafilga olgan eding-ku, – dedi. – Mening to‘g‘rimda g‘amxo‘rlik qilishing kerak.

– Sen faqat mehnatga qobiliyatsiz bo‘lib qolganing-dagina shunday qilishim mumkin. Senga ochig‘ini aytib qo‘ya qolay: hozir ikki kishiga yetgulik bemorlar yo‘q. Ularni chorlash uchun yangi reklama hujumini uyushtirish befoyda.

– Men endi nima qilaman? – og‘ir xo‘rsindi Jerri.

– Eh, azizim! Bu yer, axir, ulug‘ imkoniyatlar mam-lakati-ku! Biron yerdan o‘zingga ma‘qul ish topasan. Bordi-yu, omading kelmay hech qayerdan durustroq ish topolmasang, unda yana qaytib kelasan.

Oxirgi jumlanı Isaak xayrlashuvga shama qilib aytdi. Lekin Jerri turgan joyidan hamon qimir etmasdi. U o‘ziga nisbatan qandaydir o‘nglab bo‘lmas adolatsizlik qilinayotganini sezib turardi. Uningcha, Isaakning did-farosati sariq chaqaga ham arzimasa, chalasavod, gapirsa gapi og‘zidan uqalanib ketar, fikr yuritishi nari-dan-beri odamlar toifasiga kirardi.

– Jilla qolsa, uyingda bir kecha tunashga ruxsat etarsan? – iymanibgina so‘radi Jerri.

– Nega o‘z uyingga qaytib bormaysan? – savolga savol bilan javob berdi Isaak.

– Yo‘q... ortiq borolmayman.

– Unday holda, nima ham deb bo‘lardı...

Isaak yana nimadir demoqchi bo‘lib og‘iz juftlagan edi, shu palla telefon jiringlab qoldi. Isaak shoshib go‘shakni oldi. Jerri qulog‘iga o‘zini kafilga olgan ustozining so‘zlari eshitildi:

– Ha, janob. Xuddi shunday, janob. Avgust oyida... mutlaqo to'g'ri... Yo'q, ortiq bu yerda bo'lmaydi... Bugun butunlay bo'shadi. Ha, hisob-kitob qilgan... Albatta, janob... qochib ketibdimi?.. Yo'q, men ko'rganim yo'q... uribdi? Nima bilan? Bolg'a bilan... Demak, boshiga tushiribdi deng?.. Ha, albatta, janob... Shu zahoti ma'lum qilaman, janob... Albatta, men axir uni kafilga olganman... Tuningiz xayrli bo'lsin, janob...

Isaak go'shakni joyiga qo'ydi.

– Mening to'g'rimda birov surishtirdimi? – tashvishlanib so'radi Jerri.

– Ha. Politsiya.

– Rostdan-a! Nima kerak ekan ularga?

– Sen bilan suhbatlashishmoqchi.

– Yana nima deyishdi? Gapirsangchi!

– Sen bu mamlakatning bir fuqarosi boshiga bolg'a bilan uribsan...

– To'g'ri, Isaak... haqiqatan ham shunday bo'ldi... Lekin men o'zimni himoya qilib...

– Bu boshqa gap.

– O'lib qoptimi?

– Kim?

– Xotininimning akasida.

– E, o'shani urganmiding? Yo'q, o'lmabdi.

– Bo'lmasa nima ekan? Gapirsangchi, axir!

– E, sariq chaqaga ham arzimaydigan ish! Qaynag'ang politsiyaga xabar qilgan ekan, politsiya bilmoqchi, u qanday sehrli bolg'aki, raqibing boshiga ursang ham hech qanday iz qolmaydi...

Oraga cho'kkan jiddiy vaziyat sal bo'shashdi. Jerri engil tortib, suyanchiqsiz divanga kelib o'tirdi.

– Lekin bu hali gapning hammasi emas, – davom etdi Isaak, – politsiya yana seni nima uchun uyingdan qochib ketganing sababini surishtiryapti. Senga aytdim-ku, rasmiy ajralmay turib, xotinni tashlab ketib bo'lmaydi deb. Yoki aliment to'lay boshlamagan

bo'lsang ham tashlab ketishga haqqing yo'q. Menimcha, hali ham uyingga qaytganing ma'qul.

– Ehtimol, gaping to'g'ridir, Isaak, – dedi Jerri g'amgin, – ha, aytganday, nima uchun o'lish qanday bo'lishini amalda ko'rsatmasligim kerak?..

Shunday der ekan, Jerri Finn jomadonini olib, uydan chiqdi. Isaak zinapoyagacha kuzatib kelib, bu yerda so'ziga yakun yasadi:

– Mening tomonimdan ham bu ish biroz noqulay bo'ldi, lekin ilojim qancha? Mendan xafa bo'lma. Yo'ling tushganda kirib tur...

– Rahmat, Isaak. Bemorlaringni quvib yuborganimdan behad afsusdaman. Harqalay, bir amallab yashab ketarsan, deb o'ylayman.

Jerri ko'chaga chiqqanida beixtiyor shimining orqa cho'ntagiga qo'l tiqdi – bolg'acha joyida. Hayot chaynalgan siyqasi chiqib ketgan voqeadan iborat qissaga aylanib borardi: qochoq er uyiga qaytmoqda, u hayotini qaytadan boshlaydi. Endi, aftidan, uxlagani yotishganda tuyqusdan biri ikkinchisining boshiga tushirib qolmaslik uchun qo'llarini ushlab yotishga to'g'ri kelar-ov...

Havodan kuzning hidi kelib qolgan, kun xiyla salqin edi. Kazo-kazo xonimlar endi terlab pishmay o'zlarining yangi modada tikilgan mo'yna po'stinlarini ki-yishlari mumkin. Ko'cha eshiklari oldida turli meva va shirinliklar bilan savdo qiluvchi sayyor do'kondorlar ham uy-uylariga tarqab ketishmoqda. Postdagi politsiyachilar do'konlarning qulflarini tekshirib yurardilar. Ko'chalarning tungi egalari ham o'z bizneslari bilan shug'ullanishga kirishdilar. Hamma yoqni qaynatib pishirilgan sosiska bilan hozirgina pechkadan chiqqan issiq nonning hidi tutib ketgan. Dengizchilar Shveysariya soatlari va durbinlar bilan savdo qilar, qandaydir kekxa janob axloqsiz mazmunli otkritka va Buenos Ayresda nashr etilgan, kattalar uchun mo'ljallangan bir talay suratli kitob sotmoqda. Eng zo'r baxti – bo'sh

vaqti bo'lgan qashshoq bir odam nuqul quruq rahmat va ayanchli jilmayishi bilan pul ishlash dardida yurardi. Yarim kecha yaqinlashgan sari hayotning qimmatini oshib, soflik, halollikning bahosi tushib borardi.

Bir sho'x Magdalina Jerriga ulfatchilik qilishni taklif etdi, ammo izg'irin suyak-so'yagidan o'tib ketgan bizning kuyov bola indamay taklifni rad etib, uyiga oshiqdi. Mana, ikkinchi qavatdagi eshikda hamon «Joan Jerri Finn» degan yozuv osig'liq turibdi. Ularning nomi hali ham yonma-yon, havas qiladigan darajada bir-biriga mos tushib turibdi... kichik oilaviy yozuv muqaddas ittifoqni bog'lab turar, ikki halqa esa uning belgisi xizmatini o'tardi. Belgilardan biri – xotinning chap qo'lidagi, uchinchi barmoqqa taqilgan, ikkinchisi esa erning cho'ntagida.

Eshik orqasidan odatda har bir uydan eshitiladigan ovoz – radio sadolari yangrardi. Joan ko'ngli osoyishtalik istab, radioni burab qo'ydi. Jerri kiraymi yo kirmaymi deb eshik tagida uzoq o'ylab turdi. Nihoyat, u hech balo esida qolmagan guvoh singari shart eshikni ochib, ichkariga kirdi. Charlz yo'q edi, u o'zining asosiy biznesi bilan faqat kechasi shug'ullanardi. Joan bir o'zi. Tashlab ketilgan xotin erining kirib kelganini sezmedi. U butun diqqat-e'tiborini bir joyga to'plab qo'lbo-la xiroamaliyotga berilib ketgan edi. Jerri jomadonini kushetka orqasiga suqib qo'yib, yotoqxona eshigi tagida to'xtadi. O'z shogirdining mustaqil mashq qilayotganini sinchiklab kuzata boshladi. Bu shunday jozibali, ayni vaqtda beo'xshov bir manzara ediki, uni olamdagi biron tilda to'la ta'rif va tavsif etib bo'lmasdi. Uni bir amal-lab tasvirlamoqqa kam deganda saksafon yoki akkordeon talab etilardi. Joan polda yotar, ustidagi bor kiyimi – «momaqaymoq» degan neylon trusikcha edi, xolos. Joan qadimiy karavotlarning bezak qubbasiga, zoldirga o'xshilgan koptokchani beli ostiga qo'yib olib, uni ohista aylantirardi; har gal koptokcha uning lat egan umurtqa suyagiga tegib ketganida Joanning kichkina ko'krak-

lari shu harakatga monand silkinardi. Bu xonaki baletga nasiyaga olingan radiopriyomnikdan taralayotgan musiqa sadolari jo'r bo'lardi. Avvaliga Frenk Sinatra ma'lum va mashhur cho'ponlar qo'shig'i kuyini hushtak orqali chalib berdi, keyin so'nggi reklama yangiliklarini qo'shiqqa solib aytib chiqdi: «Texas» shirkatining nef-ti singari, qalbimda muhabbat o'ti yonadi Uilli Ulyams so'zi, Fraits List musiqasi, uni Bob Smit qayta ishlagan. Joan belini davolashda davom etar ekan, Frenk Sinat-raga ko'maklashib, qo'shiqqa jo'r bo'ldi:

*Azizim, azizim, qora ko'zligim...
Meni muhabbating o'tiga tashla!
Yana bir bo'sa ol shirin so'zligim,
Benzin va tez yurish qo'shig'in boshla...*

Jerri radiopriyomnik yoniga borib Frenk Sinatra ovozini pasaytirdi. Yarim kechadagi qo'pol va musiqa-ga zid bu harakat Joanni yetti qavat osmondan yer-ga tushirib qo'ydi. U o'rnidan irg'ib turib, g'azab bilan qichqirdi:

– Jerri! Nega Frenk Sinatraga qo'shiq aytgani xalaqit beryapsan? Men uning qo'shig'i so'zlarini o'rganib olmoqchiydim. Jerri, bu axir, ajoyib ashula-ku. G'oyat jo-zi-bali!..

– Joan, kiyin, – dedi er siyqa ovozda, – sen bilan gaplashib olishim kerak.

Joan tuffisini kiydi, marvarid shodasini bo'yniga taq-di, so'ng odatdagi qiyofaga kirib, so'z favvorasiga biram zo'r berdiki, ularni na o'lchab, na sanab hisobiga yetib bo'lardi.

– Jonginam, belim ancha tuzalib qoldi. Charlz bularning bari hech nimaga arzimaydigan behu-da gap deganiga qaramay, sening davolashingga to'la ishondim. Ha, aytganday, Charlz sendan xafa. Boplab ta'zirini berib qo'yaman, dedi. Lekin sen hech nimadan qo'rqma, qo'rqadigan joying ham yo'q. Bilishimcha, u

senga o'q uzgani botinmaydi. U umri bino bo'lib bor-yo'g'i ikki marta odamga, bir marta politsiyachiga o'q uzgan, xolos. Lekin bular bir vaqtlari bo'lgan gap. Jerri, sevasanmi meni?

– Joan, kiyin deyapman senga, – uni nari itarib quruqqina dedi er.

– Kiyinib nima qilaman? Sovqotayotganim yo'q. E, endi tushundim! Sen uyalyapsan. Oh, qanday ajoyib odamsan-a! Jerri, rostini ayt, nahot men go'zal, latofatli bo'lmasam? Belim og'rig'i tuzalgandan keyin raqs bilan shug'ullana boshlayman. Menda kuchli iste'dod bor. Lekin men hammadan oldin o'zimga ko'zoynak topib olishim kerak. Hozir ko'zoynak rasm bo'lgan. Ayniqsa, bandi tilladan bo'lsa talab zo'r. Hamma bashang-zebo xotinlar shunaqa ko'zoynak taqishadi.

Jerri nimaga uyga qaytib kelganini o'zi ham bilmasdi. Joan bo'lsa bir necha daqiqadirki, yangi kun boshlanganiga qaramay, eri kechki ovqatni pishirmayotganidan hayron edi. Xafaqon qiyofada o'tirgan Jerri yonidan sigaretasini oldi. Bu sigaretaning a'lo darajadagi sifati haqida o'nlab mashhur yurak va o'pka mutaxassislari o'zlarining mo'tabar fikrlarini bildirgan ediglar. Joan yelkasiga xalatini tashlab, eri yoniga kelib o'tirdi, o'zining yalang'och tizzalari bilan uning oyog'ini qisib oldi. Jerri yerga qararkan, ayni mahalda xotininining olmadek chiroyli tizzalariga ko'z tashladi.

– Nega xafa ko'rinasan? – so'radi Joan oyog'ini chalishtirib olar ekan. – Bugun g'oyat baxtiyor bo'lishing kerak.

Jerri yerdan bosh ko'tarib g'amgin dedi:

– Men endi ishsizman...

– Sen hozir bemorlarni davolayotganing yo'qmi?

– Yo'q. Hech qanday ishim yo'q hozir.

– Ah, qanday yaxshi-ya! Demak, kun bo'yi yonimda o'tirasan. Jerri, azizim! Buni men bir umr orzu qilardim!

– Ishsiz qolishni-ya?

– Ha-da. Buning nimasi yomon? Men birda allaqanday gazetadan o‘qigan edim, ishsizlik – bu odamlarni ishdan bo‘sh vaqtlari bo‘ladi. Axir qachon bo‘lmasin, odam odamga o‘xshab dam olishi, xotirjam televizor ko‘rishi kerak-ku! Men ishlashni yomon ko‘raman, shu sababdan ham sening uyda bo‘lishingdan benihoya xursandman. Endi biz kirlarni yuvgani kirxonaga bermasak ham bo‘ladi, yollab olgan pol yuvadigan ayolga javob berib yuboramiz. Kir yuvadigan mashina bilan changyutkich sotib olsak, hammasini o‘zing qilaverasan. Lekin eng avval biz, albatta avtomashina sotib olishimiz kerak. Yaxshi bilasanki, latofagli, go‘zal xotin kasalxonaga bironing nogironlar aravachasida bormasligi kerak. Jerri, harqalay men ham ana o‘sha xonimlardan ekanimni o‘zing yaxshi bilasan. Men axir, hayot ko‘rgan odamman. O, xudo men qanday baxtli-man-a!

Jerri xotining qo‘lidan ushlab, ko‘zlariga tik qarar ekan, jiddiy ohangda:

– Joan, qani tilingni ko‘rsat, – dedi. – A-a-a deginchi...

Joan o‘zini haqorat qilinganday his etdi. Chunki u o‘zini his-tuyg‘ulari ustidan xuddi bilyard o‘ynayotganday o‘ynab, masxara qilishlariga chiday olmaydigan xonimlardan deb sanar edi. Joan xalati etagi bilak tiz-zalarini yopib, eridan biroz nari surildi. Lekin shu zahoti esiga ba‘zi narsalarni hali aniqlab olmagan tushdi.

– Nega sen kechqurun bu qadar qo‘pol eding? – so‘radi u. – Seni biron odam xotin kishini urishga qo‘li boradi, desa, hech qachon ishonmagan bo‘lardim. Tag‘in bolg‘a bilan-a!..

– Men faqat sening reflekslaringni tekshirib ko‘rdim, – quruqqina dedi Jerri.

– Demak, rostakamiga urgana emasmiding? – hayron qoldi Joan. U eri yoniga yaqin surilib, so‘zida davom etdi. – Demak, men yana haq bo‘lib chiqdim. Charlz buni sen tomondan qilingan eng qabih qo‘pollik, deb meni ishontiruvdi. Men, yo‘q, bu oddiy muhabbat deb

aytdim. Ah, odam sevs va sevilsa qanday yaxshiya! Charlz garchand jentlmen, dunyoda ko'p narsani ko'rgan, behisob achchiq-chuchuklarni totgan bo'lishiga qaramay, mening mulohazamcha baribir u muhabbatning nimaligini bilmaydi. Jerri! Meni o'p endi! Qani sen ham bir jentlmen bo'lib ko'rchi... Uzoqroq o'p! Xuddi Gregori Pek yoki Alan Leddga o'xshab uzoqroq o'pgin. Oh, qani endi bir martagina bo'lsa ham Alan Ledd bilan o'pishsang!..

Jerrining bu chidab bo'lmas sustkashligi yana Joanning kayfini buzib yubordi. Hamon Jerriga estetning nozik sezgisi, kinoaktyorning sayqal yegan texnikasi yetishmas edi. Ehtimol, bu uning kinolarga kam tushib, yigirma besh sentli kitoblarni deyarli o'qimagani oqibatidir? U erkaklarning jozibasi bilan jo'shqin ehtirosi o'rtasidagi farqni, ehtiros butunlay yonib, kul bo'lgani holda joziba bundan mustasno, yana uzoq vaqt saqlanishi mumkinligini bilmas edi.

Sovuq va o'ta sust bo'sadan keyin (go'yo majburiyatini o'tadi-da!) Jerri iztirob va hayajon ichida:

– Bundan buyongi hayotimiz qanday bo'lishiga aqlim yetmay qoldi, – dedi.

– Meni ranjityapsan, – javob berdi Joan, – qanday yashardik. Boshqalar nima bo'lsa, biz ham shu-da.

– Men ishsizman-ku, axir.

– Sen yana o'zingnikini ma'qullaysan. Men senga nasiyaga yashay beramiz deb million marta aytganman. Mana kvartira haqini to'lamaganimizga besh oydan oshdi. Bu o'zingga ham ma'lum.

Jerri ikki qo'llab boshini ushlaganicha ingrab yubordi:

– Yo'q, bunday davom etaverishi mumkin emas! Men o'zingga ish topishim kerak. Qanday ish bo'lsayam roziman.

Joanning yuzi yorishib ketdi, beixtiyor eriga mehri tovlanib, unga tasalli bera boshladi:

– Balki Charli ishga joylab qo'yar?

– Hech qachon! Uningni jinimdan ham yomon ko‘ra-man.

– Mening akam to‘g‘risida bunday bemaza gaplarni aytma. Xuddi shu bugun u katta biznes boshlagani-ni, o‘ziga ishonchli yordamchi kerakligini aytdi. Jerri, akamga yordamchi bo‘lib qo‘ya qolsang nima qiladi? Shunday qilsang ikkalangiz ham qalin do‘st bo‘lib ketar edinglar.

Jerri jim qoldi, so‘ngra bexosdan so‘radi:

– Akang nima ish qiladi o‘zi?

– O‘zining gapiga qaraganda, maktab bolalariga yor-dam berarkan.

– O‘quvchilarga-ya? – takrorladi Jerri.

– Ha, ba‘zan talabalarga ham deydi.

– Nima, akang o‘qituvchimi?

– Jerri, o‘ta laqmasan-a! Qaysi bir olijanob odam o‘qituvchilik qiladi? Charli o‘quvchilarga boshqa narsa-da yordam beradi.

Jerri biroz jonlanib, xotinidan ba‘zi bir qo‘shimcha ma‘lumotlarni bilib olmoqchi bo‘ldi. Joan yana hozirgi zamon ayollari qiyofasiga kirib, oyog‘ini chalishtirib oldi va hikoyasini boshladi:

– Aytishlariga qaraganda, Yevropada maktablar juda oz emish, shu tufayli yevropaliklarga maktabning nima ekanini anglab olish g‘oyat og‘ir va mashaqqatli bo‘lishi kerak. Lekin bu yerda butunlay boshqa gap. Qo‘pgina shtatlarda maktabda o‘qitish majburiy hisoblanadi. Bu o‘ta ketgan dahshat! Qara, yoshgina, jimjilog‘day bola ham maktabga borishga majbur. Ularni zo‘rlab o‘qish-ga, yozishga, to‘p tepishga o‘rgatadilar. Bu bolaning asabini buzadi. Hozir ham esimda. Charli maktabga qatnab, futbol jamoasida ishtirok etgan paytida juda asabi buzuq edi. Shu sababdan u hozir o‘quvchilarga yordam berishga harakat qiladi.

Jerri ayanchli bosh chayqadi:

– Akangning bola bechoralarga yordami tegishiga sira aqlim yetmaydi.

– Charli ularga dori yetkazib beradi. O'zi Meksikada chiqar ekan, og'riqni bosadigan dori. Nazarimda, mari-xuana va nasha deb atalsa kerak...

Jerri sapchib o'rnidan turib ketdi.

– Bu axir, jinoiy ish-ku! – xitob qildi qattiq hayajon ichida u.

– Faqat sengina shunday deb o'ylaysan, – xotirjam dedi Joan. – O'quvchilar bo'lsa undan benihoya minnatdor.

Jerri ko'zlarini qisib, ovozi boricha baqirib berdi:

– Joan, Joan... nimalar deyayotganingni o'zing bilasanmi? Nahot, akangning xavfli jinoyatchi ekanini o'zing tushunmasang?

– Axir, sen ham qamoqxonada o'tirib chiqqansan-ku, – o'zini himoya qilib dedi Joan. – Men Charlzga seni ko'p yil krepostda o'tirib chiqqaningni gapirib berdim, uning yuz-ko'zi o'zgarib, qaraya, bunday birinchi ko'rganda miyasiz, laqma deb o'ylaysan, aslida boshqacha odam ekan-da, – dedi.

Jerri quloqlarini berkitib, xo'rsinib qo'ydi. U Joanni chindan ham jinnixonadan barvaqt chiqarib yuborishmaganmikin, deb tashvish cheka boshladi. Yo uning xotini shu daraja go'lmiki, u kino bilan haqiqiy hayotning farqini ajrata olmasa.

– Yo'q, men ko'rinishimga qaraganda ming marta laqmaroqman, – dedi bo'g'ilib Jerri.

– Menimcha, laqma emassan, – uni tinchitmoqchi bo'ldi Joan. – Senda men hech qanday aqliy nuqsonlar sezmadim. Buning aksicha, yevropalik odamlarga qaraganda ancha aqlisan.

– Bas qil, tinch qo'y o'sha yevropaliklarni. Koshkiydi, Yevropa va yevropaliklar to'g'risida biron nima bilsang.

– Nima, men seningcha gazeta o'qimaymanmi? Gazetalarda, Yevropa – juda yordamga muhtoj, qashshoq va betob mamlakat, deb yozadilar-ku.

Joan so'zlaridan gazeta bo'yog'ining mazasi kelib turardi.

Jerri cherkovga adashib kirib qolgan shakkok odamday zerikib, qiynalib ketdi. Shunday bo'lsa ham u shu topda yotoqxonaga kirib, o'zini o'ringa otishni istamasdi. U o'zini yetim boladay yolg'iz sezar, bu yerdan mumkin qadar boshi oqqan «uzoqroq» joyga ketishni istardi. Ammo bu «uzoqroq» odatda hammadan uzun yo'l bo'lishini yaxshi bilardi. Umuman, odam zotiga u bormagan yer hamisha yaxshi bo'lib tuyuladi. Joanda qattiq bosh qotirish xususiyati yo'q edi. Shu tufayli u hali ham o'zining bir talay vaqtini halollik va to'g'rilikka, olijanoblik bilan yovuzlikni bir-biridan farq qilishga sarflab yurgan Jerriga nisbatan birmuncha dadil va o'ziga ishonib harakat qilardi.

Qisqa fursatli jimlikdan so'ng o'zi ham, xotini ham joniga tegib ketgan er bosiq ovozda:

– Joan, men ketaman. Ish qidiraman, – dedi.

– Qachon?

– Hoziroq.

– Yosh bolaga o'xshamasangchi!

– Ha, albatta. Bolalarga o'xshab mulohaza qilmaganimda allaqachon bu yerda bo'lmasdim.

Joan qo'llarini Jerrining bo'yniga tashlab, unga mehribonlik bilan termildi.

– Birga ketamiz, – dedi u. – Nyu-Yorkda o'tira berish mening ham jonimga tegib ketdi. G'arbga ketganimiz ma'qul.

Jerri xotini qo'llari yana qo'yin cho'ntagiga yo'rg'alab qolganini sezdi. Lekin qo'llari bu safar quruq qaytishga majbur bo'ldi. Jerri sug'urta qog'ozlarini jomadonga joylab qo'ygandi.

– Yaxshi, – dedi Jerri. – Unday bo'lsa, tur, kiyin. Ungacha men doktor oldiga borib, yo'lga pul qarz olib kelaman.

– Yo'q, Jerri. Ertaga ertalab jo'naymiz. Men hali Charlzni ko'rishim kerak. U tungi soat ikkilargacha qaytib kelaman deb ketgan.

Jerri bir irg'ib tushdi. Kechqurun mis kostryulday bo'm-bo'sh boshiga o'zi bolg'acha bilan urgan odamini ko'rishga toqati yo'q edi. U tezroq ozodlikka chiqish uchun yo'q yerdagi vaj-korsonlarni, yangi-yangi bahonalarni o'nlab chiqara boshladi. Jerri xotinini endi ancha yaxshi bilib qolgan va u bunday o'rtamiyona, ohori to'kilgan bahonalarga osongina ishona bermasligini aniq sezib turardi. Shu tufayli, u shunday gap topdiki, bu har qanday xotin yuragiga g'ulg'ula solmay qo'ymasdi.

– Joan, – shivirladi u xuddi fitnachilarga o'xshab, – menda bir reja bor: biz avtoullov o'g'irlab, ana o'shanda sayohatga jo'naymiz.

– O-o, qanday qiziq gap-a! – xitob qildi Joan. – Jerri, men seni g'oyat sevaman!

– Hozir ayni mashina topiladigan vaqt. Soat bir yarim bo'ldi, ko'pchilik uxlab qolgan. Politsiyachilar esa shu topda qahva ichib o'tirishibdi.

Jerri eshik tomon yurib, endi jomadonini olgan edi, Joan:

– Jomadonni tashlab ket, – dedi.

– U menga kerak. Agar qo'limda bironta buyum bo'lsa hech kim menga e'tibor qilmaydi. Joan, tezroq kiyin deyapman senga! Tayyor bo'lib tur, bir soatdan keyin olib ketgani kelaman.

Xotining ko'zlari yangi yil archasidagi chiroqlar singari porlab ketdi. Eriga samimiy zavqlanish, maftun bo'lgan his-tuyg'u bilan tikilib, lablariga bo'sa muhrini uzoq bosarkan, ohista shivirladi:

– Mashinaning eng zo'rini tanla...

– Eng nafis, eng yaxshisini tanlayman, – javob qildi Jerri va o'zining nozik qonxo'rini biroz erkaladi-da, tezroq chiqib ketishga shoshildi.

Jerri chiqib ketishi bilan Joanning xotirasiga erining mashina haydashni bilmasligi, unda haydash huquqi beradigan ruxsatnoma yo'qligi tushib qoldi. Ustiga-ustak, uning ko'zlari ojiz, uzoqni ko'rolmaydi-ku! Shu mulohazalarga qaramay, Joan yo'lga otlana bosh-

ladi. U haqiqiy dunyo tashvishi bilan emas, xayol olamida yashardi, uning orzular olamining vakillari – kino yulduzlar bilan asabi mustahkam dedektiv romanlar qahramonlari edi. Joanning eng katta baxti shu edi-ki, u o‘zini chuqur baxtsiz deb his etmasdi.

U har zamonda kiyadigan bashang qizil kostyumini va serbar soyabonli qora shlyapasini kiydi. Shu turishida u har qanday jurnalning muqovasini bezashi mumkin edi. Joan sabrsizlik bilan Jerrini kutarkan, sigareta ketidan sigareta chekardi. Zina tomondan allaqanday ola-g‘ovur eshitildi. Joan eshikni ochdiyu, g‘azabdan o‘zini to‘xtatib qololmadi:

– Charli! Charli, uyat emasmi senga!

Uning hurmatli akasi ikkinchi qavatga qorni bilan zinapoyalardan sudralganicha emaklab chiqib kelardi.

– Namuncha esingni yo‘qotguncha ichmasang? – akasining o‘rnidan turishiga yordamlashar ekan, ko‘yindi Joan.

Ammo akaning oyoqlari uning og‘ir gavdasini ko‘tarishdan butunlay ojiz edi. U bir amallab yo‘lakka yetib olgach, g‘azab bilan baqirdi:

– «Namuncha ichmasang»ga balo bormi? Ichgan bo‘lsam mayli edi-ya. Yo‘q, qip-qizil hushyorman, hatto suratimni solsa bo‘ladigan darajada esim joyida, faqat akvarel bilan...

– Bo‘lmasa, nima bo‘ldi? – akasini kresloga o‘tqazar ekan, tashvish bilan so‘radi Joan.

– Avval bir qultum viski ber, – dedi alam bilan Charli tishlarini g‘ijirlatib.

Biroz xotirjam bo‘lgach, gap nimadaligini aytib berdi:

– Bugun biznesning mazasi bo‘lmadi... Uyga qaytayotib yo‘lakda aziz eringga, haligi la‘nati nemismi, nima balo edi, o‘sha jin chalgurga duch keldim...

– Finn, – luqma tashladi Joan.

– E, hammasi bir go‘r emasmi?! Uni boplab bir adabini berib, qo‘ymoqchi edim, mendan oldinroq otini qamchilab qolib, muttahaam, bir zumda temirchidek

taqalab tashladi. Pachavasi shu bo'ldiki, to'pponchamni cho'ntagimdan sug'urib olib, shlyapamni iyagimgacha bostirib kiydirib, ketimga o'xshatib bir tepdi!.. Bunday rasvogarchilikni men umrim bino bo'lib ko'rmagan edim.

Charlz gazab va alamdand yig'lamoqdan beri edi. Qo'lidagi viskini ichib bo'lib, davom etdi:

– Borib turgan muttahaam ekan, yaramas. Baribir men uning dodini beraman! Qasam ichib aytamanki, ichak-chavag'ini ag'darib tashlayman!

– Nahot u hech narsa demagan bo'lsa? – so'radi hangu mang bo'lib qolgan Joan.

– Faqat: «Singlingga durustroq g'amxo'rlik qil, men Oyga uchib ketyapman...» dedi.

Joan shlyapasini boshidan olib qo'yib, stulga ag'darildi-yu, toshday qotib qoldi. Oradan bir daqiqacha o'tgach:

– Men endi uning yangi manzilini qayoqdan olaman? – dedi ho'ng-ho'ng yig'larkan.

O'N UCHINCHI BOB

O'N UCHINCHI BO'LGANI UCHUN HAM BAXTSIZ BU BOBDA JERRINING KULGI PSIXOLOGIYASI HAQIDA MA'RUZA ESHITGANI VA BOSH PANASIZ DAYDILAR «XOBO»SINING BUYUK QARDOSHLIGIGA A'ZO BO'LIB KIRGANI

Jerri allaqanday yoqimsiz his-tuyg'udan: haddan tashqari qattiq gumburlash, qichqiriq, kulgi va ur-yiqit to'polondan uyg'onib ketdi. Kimdir uning yelkasi-dan tortib silkitar va qo'ltig'i ostini qitiqlashga urinar edi. Jerri ko'zlarini ochgan bo'lsa-da, xiyla fursat o'zini uyqu bilan jonli voqelik orasida, ya'ni atrof-tevarakdagi mavjud hamma narsa noaniq va xira, soyaga o'xshab ko'rinadigan bir holda sezdi. U bahor pallasida uxlagan

tulkiday mudrar, qovoqlari xuddi tosh boylab qoʻygan-dek pastga tortib ketmoqda edi. Silkitish, itarish va turtki yana yangi kuch bilan takrorlandi. Nazarida, goʻyo kimdir ikki marta yuziga shapaloq tortib yuborib, keyin naq qulogʻi ostida olamni boshiga koʻtarib boʻkirganday tuyuldi. U butunlay uygʻonib, asta-sekin vaziyatga tushuna boshladi. Jerri odamlar bilan liq toʻlib-toshgan metro vagonida oʻtirardi. Yon-verini kishilar toʻsib turganidan hech nima koʻrinmasdi. Uning koʻziga faqat vagon shiftlariga yopishtirib qoʻyilgan reklama plakatlar-yu, yana allaqanday basharalar koʻrindi, xolos. Ogʻzi qulogʻiga yetib kulayotgan odamlarning yuzlari qora, sariq, jigarrang, koʻkimtir, oqargan va kulrang tusda edi. Ana shu olaquroq olomon tevaragida kishining aqli bovar qilmaydigan xushboʻy is, yoqimli havo suzib yurardi. Sassiqli sarimsoq, noʻshpiyoz, tish pastasi, pardozi suvi, chaynaladigan rezinka, upa, atir, sovun va seldereylarning hidi Jerrining dimogʻini qitiqlab, uni uyqu olamidan butunlay yulib oldi. Kundalik voqelik uni minglab hid va ovozlari bilan tabriklamoqda edi. Bu Nyu-Yorkning yer osti poyezdi. U xuddi jigar qon tomiri kabi betoʻxtov doira yasab aylangani aylangan.

Formali furajka kiygan baland boʻyli bir negr Jerri tomon engashib, ogʻzi qulogʻida jilmayar ekan:

– Janob! Siz qayoqqa ketyapsiz? – deb soʻradi.

– Olgʻa! – javob qildi Jerri.

– Juda soz, janob. Ammo siz vagonda qariyb yetti soatdan beri oʻtiribsiz, Manxetten atrofini, ehe, koʻp marta aylanib chiqdingiz. Buni nima desa boʻladi, janob? Maqsad nima oʻzi?

– Hech qanday maqsad yoʻq, – javob berdi Jerri.

Poyezd yurishini sekinlatib, negr eshik tomon ketdi. Jerri atrofida oʻnlab yuzlarni koʻrdi. Barchasi kulib turardi. Ular cheksiz, sira tugamas oqimni, hamisha oʻzgarib turuvchi va doimo shu holicha qoluvchi oqimni eslatardi. Yana oʻsha kulgan yuzlar, yana oʻsha hid va ovozlari. Poyezd yoʻlga tushdi. Negr odamlarni oralab

o'tib, suqilib-surilib Jerri yoniga keldi. U Jerrini ayblamoqchi emas, balki unga yordam qo'lini cho'zmoqchi edi. Negr o'zining yer ostidagi ish faoliyati davrida boshpanasiz odamlarning umumiy beshigi bo'lgan, ularni notinch tebratayotgan mana shu metro vagonlarida tuni bilan uxlab ketuvchi minglab erkak va ayollarni ko'p ko'rgan edi. Bu yerda tirsaklarni tizzalarga tirab, etga botuvchi yog'och o'rindiqlardagina o'tirib ketish mumkin edi, buning uchun, albatta, vagonga chiqish oldidan o'n sent to'lagan bo'lishingiz shart.

– Shunday, janob, – yana so'z boshladi boyagi odamoxun negr, – siz qachon tushishni mo'ljallab turibsiz?

– Hozir vaqt kechqurunmi yo ertalabmi? – so'radi Jerri.

– Ertalab, janob. G'oyat go'zal, jozibali tong. Soat sakkizga yaqinlashay deb qoldi.

– Hozir biz qayerdamiz?

– Manxettenda, janob. Aniqrog'i, Garlemda. Kelgusi bekat, qimmatli janob, Bir yuz yigirma beshinchi ko'cha.

– Garlem, – dedi orzularga cho'mib Jerri va uning ko'z oldida Gollandiya namoyon bo'ldi. Mana, uning ajoyib lolazorlari, yog'och kavush kingan dehqonlari, mazali pishloqlari, sernaqsh oppoq eshiklaru, ko'zni oluvchi zinapoyali, xushro'y qilib bo'yalgan chiroyli uylari ko'ziga ko'rinib ketdi. – Garlem, – yana takrorladi u. – Bo'lmasa men kelgusi bekatda tusha qolay.

– Juda soz, janob, – dedi negr va jozibali jilmayib qo'ydi.

Jerri surilib eshik tomon yurdi. Shu lahza esiga jomadoni tushib, hozirgina o'zi o'tirgan joyga otildi. Uning o'rnida sarg'ishdan kelgan puertorikalik yo'lovchi selder chaynab o'tirardi.

– Mening jomadonim yo'qoldi! – qora tanli provodnikka qarab qichqirdi Jerri.

– Buning ajablanadigan joyi yo'q, – dedi samimiy xayrixohlik bilan negr. – Olamda doimo nimadir yo'qolib

turadi. Siz tushishga shoshiling, janob. Poyezd hozir to'xtaydi.

– Men jomadonimsiz qanday tushib ketaman? – dedi qat'iyat bilan Jerri. – Jomadonni urib ketishdi-yu.

– Bu odatdagi ish. Olamda deyarli har kuni o'g'rilik yuz berib turadi. Politsiyaga xabar qiling. Qani endi, janob...

Provodnik Jerrining qo'ltig'idan ushladi, chayqalib, bosib kelgan olomon uni eshikka qisib qo'ydi. Poyezd to'xtadi, odamlar oqimining o'zi Jerrini tashqariga, platformaga olib chiqib qo'ydi.

– Jomadon, mening jomadonim yo'qoldi! – ovozi bori-cha qichqirardi Jerri.

Unga javoban har tarafdin istehzoli kulgi ovozlari eshitildi, tirjaygan basharalar ko'rindi, hamma narsani qamrab oluvchi ijtimoiy kulgi yangrardi. Nyu-Yorkning sakkiz million aholisi bir vaqtning o'zida yoppasiga sharaqlab kulganday tuyuldi. Oqim Jerrini yer ostidan ko'chaga – yer ostidagi ur-yiqit tiqilinchdan yer ustidagi ur-yiqit tiqilinchga olib chiqib qo'ydi. Jerrining ko'zi ko'cha harakatini tartibga solib turgan politsiyachiga tushib, olomonga suqilib u tomon bora boshladi.

– Mening jomadonimni o'g'irlab ketishdi, – dedi u tit-roq ovoz bilan.

– Nahotki, rosti bilan-a?! – achinib, kulib dedi politsiyachi. – Ko'ngilsiz voqea bo'libdi. Lekin bo'lib turadi! Bunday hodisalar har kuni sodir bo'ladi. Ha, aytmoqchi, qarang, bugun havo qanday yaxshi-ya. Sentabrning oxirida bunday yaxshi havo juda kamdan-kam bo'ladi!

– Ha, juda ajoyib havo, – uning gapiga qo'shildi Jerri va yuziga bujmayganga o'xshagan tirjayish yoyildi.

U politsiyachiga xizmat vazifasini o'tash imkonini berib, o'z yo'liga qarab ketdi. Bugun havo chindan ham go'zal, yoqimli va iliq edi. Shirin orzu-xayollar olami-ning epchil savdo xodimi, qahramonimiz qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib ketibdi. Gollandiya Garlemining ajoyib lolazorlar manzarasi bir nafasda chekinib, uning

o'rnida Nyu-York Garlemining haqiqiy qora voqeligi namoyon bo'ldi.

Jerri shu topda hamma narsasi qop-qora haqiqiy negrlar kvartalining qoq o'rtasida turardi. U xuddi kamdan-kam ko'zga ko'rinadigan laylatulqadir singari Beshinchi avenyuga kirib bordi. Yo'lkalarda yoshlari ham, bo'ylari ham turli xil bo'lgan qora tanlilar o'tirishardi. Nazaringda, ular ana shu axlat, turli-tuman qog'oz, kemirib tashlangan tashlandiqlar va shu kabi boshqa eski-tuskilar orasida maza qilib o'tirishganga o'xshardi. Boshlari ustida semiz pashshalar g'ujgon o'ynab, hayot abadiy ekanini amalda namoyish qilardi. Ikkita bola qo'lga o'rgatilgan kalamushga ovqat berardi. Uning ikki biqini chiqib turganidan va zarangday qattiq qornidagi emchakchalaridan kalamush yangi mehmon kutayotgani ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Quyosh o'zining zarrin nurlarini ana shu quvnoq kulgi, sho'x va beg'am hayot jo'sh urayotgan rohat-farog'atning qora makoniga hovuch-hovuch sochardi.

Har tomondan Jerriga salom yo'llashardi, Jerri ham ularga javob qilardi. Gollandiyaning jozibador gulzorlari Garlem negrlarining qalbida ekan. Ular gujg'on o'ynagan, jonga teguvchi pashshalar va quyoshda qurib yotgan it tezaklari orasida o'tirib, qalban tabiat olamining ajoyib gulzorlarida yashar va Odam Ato bog'larini orzu qilardilar. Qora, tagsiz kulgi. Jonli, erkin jilmayish. Begona tuproqqa ko'chirib kelingan quturgan hayot...

Garlem jilmayardi, ammo Jerrini ko'rgan-kechirganlari bilan yagona jomadonini yo'qotgani ezmoqda edi. Unda buyumlarini qaytarib olishga katta ishonch yo'q edi, chunki bu yerda faqat o'g'rigina o'g'rini ushlashi mumkin edi.

Beshinchi avenyu bilan Bir yuz yigirma yettinchi ko'cha burchagiga har bir kishiga Garlemdagi eng yaxshi qahvani ichib ko'rishni taklif etuvchi «Jo qahvaxonasi» joylashgan edi. Jerrining zavqini keltirgan narsa bu yerdagi qora ishbilarmonlarning o'z buyumlarini «dunyo-

dagi eng yaxshi» deb atamay, me'yor bilan maqtashlari bo'ldi. Jerri kichik zalga kirib borarkan, birdan unga bir gala sho'x pashshalar yopishdi, qulog'iga avtomat grammofon chalayotgan plastinkadan Frenk Sinatraning qo'shig'i eshitildi va dimog'iga dog'langan yog'ning achchiq hidi urildi. O'n chog'li negr do'kon peshtaxtasiga o'xshagan uzun stol tevaragida o'tirib qahva ichib, kotlet chaynashardi. Ularning har birining yuzida of-tobday charaqlagan kulgi o'ynardi. Yaltiroq boshida bir tuki yo'q qahvaxona egasi Jerrining qarshisiga peshvoz chiqdi. U sharaqlab kuldi-da, Jerriga qarab hazillasharkan:

– Salom, janob! Qanday go'zal erta-a! Shunday emasmi? – dedi.

– G'oyat go'zal...

– Nima uchundir g'amgin ko'rinasiz?

– Jomadonimni o'g'irlab ketishdi.

Xo'jayin yana sharaqlab kuldi. Uning quvnoq kayfiyati xuddi g'iybat gapday birpasda butun zalga yoyildi. Oradan bir daqiqa o'tmay, barcha negrlar ichaklari uzilar darajada xoxolab kula boshladilar. Bu – butun shaharga yangi modaday yoyilgan, qush singari beg'am kayfiyat Jerrining joniga tegib, yuziga jilmayishga o'xshagan ayanchli ifoda oldi-da, qahva buyurdi.

– Biron nima yemaysizmi? – so'radi xo'jayin. – Bizda o'zimizning maxsus taniq ovqatlarimiz bor: olchali pirog, qiyma kotlet. Bizda ot go'shti iste'mol qilinmaydi.

– Bo'lmasa, pirog bera qoling, – dedi Jerri. – So'ng qora qahva.

– O'ttiz sent turadi, – javob qildi xo'jayin. – Pulini oldindan to'lashingiz mumkin.

Jerri qo'lini cho'ntagiga soldi-yu, a'zoyi badani titrab ketdi. Hamyon yo'q edi. U asabi qo'zib, cho'ntaklarini titkilay boshladi. Bolg'acha ham, Charlzdan tortib olingan to'pponcha ham egasini topib ketgandi. Jerrining cho'ntaklarida faqat isqirt dastro'molcha bilan tishlari singan taroqqina qolgan edi.

– Mening hamma pulimni o'g'irlab ketishibdi, – ming'irladi u.

Qahvaxona egasi lablari bilangina emas, ko'zlari bilan ham kulardi. Keyin u barkashdek basharasi, qorni, hatto yelkalari bilan ham kula boshladi. Bu kulgi darhol mijozlarga yuqdi.

– Judayam eski, siyqasi chiqib ketgan gap, – dedi nihoyat, u. – Afsuski, bu tulkilik bugun o'tmaydi. Ilojim yo'q, janob, sizga na qahva, na pirog bera olaman!

So'nggi so'zlarni u kulgidan butun gavgasi silkinib, zo'rg'a aytdi.

– Buning nimasi kulgili? – Jerrining jahli chiqib ketdi. Qahvaxona egasi bir daqiqa o'zini kulgidan tiyib, Jerridan so'radi:

– Siz qayerliksiz – Alabamadanmi, Missisipi yoki Virginiyadanmi?

– Men Bruklindanman. Lekin buning bu gapga nima aloqasi bor.

– Turgan gap, aloqasi bor. Harqalay, siz o'qishni bilishingiz kerak. Atrof-tevaragingizga munday qarang-a!

Jerri mo'jaz qahvaxonaga jadal ko'z yugurtirib chiqdi. Devorlardagi dog' bosgan gulqog'ozlarning isqirtlarini berkitib, hamma yoqqa ulkan plakatlar yopishtirib tashlangan edi. Har bir plakatda kulib turgan yuz tasvirlangan, ularning bariga o'qlog'day harflar bilav bir xil gap:

MILLIY KULGI HAFTASI!

deb yozib chiqilgandi.

Go'yo quyosh o'zining bir hovuch oltin nurlarini Jerrining miyasini yoritgani sepganday bo'ldi. U nima uchun hammaning yuzida kulgi porlayotgani sababini endi tushundi.

– Xo'sh, endi sizga ravshan bo'lgandir nima sababdan kulayotganimiz? – so'radi qahvaxona egasi. – Shaxsan prezidentning qo'li ostida o'tkazilayotgan bu Milliy kulgi

haftasining bugun birinchi kuni. Hozir jiddiy qiyofada yurish juda xavfli. Ayniqsa, bizga o'xshaganlarga, darhol shubha ostiga olishadi. Siz, yaxshi bilasizki, janob, har bir fuqaroning burchi hozir butun hafta davomida kulishdan iborat.

– Nima uchun kulish kerak? – hamon tushunolmay hayrat bilan so'radi Jerri.

– Chunki yuqoridan kulinsin, deb ko'rsatma berilgan.

Shunday deb qahvaxona egasi boshqa mijozlariga xizmat qilgani shoshildi. Jerri stol ustida yotgan gazetalarini ko'zdan kechira boshladi. Gazetaning butun birinchi sahifasini shahar merining kulib turgan yuzi egallagan edi. U boshdan-oyoq Kulgi haftasiga bag'ishlangan bo'lib, yorqin sarlavhalar ko'rga hassaday ko'zga ravshan tashlanib turardi.

Bardam va quvnoq kulgi bilan insonning hayotni yanada uzaytiramiz!

Biz cheksiz baxtiyormiz, shu tufayli kulyapmiz!

Biz butun olam yuziga tik qarab, kulmoqdamiz!

Koreyada urush ketyapti, ammo biz baribir kulaveramiz!

O'nlab vrachlar kulgining salomatlik uchun foydali ekani to'g'risida o'z fikrlarini bayon qilganlar. Ministrlar va kongressmenlar yakdillik bilan butun hafta davomida kulishga va'da berishgan. Reklama xodimlari o'zlari-ning har bir e'lonlarida kulgini shon-sharafga chulg'ardilar.

«Pogoxondas» tish pastasi tishingizga sadaf oqligini beradi, xohlagan vaqtingizda va xohlagan yeringizda bemalol kulaverish imkoniga ega bo'lasiz.

Maxsus Milliy kulgi haftasi munosabati bilan: yasma tishlar yarim bahosiga qo'yib beriladi!

«Grinbelt» dafn byurosi ko'mish marosimini kulgili darajada arzon bahoda bajaradi.

Har bir kuluvchi odam «Kentukki» viskisini ichsin!
«Astoriya» mehmonxonasida katta kulgi bayrami o'tkaziladi. Bayramni shahrimiz meri va Bob Xoup otaliqqa olgan...

Jerri gazetani bir chetga qo'yib, jilmayishga urinib ko'rdi. Qahvaxona egasi yana uning yoniga kelib, atrof-ga hadixsirab qarab olar ekan, deyarli shivirlab:

– Sizda rosti bilan ham hech vaqo yo'qmi? – deb so'radi.

– Bir chaqa ham, – g'amgin javob qildi Jerri.

– So'zlashingizga qaraganda... siz chet ellikka o'xshaysiz?

– Ha, men yaqinda Yevropadan keldim.

Qahvaxona egasi sinchkov odam chiqib qoldi.

– Demak, siz Yevropadan keldingizmi? Xo'sh, haligi, u yerda dahshatli qashshoqlik hukm surayotgan bo'lsa kerak-a? Ha, aytganday, mening otim Koks. Jo Koks. Ka-o-ka-es.

– Mening ismim Finn. Jerri Finn. Ef-i-en-en.

– Sizning biron kasb-hunaringiz bormi? Agar iloji bo'lsa, oshxona ishlariga ozgina qarashib yuborsangiz, xotinim kasalxonada yotibdi. Men yolg'izlik qilib, shoshib qolyapman.

– Men kasbim bo'yicha vrachman, – deb javob berdi Jerri o'ylab o'tirmay. – Vrach-mutaxassisman. Asosan bel og'rig'i bo'yicha mutaxassisman.

– Bel og'rig'i bo'yicha! Unday bo'lsa, siz meni davolay olmaysizmi?

– Mening barcha asboblarim bugun tunda o'g'irlatib yuborgan jomadonimda ketdi.

Jerri sal oshirib gapirmoqda edi. Chunki jomadonda kichik elektromassaj apparati bilan grelkadan bo'lak hech nima yo'q edi.

– Lekin baribir, siz mening belimni ko'rib qo'yasiz, – hamon umidini uzmay dedi mister Koks. – Haqiga tekin ovqat beraman. Ya'ni jarkop yeysiz. Uni ot go'shtidan pishirmaganimizga o'zim kafolat berishim mumkin.

Jerri taklifni qabul qildi. Mister Koks o'z mijozlariga ko'z qisib qo'ydi-da, jilmayib o'tirgan yosh yigitga kulib turib murojaat qildi:

– Xello, Fred, mening o'rnimga biznes bilan shug'ullanib tur.

– O'key, Jo, – javob berdi yigit va shoshilib bufet peshtaxtasi yoniga keldi.

Jerrining boshi yengil aylanib qahvaxona egasi orqasidan boshqa xonaga o'tdi. Xona, bir gap bilan aytganda – yig'ishtirilmagan edi. Bu so'z yoniga hech nima qo'shib bo'lmasdi, hatto qo'shtirnoqni ham. Mister Koks ko'ylagini yechib, g'irchillab turgan, suyanchiqsiz keng divanga qorni bilan yotdi. Uning yelkasidan tortib, to beligacha butun orqasi g'udda boylab, yog' bosib ketgandi. Jerri o'ta halollik bilan, Koksning har bir umurtqasini tekshirib chiqdi.

– Manavi joy og'riyaptimi?

– Ha, juda... Voy... Endi kulishgayam majolim kelmay qoldi...

– Kulgiga balo bormi?! Manavi yerda, jumladan, juda bemaza kemirchak paydo bo'пти...

– Voy, sal sekinroq, – ingrab yubordi Koks Jerri og'riq umurtqalarni uqalab, ezib ko'ra boshlaganda. – Bo'yning uzilgurlar, har qanaqa bo'lmag'ur haftalar o'ylab chiqarishlarini aytmaysizmi... umuman, hech qanday kuladigan narsa yo'q o'zi.

Jerri eng og'riq joy pastdan sanaganda to'rtinchi umurtqada ekanini qayd qilib, bemorga ajoyib ko'rsatmalar berdi – kechagina Joan bajargan davoni aynan takrorlashni buyurdi. Birinchi mashqdan keyinoq mister Koks o'zini ancha bardam va tetik his qildi. Ko'ylagini kiyib, jarkop pishirgani chiqib ketdi. Jerri jarkopga ot go'shti solinganini darrov payqadi, lekin shunga qaramay, uni pok-pokiza tushirdi.

– Marhamat qilib, boshqa safar ham keling, – quvnoqlik bilan dedi mister Koks Jerri xayrlashib, ko'chaga chiqqanida. – Shuni ham esdan chiqarmang, janob, hozir har bir kishi kam deganda jilmayishi kerak.

Darhaqiqat, jilmayish beor narsa bo'ladi. Jerrining ham lablarida yengil tabassum o'ynab qoldi. U o'zini buyuk imkoniyatlar mamlakatida ekaniga yana ishonch hosil qildi.

Beshinchi avenyu xuddi ariqqa o'xshab Garlemga qiya edi. Jerri asta qadam tashlab olamga mashhur bu ko'chaning narigi boshiga qarab ketdi. U o'zini go'yo olamdagi eng beg'am joyga, hech kim na kechagi kunning, na ertaning tashvishini qilmaydigan yerga tushib qolganday sezdi. Bir necha gadoy Jerridan sadaqa so'radi. Bu shu narsadan dalolat berardiki, hali uning tashqi qiyofasi ma'lum darajada hurmat uyg'otadi va jamiyatda tutgan o'rni bor. O'zidan qashshoqroq, eskiroq kiyinganlar davrasi, Jerriga o'z qayg'u-alamini unutilishga majbur etdi. Bu yerdagi odamlar orasida ochlik yangillik emas edi. Buni u yaxshi bilardi. Lekin ular kul edilar, ular jamoatchilik fikrini hurmat qilardilar. Ularning qora kulgilari ana shu jamoatchilik fikrining bir bo'lagi edi.

Jerri Finn bugun kechagidan yana bir necha parda past tushdi. U yakka-yu yolg'iz, boshpanasiz qolgan, cho'ntagida bir chaqasi yo'q. Ammo tubanlik xavfini hali sezmasdi. Oyoqlari yengil qadam tashlardi, qorni to'q bo'lganidan fikr-xayoli yangi imkoniyatlar izlab topishga safarbar etilgandi.

Bir xilda solingan uylar qatori birdan uzilib, keng xiyobon oldidan chiqib qoldi. Jerri qadamini sekinlatib, atrof-tevarakka qaradi. Yuzlab oyoq yalang negr bolalari serchang, keng maydonda uymalashib yuribdi. Ana shu ko'rimsiz manzarada bolalarning yarqillab turgan tishlari bilan nur yog'ilayotgan ko'zlarining oqidan bo'lak, biron yorug' narsa ko'rinmasdi. Maydoncha chetlarida to'zon qoplagan kichik yashil marzalarda kashtan va burjun, ninabarg pastak janub daraxti – tis va marjon daraxtlarining butalari o'sib yotardi. Garlemning bu qora parki Bo'salar xiyoboni deb atalar edi, Uning oddiy, ko'rimsiz o'rindiqlarida negrlar mahallasi-

ning ajoyib shoirona ishqiy munosabatlari nihol yozar edi. Kech kirgan pallada yo'lovchilar bu yerda ajoyib nikoh boshlanajagining guvohi bo'lishlari mumkin: yigit bilan qizning qoramtir yuzlari bir-biriga qovushib, tim qorong'i tun ko'ynida erib ketadi. Kunduzi esa, yo'lovchi, faqat pyesaning finalini, oqibatini – bir gala bolalarni ko'radi. Ular xalqining yosh avlodi, ularning tomiri uzoq Afrikaga, bobokalonlariga borib tutashadi.

Jerri ko'chadan burilib, xiyobon tomon yurdi. Qurib yotgan o't-alaf, turli konserva bankalari, qog'oz, shisha va latta-puttalarining qalin qatlami ostida qolib, o'z hayotining so'nggi damlarini yashar edi. O'ng tomonda uncha katta bo'lmagan qoya mavjud bo'lib, uning yassi yonboshida bir necha negr ayollari qo'llarida emizikli bolalari bilan o'zaro gaplashib o'tirishardi. Jerri ularning quvnoq salomlariga alik olib, xotinlar yonidan asta yurib o'tib ketdi. Uning ko'zi birdan chekkadagi o'rindiqla yolg'iz o'tirgan oq tanli odamga tushib qoldi. Jerri unga sezdirmay yonidan o'tib ketmoqchi edi, notanish odam ko'zoynagini qo'lga olib, xushchaqchaqlik bilan:

– Qanday yaxshi havo-a, janob, – dedi.

– Juda ajoyib.

– Qarang, axir, hademay oktabr boshlanay deb turibdi-ya.

– Shuni ayting-a!

Notanish odam o'rindiqlarning narigi boshiga surilib, Jerriga joy berdi. Jerri o'tirdi, shundan keyingina, u notanish odam qo'lida kitobi borligini, kitobning kerakli sahifasiga bu odam xatcho'p o'rniga barmog'ini qo'yib o'tirganini payqab qoldi. Jerri unga sezdirmay kitobga ko'z qirini tashladi, tashladi-yu, kutilmagan tasodifdan bir irg'ib tushdi: bu Artur Shopengauerning «Die welt als wille und vorstellung» – «Olam, iroda va tasavvur sifatida» kitobi edi, qarang-a, shunday kitob qora-qura gadolar olamiga tushib qolibdi.

– Kechirasiz, hurmatli janob, – botinmaygina unga murojaat qildi Jerri, – siz Shopengauerni uning o'z ona tilida o'qiyapsizmi?

Notanish odam qabariq shishali ko'zoynagini yana qo'liga olib, besh panjasi bilan ulkan, yaqin orada taroq tegmagan, hammayoqqa tarvaqaylab ketgan sochlarini silab chiqdi, keyin muloyim jilmaydi-da, vazminlik bilan:

Uni o'z ona tilida o'qisam, menga ko'proq yoqadi, kuchliroq zavq beradi, – dedi.

– Ha, albatta, – rozi bo'ldi Jerri. – Agar siz ingliz tili-dan boshqa yana biron tilni bilsangiz, demak, siz juda kam uchraydigan amerikalik ekansiz.

Notanish odam sovuqqina kulib qo'ydi, sovuqqina bo'lsa ham, baribir kulib qo'ydi.

– Men ikkinchi avlodga mansub bo'lgan amerikalik nemisman. Mening ota-onam bu yerga bundan rosa qirq to'rt yil muqaddam Germaniyadan ko'chib kelishgan. Men esa Bostonda tug'ilganman.

Jerrining matematikaga tug'ma mayli yo'q, unga havas qo'ymagan bo'lsa-da, harqalay, bu masalani oson-gina yecha oldi. Demak, uning suhbatdoshi tashqi qiyofasidan qari cholga o'xshab ko'rinsa ham, aslida hali qirq to'rt yoshga to'lmagan. Sochlari butunlay oqarib ketgan, ko'z ostlari salqib g'alati xaltachalar paydo qilgan. Notanish odamning qo'liga qarab, uni shaxta yoki fermada hech qachon ishlamaganini darhol bilib olish mumkin edi.

– Talaffuzingizga qaraganda, siz Nyu-Yorkning tub fuqarosi bo'lmasangiz kerak, – dedi notanish odam.

– Ha, haq gapni aytdingiz, – javob qildi Jerri. – Mening Amerikaga kelganimga atigi ikki oy bo'ldi. Finlyandiyadan keldim.

– Ah, siz hali Finlyandiyadan kelganmisiz? – sho'x xitob qildi notanish odam. – Aholisi to'rt milliondan ortiq, oltmish mingdan ko'proq ko'llari bor, poytaxti Xelsinki, respublika prezidenti Paa-paa-passi...

– Paasikivi, – yordamlashib yubordi Jerri.

– Mutlaqo to'g'ri.

– Siz Finlyandiyada bo'lganmidingiz? – qiziqsinib so'radi Jerri uldan.

– Afsuski, boʻlgan emasman. Lekin, men geografiyani juda yaxshi koʻraman. Mening nomim Boris Minvegen.

– Meniki – Jerri Fini.

– Finn. Shotlandiyada haddan tashqari keng tarqalgan familiya. Siz bilan tanishganimdan benihoya xursandman, mister Finn. Ha, aytganday, sizning kasbingiz nima?

– Shu topda ishsizman...

– Men ham. Yaqin orada oʻn oy boʻladiki, beish sanqib yuribman. Ha, xuddi xotinimdan ajrashgan kunningdan buyon beishman. Siz-chi, siz uylanganmisiz? Kechirasiz, men sizga bunday yurak sirlaridan savol beryapman.

– Ha, mayli, soʻray bering, rasmiyatga balo bormi, mister Minvegen! Men uylanganman, ammo xotinim bilan alohida turamiz. Kechadan beri...

Jerrining kuni kecha xotinidan ajralgani mister Minvegenni sira ajablantirmadi, u faqat maʼqullab bosh silkidi-da, oʻz kitobini varaqlay boshladi. Shundan keyin u oʻziga-oʻzi aytayotganday:

– Hamma ayb mening oʻzimda edi, – deb qoʻydi. – Faqat menda ayb. Men xotinimni aldadim, uning ahvoli-ruhiyasini yaxshi tushunib yetmadim. Umuman, mening eng zaif tomonim, odamlarni yaxshi bilmasligim. Xotinlarga boʻlsa mutlaqo tushuna olmayman.

Mister Minvegen qisqa toʻxtadi. Shundan keyin oʻychan gapida davom etdi:

– Men uylanganimda, tanishganimizga endi ikki kun boʻlgan edi. Men uning uchinchi eri edim, oʻzimning esa, birinchi uylanishim. Xotinim xiyla goʻzal ayol edi, tasviriy sanʼat bilan, biroz musiqa, innaykeyin, adabiyot, agar xotiramdan koʻtarilmagan boʻlsa, yana balet bilan qiziqar edi. Uning avvalgi erlari baxtsiz hodisa yuz berib halok boʻlishgan ekan...

Jerri bir irgʻib tushib, darhol soʻradi:

– Oti nima edi?

Mister Minvegen Jerriga hayrat bilan tikildi-da:

– Anni, – deb javob berdi.

Jerri beixtiyor erkin nafas olib, yengil tortdi va biroz noqulaylik sezgan holda:

– Meni ahmoqona savolim uchun kechiring, – dedi, – gapingizni bo'lib qo'ydim.

– Hechqisi yo'q, sizni qarangu, xo'sh, shunday qilib, men yomon psixolog ekanman. Xotinimning ruhiga sira kirolmadim. Keyinchalik, misim chiqib, uni aldaganim bilinib qolgach, xotinim mendan ajralishni talab etdi.

– Demak, siz boshqa ayol bilan tanishgan edingiz? – shartta dedi Jerri sipogarchilik qilib o'tirmay.

– Yo'q, azizim! Mutlaqo unday emas... Aslini olganda, buni aldamchilik deb atamasa ham bo'ladi. Hozirgi zamon uchun u juda arzimagan mayda gap. Mening jinoyatim xiyla jiddiyroq. Biz Anni bilan tanishganimizda, men unga kasbimni g'isht teruvchi deb aytdim. O'zingiz yaxshi bilasiz, mister Finn, g'isht teruvchilar mehnatiga yaxshi haq olishadi. Anni mendan shubhalana boshladi, chunki olib kelgan haftalik ish haqim g'oyat kam edi. Anni xususiy izquvar yollab, mening izimga tushgan, u darhol mening nima ish qilishimni aniqlab... qisqasi, ular meni fosh qilishdi. Darhaqiqat, men mehnati yuqori baholanadigan g'isht teruvchi bo'lmaganimdan keyin, sud bizni darhol ajratib qo'ydi. Ha, chindan ham men yomon psixolog ekanman, odamlarni bilmas ekanman.

Mister Minvegen yana kitobini varaqlay boshladi.

– Kechirasiz, mister Minvegen, – dedi birozdan keyin Jerri. – Men sizning haqiqiy kasbingizni bilmocqi edim.

Mister Minvegen unga yuragini ochib, chin ko'ngildan dedi:

– Men universitet professoriman.

– Qaysi soha bo'yicha? – so'radi Jerri sal dovdirab qolib.

– Psixologiya. Lekin shunga qaramay men baribir odamlar ruhini bilmayman. Meni axloqsizlikda ayblab, darhol xizmatdan bo'shatib yuborishdi.

Oraga yana uzoq sukut cho'kdi. Nihoyat, jimlikni Jerri buzdi:

– Men ham xotiniمنى ayblamoqchi emasman. Men ham sizga o'xshab odamlarni yaxshi ajrata olmayman. Ba'zi paytda xotiniمنى o'zimcha allaqanday kam uchraydigan bir tasodif, deb o'ylardim. Mana endi razm solsam, sizning xotiningiz ham xuddi o'shanga o'xshagan ekan. Ajabo, qiziq.

– Buning hech qanday ajablanadigan joyi yo'q, – sofillik bilan kulib dedi mister Minvegen. – Bunday kam uchraydigan tasodiflar to'lib yotibdi. Turgan gap, ulardan uzoqroq yurgan ma'qul. Eng yaxshisi, g'isht teruvchi bo'lib ishga kirish lozim.

– Nahot siz boshqa universitetga o'qituvchi bo'lib kirolmadingiz? – so'radi Jerri.

– Gap bunda emas. Ma'lumki, universitetlar asosan xususiy kishilarning in'omlaridan tushgan mablag' hisobiga yashaydi, demak, ularning olihimmat homiylari bilan aloqangiz yo'q ekan, ish tamom, barcha yo'llar siz uchun berk. Buning ustiga yelkangizda menikiga o'xshagan sira yuvib bo'lmaydigan dog': qo'pol aldanchilik yuki bo'lsa, unda nima qila olasiz! Ammo men bundan ranjiganim yo'q, besh oy muqaddam xobo bo'lib oldim va shundan beri rang-barang hayot kechirib yuribman.

Mister Minvegen o'z hikoyasini to'xtatib, boshini ko'cha tomonga burdi. Xuddi shu lahza xiyobon qarshisiga radioavtobus kelib to'xtadi. Oradan bir necha daqiqa o'tmay, butun Garlem Garri Trumen Qo'shma Shtatlarning birinchi kuluvchisi deb yakdillik bilan saylanganini va barcha qirq sakkiz shtat Milliy kulgi qirolichasini saylash uchun o'zlarining ko'p sonli vakillarini yuborganini bildi. Radioavtobusning suxandoni bu axborotni quyidagi tantanali chaqiriq bilan tugatdi:

Har bir fuqarodan milliy kulgi haftasi davrida kulishi kerakligi haqidagi buyuk burchini unutmasin! Kulgi hech

narsa emas, lekin buning uchun haq to'laydilar. Bizning jamoat arboblarmiz suratlariga qarang: ularning bari jilmaymoqda yoki kulmoqda. Nima uchun? Shuning uchunki, ular o'z tishlarini «Xlorofill» tish pastasi bilan yuvib, marjonday yaltiratib olganlar. Endi ular tishlarini ko'rsatishdan aslo qo'rqmaydilar. Jilmayinglar va kulinglar! Butun jahonga dong taratgan «Xlorofill» kulgisi bilan kulinglar!..

Mister Minvegen sipolik bilan kulib qo'ydi, ammo Jerrining hatto jilmayishga ham majoli kelmadi.

– Bu mamlakatda doimo nimadir o'tkaziladi, – dedi o'ychanlik bilan mister Minvegen. – Ba'zan nazaringda shunday tuyuladiki, go'yo odamlar hamisha nimanidir o'tkazish uchungina yashayotganga o'xshaydilar. Nima o'tkazish kerak – buning ahamiyati yo'q. Ishqilib, nimadir o'tkazilsa bo'lgani! Hozirgi paytda bizning milliy hayotimizda turli xil oyliklar, haftaliklar va tantanali kunlar o'tkazish juda rasm bo'lib ketdi. Jumladan, xavfsizlik va o'zini-o'zi muhofaza qilish oyligi o'tkaziladi, ipak haftaligi, paxta yoki yung haftaliklari, konservalar, avtopokrishkalar, neft mahsulotlari kunlari, shuningdek, Pokistonga yordam, kir yuvish mashinalari kuni, hatto «ko'proq muzqaymoq va pishloq yenglar» degan kunlar ham o'tkaziladigan bo'lib ketdi. Qisqa qilib aytganda, ana shu oyliklar, haftaliklar va kunlarning bari turli xil voqeani, mol-buyumni va atoqli mashhur shaxslarnigina ulug'lash maqsadida o'tkaziladi. Shu tufayli odamlar hamma vaqt oshiqqanlari-oshiqqan. Aslida, shu yugur-yugur zaminida makkor savdo-sotiq mexanizmi ish ko'radi: mumkin qadar ko'proq savdo qilish, odamlar yelkasidagi qarz yukini borgan sari oshirishga tirishadi. Qarz yuki deyatotganimning ma'nosi shuki, hamma mol-buyumni nasiyaga oladi. Bundan tashqari, mana shu kampaniyalar davrida xayr-ehson yig'uvchilar eshikma-eshik yurib, ularning har biri biron ezgu ish uchun sadaqa yig'ayotganini aytadi.

Shu payt ular xizrnı yo‘qlasa bo‘lardi, yordam varaqasi ushlagan negr qizcha hamsuhbatlar oldida paydo bo‘ldi. Qizcha yordam varaqasini avval Jerriga uzatdi (chamasi, uning ustidagi kostyumi allaqachon yirtilib, mazasi qochgan mister Minvegen kostyumidan ko‘ra durustroq edi), keyin jilmayib turib:

– Milliy kulgi haftasi munosabati bilan mablag‘ yig‘yapmiz, janob, – dedi.

– Kimning foydasiga? – so‘radi Jerri.

– Boshpanasiz qolgan negr bolalari foydasiga.

– Oppoq qiz, biron nima yordam qilishdan ojizman.

Bu gapdan so‘ng qizcha o‘zining yordam varaqasini o‘rindiqlning narigi boshida o‘tirgan kishiga havola qildi. Mister Minvegen esa unga tanbeh bergan ohangda:

– Nahotki, sizlarning o‘sha qo‘mitalaringda senga oq odamlardan so‘rama deb, aytishmagan bo‘lsa? – dedi.

– Ha, rost, aytishdi, aytishgan edi. Lekin men sizlarni Garlemda yashaydi, deb o‘ylabman. Qechiring, janob, o‘tinib so‘rayman, bu haqda hech kimga aytmang, jaenob.

O‘rindiqla o‘tirganlarni ortiq bezovta qilmay qizcha qoya yoniga, ehtimol, bu yil oxirgi marta charaqlab turgan quyoshning iliq, yoqimli shu‘lasida huzur qilib o‘tirgan bir to‘da qora tanli erkak va xotinlar oldiga ketdi. Jerri qizchani ko‘z qiri bilan kuzatarkan, miyasida syurrealistik obrazlar paydo bo‘la boshladi.

– Siz juda jiddiy qiyofada o‘tiribsiz, mister Finn? – gap qotdi hamsoyasi. – Agar manavi Milliy kulgi haftasiga tish pasta, yasama tish va spirtli ichimlik kabi har baloni tiqisha bermaganda bu, umuman, chakana o‘ylab topilmagan qiziq tadbir bo‘lardi. Ha, aytmoqchi, kaminaning doktorlik dissertatsiyasi mavzui ham kulgi va uning kelib chiqish sabablari edi. Shu masalaga bag‘ishlab men yarim dyujina asarlar bostirib chiqardim.

– Ular juda qiziq bo‘lsa kerak, – gap qistirdi Jerri.

To‘g‘ri, bu so‘zni u odob yuzasidan aytdi. Ammo o‘zining samimiy iqroriga ko‘ra, vaqti-vaqti bilan psixologik

xatoga yo'l qo'yuvchi mister Minvegen Jerrining bu xitobini chin so'z, deb qabul qildi. Jerri odobli bo'laman, deb rosa jazosini tortdi. Psixologiya professori o'zining cho'ntak kitob – Shopengauer asarini o'rindiq yoniga qo'yib, qo'llarini qovushtirganicha ko'zini eng yaqin qayrag'och uchiga tikib, shoshilmay, salmoq bilan ma'ruza boshladi:

– Qimmatli do'stim! O'zingiz hech shak-shubhasiz yaxshi bilasizki, bizning kulgimiz – xuddi sizning, mening yoki Nyu-York shahri merining kulgisi singari, shuningdek, atir-sovunlarda va sigaretalarda tasvirlangan kino yulduzlar kulgisi kabi hammasi ma'lum bir ruhiy faoliyatni ifodalaydi. Kulgi juda muhim biologik ahamiyatga ega. Mana shu sababdan, inson o'z ruhining qay holatda ekanidan qat'iy nazar, kula oladi: nafrat, rashk, ochlik, hayajon, xafagarchilik, ojizlik, muhabbat, hatto o'ta umidsizlik ham kulgi tug'dirishi mumkin. Eng samimiy va chin kulgi – o'z-o'zidan ma'lum, ichiqoralik bilan kulishdir. Bunga sirkda, havo gimnastikachisi trapetsiyadan uchib ketib, bo'yni ostida qolgan pallada osongina ishonish mumkin. Odamlar ana shu paytda kulishadi. Kezi kelganda shuniyam aytib o'tay, xuddi ana shundan so'ng mashhur sirk bizning kongressimizning birinchi raqibi degan maqol paydo bo'lgan edi.

Shunday qilib, kulgining biologik mohiyati, psixikani ichki hayajondan va tormozlanish holatidan ozod etish bilan uzviy bog'liqdir. Har bir normal odam kuladi va u ana shu kulgisida o'zining ichki menini oshkor qiladi, turgan gap, shu kabi tishini ham ko'rsatadi. Ayniqsa, tishlari bir tekis, kemtiksiz, har jihatdan to'kis bo'lsa, u bundan tap tortmaydi. Kishilarni kulishlariga qarab bir necha toifaga bo'lish mumkin. Mona Liza tipidagi kishilar unga o'xshab faqat lablari bilan kuladilar. Boshqa birlari ko'zlari bilan, yuzlari, burun muskullari va yelkallari bilan kuladilar. Yana bir toifa odam tomoq qoqib, shunday kuladiki, qorinlari silkinib, ichaklari uzilay

deydi, oyoqlari beixtiyor yer tepadi. Kulgi psixologiyasi odamni fosh etishni, uning yaxshi va yomon tomonlarini ochib berishi mumkin. Yaxshi psixologlar, qani kul-chi, shu kulgingga qarab, sening kimligingni aytib beraman, deyishadi.

Xo'sh, biz nimaning ustidan kulamiz? Kulmoq uchun istagan narsa sabab bo'lishi mumkin. Odam qayerda va nima ustidan kulayotgani bilan o'zini-o'zi fosh etadi. Pessimistlar ham kuladi, ularning fikricha, hayot faqat kulgili lotoreyadan iborat. Hozirgi zamonning turmush uslubiga har qanday vaziyatda kula bilish odatini ham kiritish kerak. Ruhoniy qazo qilgan odamning janozasini o'qiyotib, turli latifalar aytadi, eshitib turganlar kulishadi, albatta. Agar, qazo qilgan odamning qarindosh-urug'lari yoki do'stlari o'rta darajada o'ziga to'q odamlar bo'lsa ular sho'x yoki *scherzo* kuladilar. Bordiyu, o'rta darajadan sal yuqoriroq bo'lsa, unda ularning kulgisi nozik va ta'sirli, jilmaygannamo xurillashga, yoki *adagio son sentiment* ga aylanadi.

Mayda baxtsiz hodisalar kulgi uchun eng yaxshi sabab bo'lib xizmat qiladi. Agar biron ayb qilgan negr yigitni ko'plashib simyog'ochga osishayotgan bo'lsa yoki ko'chani kesib o'tayotgan allaqanday ayolning paypoq rezinkasi bo'shab paypog'i oyoqlariga o'ralashib qolsa, siz uni ko'rib turgan odamlarning qanday kulgiga o'ch ekanliklarini yaqqol bilib olishingiz mumkin. Darvoqe, mening xotinim ham ana shunday odamlar toifasiga – «xi-xi-xi-xi» deb kuluvchilar toifasiga mansub edi. Bunday kulishni hozirgi zamon fani jadal va ravon xromatik kulgi yoki *passagio chromatic* deb ataydi. Shovqinli kulgi turini, jumladan, senator Makkarti va millionlab amerikalik maktab bolalari kulgisini olsak, bu kulgida ovoz juda yoyiq, baland: «Hah-hah-hah-hah!» shaklida eshitaladi. Bunday kuluvchilarni biz olimlar o'z tilimizda qattiq xoxolab kuluvchilar yoki *foktissimo vivacissimo*, deb ataymiz. Ichiqora odamlar bo'lsa, ya'ni boshqacha qilib aytganda, dunyodagi katta ko'pchilik zaharxanda

«he-he-he» deb kuladilar. Ular o'z qurbonlari ustidan yoki baxtsizlikka uchragan ob'ektdan, Linch sudimi yoki shunga o'xshagan boshqa biron razolat jazo olayotganidan oshkora quvonadilar, lazzat oladilar.

Mister Minvegen qisqa tin olib, cho'ntagidan bir chimdim tamaki bilan yupqa qog'oz oldi. G'oyat mohirlik bilan papiros yasab, tutatib cheka boshladi.

– Andishasizligim uchun kechirasiz, – botinmaygina dedi Jerri. – Mengayam sigareta o'rab berolmaysizmi?

– Jonim bilan, qimmatli do'stim, – javob berdi hozirgi zamon kulgi fanining pioneri.

U cho'ntagining allaqaysi burchagini qoqishtirib, yana bir chimdim tamaki oldi, bu safar tamakiga non ushoq, qil, ip bo'laklari, yana allanimalar ilashib chiqdi, u ana shu qorishiqni kaftdek qog'ozga solib, epchil bir harakat bilan silliqqina sigareta o'radi.

– Sizni bezovta qilsam mumkinmi, mister Finn? Marhamat qilib qog'oz hoshiyasini tilingiz bilan ho'llab bearing. Mana bundoq qilib.

Jerri qog'oz hoshiyasini tili bilan ho'llab berib, tayyor sigareta oldi. U allaqanday shirin ta'mga ega bo'lib, shundaygina qashshoqlik hidi kelib turardi. Bu – oddiy kambag'al kishining sigaretasi, kamtarona qo'l bola papiros ediki, uning uchun tayyor mahsulot sifatida na soliq, na reklama xarajatlari to'lash kerak bo'lardi.

– Qalay, ma'qulmi? – so'radi psixolog.

– A'lo sigareta.

– Xushbo'y isiga nima deysiz?

– Beqiyos...

Jerri yana bu so'zni odob yuzasidan aytdi. Aslida sigaretadan xaroba kulbaning shundaygina zax isi kelib turardi. Jerri o'zini maza qilib chekayotgan odam qilib ko'rsatishga tirishardi.

– Agar xohlasangiz, men sizga ikkinchi sigareta o'rab beray, – zo'r samimiyat bilan taklif etdi mister Minvegen cho'ntagidan bir dasta kir bosib ketgan tamaki o'raydigan qog'oz olarkan.

– Rahmat, shu bittasiyam boʻladi, – taklifni rad etdi. Jerri va yaqin odamini bor bisotidan mahrum qilishni istamadi.

– Sizni, ehtimol, psixologiya qiziqtirar? – gap qotdi mister Minvegen oradan sal vaqt oʻtgach.

– Ha, albatta, ayniqsa, siz bevosita kuzatuv ishlari olib borgan soha, – javob qildi Jerri.

– Demak, kulgi psixologiyasi toʻgʻrisida dengʻ?

– Xuddi shunday, janob.

– Juda soz! Unday boʻlsa, men soʻzimdada davom etaman. Hozirgi zamon psixologiyasi hayotning tashqi, faqat yuzaki koʻrinishlarinigina oʻrganishga eʻtibor berib kelmoqda. Bu tabiiy hol, albatta, chunki, butun hayotimizning oʻzi yuzaki! Endi, men ish olib borayotgan sohaga oʻtsak, u baʻzan masalaga tasodifan chuqurroq kirishib ketadi. Bilasizmi, kulgining manbai koʻpincha juda chuqurdan, hatto baʻzida, qorindan boshlanadi. Kulgi psixologiyasi kuluvchilarni ilmiy ravishda turli turkumlarga ajratib chiqadi. Asosiy gruppani oʻzining ikki oradagi gradatsiyalari bilan forte va piano-kuluvchilar tashkil qiladi. Bundan tashqari, biz yana presto –, grave –, legato –, stakkato –, maestozo – va kaprichchiozo – kuluvchilarni koʻrsatib oʻtamiz. Men bu yerda faqat baʻzi bir asosiy kategoriyalarni sanab oʻtyapman, xolos. Ularning har biri bizning ulugʻ demokratiyamizning kulgi tur-laridan tuzilgan ulkan birlashmasi – xorida oʻzining mustaqil guruhini tashkil etadi. Bir odamning koʻz yoshiga sabab boʻlgan narsa ikkinchi odamni kuldirishi mumkin. Boya aytib oʻtganimdek, kulgining sababi kishining ong-idroki saviyasini ham belgilab beradi. Baʻzi odamlar faqat qoʻltiqlarini qitiqlaganingda kulishadi, boshqalari qon bilan qotillikni koʻrganda kuladilar. Amerikaliklar nemislarning harbiy asirlar lagerlarida oʻtirganlarini koʻrganda ularning urish-qoqligi ustidan yengil va samimiy kulganlar. Ammo ular nemisga qarshi urushgani frontga borib qolsa,

kulgidan kuch va iroda, mardlik olish niyatida o'zlari ustlaridan kula boshlaydilar.

Demak, har bir odamning faqat o'ziga xos kulgisi bo'ladi. Bu kulgini vaziyatga mos kelmagan paytda yaxshiroq sezib olish mumkin.

Dilkash, ochiq ko'ngil odam, tabiiy kulgi bilan, ochiq va samimiy kuladi. Odamga el bo'lmaydigan pismiqlar esa yashirib, go'yo o'z ichlarida kuladilar. Alohida guruhni tashkil qiluvchi shunday odamlar ham borki, ular hatto o'zlari ustlaridan kulishniyam biladilar, bunga jur'at etadilar. Bunday toifadagi odamlarga ko'pgina atoqli yozuvchilar, faylasuflar va rassomlar kiradi. Ularning kulgilari juda ko'p narsalarni ochib beradi, ular umumjahon sirkining mangu kuldiruvchilaridir. Fikrimcha, mister Finn, siz ham ana shu so'nggi toifadagi odamlar qatoriga kirasiz.

Bu kutilmagan gapdan Jerri bir irg'ib tushdi.

– Kim biladi deysiz, – ochiq javob berishdan bo'yin tovlab dedi Jerri. – Garchand, shu topda menda kulish uchun qilcha xohish yo'q. Bugun kechasi mening jomadonim bilan butun pullarimni o'g'ri urib ketganini hali sizga aytganim yo'qmi?

Mister Minvegen samimiy kulib yubordi.

– Siz juda baxtiyor odam ekansiz! Mana, o'n oydan oshdiki, menda o'g'irlaydigan hech vaqo yo'q. Ha, aytmoqchi, sizning mutaxassisligingiz nima?

– O'qituvchiman, – uyatchanlik bilan javob qildi Jerri. – Va jurnalistman. Yana xiroamaliyotchi yordamchisiman.

Bu gapdan psixolog jiddiy qiyofaga kirdi. U Jerrini g'isht teruvchi yoki hech bo'lmaganda duradgor bo'lsa kerak, deb o'ylab o'tirgan edi. Mister Minvegen o'z hamshabatini kutayotgan kelajak to'g'risida o'ylab ketdi.

– Mister Finn, sizda boshqa bironta mutaxassislik yo'qmi?

– Afsuski yo'q, – ma'yus javob berdi Jerri.

– Ehtimol, siz birorta cholg'u asbobini chalarsiz?

– Bunday hunarim yo‘q.
– Balki rasm bo‘lgan raqslarga ustadirsiz, hushtak chalishni, boksni bilasizmi? Yoki futbol o‘ynaysizmi?

– Yo‘q...

– Qo‘shiq aytishni, sirk artistiga o‘xshab qo‘lga tayanib yurishni, qalbaki pul yasashni, og‘zingizni ochmay gapirishni yo bo‘lmasa sim dor ustida o‘ynashni bilasizmi?

– Yo‘q, yo‘q...

Mister Minvegen ma‘yus bosh chayqab qo‘ydi.

– Unday bo‘lsa, sizning oldingizda faqat ikki imkoniyat bor, xolos. Biri shaxtada ishlaysiz yoki xoboga aylanasiz. Bordiyu, shaxtaga tushpb ishlaydigan bo‘lsangiz, yana ikki yo‘lga duch kelasiz: shaxtaga kiriboq darhol ishsiz odamga aylanib qolasiz yoki baxtsiz hodisa yuz berib, halok bo‘lasiz. Agar xoboga aylansangiz, oldingizda o‘nlab imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Mister Minvegen Jerridan javob kuta boshladi. Ammo bizning qahramonimiz o‘zining nursiz nigohini allaqayoqqa, uzoqlarga tikkanicha o‘tirardi.

– Men endi hech narsaga ishonmayman, – nihoyat, uzoq sukutdan so‘ng g‘amgin dedi u.

– Gapingizni qaran-chi! – xitob qildi psixolog. – Siz hamma narsaga faqat tanqid ko‘zi bilan qaraydigan bo‘lib qolgansiz. Lekin hamma ishonadi, har bir odam ishonadi. Hatto umidsiz odamlar ham ishonadi. Millionlab kishilar bir vaqtlari globusni ko‘rgan bo‘lganliklari uchungina yerning yumaloqligiga ishonadilar. Amerika «xobo»si asosan doimiy kezishga ishonadi, chunki yo‘l baribir qayoqqadir olib boradi. Har bir amerikalik o‘zining albatta, millioner bo‘lib o‘lishiga ishonadi, shuning uchun ham u o‘ynab-kulib yashaydi, jamoat ishlariga qatnashadi va o‘zining fuqarolik burchini ado etadi. Har bir kishi qanday bo‘lmasin, biron nimada ishtirok etish huquqiga ega. To‘g‘ri, ko‘pchilik omma orasida shunday odamlar ham anchagina uchraydiki, ularda faqat o‘z janozalariga ishtirok etish huquqigina qolgan, xolos.

Lekin bularning bari mendagi biz ishonch kuchi bilan yashaymiz, degan e'tiqodni baribir yuvib keta olmaydi.

Jerri xo'rsindi. Unga yolg'iz e'tiqodning o'zi kamlik qilardi. Unga ishonch, ozgina bo'lsa ham qat'iy ishonch kerak edi. U hamisha o'z orzulariga sodiq bo'lib qolishga tirishardi, lekin orzulari uni ko'pincha aldab ketardi. Mister Minvegen uning ko'ziga misli ko'rilmagan darbadarlik istiqbollari, orzulari ro'yobga chiqajagini juda yorqin tasvirlab berdi.

– Amerika ko'p sohalar bo'yicha oldinda borayotgan mamlakat, – dedi psixolog. – Siz jahonda bizdagi kabi darbadarlik yaxshi tashkil qilingan o'zga bir joyni ko'rmaysiz. Amerikalik «xobo»lar hamisha yo'lda bo'lganliklari uchun ular hech qachon boshpanasiz qolmaydilar. Bu quruq nazariya emas, mister Finn, mening o'n oylik tajribam bor.

Quyosh o'rindiqda o'tirganlar ustiga o'zining zarrin nurlarini sochardi. Tungi shabnam ko'z ilg'amas bug'ga aylanib, havoga ko'tarilardi. Sal o'tmay, kun isib ketib lohas qila boshladi. Mister Minvegen o'zining psixologga xos uzun ingichka barmoqlari bilan yuz-ko'zini tutib ketgan bir dunyo soqol-mo'ylovini taroqlab oldi. Keyin:

– Endigi eng oqilona ish biron soya joyga o'tish, – deb qo'ydi. – Aytganday, bugun siz nima ish qilmoqchisiz?

Jerri qaydam deganday yelka qisdi.

– Miyamga hech qanday gap kelmayapti. Aftidan, biron ish qidirib ko'rishim kerak.

– Garlemda imkoniyatlar haddan tashqari cheklangan. Sizning doimiy turar joyingiz bormi? Men tunaydigan, munday oyoqni uzatib yotsa bo'ladigan joyni ko'zda tutyapman.

– Yo'q... hozircha yo'q...

– U taqdirda sizga ko'maklashishim mumkin.

– Siz juda rahmdil odam ekansiz, mister Minvegen.

– Yo'g'-ey, juda oshirib yubordingiz! Xohishingiz bormi, yana bitta sigareta o'rab bersam?

– Rahmat, bajonu dil.

– Bu xiyla durust tamaki. Uni menga kecha yozuvchi bergan edi. Faqat mana shu navni chekadi o'zi. Marhamat qilib, ho'llab bering! Mana, oling! Mana gugurt.

– Juda minnatdorman. U yozuvchi deganingiz kim?

– Mening do'stim. Siz shu bugunoq u bilan tanishasiz. Qani, ketdikmi?

– Behad mamnun bo'lardim.

– Aytmoqchi, mening nomim – Bobo.

– Meniki – Jerri.

– O'key, Jerri, sen bugun biron nima yeganmisan?

– Ha, albatta! Bu yoqqa kelayotib, yo'l ustida «Jo qahvaxonasi»ga kirgan edim.

– Men bo'lsam hali tuz totganim yo'q. Agar qarshi bo'lmasang, yo'l ustida biz «Oazis»ga kirib o'tsak, nima deysan?

– Juda soz, menga ham ma'qul bu gap.

Ular shoshilmay, salmoqli qadam tashlab Beshinchi avenyu bo'ylab ketishdi. Bir yuz o'n oltinchi ko'chaga yetganda Bobo o'rtog'ini allaqanday qo'lansa hid dimoqqa urayotgan, qandaydir qora-qura aylanma va chalkash hovlilardan olib o'tdi.

– Bu joyni «Oazis» deb ataymiz, – izoh berdi Bobo. – Bu yerga faqat oq tanlilarni qo'yishadi. Uy egasi qora tanlilarni jinidan ham yomon ko'radi.

«Oazis»da o'nga yaqin temir bochkalar qator turardi. Har birining bo'yi bir metrdan bo'lib, xonadonlar o'z sarqitlari, qolgan ovqatlarini olib chiqib to'kardi. Bobo bilan Jerri xiyla kechikib kelishganga o'xshaydi. Ulardan oldinroq kelib qo'ngan qushchalar – daydilar allaqachon pichoqqa ilinadigan narsalarni o'marib ketishgan edi. Qandaydir epchil bir chol «Oazis»ning boshqa mijozlari qoldirgan tishga bosguday narsalarni o'zining matodan tikilgan kattakon qopchig'iga solib olmoqda edi.

– Xello, xayrli tong, Dipsi! – qichqirdi Bobo. – Sen Nyu-Yorkka qachon kelib qolding?

Chol qilib turgan ishidan bir nafas to'xtab:

– Kecha, – deb javob berdi. – Bostondan mashinada bepul keldim.

– Manavi yangi og'aynimizning nomi Jerri, – quvonch bilan dedi Bobo. – U hozirgina Yevropadan keldi.

Soqollari oqarib ketgan Dipsi Jerriga qarab oldida:

– To'ppa-to'g'ri Yevropadan-a?.. – dedi. – Qaranglar, voy tavba-ey! Menam Yevropada tug'ilganman. Milanda.

Jerri cholning haddan tashqari siyqalanib, es-kirib ketgan, hatto avval qanday rangda ekanini bilib bo'lmaydigan yupun kiyim-boshiga ko'z tashlar ekan, bosh silkidi.

– Eshitishimcha, Yevropada hozir juda dahshatli qashshoqlik yuz berayotgan emish, – dedi Dipsi.

– Ha, ehtimol... urushdan keyin doimo nimadir yetishmaydi...

Aytishlariga qaraganda, hozir ham u yerda millionlab odamlar ochlikdan o'layotgan emish.

– Balki, shundaydir. Men eshitganim yo'q...

– O'lishyapti, o'lishyapti – bu ayni haqiqat. Men gazetalarni kuzatib boraman. U yoqdan omon-eson qutulib kelgan bo'lsang, rosa omading bor odam ekansan. Garchand, bizda ham hayot hozir u qadar yaxshi emas. Mana, o'nta bochkadan bitta nonushtalik ham yegulik chiqmadi. Bilasanmi, bunga sabab nima, biz boshqa mamlakatlarga haddan tashqari ko'p yordam beramiz.

Jerri iljayib, javob qildi:

– Ha, albatta. Xuddi mana shu sabab. Judayam to'g'ri aytdingiz...

Dipsi bochkadan sarg'ayib ketgan selderni olib, qopchig'iga solar ekan, xo'rsinib qo'ydi:

– Bechora Yevropa...

Shundan keyin Bobo tomon o'girilib:

– Dushanba kuni, xudo xohlasa Chikagoga yo'l olaman, – dedi.

– Sen, u joy bu yerdan ko'ra yaxshiroq deb o'ylaysanmi? – so'radi Bobo.

– Hech shak-shubhasiz, u yerda, axir, katta imkoniyatlar bor.

Dipsi o‘z qopchig‘i og‘zini boylab, bochka yonidagi joyini Boboga bo‘shatib berdi.

– Balki hali yana ko‘rishib qolarmiz, – dedi vaqti chog‘lik bilan chol va hovlidan chiqib ketdi.

Jerri ustiga yopirilib kelgan bir olam pashshadan qutulmoqchi bo‘lib, beixtiyor o‘zini orqaga tashladi. Psixologiya professori o‘z nonushtasini tugatgach, ular «Oazisdan chiqib, Radio Siti tomon yo‘l olishdi. Ular yurib borgan sari ko‘chalar toza qiyofaga kirar, harakat tobora jonlanib avj olar edi. Uzoqdan olamdagi eng baland, osmono‘par binolarning qubbalari ko‘rindi. Jerrining qulog‘i ostida hamon Garlemning qora kulgisi jaranglardi. Bexosdan Jerrining yuragi o‘ynab ketdi, u xotinini sog‘inganini sezib qoldi. Qanday qilib Joanning kuni usiz o‘tayotganikin? Kim unga ertalablari nonush-ta tayyorlab beryapti, kim uning to‘rtinchi umurtqasini davolab, g‘amxo‘rlik qilyapti? Kim uning qip-qizil gilos lablarini o‘pib, qaldirg‘ochday yoqimli vijir-vijirini eshit-yapti? Nima qilgandayam u g‘oyat jozibali, go‘zal ayol. U kun bo‘yi ovqatsiz va yil bo‘yi hech qanday fikr-o‘ysiz yashay olardi. Agar u faqat o‘zi o‘ylagan narsasinigina gapirsa, hamma vaqt jim o‘tirishga to‘g‘ri kelardi.

Bobo o‘rtog‘iga Beshinchi avenyuning diqqatga sazovor joylarini ko‘rsata boshladi. Shaharning korchaloni-lari joylashgan markaz yaqinlashib kelgani sari hayotning qimmatini shunga mutanosib ravishda oshib borardi. Hatto vitrinalardagi mol-buyum bahosi yozilgan yorliqni ko‘rgan yo‘lovchilar, hayot yashashga arziydi deb o‘tar edilar. Milliy kulgi haftasi baholarni osmono‘par imoratlar darajasiga ko‘tarib qo‘ygan edi. Hozircha tushayotgan narsa faqat qalin chang-to‘zoni buluti edi, xolos.

Jerri nazarida tobora toqqa ko‘tarilib borayotganga o‘xshardi, hatto unda tog‘ kasali belgisi paydo bo‘ldi. Bobo Jerrining odamlar oqimi orasida yo‘qolib qolmasligi yoki mashina bosib ketmasligi uchun qo‘ltig‘idan tez-tez ushlab, yetaklab olar edi. Katta shaharning

qon tomiri hayajonli va bezovta urib turardi. Hamma shoshilishdan qochishga shoshilar edi. Dollar tinimsiz ishlar, gazetachilar bo'lsa har bir mojaroni har tomonidan puflab semirtirish bilan mashg'ul edilar.

Beshinchi avenyu – ro'yobga chiqqan va chilparchin bo'lgan orzularning toyg'oq, xatarli yo'li, savdo va reklamaning havo so'qmog'i, qora Garlemga tushib boruvchi sirg'anchiq zinapoya edi...

Avtomobillar, avtomobillar, avtomobillar...

– Biz qayoqqa ketyapmiz? – so'radi Jerri allaqachonoq shoshilish kasaliga muhtalo bo'lgan o'rtog'idan. – Oyog'im og'riyapti. Greta Garboning ko'zlariga o'xshab ham horg'in, ham nam ular.

– Bo'lmasa yur, biror kinoteatrga kirib, picha hordiq chiqaramiz, – taklif qildi Bobo.

– Kinoga kirishga menda pul yo'q.

– Menda ham.

Ular o'z krosslarini yana davom ettirdilar. Boboning beso'naqay sochlari shamolda to'zgir, shimidagi yamoqlari temirchining bosqonidagi qopqoqqa o'xshab tinmay lippillar va Jerriga mayakning sho'x shu'lasiday ko'z qisardi.

– Men bunday tezlikka bardosh berolmayman, – dedi qichqirib g'oyat holdan toygan Jerri.

Bobo qadamini sekinlatib, nafasi tiqilgan o'rtog'iga qaradi.

– Yetib olishimizga ozgina qoldi, – xotirjam dedi u. – Yana ko'pi bilan ikki sakrasak joyimizga yetamiz.

Bobo juda basavlat bir kinoteatr oldida to'xtab, iltifot bilan uni taklif etdi:

– Qani marhamat, kiring.

Eshik avtomat usulda ochildi, do'stlar ichkariga, keng yo'lakka kirishdi. Bu yerda devorlar tagiga qulay va yumshoq kreslolar qo'yilgan edi.

– Birozgina shu yerda dam olamizda, keyin yana yo'lda davom etamiz, – dedi beparvo Bobo va divanga o'zini tashladi.

Jerri ham unga taqlid qilib yalpayib o'tirib oldi, bir daqiqa ko'zlarini yumdi. Nazarida, u allaqanday chuqurlikka ag'darilib ketayotganday tuyuldi. Shu payt Bobo uning biqiniga yengilgina turtib, vaqtichog'lik bilan:

– Qani, bir yalab yubor! – dedi.

Jerrining yuziga halovatli jilmayish yoyildi. U sigareta hoshiyasini tili bilan yalab, quvonch ichida:

– Qanday xushbo'y-a! – deb qo'ydi.

O'N TO'RTINCHI BOB

JERRINING ZIYOLILAR ORASIGA TUSHIB QOLGANI VA UNGA SHAXSIY O'RIN AJRATIB BERISHGANI

Bundan bir necha yil muqaddam Xanter universitetida adabiyotshunoslik professori Uolter Ervin Pekk degan odam bo'lardi. Uning eng zaif tomoni shu ediki, u she'rlar yozardi, kambag'al-qashshoq yozuvchilarga yordam berardi. Pekk «Ozimandiada» degan doston yozib, bosib chiqardi. Uning evaziga u o'n dollar mukofot va Amerika Shellisi laqabini oldi. Uolter Ervin Pekk samoviy yuksaklikka intilar edi, ammo o'zi sezmaganda holda sekin-asta pastga tushib ketdi. Ryumka ketidan ryumka uzilmadi. Universitet bilim o'chog'i edi, u chanoqlarga ichishni o'rgatardi. Amerikalik Shelli o'z kafedrasidan ayrilib, faqat Bauerida o'ziga keldi, shu yerda ko'zi moshday ochildi. Ervinni sevgan odamlari unga «Bauerilik daydi» deb yangi laqab qo'yishdi.

Olamni kalta yubka bilan «o'g'il bolacha» soch qirqirish modasi zabt etgan yillarda Maksuell Bodenxeym o'zining bema'ni she'rlari va fosh etuvchi romanlari bilan adabiy hayotda hukmron o'rinni egallagan edi. Unga katta adabiy mukofot berishib, Amerikaning Emil Zolyasi deb atashdi. U ham ta'rif qilib bo'lmas yuksaklik sari, samoviy olislikka intildi, lekin o'zini eng tuban-

da ko'rdi. Ryumka ketidan ryumka uzilmadi. U bilagiga «men ko'rman» degan yozuvli sariq latta bog'lab, Grinvich Vilej ko'chasi ariqlarida hayotning manguligi to'g'risida madhiyalar o'qib, ko'ngilchan odamlardan araqqa sadaqa so'rab yurdi. Bodenxeym Grinvich Vilejning san'atkorlik xarobalaridan Bauerining xarobalariga ko'chib keldi. Sevgan odamlari unga «Yozuvchi» deb nom qo'yishdi.

Ovozsiz kinoning o'ziga xos ustasi, atoqli artist Jon Fitsjerald imo-ishoraga g'oyat mohir edi, yuz mushaklarining kichik bir sezilar-sezilmas harakati bilan uzundan-uzoq gapiga qaraganda ko'proq ma'no anglata olardi. Yigirma beshinchi yilda unga: «Ming xil yuzli odam» degan laqab berishgandi. U yuksaklikka, samoviy olisliklarga intildi, lekin qo'qqisidan pastga quladi. Uning ojiz, sal xirillagan ovozi plyonkalarga yaxshi tushmaydigan bo'lib qolgandi. Shundan uning quyiga yuztuban ketishi boshlandi. Ryumka ketidan ryumka uzilmadi. U Gollivuddan o'zining qadrdon shahri Nyu-Yorkka qaytib kelib, Grinvich Vilejning san'atkorlik xarobalarida adashib yurdi. Kunlarning birida u yerdan Baueriga kelib qoldi. Bauerida Daydi va Yozuvchi bilan tanishdi. Sevgan odamlari unga «Ilon» degan laqab qo'yishdi.

Amerikalik nemis Boris Minvegen o'ttiz besh yoshida K... universitetining psixologiya professori etib tayinlandi. Oppoq kumushday hurpaygan sochlari uchun u «Kumush bosh» degan laqab oldi. Uning zaif tomoni shu ediki, Minvegen kongressmenlar, senatorlar, kino yulduzlar singari jamoatchilik hayotidagi atoqli arboblarga taqlid qilishni yaxshi ko'rardi. Uning eng sevgan gapi «Hayvonlar ham kuladi, chunki odamlarning o'zi doimo ularga kulish imkonini beradi» degan jumlar edi. Qirq to'qqizinchi yilda u katta e'tiborga sazovor bo'ldi-yu, qora ro'yxatga tushib qoldi. Oradan bir yil o'tib, u psixologiya jurnalida atoqli bir biolog bilan munozara qiluvchi maqola bostirib chiqardi. O'sha maqolada bunday so'zlar ham bor edi: «Biologlarning odam va undan past ta-

baqada turuvchi hayvonlar» degan ta'riflari ob'ektiv fikr emas. Chunki insonning o'zi ana shunday turkumlarga ajratib chiqqan». Ana shu maqola uchun uning qo'liga bo'ri patta berib, qora ro'yxatdan xizmatdan quviladigan odamlar ro'yxatiga tirkab qo'yishdi. O'n oy muqaddam Minvegen o'z kasbini yuqori haq to'lanadigan g'isht teruvchi qilib ko'rsatib, xotinini yovuzlarcha, shafqatsiz ravishda aldadi. Ana shu nojo'ya xatti-harakati uchun yoshlarni tarbiya qilishga nomunosib odam sifatida o'sha soatning o'zidayoq xizmatdan bo'shatib yuborishdi. Shunday qilib, u asta-sekin, qadam-baqadam pastga qulay boshladi. Araq uning Baueri xarobalariga kelib qolishida hech qanday rol o'ynagani yo'q. Bu yerda u, tasodifan, ikki qavatli faqirona yog'och kulbaning yerto'lasida Daydi, Yozuvchi va Ilon bilan tanishib qoldi. Ular unga boshpana berishdi, oyog'ini uzatib yotish imkonini tug'dirishdi. Sevgan odamlari uni «Bobo» degan laqab bilan atashdi.

* * *

Jek London bir vaqtlari London Ist-End obrazini yaratgan edi. Bordi-yu, u Nyu-Yorkning Bauerisida ikki yilcha yashaganida material axtarib, Londonga borib yurmasdi.

Baueri – olamdagi eng ulkan xarobalar makoni!

Botib borayotgan quyoshning so'nggi nurlari sokin oqayotgan Garlem daryosi yuzida akslanib, hali jimir-jimир o'ynardi. Birdan havo sovib ketdi. Jin ko'chalarda o'tirgan sovuqqa chidamsiz chollar boshpana izlashib qoldi. Bolalar bo'lsa ko'rimsiz hovlilar va sohil bo'ylarida hamon o'zlarining beg'am qiy-chuv to'polonlarini davom ettirardi. Milliy kulgi haftasining o'jizgina to'lqini uyatchanlik bilan Baueri sohiliga ham kelib urilardi. Daryodan balchiq, chirkin yo'sin va oqova suvlarning badbin hidi taralardi. Qayiqlar pristanida bir necha baliq ovlovchilar o'tirishar, ular bitta-yarimta baliq ilinib qolmasdilar, deb qarmoqdan ko'z uzmasdilar. Al-

laqanday kambag'al bir yigit to'nkarib qo'yilgan yashik ustida jadal oqayotgan daryodan ko'z uzmay o'tirardi. U har zamon-har zamonda yon daftariga egilib, hayotni o'z qo'yin daftarining sahifalaridan oqizishga tirishardi. Yosh yigit haqiqiy voqelikdan aldamchi she'riyat dunyosiga butun vujudi bilan sho'ng'ib ketgan edi.

Radiolashtirilgan politsiya mashinasi tor ko'chalarda izg'ib, aholini qonunlarni hurmat qilishga da'vat etardi. So'ng u Milliy kulgi haftasiga yordam ko'rsatuvchi mahalliy komitet bepul bulochka va sosiska ulashayotgan River Avenyu maydoniga burildi. Ana shu ezgu ishga kekxa katolik ruhoniysi boshchilik qilar, to'rtta yoshgina rohiba – monax ayollar unga yordamlashar edi. Al-laqanday davangi bir odam navbatda turishni istamay sosiskaning xushbo'y hidi taralayotgan qozon tepasiga hammani nari-beri itarib keldi-da, ruhoniyga:

– Hoy, oshna. Mening ishim zarurroq. Xotinim o'lim to'shagida yotibdi! – deb qichqirdi.

Navbatda turganlar orasidan norozi ovozlari eshitildi.

– Sen bizning cherkovimizga qatnaysanmi? – so'radi ruhoniylar xil-xil pishgan sosiskani bulochka orasiga joylar ekan.

– Hozir yo'q, umuman, bir vaqtlari qatnaganman. Xotinim, aftidan, hozir ham qatnaydi.

– «Otche nash» duosini bilasanmi? – surishtirdi yana jonkuyar ruhoniylar.

Galvars ko'pdan beri ustara tegmagan iyagini qashir ekan:

– Esimdan chiqarib qo'yibman, – dedi. – Ammo xotinim, shubhasiz, uni biladi.

Ruhoniylar ichiga sosiska joylangan bulochkani unga bermay hamon qo'lida ushlab turib, otalarcha nasihatimiz dedi:

– Agar mening ketimdan «Otche nash» duosini takrorlasang senga ham, betob yotgan xotiningga ham yegulik beraman. Qani, mening ketimdan takrorla: «Otche nash...»

Galvars dovdirab, o'zini yo'qotib, ruhoniyya qaradi-da:

– Bu haligi, o'zimizcha «Bizning ota» deganimi? – deb so'radi.

– Ha, albatta...

– Ya'ni, mening va sening otang? Demak, bizning umumiy otamiz?

– Xuddi shunday. Bizning otamiz.

Galvarsning yung bosib ketgan iyaklari sho'x silkindi. U yonida navbatda turgan hamsoyalariiga bir qarab olgach, iymanib, jilmayib turgan rohibalarga ko'z qisib, oxir-oqibat yana ko'ngilchan ruhoniyya nazar tashladi-da, zavq bilan qichqirdi:

– E jin urgur! Unday bo'lsa, sen bilan biz aka-uka ekanmiz-ku!

U ruhoniyy qo'lidagi bulochkani yulib olib, shaxdam qadam tashlab daryo tomon ketdi. Daryo yuzida botib borayotgan quyoshning zarrin nurlari asta-sekin so'nib borardi.

Baueri ustiga qora chodir singari tun soya tashladi. Jin ko'chalarda gindiraklab, bu haqiqiy dunyodan orzu-xayollar olamiga qochib qutulmoqchi bo'lgan mast-alast odamlar sanqib yurishardi. Allaqayoqdan yosh bolaning qichqirib yig'lagani, xotin kishining faryodi eshitildi. Kamsitilgan oila boshlig'i uyida o'z obro'sini tiklashga tirishardi.

Uzoq osmonda Brodvey bilan Radio Sitining chiroqlari porlardi.

* * *

Yozuvchi ziyolilar jamoatchiligi Ochko'z Pop deb nom bergan pechkaga o't yoqar ekan, jamoatchilik darhol ko'mir g'amini yeyishi kerakligini aytdi. Bu gapni eshitib Daydi hech nima demadi. Ilon esa:

– Yaxshisi, boshqa joyga ko'chish kerak, – deb vishilladi.

Ular egasiz qolgan uyda yashar edilar. Hatto bu uy Baueri planiga kiritilmagan edi ham. Uning egasi

oddiy oyoqyalang odam edi, shu tufayli meros haqida hech kim bahslashib yurmasligi aniq edi. U sakkiz yil muqaddam, bu erga ko'chib kelganga qadar, mag'rur «farishta» degan laqabga ega edi. Keyinroq, uning uyini boshqa oyoqyalanglar egallab oldi. Bu uyda istiqomat qiluvchilarning biri kelib, biri ketar, ular qandala, suvarak va kalamushlar bilan qahramonona kurashar, oshxona bilan uy qarshisidagi hojatxona devorlarida o'zlaridan yodgorlik qoldirib ketishar edi.

Yerto'la uy qurilgan vaqtdanoq oyoq kiyimlar ta'mirlanadigan ustaxonaga ajratib berilgandi. Lekin ustalarining ishlashi uchun haddan tashqari sovuq bo'lganidan undan turar joy sifatida foydalana boshladilar. O'tgan yili Ilon mutlaqo tasodifan unga duch kelib qoldi va o'shandan beri sobiq professorga, sobiq yozuvchiga va sobiq kino yulduziga u boshpana bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan yarim yilcha burun ziyolilar jamoatchiligiga Boris Minvegen kelib qo'shildi. Uning uchun oldindan mavjud bo'lgan bo'sh qutilar yoniga yana bir necha quti qo'yib, unga joy qilib berildi.

Bu xona O'rta amerikalikning uyi deb rangdor fotosuratlar bilan jurnallarda beriluvchi serhasham uylarga o'xshamasdi. U cho'yan pechka bilan isitiluvchi Baueridagi oddiy uylardan biri edi. Tutun chiqadigan temir karnaylar devor orasidan o'tkazilgan bo'lib, kimdir allaqayoqdan topib kelgan va shundaygina eshik yonida turgan, odatda pianino tashiladigan kattakon yashik bularga ko'mir ombori xizmatini o'tardi. Bu uyda yashovchilar na avtomobilga, na muzlatkichka, na televizorga, na elektr dazmolga, na soliq solinadigan daromadga ega edilar! Ular Beshinchi avenyudagi do'konlardan nasiyaga yoki bir necha muddatda to'lab mol olish imtiyozlariga, shuningdek, yasama tilla tishlarga ega emas edilar. Ular milliy daromadni oshirmas, ishsizlikni kamaytirmas edilar. O'zlarining fuqarolik huquqlaridan bo'lak ular yana bitta uzun stolga, bir

necha choyshabga, tabaga, har biri o'zining shaxsiy fikri, qiziqishi hamda orzulariga ega edi.

Xona ko'rinishdan odam yashaydigan uyga o'xshardi. Daydi allaqaysi axlat qutisidan topib kelgan qalin jurnalni varaqlar, Yozuvchi pechkaga o't qalar, Ilon bo'lsa o'z burchagida o'tirib paypoq yamardi. Pechkadan uy ichiga achchiq tutun bilan qurum buluti taralardi. Haqiqiy voqelikdan qochib qutulmoqchi bo'lgan uch inson qalbining har-biri o'z qobig'iga yashirinishga tiri-shardi. Nihoyat, jimlikni Daydi buzdi: u varaqlab o'tir-gan jurnalidan gapirishga arziydigan mavzu topgan edi.

– Yigitlar, qaranglar-a, manavi yerda g'alati ma'lumot bosilibdi. Amerikada o'tgan yili o'n yetti mingdan ortiq go'zallik qirolichalari saylanibdi. Xo'sh, shunday ekan, tomirimizda ko'kish qon oqmayapti, deb kim bizni ishontira oladi?

Yozuvchi nafratli jilmaydi. Ilon yana vishilladi:

– Bu demak, dunyoni xotin-qizlar boshqaryapti degan so'z. Xo'sh, bu haqda Yozuvchi nima deydi?

Yozuvchi pechka yonidan turib, g'irchillagan to'qima kresloga kelib o'tirdi. Tutundan yoshlangan ko'zlarini artib, sokin ovozda javob qildi:

– Men bunda hech qanday yomon narsani ko'rayotganim yo'q. Shu gapning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi-ki, odamlar go'zallikni g'oyat sog'ingan, uni qo'msaydi. Mening birinchi xotanim ham go'zallik qirolichasi bo'lgan edi...

– Sen buni shu mahalgacha bizdan yashirib yurganingni qaraya, – gap qistirdi Daydi.

Ilon yuzini burishtirdi, shu palla do'stlar nigohi eshikka qadaldi. Jerrini boshlab Bobo kirib keldi. U hamrohini munosib ravishda tanishtirdi:

– Jerri hozirgina Yevropadan keldi, – dedi psixolog qo'lidagi qog'oz xaltani stol ustiga qo'yar ekan. Unda butun ziyolilar jamoatchiligiga daxldor muqaddas narsa bor edi.

Yozuvchi bilan Daydi shu zahoti qog'oz xaltaning mazmuni bilan tanisha boshladi. Ilon bo'lsa turgan joyidan qimir etmadi. U Jerriga boshdan-oyoq shubhali nazar solib chiqib, kinoya aralash so'radi:

– Sen ham bu yoqqa kelib osmono'par binolarga ko'zining paxtasini chiqarib qaraydigan, universitetlar majlis zallarining serdabdabaligidan zavqlanadigan o'sha stipendiatlardanmisan?

– Jerri ko'chib kelganlardan, – javob qildi Bobo.

– To'ppa-to'g'ri Baueriga-ya! – kulib yubordi Ilon.

– Butunlay to'ppa-to'g'ri emas, – so'z qo'shdi Jerri.

– Sen ingliz tilida baharnav gapirar ekansan. Qayerda o'rgangansan?

– Maktabda. Angliyada.

– Nahotki, sen ingliz bo'lsang?

– Yo'q, men finman...

– Iya, anavini qara! Men Gollivudda bir Marion Nikson degan fin ayolini bilardim.

– Men bir marta fin yozuvchisi bilan tanishgan edim, – dedi Yozuvchi. – Men u bilan Yangi Angliyada uchrashib qolgan edim. Turgan gap, qovoqxonada. Uning oti Konrad Lextimiyaki edi. U bu mamlakat tilini bilmaganidan biz birgalikda ichishdan bo'lak iloj topmadik.

– Ichishdan maqsad nima? – so'radi Bobo.

– Ikkimizning bir xil darajada bo'lishimiz uchun yakka-yu yagona vosita shu edi. Ba'zi odamlar o'z baxtsiz oilaviy hayotidan shikoyat qiladi, alamidan ichishga odatlangan bo'ladi. Boshqa birovlar esa busiz ham icha beradi. Inson hamisha yuqoriroq pog'onaga ko'tarilishga harakat qiladi. Modomiki, alkogol senga osmonu falakka chiqish uchun narvon taklif etar ekan, nima uchun undan foydalanmaslik kerak?

– Yozuvchi savol nazari bilan Boboga qaradi va undan shivirlab so'radi:

– Biron nima tushdimi?

Bobo bosh qimirlatdi.

– Yo‘q, omad kelmadi. Sening sariq lattangni bilagimga boylab qancha yurmayin, odamlar baribir menga faqat jilmayish sadaqa qildilar, xolos. Bu hafta gadoylarni ko‘chalarda kulgi qilishmoqda.

Bobo cho‘ntagidan sarig‘ bog‘lag‘ich olib, uni Yozuvchiga qaytarib berdi. Yozuvchi indamay stol yoniga o‘tirib, Bobo olib kelgan non bilan dudlangan selyodkani yeya boshladi. Bularni psixolog bir do‘kondordan uzoq tushuntirish va evaziga avtoruchkasini qoldirish sharti bilan olib kelgandi. Boshqalar ham ma‘yus va g‘amgin qiyofada stol tevaragiga o‘tirishdi. Ilon hamon yangi mehmonga olayib qarar ekan, so‘radi:

– Qani, aytchi, yangi vataningda sen nima qilishni mo‘ljallayapsan?

– Hali o‘zimam bilmayman, – yuvoshlik bilan javob qildi Jerri. – Biron ish izlab topishim kerak.

– Jerrining kasbi kori o‘qituvchilik, – gap qo‘shdi Bobo.

– G‘oyat afsus! – xitob qildi Daydi.

Yozuvchi Jerrining yuziga sinchiklab qarab olar va tashqi qiyofasi hali xiyla tuzuk ekaniga ishonch hosil qilar ekan:

– Bizning mamlakatimiz o‘qituvchilarga juda muhtoj, – dedi. – Hozirgi paytda bir yuz ellik ming yangi o‘qituvchi talab qilinadi. Men aminmanki, sening imkoniyatlaring katta.

Ilon o‘z fikrini avval mimika, keyin so‘z bilan ifodaladi:

– Ha, u misli ko‘rilmagan ulkan imkoniyatlarga ega! Jerri bir irg‘ib tushdi, yuzida zo‘rma-zo‘raki ifoda paydo bo‘ldi.

– Sen uning so‘zlaridan xijolat chekma, – dedi beg‘amlik bilan Bobo Jerrining yelkasiga qoqar ekan. – Agar uning tili ana shunday zaharli bo‘lmaganda nomini Ilon qo‘yishdan nima foyda chiqardi. Hozir u to‘nini teskari kiyib olgan, ko‘ryapsanmi, dasturxonda faqat dudlangan selyodka turibdi, Ilon uni jinidan ham yomon ko‘ra-

di. Oziq-ovqat unda juda kuchli his-hayajon uyg'otadi. Selyodka esa buning aksicha jirkanch, ko'ngil aynitadigan his qo'zg'atadi...

– Ob-bo, yana navbatdagi ma'ruza boshlandi-ku! – uning so'zini bo'ldi Ilon. – Birozgina estetika, birozgina she'riyat, yana bir chimdim psixologiya – bari qo'shilib, ko'zingga qashshoqlik huzur-halovat, do'zax esa, jannat bo'lib ko'rinadi.

– Sen haq gapni aytding, Jon, – dedi Bobo. – Bukur odamga hamma bukur bo'lib ko'rinadi. Ammo baxtimizga hamma odam ham bukur emas. Sening qahr-g'azabu qayg'u-alaming o'zingni to'la qimmatli odamman deb bilmaganingdan kelib chiqadi. Mana, ovozli kinoni olib ko'raylik, u sendan noningni tortib oldi, shu tufayli unga nafrat bilan qaraysan. Mana, hozir nonni boshqa odam stolga keltirib qo'ygani uchun unga nafrat bilan qarayapsan. Tevarak-atrofigda yolg'iz qashshoqlikni ko'rasan, lekin baribir jon-jahding bilan undan qochib qutulishga intilasan. Fikrlar hujumkor va ayni vaqtda himoya qiluvchi mexanizmlardan tashkil topadi. Lekin sen, baribir bulardan qochib qutulishing mumkin edi.

– Qayoqqa?

– Xayol dunyosiga. O'zini yetarli darajada qadr-qimmatga ega emas deb o'ylovchi har bir kishi o'ziga shunday yangi olam yasab oladiki, u olamda qashshoqlik ajoyib huzur-halovat, do'zax jannat bo'lib ko'rinadi.

– Sen haqsan, Bobo, – dedi Yozuvchi – Men ham doimo dahshatli voqelikdan ajoyib orzu-xayollar olami ming marta afzal, degan fikrda edim. Orzu qilishga hammaning haqqi bor.

Ilon seskantiradigan darajada sovuq xoxolab kuldi.

– Tenglik yolg'izgina qabristonda – olamdan o'tganlar mamlakatida yoki shoirlar tili bilan aytganda, yo'qlik bog'ida mavjud. Men ellik olti yoshga kirib shu mahal-gacha tiriklar orasida hech qanday tenglikni ko'rma-dim. Buning bari behuda safsata!

Sobiq kino artisti soʻzlarini imo-ishora va qoʻl harakati bilan tasdiqladi. Shundan keyin oʻzining sinchkov nazarini Jerriga qadadi, ammo u tek qolganча jim oʻtirardi. Psixolog oʻzining tahlil va tavsifini davom ettirdi:

– Menga qara, Jon. Biz yaxshi bilamizki, sen hammadan alamzadasan va hammaga achchiq nafrat bilan qaraysan. Toʻgʻri, ovozi kino seni va sen kabi Jon Jilbertni yaxshi taʼminlangan hayotdan judo qildi. Turgan gap, sen shunday boʻlishing ham kerak. Chunki sen, tiplar aqidagi nazariyaga muvofiq qahru gʻazab yoʻnali shiga mansub boʻlgan astenik tipga kirasan. Mening ustozim Yung seni darhol introversivlar tipiga, yaʼni mavjud shart-sharoitdan hamisha norizo, doimo hamla va hujumga tayyor turgan tipga kiritgan boʻlardi. Agar men shu hafta har bir amerikalik kulishi kerak desam, sen shu zahot menga zid pozitsiyaga oʻtib, jamoat fikri va poda singari harakat hissi toʻgʻrisida nafrat bilan gapira boshlaysan. Qani kelinglar, bir tasavvur etib koʻraylik. Deylik, ertaga Bing Krosbi oʻlib qolib, butun Amerika boʻylab milliy motam kuni eʼlon qilinsa, sen shak-shubhasiz, birinchi boʻlib shod-xurram qichqirasan: – Voy boʻ, ana qaranglar, nihoyat, Gollivudning mushugi oʻzining jonga tekkan miyovlashini bas qildi!

Daydi bilan Yozuvchi piqillab kulib yuborishdi. Ilon boʻlsa tishini tishiga bosdi. Uning koʻzi atrofida minglab mayda ajinlar paydo boʻlib, u qarshi hujumga oʻtishga urindi:

– Men bir kun ham psixologiya bilan mashgʻul boʻlgan emasman. Kitobdan qoʻrqaman, chunki minglab odam uni oʻqib, esini yoʻqotib yuribdi. Menga maʼqul boʻlgan yagona kitob – bu katta huzur-halovat bagʻishlovchi chek daftarchasi edi. Ming afsuski, mana, oʻn bir yil boʻladi, uni qoʻlimga ushlab koʻrganim yoʻq. Garchand men kitobdan uncha aql-farosat orttirmagan boʻlsam ham, harqalay, ishonch bilan aytamanki, Milliy kulgi haftasi – bu mamlakatimiz savdo palatasi bilan kommersiya korxonalarining mohirona qilgan reklama loʻtti-

bozligidir. U kambag'allarning cho'ntaklarini qoqlab olish va boy-badavlat korchalonlarning bankdagi joriy hisoblarini boyitishga mo'ljallangan. Men kulish uchun zig'ircha ham sabab ko'rmayapman. Bordiyu, qo'shiq aytib yurgan biron yosh yigit narigi dunyoga safar qiladigan bo'lsa, buning uchun ko'z yoshi qilib yurishning ham mutlaqo hojati yo'q. Chunki oradan bir daqiqa o'tmay, qo'shiq aytadigan, uning o'rnini bosadigan ikki million yosh yigit uning qabri ustida o'yinga tushadi. Sen meni allaqanday tiplar toifasiga kiritish uchun mutlaqo behuda urinyapsan. Men bor-yo'gi shisha og'zini ochadigan shtopor yordamida hayotning og'ir va murakkab vaziyatidan chiqib ketish yo'lini izlayotgan, shishaga jon-jahdi bilan yopishib olgan oddiy bir ishsiz artistman. Sizlarning uchovingiz ham – men hali manavi yangi o'rtoqni yaxshi bilmayman – ko'rsizlar, qip-qizil ko'r, umid qilib bo'lmaydigan ko'r odamsizlar. Sizlar o'zlaringni qanday kamsitilib, tahqir qilinayotganlaringni sezmay, xayol quchog'ida, yetti qavat osmonda suzib yurib-sizlar. Sizlar laqma, Bauerining ulug' laqmalarisizlar! O'z qadr-qimmatini zarracha bilmaydigan telbasizlar!

– Bas qil, Jon! – xitob qildi Daydi. – Biz sen bilan bahslashishni istamaymiz. Sen hamma yoqda faqat dushmanni, nafrat qo'zg'atuvchi jirkanch va manfur dushmanlarnigina ko'rasan. Shuni yaxshi bilib qo'yki, dushmanni ham seva bilish kerak. Chunki ular sening zaif tomonlaringni do'stlaringga nisbatan vijdonan va halollik bilan to'g'ri ko'rsatib beradilar.

Daydi o'tirgan joyidan turib, Yozuvchiga ma'noli nazarda qarab qo'ydi.

– Biz Maksuell bilan Radio Sitiga borib kelamiz, – dedi u qisqa qilib. – Oldimizda uzundan-uzoq tun, bizda bo'lsa tishga bosguday hech vaqo yo'q.

Yozuvchi Maksuell Bodenxeym cho'ntagidan ko'r odam boylaydigan sarg'ish bog'lag'ichini oldi. Daydi shu zahoti uni bilagiga bog'lab qo'ydi. Shundan keyin Ezuvchi ko'ziga qora ko'zoynagini taqib, qo'liga oqqa bo'yal-

gan tayog'ini oldida, Daydining bilagiga suyanganicha xonadan chiqdi. Ular orqasidan eshik yopilganda Ilon alam bilan vishilladi:

– Bobo, ayt-chi, nahot mana shuni ko'rib turib kulish mumkin bo'lsa? Yozuvchi bilan sobiq adabiyotshunost – professor Radio Sitiga sadaqa so'ragani ketishyapti... Eh, jin chalsin!

– Sen shaytoningni bir chetga qo'yib tur, – dedi xotirjamlik bilan Bobo. – Psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, bunda aytarli hech nima yo'q. Yozuvchi bilan Daydining har ikkovi ham faqat bir narsa bilan qiziqadi. Ular ichkilikning mohiyati yoki uning oqibati to'g'risida emas, alkogol bir fursat baxsh etadigan huzur-halovat daqiqasi to'g'risida o'ylashadi.

– Ichkilikni jin chalsin, boplab tushuntirding-ku! – xitob qildi Ilon. – Yo'q, og'aynilar, men sizlarga aytsam, gadoy bo'lganimdan ko'ra, o'g'rilik qilganim yaxshi!

– Bir kun emas, bir kun qo'lga tushib qolasan, – dedi Bobo. – Orqangdan allaqachonoq kuzatib yurishibdi.

Ilon hech nima javob qilmadi. U shoshilmaygina pal-tosini va ilma-teshik bo'lib ketgan eski shlyapasini ki-yib, eshik tomon yurdi.

– Men bir tanishimni ko'rib kelaman, – dedi u no-aniiq ohangda. – O'sha oshnam yaqinda Sing-Singdan bo'shab kelibdi...

Jerri bilan Bobo yolg'iz qolishdi. Xiroamaliyotchi xona ichiga ko'z solib chiqib, eti jimirlab ketdi.

– Jon Fitsjerald juda nozik nusxa, – dedi oradan biroz vaqt o'tgach Bobo. – Birinchi qaranda u o'larday mijg'ov va ming'ir-ming'ir odamga o'xshaydi, lekin aslida, dilida kiri yo'q, ko'ngilchan odam. O'ziga ishonmaslik oqibati uni ana shunday qiziqqon qilib qo'rgan.

– Nahotki u o'ziga biron ish topish imkoniga ega bo'lmasa?

– Kim biladi deysiz, u faqat o'z mutaxassisligim bo'yicha ishlashni xohlayman, deydi. Uning fikricha, boshqa kasbda ishlab doimiy non yegandan ko'ra har

zamonda bir epizod rol o'ynagan afzal emish. U jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatning maqsad birligini, ya'ni tashqi muhitga moslashmoq kerakligini yaxshi tushunib yetmaydi. Biroq u bunday tipning yakkayu yagona vakili emas... Grinvich Vilejning san'atkorlar xarobasida hayotlari ana shunday ziddiyatlarga asoslangan minglab artistlar bor. Ular axir oqibatda birin-ketin Baueriga ko'chib kelib, bu yerda yalangoyoq va daydi – «Xobo»larga aylanadilar. Inson bolasi asta-sekin quyiga sirpanib, tubanlashib boradi.

Jerri o'z suhbatdoshiga yalt etib qaradi. Ha, chindan ham inson bolasi asta-sekin quyiga sirpanib, tubanlashib boradi. Professor Minvegenning o'zi ham allaqachon quyiga sirpanib, tubanlashib ketganini sezmasdi. Lekin batamom g'arq bo'lmoq uchun hali uzun bir sirpanchiq qadam, ha, atigi bir qadam qolgan edi. Jerrining Bruklina qaytib ketgisi kelib qoldi. U dilida: «Bordi-yu, ertagayoq o'zimga biron ish topib olmasam, xotinim oldiga qaytib ketaman...» – degan qarorga keldi.

Zinadan qadam tovushlari eshitildi. Eshik ohista ochilib, xonaga o'rta yoshlardagi, yuzi uch burchakka o'xshagan, pianino chaluvchilar barmog'i singari ingichka barmoqli bir janob kirib keldi. U o'zining kech kelgani uchun uzr so'radi, keyin sira tutilmay silliq va ravon gapira ketdi:

– Janoblar, agar men yanglishmasam, sizlar bu uyda doimiy yashaysizlar, shundaymi? Mening ismim Xaris Kleyn. Sizlar, balki meni tanirsizlar? Meni butun Bauerining aholisi yaxshi biladi. Sizlar ham, nazarimda, gap nimada ekanini bilib turgan bo'lsalaring kerak, a, janoblar, shundaymi?

– Afsuski, biz bilmaymiz, – deb javob berdi Bobo. – Agar siz bu yerdan o'zingizga tunagani boshpana topishni o'ylayotgan bo'lsangiz, u taqdirda xato qilasiz...

– O, yo'q, janob, gap mutlaqo bunda emas. Mening o'z uyim bor. Ammo sizning yordamingizga juda muhtoj-

man, janoblar, ya'ni boshqacha qilib aytganda, menga sizning ovozingiz kerak.

– Siz benuqson tilda gapirayotibsiz, – dedi Bobo. – Lekin shunga qaramay, men baribir sizga nima kerakligiga tushunolmayapman.

Janob ular oldiga yaqinroq keldi, uning yuzi ochiq ko'ngillik va yorqin optimizm ruhidan yorishib ketdi.

– Yana bir karra kechirim so'rayman, janoblar! Rosti bilan sizlar meni yaxshi bilasizlar, deb o'ylabman. O'zlaringizga ma'lumki, barcha jamoat lavozimlari bizda saylov yo'li bilan qo'yiladi. Shu tufayli ham saylovlarda umum ovoz berish muhim o'rin tutadi. Bizda, axir, demokratiya bor, shunday emasmi, a, janoblar? Agar sizlar radio eshitgan bo'lsangizlar – kechirasizlar, chamasi, bu uyda hatto radioning o'zi ham yo'q shekilli! – yoki gazetadan o'qigansizlar, yo bo'lmasa ulkan saylovoldi plakatlariga ko'zingiz tushgandir. Sizlar mening nomimni uchratgan bo'lishingiz kerak. Chunki men nomzodman. Ha, shunday, janoblar. Mening vijdonim sof, izzat-obro'yimga dog' tushgan emas, jamiyatning ravnaqi yo'lida qo'limdan nimaiki kelsa, barini to'la ado etishga va'da beraman. Shunday qilib, sizlar sira ikkilanmay o'z ovozingizni menga beraverishingiz mumkin.

– Siz saylanmoq uchun o'z nomzodingizni kongressga qo'yyapsizmi, yo senatga? – qiziqib so'radi Bobo.

– Shu bosqichda hozircha qo'yayotganim yo'q, janob. Ehtimol, keyinroq...

– Bo'lmasa, hozir siz qanday lavozimga talabgorsiz?

– O, janob, nahotki, siz chindan ham gapning nimaligini bilmaysiz? Baueri uchinchi rayon xalq maktabida farrosh lavozimi bo'shadi. Indinga ana shu o'rin uchun saylov o'tkaziladi. Men shu o'ringa demokratik partiyadan nomzodman, janoblar, rosti bilan sha'nimga zarracha dog' tushirgan emasman. Men bu haqda boya ham aytish sharafiga muyassar bo'lgan edim. Agar sizlar men uchun ovoz bersangizlar, maktab atrofidagi

barcha uchastkada hamisha tozalikka qat'iy rioya qilinishiga, shuningdek, o'quvchi bolalarning koridorlarda chekishlariga barham berishga va'da qilaman. Respublikachilar partiyasidan nomzodi qo'yilgan Gerbert S. Bromli mening raqibim hisoblanadi. Men o'z raqibim to'g'risida yomon gaplarni aytishni mutlaqo istamayman, lekin faqat shunigina qistirib o'tay, mister Bromli o'tmishda universitetning sobiq professori bo'lishiga qaramay o'zi yomon nom chiqargan.

– Professor Bromli deysizmi? – sekin takrorladi Bobo.
– Esimda bor, men bu nomni ilgari ham eshitganman.

– Albatta eshitgansiz. Bundan yarim yil muqaddam uni davlat meteorologiya institutidan quvib chiqarishdi. U pora olgan edi. Juda katta pora. Mana endi bo'lsa jamoat ishi bilan shug'ullanmoqchi!

– Meteorolog qanday pora olishi mumkin? – o'z navbatida so'radi Jerri.

Mister Kleyn qo'llarini yozib, yelka qisdi-da:

– Porani har qanday vazifada ham olish mumkin, – dedi. – Bu axir, juda oddiy ish-ku. Ammo professor Bromli bu ishda hammadan ham o'tib, sovrinni olib ketdi. U may oyida ikki marotaba haddan tashqari qattiq sel yog'adi, suv toshqini bo'ladi, bu jala-yomg'ir surunkasiga uch hafta to'xtamay yog'adi, deb e'lon qildi. Xo'sh, natija nima bo'lib chiqdi? Xuddi buning aksi! To'rt hafta Nyu-Yorkda shunday issiq havo bo'ldiki, asti so'ramang, osmonda bir parcha bulut ko'rinmadi, shunday qurg'oqchilik davom etdiki, shahar ma'murlari suvdan foydalanishni cheklab qo'yishga majbur bo'lishdi. Shu sababdan ham professor Bromlini ishdan quvganlariga hamda jarima to'lashga hukm qilganlariga aslo ajablanmaslik kerak.

Bobo bosh chayqadi.

– Mister Kleyn, harqalay, men nima uchundir tushunolmayotibman. Nyu-Yorkdagi issiq bilan professor Bromlining pora olgani orasida qanday bog'lanish bo'lishi mumkin?

Mister Kleyn xayrixohlik bilan jilmaydi:

– Gap shunda-da, janoblar, soyabon bilan kalish ishlab chiqaruvchi firmalarning omborlari tayyor molga to'lib-toshib yotgan edi. Firmalar professor Bromliga murojaat qilib, undan uzoq muddat yog'ingarchilik bo'ladi, deb e'lon qilishini so'radilar. Professor Bromli yaqin kunlarda faqat charaqlagan quyoshli kunlar bo'lishini o'zi yaxshi bilgani holda, yog'ingarchilik bo'ladi, deb yolg'on aytdi. Ishning ko'zini bilgan korchalonlar darhol bundan foydalanib, yarim kun mobaynidayoq Nyu-Yorkda zontik, plash va kalishlarining bir donasini ham qoldirmay sotib bo'lishdi. Shunday qalbaki yo'l tutib, odamlarni aldab o'z buyumlarini sotgan firma va kompaniyalar uning evaziga professor Bromliga o'n ming dollar pora berishdi. Qaranglar, janoblar, axir, o'n ming dollar naqd pul-a! Endi bo'lsa, ana shu badaxloq olim Bauerining uchinchi tumanidagi xalq maktabida farrosh o'rnini egallash uchun harakatga tushib qoldi. Biroq u bunga erisha olmaydi! Hech qachon! Agar, albatta, Bauerining barcha aholisi saylovlarda faqat menga ovoz bersa!

Mister Kleyn bir dam to'xtab, nafasini rostladi, keyin so'ziga yakun yasadi:

– Hurmatli janoblar! O'zingizning ovoz berish huquqingizdan to'la foydalaninglar. Demokratiya uchun kurashing, ovozingizni menga bering! Shu bilan birga, butun tanish-bilishlaringizga, yoru birodarlarinigizga Xarris Kleyn – uchinchi rayonning xalq maktabidagi farrosh o'rniga yagona haqiqiy nomzod, deb aytin. Manavi ikki kichik varaqa esa sizga, janoblar, bu erda mening ishchanlik fazilatlarim to'g'risida yozilgan. Bu varaqalarni o'zim bostirdim. O'qib chiqinglar, diqqat bilan o'rganinglar, mana shunda demokratik partiyaning g'alaba qilishi uchun hamma asosga ega ekani sizga ravshan bo'ladi. Tashakkur sizlarga, janoblar! Agar da bironta savollaringiz bo'lsa, bariga javob qaytarishga hozirman.

Bobo savolimiz yo'q, ma'nosini bildirib bosh silkidi.

– Mister Kleyn, bizda hech qanday savol yo'q. Ha, to'xtang, sizning asli kasbingiz nima o'zi?

– Ilgarimi yo hozir?

– Umuman.

– Men ilgari kommivoyajer edim. Hozir bo'lsa uylan-ganman.

– Yaxshi, misetr Kleyn. Sizga baxt va muvaffaqiyat tilaymiz.

– Ming rahmat sizlarga, janoblar! Menga ishonave-ringlar. Tashakkur, ming bor tashakkur sizlarga...

Mister Kleyn orqasiga tisarilib, xonadan chiqib ketar-kan, eshik tagiga yetganda:

– Shunday qilib, indingacha xayr, janoblar! – dedi. – Mayli, hamma narsani ovoz berishingiz hal qilsin!

Eshik yopilganda, Bobo yelkasidan tog' ag'darilgan-day yengil tortdi.

– Yaxshi hamki uyda Ilon yo'q edi. «Demokratiya» de-gan so'zni eshitdi deguncha jini qo'ziydi.

* * *

Nyu-Yorkning beg'am bag'riga joylashgan Baueri tun og'ushida mudrar edi. Tor yo'lka-yu, gadoy topmas pastqam ko'chalarda og'ir, salmoqli qadam tashlab, yuzlari g'amgin bir necha sho'x Magdalinalar tentirab yurardi. Allaqayoqdan, uzoqdan ot dukuri eshitildi. Bu o'tib ketgan otliq politsiya otryadi. Og'ir nafas olib, cho'loqlanib tun o'tib boradi.

Jerrining uyqusi notinch, behalovat bo'ldi. U psixolog yonida, shundaygina polga to'shalgan to'shakda yotar-di. Miyasida ming bir xil uzuq-yuluq, alag'-chalag' tush-lar to'foni quturardi. Ana shu xira to's-to'polon orasida atigi bir narsa – Joanning yuzi yaqqol, markaziy nuqta bo'lib ko'rindi. Uning atrofidagi hamma narsa allaqan-day tuman pardasiga o'ralgan edi. U hadeb uyg'onib ketar, bezovta seskanar, cho'chib tushar va qanday-dir tushunib bo'lmaydigan so'zlarni aytib qichqirar edi.

Ammo Bobo juda tinch va xotirjam uxladi. Uning qalb sokinligini ruhiy kasallarda bo'ladigan chalkash va alag'-chalag' tushlar buzmas edi. U Bauerining xaroba kulbasida ham o'zini bir vaqtlardagi huzur-halovatli, shohona sersavlat professor uyidagi kabi baxtli sezardi. Bobo tashqi muhitga moslashib, ko'nikib ketgan, hamma narsada ham ma'lum darajada yorug' va qorong'i tomonlarni ko'ra bilardi. Jumladan, agar polda yotsang, karavotdan yiqilib tushaman, degan xavotir bo'lmaydi, derdi. U o'n oy mobaynida biron marta yechinmay, ustiga biron nima yopinmay, boshiga allaqanday yog'i chiqib ketgan bosma asarlar qo'yib, yotib kelmoqda edi. Shunga qaramay, u asabiylik bilan g'azab alangasining jismoniy azobini tortmas, umuman, aftidan hech qanday noqulaylik sezmay, bariga ko'nikib, o'rganib ketgandi. Ertalabga yaqin Jerri bilan Bobo qattiq qichqiriqdan uyg'onib ketishdi. Yozuvchi bilan Daydi odatlaricha hamma yoqni rosa aylanishib, uylariga qaytib kelishgan edi. Ularning omadlari kelib, allaqanday mast bir janob Yozuvchi sadaqa so'rab uzatgan shapkasi-ga o'n dollar tashlab ketibdi. Daydi shu zahoti «ko'r» o'rtog'ini samoga narvon sotib olgani qovoqxonaga yetaklabdi. Ular ko'ngilchan odam bo'lganlaridan uyda qolgan o'rtoqlariga ham og'zi ochilmagan bir shisha obi kavsar ola kelishibdi.

Jerri bunday kallai saharlab turib, ertalabki badan tarbiya qilishga zig'ircha bo'lsin xohishi yo'q edi. Ammo ziyolilar jamoatchiligining qonun-qoidalariga itoat qilmay iloji qancha. U ichdi, ichdi-yu, darrov mast bo'lib qoldi. Mast bo'lgach, butun dardu alamlarini unutdi. Yozuvchi nimadir dedi, lekin uning tilini qarg'a cho'qiganmi, g'o'ldiraganidan bironta so'ziga tushunib bo'lmadi. U yana o'zining ulug'vorligini his etib, iste'dodining cheksiz ta'siriga berilib ketdi. Daydining o'tinib qilgan iltimosini yerda qoldirmaslik uchun cho'ntagidan gijimlangan, yog'i chiqib ketgan, allaqanday qing'ir-qiyshiq

yozuvlari bilan to'lgan bir dasta qog'oz – otashin ilhomi samaralarini oldi.

– To'g'ri, Maksuell! O'z she'rlaringdan birontasini o'qib ber! – taklifni quvvatladi Bobo.

Yozuvchining titroq, ko'pdan beri sovun ko'rmagan barmoqlari qog'ozlarni titkilay boshladi. Uning qontalash ko'zlari tanish so'zlarni izlardi.

– Mana, Genri Lyusning jurnaliga to'g'ri kelmagan kichik bir uy manzarasi, – dedi alam bilan Yozuvchi. – Ularga bu biroz qorong'iroq ko'rinibdi...

Hammalari jim bo'lib qolishdi. Bauerining ulug' shoiri, Amerikaning Emil Zolyasi Maksuell Bodenxeym g'ijimlangan qog'ozni yozib, minnatdor auditoriyaga so'nib borayotgan iste'dodining eng so'nggi ijod mevalaridan birini o'qib berdi:

*Keng osmon oldida bu tog'lar kichik,
Odamzot ko'ziga g'oyat ulkan u.
Ulug'vor tenglikning keng maydonida
Uchrashib turadi tog' cho'qqilari.
Pastda daryo oqar sokin va sokin,
Keti ko'rinmas u xira bir lenta...
Musaffo bo'lay deb otilar yiroq.
Kezadi olisda bulut karvoni,
Orzusidan bo'lak barcha narsasin –
Yo'qotgan odamning soyasi kabi.*

Yozuvchining ovozi titrab ketdi va birdan ho'ngrab yig'lab yubordi. U o'rnidan turib, gandiraklaganicha pechka yoniga keldi-da, qo'lidagi qog'ozni g'ijimlab, she'rini olovga irg'itdi.

– Maksuell! – qichqirdi Daydi. – Nega she'rlarni o'tga tashlayapsan?

Yozuvchi alam bilan jilmaydi:

– Ular millioner Genri Lyus jurnalidan ko'ra o'z xonamizni yaxshiroq isitgani ma'qul. Men endi bir satr ham she'r yozmayman, bir satr ham... Bobo, baraka

topkur, menga yana bir stakan quyib ber! Men endi shoir sifatida... o'ldim.

Yozuvchi bir ko'tarishda butun stakanni ichib bo'shatib, o'zini doimo g'irchillaydigan temir karavotiga otdi. Oradan bir daqiqa o'tmay, u uxlab qoldi. Uyqusida og'zi ochilib, qattiq xurrak ota boshladi. Daydi Yozuvchi karavotining bosh tomoniga kelib, uning sochlarida o'rmalab ketayotgan suvarakni ushlab olib, pechkaga tashladi.

Tong yorisha boshladi. Do'stlar Ilonning o'rni haliga qadar bo'sh ekanini payqab qolishdi. Daydi tashvishlana boshladi. Psixolog esa, har mahalgiday xotirjam, oxiri bexavotir chiqadigan izoh berdi:

– Ilonning tanish-bilish doirasi g'oyat keng. Shoshiladigan joyi yo'q.

Ertalab do'stlar sobiq artist Jon Fitsjeraldning tunda qamoqqa olinganini eshitdilar. U Qirq uchinchi ko'chadagi oziq-ovqat do'koniga qulfni buzib kirib, o'g'rilik qilmoqchi bo'lib turganida, jinoyat ustida qo'lga olinibdi. Kichkinagina gazeta xabarida, ovozsiz kino davridagi mashhur «Ming xil qiyofali odam» keyingi yillarda muhtojlikda yashagani va Bauerining xaroba kulbalarida yomon nom qozongani eslatib o'tilgan edi. Bu yangilikdan oraga og'ir va uzoq jimlik cho'kdi. Nihoyat, Bobo bo'g'iq va dilxastalik bilan:

– U haddan tashqari mag'rur edi, – dedi. – U sadaqa so'rashni, har qanday ishga qo'l urishni xohlamas edi.

– Uning o'rnini endi Jerri egallashi mumkin, – dedi Yozuvchi kayf aralash chakkalarini silar ekan. – Odam o'zining doimiy o'rniga ega bo'lgani yaxshi. Bu narsa kishida ijtimoiy ta'minot va jamiyatga muhabbat tuyg'ularini kuchaytiradi.

Jerri o'rtoqlariga bunday g'amxo'rlik va ishonch uchun minnatdorchilik bildirdi. Qo'nglida esa o'zicha bunday davom etishi aslo mumkin emas, degan qarorga keldi.

Kun choshgohga yaqinlashib qolganda Bobo bilan Jerri butun ziyolilar jamoatchiligiga ovqat topish uchun yo'lga chiqishdi. Jerri xiroamaliyot yordamida nonushta olish imkoni bo'lgan «Jo qahvaxonasi»ga borishni taklif etdi. Bu taklifga Bobo rozi bo'lmadi:

– Judayam yo'l olis. Yaxshisi yur, «Oazis»ga boramiz. U yerda xohlagancha tanlash mumkin...

O'N BESHINCHI BOB

JERRI BILAN BOBONING NYU-YORKDAN CHIQIB KETGANI VA ULARNING SIYOSIY KURASH HAMDA DINIY ISLOHOT GIRDOBIGA TUSHIB QOLGANI

Oktabrning oxiri, g'oyalar kurashining qizg'in pallasi edi. Davlat boshliqlari lavozimiga saylovlar yaqinlashib kelmoqda edi. Sabzavotchilar bozorlarga yana chirigan pomidorlar olib tushib sotar, parrandachilar sasib yotgan palag'da tuxumlarini bitta qo'ymay pullashardi.

Ziyolilar jamiyatining aksiyali a'zolari miqdori uch kishigacha qisqardi. Chunki Maksuell Bodenxeym xotini uyiga – san'atkorlar xarobasiga ko'chib ketdi. U yerda allaqanday adabiy vakil uning har bir she'ri uchun uch qultumdan viski berishga va'da qilgan edi. Ilon shu ketganicha qaytib kelmadi. Unga oldindan o'ylab, qulf buzib o'g'rilikka tushgani va sudni hurmat qilmagani uchun olti yil katorga jazosi berishdi. Sud maslahatchilari qatnashuvida bo'lib o'tgan sud yakdillik bilan uni ashaddiy jinoyatchi, yon-veridagilarni bebosh g'oyalar va razil yuz burishtirishlar bilan xijolat qilishda aybdor, deb topdi. Ilon hukmni eshitib, muloyimlik bilan dedi:

– Juda soz, janoblar! Sobiq artistlarning birontasi ham bunday nafaqani olishga muyassar bo'lavermaydi!

Ilonning yangi istiqomat joyiga ko'chib o'tgani Daydida juda yomon ta'sir qoldirdi. U hamma odamlar ham

baxtsiz bo'lmagani uchun o'zini ko'proq baxtsiz deb his qilardi. Bobo ham bir necha kungacha popugi pasayib, ruhi tushib yurdi. Jerriga kelsak, u qayg'urish uchun biron o'rinli asos topmadi. Uning fikricha, jinoyatchining qamoqda, qurol-aslaha fabrikalarining egalari diplomatik postlarda o'tirishi mantiqan to'g'ri va adolatli ish edi.

Jerri muntazam ravishda kunda bir marta ishchi kuchi yollovchi byuroga va «Oazis»ga qatnab turdi. Unga ishga joylashish xiyla osonroq va qish oylari ancha sovuqroq bo'lgan o'rta G'arbnning shimoliy shtatlariga jo'nab ketishga maslahat berishdi. Keyingi oylarda Jerrining tashqi qiyofasi sezilarli darajada o'zgardi: endi hech kim undan sadaqa so'rashga urinmasdi. O'zi ozib-to'zib ketgan, kirtayib qolgan ko'zlari, bo'zday oqargan yuzlari ishsiz odamning turqini yaqqol ifodalab turardi. Ko'p marta u achchiq umidsizlikka tushib, xotini oldiga qaytib ketishiga sal qoldi. Lekin har safar ham allaqanday ko'rinmas kuch uni Manxettendan Bruklingga ko'chib ketishdan ushlab qolardi. Ochig'ini aytganda, poyezdda ketish uchun unda o'n sent pul yo'q edi. Atrofini qurshagan muhit ham joniga tegib ketdi: u xuddi tog'dan tushib kelayotgan daryoga o'xshab, qayoqqadir tinimsiz yuguradi-yu, lekin hech qachon ilimaydi. Daydi allaqachonlaroq alkogollar kasalxonasiga eltib tashlaydigan bo'lib pishib qolgan va ruhiy inqiroz bo'sag'asida turardi. Bobo esa o'zining doimiy ma'ruzalari bilan jonga tegardi.

Noyabrning boshlarida ufq yorisha boshlab, saylovoldi kampaniyasi jamiyatning barcha tabaqalarini oyoqqa turg'azdi. «Xobo» davlatining qiroli bundan bir hafta burun narigi dunyoga safar qilib, mana endi uning o'rniga shoshilinch suratda yangisini saylamoq zarur edi. Chikagodan kelgan xabarga qaraganda, daydilar qirolining saylovi Chikagoning allaqaysi bir xarobasida, dekabr oyining o'rtalarida o'tkaziladigan bo'пти. Detroyt,

Boston, Nyu-York, Baltimor, Minneapolis va Kanzas Siti o'zlarining boshqa nomzodlari borligini aytib, qat'iy e'tiroz bildirdilar. Shu sababdan barcha markazlarning vakillari Chikagoga chaqirtirildi. Bauerining «xobo»sidan vakil qilib sobiq psixologiya professori Boris Minvegen saylandi. Shuningdek, unga yangi qirolga toj kiydirib, taxtga o'tqazish marosimida ishtirok etish uchun ham vakolat berildi. Bobo darhol safarga tayyorgarlik ko'ra boshladi. U bukinistlar do'konlariga borib, yo'lda o'qish uchun noyob kitoblar so'rab olish payiga tushdi.

– Nima uchun sen bu qadar erta yo'lga tushmoqchisan? – so'radi undan Jerri. – Axir, saylovgacha qariyb yana bir yarim oy bor-ku.

– Chikagoga etib olishni hisobga olmasanmi?

– Poyezd bir kunda olib borib tashlaydi.

Bobo mehribonlik bilan jilmaydi:

– Bizga o'xshaganlarning poyezdda ketishi maqsadga muvofiq emas. Turgan gap, iqtisodiy nuqtai nazardan olib aytyapman. Bundan tashqari, «Xobo» tashkiloti bunday yo'l bosish usulini maqbul ko'rmagan bo'lardi. Agar quyon bo'lib keta olsang, boshqa gap.

Jerrining miyasiga yalt etib ajoyib bir fikr keldi. U o'zini Boboga safardosh bo'lishga taklif etdi. Jerrining tezroq o'rta G'arbgaga yetib olgisi kelib qoldi. Preriya-ga, yozda bepoyon jo'xorizorlari shamoldan okeanday mavjlanadigan, qishda esa qor bo'ronlari quturadigan, fermerlari goh qurg'oqchilikdan, goh Missisipi daryosining toshqinidan shikoyat qiladigan ajoyibotlar o'lkasi-ga, odamlari tabiatning saxiy in'omi va davlat dotatsiyasidan bahramand yashayotgan o'sha yurtga o'tlanib qoldi. Chikagoga yetib olsa, u yerdan Missisipi sohillari-ga atigi olti yuz mil yo'l qoladi, xolos.

Daydi bunday uzoq yo'lning go'r azobiday qiyinchiliklarini aytib, Jerrini yo'ldan qaytarmoqchi bo'ldi.

– Bir safar men Detroytga piyoda borgan edim. Sayohat rosa bir yarim yilga cho'zildi, – dedi sobiq adabi-

yotshunoslik professori. – Bir marta yoʻlda tashnalikdan oʻlib ketishimga sal qoldi: shu desang, uch kun mobaynida ogʻzimga bir tomchi viski tegmasa-ya! Men saroblarni koʻrdim, ochlikka chidadim, oxir-oqibatda yana Baueriga qaytib kelib, Nyu-York tevaragidan bir qadam ham jilmaslikka muqaddas ont ichdim.

– Jerri yorugʻ olamni koʻrishi kerak, – soʻz qoʻshdi Bobo. – Agarda biz hoziroq yoʻlga tushsak, dekabrning birinchi kunlarida Chikagoda boʻlamiz.

Shunday qilib, olam fuqarosi Jerri Finn professor Boris Minvegenning safar yoʻldoshi boʻldi. U endi katta yoʻl talabasiga aylandi. Unda safarga olinadigan oziq-ovqat qopchigʻi oʻrnida faqat oʻpkasi bor edi, xolos. U katta umid bilan olamdagi eng katta maktabga qadam qoʻydi, bu maktabning bepoyon sinflarida olti yuz mingdan ortiq oʻquvchi – ertangi kun tashvishi va doimo kezish ishtiyoqi bilan yashovchi koʻchmanchi daydilar hayot bilimini oʻrganar edilar.

Daydi yolgʻiz qolmadi, Bobo bilan Jerri chiqib ketishlari bilan darhol ikki yangi odam kelib joylashdi. Ulardan biri italiyalik skripkachi boʻlib, hozir nagʻma charlardi. Ikkinchisi asl daydi, qip-qizil yalangoyoq edi, umri bino boʻlib biron kasbning boshini tutmagandi. Harqalay, ularning har ikkisi ham yozishni, oʻqishni bilishardi. Endilikda yotoqxonada yuz bergan vaziyatga koʻra uning sardori boʻlib qolgan Daydiga ular yaxshi xizmat qilishga vaʼda berishdi. Birinchi kuniyoq pechkaga yoqish uchun ellik qadoq koʻmir, olti koʻza pivo va mudatga boʻlib toʻlash sharti bilan nasiyaga televizor sotib olib kelishdi. Bu shunday kutilmagan va odatdan tashqari bir voqea ediki, Daydi mastlik bilan koʻzidan duduv yosh toʻkib, yigʻlab yubordi. Unga kelajak ham juda yorugʻ, nurli boʻlib koʻrinib ketdi. Yozuvchining, Boboning va Jerrining uydan chiqib ketgani gʻoyat soz boʻldi. Chunki u olim janoblardan hech baloda yoʻq edi, qoʻllaridan biron ish kelmasdi, sadaqa soʻrashga haddan tashqari savodxon, oʻgʻrilik qilishga oʻtaketgan halol odamlar edi.

* * *

Agar Daydining bosh barmog'i sog', baquvvat bo'lsa, u oyog'ini asrash, kamroq piyoda yurish imkoniga erishishi mumkin. Amerikada bir joydan ikkinchi joyga borishning eng oson usuli – yo'l yoqasida turib bosh barmoqni ko'tarish, biron o'tkinchi mashina albatta seni kerak joyga eltib, tashlab o'tadi. Shu sababdan ham kimning bosh barmog'i omon bo'lsa, bas, yo'lda qolib ketmaydi. Darhaqiqat, bu usul Bobo bilan Jerriga ham shunday qo'l keldiki, ular uch kundayoq Nyu-York shtatidan Pensilvaniyaga yetib oldilar. Ularni yo'l yoqasida tushirib qoldirgan mashina egasi oq yo'l va omad tilab, jo'nab ketdi.

Noyabrning zaif oftobi yo'l yoqasidagi daraxt va butalardan tungi qirovni yalqovlik bilan asta-sekin eritib yubormoqda edi. Sarg'ish tusda tovlangan makka-jo'xorizorlar xuddi mis kabi yaltirardi. Yo'l yoqasida parrandalar olamining musiqa tanqidchisi – qarg'alar qag'-qag'lab, asfalt yo'ldan mashinalar tunda bosib o'tgan behisob o'ljalarni – jayra bilan quyonlarni terib olardi.

Sayyohlar o'zlarini katta yo'lga emas, allaqanday ikkinchi darajali yo'lda tushirib ketganlarini bu joyda birona reklama yo'qligidan bilib qolishdi. Ular o'zlari tunagan kichkinagina shaharchaning allaqanday garajidan hali tong otmay yo'lga chiqishgan edi. Hozir esa quyoshning salgina ko'tarilib borayotganiga qaraganda, soat o'nlarga yaqinlashib qolgandi. Sayyohlar yarim soat chamasi yo'l yurishgach, katta yo'lga chiqib oldilar. Uning ikki yoqasida pivo, soqol qirish uchun pasta, o't oldiruvchi chiroqcha, upa hamda benzinni reklama qiluvchi gigant e'lon taxtalari saf tortib ketgan edi. Do'stlar o'zlarini har qanday xatardan xoli sezib, ana shu keng reklama xiyoboni bo'ylab ketishdi. Bu yo'l aholi yashaydigan punktning qoq markazini kesib o'tar ekan. Savdo-sotiq binolaridan birining peshanasida:

SIZ OSON PUL TOPISH YO‘LINI ISTAYSIZMI?

degan yozuv osig‘liq turardi.

O‘z-o‘zidan ma‘lumki, Jerri bilan Bobo buni juda istardi, chunki ularning qorinlari och bo‘lib, nonushtani va «Oasis»ning kengina temir bochkalarini qo‘msab, yuraklari ezilmoqda edi. Yorqin umidlarga to‘lib, ruhlari yengil tortib, ular bir binoga kirib borishdi. Uyning devorlari saylovoldi plakatlari bilan bejab tashlangan edi. Ish stoli yonida sigara chekib, o‘rta yoshlardagi ikki erkak o‘tirardi. Ovozlaridan iymangan, xijolat chekkan ohang yaqqol sezilib turgan daydilar salomiga ular quruqqina javob qilishdi.

– Sizlarga nima kerak? – chekib o‘tirganlardan biri qiziqib so‘radi oyog‘ini stol ustiga qo‘yar ekan.

– Biz pul ishlashga tayyormiz, – dedi Bobo.

Savol bergan erkak darhol qo‘liga qog‘oz-qalam olib, surishtira ketdi:

– Nomingiz?

– Boris Minvegen.

– Kasbingiz?

– Universitet professori.

Savol berayotgan kishi qalamni stol ustiga tashlab, o‘rtog‘i bilan ko‘z urishtirib oldi. Unisi «mayli» ishorasini bildirib bosh irg‘adi. Shundan keyin u shu savollarini Jerriga ham berdi-da, uning javoblarini eshitib bo‘lib o‘rnidan turdi, sigarasini tishlab, birdan so‘radi:

– Ikkalangiz ham bizning partiyamizga a‘zomisz?

– Shak-shubhasiz, – javob qildi Bobo sira tutilmay.

– Yaxshi. Unday bo‘lsa darhol ish boshlashlaring mumkin.

– Qanday ish o‘zi? – qiziqib surishtirdi Bobo.

– Juda oddiy ish, lekin kelajakka katta yo‘l ochib beradigan ish.

Sigarali kishi devorga suyab qo‘yilgan, har ikki tomoniga reklama yozilgan e‘lon taxtani olib, epchillik

bilan uni Bobo ustiga kiydirib qo'ydi. So'ngra qanoat hosil qilib:

– Mana, soz! – dedi.

Keyin Jerriga ham xuddi shunday ikki tomoniga e'lon yozilgan taxta ortdi. Har ikkala o'rtoqning ko'kragi bilan orqasini tizzaga tushib turgan ulkan e'lonli karton taxta bezadi. Ana shu e'lon taxtalarga yorqin va o'qlog'day keladigan harflar bilan:

OTTO ROTNI – SHERIF QILIB SAYLAYMIZ!

deb yozilgan edi.

Bizning sayyohlarimiz eslarini yig'ib ulgurmay, sigarali kishi ularni itarib, chiqarib yuborar ekan, yo'l ustida muhim ko'rsatmalar berdi.

– Hozir soat o'n bir. Agar sizlar shu zahoti yo'lga chiqsanglar soat birga qolmay Yangi Parijga yetib borasizlar. U yerda sizlar ikki soat mobaynida markaziy ko'chalarni aylanib yurishingiz kerak. Keyin, yana shu yo'l bilan orqaga qaytasizlar. Bunga hammasi bo'lib olti soat vaqt sarf qilaszlar. Biz har bir soat uchun bir dollardan haq to'laymiz. Bordiyu, siz shu oladigan mukofotni bizning partiyamiz saylov fondiga hadya qilsangiz, u taqdirda biz sizni kichik ko'krak nishon bilan mukofotlaymiz.

– Hurmatli janoblar! – deya javob nutqi boshladi odob bilan Bobo. – Biz sizning fikringizga to'la qo'shilamiz: bu chindan ham juda oddiy va kelajakka yorqin yo'l ochib beradigan ish ekan. Biz olim sifatida ana shu vazifaning psixologik tomonlarini ham e'tiborga olamiz. Hozir gap hammaga ma'lum bo'lgan reflektor jarayon ustida ketyapti. Mening sobiq o'qituvchim, bixevkorizmning asoschisi, professor Jon B. Uotson barcha eski kuzatuv usullarini irg'itib tashladi. Chunki biz onglik mavjudligini xolisaniillo isbot qilib berolmaymiz. Shundan kelib chiqib, ro'yi-rost aytishimiz mumkinki, demak, u psixologik kuzatuv ob'ekti bo'lib xizmat qila olmaydi.

Ikkinchidan, kuzatishning usuli sifatida introspeksiyaning mutlaqo kelajagi yo'q va u doimo faqat sub'ektiv tushuncha bilan to'la bo'lganidan ijobiy ahamiyat kasb etmaydi. Shu tufayli ham, biz ob'ektiv ravishda kuza-tib borilgan hayotiy hodisa va voqealarni tekshiruvga asos qilib olishimiz lozim: jumladan, odamlarning o'zla-rini qanday tutishi, axloqi, ularning tashqi ko'rinishi, qo'l harakatlari, ongli va ongsiz reflekslari, ifoda va iboralari...

– Janob, sizning nima to'g'risida gapirayotganingizga sira tushunmayapman! – xitob qildi sigarali kishi.

– Kechirim so'rayman, – yengil ta'zim bilan so'zi-da davom etdi Bobo. – Men vazifamizning, harqalay, psixologik jihatidan favqulodda katta ahamiyatga ega ekanini hisobga olib, aytmoqchi edimki, bizga umu-man ba'zi bir qulaylik tug'dirilsa, ya'ni, bir yo ikki dol-lardan berilsa maqbul bo'lardi. Biz shu chaqiriqlar-ni ko'tarib borar ekanmiz, amaliy faoliyatimiz ma'lum darajada tashqi ta'sir etish reflekslarining asta-sekin bizga kuch-quvvat berishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Jumladan, manavi ajoyib e'lonli taxta bog'langan arqon yelkamni shilib yuboryapti. Shunday qilib, psixologik kuzatuv doirasi bir jihatdan fiziologik funksiyaga ayla-nadi.

– Hali ham nima demoqchi bo'lganingizga tushun-madim! – jahl bilan dedi sigarali kishi.

Jerri botinmaygina uzr so'rab, o'zini tarjimon sifatida xolis xizmat qilishga tayyor ekanini bildirdi:

– Professor Minvegen, hamonki ana shu plakatlarni ko'tarib borib, ko'tarib kelarkanmiz, bizga ozgina xizmat haqi tegishi kerak, demoqchi.

– Mutlaqo to'g'ri, – tasdiqladi Bobo. – Men ham xuddi shunday demoqni ko'zda tutgan edim. Biz yana faqat plakatlarni ko'tarib yurish bilangina cheklanmay ma-halliy xaloyiqqa yangi sherif saylanishi naqadar muhim ekanini har tomonlama tushuntirib beramiz. Shunday qilib, biz yana psixologiya masalasiga o'tsak...

– Yo'q, unga o'tishning hojati yo'q! – qichqirdi amaldor va cho'ntagidan ikki dollar olib uni Boboga uzatar ekan:

– Mana endi, janoblar, – deya qo'shimcha qildi va sayyohlarni chiqarib yubordi, – to'g'ri Yangi Parijga boringlar. Biz ikki soatdan keyin telefon qoqib borgan-bormaganlaringni surishtirib ko'ramiz. Esda tutinglar: «Otto Rotni sherif qilib saylaymiz!»

– Otto – Sherif bo'ladi! – bir ovozda javob berishdi Bobo bilan Jerri va shaharchaning markaziy ko'chasi bo'ylab, bironta tamaddi qilib oladigan joy izlab ketishdi.

Egilmaydigan kartondan yasalgan e'lon taxtalar yurgani, kattaroq qadam bosgani xalaqit berardi.

– Bilasanmi, bu ishimiz sirayam menga yoqmay turibdi, – dedi Jerri.

– Mengayam, – javob berdi Bobo. – Lekin ilojimiz qancha! Nima ish to'g'ri kelsa, tap tortmay, hech biridan qaytmay, yopisha berishimiz kerak. Bundan tashqari, odam bolasi har baloga ko'nikadi. Turgan gap, ana shu ko'nikadigan narsa aniq mavjud gap bo'lishi kerak. Men o'qituvchilik qilib yurgan paytlarimda butunasi-ga motorli va eshituv komponentlarga asoslanmagan edim, eh, jin chalgur!..

Allaqanday xaroba kulba burchagidan otilgan chirigan pomidor Boboning taxtasiga kelib tegib, e'lonni bulg'adi-da, hamma yoqqa sachradi. Bobo yuzidan sassiq pomidor quyqalarini artar ekan, hayratdan ko'zlari pir-pir uchdi, nimadir deb ming'irladi:

– Siyosiy kurash hamisha mana shunday... Ha, aytmoqchi, men nima to'g'risida gapirayotgan edim? Eslandim, mutlaqo to'g'ri: aniq o'qituv avvalo ko'rish xotirasining inobatga olinishini taqozo qiladi. Shu kabi...

Shu dam har ikki do'st shiddatli otishma ostida qoldi. Hamma tomondan ular boshiga sasigan pomidor bilan palag'da tuxumlar yog'ila boshladi. Bechora sayyohlar o'zlarini allaqanday oziq-ovqat do'koniga urib, jon saqlamoqchi bo'lishdi. Do'kon egasi ularni

hatto ostonaga yaqinlashtirmadi. Shovqin-suron ko'tarib, sayyohlarni quvib chiqardi:

– Men respublikachilarga tarafdor emasman! Men o'sha muttaham Rotlarningning dumi ham emasman!..

– Bizlar ham uning dumi emasmiz... – deya izoh berishga oshiqdi Bobo, ammo kichik shaharchaning siyosiy ongli do'konchisi shoshilinch to'qilgan yolg'on va hiyla-nayrangni yomon ko'rardi.

– Yo'qolinglar bu yerdan! – bo'kirib berdi u. – O'sha Yangi Parijlaringga tuyoqlaringni shiqillatib qolinglar! Rotning tarafdorlarini o'sha yerdan topasiz!

Siyosat girdobiga tushib qolgan ikki daydi ikki qo'llarini burunga tiqib, katta yo'lga quruq qaytdilar va jadal qadam tashlab g'arbga qarab ketdilar. Shaharcha ancha orqada qolib ketganidan keyin Jerri ustidagi karton sovutni olib bir chetga uloqtirib yubordi.

– Mening siyosiy faoliyatim shu bilan tamom bo'ldi, – dedi u.

Bobo ikkilanib, taraddud ichida qoldi.

– Bizlarga, axir, buning uchun xaq to'lashdi-yu...

– Baribir. Sen ham ustingdagi kuchuk inini irg'itvor! Bobo hamon ikkilanardi.

– Ular bizdan pulni qaytarib berishni talab etishlari mumkin.

– Biz ikki dollarga arzigulik xo'p qiynaldik.

– Buning bizga faqat foydasi tegishi mumkin. Ke, kelishib olaylik: ikkalamiz mening sovutimni galma-gal ko'tarib boramiz.

Jerri yelkasini qisdi. Sayyohlar yo'lida davom etdilar. Ular yonidan g'izillab o'tgan mashinalardan odamlar Boboning plakatiga qarashardi. Plakat bo'yog'i tuxum sarig'idan pomidorning qizil yuqidan yana ham boyib, rangi ko'zni qamashtirib, ta'sir kuchi o'n barobar oshib ketgandi. Professor Minvegen hatto eng mayda-chuyda narsalarda ham sodiq qolishga o'rgangan odamlar toifasiga kirardi. Shu sababdan u siyosat maydonida hech qachon yuqori pog'onaga ko'tarila olmasdi. U faqat

mana shu ishga – soatiga bir dollar olib plakat ko'tarib yurishga yarardi.

Asta-sekin havo ilib borardi. Bunday yoqimli charaqlagan va mayin kuz kunida telefon simlariga qo'nib turgan chug'urchuqlar ham tinmay sayrardi. Atrof-tevarakdagi manzarani g'oyat ulkan reklama taxtalari butunlay to'sib qo'ygandi. Har yer-har yerda, yo'l yoqasida sayyohlar diqqat-e'tiboriga havola qilingan yozuvlar ko'zga tashlanardi. Ulkan ko'rsatkichlar tarixiy joyni ko'rsatib turibdi. Joyda bejirim stol va o'rindiqlik turar, uning yoniga marmar xotira taxta o'rnatilgan edi. Marmar taxtaga:

**BU YERDA BIR MARTA PREZIDENT
TRUMENNING JIYANI NONUSHTA
QILGAN EDI**

deb yozib qo'yilgandi.

Turistlar ham shu yerda to'xtab, tamaddi qilishardi. Ulardan qolgan konserva bankalari, qogoz va pivo shishalari shundaygina uyulib yotardi. Ba'zi joylarda turistlardan bulardan ko'ra ham sezilarliroq iz qolgandi – o'rmon ichidagi yong'in qoldiqlari ko'zga yaqqol tashlanardi.

– Hozircha bizning o'z tariximiz yo'q, – deb qo'ydi o'zi-cha Bobo. – Uni yaratishga to'g'ri keladi. Bing Krosbi yo'l-yo'lakay bir kirib o'tgan har bir mehmonxona, sohildagi cho'miladigan joy yoki mayxona rasmiy ravishda tarixiy joy, deb e'lon qilinadi. Rudolf Valentino mingan mashina o'rta asrimizni aks ettiradi. Prezident Linkolning etigi – qadimiy tariximizni, Kolumb foydalangan qum soati – dastlabki paleolit davrini ifodalab beradi. Shundan ma'lum bo'ladiki, bizning tariximiz ham xuddi Yevropa tarixiga o'xshagan juda qadimiy tarix. Mana ko'ryapsanmi, bularning bari ma'lum darajada nisbiy. Biz hozir, bir hafta ichida keksa dunyo ming yil mobaynida qo'yan tarixiy xotiralarga qaraganda ko'proq

yodgorlik o'rnatib ulgurayotibmiz. Yevropaliklar Rimdagi Forum, o'rta asr qasrlari, qadimiy qo'lyozmalar va antik dunyo haykallari bilan faxrlanadilar. Bizda ham o'zimizning noyob tarixiy faxrlanadiganlarimiz bor: Fordning birinchi avtomashinasi, Al Kaponening xanjari, Uolt Disneyning ilk suratlari, Gloriya Suonsonning birinchi kinofilmga tushayotganda bog'lagan paypoq bog'ichi shular jumlasidandir. Har bir o'smir ham o'z tarixiga ega. To'g'ri, bu tarix g'oyat qisqa, bir marta orqaga o'girilsang, hammasini bir yo'la ko'z ilg'ab oladi. Lekin shunga qaramay, tarix bu...

– Qornim ochib, ko'nglim ozib ketyapti, – uning so'zini bo'ldi Jerri. – Nazarimda, so'nggi marta og'zimizga ovqat olganimizdan buyon butun bir tarixiy davr o'tdi.

– Rost aytding, bizning muskul mexanizmlarimiz katoriyaga g'oyat muhtoj. Lekin bu g'al ochlik balosi bizni unchalik qiynamaydi. Cho'ntagimda har biri bir dollarli ikki qog'oz pulimiz bor. Ular kishining ko'nglini to'q tutib, yaxshi kayfiyatning nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi, agar shunday deb aytish joiz bo'lsa, qadr-qimmatimizning tub mohiyatini tashkil etadi.

Jerri bu gaplarni xuddi to'ng'iz momaqaldiroqqa qu-loq solganday eshitdi va biron nima deb javob bermadi. Shu choq ularning ko'zi oldida ulkan reklama namoyon bo'ldi:

DUNYODAGI ENG YAXSHI KOTLETLAR

Ko'rish a'zolari shu lahzaning o'zidayoq tanadagi butun ta'm organlariga shoshilinch xabar yetkazdi, so'laklar oqib, ishtaha karnay chalib yubordi, oyoqlar jadal yurib ketdi. Jerri hamkorlik his-tuyg'usini ham unutib, Boboni ortda qoldirib, allaqachon oldinga yo'rg'alab o'tib ketgandi. U bor-yo'g'i ikki marta orqasiga o'girilib qaradi, xolos. Bobo e'lon taxtalari yelkani ostida uzoqdan xuddi katolik yepiskopining tantanali ibodat vaqtida kiyadigan kiyimida kelayotganga o'xshardi.

Ana shu ulkan reklama ostiga allakim eski avtobusning kuzovini tashlab ketgandi. U hozirgi zamon tipidagi restoran qilib qayta jihozlanib, xo'randalar ovqatni avtobus oynalaridan olar edilar. Uning ichiga kichik stol, idish-tovoq yuvadigan bachok, ko'chma oshxona va asli o'zi yunon bo'lgan restoran egasi qizi bilan joylashgan edi. Ular sinovchan nazarda ikki sayyohdan ko'z uzmay qarab turishardi.

– To'rtta kotlet va qahva! – qichqirib dedi Jerri.

Restoran egasi darhol ishga kirishib ketdi, bu savdo korxonasining firma viveskasi xizmatini o'tovchi – xo'jayinning qizi avtobusning ochiq oynasidan boshini chiqarib, mijozlar bilan gaplasha boshladi. Uning ko'zlari g'oyat chiroyli edi. Bu ko'zlar tug'ilgan kuniyoq unga ota-onasidan tekkan sovg'a bo'lib, keyinchalik ular modaga muvofiq ko'zoynak ramkasiga solingan edi. Qizcha hozir har daqiqada: «ah», «voy», «hayot biram yaxshiki», «turgan-bitgani romantika!» deb xitob qilinadigan yoshda edi. U g'oyat go'zal va lagofatli qiz edi. Biroq Jerrining fikricha, u jim o'tirganda bundan o'n chandon go'zalroq bo'lardi.

– Sen qayoqqa ketyapsan? – so'radi u Jerridan o'zining bir tekis yasama tishlarini ko'rsatib.

– G'arbga...

– Undog' bo'lsa, mashinang qani?

– Ta'mirda...

– Voy-bo'! G'arbga hali judayam uzoq-ku! Mening otim Ira. Seniki-chi?

– Garri Kuper... Erga tegmaysanmi menga?

Qizning uzun kipriklari, xuddi jajji supurgiday ko'zoynak shishalarini ich tarafdin jadal supurib chiqdi.

U dadasiga yashirin nazar tashlab olib, shivirladi:

– Dadamni tashlab ketolmayman. Unga yordam berishim kerak. Bu ahmoqona gap, albatta. Umuman, ishni jinim sevmaydi, o'larday yomon ko'raman. Sen mashinangni qachon olib kelasan?

– Ertaga.

– Voy! Men jon deb, bu yerdan jo'nab ketardima! Menga qara, senda pul ham ko'pdir?

– Sira sanagan emasman.

Jerri bu o'yinni davom ettirmoqchi edi, lekin shu fursat e'lon taxtalarining og'irligidan parovozday harsillab qolgan Bobo ular yoniga yetib keldi.

– Hoy qizcha! Bu yerdan Yangi Parijgacha yana qancha yo'l qoldi?

– Men bilmayman. Hozir dadamdan so'rab, bilib beraman.

– Olti yarim mil, – javob berdi yunon pazanda sochsiz boshlaridan yog'li terlarini sidirib tashlarkan.

Past bo'y, boshida bir tuki yo'q restoran egasi sayyohlarga o'zining mohirlik bilan yaratgan san'at asarini uzatdi va aziz-avliyolar nomiga qasam ichib, kotletga ot go'shti yoki cho'chqa jigarini solmasligini ta'kidladi. U mijozlarining ovqat yeyishlarini tomosha qilib, birpas ular yonida turdi. U orasira hammayog'i dog' bo'lib ketgan Boboning kiyim-boshiga ko'z tashlab olardi.

– Janoblar, sizlar, chamasi, respublikachilar bo'lsangiz kerak, a?

– Topdingiz, – dedi Bobo.

– Bu yerda asosan demokratlar yashaydi. Ammo Yangi Parij hamisha respublikachilarning tayanchi bo'lib kelgan.

– O'zingiz demokratmisiz? – o'z navbatida so'radi undan Jerri.

Restoran egasi qo'llarini yozib, quvlik bilan javob qaytardi:

– Men bor-yo'g'i kommersantman. Hamma bilan ham yaxshi munosabatda bo'lishni istayman. Men uchun demokrat ham respublikachi singari mijoz, respublikachi esa demokrat kabi xo'randa.

Kotletlar juda mazali edi, ammo uning bahosini eshitib, Boboning kapalagi uchib ketdi. U hisob-kitob yozilgan qog'ozni qo'lida aylantira-aylantira, oxiri zo'r-bazo'r dedi:

– Shunday bo'lishi mumkinmi, a? Uch dollar-a!

– Janoblar, – javob qildi xo'jayin. – Men sizlarga buning sababini jon deb tushuntirib beraman. Birinchidan, men faqat a'lo navli, sof xom ashyodan foydalanaman. Agar men ham anavi yo'l yoqasidagi boshqa qovoqxonalarning egalari kabi muttahaam savdogar bo'lganimda quvlik qilib, xo'randalarni aldash yo'lini topardim: ya'ni yo'ldan mashinalar bosib ketgan quyon, bo'rsiq, sug'ur, it va qirg'ovul o'ligini yig'ib kelib, hammasini kotletga ishlatardim. Shunday qilsam, men o'z raqiblarimdan ko'ra ovqatni arzonroq sotgan bo'lardim.

Bu daraja tubanlikka tusha olmayman, ha, bunday pastkashlik mening qo'limdan kelmaydi. Ikkinchidan, bu joy tarixiy joy. Xuddi mana shu yerda Meri Pikford mashinasi g'ildiragining dami chiqib ketgan edi. U usta kelishini qariyb uch soatdan mo'iroq kutib o'tirdi. Bu voqea bir ming to'qqiz yuz o'n to'qqizinchi yilning uchinchi sentabr kuni yuz bergan edi. Va nihoyat, uchinchidan, mana shu restoran qilib qayta jihozlangan avtobusning o'zi ham tarixiy avtobus. Butun jahonga mashhur gangster Dillinger xuddi mana shu avtobusda ushlab olingan edi. Shu barcha asoslarni jamlasak va e'tiborga olsak, to'rtta kotlet, ikkita qahvaning bor-yo'g'i uch dollar turishi kishining kulgisini qistatadi va u suvtekin, albatta!

– Menda atigi ikki dollar bor, – dedi itoatkorlik bilan Bobo.

– Garrining puli ko'p, – so'z qistirdi qizcha.

– Qanaqa Garri? – so'radi undan dadasi.

– Dadajon, Garri Kupernida.

– Albatta, unda pul ko'p bo'lsa kerak, taxminimcha, – dedi Bobo. – Lekin, afsuski, bizda yo'q.

Qisqagina maslahat majlisidan keyin ular umum bir to'xtamga keldilar. Bobo e'lon taxtasining old tomoniga, saylov shiori ustiga qovoqxona egasining kamtarona afishasini yopishtirib olishga rozi bo'ldi. Unga «Gregori Kallimaxosning kotletlari butun olamga mashhur» deb

yoʻzilgandi. Boboning orqasidagi ikkinchi saylov shiori shu qadar pomidordan bulgʻanib ketgan ediki, hatto unga nima deb yozilganini oʻqib boʻlmasdi. Kallimaxosning tarixiy avtobusidan oʻn chaqirimcha uzoqlab ketishgach, Bobo ustidagi karton gʻilofni yechib, Jerriga koʻtarib borishni taklif qildi. Biroq xiroamaliyotchi oʻzini siyosiy kurashga mutlaqo aralashmasligini aytdi:

– Arqon boʻynimni shilib yubordi, – dedi Bobo. – Boʻynim ogʻriyapti. Maʼlumki, ogʻriq nazariy jihatdan yomon kayfiyatning asosi boʻlgani sababli, seni yordam bermayotganingdan gʻoyat gʻazabim qoʻzib ketyapti. Ma, hech boʻlmasa besh daqiqa koʻtarib bor.

Jerri reklama sovutini yoʻlni oʻrab turgan toʻsin panjarasi ustiga qoʻyib, tevarak-atrofga qaradi, shundan keyin jonga tekkan bu ogʻir yukni – oʻzlariga keraksiz dahmazani pastga, uncha chuqur boʻlmagan jarlikka uloqtirib yubordi-da, Boboning qoʻlidan ushlab, koʻngli yengil tortdi va:

– Bu muammoni Kolumb ham xuddi ana shunday hal qilgan boʻlardi, – dedi.

Psixologning yuzlari yorishib ketdi, u deyarli qichqirib:

– Jerri! Sen bebaho odamsan! – dedi. – Sen meni ezayotgan ogʻir iztirobdan xalos etding. Ochigʻini ayt-sam, shu dahmaza deb it azobini yedim. Bu dastlabki biologik reaksiya boʻlmay, balki ongli ravishda erishilgan va mening aqliy hayotimning faol tendensiyasini siqib chiqargan juda murakkab emotsiya bilan yaqindan bogʻliq edi.

Jerri: «unga nima javob bersamikan?» deb oʻylab, jim qoldi. Katta yoʻl olgʻa chorlardi. Har zamon-har zamonda ular bosh barmoqlarini koʻtarib iltimos qilishar, ammo mashinalar toʻxtamay, yel quvib yonlaridan oʻtib ketardi. Nihoyat, eskigina bir kichik yuk mashinasi, taxminan Bobo bilan bir yoshda boʻlsa kerak, ular yoniga yetganda toʻxtadi. Mashinadan oʻrta yoshli, jussador,

keng yelka, yuzini oltin izlovchilarnikiga o'xshash soqol qoplagan erkak tushdi.

– Qayoqqa ketyapsizlar? – so'radi u daydilardan.

– Yangi Parijga, iloji bo'lsa undan ham nariroqqa. Basharti yo'l-yo'lakay ola ketishning imkoni bo'lsa, – dedi Bobo.

– U yoqqa yo'lim tushmaydi, – javob berdi yo'lovchi. – Qayoqdan kelyapsizlar?

– Nyu-Yorkdan.

Yo'lovchi Bobo bilan Jerrining kiyim-boshiga bir nazar tashlab, qo'lini qo'yniga tiqdi-da, birdan to'pponchasini oldi. Tishlari orasidan g'ijinib:

– Agar meni talashni xayol qilayotgan bo'lsanglar, yanglishasizlar, azizlar, – dedi.

– Yo'q, janob, yo'-g'e, sizni qarangu, – javob berdi qal-tirab Bobo, – bizlar halol, sof odamlarmiz. Hech kimga yomonlik qilmaymiz. Agar malol kelmasa, bizni ola ke-ting, parvardigor sizni o'z panohida asrasin.

– Demak, sizning pulingiz yo'q?

– Bir miri ham, janob.

– Bo'lmasa, biron hunaringiz bordir?

– Bizlar professorlarmiz, janob.

U to'pponchasini qo'yniga solib qo'yib:

– Bu hamma narsaga aniqlik kiritdi, – dedi. – Qani, orqa o'rindiqqa o'tiringlar. Men sizlarni Yangi Parijga cha eltib qo'yaman.

Mashina g'ijirlab, taraqa-turuq qilib yo'lga tushdi. Orqa o'rindiqqa qoplangan matoning siyqalanib yirtilib ketganidan past-baland prujinalari xuddi po'lat ju-voldizday chiqib turar va Jerrining dumbasiga dam-badam sanchilib, hadeb sakrab tushardi.

– Bugun Yangi Parijda ajoyib kun, – dedi mashina haydab ketayotgan yigit.

– Ha, albatta, – gapga qo'shildi Bobo oradan bir daqiqa o'tmay, yorqin saylov reklamalarini va namo-yishchilarning jonli oqimini ko'rishga shaylanib.

– Yangi Parij – yaxshi shahar, – davom etdi so‘zida mashinaning egasi, – uning aholisi juda taqvodor, xudojo‘y odamlar.

– Respublikachilar bo‘lsa kerak-a, ular?

– Ha, albatta. Innaykeyin, xudodan qo‘rqadigan batavfiq odamlar. Shaharda o‘n oltita cherkov bor.

– Aholisining soni qancha? – so‘radi qiziqib psixologiyaning sayyor jonkuyari.

– Olti yuzga yaqin. Bundan ham kam bo‘lsa kerak. Biz yolg‘onni sira hazm qila olmaymiz.

Oraga bir daqiqali sukunat cho‘kdi. Shundan keyin oldingi o‘rindiqdan muhim yangilik ilova qilindi:

– Bugun tevarak-atrofdagi barcha fermerlar Yangi Parijga yig‘ilishadi. Bu biz uchun g‘oyat muhim, sharafli kun.

– Yaxshiyamki, bugun havo bunday ochiq va so‘lim, – so‘zga aralashdi Jerri.

– Ob-havoning hech qanday ahamiyati yo‘q, – dedi mashina egasi. – Faqat ruhda. O‘lmas Ruhda gap.

– Ha, bu shaksiz! – dedi Bobo va fermer qo‘yniga tiqib qo‘ygan to‘pponchadan qo‘rqishni ham unutdi. – Ruhsiz hech qanday mavjudotning yashashi mumkin emas.

– To‘g‘ri, mumkin emas, – uning so‘zini tasdiqladi yigit, keyin mashina yurishini sekinlatib so‘zida davom etdi: – Eshitishimcha, hozir Nyu-Yorkda odamlar gunohga botib hayot kechirishayotgan emish-a?

– Ha...

– U yerda xudoga mushukning dumini nazr qilisharmish.

– Shunday...

– Odamlar faqat iblisga xizmat qilisharmish.

– Ehtimol...

– Demak, demokratik hukumatining oyog‘i osmondan bo‘larkanda! Mana, yetib keldik. Men mashinamni manavi yerga qo‘yaman. Miting shaharning markazida bo‘ladi. Bu yerdan qayrilib, to‘ppa-to‘g‘ri janubga qarab ketaverasizlar.

Jerri bilan Bobo mashinadan tushib, kelajak hayotini yong'in xavfidan sug'urta qildirgan g'oyat jiddiy qiyo-fali fermega tashakkur va minnatdorchilik bildirdilar.

Yangi Parij namunali, mukammal, kichik shaharcha edi: uning odamlari ko'rgandan ko'ra ko'proq eshitgan, tosh bosmaydigan veksellarni hech qachon olmaydigan, o'z fikrida qat'iy turadigan, xudodan qo'rqishlarini erkaklarning soqollariyu, ayollarining tizzadan baland bo'lmagan etaklari ravshan ko'rsatib turgan shaharcha edi. Xotinlar paypog'i XII asrda Fransiyada ixtiro etilgan. Ammo Yangi Parijda uning borligini bundan faqat o'ttiz yil burun bilishgan edi. Yangi Parij yana taqvodor odamlari va yaxshi pishlog'i bilan mashhur edi. Asli o'zlari golland bo'lgan shahar aholisi cherkovga qarashli qavmning xayriya bozorlarida sotish uchun va butun okrug bo'ylab doimo aylanib yuruvchi ruhoniy padarlari-rining nonushtasi uchun ajoyib pishloq tayyorlar edilar. Shaharda hammasi bo'lib to'rtta mayxona bor edi, ular diniy bayram va saylov kunlari ishlamas edi.

Bizning daydilarimiz shahar markaziga qarab ketishdi. Ular bu yerda qabristondagiday jimlikni ko'rib ta-ajjublandilar. Na ko'cha namoyishlari, na radioavtomobillar, na koka-kola sotuvchilar bor edi. Endigina kech kira boshlaganiga qaramay, oz sonli do'konlarning hammasi yopiq edi.

– Bu joyning hech qayeri Parijga o'xshamaydi-ku? – deb qo'ydi Jerri.

– Xuddi shuning uchun ham unga Yangi Parij deb nom qo'yg'an bo'lishlari kerak, – javob berdi Bobo. – Shahar aholisi, balki saylovchilar mitingiga ketgandir! Menimcha, shunday! Ana qaragin-a!

Katta markaziy maydonga yarim mingga yaqin odam yig'ilgan edi. Ular orasida yoshlar va kattalar, serso-qollar va soqolsizlar, chiroyli-yu xunuklar, zabardast pahlavon va joni omonat nimjonlar, boy-badavlat va qashshoq-yo'qsillar, halol hamda faqat yurist bo'lish uchun tug'ilganlar, chalasavod-u savodsizlar, umu-

man, shu taqlid olaquroq odamlar bor edi. Ularning mushtarak sifat, ezgu fazilati batavfiq va xudojo'yligi edi. Ularning avtomobillari yigirmanchi asrning birinchi yillaridan salom yo'llar, jiddiy qiyofalari esa olamda katexizis mavjud ekanini eslatib turardi.

Jerri bilan Bobo ularga yaqinroq borishdi. Allaqanday erkak ularga maydon markazida uyulib yotgan kitoblarni ko'rsatib:

– O'sha yoqqa olib boringlar! – dedi.

– Nimani olib borishimiz kerak? – so'radi Bobo.

– Tavrotning buzilgan nashrini, – dedi u yo'g'on ovoz bilan. Uning soqollari silkinib ketdi.

Falakning har qanday kutilmagan o'yinlariga o'rganib ketgan daydilar maydonning o'rtasiga borishdi. Bu yerga tinimsiz kitob olib kelishardi. Ular, hech shubhasiz, jahon adabiyotining bestsellerlari bo'lsa kerak. Boy odamlar bir necha nusxa, kunini zo'rg'a ko'rayotgan faqir-bechoralar bir yoki nari borsa ikki nusxadan olib kelardi. Daydilar kitob uyumi yaqinginada tarjima qilinib, nashr etilgan tavrotning so'nggi nusxalari ekani ni fahmlab olishdi. Chamasi, tavrotning bu yangi nashri mahalliy aholi qalbini chuqur yaralaganga o'xshardi.

Kitob tog'ining balandligi o'ttiz olti futga yetganda bir necha tomondan unga benzin bilan kerosin sepib chiqildi. Shundan so'ng xaloyiqdan sal orqaga chekinishni iltimos qilishdi.

– Bu vahshiylik-ku, – Bobo Jerrining qulog'iga shivirladi. – Agar bunga psixologik nuqtai nazardan qaralsa, bu ko'ngilchanlik tufayli yo'ldan ozish, g'ayritabiiy mayl demakdir. Shaharning hurmatli kekxa fuqarosi, o'tgan yilgi saylovda berilgan barcha ovozning 88 foizini olishga muyassar bo'lgan Piter Svikker yulduzli bayroq bilan bezatilgan minbarga ko'tarildi. Uning qo'ltig'ida ikki tavrot bo'lib, biri 1794-yilda, ikkinchisi 1952-yilda bosilgan edi. Uzoq davom etgan olqishlardan so'ng mister Svikker so'z boshladi:

– Fuqarolar! Mana, mening qo'limda ikkita tavrot turibdi. Mana, ko'ringlar! Ulardan biri – muqaddas tavrot, ikkinchisi – Trumen hukumati davrida buzib nashr etilgan shakkok nusxa. Bu qalbaki kitob xuddi boshqa axloqsiz adabiyotlar singari mazax va tahqirlash darajasida arzon-garovga sotilmoqda. Ana shu buzib nashr etilgan nusxaning noshirlari so'z boshi yozib, makkorlik bilan biz Amerika xalqiga til jihatidan hozirgi zamon tiliga monand, tashqi bezagi jihatidan bekamu ko'st tavrotni taqdim etishni oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz, deyishadi. Mana, uning tashqi ko'rinishini olib ko'raylik, muqova reklama vaqtida va'da qilingan sof echki terisi bo'lmay, balki o'shanga taqlid, o'shanga o'xshagan ko'rinishga ega, xolos. Biz bunday pastkashlikka chidashimiz mumkin edi, chunki bu qalloblikda hech qanday yangilik yo'q. Demokratik partiya hamisha o'z terisini shunday almashtirib keladi-da. Hozir gap matn ustida boryapti! Bu – muqaddas yozuvning tili emas, bu – biron til toifasiga kirmaydigan hozirgi zamon amerika tilining o'zginasi! Bizga hech qanday yangi tilning keragi yo'q! Shu sababdan, qimmatli hamshaharlar, hozirgi zamon yangi tili o'tda yonib, kuli ko'kka sovurilgani yaxshi! Qavmimizning pastori ishonch bilan qayd qiladiki, tavrotning ana shu yangi tarjimasi insoniyatni to'ppa-to'g'ri do'zaxga olib boradi.

Mister Svikker so'zidan to'xtashga majbur bo'ldi, chunki uning fikri kutilmaganda umumxaloyiq fikriga aylanib, olomonning shov-shuvida o'z aksini, hayotiy kuchini topdi. Gazetalarning suratchi muxbirlari minbar atrofini o'rab olishdi. So'nggi axborot magnitofonlari ochko'zlik bilan jamoat fikrini to'plardi. Mister Svikker so'zida davom etdi:

– Qimmatli tinglovchilar, biz chin boisini aniqlamay turib, hech kimni qoralay olmaymiz. Shunga ko'ra, men sizlarga har ikki kitobni solishtirib ko'rishni taklif etaman. Qani, yaxshilab quloq solinglar! Avvaliga haqiqiy tavrotidan bir shingil o'qib beraman. Keyin shu joyning

o'zini buzib nashr etilgan ikkinchi kitobdan o'qib, naqadar qo'pol xatoga yo'l qo'yilganini namoyish qilaman. Qani, quloq beringlar! Mana, oldimda Kuyov majoziy uslub birla go'zallikni ko'klarga ko'tarib maqtagan joy. Sulaymon qo'shig'i. Bu aslida manavinday o'qiladi:

«...Shafolat ato et, mahrami yorim, shafolat ato et; kabutar nigohing ma'sum, loli kalominingdek; zulfig biaynihi Galaada bag'rini makon etgan g'izol. Dandoni bakoming bamisli gusl amal etmish podan go'sfand musoviydirkim, alar nuqsu qusurdin forig'dir...»

Mnster Svikker kitobni yopib, ikkinchisini ochdi.

– Do'stlarim, sizlar, asl valiyalar so'zini, chinakam muqaddas yozuvni eshitdingiz. Biz bundan chekinishimiz, voz kechishimiz mumkinmi? Mana endi uni buzib nashr etganlar nima deb yozganini eshitinglar;

«...Nigoh ayla menga sevgilim! Qanday go'zal, lato-fatlisan! Ko'zlaring ohu ko'zlariday porlab turibdi. Ipakday yumshoq soch tolimlaring Galaa tog'i yon bag'rida erkin yayrab yurgan qo'zichoqlarning mayin yunglariga qiyos qilguday. Inju kabi saf tortgan oppoq tishlaring yangi ko'z ochgan musaffo va ma'sum qo'zichoqni eslatadi. Ular orasida bironta kemtik yoki qusur yo'q... »

Mister Svikker kitobni taq etib yopib, ovozini balandlab so'zida davom etdi:

– Shu ham yetar, deb o'ylayman! Trumen hukumati xudoyi taoloning muqaddas so'zlarini qay darajada qo'pol ravishda buzganini hammangiz o'z qulog'ingiz bilan eshitdingiz. Yana, aziz-avliyomiz Bibi Maryam to'g'risida so'z borganda bu shakkoklar xotin degan so'zni qo'llaganlarini aytsam tavrotning qo'pol buzilganiga hech shubha qolmaydi, uni isbotlab o'tirishga ortiqcha dalil ham kerak emas! Lekin shunga qaramay, tasodifan biron xatoga yo'l qo'ymaslik uchun Yangi Parijning va uning tevarak-atrofida yashovchi aholidan so'ramoqchiman, qani aytinglar-chi, ichingizda biron kishi bormi, shu marazni darhol o'tga tashlashga rizo bo'lmasin!

Olomon jim turardi. «Vahshiylik», deb shivirladi Bobo. Uning ovozi Jerri qulog'idan nari o'tmadi. Mister Svikker olomonga ko'z solib chiqib, boyagidan ham qat-tiqroq qichqirib xitob qildi:

– Agar kimki iblisga xizmat qilishni xohlasa «men!» deb aytsin va o'rtaga chiqsin!

Bunday deyishni istovchilar bo'lmadi. Mister Svikker ovozini bundan ham balandroq ko'tarishga tirishdi:

– Kimki qodir egamga uning o'z tilida xizmat qilishni xohlasa: «O'tga tashlansin!» deb xitob qilsin!

Yarim ming og'iz kuchlari boricha:

– O'tga tashlansin! – deb hamma yoqni larzaga soldi.

Mister Svikker salmoqli qadam bilan minbardan tushib keldi-da, cho'ntagidan o't yondirgichni olib, kitob uyumiga o't qo'yib yubordi. Kerosin va benzin sepilgan kitob uyumi shu zahoti lov etib yondida, ulkan uzun alanga tilini chiqarib gurillab ketdi. Shahar ahli orqalariga chekina boshladi, oldingi qatorda turganlar keyingi qatorni orqaga surib, davra behad quturayotgan dahshatli yong'in tafti va alangasidan tobora kengaya bordi.

Shu fursatda minbarga hayajon ichida bir yosh yigit yugurib chiqib, qizishib, o'zini kutubxonalarni tekshirish bo'yicha Milliy komitetning vakili deb tanishtirdi. U qo'lidagi qog'ozdan quyidagi nutqni o'qib berdi:

– Tekshirish bo'yicha Komitetning vakili sifatida, hurmatli shahringiz aholisiga birato'la boshqa yaroqsiz adabiyotlarni ham o'tga tashlashni taklif etaman. Fransuz, nemis, italyan va rus tillaridan tarjima qilingan barcha kitoblarni bir daqiqa kechiktirmay o'tga tashlash kerak. Bizning sog'lom va sof madaniyatimiz har xil Moraviyalarga, Anatol Franslarga, de Mopassanlarga, Lev Tolstoylarga, Geyne va shunga o'xshagan xalqni buzib, yo'ldan ozdiruvchi qalamkashlarga zor emas. Yo'qolsin tarjima adabiyoti! Uylarimizning va mamlakatimizning kutubxonalarini shunday kitoblardan tozalaymiz! Bu

ishimiz – qariyb yigirma yildan beri axloqsizlik tegirmoniga suv quyib kelayotgan demokratlar hukumatiga bizning eng yaxshi norozilik namoyishimiz bo‘ladi!

Yigit qo‘lidagi qogozini cho‘ntagiga tiqib, minbardan tushdi. Shahar ahli birin-ketin tarqala boshladi. Ba’zilar o‘zlarining kitob javonlarini tekshirib ko‘rgani, boshqalari Frenk mayxonasi yoki «Uch qirol» qovoqxonasiga yo‘l oldilar. Uylarida kitob javonlari bo‘lmagan yoki cho‘ntaklari mir quruq fuqaro bir qultum viski bilan o‘zlarini aldab, jamoat yo‘li bilan uyushtirilgan tekin tomoshadan lazzatlanish bilan cheklandilar. Shu so‘nggi toifadagi odamlar orasida olam fuqarosi Jerri Finn bilan psixologiya professori Boris Minvegen ham bor edi. Sal o‘tmay, bu yerda demokratlar va liberallarning ham borligi ma‘lum bo‘lib qoldi. Kimdir o‘z fikrini ovoz chiqarib aytishga jur‘at etdi:

– Tarix yana takrorlanmoqda. Yangi Parij o‘rta asrga qaytmoqda.

Kim gapirayotganini ko‘rgani hamma o‘sha tomonga o‘girildi. Gapirayotgan odam novchadan kelgan, tashqi ko‘rinishidan yoshi o‘ttizdan ko‘ra yigirmaga yaqinroq bo‘lgan, yuz-ko‘zi oqarib ketgan yigit bo‘lib chiqdi. Bobo uning yoniga kelib, xuddi tanish odamdek unga dedi:

– Bunday xatti-harakatni psixologik amalga oshiruvchi kuch odamning ishqibozligi va odatiga bog‘liqdir. Insondagi fikrlash jarayoni irratsional – aql bovar qilmas, ya‘ni beqiyos va ongsiz omillar ta’siri ostida shakllanadi.

– Men sizning nuqtai nazaringiz adolatli ekaniga ishonaman, – dedi yigit. – Mening familiyam Veynberg. Doktor Ernest Veynberg.

– Men professor Boris Minvegenman. Siz bilan tanishganimdan behad xursandman, doktor.

– Familiyangizga qaraganda, aftidan, siz nemis bo‘lsangiz kerak, a?

– Ayni haqiqatni aytdingiz. Mening ota-onam Amerikaga Gamburdan ko‘chib kelishgan.

– Mening ota-onam esa Berlindan kelishgan. O'sha paytda men atigi olti oylik chaqaloq ekanman. Ruxsat eting, bir shisha pivo bilan mehmon qilay?

– Jonim bilan, doktor.

Bobo o'zining yangi tanishiga Jerrini tanishtirdi:

– Professor Finn, tillar bo'yicha o'qituvchi va xiroamaliyotchi.

– Shotlandiyalik bo'lsalar kerak? – so'radi doktor Veynberg undan.

– Yo'q, Finlyandiyadanman, – javob qildi Jerri.

– Juda soz. Endi qayoqqa yo'l olyapsizlar, janoblar?

– G'arbiga, – dedi Bobo.

– Mashinangiz qani?

– Bizga atalgan mashinani hali zavod ishlab bergani yo'q, – jilmaydi Bobo.

– Yaxshi, unday bo'lsa, ruxsat etinglar, men sizlarni ola ketay. Men asli o'zim Detroytda turaman, bu yerga qarindosh-urug'larni ko'rgani kelgan edim. Qani, ketdikmi?

– Detroytgami? – so'radi Jerri.

– Yo'q, qovoqxonaga. G'arb tomonga bir necha mil-ya yo'l yursak, Payk Leyk degan bir qishloq keladi, ana o'sha yerda xotirjam suhbatlashmoq uchun hamma qulaylik bor.

Ularning uchovlari mashinaning oldingi o'rindig'iga o'tirib, Yangi Parijdan chiqib ketishdi.

– Sizlar G'arbiga nimada va qanday yetib olishni mo'ljallab turibsizlar?

– Oyoq va bosh barmog'imiz vositasi bilan, – javob berdi Bobo.

Mashina egasi iljayib qo'ydi:

– Bundan chiqdi, sizlar talabalar bilan raqobat qilar ekansizlar-da?

– Faqatgina sayohat bobida.

Mister Veynberg yonboshdagi torgina yo'lga burildi. Bu ko'chaning ham har ikki betidagi reklama taxtalari olamda tengi yuq pivoni maqtardi. Doktor aytgan qu-

lay joy «Kichik Germaniya» deb atalar ekan. Bu ovchilar uyiga o'xshagan yo'l yoqasidagi restoran – allaqanday amerikalik nemisga qarashli edi. Bobo doktor Veynbergning psixolog ekani, u Detroytdagi avtomobil zavodiga qarashli zavod hunar maktabida amaliy psixologiyadan dars berishini eshitib, shu zahoti materiyalar haqida gap boshlab qoldiki, Jerrini mudroq bosib ketdi. U yarmarkaga kirib qolgan gadoy singari javraqi chiqib qoldi. Beshinchi krujka pivo ichib bo'lingach, u yana mudray boshladi, uning bu holati hamtovoq o'rtoqlariga psixologiyaning tubsiz o'p'qoniga tushib ketishga qilcha xalal bermadi. Jerri uyg'onganda do'stlari ham uyg'onishdi. Quyosh allaqachon o'z chirog'ini o'chirgan, esi joyida fuqaro orom olgani uy-uylariga tarqalgan edi. Boboning rasman ko'rsatgan qarshiligiga qaramay, doktor Veynberg barcha xarajatni to'lab, yangi tanishlariga oq yo'l tiladi-da, bir damda g'oyib bo'ldi.

– Xo'sh, endi nima qilamiz? – ojiz ohangda so'radi Jerri.

Bobo yelkasini qisdi.

– O'zim ham hayronman. Har holda boyagi yigit yaxshi odam ekan. U bilan o'quvchilarning aqliy jihatdan yetilishini turkumlarga ajratishda Gaussa ko'rsatkichini e'tiborga olish g'oyat muhim ekani to'g'risida fikrlarimiz bir joydan chiqib qoldi.

– Boris! – jahli chiqqan va mudroq bosgan Jerri unga o'shqirib berdi. – Gaussa ko'rsatkichi bizni bu yerdan hech yoqqa olib ketmaydi, axir.

– Qandog' bema'ni gap! Nahotki sen chindan ham aqliy qobiliyatning aniqlanishi hozirgi zamon amaliy psixologiyasida muhim yordamchi vosita ekanini rad etsang? Sening tasdiqlashingcha, ya'ni...

– Mening tasdiqlashimcha, sen aqldan ozibsan! – uning so'zini bo'ldi Jerri.

Bobo ko'zoynagini ko'tarib, to'zib, hurpayib ketgan sochlarini changallab, g'amgin bosh chayqadi.

– Jerri, sen qip-qizil mastsan.

– Sendan ko'ra hushyorman. Bordi-yu, agar sen Gaussa ko'rsatkichiga amal qilib, bugun qayerda tunashimizni ko'rsatib berganingda, olim ekaningga ishonsa bo'lardi.

Bobo jiddiy qiyofaga kirdi. U sadaqa so'rashdan bo'lak narsani bilmasdi. O'tirgan joyidan turib, «Kichik Germaniya»ning baqaloq egasi bilan muzokara olib borish maqsadida uning yoniga ketdi. Oradan bir daqiqa o'tgach, qaytib keldi va xotirjam dedi:

– Oshig'imiz olchi. Omadimiz kelganini qaraki, xo'jayinning garajida bir kecha tunash uchun qulay joy bor ekan. Ammo uxlashdan oldin, pollarni yuvishimiz, sinib qolgan bir juft stulni tuzatishimiz kerak. Qisqa qilib aytganda, vazifa nihoyatda foydali va ayni mahalda psixologik jihatdan g'oyat qiziqarli...

O'N OLTINCHI BOB

JERRI BILAN BOBONING BO'RODAN JON SAQLAB QOLGANI VA O'QITUVCHILIK QILA BOSHLAGANI

Noyabr oyining o'rtalarida bizning sayyohlarimiz asta-sekin, lekin zo'r jonbozlik ko'rsatib o'z oyoqlari bilan Ogayo shtati yo'llarining xaritasini chizib chiqdilar. Dorga hukm qilingan odamday ularning omadlari kelib, ust-boshlari qancha eskib, mazasi qochgani sari bosh barmoqlarining foydasi shuncha kam tega boshladi. Ular keyingi bir yarim hafta mobaynida atigi bir marotaba karavotda, allaqanday najot Armiyasining tunash uyida uxlashga muvaffaq bo'ldilar. Mana ular Peyns-vill shahriga yetay deb qolishdi. Shamol picha damini olib, kuch to'plab, endi to'ppa-to'g'ri Kanadadan esmoqa edi. Kimsasiz, bir tUSDagi yaydoq tekislik yupqa qor pardasini yuziga yopib, yastangancha yotibdi. Mashinalar sayyohlarning ko'karib ketgan yuzlariga

tikandek sanchiluvchi qor uyumlarini sachratib, pish-qirgancha yonlaridan o'tib ketardi. Jerri o'zining jigar tusiga kirgan qo'llarini tinimsiz ishqalar ekan, yonida turgan o'rtog'iga yuragi achishib qarab qo'yardi. Uning ulkan, hurpaygan sochlarini shamol to'zg'itib, xuddi xoda uchiga ilingan bir bog' pichanga o'xshardi. Bobo keyingi ikki kun ichida taajjublanarli darajada muloyim va kamsuxan bo'lib qoldi. U shamollab, qattiq tumovga chalingan, ko'zlari qip-qizarib, tinmay yosh oqardi. Burnining uchi, lablari chaqa bo'lib ketgandi. U odamning eng kuchli ovoz chiqaradigan joyi qanshari bilan burun kataklari orasiga joylashgan bo'ladi, deb qayta-qayta takrorlardi. Ular juda sekin yurishar, chamasi, bir soatda bir dyuym ham yo'l bosmas edilar. Yo'lning xiyla masofaga cho'zilib ketgan o'rmon maydonida ular Toledoga ketayotgan bir daydiga duch kelib qoldilar. U o'rta yoshlardagi, yuzlari qip-qizil, baquvvatgina erkak edi. Yangi tanish o'zining «xobo»ga aylanganiga o'ttiz yil bo'lganini, bu borada ancha tajriba orttirganini va ko'p narsani bilishini gapirib berar ekan, har bir jumlasini:

– Qiyinchiliklar menga cho't emas, – deb tugatardi.

U o'zining yangi hamsafar o'rtoqlariga bir mutaxassis sifatida foydali maslahatlar berdi:

– Peynsvill – juda bemaza joy. Aholisi atigi o'n to'rt mingta. U yerda uzoq turib qolishning hojati yo'q. Sizlar Klivlendga yetib olishga harakat qilinglar. U yerda hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaysiz.

U og'ziga chaynaladigan tamaki solar ekan, hech qanday muhtojligi yo'q odam qiyofasiga kirdi...

– Menga qara, qo'shni, – unga murojaat qildi Bobo. – Senda bironta ortiqcha chaqa topilmaydimi?

– Men pulga uylangan emasman, – mag'rur javob berdi u. – Chaynaydigan tamakiga hushinglar qalay?..

– Rahmat. Iste'mol qilmayman.

– Balki, oshnangiz iste'mol qilar?

– Rahmat, men ham iste'mol qilmayman, – dedi Jerri.

– Mehmon qiladigan boshqa hech vaqoyim yo'q.

Notanish erkak yana yo'lga tusharkan, Klivlendga yetib olishni tavsiya etdi:

– U yerda uzoqroq qolib ketish mumkin – qoyilmaqom qishloq!

Jerri bilan Bobo Peynsvillga yo'l olishdi. Yonlaridan g'izillab o'tib ketayotgan avtomobillar ular ko'targan bosh barmoqlariga e'tibor ham qilmas edilar. Noiloj yo'lni piyoda davom ettirishga to'g'ri keldi.

Shamol tobora zo'rayardi. U goh oldindan, goh orqadan tashlanib, kiyim-boshni yirtar, quruq qor quturib, jon holatda osmonga sapchir, quyun tinmay javlon urar, birdan ulkan simyog'ochday havoga sanchilar edi. Goh u, goh bu yerda balandligi bug'uday keladigan qor tepalar paydo bo'lib, yo'lni to'sib qo'yardi.

Boboning mazasi qochib, holdan toya boshladi. U og'ir nafas olar, dam-badam yiqilar, o'rnidan turib gandaraklab yana yo'lga tushardi. Besar bo'ron uning ulkan jun koptokka o'xshab qolgan sochlariga tinmay qor keltirib urardi.

– Biz duch kelgan biron yerga kirib berkinishimiz kerak, – dedi umidsizlik bilan nochor ahvolga tushib qolgan Bobo. U burnini karnay qilib qoqib, qor tepa ustiga o'tirdi. – Mening masalam hal endi.

– Peynsvillga yetishimizga o'n mil qoldi, – dedi Jerri.

– Gapingni sirayam eshitayotganim yo'q. Yaqinroq kelib gapir!

– O'ringdan tur. Shoshilish kerak.

– Men ozgina damimni rostlab olmoqchiman.

– Qor ostida qolib ketamiz bu yerda. Qani tur! Tezroq yo'lga tushaylik!

Jerri hamrohining turishiga yordamlashib yubordi. Bo'ron borgan sari quturardi. Yer bilan osmon birlashib ketdi. Go'yo yo'l yoqasidagi zovur bilan xandaqlar osmonga tik turib qolganga o'xshardi. Borliq qorong'ilashib, hamma narsa o'zining odatdagi shaklini yo'qotdi.

Boboning ko'zlarida jonsarak, hayajonli o't paydo bo'ldi. U Jerriga nisbatan jismoniy jihatdan xiyla ojiz

odam edi, shu tufayli u beixtiyor hadeb o'rtog'ining bi-lagiga yopishardi. Kutilmaganda ular yo'lning qoq o'rta-siga tashlab ketilgan avtomobilga o'zlarini urib olay de-dilar. Mashinaning yarmi qor tagida qolib ketgandi. Un-dan keyin ikkinchi, ketidan uchinchi, keyin to'rtinchi mashina ko'rindi. Qisqasi, ular yo'lda turna qator saf tortgandi. Mashina egalari, aftidan, ularni quturayot-gan tabiat quchog'iga topshirib, o'zlari yaqin oradan bi-ron boshpana izlab ketganga o'xshaydilar.

– Picha dam olaylik, – taklif qildi Bobo.

– Yaxshisi, to'xtamaslik kerak.

– Men ortiq yurolmayman.

– O'zingni tut. Menga o'xshab bo'sh kelma-da!

Bobo qor tagida yotgan mashina yoniga o'tirib, muz-lab qolgan ko'zoynagini arta boshladi.

– O'zimni tutishimning foydasi yo'q, – dedi horg'in-lik bilan Bobo. – Psixologiya nuqtai nazaridan qaralsa, bundan hech narsa chiqmaydi. Bu yolg'iz abstraksiya-ning o'zi.

– Abstraksiyami, abstraksiya emasmi, bilmadim, le-kin to'xtab qola olmaymiz. To'xtatsak, shu yer bizning qabrimiz bo'ladi. Qani tur, chaqqonroq yo'lga tushish kerak!

– Yo'q, to'xta. Sen mening gapimga tushunmaganga o'xshaysan. Biz iroda faoliyati deb nom bergan va taj-ribaga asoslangan iroda tushunchasida ma'lum daraja-da negiz yo'q, deb tasdiqlamoqchi emasman. Hozir gap buning ustida borayotgani yo'q. Balki hayotiy iroda-ga hech qanday aloqasi bo'lmagan muayyan reflektiv harakat to'g'risida boryapti. Qadam bosish – reflektiv harakatning uncha ham katta bo'lmagan seriyasi bo'lib, u odamning irodasidan tashqari, avtomatik ravishda maydonga keladi...

Jerri ikkala kaftini og'ziga keltirib karnay qilib, ba-land ovozda qichqirdi:

– Bas qil deyman! Yo'lga tushish kerak.

– Eshitmadim, nima deysan?

Jerri tizzasigacha qorga botib, Boboning oldiga yaqinroq keldi va ovozi boricha baqirdi:

– Sen jinni bo'lib qolibsani! Miyang bormi o'zi? Nahotki, qorda muzlab qolayotganimizni ko'rmayotgan bo'lsang?

U Boboning qo'ltig'idan ushlab, zo'rlab o'rnidan turg'azdi.

– Men ham sendan kam charchaganim yo'q, – murosaga kelgan ohangda dedi Jerri. – Lekin shunga qaramay, biz baribir yo'lga tushishimiz kerak.

– Charchaganimiz xususida bahslashib o'tirishga hojat yo'q...

Nihoyat, ular yo'lga tushdilar. Oradan sal o'tib, qorga ko'milib yotgan mashinalar karvoni orqada qolib ketdi. Qorong'ilik qo'ynida milt etgan xira nur ko'zga chalindi.

– Uy ko'rindi! – xitob qildi Jerri.

– Balki bironta avtomobil stansiyasidir?

– Yo'q, restoran bo'lsa kerak.

– Hali uzoqmi?..

– Oldiginamizda. Nima balo, o'zing ko'rmayapsanmi? Ana, chap tomonga qara.

Qalin qor pardasi orasidan «Oltin likop» degan restoran viveskasi ko'rindi. Yana bir necha qadamdan keyin ular restoran eshigi tagiga yetib olishdi. Eshik tepasida neon chiroqlaridan yasalgan harflar: «Pivolar, vinolar, kotletlar» porlab turardi.

– Rosa omadimiz keldi, – dedi Bobo.

– Mana, endi to'yib-to'yib yeymiz, ichamiz.

– Pul yo'q-ku, – xo'rsindi Bobo.

– Haqini psixologiya yo'li bilan to'laymiz...

Shamolning navbatdagi xuruji restoran eshigini ochib yuborib, sayyohlarni ichkariga, dimoqni qitiqlovchi mazali hid va yoqimli iliq to'lqin suzib yurgan kichik zalga olib kirib qo'ydi. Avtomat grammofon kirib kelganlarni rasm bo'lib ketgan Eddi Fisherning «Jonginam, jonginam, jonginam» ashulasi bilan qarshi oldi. Bufet peshtaxtasi yonida kuymalanishayotgan, asli kelib chi-

qishlari italiyalik er-xotin sayyohlarni aziz mehmonday iliq kutib olishdi. Vaziyat erkin va bamaylixtor yozilib o'tirishga, dilkashlik va vaqtichog'lik qilishga chorlardi. Bu qulay, oddiy va kamtarona restoranning mijozlari hech qachon o'zganing paltosini urib ketmas, o'z shlyapalarini birovning shlyapasiga alishtirib qo'ymas edilar. Ular bir damgina o'tirib, bir chashka qahva ichishga, besh sentga grammofon musiqasini eshitib lazzatlangani kirishardi. Biroq shu topda ular hech yoqqa oshiqmayotgan edilar. Tashqarida quturayotgan bo'ron ularning hammasini bir joyga yig'ib, oradan bir daqiqa ham o'tmay, hammasini ahil bir oilaga aylantirib qo'yan edi. Har bir kishi ikkinchi kishi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni: oilaviy ahvoli, dunyoqarashi, avtomashinasining markasini bilar edi.

– Sizning mashinangizning markasi qanaqa? – so'radi Bobodan. «Oltin likop»ning xo'jayini.

– Kadillak, – shoshilib javob qildi Jerri. U psixolog qizishib ketib jismoniy harakatning ahamiyati bilan foydasi to'g'risida yana ma'ruza boshlab yubormasa go'rga edi, deb xavotir olardi.

– O'-ho', juda yaxshi marka, – dedi xo'jayin.

– Ham eng qimmat, – qo'shib qo'ydi Jerri.

– Judayam qimmat. Bizga o'xshaganlar bunday mashina haqida hatto orzu ham qila olmaydi. Mening mashinam – ford. Xo'sh, janoblar nima ovqat yeysizlar?

– Portveyn, – dedi Vobo. – U odamni isitadi. Lekin... Bir daqiqa to'xtang-a. – Bobo peshtaxta ustiga engashib, og'zini xo'jayin qulog'iga yaqinroq olib borib shivirladi:

– Biz jon deb biron nima yegan bo'lardigu, lekin tasodifan hozir pulsiz qolib turibmiz.

– Nahotki sirayam bo'lmasa? – surishtirdi xo'jayin.

– Bir chaqa ham yo'q.

– Sizda-chi? – xo'jayin Jerriga murojaat qildi.

– Menda ham shunday: bir chaqam bo'lsa, harom bo'lsin. Men chek daftarchamni mashinada unutib qoldiribman.

– Ishqilib, mashinangizning eshiklari yaxshi berkitilganmidi?

– Albatta. Lekin mashinam kalitini qorga tushirib, yo'qotib qo'ydim.

Xo'jayin xotini bilan qisqagina maslahat majlisi qilib olgach, mehmonlar huzuriga qaytib keldi. Boshini qimirlatar ekan:

– Nasiyaga ovqat berolmaymiz, – dedi – G'oyat afsuslanaman.

Jerrining kayfi qochib, qovog'i uyildi. Bobo bo'lsa restoranning iliq havosi va yoqimli hididan lazzatlanib, mast bo'lib o'tirardi. Sal o'tmay, u burchakdagi allaqanday stolga o'tib, bo'rondan qochib, jon saqlayotgan yo'lovchilar bilan tanisha boshladi. Jerri bufet peshtaxtasining narigi boshiga borib, xo'jayinning xotiniga o'tli nigoh tashlab, kechki ovqat undirish ilinjida xushomad qila boshladi.

– Qarang, Kompotti xonim, bugun havo qanday yomon-a?

– O, o'larday bemaza. Radio bugun Ogayo shtatida harakat to'xtatiladi, deb xabar qildi.

– Kompotti xonim, restoraningiz juda ham ajoyib ekan.

– Allaqachon ta'mirlash kerak edi. Qayoqda deysiz, biz cholu kampir buning uddasidan chiqarmidik!

– O, Kompotti xonim, qarilik to'g'risida hamma gapirsa ham, siz gapirmang! Siz xuddi yosh qizaloqlarga o'xshab yurur ekansiz.

– Ha, ehtimol... Lekin oyoqlarimning mazasi yo'q.

– Rostdanmi? Unday bo'lsa, vrachga murojaat qilishingiz kerak.

– O'ylashimcha, foydasi yo'q.

– Men aminmanki, foydasi bo'ladi. Oyoqdagi og'riq orqa suyaklarga bog'liq bo'lishi mumkin. Umurtqalarining noto'g'ri holati markaziy nerv sistemasini cheklab, siqib qo'yadi.

– Yana belim ham og'riydi.

– Ana koʻrdingizmi, men darrov bildim. Kompotti xonim, qayoqdan bilding, deb soʻrasangiz aytishim mumkin, yurishingizga qarab bildim. Sizda, aftidan, avvallari yengil xondroma boʻlgan boʻlishi kerak, vaqt oʻtishi bilan u sarkomaga – yomon shishga aylangan. Suyakda oʻtirib qoluvchi osteo-sarkomani juda tez bilib olish mumkin. Siz sira kechiktirmay, albatta, vrachga murojaat qilishingiz zarur.

Mehmonxonaning toʻla gavdali, barvasta bekasi mehmonning ajoyib-gʻaroyib soʻzlarini xavotir va sarosima ichida eshitib turdida, oxiri:

– Afandim, siz balki doktordirsiz? – deb soʻradi.

– Ha, shunday, Kompotti xonim. Men bel ogʻriqlarini davolovchi mutaxassisman.

Kompotti xonim shiddat bilan saf tortib turgan shishalar yoniga borib, qadahga may toʻlatdi va jilmayarkan, iltifot bilan soʻradi:

– Yanglishmasam, siz portveyn soʻrovdingiz shekilli?

– Shunday, Kompotti xonim. Sizda, yana ehtimol, tumores medulle spinalis kasali boʻlishi ham mumkin.

– Yoʻq... men bunga oʻxshagan biron kasalim boʻlmasa kerak, deb oʻylayman. Doktor, hozir siz nomini atagan oʻsha narsa ham kasallikmi?

– Ha, albatta. Uni koʻpincha quyonchiq kasali deb ham oʻylashadi. Ogʻriq sezilgan joy, odatda gʻurra bilan shishlar asabning qaysi yerini ezib turganiga bogʻliq boʻladi. Kompotti xonim, siz oʻzingizni, albatta, tekshirtirib koʻring.

– Ha, shunday qilishim kerak... Ehtimol... juda soz boʻlardir. Ruxsat eting, yana bir qadah quyib beray.

– Marhamat, tashakkur sizga.

Jerri oʻrtogʻi oʻtirgan tomonga koʻz tashlab, koʻngli joyiga tushdi. Bobo allaqanday kekxa bir janob bilan pivo ichib oʻtirar, bolalar jinoyatkorligining psixologik va ijtimoiy kelib chiqish sabablari toʻgʻrisida gapirib berar edi. Tashqari gʻoyat qorongʻilashib ketdi. Soat endigina

beshdan chorak oshganiga qaramay, suratkashlar o'z negativlarini bemaol ko'chada ishlab olsalar bo'lardi.

Kompotti xonim Jerrini huzur qilib portveyn icha-yotgan vaziyatda qoldirib, o'zi eri oldiga chopdi. Nima to'g'risidadir u bilan pichirlasha boshladi. Oradan bir daqiqa o'tmay, sirli shivirlash baland suhbatga aylandi.

– Sen iltimos qil, – dedi Kompotti xonim.

– Yo'q, nega endi men, yaxshisi o'zing iltimos qil, – javob qildi unga janob Kompotti.

– Men iltimos qilolmayman. Menga noqulay, uyalaman.

– Iltimos qil, vassalom. Mendan ko'ra, sen yaxshiroq tushuntira olasan.

– Yo'q, avval sen aytishing kerak...

– Yosh bolaga o'xshama, Adelina. Bu, axir, tabiiy gap-ku.

– Shundayku-ya, lekin... Yo'q, o'zing u bilan gaplashishing kerak.

– Men gaplashmayman...

Janob Kompottining xotini unga talabchan nazarda tikilar ekan, har bir so'ziga alohida urg'u berib:

– Arturo! Mening nima deganimni eshitingmi? – dedi. – Hoziroq borib u bilan so'zlashasan, gap tamom.

– O'key, Adelina, – er itoatkorlik bilan qo'llarini peshbandiga artar ekan, shoshilmaygina Jerri yoniga keldi.

– Qarang-a, mashinangizning kaliti yo'qolgani ko'p chakki bo'pti-da, – dedi janob Kompotti.

– Menimi? – shoshib qoldi Jerri. Uning yolg'oni hami-sha shoshilinch va uzoqqa bormaydigan bo'lardi. Bobo do'stining mana shu zo'raki yolg'onini «psixologik qisqa tutashuv» deb atagan edi.

– Ha, siz axir, mashina kalitini qorga tushirib yo'qotdingizda.

– Darhaqiqat. Buni qarang-a! Men bo'lsam, allaqachon unutib yuboribman.

– Bir hisobda, eshiklarni mahkam berkitganingiz xo'p yaxshi bo'lgan ekan.

- Eshiklarni?
- Ha, janob, mashinangiz eshiklarini.
- Mutlaqo to‘g‘ri. Yaxshi hamki, mahkam yopgan ekanman.

Jerri qadahni tezda bo‘shatib, ko‘zoynagini tirishqoqlik bilan arta boshladi.

- Doktor, mashinangiz xo‘p ajoyibidan ekan, – so‘zida davom etdi «Oltin likop» xo‘jayini.

– Ha... juda bashangi.

- Bunday mashinalarni faqat doktorlik daromadlarigagina sotib olish mumkin...

– Albatta... mutlaqo shunday...

– Doktor, siz oladigan haq juda yuqorimi?

– Har xil... Ba‘zida unday, ba‘zida bunday...

Suhbat bir daqiqa bo‘lindi. Janob Kompotti javondan shisha olib, Jerrining qadahini to‘latdi.

– Doktor, marhamat qiling.

– Tashakkur sizga! Vinolaringiz goyat ajoyib ekan.

– Bular fransuz vinolari. Kaliforniya – butun boshqa bir olam, ularda bundagi shukuh yo‘q.

– Ha, albatta.

Restoran xo‘jayini atrof-tevarakka qarab olgach, shivirlashga o‘tdi:

– Doktor, sizda mening ozgnia ishim bor edi.

Jerri cho‘chib tushdi.

– Rostdan-a?

– Yo‘q, aniqrog‘i mening emas, xotinimning. To‘g‘risini aytganda, xotinim sizdan so‘rab ko‘rishni iltimos qildi... Ochig‘ini aytsam, sizning vaqtingiz bo‘lsa, doktor, noqulay bo‘lmasa, umuman, agar yo‘q demasangiz... innaykeyin, albatta, ko‘rganingizga juda qimmat olmasangiz...

Gap nima xususida borayotganiga endi tushungan Jerri nazarida kotletning bir bo‘lagini chaynayotganday bo‘ldi.

– Shunday, janob Kompotti, – xotirjam so‘z boshladi Jerri. – Xotiningizning qadam bosishiga razm solib,

men, ehtimol, bellarida biron og'riq bo'lsa kerak, deb taxmin qildim. Ammo gap shundaki, mening qo'limda Nyu-Yorkdan bo'lak biron yerda vrachlik qilishga rasmiy ruxsatnomam yo'q. Bu tasodifiy holning g'oyat jiddiy va muhim ekanini e'tiborga olgan holda, men o'z qoidamdan biroz chekinishga jur'at etaman. Turgan gap, ko'rganim uchun haq ololmayman. Agar siz juda xohlasangiz, albatta boshqa biron yo'lini qilish mumkin. Deylik, menga va mening o'rtog'imga biron yengil ovqat taklif etasiz. Yoki shunga o'xshagan bir yo'li topilar.

– O'key, doktor, okey! – deya xitob qildi janob Kompotti. – Xo'sh, demak, siz hoziroq ko'raverasizmi?

– Bajonu dil, men bemorlarga hamisha yordam ko'rsatishga hozirman, – sovuq tantanali ohangda dedi Jerri.

Xalq naqlidagi aytilgan: kimki qaysi mamlakatda turib shu el tilida sadaqa so'rasa u hech qachon och qolmaydi, degan hikmat yana o'zini oqladi. Professor Finn bir tekis qadam tashlab, ikkinchi qavatga, janob Kompottining yaxshilab jihozlangan uyiga chiqib bordi. Bu yerda u bekaning umurtqalarini tekshirib ko'rishga kirishdi. Kompotti xonim shu qadar semiz va terisi nozik ediki, uning orqasi Renesans davrining suratlarini eslatardi. Janob Kompotti pastga, mijozlari oldiga tushib ketishga jur'at etmay, xotini yonida qoldi va davolashning qanday borishini kuzata boshladi.

– Manavi yerda ekan! – nihoyat, xitob qildi professor Finn qidiruvchining chinakam baxtini his etib. – Agar pastdan sanalsa illat to'rtinchi umurtqada ekan. Og'riyaptimi?

– O, og'riyapti... Juda og'riyapti...

– Mayli, hechqisi yo'q, ozgina chida, Adelina, – ma'qullagan ohangda dedi er. – Doktorga ko'rsat, deb senga necha marta aytgan edim!..

– Manavi joy-chi? – so'radi xiroamaliyotchi.

– Voy, ha!.. Bu yer ham...

– Mayli, Adelina, – takrorladi er.

Har bir umurtqani tekshirib chiqqan Jerri bir tekis harakat bilan bemorning orqasini uqalay boshladi. Janob Kompottining qoʻllari mushtga tugildi, u ohista italyancha soʻkinib qoʻydi. Bemor qiynoqqa mardonavor chidab berdi. Ana shu qiynoq orasida u Jerriga oʻzining vrach hamda doylar yordamisiz toʻrtta sogʻlom bola tuqqanini, yoshligida ogʻirligi ikki yuz qadoqqacha boʻlgan un solingan qoplarni bemalol tashiganini, shu turgan uylari uchun qizil, yopishqoq tuproqni kovlab poydevor oʻyganini hikoya qilib berdi. Kompotti xonimning ushbu qissasi Jerriga kasalning turini aniqlashda katta yordam koʻrsatdi.

– Kompotti xonim, ana shu gaplaringizdan hamma narsa ravshan boʻlib turibdi. Bir vaqtlari belingiz chiqqan. Ana shundan keyin umurtqalaringizda kemirchakli shishlar paydo boʻlgan.

– Menimcha, – dedi bemor, – bu kasalni men ancha oldinroq, sirkda orttirgan boʻlsam kerak.

– Siz sirkda ham ishlaganmidingiz?

– Toʻrt yil. Lekin oradan koʻp yillar oʻtib ketdi.

– Raqsga tusharmidingiz?

– Yoʻq, kurash va turli ogʻirliklar bilan shugʻullandim. Oʻshandan beri koʻp vaqt oʻtib ketdi.

Janob Kompotti bularga orqasini oʻgirib, qiqirlab kuldi:

– Adelina – raqqosa...

Jerri bemorning qoʻllari muskuliga va yogʻ bosgan orqasiga qarab, bu jajji restoranning jilovi kimning qoʻlida ekaniga yaxshi tushundi. Ancha yoshga borib qolgan suvora ayolning belini yana bir necha bor uqalab chiqqach, Jerri bemorga birinchi navbatda davolash asboblari: grelka bilan bilyard shari topib olishni maslahat koʻrdi. Kompotti xonim oʻzini benihoya baxtiyor sezdi. Chunki har ikkala davolash asbobi ham uyda mavjud edi. Jerri peshanasidagi terlarni artar ekan, odob saqlab bemorga orqasini oʻgirdi. Kompotti xonim

esa o'zini shunday yengil sezdi, hatto ohista qo'shiq aytib, kiyina boshladi.

– Endi navbat Arturoga, – dedi u. – Men pastga tushib ketdim.

Er tashvishga tushib qoldi:

– Mening hech qanday kasalim yo'q...

– Doktor sendan ko'ra yaxshiroq biladi, – dedi qat'iy xotin va chiqib ketar ekan, qo'shib qo'ydi: – Men o'zimni xuddi onadan yangi tug'ilganday sezyapman, ha, rosti bilan xuddi yangi tug'ilganday...

– Xo'sh, janob Kompotti, qani, ko'ylagingizni yechib, manavi yerga yoting, – dedi Jerri «Oltin likop»ning xo'jayini bilan yolg'iz qolishganda.

Mister Kompotti bilinar-bilinmas titrab doktor ko'rsatmasini ado etdi. Jerri mister Kompottining qoq suyak orqasini yaxshilab ko'rib chiqib, undan biron kamchilik yoki qusur topmadi. U restoran xo'jayini hech qachon o'z belini, shuningdek, orqasida qancha suyagi bo'lsa shuncha suyagi bo'lgan boshini sira-sira og'ir ish bilan urintirmaganiga ishonch hosil qildi. Chindan ham mister Kompottining boshi juda rivoj topgan, rivojlangandayam asosan suyak negizi yiriklashishiga erishgan edi.

– Zalga tushishdan oldin, keling, shu yerda bittadan otib olamiz, – taklif qildi xo'jayin. – Shu bilan qanday haq to'lash masalasini ham bir yoqli qilamiz, doktor.

– Ikki kishiga kechki ovqat berilsa bas, – dedi kamtarinlik bilan Jerri.

U tunash xususida ham gap ochgan edi, ammo xo'jayin hal qiluvchi ovozga ega emasligiga shama qildi.

– Bizda har qancha joy kerak bo'lsa topiladi, faqat Adelina rozilik bersa bas.

Biroq mister Kompotti bu masala bilan Adelinaga murojaat qilib ulgurmadi. Bunday mayda ishni professor Minvegen allaqachon hal qilib qo'ygani edi. Jerri zalga tushib kelganda Boboning dimog'i chog', xursand edi. Mehmonlarning bir qismi restorandan chiqib ketgan, bufetning uzun peshtaxtasi yonida ikki yosh – al-

laqanday juvon bilan ko'zlari dadil va chaqqon boquvchi kommivoyajer o'tirardi. Ular eng yaqin avtostansi-yaga o'z mashinalarini tortib olib boradigan shatakchi mashina chaqirtirishgan edi, hozir shuni kutishardi. Bobo hali ham o'sha o'rta yoshli janob bilan gurillab yonayotgan kamin yonida o'tirardi. Psixolog shu topda butun qiyinchiliklarni unutib ulgurgan edi. Uning yuzlarida shamollaganlik alomati – qizillik o'ynar, salmoqli ko'zoynak shishalari orqasidan xuddi yonib turgan ikki cho'g' singari ko'zlari porlardi, qo'llari esa go'yo shiddatli gap oqimini boshqarayotganday harakat qilardi. Jerrini ko'rgan zahoti ko'tarinkilik bilan dedi:

– Biz seni qachondan beri kutib o'tiribmiz. Ruxsat et, seni mister Glen Tekker bilan tanishtiray. Mister Tekker mahalliy OSV maktab ma'muriyati raisi. Men unga o'zimizning hamkorlik qilishimiz mumkinligi to'g'risida va'da berib qo'ydim.

Jerri mister Tekker qo'lini qisib, stolga kelib o'tirdi.

Mister Tekker allaqachonlaroq oltmishni urib qo'yan, ammo bardam va tetik, qo'yo'z, sochlariga oq oralagan odam edi. Jag'lari to'la oltin edi, u har safar kulganida ularning haqiqiy bahosi darhol yalt etib ketardi. Bir necha daqiqa ichidayoq uning o'rta darjadagi o'ziga to'q odam ekani, ikki bolaning otasiligi, yozish va o'qishni bilishi ayon bo'ldi. Peynsvilldagi miyona baliq qarmoqlari ishlab chiqaruvchi fabrika va Payn Leykdagi olti xonali uy mister Tekkerning xususiy mulki ekan.

– Payn Leykning o'zi qayerda? – so'radi Jerri.

– Xuddi Payn Laykning qoq markazida, – javob qildi mister Tekker. – Yoz oylarida bu yer go'oyat go'zal va bahavo bo'ladi, bundan tashqari bu yerda juda ko'p tarixiy yodgorliklar bor.

Mister Kompotti bir necha kotlet bilan margarin yog'ida qovurilgan bir tovoq kartoshka olib keldi. Mister Tekker shu zahoti ovqat pulini to'lamoqchi bo'lib, yonini kovlagan edi, mister Kompotti:

– Doktor to'laganlar, – dedi. – Qani, marhamat qiling, doktor. Men sizga ilgari ham aytgandirman, biz kotletlarga ot go'shti yoki ichak-chavoq solmaymiz.

Xiroamaliyotchi o'zining qalam haqi yarmini psixologga bo'lib berib, zo'r hafsala bilan ovqatlanishga kirishdi. Yengil kechki ovqat bir nafasda pok-pokiza tushirildi.

– Men sizni yaqinida Yevropadan kelgan deb eshitib qoldim, – dedi mister Tekker Jerrining ishtahasi-ga qoyil qolib.

– Avgustda keldim, janob.

– Juda omadingiz yurishgan ekan, o'shanday qash-shoqlik quchog'idan qutulib kelgan bo'lsangiz.

Jerri indamadi. Mister Tekker so'zini davom ettirdi.

– Mening katta o'g'lim urush paytida Yevropadagi frontlardan birida bo'lgan edi. U nemislarni asir olib, mayor unvoniga erishdi.

– Katta unvon, – iqror bo'ldi Jerri.

– Ha, o'g'lim yaxshi askar edi o'zi. U ilgarilari otish mashqlari qilmagan va bunday mashg'ulotlarga qat-nashmaganiga qaramay, kam deganda besh mingta nemisni qirib tashladi. Shu tufayli u yarim yilga qolmay mayor bo'ldi.

– Ha, juda tez o'sibdi, – tasdiqladi uning so'zini Jerri.

– Shunday. Hozir o'sha o'g'lim Janubiy Amerikada elchi bo'lib xizmat qiladi, katta pul ishlaydi. U dunyodagi elchilarning ichida eng kenjasi, yozda yigirma uch yoshga to'ldi. Sigareta chekasizmi?

– Rahmat!

– Yevropada tuzukroq tabak ham topilmasa kerak-a?

– Yo'q...

– Bizda nimaiki istasangiz, hammasidan bor.

– O'qituvchilardan tashqari, – so'z qo'shdi Bobo.

– Yaqinda Yevropadan olib kelinadi, ular ham tez orada ko'payib qoladi. OSV yana uch yuz kishiga buyurtma yubordi. Hademay, ular ham kelib qolishadi.

– Bu OSV deganingiz nimasi? – so'radi Jerri.

Mister Tekker o'zining tilla tishlarini ko'rsatib iljaydi-da:

– Nahotki Yevropada OSVning nima ekanini bilishmasa? – dedi. – Bu – erkin tarbiya Jamiyati degani. U Amerika qit'asining hamma yerida o'zining o'quv yurtlariga ega. Payn Leykda ham OSVning o'quv yurti bor, men uning rahbari, ya'ni boshqacha qilib aytgaida, prezidentiman.

– Mister Gekker bizga vaqtincha ishlab turgani joy taklif etyapti, – dedi Bobo.

– O'qituvchilikmi? – so'radi Jerri.

– Xuddi shunday, mister Finn, – quvonch bilan tasdiqladi qora ko'zli prezident. – Ruxsat eting, gap nima-da ekanini tushuntirib beray. Bizning maktabimizda o'ttiz o'quvchi – yigirma uch o'g'il va yettita qiz o'qiydi. Ular o'n ikki yoshdan o'n yetti yoshgacha. Maktab xizmatchilarining soniga kelsak, ikki o'qituvchi, doimiy tartibni nazorat qilib boruvchi nozir va qorovuldan iborat. Hozirgi paytda maktabdagi vaziyat bunday: nozir o'tgan hafta bizdan ishdan bo'shab, politsiyaga xizmatga kirdi. O'qituvchilardan biri kuni kecha maktab bilan xayrlashib, Minnesota shaxtasida ishlamoqda. Yana bittasi bir haftadan keyin bo'shamoqchi. Turgan gap, bizga yangi o'qituvchilar yuborishadi. Ammo ular kam deganda bir haftadan keyin kelishlari kerak. Shunday qilib, hozir bizga vaqtincha ishlash uchun shoshilinch ravishda ikkita o'qituvchi talab etiladi. Professor Minvegendan, sizlarni hozir vaqtincha bo'sh ekanligingizni eshitib bizlarda ishlab turishni iltimos qildim. Xo'sh, bu haqda siz nima deysiz, mister Finn?

Jerri bir daqiqa o'y surib qoldi, ayni mahalda Boboning ko'pchib ketgan yuziga qarashga tirishdi.

– Biz o'qituvchilik qilish bilan birga nozir vazifasini ham bajarishimiz kerakmi? – so'radi u.

– Yo'q, albatta, OSVning o'quv yurtlarida tartib-intizom yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bizning maktabda axloq masalasi o'tgan yilga nisbatan ancha yuqori saviyaga

ko'tarildi. O'tgan yili uch qizimiz ikkiqat bo'lib qoldi, o'n bir bola haddan ortiq narkotik iste'mol qilib, kasalxonaga joylashga to'g'ri kelgandi. Bu yil kuzda faqat ikki marta tartibni buzish hollari yuz berdi, xolos. Har ikkalasida ham ish politsiyaning aralashuvisiz bitdi. Maktab ma'muriyatining yana bir haftadan keyin yangi o'qituvchilar kelganda o'quvchilar axloqi bundan ham yaxshi, bo'lib ketishiga ishonchi komil. Albatta, shunday bo'ladi, deb hisoblaydi. Yangi kelayotgan o'qituvchilarning biri – universitetning sobiq boks o'qituvchisi, ikkinchisi – og'ir tosh ko'taruvchi mashhur polvon-sportchi. O'quvchilar odatda kuchli o'qituvchilarni hurmat qiladi.

– OSV davlat tashkilotimi? – so'radi Jerri.

Bobo Jerrini oyog'i bilan turtib, ko'zi bilan imo-ishora qildi.

– Davlat tashkiloti! – mister Tekkerning kapalagi uchib ketdi. – Nahotki sotsializmni jinim sevmasligini payqamagan bo'lsangiz? OSV – barcha boshqa muhim va ahamiyatli madaniy tashkilotlar singari alohida kishilardan yig'iladigan va shu kabi xususiy to'plangan xayr-ehson hisobiga yashaydi va ish ko'radi.

Mister Tekker o'zining ana shu madaniy-siyosiy sharhini tugatib, o'qituvchi janoblardan javob kuta boshladi. Jerri uncha ham zo'r qiziqish ko'rsatmadi. Lekin buning aksicha, bu o'quv yurti Boboda katta qiziqish uyg'otdi. Uni qiziqtirgan narsa, o'qituvchilarga har kuni beriladigan o'n dollar haqdan tashqari, yaxshigina jihozlangan kvartira, mavjud kir yuvadigan mashina va televizor edi. Muzlatkichning hojati yo'q, deb hisoblashdi. Chunki ma'muriyat biron o'qituvchining qachon bo'lmasin muzlatkichga qo'yadigan oshib-toshib yotgan narsasi borligini ko'rmagan ekan.

– Biz, axir, ishlab ko'rishimiz mumkin, – dedi professor Minvegen. – Agarda biz introspeksiyani psixologik metod sifatida qabul qiladigan bo'lsak, bu tajribadan biz hech nima yo'qotmaymiz.

– Mutlaqo to‘g‘ri, – xitob qildi mister Tekker, ko‘ngli-da introspeksiya ham xuddi stereoskopik kinoning o‘zi bo‘lsa kerak, deb o‘ylab. – Bizda har qanday ko‘rgazmali o‘quv qurolidan bemaolol foydalanish mumkin. Butun xarajatni, hech so‘zsiz, ma‘muriyat to‘laydi.

– Boshqa fanlarni o‘qitishda ham psixologiyadan yaxshi foydalansa bo‘ladi, – so‘zida davom etdi Bobo. – Jumladan, sotsiologiya...

– Hech qanday sotsializm! – uning so‘zini shart bo‘ldi prezident. – O‘quvchilarga nima yoqsa, faqat shuni o‘qitish kerak.

Jerrining ko‘rsatgan qarshiligiga qaramay, ikki orada shartnoma tuzildi. Shartnomaga ko‘ra, xiroamaliyotchi bilan psixolog OSVning Payn Leykdagi axloq tobora gurkirab o‘sayotgan, ularga jihozlangan uy va boshqa bir talay qulayliklar beradigan maktabiga vaqtincha o‘qituvchi qilib tayinlandi.

Shartnomani nishonlash maqsadida mister Tekker uch krujka pivo buyurdi. Ana shundan keyin do‘stlarimiz boshida paydo bo‘lgan qorong‘ilik tashqarida hukm surayotgan qorong‘ilik bilan uyg‘unlashib ketdi. Telefon jiringlab avtostansiyadan «Oltin likop»ga baliq qarmoqlari fabrikasi egasining mashinasi qor tepa ostidan chiqarilgani, avtostansiyaga olib kelinib benzin quyilgani va yo‘lga taxt qilib qo‘yilganini xabar qilishdi. Janoblar jo‘nashga otlana ekan, mister Kompotti Jerriga uning mashinasi kalitini topib berishni taklif qilib qoldi.

– E, undan umid yo‘q endi, – dedi Jerri.

– Xohlasangiz stansiyaga telefon qoqay? – dedi mister Kompotti, – ular mashinangizni shu yerga olib kelib berishadi.

– Mayli, ovora bo‘lmang...

– Har holda, nimadir qilish kerak, shunday qimmatbaho mashina...

– Hechqisi yo‘q, mister Kompotti, – deya kibr-havo bilan javob berdi Jerri. – Yaxshisi, ertagacha kutaylik.

Beka ham Jerri yoniga kelib, o'zini juda yaxshi sezayotganini, nazarida kam deganda yigirma yosh yasharib ketganini aytdi.

– Mening bunday bo'lishiga mutlaqo ishonchim komil, Kompotti xonim. Mana ko'rdingizmi, hamma narsa ana shu umurtqaga bog'liq.

Xonim yana nima to'g'ridadir so'ramoqqa jazm qildi-yu, lekin imyanib ayolmadi. Oxiri yuragini yutib shivirlab so'radi:

– Doktor, menga retsept yozib berolmaysizmi?

– Nima qilasiz? Zarur ko'rsatmani berdim-ku, sizga tennis koptogi yoki bilyard shari bilan grelka kerak, xolos.

– Ha, shunday, shunday, albatta... Lekin menda boshqa bir buzilish bor. Qornimda haddan tashqari havo yig'ilib dimiqib ketaman, bu axir, haligi... o'zingiz ham yaxshi bilasiz, doktor, bu narsani qanday xunuk ekanini. Ayniqsa, kechalari...

– Menga qara, sen har baloni gapira bermasang-chi, – to'ng'illab berdi mister Kompotti.

– Bu men uchun emas-ku, – javob berdi xotin. – Har safar o'zing shikoyat qilasan.

Professor Finn xiroamaliyotning nuqtai nazarida og'ishmay, mustahkam turardi.

– Men sizga hech qanday dori tavsiya etmayman, – javob berdi u. – Men aminmanki, agarda siz tennis koptogi yordamida belingizni muntazam ravishda massaj qilib va men aytgan harakatning barini og'ishmay bajo etsangiz, o'sha qusur ham oradan ikki kun o'tmay butunlay yo'qolib ketadi...

– Bizda faqat bilyard shari bor, – uning so'zini bo'ldi xotin.

– Ikkalasing ham ta'siri va harakati bir.

– Kechirasiz, so'zingizni bo'lmoqchiman, – gap qo'shdi oraga qarmoq fabrikasining egasi. – Biz yo'lga chiqishimiz kerak. Adelina, yaxshi qoling! Xayr, Arturo!

Mister Kompotti va uning xotini Jerri qo'lini qattiq siqishdi, unga dunyodagi eng yaxshi muvaffaqiyatlar,

eng muhimi – mashinasi kalitini tezroq topib olishini tilashdi. Tarbiya ishining ikki jonkuyari bilan mister Tekker «Oltin likop»dan chiqib ketganlaridan keyin mister Kompotti xotiniga:

– Doktorga haligi yel chiqarish masalasida hech nima demaslik kerak edi... – dedi

– Unday bo'lsa, o'zingning doimiy shikoyatlaringni bas qill..

O'N YETTINCHI BOB

JERRI BILAN BOBONING HAZILNI BILMAGANI VA HOZIRGI ZAMON PEDAGOGIK FAOLIYATNING BOSHQA SHARTSHAROITLARIGA TUSHUNMAY, O'QITUVCHILIK O'RNIDAN AYRILGANI

Mister Stiv Nyugard asli o'zi Shvetsiyada tug'ilgan bo'lib, hali bola vaqtidayoq ota-onalari bilan Amerikaga ko'chib kelgan edi. O'qishni tugallab, o'ziga biron mashg'ulot izlab yurgan paytida, nimayam bo'ldi-yu, yozuvchi bo'lib qoldi. Aslini olganda u har donasi ikki dollardan turadigan, usiz ham allaqachon yozilib, nashr etilgan tayyor romanlarni istagan miqdorda sotib olsa bo'lardi, lekin u bir yil umrini sarf qilib roman yozdi. Mister Nyugard amerika tilini va o'rta shtatlar lahjasini juda yaxshi bilardi. Biroq uning ana shu iste'dodini hech kim tan olmasdi. Chunki dollar tili har bir odamga undan ko'ra osonroq va tushunarliroq edi. Stiv Nyugard ikki yilcha o'zining ana shu rangi o'chgan ilhom parisining ko'nglini ovladi, xayol daryosida suzdi, och qoldi, shunda ham yozishdan to'xtamadi. Biron yangi asarini yozib tugatar ekan, nazarida, aytmoqchi bo'lgan gapini aytolmaganday his qilardi o'zini. Bu borada noshirlar uning fikriga to'la qo'shib, umrini bekor o'tkazmay, biron foydali mehnat bilan shug'ullanishga qizg'in maslahat berishardi. O'qituvchilarning g'oyat darajada yetishmasligi

uni pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga da'vat etdi va u oradan sal vaqt o'tmay, OSVga xizmatga kirdi.

Har bir odam o'zida, albatta, pedagogik qobiliyat borligiga to'la ishonadi. Hatto o'qituvchilar ham. O'qitishning samarasi to'g'risida o'qituvchilardan bo'lak hech kimning shubhasi yo'q, albatta.

Mister Nyugard ko'knori xayolga berilib sochining katta bir qismini yo'qotdi. Shu kecha uning avzoyi buzuq, boshiga umidsizlik buluti soya tashlagan edi. Mana, bir haftadan oshdiki, u Payn Leyk maktabida o'qituvchilnk qilar va o'zini o'zi o'ldirishni o'ylardi. Bu o'y odatda yoshlarda g'amgin va qayg'uli fikrlar natijasida ko'ngliga keladi, uning esa yoshi allaqachon qirqqa yaqinlashib qolgandi. Bu narsani yana uning haligacha bo'ydoq ekani yoki hayotning haddan tashqari noto'g'ri qurilgani oqibati deb ham bo'lmasdi. Yo'q! Buning sababi unchalik chuqur emas edi. Erkin tarbiya sistemasining hozirgi zamon bolalari uning oxirgi darsida kichik hazilga yo'l qo'yg'an – hamma dars paytida yoppasiga uxlab qolgandi.

Bu yerda o'qituvchilarning yagona imtiyozi, deyarli barcha qulayliklar mavjud bo'lgan ikki xonali kvartira edi. Hojatxona tashqarida – hovlida edi. O'qituvchilar uchun alohida, taxtadan yasalgan budka bo'lib, o'quvchilarning undan foydalanishi man etilgandi. Bunday huquqsizlik va kamsitish, garchand erkin tarbiyaning asosiy tamoyillariga ochiqdan-ochiq zid bo'lishiga qaramay, bu oddiy tashkiliy tomon ko'zda tutib qilingan ish edi. Chunonchi, o'qituvchilar ham o'quvchilar ham undan teng ravishda, umumlashib foydalanganlarida, o'qituvchilar o'zlarining ko'p vaqtlarini yo'qotgan bo'lardilar. Ma'lum bo'lishicha, ular o'z o'quvchilarining devor matbuotida e'lon qilingan yozma ishlarini uzoq o'tirib o'rganishar, eng muhimi, bunday yozma ishni taqiqlashning sira iloji yo'q edi. O'qituvchilar vaqtini tejash maqsadida ana shu ikki sistema kuchga kirgan edi.

Kitobxon, ehtimol, ushbu satrlarni o'qib, bularning bari qog'oz bilan siyohni behuda sarflashku, deb aytishi mumkin. Lekin keyinchalik uning o'zi, bu joriy etilgan ikki sistema Stiv Nyugardning hayotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishiga va bu o'z navbatida qissamiz oqimining yo'nalishida ma'lum rol o'ynashiga qattiq ishonch hosil qiladi.

Qor bo'roni avvalgidan xiyla bo'shashgan, ammo shamol hamon zo'r kuch bilan shimol tarafdan esardi. Quyun quruq qorlarni uchirib kelib, derazalarga urar, ba'zan nazaringda, allakim deraza oynasini kanifol bilan ishqalayotganga o'xshardi. Maktab binosining ikkinchi qavatiga joylashgan o'qituvchilar xonalari iliq va shinam edi. Mister Nyugard televizor bir pivo zavodining allaqanday reklamasini eshittira boshlashi bilan o'chirib qo'yib, yotishga hozirlik ko'rardi. U issiq pahmoq pijama va tungi shippakda qamoqxonaga tushib qolgan odamday xonaning u burchagidan bu burchagiga tinimsiz yurar, ertangi darslari rejasini o'ylardi. Uning vijdoniga o'ttiz yosh fuqaroning taqdiriga javobgarlik yuki ortilgan edi. Mister Nyugard karavotiga o'tirib, o'z fikrlarini ovozini chiqarib ayta boshladi:

– Bilganga ish yaxshi, bilmaganga o'qitish. Men bo'lsam, aftidan, uni ham, buni ham eplolmaydiganga o'xshayman. O'quvchilar o'z ko'ngillarini ochish uchun meni ermakka aylantirib olishdi. Lekin bir haftadan keyin bularning bari barham eydi. Bu yerdan ketishim kerak. Maosh tekkani zahoti chiqib ketaman, lekin qayoqqa? Qayoqqa bo'lsa ham mayli, ishqilib, shu yerdan chiqib ketsam bo'lgani.

Chiqib ketish haqidagi gap uning ayni ko'nglidagi istakni esiga soldi. U yelkasiga yengil xalatini tashlab, oyog'iga qo'njli, yumshoq kalishini kiydi-da, qo'l fonarini olib, tashqarga chiqdi. Quturayotgan shiddatli qor uyurmasi uning yuzini chimchilab, qo'yniga, kiyimlari orasiga kirib, chaqib olganday bo'ldi. Hovlida naq tizgaga yetay degan quruq qorni shamol tinmay shopirar,

u to'liqin otib mavjlanar, xuddi kartoshka uniday oyoq ostida g'irchillardi. Mister Nyugard xalati etaklarini ko'tarib olib, shoshilinch qadam bilan hovlining narigi boshidagi, o'quvchilar kirishi man etilgan, ko'kishrang taxta badrabxona tomon ketdi. Eshik lo'kidonining ichkari tomondan shiq etib yopilgani mister Nyugardning ko'zlagan joyiga eson-omon yetib olganidan darak beradi.

Mister Nyugard kunduzi o'z talabalariga qattiq pand bergan edi, o'z navbatida bu narsa ular qalbida shunga munosib aks sado uyg'otib, eshik ichkaridan berkilishi bilan, shu onning o'zida allaqanday o'spirin o'zini budkaga otdi, eshikning tashqari ilgagini solib qo'ydi. Shu damda maktab orqasidan qo'llariga ikkita uzun taxta ko'targan bir to'p o'spirin yugurib chiqdi. Yoshlar badrabxona ichidagi mahbusning qat'iy e'tiroz va koyishiga e'tibor ham qilmay, taxtalarni budkaning ikki yoniga zambilnusxa qilib qoqishdi. Saldan keyin o'n ikki juft baquvvat yosh bilaklar uni dast ko'tarib yo'lga tushdi. Mister Nyugard xuddi hindlarning magaradjalari kabi taxtiravonda chayqalib bormoqda edi.

– Ablahlar! Gangsterlar! – degan xitob eshitildi budka ichidan.

Biroq unga javoban faqat qiyqiriq eshitilardi, xolos.

– Hammangni otib tashlayman! Bu ahmoqona o'yinni bas qilinglar! – Nyugardning shunday deb baqirganiga qaramay taxtiravon shiddatli lopillab zudlik bilan olg'a olib ketilmoqda edi.

Mister Nyugardning so'zlari shamolga uchib ketardi. Hojatxonaning o'tiradigan joyidagi ixcham qilib kesilgan teshikdan ichkariga bir dunyo qor uyurmasi kirib keta boshladi. Asir teshikni uning qopqog'i bilan yopib qo'yib, eshikni gumburlatib ura ketdi. U butun a'zoi badani sovuqdan junjikib, hozirgi zamon haziliga tushunmay xunob bo'lardi. Ayanchli sovuqdan va ta'rif etib bo'lmaydigan alamdan dir-dir titrar ekan, u butun baxtsizligi va falokatlarida aybni xotiniga qo'yolmaydigan erkakka o'xshab taqdiriga tan berishga majbur bo'ldi.

Taxtiravon xuddi mudhish to'liqlar og'ushida suzayotganday betinim chayqalardi, mister Nyugard esa, o'zini dengiz kasaliga muhtalo bo'lganday his eta boshladi. U qo'llarini tizzalari orasiga olib g'ujanak holda ikki bukilib o'tirardi. Yordam so'rash, iltijo qilish, rahm-shafqatdan gap ochish hozir befoyda edi, chunki bunday iltimos sho'x hammollarni qayta battar zavqlantirib, xursand qilgan bo'lardi.

Mister Nyugard soat necha bo'lganini, o'zining qayerda ekanini mutlaqo bilmasdi. Dengiz kasali uning qornini g'ijimlab, ko'nglini ozdirib yubordi. Bexosdan taxtiravon taraq etib yerga tegdi-yu, to'xtab qoldi. Asirning qulog'iga shamolning g'uvillashi va bolalarning sho'x kulgisi chalindi. Oradan sal o'tmay, u uzoqlashib ketayotgan qadam tovushlarini ilg'ab qoldi: berahm battollar o'z o'qituvchilarini katta yo'lga, ko'priknig qoq o'rtasiga tashlab ketishdi. Bora-bora bo'ron bosilib, mister Nyugard allaqayerda, pastlikda, daryoning mayin shovullashini bemalol eshitdi. U teshik qopqog'ini ochib, qo'l fonari yorug'ida ko'z ilg'agan hamma tomonni tekshirmoqchi bo'ldi, lekin shiddatli qor uyurmasi teshikni tezroq yopishni maslahat ko'rib, uning yuz-ko'ziga sapchidi. Horib-charchagan, sovuqdan a'zoi badani muz bo'lib ketgan jafokash asir ozodlik haqida shirin xayol surarkan, yana joyiga o'tirdi. Kutilmaganda yaqinlashib kelayotgan avtomobilning guldირashi va sabrsizlik bilan chalingan signal eshitildi. Mister Nyugard qo'llarini qovushtirib, ko'zini yumdi. Ovoz borgan sari zo'rayib, yaqinlashib kelardi. Birdan atrofdagi osoyishtalikni tormozning chiyillashi buzib yubordi. Mister Nyugard o'zining o'lim daqiqasini kutarkan, sovuqdan yog'och bo'lib qotib qolgan qo'llari bilan yuzini berkitdi.

– Hoy, kim u, yo'qoling ko'prikdan?! – buyruq ohangida qichqirdi mister Tekker.

Kichik budkadan hech qanday sado chiqmadi.

– Janoblار, ruxsat eting, sizni ozgina bezovta qilaman, – dedi mister Tekker o'z hamsafarlari tomon

o'girilar ekan. – Allaqanday muttaham ko'prikni to'sib o'tiribdi.

Bobo bilan Jerri mashinadan tushib, mister Tekker orqasidan ko'prik tomon yurishdi. Qarmoq fabrikasining egasi hamma yog'iga qor yopishgan, ko'prik o'rtasiga qo'ndirib ketilgan bu g'alati ajoyibot yoniga kelib taajjubdan qichqirib yubordi.

– Iya, bu, axir bizning maktabimizning hojatxonasi-ku! Uni maktabda yaqiniginada qurgan edik!

Uning ko'zi budkaning ikki yoniga qoqilgan uzun taxtalarga tushib, boshini qimirlatdi.

– Aftidan, bir narsa bo'lganga o'xshaydi.

– Eshikni ochinglar!... – ichkaridan ojiz, g'amgin, zorlangan ovoz zo'rg'a eshitildi.

– Kim u? – so'radi mister Tekker.

– Men, Stiv Nyugardman...

– Nima qilib o'tiribsiz bu yerda?

Mister Nyugardning javob berishga holi qolmagandi. Qarmoq fabrikasining egasi mashinasidan kaltagina lom bilan klyuch asbobini olib kelib, asirni badrabxonadan bo'shatishga kirishdi:

– Bolalari tushmagur-ey, – o'zicha ming'irladi u, – uni qanday qilib bu yerga olib kelishdi ekan? Ozmuncha kuch kerakmi bunga? Tag'in deng, naq bir chaqirim joydan ko'tarib kelishibdi-ya!.. Ustiga-ustak, bunday ob-havoda yana...

Jerri bilan Bobo bu manzarani jimgina tomosha qilib turishardi. Mister Tekker axiri eshikni ochib, qo'l fonarini to'ppa-to'g'ri mister Nyugard yuziga to'g'rilab, ko'zini oldi. Sovuqdan va dahshatdan tarashaga aylanib qolgan o'qituvchini mashinaga qo'lda ko'tarib borishdi. Yo'l to'sib turgan budkani ko'prikdan bir chetga surib tashlab, to'rtovlon allaqanday noaniq, notinch his bilan yo'lga tushdilar.

Maktabga yetib kelib, ikkinchi qavatdagi o'qituvchilar uyiga chiqib borishgandagina mister Nyugard tilga

kirdi. U maktablar boshqaruv raisiga o'qrayib qarar ekan, nafasi qisilib, g'azab bilan dedi:

– Hoziroq meni bo'shatishingizni talab qilaman. Mister Tekker, bunga endi aslo chidab bo'lmaydi. Ha, bu quyushqondan tashqari.

– Arzimagan gap bu, – e'tiroz bildirdi mister Tekker. – Siz yoshlarni tushunishingiz kerak. Bizning maktablarimizda butun tarbiyaviy dastur o'quvchilarning tashabbuslarini rivojlantirishga asoslanib tuzilgan. Sizda, mister Nyugard, me'yor hissi yetishmaydi. Siz hazilga tushunmabsiz.

Mister Nyugard yangi hamkasabalariga nafratli nazar tashlab, Bobodan so'radi:

– Sizning to'pponchangiz qanday kalibrli?

– Menda hech qanday to'pponcha yo'q...

– Kastetmi, so'yil yo tayoqmi, hech nimangiz yo'qmi? Bobo yo'q deganday bosh chayqadi.

– Sizlar o'zlaringizga darhol biron qurol topib olishlaring kerak, – deb davom etdi so'zida jigar-bag'ri xun bo'lib ketgan o'qituvchi. – Bu maktabda faqat tish-tirnog'igacha qurollangan azamatlargina shumtakalarga bas kela oladi.

Mister Tekkerning bundan norozi ekani ochiq ko'rib turardi.

– Mister Nyugard, – dedi u jafokash o'qituvchini tinchitishga tirishib, – bolalarning beozor hazillaridan siz ozgina aziyat chekkanga o'xshaysiz. Lekin bunday baland parvoz so'zlar bilan yangi o'qituvchilarning yuragini yorishga nima hojat. Axir, nima qilsayam bola bolada.

– Men bo'shatishingizni talab qilaman, – deb javob berdi bu gapga mister Nyugard. – Ertagayoq jo'nab ketaman.

– Bu ishni ertaga bartaraf qilamiz.

Mister Tekker eshik tomon yurar ekan, orqasiga o'g'irilib yangi o'qituvchilarga qaradi:

– Gap mana shunday, janoblardan. Demak, bu xona – sizlarning uyingiz. Aminmanki, bu yer sizga yoqib qola-

di. Ertaga ertalab ko'rishmoqqa va sizlarni o'quvchilarga taqdim etmoqqa muyassar bo'laman. OSVning faoliyati sizlarni, albatta, qiziqtirib qolsa kerak, degan fikrdaman.

Ana shu nazokatli so'zlardan keyin mister Tekker chiqib ketdi.

G'amingin va jonidan to'ygan mister Nyugard yangi hamkasabalari davrasida qolishni istamadi. Ularning eskib ketgan kiyim-boshi, shamol va oftobdan qoraygan, ko'pdan beri ustara ko'rmagan yuzlari ikkovini ham shu topda daydilar tirikchilik deb atovchi beqaror hayot maktabini o'tab kelayotganlarini ravshan ko'rsatib turardi. Mister Nyugard uxlagani yotdi.

Ertalab Jerri bilan Bobo chindan ham mister Nyugardning jo'nab ketganining shohidi bo'ldilar. Stol ustida yangi kelgan o'qituvchilarga qisqa mazmundagi ko'rsatma bilan quruqqina xayrlashuv satri yozilgan bir parcha maktub yotardi. Sayyohlar o'zlari oladigan haqning bir qismini tashkil qiluvchi uy va uning qulayliklari bilan tanisha boshladilar. Shkaflarda ulardan oldingi o'qituvchilardan qolgan eski kiyim, soqol qiradigan asbob-uskuna va kitoblar sochilib yotardi. Do'stlar ana shu barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanib, o'zlarining tashqi qiyofalarini odamshavanda holga keltirib oldilar. Bufetdan bir xalta qotgan non, qand va qahva topishdi. Hayot yana ularga kulib boqmoqda edi.

Tashqarida qor bo'roni butunlay tinib, qudratli greyderlar yo'llarni qordan tozalay boshladi. O'qituvchilar uyi derazasidan ikki betiga ulkan reklama taxtalari qoqib tashlangan katta tosh yo'l ko'rinib turardi. Reklamalar pivo, soqol olish uchun sovun, tish pastasi va o't oldiruvchi svechalarni ko'klarga ko'tarib maqtardi. Katta ko'chadan maktabga burilgan yo'l yoqasida avtomashina haydovchilarni do'stona ogohlantiruvchi: «Maktab bolalaridan ehtiyot bo'!» degan yozuv bor edi. Shu sababdan avtomobillar maktab yoniga yetganda tezligini ikki barobar oshirib, o'qday uchib o'tib ketardi.

Soat chorak kam sakkizda o'qituvchilar yoniga mister Tekker keldi. Boshqaruv raisi mister Nyugardning yo'q bo'lib qolgani haqidagi xabarni eshitib kulib yubordi:

– Juda soz bo'пти. Uning oyiligini biz o'quvchilarning mayda cho'ntak xarajatlari uchun o'quvchilar kassasiga o'tkazib beramiz. Xo'sh, janoblar, endi maktabimiz ustavi bilan tanishib chiqinglar. Mana u!

U Jerri bilan Boboga g'oyat nafis qilib bosilgan kartonni uzatdi, unga quyidagi so'zlar yozilgan edi:

OSV o'qituvchilariga o'n nasihat:

1. Hamisha asosiy maqsadni unutma.
2. O'zingni tuta bil.
3. Talabangni urma. O'zingni himoya qilgan fursat bundan mustasno.

4. O'quvchingni tentak deb atama, chunki yaxshilab o'rgata olmagan o'qituvchining o'zi tentak.

5. Hech qachon javobgarlikni o'quvchi zimmasiga yuklama.

6. Dars vaqtida o'quvchilarning bir-birlari bilan so'zlashib o'tirishlarini taqiqlama. Chunki gaplashishni bilish ham muvaffaqiyatga yo'l ochib beradi.

7. Agar hayoting to'g'ridan-to'g'ri xavf ostida qolmagan bo'lsa, nazoratchi bilan qorovulni yordamga chaqirib o'tirma.

8. O'quvchilarga yoqmagan darsni zo'rlab, majburan o'qitma.

9. O'quvchilardagi tashabbusni hamisha hurmat qil.

10. OSV maktabi eng yaxshi o'quv yurti ekanini o'quvchilar ongiga yetkaz, shu ruhda tarbiyala.

– Qiziq! – xitob qildi Bobo. – Psixologik jihatdan bu g'oyat qiziq.

Ammo Jerri indamay o'tirardi. Uning fikricha, xiroamaliyot har holda bunga qaraganda, ba'zi bir, ayrim noto'g'ri umurtqalarni e'tiborga olmaganida, ancha silliq yo'l edi.

– Ha, aytmoqchi, kecha mutlaqo xotiramdan ko'tarilibdi, bizning o'qituvchilarimiz maktab yengil

mashinasidan foydalanishlari mumkin, – saxiylik bilan qo'shib qo'ydi mister Tekker. – Demak, sizlarga mashina kerak bo'lsa, qorovuldan kalitini olishingiz mumkin.

Keyin soatiga qarab:

– Endi pastga tushaylik, – dedi. – Men sizlarni sinfga olib kirib, o'quvchilarga taqdim etaman.

Aks sado jaranglovchi keng sinfdan shiddatli shovqin-suron ovozlari eshitilardi. Mister Tekker eshikni ochdi, o'quvchilar yana yangi o'qituvchi kelganini ko'rib, taajjubdan jim bo'lib qolishdi.

– Gap bunday, do'stlarim, – so'z boshladi mister Tekker. – Oldin joy-joylaringga o'tiringlar, men sizlarni vaqtincha o'qituvchilaringiz bilan tanishtiraman. Manavi janob professor Minvegen, u psixologiya sohasida juda katta tajribaga ega...

O'quvchilar qiqirlab kula boshladilar. Mister Tekker davom etdi:

– Bu kishi mister Jerri Finn bo'ladi, yaqinda Yevropadan keldi, sizlarga bayondan, adabiyot tarixidan va biologiyadan dars beradi.

O'ttiz juft navqiron ko'zlar olam fuqarosiga tikildi. Butun sinf bo'ylab chiroyli shivirlashgan to'lqin suzib o'tdi: shivirlash asta-sekin shovullashga, undan guvillashga, keyin rasmana qattiq olag'ovurga aylandiki, mister Tekker Jerri bilan Bobo hamrohligida shoshilinch suratda o'zini o'qituvchilar xonasiga urdi. Qarmoq fabrikasining egasi tashvish bilan soatiga qarar ekan, o'zining juda shoshib turganini aytdi va o'qituvchilarga sinf jurnaliga qarashni maslahat ko'rdi:

– Ana o'shandan hamma narsani ravshan bilib olasizlar, – dedi u qo'llarini keng yozib. – Maktabimizning ezgu an'analari yodingizda bo'lsin: har bir dars jamoa bo'lib qo'shiq aytish bilan boshlanadi.

Mister Tekker eshik tomon ketar ekan, kechqurun kelib o'qituvchilar holidan xabar olajagini aytdi. Ostonada yana bir lahza to'xtadida, allanimani o'ylab oldi. Birdan uning yuzi yorishib ketdi, keyin:

– Ha! Aytmoqchi, – dedi. – Sizlarga hozircha o‘quvchilar hojatxonasidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Xayr, ko‘rishguncha, janoblar!

– Endi nima qilamiz? – ayanchli ohangda so‘radi Jerri mister Tekker xonadan chiqib ketishi bilan.

– Ishlay boshlaymiz! – dedi zo‘r berib aksa urarkan Bobo. – Sen sinfga borib, ishga kirishaver, men ungapcha manavi sinf jurnali bilan tanishib chiqaman.

Jerri kostyumining etagidan tortib, o‘ziga oro berib, yolg‘ondakam bardamlik bilan sinfga dadil kirib bordi. Sinf ichi shiftga qadar tamaki tutuniga to‘lib ketgandi.

– Dars paytida chekish mumkin emas, – dedi qat‘iyat bilan u. – Yashirin ham, ochiq ham. Har bir o‘quvchi maktab ustavi talablarini so‘zsiz bajarishi kerak.

Oraga og‘ir, xatarli jimlik cho‘kdi. Jerri o‘quvchilarga milliy gimnni boshlashni taklif etdi. Lekin uning na kuyini, na so‘zini hech kim bilmagani uchun sinf o‘zi tanlagan qo‘shiqni boshlab yubordi. Hamma xor bo‘lib, mashhur Ruben Vilyamsning «Men ibodatxona eshigi yonida ko‘zlaringni sevib qoldim» qo‘shig‘ini, undan keyin, Djin Otrining «Beg‘am oshiq» tangosini ijro etdi. Ashula allaqachon tamom bo‘lganiga qaramay o‘quvchilar uzoq vaqt tango kuyiga monand partalarda chayqalib o‘tirishdi. Jerri tinchlik saqlashni so‘rab, ko‘rsatkich bilan stol ustiga urdi. Lekin o‘quvchilar u yangi takt boshlab berdi, deb o‘ylab, yana boshqatdan «Beg‘am oshiq»ni boshlab yubordilar. To‘g‘ri, bu safar ular sustroq aytishdi. Shunday qilib, dars sust va cho‘ziq tango kuyi sadolari ostida boshlandi. Undan keyin shivir-shivir avjga chiqdi va chaynaladigan rezinka ochganda eshitaladigan qog‘oz shaldirashi hamma yoqni tutib ketdi. O‘ttiz juft jag‘ bir yo‘la amerikaning milliy sporti bilan shug‘ullana boshladi. Jerri jimlik cho‘kishini kutib, sinfga qarab turardi. Qayta olag‘ovur bosilish o‘rniga borgan sari avjga chiqardi. Allaqanday o‘spirin oyog‘ini parta ustiga qo‘yib, direktor qiyofasiga kirib, yalpayib oldi.

– Oyog'ingni partadan ol! – unga qarab qichqirdi Jerri. O'spirin o'zini eshitmaganga soldi.

– Oyog'ingni ol, deyapman! – boyagidan qattiqroq qichqirdi Jerri.

– Menga aytyapsizmi? – taajjub bilan so'radi u.

– Ha, senga. Nima balo, oddiy tarbiya ham ko'rmanmisan deyman?

– Erkin maktabda hech qanday tarbiyaning keragi yo'q.

– Seni qarayu, gapga judayam usta ekansan-ku! O'rningdan tur. Oting nima?

O'spirin o'rnidan turib, shoshilmay partadan chiqdi-da, qo'llarini cho'ntagiga solib, tek turdi. U novchadan kelgan, sochlari qoramtir, yuqori labi ustida ilk mo'ylov maysasi sabza urgan chuvakkina bola edi. Ustida maktab formasi – fermerlar kiyadigan ko'k shim va katak ko'ylak.

Jerri stol ustida yotgan sxemadan bolaning familiyasini topdi, lekin uni o'qiy oladigan holatda bo'lmagani uchun savolini yana takrorladi:

– Oting nima?

– Stanislav Valentin Drenskedevitskevich, – javob berdi yigitcha.

– Harfma-harf ayt.

Yigitcha bir etak unli va undosh tovushlarni shunday tezlik bilan sanab tashladiki, Jerri beixtiyor uning talaffuziga hurmat bilan qaray boshladi.

– Yaxshi. O'tir. Demak sen polyakmisan?

– Yo'q, men haqiqiy amerikalikman. Amerikaga kelganimda olti oylik chaqaloq edim.

– Baribir polyaksan. Haqiqiy amerikaliklar – hindular.

Sinf norozi gulduragan to'lqin bilan javob berdi. Al-laqanday mallavoy so'z so'rab, hadeb qo'lini silkitardi.

– Qani, marhamat, nima demoqchisan? – so'radi undan Jerri.

– Men professorga faqat shuni aytmoqchi edimki...

– O'rningdan tur gapirayotganingda! – talab qildi Jerri.

– Bizda o‘rindan turib gapirish shart emas, – jerkib, ters javob berdi bola. – Men shuni aytmoqchimanki, hamma amerikaliklar – oq tanli, negrlar bilan hindular begona, yot bizga.

– Buni senga kim o‘rgatdi?

– Buni o‘zim ham bilaman, – javob qildi bola.

– Oting nima sening?

– Uesli Ketzervud. Men mana shu mamlakatda tug‘ilganman, meni hech kim tergay olmaydi.

– Hali shunday de, – quruqqina dedi Jerri. – Sen endi maktab o‘quvchisidan, o‘qituvchilarning nima desa shuni bajarishing kerak.

Sinf yana norozi guldirab javob qaytardi. Uesli bilan yonma-yon o‘tirgan, sochlarini vodorod peroksidi bilan oppoq rangga, kipriklarini esa etik moyi bilan qoraga bo‘yagan mushtdakkina qiz so‘z so‘radi. Sinf jimib qoldi. Kichik Merilin o‘zining yangi qo‘ndirgan yasama tishlaridan chaynaladigan rezinkani ajratib olarkan, yopishqoq saqichni uzun ingichka ipday cho‘zib, so‘z boshladi:

– Chamasi, professor Ueslining otasi Peynsvilldagi eng katta univermagning egasi ekanini bilmaydiganga o‘xshaydi, a?

– Ha, afsuski, buni men bilmas edim, – hayrat bilan javob berdi o‘qituvchi. – To‘g‘ri, lekin buning maktab ishiga nima daxli bor?

– Ueslining dadasi – OSVning ta‘sischilaridan biri, undan tashqari maktabga boshqalardan ko‘ra ko‘proq hadya qiladi.

Uesli Ketzervudning yuzida g‘olib odamning kibrli jilmayishi paydo bo‘ldi. U cho‘ntagidan bir hovuch chiroyli qog‘ozga o‘ralgan chaynaladigan rezinka olib, uni butun sinfga sochib tashlay boshladi. Kichik Merilin hafsala bilan yuziga upa-elik surtib, xuddi Marlen Ditrinxning o‘zi bo‘lib qoldi: u ham xuddi Ditrinx kabi horg‘in va suzuk ko‘z bilan boqardi. Jerri Finn olishuvning birinchi davrasini yutqizganini sezib lablarini tishladi. U

ko'zoynagini tuzatib olib, pedagogik taktikaning boshqa usulini qo'llashga jazm qildi.

– Qimmatli do'stlar! Jadval bo'yicha hozir bizda adabiyot tarixi bo'lishi kerak.

– Aaaeeeooxxx – sinfda yakdillik bilan esnagan, hamuza tortgan ovozlari eshitildi.

– Sinf jurnaliga qarab, sizlarga oxirgi darsda o'quv filmi yordamida adabiyotning mohiyati to'g'risida gapirib berilganini bildim. Qani endi, ichinglardan kim ana shu keng ma'nodagi adabiyotning o'zi nimaligi to'g'risida qisqacha bo'lsa ham gapirib bera oladi?

Hech kim istak bildirmadi. Biroz vaqt Jerri xotirjam kutib turdida, keyin sinfga sal yon bosishga ahd qilib:

– Insoniyat ruhining jamiki yozma va bosma ijodi umuman adabiyot deb ataladi... – deb so'z boshladi.

– Quruq! – dedi kimdir nozik xo'rsinib orqa partadan.

Jerri ko'rsatkich bilan stol chetiga urib davom etdi:

– Qani, endi, adabiyotni birmuncha tor ma'noda olib ko'raylik. Hozir biz uning badiiy adabiyot deb ataluvchi qismini tahlil etamiz.

– Bo'lmag'ur gap! – dedi yana orqa partadan boyagi ovoz.

– Bichimi eski-ku! – gap otdi Stanislav Drenske...

– Kelinglar, yaxshisi kino ko'ramiz! – taklif qildi kimdir.

– Kino! – qichqirdi butun sinf jo'r ovozda. – Kino ko'rsating bizga!

– Stereoskopik kino bo'lsin! – gap tashladi Uesli Ketzervud. – Pulini mening dadam to'laydi.

Jerri jimlik cho'kishini kuta boshladi. Oxiri bo'lmay, u stolni mushtlab, baqirib berdi:

– Jim!!!

– Bizning gapirishga haqqimiz bor, – qichqirdi birinchi partada o'tirgan allaqanday barkash yuz, semizdan kelgan bola.

– Men sizlardan jim o'tirishni talab qilyapman, – takrorladi o'qituvchi. – Bu yer kinoteatr emas, maktab, axir.

Jerri doska yoniga kelib, qo'liga bo'r oldida, ovozini balandlab:

– Mudrab o'tirish yoki gap sotish uchun dunyoda kinoteatr degan joy bor. Erkin Tarbiya Jamiyati maktablarida esa, siz ma'rifat mevalaridan bahramand bo'lasiz. Yozuv daftaringiz bilan ruchkangizni olinglar! Hozir adabiyotning turli ko'rinishlari yoki janrlari to'g'risida gaplashamiz. Badiiy adabiyot asosan uch muhim janrga ega: lirika, drama va epik asarlar.

Jerri sinfga orqasini o'girib, bo'rni g'irchillatib yaltirab turgan doskaga yoza boshladi. U hali «lirika» so'zini yozib ulgurmay, gardaniga allanima kelib qattiq urildi. O'qituvchining qo'lidan bo'r tushib ketdi, u gardanidagi pomidor quyqasini ohista artar ekan, bolalar tomon o'girildi.

– Kim otdi?

O'ttiz juft kelajakning umid mevalari xuddi gung odamday miq etmadi.

– Kim otdi, deyapman? – takrorladi Jerri.

Javob bo'lmadi. Yosh baquvvat jag'lar shijoat bilan chaynaladigan rezinkani u lunjdan bu lunjga otib, zo'r berib xamir qorganday ezardi. Aybdor ana shu ajoyib hamkorlik soyasida yashiringanicha qoldi. Jerri yana orqasini o'girib, poldan bo'rni oldiyu, shu zahoti sinfga qaradi. Bolalar qo'llarini qovushtirib, jimgina o'z joylarida o'tirishardi. Ular o'qituvchilarni to'satdan, qo'qqisdan ushlab olishga mo'ljallangan bunday makkor harakatlarini avvaldan yaxshi bilardilar. Jerri pand-nasihatning kishini xotirjam qiluvchi yettinchi moddasini esladi: «Agar hayoting to'g'ridan-to'g'ri xavf ostida qolmagan bo'lsa nazoratchi bilan qorovulni yordamga chaqirib o'tirma». Darhaqiqat, hozircha unga hech qanday xavf-xatar tahdid qilayotgani yo'q-ku!

O'qituvchilik kasbi hamisha biroz behalovat, notinch kasb hisoblanadi. Chunki yaxshi maslahat berish uni qabul qilishdan ko'ra osonroq. Jerri go'yo hech nima sodir bo'lmaganday darsni davom ettirishga ahd qildi.

– Shunday qilib, eng chuqur emotsional va ayni vaqtda eng bevosita adabiy janr bu lirikadir. Xo'sh, qani davom etamiz!

U doskaga «drama» so'zini yozish uchun endi o'girilgan edi, birinchi harfni yozmayoq o'zini yo'qotib qo'ydi. Butun sinf keng ko'lamda hujumga o'tib, palag'da tuxum bilan chirigan pomidorlar granata kabi yorila boshladi. Jerri sobiq askar emasmi, darhol qorni bilan polga yotib olib, doska orqasiga – pana joyga surgalib o'tib ketdi. Olamga kelmay turib bijib ketgan jo'jalar Jerrining orqasi va yelkalaridan oqib tushar, chidab bo'lmas, dimoqni yoruvchi hid taratar edi. Otishma bir nafas tindi. Jerri xuddi ana shu qisqa muddatli tanaffusdan foydalanib, vaqtni g'animat bildi-da, o'rnidan turdi-yu, sinfdan urra qochdi. Bobo sinf jurnalini ko'rib o'tirar ekan, kutmaganda harsillab-gursillab o'qituvchilar xonasiga Jerri otilib kirdi.

– Dars tamom bo'ldimi? – xotirjam so'radi psixolog yo'qlamadan ko'zini uzmay.

– Ha, – zo'rg'a nafas olarkan javob berdi u. – Shu bilan erkin tarbiya maktabida mening o'qituvchilik martabam ham tamom bo'ldi. Men haddan tashqari eski bichimdagi odamman. Hozirgi zamon yoshlariga dars berishga mutlaqo yaramayman.

Bobo sinf daftarini yopib o'rnidan turdi. O'rtog'ining turqini ko'rib ajablandi:.

– Senda psixologik idrok, fahm-farosat yetishmaydi. Sen, aftidan, ruhiy jarayonni to'xtatib qolish mumkin emasligini bilmaydiganga o'xshaysan. E-e... Nima balo sasib ketyapti?

Bobo o'zining tumov dimog'i bilan havoni hidlar ekan, Jerri kiyim-boshidagi dog'-dug'larni endi ko'rdi.

– Menga qara, Jerri, nima balo qilib qo'yding?

– O'qitdim, – qisqagina javob berdi u.

– O'qitdim?

– Ha, xuddi shunday. Adabiyotga kirishdan dars o'tdim. Buning evaziga sasigan pomidor, ko'z ochmay

olamdan o'tgan jo'jalar bilan siylashdi. Bobo, bu yerdan ketganim ma'qulga o'xshaydi.

– Yo'q, Jerri. Men mister Tekkerga bir hafta ishlab beramiz, deb va'da berib qo'rganman. Sen ana shu yangicha vaziyatga ko'nikishing yoki eski odatlaringni butunlay tashlashing kerak. Men aminmanki, sen tez orada jahldan tushasan, uni introspektiv ravishda o'rgana boshlab, alam qilishdan asar ham qolmaydi. Jumladan, eksperimental psixologiya...

– Bas qil, – shart gapni kesdi Jerri. – Jinni bo'p qopsan!

– Bu gapni ilgari ham aytuvding.

– Shu mahalgacha ishonmay kelayotganmiding? Mister Nyugard juda haq gapni aytgan ekan: bu maktab o'quvchilari bilan faqat qo'lingga to'pponcha olib, yuzingga protivogaz kiyib gaplashishing mumkin. Sinf yo'qlamasidan ham ma'lumki, bu yerda bironta o'qituvchi bir haftadan ortiq ishlagan emas. Ularning nima sababdan ketib qolganlari menga endi ravshan bo'ldi. Men ham ketaman.

Bobo xo'rsindi.

– Bularning bariga sabab, o'qituvchilarda psixologik muammolarni echa biladigan qobiliyatning yo'qligi. Hamma balo shundaki, ular o'qishni, insoniy o'zaro munosabatlarni chiniqtirishdan boshlash zarurligini tushunmaydilar. Men Bostonda psixologiya bo'yicha professorlik qilganimda... sen gapimni eshityapsanmi?

– Yo'q. Men yuqoriga chiqib, kostyumimni tozalayman. Undan keyin qorovuldan mashina kalitini so'rab olaman.

– Ha-ya, aytganday, biz o'zimizning xizmat mashinamizdan foydalanishimiz, tanaffus paytida Peynsvillga borib kelishimiz mumkin, – jonlanib ketdi Bobo.

Jerri bir so'z ham demay yuqoriga chiqib ketdi. Bobo yelkasini qisdida, barmoqlari bilan hurpaygan, to'zgiq sochlarini taroqlab qo'ydi. U o'qituvchilik ilhomi qaynab, o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Bobo darsni Psixologiya

va etika mavzui bilan boshlamoqchi bo'lib, ba'zi bir kerakli materiallarni ham shaylab qo'ydi.

U samimiy jilmayib, palag'da tuxum, chirigan pomidor hidi va kuygan tamakining achchiq tutuni suzib yurgan sinfga kirib bordi. O'quvchilar uning jilmayishiga sipo kulgi bilan javob qaytarishdi. Bobo shu payt o'z talabalari bilan yaqinlashish yuz berganini sezdi.

– Sizlarga dars paytida chekish ruxsat etilganmi? – boyagiday samimiy jilmayib so'radi Bobo.

– Ruxsat etilgan, – dedi mittigina, ko'rinishdan nimjon, kasalmand bola. O'qituvchilar stoli ustidagi sinf sxemasiga muvofiq uning nomi Devid Benton bo'lishi kerak edi.

– Yaxshi, – dedi Bobo. – Unday bo'lsa, balki menga ham sigareta berarsizlar?

Sinf bo'ylab shivir-shivir to'lqini suzib o'tdi. Uesli Ketzerudning hamsoyasi – jajji qizcha sumkasidan sigareta olib, Bobo oldiga tashladi.

– Tashakkur sizga, oyim qiz! – xitob qildi Bobo sigaretani tutatib stuliga o'tirarkan.

Bobo sigaretasini cheka turib orqadagi partada o'tirgan o'spirin bilan qizchaning o'pishayotganlarini ko'rib qoldi.

– Dars paytida o'pishishga ham ruxsat berilganmi? – so'radi o'qituvchi.

Hech kim javob bermadi.

– Agar psixologik nuqtai nazaridan qaralsa, – davom etdi Bobo, – tanaffus vaqtlarida yoki uyga qaytayotib, yo'lda o'pishish xiyla qulay. Berdi-yu, ichlaringda kimdir dars paytida ham o'pishishni istasa menga aytsin.

Sinf xuddi cherkovning riznitsa¹si kabi sukutga cho'mdi. Shunday qilib, Bobo olishuvning birinchi davrasida g'olib chiqdi.

– Qani endi ashula aytamiz! – taklif qildi u o'rnidan turarkan.

¹ Cherkov yonida rizalarni va cherkov asbob-anjomlarni saqlaydigan bino.

Bobo qaysi ashulani tanlashni o'quvchilarning o'ziga qo'yib berdi. Bolalar eng yangi, hali ohori to'kilma-gan, rosa modaga kirgan uchta qo'shiqni: «Xi-lili, xi-lo», «Yolg'iz sen, jonginam mening» va «Kuchliroq o'p meni, Jon!» ashulalarini aytishdi.

Sinfdagi vaziyat shunday bemalol va erkin bo'lib ket-diki, hatto oxirgi partada o'tirgan, sinf sxemasiga mu-vofiq oti Jon Blekshif degan o'spirin yonidagi qoramtir sochli qizchani so'rib o'pa boshladi. Bobo dars mavzui-ga ko'chishdan oldin shu topda sinfda hukm surayot-gan ahvoldan so'z boshladi.

– Qimmatli do'stlar! Dunyoda bironta ham odam yo'qki, u bo'saning ahamiyatini tushunmasin, uning qadriga yetmasin. Avvaliga arzimagan gap, bezarar bu odat keyinchalik kishini xarob qilishi mumkin. Hozirgi zamon romanlarida, bo'sa – ko'pincha kitobning aso-siy o'zagi, mixi hisoblanadi. Uning atrofida juda ko'p qo'shimcha va ikkinchi darajali voqealar sodir bo'ladi. Agar mexanik jihatdan qaralsa, bo'sa bosma asarga o'xshaydiyu, lekin o'zi og'izda ijro etiladi. Shuningdek, uni ikki so'rish organining birlashuvi yoki qo'shilu-vi deb atash ham mumkin. Ehtimol uylaringda o'zin-giz ham ukalaringiz bilan singillaringizni ochiq-oydin o'pishganlarini ko'p marta ko'rgandirsiz. Ammo yigit-larga ko'pincha bo'sani o'g'irlashga, keksa odamlarga esa, sotib olishga to'g'ri keladi. Birinchi bo'sa hayotda atigi bir marotaba bo'ladi, u hatto allaqachon unutib ulgurilgan so'nggi bo'sadan keyin ham bir umr xotira-da qoladi. Bo'sa yoshgina qizchada ishonch tug'diradi, erga tekkan juvonda umidvorlik paydo qiladi, qari qiz yoki yolg'iz qolgan keksa xotinda nasroniy muhabbatini uyg'otadi.

Oxirgi partadan ko'tarilgan shivirlash asta-sekin bu-tun sinfga yoyildi, bosiq guvillashga aylandi. Allakim baland ovozda qichqirdi:

– Axir, bu gapda zig'ircha ham yangilik yo'q-ku... Eski safсата buning bari...

Bobo qo'lidagi yozuviga qarab oldi. Psixologiya va etika mavzui, harqalay, hozirgidan ko'ra kengroq ishlab chiqishni talab etardi. Shu sababdan u yuz bergan vaziyatga yangicha bo'yoq, boshqacha sayqal bermoqchi bo'lib, bunday dedi:

– Baltimor Siti kollejining bakteriologiya professori Brian bo'sa orqali yuqadigan xavfli kasallar sababini tekshirib chiqib, o'rta hisob bilan har bir bo'sada bir yuz qirq uch bakteriya labdan labga o'tajagini aniqladi. Bu bakteriyalarning o'n beshtasidan to yetmish ikkita-sigacha kasal tashuvchi bakteriya hisoblanadi. Ularning ko'chishi, bevosita bo'saning qay darajada uzoq davom etishiga va g'oyat ehtirosli bo'lishiga bog'liqdir. Shunday qilib, demak, sizning bo'sangiz qanchalik uzoq va qaynoq bo'lsa, siz o'zingiz shunchalik mo'l bakteriya yuqtirasiz...

– Yolg'on gap bu! – uning so'zini bo'ldi familiyasi g'oyat uzun va murakkab, talaffuz etish, yozish va harflarini terib chiqish qiyin bo'lgan Stanislav Valentin.

– Yo'q, bu haq gap, – ta'kidlab dedi Bobo. – Professor Brian bakteriyalar navqiron maktab bolalarining momiqday yumshoq va nozik lablarida ko'proq umr ko'rib, chollarning sovuq, qurib-qaqshab yotgan lablaridan tezroq qochishlarini ilmiy ravishda asoslab chiqdi. Chekuvchilar o'pishganda kasal yuqtirish xavfi odatdagidan ko'ra uch marta kamayar ekan. Bularni sizlarga gapirib berishdan maqsad, bo'saning umuman bakteriologik shubhali akt ekanini qayd qilib o'tishdan iboratdir. Agar biz ushbu predmetni psixologiya va etika nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, u taqdirda...

Xuddi shu daqiqada birinchi pomidor uning ko'kragiga kelib tegib, parchalandida, hamma yoqqa sachrab ketdi. Ajablangan Bobo pomidor quyqasi sachragan ko'zoynagini qo'lga olib arta boshladi.

Shu yerda biz kitobxonga o'zining qaynoq tasavvuri-ni ozgina ishga solishni havola etamizda, birmuncha vaqtga Boboni talabalari oldida yuzma-yuz qoldiramiz.

O'zimiz maktab binosining ikkinchi qavatiga chiqamiz. Bu erda, o'qituvchilar uyida Jerri Finn maktab qorovuli mister Redmen bilan birga huzur qilib qahva ichib o'tirardi.

– Xo'sh, boya aytganimdek, janob professor, – dedi janubga xos talaffuz bilan qorovul, – mashina hamisha sizlarning ixtiyoringizda. Menimcha, u birozgina turib qolganidan sovib, muzlab yotgan bo'lsayam ajab emas, baribir ozgina itarilsa, voy-bo'o', u shunday yurib ketadiki, asti qo'yaverasiz.

– Yaxshi, mister Redmen. Men professor Minvegen bilan Peynsvillga borib kelsakmikin, deb turibman.

– Bo'lmasa, mashinani garajdan hovliga olib chiqay. Ha, aytmoqchi, doktor, qalay, bizning joylarimiz sizga yoqdimi?

– Juda ajoyib joylar! Yana qahva ichasizmi?

– Yo'q, yetar. Sizga ma'qul tushgan bo'lsa juda yaxshi. Siz Yevropada ham o'qituvchilik qilarmidingiz?

– Ha. Finlyandiyada.

– E, shunaqami! Aytishlariga qaraganda, u juda sovuq yurt emish. Yozin-qishin yerda qor va muz yotarmish. Unday bo'lsa, odamlar qanday qilib hayot kechirishadi?

– Bir amallashishadi-da...

– Men ham shunday bo'lsa kerak, deb taxmin qiluvdim. Aytganday, bu finnlr mo'g'ullar deganimi?

– Ha...

– Doktor, siz bo'lsangiz butunlay odamga o'xshaysiz, ya'ni...

– Mister Redmen, siz menga xushomad qilyapsiz.

– Sirayam. Mening o'zim asli texaslikman. Texas – Qo'shma Shtatlardan keyin olamdagi eng katta mamlakat. Shu tufayli ham u yerda savodsizlar juda ko'l. Ochig'ini aytganda, savodxonlikning uncha keragi ham yo'q. Harqalay, hamma dollarni sanay oladi.

Jerri allaqachon o'zini erkin tutnsh qoidasini o'zlashtirib olgan edi. U stol yonidan turib, qaznoqdan topib olgan kiyimlarni kiya boshladi. Qorovul hech yoqqa

shoshilmas edi. Chamasi, u qor kurab ovora bo'lmalik uchun havoning ilib ketishini kutardi. To'satdan pastdan vahimali olag'ovur va allakimning yordamga chaqirgan qichqirig'i eshitildi. Jerri bamaylixotir qahva ichib o'tirgan mehmoniga tashvishli nazarda qarab olarkan, xavotir ichida so'radi:

– Siz ham eshitdingizmi? Kimdir yordamga chaqiryapti.

– Aftidan, kichik to'qnashuv yuz berganga o'xshaydi. E'tibor berishning hojati yo'q.

– Shundayku-ya, lekin allakim yordamga chaqiryapti. Tushib xabar olish kerak edi.

Mister Redmen shoshilmaygina o'rnidan turib, xiyla o'y surarkan, so'zlarini cho'zib, salmoq bilan dedi:

– Maktab ustaviga muvofiq, meni rasmiy ravishda yordamga chaqirishmaguncha janjalga aralasha olmayman. Bordi-yu, otishma bo'lib qolsa, u boshqa gap. Lekin keyingi vaqtlarda bizda osoyishtalik hukm surmoqda, mister Finn, hozir tinchib ketdik. Yaqinda maktab prezidenti bizda axloq saviyasi tobora yuksalib borayotganini alohida qayd qilib o'tdi. Mana bir necha haftaki, politsiyadan yordam so'raganimiz yo'q-da.

Bu orada olag'ovur battar zo'rayib, dahshatli sharaqlash va gumburlash eshitildi.

Jerri ana shu taraq-turuq orasida Boboning yordamga chaqirib bo'kirayotganini aniq eshitdi.

– Mister Redmen, biz shu topdayoq pastga tushishimiz kerak! – dedi qat'iyat bilan Jerri eshikni ocharkan.

– O'key, doktor. Yordamga endi borsak bo'ladi.

Jerri hamon jag'i tolmay gapirayotgan, keng yelkali, zabardast texaslikni oldiga solib, jadal borardi.

– Sizlarning o'sha Finlyandiyangizda maktablar ham bormi? – shoshilish kerakligini aslo xayoliga keltirmay so'radi mister Redmen.

– Ikki-uchta bor, – dedi Jerri tezroq yurishga tirishib.

– Bizning mamlakatda maktab demaganing to‘lib yotibdi. – Yaxshilariyam bor, qimmat turadiganlari ham...

Qorovul jumlasining oxiri sinfdan eshitilgan shiddatli gumburlash va yurakni ezuvchi faryod orasida ko‘milib ketdi. Qorovul jomakor bluzasi tugmalarini yechib, kamariga osilgan uzun stvolli ikki to‘pponchasini qo‘liga oldida, eshikni lang ochdi. Shundan keyin tank singari jadal sinfga kirib borib, xotirjam dedi:

– Qani, joy-joylaringga o‘tiringlar!

U keng sinfga ko‘z tashlab, havoni iskadi.

– Yana marixuana chekibsizlar. Kim ruxsat berdi?

– Professor Minvegen ruxsat berdi, – javob qildi sochini oqqa bo‘yagan, dars boshlanishi oldidan Boboga ichiga nasha solingan sigareta bergan qizcha.

Sinf butunlay tor-mor etilgan, deyarli barcha partalar sindirilib, dabdala qilingan, xarita va jadvallar pichoqda kesilib, burda-burda qilib qiymalangan, devor va shiftlar siyoh bilan chapib tashlangan edi. To‘nkarilib qolgan doska ostida oyoq-qo‘li chambarchas bog‘lab tashlangan, yuz-ko‘zi, ust-boshi pomidor quyqasidan tanib bo‘lmas darajada bulg‘angan Bobo yotardi.

– Cholning oyoq-qo‘lini yechinglar, – hamon xotirjam sinfga ko‘z tashlab ohista dedi qorovul.

Allaqanday sepkil yuzli bola Bobo bog‘lab tashlangan arqonni kesib, professorga og‘ir doska tagidan chiqishga ko‘maklashdi. Psixolog gandraklab, zo‘rg‘a o‘rnidan turdi-da, o‘zini Jerrining quchog‘iga otib, ho‘ngrab yig‘lab yubordi:

– Men psixologik xatoga yo‘l qo‘ydim... haligi jinsiy mayl-intilishni... e‘tiborga... olmabman... Mening imonim komil ediki, deterministik tendensiya... allaqachonlaroq... zarur bo‘lgan...

– Uni tashqariga olib chiqib shamollating, – Jerriga murojaat qildi qorovul. – O‘ylashimcha, u ham ana shu marazdan o‘larday chekkanga o‘xshaydi.

Jerri do‘stini ikkinchi qavatga olib chiqib ketdi. Misster Redmen vaziyatni aniqlagani sinfdan qoldi. U naq

belkurakday keladigan kaftlari orasida to'pponchalari-ni qisganicha birmuncha vaqt jim turdi, ko'zini qisib hammaga bir-bir sinovchan nazarda qarab chiqdi, oxiri quruqqina qilib:

– Bular uchun kim to'laydi? – deb so'radi.

O'quvchilar kichik-kichik guruh hosil qilib, qalashib yotgan siniq partalar orasida jimgina turishardi. Mana, badavlat savdogar va OSV maktablari ta'sischilari-dan birining o'g'li Uesli Ketzervud ikki qadam oldinga chiqib, ko'krak cho'ntagidan chek daftarchasini olar ekan, kekkayib, dimog'dorlik bilan:

– Mister Redmen, qancha to'lash kerak? – dedi.

Qorovul shoshilmaygina sinf ichiga qarab, bir dam o'y surib olgach:

– Bu safar o'tgan haftaga qaraganda jihozlar ko'proq sinibdi, – dedi. – O'shanda buyumlar remonti va sinfni tozalash ikki ming dollarga tushgan edi.

Bolakay Uesli Ketzervud oltin parker ruchkasini qo'lida o'ynab, savolini yana takrorladi:

– Qisqaroq qiling! Mister Redmen, qancha deya-man?

– Uch ming yoza qol... Ke, bo'lmasa, birato'la uch yarim ming yoz.

Ulkan universal do'konning xo'jayini, Texasdagi bir necha neft quduqlari egasining o'g'li bolakay Uesli Ketzervud qorovulga chekni uzatar ekan:

– Men munga to'rt ming dollar deb yozdim, shu bilan o'zingiz ham ovozingizni o'chiring! – dedi.

– Mening so'zim so'z, – va'da berdi mister Redmen va so'zlarini cho'zib, salmoqlanib davom etdi: – Endi ham-manglar uy-uylaringga tarqalinglar, maktabimiz bir necha kunga yopildi deb aytinglar. Markaziy isitkich-ning bug' qozoni yorilib ketibdi, denglar. Tushunarlimi, bolalar?

Stiv Nyugard shoshilinch jo'nab ketib, garderoab xizmatini o'tovchi qaznoqda jomadonini unutib qoldir-gandi. Uning ichidagi buyumlar bizning daydilarimizga

ust-boshlarini almashtirib, bashang qilib olish imkonini berdi. Ular baxtsizlikka sherik bo'lgan o'rtoqlari kiyim-boshini olib, uning jomadoniga o'zlarining eskilarini solib qo'yishdi. Doktorlik, dissertatsiyasining asosiy mavzui kulgi psixologiyasi bo'lgan professor Minvegen umidsizlik dengiziga sho'ng'ib ketib, butunlay kulmaydigan bo'lib qoldi. Chakkalari lorsillab og'rirdi. O'zi shu mahalgacha ichiga kishining esini yo'qotib, gangitib qo'yuvchi marixuana solingan sigareta chekmagan edi. Uning alamdiyda va ruhan ezilishiga butun vujudini o'rtab yotgan o'z-o'zini ayblash hissi qo'shilib, dard ustiga chipqon bo'ldi.

– Men psixologik xatoga yo'l qo'ydim, – derdi u nuqul.

– Menga qara, hadeb bir gapni chaynayvermay, yangiroq sabab top, – dedi hamma narsa joniga tegib ketgan Jerri do'stining tezroq kiyinishini sabrsizlik bilan kuzatarkan. – Yaxshisi, ochiq ayt, senga hayvonlarning psixologiyasi yetarli darajada tanish bo'lmasa kerak.

– Yo'g'-ey, tanish. Men axir Boston universitetining psixologiya laboratoriyasida bir yarim yil assisteit bo'lib ishlaganman-ku. Ana o'sha paytda men hayvonlar hayotning turli shart-sharoitlariga ko'nikishlari masalasini o'rgangan edim. Mana endi, keyingi sodir bo'lgan voqeani eslar ekanman, eksperimental metodning imkoniyatlari g'oyat cheklangan ekanini ravshan ko'rib turibman. Har holda, ularni miqdor jihatidan tahlil qilishning iloji bo'lmagan edi, yolg'iz juda-juda cheklangan ko'lamda – tajriba yo'li bilan...

– Tezroq bo'lsangchi! – deb uning so'zini bo'ldi Jerri.

– Qo'limdan kelganicha harakat qilyapman. Tashnalik qiynayapti meni.

– Krandan suv ichish mumkin emas. U pivoga o'xshab qo'ng'ir tusda va undan siydik hidi keladi. Quduqni bo'lsa o'quvchilar bulg'ab tashlashgan. Qorovul suvni analiz qildirgani Klivlendga yuborgan ekan, u yoqdan qisqa: «Sizning otingiz diabet kasaliga yo'liqibdi» degan javob kelibdi.

Bobo xo'rsindi:

– Sho'ring qurg'ur maktab... Sen qahva uchun suvni qayoqdan olgan eding?

– Qorni eritdim. Tayyormisan?

– Hozir bo'laman...

– Bobo xonaga ko'ngli g'ash, avzoyi buziq holda nigoh tashladi.

– Bunday alpozda jo'nab qolish odobdan emas, – dedi ruhi tushib Bobo. – Mister Tekker bizga qanday ishongan edi-ya!..

U har ehtimolga qarshi oziq-ovqat shkafini ochib qaradi. Suxari solingan xaltani olar ekan:

– Seningcha qalay, manavi xaltani yo'lga olsak bo'lar-mikin? – so'radi u.

– Olaver!

– Demak, bu o'g'rilikka kirmaydi, a?

– Yo'q, kirmaydi. Mehnatimiz evaziga olayotgan haq bu.

Jerri qanddonda qolgan bir necha chaqmoq qandni ham ag'darib olib, xaltaga solarkan:

– Bu maoshimizga qo'shimcha haq, – dedi.

Psixolog og'ir xo'rsinib, donishmandlarcha dedi:

– Hozir odamlar qilgan gunohlari haqidan bo'lak hamma turdagi haqni oshirishni va qo'shimcha haq berilishini talab qiladigan bo'lib qolganlar.

– Qani, ketdikmi?

– Hozir...

Bobo go'yo bir nimani izlayotganday, xonani sinchiklab qarashda davom etdi. Bexosdan ko'zi deraza rafida turgan bir quti talk poroshokka tushdi. Uni darhol qo'liga oldi.

– Yana birpas to'xtachi. Men botinkamni yechib, barmoqlarim orasiga talkdan sepib olay.

– Uning nima keragi bor?

– Yurish qulayroq bo'ladi. Axir, Peynsvillga qadar sal kam sakkiz mil yurishimiz kerag-a!

Jerri eshik tomon bir qadam tashlab, tantanali ohangda dedi:

– Bu safar biz piyoda emas, mashinada yoʻlga chiqamiz.

Maʼnaviy sarxushlik hamisha Boboda maʼnaviy karaxtlik uygʻotardi. U ruxsat etilmagan va oʻzi oʻylab koʻrmagan ishni qilishni xushlamas edi.

– Yoʻq, Jerri. Bu gap ketmaydi. Bunday qilish ashaddiy oʻgʻrilikning xuddi oʻzginasi!

– Nega, axir? Biz maktab mashinasidan foydalanish huquqiga egamiz-ku.

– Mashinadan foydalanish huquqi uni haydab qochib ketish uchun berilgan emas.

Jerri oʻy surib qoldi. Hurmatli kitobxon qissamiz davomida Jerri Finning bironta arzigulik jinoyat qilmaganini yaxshi biladi. Ammo hozir, ha, ha, hozir ana shunday jinoyatga qoʻl urmoqqa tayyor turardi. Uni haqorat qilishdi, laqillatishdi, sharmandasini chiqarishdi, bu narsa Jerri qalbining chuqur bir burchagida xoʻrlangan izzat-nafsi uchun oʻch olishga oʻxshagan bir his uygʻotdi. U oʻquvchilarga umum madaniy boyliklarini zoʻr mardonavorlik bilan singdirishga harakat qildi. Bu keltirgan foydasi evaziga endi u maʼlum darajada oʻzini ulush olishga haqli deb hisoblardi. Maktab mashinasini minib ketish, uning fikricha, xuddi ana shu ulush oʻrniga oʻta olardi. Jerri sherigi yuziga tik boqarkan, xotirjam dedi:

– Doʻstim, agar biz Peynsvillga qadar mashinada borsak, baribir shunda ham kunduzgi mehnatimiz haqini qoplolmaydi. Boshqacha qilib aytganda, biz hamon oladigan haqimizni qisqargan, yaʼni uni bir qisminigina olib, jabr tortgan boʻlamiz.

– Hozir umuman, hamma yerda maoshlar qisqaryapti, yolgʻiz gunohlar uchungina toʻlanadigan haq qisqarmagan, – eʼtiroz bildirdi psixolog.

– Bu dono fikrni sen hozirgina aytgan eding.

– Chamamda, shunga o'xshagan nimadir dedim, lekin faqat buning aksini aytuvdim. Ilmiy ravishda asoslab berishim mumkinki, bir fikrni ifoda etishning taxminan olamda besh ming xil usuli bor.

– Bobo, sen dahosan!

– Odatda o'lgan odamlarnigina daho deb atashadi.

– Qanday baxtki, sen tirik bo'la turib dahosan.

– Bir soat muqaddam men chindan ham daholar safiga qo'shilishimga oz qoluvdi.

Jerrining sabr kosasi to'ldi.

– Bu safsatani, balki biz behuda davom ettirayotgandirmiz? – zardasi qaynab dedi u. – Agar sening ana shu doimiy bachkanaliging, o'taketgan maydakashliging bo'lmaganda, men seni o'n chandon ortiq hurmat qilardim.

– Mayli, men bachkana, maydakash bo'la qolay, lekin u bizni jinoyatdan saqlab qolsa bo'lgani.

Jerri Bobo yoniga judayam yaqin kelib, yuzini yuziga olib bordida:

– Men seni jinoyat yo'liga tortishni istamayman, – dedi jiddiy qiyofada, – bu narsa baribir sen bilan meni kongressmen bo'lishimizga yordam bermaydi. Ishning birgina oson yo'li bor, biz maktab mashinasini vaqtincha qarzga olib, unda Peynsvillgacha boramiz. U yerda biron kishini topib, mashinani orqasiga qaytarib yuboramiz. Qani aytchi, buning nimasi qonunga xilof ish bo'ladi?

Bobo kumushsimon sochlarini battar to'zg'itib, javob qildi.

– Yo'q. Qonun faqat o'ziga advokat yollash imkoniga ega bo'lgan odamlarnigina muhofaza qiladi. Sen bilan biz bunday imkoniyatga ega emasmiz.

– Bobo! Nahot, sen burningdan narini ko'ra olmagani bo'lsang? Modomiki, biz biron qonunga xilof ish qilmayotgan ekanmiz, bizga yuristning nima keragi bor?

– Odamlar nega sudga tushadilar? Millionlab kishi xuddi ana shu qonunlarni bilmagani uchungina o'zini

hibsda ko'radi. Jinoyat qonuni bozori chaqqon kolbasaga o'xshaydi: sen uning nimadan yasalganini bilganingdan keyingina jirkanib qaraysan.

Zinadan qadam tovushi eshitilib, shu onda eshik taqillamay ochildi. Mister Redmen kirib, boshidan shlyapasini ham olmay:

– Xo'sh, ish bundog', – deb gap boshladi, – men maktab aravasini itarib yo'lga olib chiqib qo'ydim. Endi sizlar bironta o'tkinchi mashinadan salgina itarib yuborishni iltimos qilaszlaru, uning motorini yurgizib olib, ketaveraszlar. Shundan keyin...

Mister Redmen bir dam so'zdan to'xtab, keyin yana davom etdi:

– Bizga ikki kun chamasi ta'til qilib olishga to'g'ri keladi. Janoblar, sizlar men nima demoqchi bo'layotganimga tushunib turibsizlar, shundaymi? Lekin bu haqda lom-mim demaslik ma'qul. Agar istak bo'lsa, shaharda bir-ikki kun o'ynab qolishlaring ham mumkin.

Bobo nimadir demoqchi bo'layotganini bildirib, yo'tala boshlagan edi, Jerri undan oldinroq gapni ilib ketdi.

– Juda soz, mister Redmen. O'zimiz ham hozirgina yo'lga chiqmoqchi bo'lib turgan edik.

Farrosh mashinaning kalitini Jerriga berib, Boboga murojaat qildi:

– Professor, sizga ham ikki kungina dam olish ziyon qilmaydi.

– Albatta, – javob berdi Bobo. – Juda soz bo'ldi...

– O'key, janoblar! Yaxshi o'ynab kelinglar! Omadlaringni bersin!

Farrosh xonada taxir pivo hidi taratib chiqib ketdi. Bobo itoatkorlik bilan:

– Bo'pti bo'lmasa, ketdik, – dedi. – Bugun havoning yaxshiligini ayt...

U yana bir bor derazaga qaradi, uning yoniga keldida, qo'lga talkli qutini olib:

– Seningcha, manavini olishim mumkinmi? – deb so'radi.

– Albatta mumkin, – javob qildi Jerri. – Lekin, nima keragi bor senga uni?

– Harqalay, piyoda yurishga to'g'ri kelib qolsa...

Jerri xo'rsindi. Bobo botinmaygina qutichani cho'nta-giga solib, xaltasini qo'ltig'iga qisgach, savol nazarida Jerriga qaradi. U bosh irg'adi. Ular go'yo jinoyat so-dir bo'lgan joydan qochib ketayotganday, jadal uydan chiqishdi. Sof qalbli, beish, boshpanasiz va hatto hi-sob-kitobini olmagan ikki o'qituvchi ana shunday yo'lga chiqdilar. Ular o'z o'quvchilarini ovutish vazifasinigina o'tovchi o'qituvchilarning imtiyozli keng tabaqasiga mansub emas edilar. Shuningdek, ularni kollejlari va universitetlarning professorlari bilan ham tenglashtirib bo'lmasdi. Bu professorlar ana shu oliy o'quv yurtlari-ga yosh talabalik vaqtida kirib shu bo'yi bir umr unda qolib ketadilar. Bular esa tasodifan, ha, mutlaqo taso-difan, hayotning o'zi barpo etgan, hech qachon hokimi-yatga qo'yilmaydigan ulkan bir oppozitsiyaga tushib qolgan edilar.

Erkin tarbiya jamiyati xayr-ehsonlar hisobiga ya-shovchi xususiy bir tashkilot bo'lib, uning foydasi uchun to'rt yuzdan ortiq xotin-qizlar qo'l-hunar to'ga-raklari va yordam jamiyatlari ishlar edi. Xotin-qizlar-ning qo'l-hunar to'garaklari qancha ko'p tashkil qilin-gani sari erkaklarga o'z paypoqlarini yamash va ko'ylak-larini yuvish shuncha ko'p to'g'ri kelmoqda edi.

Bundan uch yil muqaddam mahalliy fermerlardan biri maktabga avtomobil taqdim etgan edi. Bu – 1915-yil-da chiqarilgan, hammaga tanish ford markali mashina edi. Jerrini hamisha qadimiy yodgorliklar qiziqtirardi. Ammo Bobo limuzinga shubhali tikilib uning eshigini ochib ichiga qaradi. Oldingi o'rindiq eski qop va gazeta-lar bilan yamalib, amal-taqal qilib o'tirishga moslash-gan edi. Har balo uyib tashlangan orqa o'rindiqda zang-lab ketgan belkurak, temir lom, bir quchoq sim (yo'lda remont qilinsa kerak bo'ladi) yotardi. Bobo boshini qi-mirlatdi:

– Ha, ko‘rinishining uncha mazasi yo‘q. Xo‘sh, kim rulga o‘tiradi?

– Menda mashina haydash huquqini beradigan ruxsatnoma yo‘q, – dedi Jerri.

Ular farrosh katta yo‘l yoqasiga chiqarib qo‘ygan mashinaga tushdilar. Endi motor yurgizilsa bas, jo‘nash mumkin. Bobo starterni bosdi. Ammo almisoqdan qolgan mashinadan sado chiqmadi. Ular yo‘lga chiqib, butun umidlarini yana o‘zlarining bosh barmoqlariga tikdilar. Biroq o‘tkinchi mashinalarning osor-atiqaga hushlari yo‘q edi, ular eskigina maktab ford yonidan mag‘rur uchib o‘tib ketardilar. Bechora ford esa jindakina rag‘batlantiruvchi turtkiga muhtoj edi.

Nihoyat, allaqanday yangi bir yengil mashina yo‘lda qolib ketgan sayyohlarga beg‘araz yordam ko‘rsatish niyatida to‘xtadi. Hozirgi zamonning bu mo‘jiza mashinasida to‘rt odam o‘tirardi. Rulni boshqarib kelayotgan jentelmenning ko‘zlari muloyim, ovozi yo‘g‘on, labi ustida ipday mo‘ylovchasi bor edi. U do‘stlarimizning o‘qituvchilar ekanini eshitgan zamon ularning mashinalari yurmayotganini va ozgina siljitishga muhtojligini payqab oldi.

– Mashinaga chiqib o‘tiringlar, men tez yurib kelib, uni itarib yurgizvoraman, – dedi u o‘z mashinasi oynasini ko‘tarib qo‘yarkan.

Bobo rulga o‘tirib, shaylanib turdi. Jerri uning yoniga joylashdi.

– Baxtimizga yaxshi hamki boyagi talkni yoningga solib olgan ekansan, – dedi Jerri. – Har ehtimolga qarshi-da.

– Taroqdagi sochdan boshdagisi qimmatroq, – javob qildi Bobo.

Avtomobil qurilishining hurmatli veterani sharaqlab, taraqa-turuq qilib turgan joyidan qo‘zg‘aldi. Bobo gaz berdi, sepleniyeini bosdi, tezlik qutisining qiyshiq richagini u yoq-bu yoqqa aylantirdi...

– Sepleniye ishdan chiqqanga o'xshaydi, – deb qo'ydi u xuddi qoyil qiladiganday.

– Eng muhimi, bizning shu topda olg'a qarab keta-yotganimiz, – dedi Jerri.

– Uzatkich quticha ham buzuqqa o'xshaydi.

– Ke, ko'nglingga yaqin olaverma. Balki maktab mashinasini OSVning kenja farishtalari ishdan chiqar-gandir?

– Hozirgi paytda farishtalar faqat osmondagina bo'ladi.

Boboning so'zlarini g'ichirlash, jaranglash, gum-burlash bosib ketdi. Sho'ring qurg'ur kekxa ford chok-chokidan so'kilib, to'kilib tushay derdi. U umri bino bo'lib ana shunday dahshatli poygani sira ko'rmagan edi. Ilgarilari – o'zi yangi tug'ilgan oltin yoshligi yillari-da ham, sut zavodiga bidon va yakshanbalik maktabga xo'jayinning bolalarini tashib yurganda ham bunday shiddatkorlikka aslo duch kelmagan edi.

– Motor ishlayaptimi? – so'rab qoldi Bobo.

– Nima so'rayotganingni eshitmayapman.

– Quloq solib ko'rchi, motorimizning ovozi chiq-yaptimi?

– Bilib bo'lmayapti... muncha tez haydama-sang sa-vilni!..

– Men hech narsa qilayotganim yo'q: men haydama-yapman, meni haydab ketishyapti...

Shu alpozda ikki mil yo'l bosildi. Birdan tezlik pasa-yib, do'stona yordam berayotgan mashina to'xtadi.

– Xo'sh, qalay, motor ishlab ketdimi? – so'radi kichik mo'ylovli ko'ngilchan odam.

– Yo'q, – javob qildi Bobo. – Motor judayam sovib ket-ganga o'xshaydi. Siz yana ozgina hozirgiday mashina-mizni haydashib berolmaysizmi?

U istehzoli jilmayib, hech nima demadi. Lekin o'zi, harqalay, butun hayotlarini bolalar tarbiyasiga bag'ish-lagan, birozgina odamga o'xshab yashash uchun qo'shimcha daromad topish niyatida o'zlarini ayamay, bunday mushkul safarlarga chiqishga majbur bo'lgan

ana shu nkki odamga beixtiyor hurmat hissi sezmoqda edi. Mehr-shafqat degan insoniy tuyg‘u ana shu ko‘ngilchan odamda yana bir yordam berish istagini uyg‘otdi. O‘qituvchilarning keksayib qolgan jiyron oti horg‘in kishnab, yana yugurib ketdi. Ammo sofdil o‘qituvchilar bunday zavqli tezlik nash‘asini uzoq sura olmadilar. Noqulay o‘rindiq sekin-asta joyidan ko‘chib, sirg‘anib haddeb «yurib» keta boshladi. Qudratli taraqturuq olamni buzib, quloqlarni bitiray derdi. Peynsvill ham yaqinlashib qoldi. Harakat ancha jonlanib, ulkan reklama taxtalari sivilizatsiyadan darak berib, ko‘zni qamashtirib boshladi. Yana bir-ikki mil yurilib, ular shaharga kirib bordilar. Mashinaning yurishi sekinlashib, orqa o‘rindiqqa uyib tashlangan bir quchoq zanglagan sim o‘zining g‘irchillagan jarang-jurung o‘yinidan to‘xtadi. Beg‘araz yordam qilayotgan ko‘ngilchan odam tegishli iltifotni ko‘rsatib bo‘lganiga qanoat hosil qilib, o‘qituvchilar mashinasi qatiga barobar kelganda yon oynani tushirdida:

– Baklaringda benzin bormi? – deb qichqirdi.

Bobo shu topda kulgiga daxli bo‘lmagan masxarabozga o‘xshardi.

– Menimcha, bo‘lishi kerak, janob. Hamma narsa joyida...

– Mashinani yo‘l yoqasiga olib chiqib to‘xtating.

Jerri tormozni bosdi, ammo yasharib ketgan qariya to‘xtashni xayoliga ham keltirmay, olg‘a chopishda davom etdi.

– Tormoz ham ishlamaydi, – shivirladi Bobo do‘stining qulog‘iga.

Axir-oqibat inersiya kuchi zaiflashib, mashina to‘xtadi. Erkin tarbiya sistemasi maktabining sofdil pedagoglari mashinadan tushib, uvushib qolgan oyoqlari chigalini yozish, behalovat o‘rindiqdan ko‘karib ketgan orqalarini silash, bir nafas toza havoda nafas olish imkoniga erishdilar. Himmatli ko‘makdosh mashina, jilo berilib sayqallangan yonboshini yaltiratib ford qarshisi-

ga kelib to'xtadi. To'rt notanish odam bu tarixiy harakat vositasi – qadimiy mo'jizani ko'rgani mashinalaridan chiqishdi. Bu mo'jiza xuddi shtoporga o'xshardi. Uning tashqi qiyofasiyoq ma'lum darajada kishining kayfini chog' qilib, lablarda kulgi uyg'otardi.

– Aftidan, motoringiz buzuqqa o'xshaydi, – dedi boya-gi muloyim boquvchi xushmo'ylov erkak.

Uning kichik mo'ylovchasi hozir ham avvalgi holati-da qolgan, ammo qarashi endi o'tkir va shubhali edi.

– Janoblar, sizlar qayoqqa ketayotibsizlar? – yo'g'on ovozda so'radi u.

– G'arbiga, – javob berdi Bobo.

– Balki sizlarda benzin yo'qdir?

– Hozir ko'ramiz...

Bobo sim bilan bog'lab tashlangan kapotni ochar ekan, endi o'zini kim bo'lib ko'rinishiga e'tibor qilmasdi. Uning qo'llari qaltirar, burni uchida turgan ko'zoynagi-ni hadeb tuzatib olar edi. Nihoyat, Bobo kapotni ochish-ga muvaffaq bo'ldi. Ochdi-yu, butun kamchilik darhol bilindi: mashinada motorning o'zi yo'q edi. Mo'ylovli ki-shi birdan Boboning yoqasidan oldi:

– A, demak, sen meni laqillatmoqchi bo'lgan ekan-sanda! Qani ayt, maqsading nima edi, men sen bilan boshqacha gaplashib qo'yaman!..

U psixologning yoqasini qo'yib yuborib, titrab tur-gan iyagiga chunon musht tushirdiki, Bobo gandirak-lab borib, maktab mashinasiga suyanib qolmoqchi edi, yo'g'on ovozi erkak chap qo'li bilan uni ushlab qolib, yiqilishiga qo'ymay, o'ng qo'li bilan yana musht soldi. Jerri do'stiga ko'maklashgani o'zini otdi. Biroq bolg'acha yo'qligidan u ojiz edi. Jerri psixologning nuroniy yuzi-ni himoya qilaman deb, jag'iga, ayni vaqtda ko'kragiga shunday shiddatli zarb yediki, unga bardosh berolmay ag'darilib tushdi, bir necha fursat hushsiz yotdi.

Quyosh qorlarni eritar va motoridan ajralgan, pa-chaqlab tashlangan eski mashina ustiga o'zining yoch-qimli nurini sochar edi. O'sha kuni ertalab o'quvchilar

mashinaning motorini sug'urib olib, quduqqa tashlab yuborgan edilar. Uning qimmatini ham Uesli Ketzervud maktab farroshiga yozib bergan to'rt ming dollarli chek ichiga kirar edi.

O'N SAKKIZINCHI BOB

JERRINING BIR XOTIN QO'LIGA TUSHGANI VA BOBONING O'Z BAXTIGA YOKI PSIXOLOGIYAGA UMID BOG'LASHIGA QO'YIB BERGANI...

Esni og'dirib, dovdiratib qo'ygan zarbdan keyin o'zlariga kelgan daydilar mashinaga chiqib, kesak bo'lib qolgan iyaklarini ishqalab silay boshladilar. Ular xuddi davlat komissiyasiga o'xshab anchagacha bir qarorga kelolmadilar. Daydilar xayol olamiga sho'ng'ib ketib, havoyi qasrlar qurdilar, sira amalga oshmaydigan va o'zlarining shu topdagi mavqelariga aslo to'g'ri kelmaydigan rejalar tuzdilar. Shundan so'ng xuddi pyesalar-dagi kabi, har kim nimaga intilishi, o'zining maqsadi to'g'risida o'ylashi kerakligi ma'lum bo'lib qoldi. Bobo Chikagoga, xobolar qirolining toj kiydirish marosimiga ketayotgan edi. Jerrining esa borayotgan joyi va bu safardan asl maqsadi hali aniq emas, majhullikning quyruq tumani orasida yashirinib yotar edi. Jerri o'zining latofatli xotinchasi bilan hech nimaning tashvishini qilmay, nasiya va qarzlarni hisobiga tuppa-tuzuk yashay berishi mumkin ekaniga qaramay, o'rta G'arbgacha biron ish qidirib yo'lga chiqqan edi. U ana shunday chuqur umidsizlik boshlangan va yuragi siqilib, qizig'i yo'q, siyqa daqiqalarga tushib qolgan mahalida xotinini sog'inardi, avvalo erkak bo'lgani uchun ham uni yaxshi ko'rardi. Joan faqat xotin bo'lgani uchun tushunibgina qolmay, uni sevish ham kerak edi.

Shu sababdan Jerri orqaga qaytishni o'ylab qoldi. Lekin Bobo bu qadamni mutlaqo tentaklik va nojo'ya deb

topdi. U gapga to'n kiyg'izib, shaxtalar makoni bo'lgan Minnesota bilan Michiganning beqiyos bepoyon vodiylarini, ana shu shaxtalardan birida Jerri xiroamaliyot yordamida o'zining ajoyib kelajagiga erisha olishini rosa ta'riflab berdi.

– Har bir konchining belida biron lat egan joy bo'ladidi, – dedi Bobo. – Ular yer ostidan temir bilan mis qazib olishadi. Sen bo'lsang ularning umurtqalaridan dollar qazib olishing kerak.

– Menda Isaak Riversning klinikasidan bo'lak jonda xiroamaliyot bilan shug'ullanish uchun rasmiy ruxsatnoma yo'q-ku, – javob berdi bu taklifga Jerri.

– Unday bo'lsa, o'qituvchi bo'lib ishga kirasanda, xiroamaliyot bilan yo'l-yo'lakay shug'ullanaverasan. Amerika xalqining ko'pchiligi xuddi ana shunday qo'shimcha daromad hisobiga yashaydi. Qotgan non yeging bormi?

– Yo'q, rahmat. Yegim kelmay turibdi.

– Qand-chi?

– Hushim yo'q. Qandning foydasi faqat tishni ishdan chiqaradi.

Bobo o'zi ko'tarib kelayotgan qopchiqdagi noz-ne'mat bilan nafsini qondirib, yo'lga puxta tayyorgarlik ko'ra boshladi. U botinkasini yechib, barmoqlari orasiga talk kukuni sepdi, botinkasini yana qayta kiyib, kechga qadar kam deganda yigirma mil yo'l bosishga va'da berdi.

Ular eski mashinani tashlab, yo'l yoqasida yana bosh barmoqlarini ishga solar ekanlar, hech qanday vijdon azobi sezmadilar. Ularning javobgarlik hissi, beg'araz yordam ko'rsatib aldangan odamning daydilar bilan odatdagi amerika tili – musht yordamida gaplasha boshlagan ondayoq izsiz yo'qolgan edi. Ular maktab mashinasini minib jo'nash va uni duch kelgan joyga tashlab kegish uncha ham katta jinoyat emasligini yaxshi bilishardi. Binobarin, yaxshilik, ezgu ish, Arastu ta'biricha, hamisha ikki yovuzlik o'rtasiga joylashgan bo'ladiki,

shunga qarab, ular ham o'zlarini gunohsiz va saxovatli odamlar deb his etmoqlari mumkin edi.

Daydilar o'z tajribalariga suyanib, o'tkinchi mashinaga minib olish shaharga kirib kelayotgandan ko'ra undan chiqib ketayotganda osonroq ekanini yaxshi bilardilar. Shunday bo'lsa ham ular omadlarini bir sinab ko'rmoqchi bo'ldilar. Nihoyat, ularga baxt kulib boqdi. To'g'ri, bu baxt faqat og'iz qiyshaytiribroq boqdi. Allaqanday yaxshi kiyingan bir juvon sarg'ish yengil mashinada yolg'iz kelardi, u o'ziga hamroh olishni istab, mashinasini to'xtatdi. Xonim yonbosh oynani tushirib, yo'l yoqasida turgan ikki erkakka qaradida:

– Qayoqqa ketyapsizlar? – deb so'radi.

– G'arbga, hurmatli xonim, – javob berdi Jerri va ochiq oyna yoniga kelib engashdi. – Mashinamizning motori buzilib qoldi, uni remontga tashlab kelishga to'g'ri keldi.

Bobo ochiq oynadan ichkariga qarashga tirishdi, ammo tashabbusni o'z qo'liga olgan Jerri ichkarini to'sib olgandi. U Boboning ko'rsatmasiga amal qilib, yangi rolga kirdi. Modomiki, hayotning o'zi boshdan-oyoq artist o'yinidan iborat ekan, demak, u ham o'zining ana shu rolidan to'la-to'kis foydalanishi mumkin.

– Yaxshi qiz, siz bizga picha yordam ko'rsatolmay-sizmi? Biz bechora bir qashshoq artistlarmiz, sizning olijanob ko'magingizga faqat tashakkurimiz bilangina haq to'laymiz.

Juvon Jerrining ko'ziga tik boqib, jilmaydi. Bu oddiy va soxta jilmayishga o'xshamas edi. Juvon hali xiyla do'mboqqina bo'lib, yoshi yigirma besh yoki elliklarda, yuziga pardoz tortgan, qorachadan kelgan xotin edi.

– Qanday artistsiz? – so'radi u.

– Ashulachiman. Ismim Tino Rossi...

– Jerri! – xitob qildi o'rtog'i orqasida turgan Bobo.

– Ha, o'rtog'imning oti Jerri, – sira tap tortmay davom etdi Jerri. – Jerri Kovak. Kontrobas chaladi. Nazarimda, uni siz tanisangiz kerak?

– Yo'q, bilmayman, – javob qildi juvon Boboga ko'z qirini tashlashga tirishib.

Biroq Jerri gavadasi bilan o'rtog'ining yuzini to'sib oldi. Bunday qilishiga sabab, Boboning artistlik qobiliyati yo'qligini, uni shu topda yangi rolga kira olmasligini Jerri yaxshi bilardi. Boboning o'zi esa bilibmi, yo bilmaymi, faqat yagona bir rolni – ishsiz qolgan psixologiya professori rolini yaxshi bajarmoqda edi. Bir safar u hayotida boshqa rolni – yuqori haq oluvchi g'isht teruvchi rolini o'ynamoqchi bo'ldi-yu, lekin tez orada u artistdan tomoshabinga aylanib qoldi.

– Men faqat bittangizni olib ketishim mumkin, – dedi juvon.

– Bittamizni?

– Ha, faqat bir kishini. Ehtimol, sizni.

– Lekin ikkovimiz ham g'arbga ketayotgan edik. Biz birga edik...

– Baribir, men faqat bitta yo'lovchi olaman.

Jerri oynadan chetlanib, savol nazarida Boboga qaradi.

– Xo'sh, qaysi biringiz ketadigan bo'ldingiz? – so'radi juvon. Uning savolida sovuq ifoda eshitildi.

– Ikkimiz ham ketmaymiz, – dedi Jerri. – Birga ketmoqchimiz.

– O'key, – quruqqina dedi juvon va mashinasi oynasini ko'tarar ekan, qo'shib qo'ydi: – Sizlarga aytdim-ku, faqat bitta erkakni olishim mumkin.

– Bo'lmasa, sen keta qol, – dedi Bobo o'rtog'iga. – Mening bir o'zim qolsam, mashinaning olishi osonroq bo'ladi. Chikagoda uchrashamiz.

– Uning qaysi yerida?

Bobo cho'ntagidan yog'i chiqib ketgan konvert olib, unga jadal ko'z yugurtirib chiqdida, keyin Jerriga ko'rsatdi.

– Najot Armiyasining qidirish byurosiga kirib, meni surishtirib topasan. Mana manzil. Men Chikagoga kechi bilan ikki hafta ichida yetib olaman.

Jerrining ko'zlari ma'yus boqardi, unga yo'lda turgan-bitgani ortiqcha yuk bo'lgan o'z hamrohidan ajralish og'ir botmoqda edi. Juvon betoqat ohangda so'radi:

– Qani, qaysi biringiz ketasiz? – bu savol keskin yangradi.

– Men, – dedi Jerri va o'rtog'i bilan quyuq xayrlashdi, mashinaga chiqib juvon yoniga o'tirdi.

Mashina yo'lga tushdi. Psixolog g'amgin qo'l silkitib yo'l yoqasida qoldi. Saldan keyin qo'ltig'ida qotgan non solingan xalta, oyog'ining barmoqlari orasiga talk sepilgan Bobo shaxdam qadam tashlab olg'a qarab ketdi. Allaqachon boshlangan qish oftobi yuzlarni yoqimli silalar, kechasi yoqqan qor ko'zni qamashtirib yaltirardi. Bobo qotgan non kemirib, o'zining ingichka, yo'lbop psixologiya hassasiga tayanib, tekis qadam tashlab borardi. Har zamonda o'ziga-o'zi ming'irlardi:

– Bu xotin zoti juda g'alati bo'ladi, rosti bilan ham g'alati. Ba'zilar o'z xatti-harakati bilan maqsadiga erishadi, boshqalari yig'laydi, yig'lab turib maqsadiga erishadi, lekin baribir, doimo o'z aytganiga erishadi...

Yuqorida biz professor Minvegen psixolog edi, deb ko'p marta qayd qilib o'tgan edik. Ehtimol, xuddi shu sababga ko'ra u odamlarni ajrata olmasdi. Jerri Finn psixolog emas, lekin u ham odamlarni yaxshi bilmasdi. Unda xotinlarni maftun etuvchi nimadir bor edi. Ayniqsa, o'rta va undan kattaroq yoshdagi xotinlar necha martalab o'zlari zabt etilganlaridan keyin uni zabt etar edilar.

– Mening nomim Iren Boldin, – dedi juvon, ular Peynsvillni bosib o'tib, Klievlendga boruvchi katta yo'lga chiqib olganlarida.

– Meniki – Jerri... e, kechirasiz, men sizga o'rtog'imning oti Jerri deb aytmoqchi edim. Mening otim...

– Tino Rossi, – ko'maklashib yubordi juvon. – Men qayerdadir sizning otingizni eshitganman.

– Radio orqalidir.

– Ehtimol.

Jerri uning yuziga razm soldi. Juvon qo'g'irchoqqa o'xshar va xiyla go'zal ayol edi.

– Mashinangiz juda sersavlat ekan, – dedi Jerri oraga tushgan ko'ngilsiz sukutni buzib.

– O'zgina eskigan. O'tgan yilgi modelda.

– Yana, o'zingiz mashinani yaxshi haydar ekansiz.

– Juvon jilmayib, hamsuhbatiga yalt etib qarab qo'ydi.

– Mister Rossi, biron qo'shiq aytib bermaysizmi menga? Jerri cho'chib tushdi. U o'zining artistlik qilayotganini allaqachon unutib qo'ygan edi.

– Bugun ovozimning mazasi yo'qroq, – ming'irladi u.

– Unda, xirgoyi qila qoling! Men xirgoyi qilganni yaxshi ko'raman.

– Mening vrachim ashula aytishni taqiqlab qo'yuvdi.

Juvon mashina yurishini sekinlatib, yo'l yoqasiga olib chiqib to'xtatdi.

– Bo'lmasa, nima qilib berasiz? – nazokat bilan so'radi u. Jerrining ko'z oldi qorong'lashib ketdi. Bu albatta, kuchsiz ko'zoynak taqqani oqibati yoki me'yoridan ortiqroq ichib yuborgani uchun emas, balki Iren Boldinning dimoqni yoruvchi atir hidi va qo'llari go'yo bexosdan xiroamaliyotchining shamoldan yorilib, dag'allashgan qo'liga tegib ketganidan sodir bo'ldi. Juvon hamrohiga sigareta taklif etarkan:

– Bu yerdan Klivlendga yana yigirma daqiqalik yo'l qoldi, – dedi. – Agar, xohlasangiz, sizni olib borib qo'yaman.

– Jon derdim, Boldin xonim, faqat sizga malol kelmasa.

– Bugun hech yoqqa shoshilayotganim yo'q.

– Klivlendda turasizmi o'zingiz?

– Yo'q, Peynsvillda.

– Peynsvillda? Biz allaqachonlarog undan o'tib ketdik-ku!

Iren Boldin yuzida Mona Lizaning sirli jilmayishi paydo bo'ldi.

– Mening ozgina bo'sh vaqtim bor. Erim savdo ishi bilan Nyu-Yorkka ketgan. Mister Rossi, iltimos qilaman, biron ashula aytib bering. Xirgoyi qilsangiz ham mayli!

Jerri yo'talib, kekirdagini qashladi va boshini chayqadi .

– Rost gap, bugun tomogim sal og'rib turibdi...

Quyosh mashinaning old oynasiga tushib, ularning yuzini qizdira boshladi. Kayfiyatlari ham bir qadar noaniq vaziyatda edi. Jerri o'zini hech qanday voqea bo'lmayotgan, birov uyiga qulf teshigidan qarayatgan odamday noqulay sezmoqda edi. U sigaretani kuldonga qo'yarkan ohista dedi:

– Boldin xonim, sizni ozgina ovora qilib qo'yganim uchun behad afsusdaman, siz eng oliy izzat-ikromga va muhabbatga munosib ayolsiz.

Juvonga mehmondo'st Amur ana shu ashulachi so'zi va ovozi bilan gapirayotganday tuyuldi. U imo-ishorali, shama qilib aytilgan gapni ajratib olishni yaxshi bilardi. Iren sho'rlik shu topda ashulachining qanday muhabbat to'g'risida gapirayotganini bilib turganga o'xshadi: u ko'zga ko'rinmaydigan kichik teshikchaga o'xshash yengil va muqim muhabbat to'g'risida gapirmoqda edi.

– Mister Ross...

– Rossi, – tuzatdi Jerri.

– Mutlaqo to'g'ri. Qani, harfma-harf ayting.

– Er-o-es-es-i. Rossi.

– Mister Rossi, agar istasangiz, sizni Klivlendga eltib qo'yishim mumkin.

– Ovora bo'lmang, siz uchun juda teskari yo'l...

– Hech-da. Mening ozgina bo'sh vaqtim bor. Men bit-ta ham xotin-qizlar jamiyatiga a'zo emasman.

Boldin xonim motorni yurgizib, ular yana yo'lga tushdilar. Uzoq fursat hech kim lom-mim demadi. Motorning sokin guvillashi kishiga xush yoqardi. Kuldondan esa kadilodan¹ chiqayotganday sezilar-sezilmas tutun

¹ Cherkovda ibodat vaqtida bunur tutadigan idish.

ko'tarilib, taralmoqda edi. Jerri juvonning mashinani bexosdan yonboshdagi tor ko'chaga burganini ko'rib qoldi. Bu ko'chada na reklama taxtalari, na bo'shab yotgan pivo shishalari, na yaqin orada biron tikkaygan uy ko'rinardi! Boldin xonim mashinani yalang'och emanzor yoqasida to'xtatdi.

– Mana endi ozgina gap sotib hordiq chiqaramiz, – dedi u xuddi eski qadrdonlarday. – Bu yo'l qish oylari sokin va xotirjam bo'ladi. Mana ko'ryapsizmi, qor tozalaydigan mashinadan keyin bu yerdan hali hech kim o'tmagan.

Jerri qandaydir ahamiyatsiz, lekin ochig'ini aytganda, birmuncha dadil javob qilib, xavotir ichida uning nima deyishini kuta boshladi.

– Siz, aftidan o'rtog'ingizni yo'lga tashlab kelganimdan xafaga o'xshaysiz? – dedi u go'yo kechirim so'rayotganday.

– Yo'q, aslo, Boldin xonim.

– Meni Iren deb atay bering. Uni tashlab kelishga majbur edim. Hamma gap shundaki, biz Peynsvilldan o'tishimiz kerak edi. Bu yerda mening tanishlarim ko'p. Mashinada ikkimiz o'tirganimizni ko'rganlar meni birorta do'sti bilan o'tib ketyapti, deb taxmin qiladi. Bordi-yu, ikki erkak orasida ko'rishsa, meni me'yorni bilmaslikda ayblashlari mumkin.

Jerri me'yorni bilmaslikning bu gapga nima daxli borligiga tushunmadi. Juvon uning qotib qolgan tasavvurini uyg'otishga urinib ko'rdi. U ashulachining bilaklaridan mahkam ushlab, uning ko'zlariga tikilar ekan, shama qilib o'tirmay dangal dedi:

– Men artistlarni juda yaxshi ko'raman. Nima uchun meni o'pmayapsiz?

Jerri xotini to'g'risida o'ylab qoldi, uning bema'ni saf-satalari, sira ado bo'lmaydigan hikoyalari esiga tushib ketdi-yu, o'zicha ming'irladi:

– Boldin xonim...

– Iren deyaver!

– Iren xonim... men uylanganman...

– Mening ham erim bor. To‘rtinchi erim bu. Agar u menga yetarli miqdorda nafaqa to‘lashga rozilik bersa, men shu zahoti undan ajralaman. Lekin u o‘larday xassis, qurumsoq. Qani kel, o‘pishaylik!

Allaqanday noma‘lum sababga ko‘ra Jerrining bo‘sasi sust, ehtirossiz chiqdi. Erkaklarga sirayam xos bo‘lmagan bunday landovurlik – odatda axloq tushunchasi bilan cherkov buni ibrat olsa arziydigan ezgu va olijanob fazilat deb qaraydi – Boldin xonim his-tuyg‘usini chuqur haqorat etdi.

– Sen xotinlar bilan hamisha shunday uyatchanmi-san? – erkalagan ovozda so‘radi u. Uning yuzida bir-biriga zid bo‘lgan kulgili ifoda namoyon bo‘ldi: u shu topda endigina o‘n yetti bahorni ko‘rgan iffatli o‘quvchi qizga ham, allaqachon oltmishdan oshib ketgan qo‘shmachiga ham o‘xshardi.

– Yo‘q... – salmoqlanib, tili chaynalib, javob berdi Jerri, – hamisha emas...

– Ha, albatta, sen balki, xotinlar bilan tez-tez aloqada bo‘lib tursang kerakki...

Boldin xonim o‘zining jumlasini oxirini ashulachi to‘latadi, deb kutgan edi, ammo u haqiqiy odamga o‘xshab anqov chiqib qoldi, miyasini ishlatmadi. Undagi bunday lapashanglik xotini Joanning haddan tashqari epchil va uddaburonligi natijasida paydo bo‘lgandi. Jerri hozirgacha ham o‘sha qisqa fursatli nikoh merosidan: faoliyatsizlik, sustkashlik va lanjlik balosidan qutulolmay kelardi. Ikkinchi bo‘sa ham o‘larday sust, jonsiz chiqqach, Boldin xonim sigareta tutatib, xotirjam va sovuqqonlik bilan:

– Mashinaning old oynasi qirov boylab qoldi. Chiqib shuni artib qo‘yish sizga malol kelmaydimi? – dedi.

U ashulachiga bir parcha zamsha¹ berdi va zajiganie-ni yoqdi. Jerri mashinadan chiqishi bilan juvon eshikni yopib, ochiq oynadan:

¹ Bug‘u terisidan ishlangan yumshoq charim.

– Klivlendga taxminan olti chaqirim qoldi, – dedi.

Mashina jo'nab ketdi. Olam fuqarosi Jerri Finn esa yo'lda qoqqan qoziqday qaqqayib qolaverdi...

* * *

Quyosh allaqachonlaroq chirog'ini o'chirib, ojiz yarim oy borliqni yoritishga qodir emasdi.

Klivlendda qiyinchiliklar haqida tasavvurga ham ega emas edilar. Shaharning qoq o'rtasida neon chiroqlar par-par yonib ko'zni olar, xaroba kulbalarda esa orzular qanoti kuyib kul bo'lardi. Restoran va mayxonalarda odamlar vaqtlarini qanday o'tkazishni bilmay, zerikib o'tirishardi, qashshoqlar esa tun bo'yi turli xil hasharotlarni o'ldirishga vaqtlari yetmay, ertalabgacha uxlamay chiqardilar.

Nyu-York Sentral Sistem temir yo'l vokzali ro'baro'sida yo'lovchilar poyezdga chiqish oldidan bir stakan vino yoki biron shisha pivo ichish uchun kirib o'tadigan «Toni mayxonasi» bor edi. Uning egasi – savdo-sotiq ishining piri, bundan sakkiz yil muqaddam Chikago shahrida o'z o'tmishidan butunlay yuz o'girgan fransuz xonim edi. U qisqa fursat ichida, agarda xotin kishi ommaviy faoliyat bilan shug'ullana boshlasa, bu ommaviy faoliyat kutilmaganda keng ommalashib ketishi mumkin ekanini amalda ko'rsatdi. Uning kichik mayxonasi tez-tez gazeta sahifalariga tushib turardi. Xonim o'z mijozlarining yoshini hamma vaqt ham surishtirib o'tirmasdi. Shu tufayli balog'atga yetmagan yoshlarga spirtli ichimliklar sotgani uchun tez-tez jarimalar to'lardi. Mayxona o'z bekasini yoshligida sevib qolgan yigit xotirasini abadiylashtirib, uning nomi bilan atalardi. Xonim mayxonaga Toni nomini qo'yish bilan muhabbatning sabr-qanoatli ekanini, sidqidildan sevishning go'zalligini va ma'lum darajada savdo ishida o'z iste'dodini namoyish qilgan edi.

Mijozlarning biri kelib, biri ketar, faqat, ulardan ba'zilarigina mast bo'lguncha ichib, shu yerda qolib ketishardi. Biroq bugun odatdagi tartib-qoidadan sal

chekinish yuz berdi. Mayxonaning doimiy mijoz, har haftada kam deganda ikki marta jo'nab ketish oldidan kirib, bir stakandan sherri mayi ichuvchi mister Martin Lure bu gal hech yoqqa oshiqmas edi. U bufetning pesh-taxtasi oldida uzoq fursat pinakka ketib o'tirdida, keyin mayxonaning eng burchagidagi kichik stolga ko'chdi. U o'rta yoshli, avtomobil sug'urta jamiyatining inspektori, tabiati nozik odam edi. Yuz-ko'zi ham sug'urta xodimiga mansub, bo'yni ingichka, xuddi kuvdan chiqib turgan o'g'ir dastasiga o'xshardi. Og'zini bamisoli tugmaning teshigi deysiz. O'zi bashang, yaxshi kiyinadi, ichish masalasida, agar o'rni kelib qolsa, aslo bo'sh kelmaydi. Hozir uning kayfi buzuq edi. Xonim ham hali uning xafaligi sababini surishtirib ulgurmay, faqat lablari bilangina kulib, sug'urta xodimining qadahini ketma-ket to'ldirib berardi.

Mister Martin Lure sharobga ko'z yoshlarini oqizib o'tirar ekan, har safar mayxona eshigi ochilganda yoki avtomat grammofon plastinka almashtirganda boshini ko'tarib qarab qo'yardi. Uning ko'zi xonimdan bir qultum vino iltimos qilayotgan notanish odamga tushib qoldi. Notanish odamning tashqi qiyofasiga qarab, uning jamiyatda tutgan o'rnini aniqlab olish xiyla mahol edi. Bir qarashda, u amerikalik yalangoyoqqa, yana bir qarashda oilasi katta-yu, daromadi kichik maktab o'qituvchisiga o'xshardi. Notanish odam nozik ifodalar bilan yaxshi tilda gapirmoqda edi. Ba'zi-ba'zida uning talaffuzidan Britan orollarining salqin shamoli esib qolardi. Xonim notanish odamni bepul mehmon qilishdan bosh tortganda, mister Lure olihimmat bo'lishga bel bog'ladi. Bunday diyonatli qadamdan g'am-anduh bemajol qilib qo'ygan oyoqlariga kuch-mador kirganday bo'ldi. U notanish odamni o'z stoliga taklif etib, nomini harfma-harf aytib chiqdi. O'zining qisqacha tarjimai holini, oilasi to'g'risidagi ma'lumotlarni aytib bergach, alamli ko'z yoshlarini ortiq to'kmadi.

Notanish odam bu ma'lumotlarni minnatdorchilik bilan tishlab, o'zi haqidagi eng muhim narsalarni ochiq

so'zlab berdi. Turgan gap, u ba'zi faktlarni salgina bo'yab, ba'zilarini sal andavalab o'tdi. Chunki u to'g'ri gap inson yuragiga kirib isinganicha uzoq vaqt sovuqda qolib ketishini bilardi. Ana shu sustkash haqiqat oyog'iga etigini kiyib bo'lgunicha o'ktamu chaqqon, shum yolg'on yalangoyoq, yugurib-yelib, birpasda o'z ishini bitirib keladi.

– Mening nomim Finn, – dedi notanish odam. – Ef-i-en-en – Finn. Jerri Finn. Tibbiyot professori. Mening tasodifan pulsiz qolganim sizni taajjubga solayotgan bo'lsa kerak, a?

Mister Lure chindan ham taajjublanmoqda edi. Chunki u professorning bunday tasodifan pulsiz qolishi xususidagi batafsil va hayajonli hisobni darhol eshitishga muyassar bo'lgan edi. Professor Finn Nyu-Yorkdan o'zining xususiy mashinasida yo'lga chiqibdi. U Chikagoga, vrachlarning navbatdagi s'ezdiga ketayotgan ekan. Ochig'ini aytganda, baribir bu behuda tashvish, bunday kongresslarda hech qachon hech nimani hal qilib bo'lmaydi. Qilgan ishlari faqat shuki, ko'richakning chuvalchangga o'xshagan o'sig'i, odamning uzoq o'tmishda xom go'sht yeb, daraxtlarda yashagan davridam meros, uning nishonasi ekanini aniqlab berdi, xolos. Gap shu, hurmatli janob! Demak, Chikagoga yetib olish kerak edi. Yo'lda odam qulog'i eshitmagan dahshatli bo'ron boshlanib qoldi. Professorning bejirim kadillak mashinasi atigi bir necha chaqirim yo'l bosmay, simyog'ochga borib urildi. Qayerda deysizmi? Ah, janob! Endi u joyning qayerdaligini eslash juda mahol. Xotirada qolgan narsa faqat bu voqeani Peynsvill bilan Klivlend orasida sodir bo'lgani. Avtomobilni remontga jo'natib, professor piyoda bironta mehmonxonana, qo'noq joy yoki restoran izlay boshlaydi. Shu payt uni qaroqchilar talaydi. Umuman, kunda bo'lib turadigan voqea. Axir, o'zingiz ham bilsangiz kerak. Yolg'iz o'tgan yilning o'zida Amerikada ikki million olti yuz ming bosqinchilik, talash hodisalari yuz berdi. Bu hali

gapning hammasi emas! Bosqinchilar o'z qurbonlarini o'lasini qilib urib, yo'lning qoq o'rtasiga tashlab ketishadi. Ammo professor jismoniy baquvvat odam-da, sobiq sportsmen, uzoq masofaga yurish bo'yicha mukofotlar egasi, tabiatning beomon qonunlarini zig'ircha pisand qilmay piyoda, tushunyapsizmi, janob, piyoda yo'lga tushdi! Tunga qolmay Klivlendga yetib olay deb, hech qayerda to'xtamay, o'n besh mildan ortiq masofani piyoda bosib o'tadi.

– Mana endi oldingizda o'tiribman, – deb o'z hikoyasini tamom qildi Jerri. Uning hikoyasida o'zini reklama qilish fikri mutlaqo sezilmadi. U hamsuhbatidan javob kutardi.

Kutganday hamsuhbati ham darhol javob qildi. Mister Lure bir nafasga o'zining g'am-anduhlarini unutilib, oshiqib undan so'radi:

– Mashinangiz qaysi kompaniyada sug'urta qilingan edi?

Professor Finnga bosh qashishga ham vaqt qolmadi, u shu zahoti:

– SASOVZACHPda, – deb javob berdi.

– Qayerda, qayerda?

– SASOVZACHPda.

– Bunday jamiyat borligini birinchi eshitishim. Uning to'la, rasmiy nomi nima? Idorani qisqartmay to'la aytilishini ko'zda tutyapman.

– Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi vrachlarning markaziy avtomobil-sug'urta jamiyati.

Mister Lure boshini chayqadi.

– Rost, men bunday jamnyatni sira eshitgan emasman.

– Qiziq gap! SASOVZACHP – bu axir dunyodagi eng katta va eng mashhur sug'urta jamiyati-ku!

– Yo'q, u dunyodagi eng katta va eng mashhuri emas. Qani, hozir ko'ramiz.

Mister Lure cho'ntagidan qizil muqovali kichik kitobcha oldi. Bu avtomobillarni sug'urta qilish bo'yicha xo-

dimning kalendari bo'lib, u har bir kalendarga munosib ravishda zamon bilan hamqadam va hamnafas edi.

– Mening kitobimda bunday jamiyat yo'q, – dedi mister Lure.

Jerri ko'zini qisib, navbatdagi yolg'onni o'rtaga tashladi:

– Mister Lure, sizning kalendaringiz nechanchi yilniki?

– O'tgan yilniki. Lekin unga yangi qo'shimcha ham ilova qilingan.

– So'nggi ilova qachon qo'shilgan unga?

– Hozir aytaman. Uch oy muqaddam. Shundan beri yangi jamiyat tuzilgani yo'q.

Jerri yuzida g'olib odamning jilmayishi porlab ketdi. Uning qichqirib yuborishiga oz qoldi.

– Hamma gap shunda-da, mister Lure! SASOVZACHP atigi bir hafta burun tashkil etildi. Ha, aytmoqchi, mister Lure, agar sir bo'lmasa o'zingizning nima ish qilishingizni, kasbingizni bilsam bo'ladimi?

– Marhamat. Men Amerika avtomobil birlashmasining vakili va ikki avtomobil sug'urta jamiyatining tumanlararo inspektoriman.

Jerrining ko'zlarni pir-pir uchdi, u gap mavzuini tezroq boshqa yoqqa burishga shoshildi. U o'z tajribasidan yaxshi biladiki; yolg'ondan qutulmoq uchun o'zgaga yolg'on gapirish imkonini berish kerak. Bobo bilan ulfat bo'lib yurib, unda birovlar gapini tinglash iste'dodi g'oyat keng rivoj topgan edi. Hozir ham kichkina bir quvlik uni yana tinglovchiga aylanishiga ko'mak berdi. G'am-g'ussa qaddini bukib qo'ygan sug'urta xodimi bir nafasda hissiyotga berilib, badani vino ta'siridan xiyla qizib, quyidagi voqeani gapirib berdi:

– Nazarimda, boya ham aytuvdim, men asli Toledo-da tug'ilganman. Gapning sirasini aytganda, mening qayerda tug'ilganimning hech qanday ahamiyati yo'q. Ota-onam ham xuddi boshqa ota-onalarga o'xshagan edi, o'zim bo'lsam barcha sezgir odamlar singari ko'ng-

li yumshoq, nozik tabiat odamman. Har holda, bir oyda ikki marotaba cherkovga bir dollardan sadaqa qilaman, har rojdestvoda¹ najot Qurolli Kuchlari foydasiga eski kiyim-bosh xayr qilaman. Boya aytib o'tganimdek, xotinim va o'n to'rt yoshli bitta o'g'lim bor. Juda chiroyli bola o'zi. Ammo menga u bir tomchiyam o'xshamaydi, lekin aftidan, uning otasi bo'lsam kerak. Ha, shunday... o'z o'g'limning otasiman... Mana endi, o'sha o'g'limdan, yagona suyukli farzandimdan, Robertdan ajralib turibman...

Mister Lure bir nafas to'xtab, ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Meni o'z qayg'uingizga sherik deb biling, mister Lure, – dedi Jerri,

– Tashakkur sizga, professor. Vrach sifatida, albatta, meni qanday holatda ekanimni bilib turgandirsiz?

– O'ylashimcha, mister Lure, bunday hodisalar mening kasbinga taalluqli. Bilasizmi, men vrach-psixiatrman, agar boshqacha qilib aytish joiz bo'lsa, men inson q'lbini tekshiruvchiman.

– Shunday deb aytish joiz, albatta, – xo'rsinib entikib oldi baxtsiz ota, keyin hikoyasini ohista davom ettirar ekan, xonimning o'z fursatida stakanini to'ldirib turishi uning e'tiboridan chetda qolmadi.

– Shunday, janob professor, men olamdagi eng tolei past odamman. Agar dunyoda o'nta baxtsiz odam bo'lsa, shularning bittasi men. Eh, aziz farzandim, jigar-bandim...

– Qanday darddan nabud bo'ldi u? – ehtiyotkorlik bilan so'radi Jerri.

– Nobud bo'ldi? Yo'q, u o'lgani yo'q, qochib ketdi. Bugun tushda uydan qochib ketdi. Hamma ayb o'zimda. Bilasizmi, gap bundoq bo'ldi. Kecha kechqurun ikki kunlik safardan uyga qaytib keldim. Xotinimni o'pib, uxlagani yotdim. O'g'lim men bilan gaplashmoqchi ekanini aytdi. Men unga: «Ertalab gaplasharmiz» dedim. Ertalab qahva ichib turib, gazetalarni ko'zdan ke-

¹ Nasroniyalarda Iso tug'ilgan kun munosabati bilan bo'ladigan diniy bayram.

chirayotgan edim, o'g'lim botinmaygina: «Dada, senda ozgina ishim bor edi», deb qoldi. Men unga gazeta osha ko'z tashlab so'radim: «Sen yuz-qo'lingni yuvdingmi? Menga qara, ehtiyot bo'l, ko'ylagingga qiyom tomadi!» Shundan deb, gazeta o'qishda davom etdim. Birdan, kutilmaganda qahvani dasturxonga to'kib yubordim. Turgan gap, bu mening aybim, ammo o'g'lim yuzidagi jilmayishni ko'rib, g'azabim qo'zib ketdi. Unga: «Robert, nahotki, onang senga dasturxon tepasida ozgina bo'lsin o'zingni tuta bilishni o'rgatmagan bo'lsa? Qani, oyoq ostida o'rmalashmay, maktabingga jo'nal!» dedim. Shunda Robert o'tirgan joyidan irg'ib turib, onasi bilan ko'z urishtirdida, allanima to'g'risida gaplashib oldi, keyin yana bir marta menga yaqinlashmoqchi bo'ldi. U menga: «Dada, rostdan ham sen bilan gaplashib olmoqchi edim...» dedi. Bu gapdan battar jahlim chiqib, koyib berdim: «Nahotki, sen dadangni xotirjam o'tirib, bir chashka qahva ichishiga qo'ymasang? Qanday ishing borligini men yaxshi bilaman: ma'lum gap, yana pul ber deb avraysan. Yoki yomon baho oldingmi? Balki o'qituvchilardan bizni chaqirtirgan qog'oz olib kelgandirsan? Yo futbol komandasiga yozilmoqchimisani?»

Robert daftar-kitobini yig'ishtirar ekan: «Boshqa bolalarning dadalari bunaqa emas», dedi. Men gazetani uloqtirib, unga qarab baqirdim: «Bunaqa emas? Sen dadangga gap qaytargani qanday hadding sig'di, bu nima qiliq?!»

Xotinin oraga tushib, allanima deb izoh bermoqchi bo'ldi, lekin u hech nima tushuntirib berolmadi. «Qani ayt, yaramas bola, nima kerak senga?» dedim men o'g'limga. Robert botinkasidan ko'zini olmay, sinfida o'qiydigan allaqanday qizchaga uylanmoqchi ekanini aytdi. Uylanmoqchi ekan! Mening o'g'lim uylanmoqchi! O'n to'rt yoshda-ya! Men uning yuziga tarsaki tortib yubordim, u labini tishlaganicha maktabiga chopib ketdi.

Mister Lure yana ho'ngrab yubordi, uning ko'z yoshlari vinosiga oqib tusha boshladi. Oradan bir daqiqa o'tmay duduqlanib, davom etdi:

– Kechqurun Robert maktabidan qaytib kelmadi. U odam yuborib, bizni tashlab qochib ketishga qaror qilganini bildirdi. Shunda xotinim, har kuni uxlash oldidan o'qiydigan kitobim joyida, yotoqxonamda yo'qligini sezib qoldi. Bu kitob butun olamga mashhur doktor Xinseyning «Ersiragan xotin» degan kitobi edi. Oradan bir daqiqa o'tmay, xotinim yana yonimga kelib, o'zini yo'qotgan holda jim turib qoldi. Yana bir yangilikni menga qanday aytishni bilmasdi: ma'lum bo'lishicha, o'g'lim mashinamizni ham haydab ketibdi! Bu men uchun eng og'ir zarba bo'ldi. Siz, janob professor, otalik his-tuyg'ulariga tushunib turgan bo'lsangiz kerak, albatta. Hayotimda hamma narsa aralash-quralash bo'lib ketdi. Bugun kechqurun men Chikagoga jo'nashim kerak edi, hatto bilet ham olib qo'yanman. Poyezd bir soatdan keyin jo'naydi. Lekin o'g'limning taqdiri bir yoqli bo'lmaguncha men qayoqqa ketishim mumkin! Eh, qanday tolei past odamman, baxtsizlarning baxtsizli! O'g'limning qochib ketgani menga kam deganda besh ming dollar ziyon yetkazdi. Ertaga Chikagoda yaxshi bir biznes qilmoqchi edim. O'zingiz o'ylab ko'ring-a, janob professor: besh ming dollar degan jonivor hazil gapmi – shilq etib qo'ldan sirg'alib chiqdi ketdi! Men sho'r peshana baxtsiz bo'lmay, kim baxtsiz bo'lsin?! Bolalarimiz bizga faqat qayg'u-alam keltirishadi...

– Ha, bu juda og'ir yo'qotish, – tasdiqladi Jerri sug'urta xodimining otalik his-tuyg'usi dollar bilan chambarchas bog'lanib ketganini eshitib.

– Endi poyezd bilingiz ham foydalanilmay qolar ekanda? – yo'l-yo'lakay so'radi «psixiatr».

– Albatta. Lekin bu anavi men yo'qotgan besh ming oldida dengizdan tomchi!

Jerri «xobo» maktabini, xarobalar sabog'ini bekor o'tamagan edi. U juda ziyrak, e'tiborli o'quvchi edi. Qis-

qagina harakatdan keyin sug'urta xodimi deyarli zo'rlab Jerriga o'z chiptasini, yoniga besh dollar qo'shib yana vizit kartochkasi – familiyasi, ish joyi, manzili yozilgan qog'ozchani tutqazdi. Tabiiy gap, professorning yonida shu topda bunga o'xshash vizit kartochkasi yo'q edi, chunki qaroqchilar uning bor-budini shilib ketishgan edi. U sof vijdonli odam sifatida sug'urta xodimini qo'yin daftariga o'zining nomini, ko'ngliga birinchi bo'lib kelgan yo'q yerdagi manzilni yozib berdi, unga Chikagodan darhol kattagina pul uchun chek, xotini-ga telegraf uyga eltib beradigan guldasta yuborajagini aytdi. Professor Finn bulardan bo'lak ham ko'p narsalar va'da qildi. U ichgan o'n stakan sherri mayi uni juda saxiy va g'oyat obro'li odamga aylantirib qo'ygani edi. Endi Nyu-Yorkning barcha zebo-bashang xonimlari faqat unda davolanishadi, senatorlar uning eng yaqin oshnalari...

Sug'urta xodimi shu darajada me'yordan oshgan ediki, professor uning hozirgi holatiga monand tassa-vur tug'dirmoqda edi. Mister Lure uchun professor Finning dunyodagi eng yaxshi psixiatr ekani shubhasiz, Nyu-Yorkning oliy tabaqa doirasidagi xonimlar aqli zaif, nodonligi mutlaqo tabiiy bo'lib ko'rinmoqda di.

To'ladan kelgan xonim – mayxonaning egasi endi Jerriga qarab jilmayar, allaqanday o'z kasbiga xos iltifotli so'zlar, fransuz-amerikacha nordon latifalar aytar va hamma odamlar faqatgina bitta ma'no tushunadigan imo-ishorali qochiriqlar qilar edi.

Mister Lure allaqachon vrachlar beshinchi daraja mastlik deb atovchi darajaga yetib qolgandi: u tinmay yig'lar ekan, oxiri uxlab qoldi. Professor Finn mayxonadan izzat-obro'sini saqlab, sal yengil gandaraklab chiqib ketdi. Oradan yana o'n daqiqa o'tib, u vagonning yumshoq o'rindig'iga qulayroq joylashib oldi.

Ikki soatdan keyin mister Lure xotini-ga g'amxo'r va erkalagan ovozidan uyg'ondi:

– Martin, Martin, azizim... O'zim ham shu yerda o'tirgan bo'lsa kerak, deb o'ylovdim...

Sug'urta xodimining ko'zi xuddi vino chanining tuy-nugiday ochildi. Asta-sekin es-hushi joyiga kelib boshiga tushgan qayg'u-alamni eslab qoldi. Ammo xotin unga ko'z yoshi qilishiga yo'l qo'ymay, o'rnidan turg'izar ekan, shodiyona g'uldiradi:

– Martin, azizim, jonginam, yur uyga ketamiz! Hamma narsa joyida. Robert sevgan qizi bilan urishib qolib, hozirgina uyga qaytib keldi... U endi hech qachon uylanmayman, dedi...

Xotiniga suyanib olgan sug'urta xodimi eshik tomon borar ekan, qattiq ingrab, dedi:

– Mening biznesim nima bo'ladi... mening ulkan biznesim!... Gap bu yoqda...

O'N TUQQIZINCHI BOB

HOJATXONA QULFINING BUZILIB QOLIB JERRI FINNGA IZZAT-OBRO' VA SHON-SHUHRAT QOZONISHGA KO'MAK BERGANI

Poyezd Chikagoga tongotar pallada yetib keldi. Jerri bir necha soat mobaynida qattiq uxlab, birtalay qiziq narsalarni ko'rolmay qoldi. U ana shu tongotardagi manzaraga qaradi-yu, xuddi eski etikdan baliq moyi ichishni taklif etishgandek eti jimirlashib ketdi. Bu g'oyat ko'ngilsiz manzara edi: hamma yoqda xarobalar, chordevorlar, ko'z ilg'agan butun tevarak-atrofdan buzuruq, pastqam kulbalar qalashib yotardi. Umrida biron marta oqlanmagan bechorahol uylar xuddi ko'r odamday bir-birlariga suyanib turardi. Bu joy – jamiyatning tashlandiq quyqalari va xobolar orzu qilgan, ularning har biri vatan uchun o'z o'rtog'i hayotini qurbon qilishga tayyor turgan odamlar makoni edi.

Sayyohlar ana shu manzarani ko'rib to'yib tomosha qilsin deb poyezd yurishini sekinlatdi. Qadimiy Afrika

junglilarining yerli aholi avlodi tor va qiyshiq jin ko'chalarda nonushtaga biron tishga bosguday narsa izlab, izg'ib yurishardi. Kaftdek hovlilarda, yo'lak va dahlizlarda qora tanli odamlarning oyoq yalang va ko'zlari-ning oqi porlab turgan urug'lari bij-bij qaynardi. Qurib, to'kilib tushay deb turgan yog'och tog'oralar son-sanoqsiz chilvirlarga osilgan kirchilarga hamsoya bo'lib ko'zga tashlanadi. Paypoqlar, ko'ylaklar, lozimlar, bolalarning juldirdvoqi kiyimlari, siynabandlar – bularning bari ertalabki yengil shabadadan sho'x va o'ynoqi kambor bayroqchalarday tinimsiz hilpirar, quyuq qurum bulutini bolalar boshiga to'g'ri kelib qo'nishidan asrab, ularni havoda to'sib qoldirdi.

Jerri Finn, xalq she'rlarimizni o'qiydi deb ishonib yurgan shoirning faraz va tasavvur etish qobiliyatiga ega edi. U ana shu son-sanoqsiz kir osilgan chilvirlarga – qurum bilan quyosh nurini suzg'ichdan o'tkazish vazifasini o'tovchi quv vositaga qarar ekan, kiyimlarning g'oyat bir xil turda ekanidan hayron bo'ldi: osig'liq narsalar – ko'ylaklar, bolalar latta-puttasi, lozim va siynabanddan iborat edi. Nima uchundir bu yerda ko'ylakdan ko'ra siynabandlar ko'proq edi. Ko'ylaklar farishtalar olamini eslatsa, siynabandlar ikki kishi o'tirgan gamak – to'r belanchakka o'xshardi. Ana shu osiq turgan kirlarga qarab ijtimoiy muhitni yaqqol sezib olish mumkin edi. Chunonchi, xaroba kulbalardan o'rta tabaqaga mansub odamlar yashovchi kvartallarga o'tilganda bolalar latta-puttasi g'oyib bo'lib, uning o'rnida choyshablar, tungi pijama va dasturxonlar paydo bo'la boshladi. Bu demak, mehmonxonalar bilan yengil hayot izlab yurgan, asta-sekin tubanlikka tushib boruvchi xotinlar istiqomat qiluvchi tuman boshlanganini ko'rsatadi.

Yo'lovchilar birin-ketin eshik tomon yurishdi. Poyezd yurishini tobora sekinlatib, La Saal vokzalida to'xtadi. Jerri o'zining shlyapasi, OSVning o'qituvchilar uyidan olgan paltosi, shuningdek, mister Lure in'om qilgan besh dollar bilan galstugi yo'qolganini payqab qoldi.

Eng qizigʻi shuki, galstukni toʻppa-toʻgʻri uning boʻynidan yechib olishgan edi. Jerri buyumlar yoʻqolganini provodnikka aytdi. U boʻlsa Jerriga tasalli berib, Chikagoda hozir havo issiqligini, shu tufayli bu yerda palto bilan shlyapaga uncha ehtiyoj yoʻqligini maʼlum qildi. Palto bilan shlyapa boʻlmagach, galstuk uchun sira qaygʻurmasa ham boʻladi. Yoʻqolgan besh dollar masalasiga kelsak, provodnikning fikricha, ayniqsa, hozir, inflyatsiya butun raqamlarni haddan tashqari shishirib turgan bir paytda, u haqda hatto ogʻiz ochib oʻtirishgayam arzimaydi.

Jerri vagonda hammadan keyin qolib, yuk polkalari bilan oʻrindiqlarini qaradi. Lekin yoʻqotgan narsalaridan nom-nishon topmadi. Oʻrindiqlardan bittasining ostida unutib qoldirilgan «Pop korn» degan bir quti mak-kajoʻxori parragi bilan «Chikago tribyun» gazetasi yotardi, xolos. U yoʻqotgan buyumlari tovoniga uning har ikkalasini ham olib, vagondan chiqdi va La Saal vokzalini toʻldirgan olomon orasiga singib ketdi. Kutish zallari-dagi oʻrindiqlarda negrlar koʻzlarini yumib, ogʻizlarini katta ochib yotardilar. Farroshlar oʻrindiqlar ostini supurib chiqqanlari hamona vokzaldagi tartib-qoidani kuzatib yurgan politsiyachilar uxlab yotganlarni uygʻota boshladi. Jerri sochlari oqara boshlagan bir negr yoniga borib oʻtirdi. U soʻlgʻin, keksa bir odam boʻlib, bunday uzoq umr koʻrishining siri – sassiq sarimsoqda edi. Bu sirni u pinhon tutmas edi. Unga Jindak boʻlsin yaqinlashgan har qanday odam oʻzini zoʻrgʻa oyoqda tutib qolardi. Sassiq sarimsoqning dimoqni yoruvchi hidi Jerriga gup etib urilib, uning koʻnglini agʻdarib yubordi. Jerri «Chikago tribyun» gazetasini yozib, qoʻshnisi oldini toʻsdi-da, eʼlonlarga koʻz yugurtira boshladi. Chikagoning koʻchmas mulk bilan savdo qiluvchi bir byuro-si oyda xususiy dacha uchastkalari qurish uchun yer sotayotgan ekan. Maydonning har bir akri¹ yuz dollar boʻlib, oʻn yil mobaynida toʻlash kerak ekan. Xaridorlar-

¹ Akr – Angliya va Alirikoda – 4047 kv. metrga teng yer oʻlchovi

ga o'yning to'lishgan vaqtida uchastkalar sotib olish tavsiya etilardi, chunki bu paytda akrlar xiyla yirik bo'ladi. Jerrining xotirasiga Boboning odamlar titrab-qaqshab, talvasa ichida dollarga yopishadilar va ayni mahalda samodan ko'z uzmaydilar, degan so'zlari keldi. Bolalarga xaroba kulbalarda o'tirib, yulduzlar jamolini ko'rsin deb, ilmiy-fantastik romanlar o'qib beradilar, yulduzlarda esa, haftalik hordiq uchun dachalar quriladi.

Negr xurрак ota boshladi. Bu uning u yotgan o'rindiqqa hech kim yaqin kelmasin deb qo'llayotgan mudofaa quroli edi. Uning xurragi nodir, sira tengi yo'q ohang chiqarar ediki, bundan faqat uning yolg'iz o'zi huzur qilmoqda edi. Jerri o'rnidan turib, «Chikago tribyun»ni o'rindiqda qoldirib shahar aylangani ketdi. Hamma narsa unga behuda va keraksizday tuyuldi. Shu fursatda o'z hayotining bema'niligiga, tushunib bo'lmaydigan darajada beo'xshov va mantiqsiz ekaniga hech qanday izoh topolmay xunob bo'ldi. Jerri xuddi katexizis so'zlarini yodlab olayotganday tinmay: «Men qayoqqa ketyapman va nima uchun?» deb so'rar, uzoqlarga, osmono'par binolarning qubbalariga tikilarkan, qorni ochligini sezdi.

Ikki soatga yaqin shaharda sanqib yurib, vokzalning kutish zaliga qaytib keldi. Keksa negr allaqachon uyg'onib, Jerri tashlab ketgan gazetani o'qib o'tirardi. Chamasi, u hozirgina sassiq sarimsoqni yana rosa tushirgan bo'lsa kerak, unga bir tosh joydan yaqinlashib bo'lmasdi. Hatto eng ashaddiy hid ham shu damda chol og'zidan taralayotgan teri isiga bas kelmasdi.

Kutish zali hamma vaqtdagiday tiqilinch, to's-to'polon. Odam demaganing mindi-mindi. Aftidan, hali hech kim oyga uchib ketmaganga o'xshaydi. Jerri nari borib, beri kelib yurdi. Keyin azbaroyi bekorchilikdan badrapxona tomon ketdi. O'n daqiqa chamasi navbat kutib turgach, nihoyat, kichkinagina hujra uning mahriga tushdi. Hujraning oppoq devorlarida istagan o'rta darajali amerikalik odam uyidagidan ko'ra ko'proq suratlar

bor edi. Bu suratlarning bari sharmu hayosiz, mashhur «Meymi Stouver» kitobini ham orqada qoldirib ketadigan suratlar edi. Doktor Xinsey, agarda o'z xodimlarini ikki kunga jamoat hojatxonalarini ko'rgani yuborganida, u erkaklarning jinsiy xulq-atvorini tekshirish va o'rganishda benihoya nodir materiallarga ega bo'lardi.

Jerri hujradan tezroq chiqib ketishga oshiqib, eshik tutqichidan tortgan edi, qulf buzilib eshik ochilmadi. Jerri eshikni mushtlab, odamlarni yordamga chaqirib ko'rdi. Biroq nima uchundir kichik hujradan eshitalayotgan momaqaldiroqday gumburlashga hech kim qilcha e'tibor qilmasdi. Odamlar tug'ilgan kunlaridanoq, olag'ovur, shovqin-suronga shunday o'rganib, ko'nikib ketgan edilarki, agar bexosdan jimlik cho'kib qolsagina hamma besaranjom bo'lib, tashvishga tushib qoladi.

Jerri Finn tutqun bo'lib qoldi. Shiftda kichkinagina tuynuk bo'lib, undan faqat mushuk chiqib keta olardi. U yana eshikni ura boshladi. Jerri tezroq ozod bo'lishni, hujradan sof havoga, odamlar oldiga chiqishni istardi. Ammo najot hadeganda kelmasdi. Jerri qamoqxonada o'tirganga o'xshardi, bu yerda hech kim unga kvartira haqini oshiraman deb tahdid qilmas, mangu do'zax azobi bilan qo'rqitmas edi. Umidsizlik uning miyasini band etib, endi oyoq-qo'lini ham bog'ladi, tobora holini xarob eta boshladi. U o'zini-o'zi o'ldirishga ham tayyor edi, lekin bu qadamdan ushlab turgan narsa joniga o'zi qasd qilishi va o'zi bunga qo'l urishi kerakligi edi. Jerri nikohidagi xotini Joanni esladi. Nafaqa to'lash uchun ajoyib sinov vazifasini o'tovchi bu qonuniy nikoh uni Joan bilan haliga qadar mahkam bog'lab turardi. Samoviy soddalikning olijanob, muqaddas kamoloti bo'lgan Joan oxir-oqibatda eridan ajralish, undan keyin muhabbatning qat'iy va qonuniy bahosi bo'lmish nafaqa olish uchun hamon Jerrining qaytib kelishini kutib yotgan bo'lishi kerak.

Umidsizlik o'z orqasidan ojizlikni yetaklab keldi. Jerri unitaz – haloxona chanog'i qopqog'i ustiga o'tirib,

o'tmishini o'ylab ketdi. Uning o'y-xayollari yot yurtga olib kelib, qafasdan qo'yib yuborilgan bir gala kabutarlar singari o'tmish yillari ustidan birin-ketin uchib o'ta boshladi. Jerri ko'zi oldida bolaligi namoyon bo'lib, mehribon onasining muloyim qo'shig'i qulog'i ostida jaranglab ketdi. Bolalik xotiralariga berilib ketgan Jerri cho'ntagidan tarog'ini oldi, devordagi rulon qog'ozdan bir parcha yirtib, ana shu ikkalasidan kichik, antiqa bir musiqa asbobi yasadi. Bu asbob – qadimiy Nubiya cho'ponlarining nayiga o'xshab nozik, titroq, sodda va g'amgin ovoz chiqarardi.

O'zining ozod bo'lishini kutib, Jerri Finn ana shu yangi asbobda Chikagoning La Saal vokzalida hali hech kim, hech qachon chalmagan fin xalq qo'shiqlarini asta-sekin chala boshladi. Har holda, bunday taroqda hali hech kim chalmagan edi...

Zamon va davrdan ortda qolishni bilmagan mister Govard Etkesonni kitobxonga tanishtirib o'tirishga hech qanday zarurat bo'lmasa kerak! Uni har bir odam biladi, bordiyu bilmasa, bilishi kerak – u gramfon plastinkalari ishlab chiqaruvchi jahondagi eng yirik kompaniyaning badiiy direktori, ommaning didini juda yaxshi biladigan odam. Rasm bo'lib, keng yoyilib ketgan qo'shiqlarning minglab ijrochilari uning nomini zikr qilganlarida, og'izlaridan bol tomadi, uni boshlariga ko'tarib, maqtaydilar. Agar mister Etkeson bo'lmaganda, ular ana shunday modaga kirgan qo'shiqchi ijrochilar bo'lib etishmas edilar. Mister Etkeson – ma'lum va mashhur, olihimmat, sermuruvvat odam; u doimo birovdan bir nima olib, uni ikkinchi odamga ma'qul qiladi, ayni vaqtda o'zini ham unutmaydi. Vositachiligi uchun durustgina ulushni hamyonga uradi. U advokatning bebaho prinsipiga, kommersantning mantig'iga amal qiladi, qo'llari mayin va yumshoq, yuzi barkashday, ovozi cho'pon nayidek ingichka bo'lib, bu ovoz, qachon qaramang, faqat burun orqali tashqariga otilib chiqishga intiladi.

Ana shu tafsilotsiz ham ko'pgina odamlar mister Etkesonni yaxshi taniydilar. Mana hozir ham u qo'lida jigarrang portfel, La Saal vokzaliga kelmoqda. U yangi grammofon yulduzlari izlab Gollivudga ketyapti. Sinatra, Otri, Lita Roza, Le Bakster, Eddi Fisher, Billi Smit va boshqa ko'pgina ashulachilar o'zlariga ulkan boylik orttirdilar va o'z vaqtida artistlik faoliyatlarini tark etib, davradan chiqib ketdilar.

Mister Etkeson vokzalning peshayvoniga kirib kelganida dastxat olish ishqibozlaridan yashirinish uchun shlyapasini naq ko'zlarigacha bostirib kiyib oldi. Birdan u to'xtab qolib, quloq soldi. Allaqayoqdan, noma'lum tomondan noma'lum musiqa sadosi eshitilardi. Mister Etkeson quloqlariga ishonmay, boshini sarak-sarak qildi. U oldinga bir necha qadam tashlab o'tib, yana turgan joyiga qaytdi. Musiqa davom etardi. U jozibali, ayni mahalda g'amgin bo'lib, ommaning didiga quyib qo'yganday mos kiyingan ko'rinadi. Mister Etkeson yon-veriga qarab olarkan biron yo'lovchi ichki cho'ntagida kichik radiopriyomnikcha, olib o'tayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Yo'q! Taxmini to'g'ri chiqmadi. Musiqa pastdan, uning oyog'i tagidan eshitilardi. Mister Etkeson yerto'la devorlaridagi sal qiya ochiq turgan deraza ko'zlaridan ichkariga qaradi. Shundan so'ng go'yo yechilib ketgan botinkasi ipini bog'layotganday engashib, derazalardan biri orqali ichkariga qaradi. Uning qulog'i olamdagi eng nozik kuyni, burni esa dimog'ni yoruvchi ammiak isini ilg'adi. U derazadan nari ketarkan, o'ziga-o'zi dedi:

– Fleytami? Yo'q! Burg'imikin? Yo'g'-ey! Saksofon bo'lsa kerak? O'xshamaydi! Bo'lmasa, nima bu?

U yugurgancha kutish zaliga bordi, bu yerdan erkaklar hojatxonasiga o'tdi. Musiqa sadosi tindi. Mister Etkeson bu voqea davomini o'ylar ekan, kutish zaliga qaytib politsiyachidan yordam berishini so'radi. Ular erkaklar hojatxonasiga kirib kelishganda eng chetdagi, tashqariga chiqadigan devor tagidagi hujrachadan yoqimli musiqa sadosi eshitildi.

– O'shatda! – xitob qildi mister Etkeson qo'li bilan kichik konsert zalini ko'rsatib.

Hujracha yoniga yaqin kelib, u eshikni ohista taqilatdi. Musiqa shu zahoti bo'linib qoldi.

– Kimsan? – bo'kirdi shoshilib yetib kelgan politsiyachi.

– Men, – horg'in va botinmaygina aytilgan jumla eshiltildi ichkaridan. – Qulf buzilib, qamalib qoldim, chiqolmay o'tiribman.

– Nima uchun u yerga musiqang bilan kirib o'tiribsan? – surishtirdi politsiyachi.

Hujrachadan javob bo'lmadi. Uning o'rniga politsiyachiga mister Etkeson:

– Bunday ahmoqona savollar bermang! – dedi. – Siz, axir, yaxshi bilishingiz kerak, bu joy qabrga o'xshagan narsa. Vaqti soati yetgandan keyin hech narsaga qaramaydi odam. Yaxshisi, eshikni ochib bering!

Politsiyachi qulfni tortib ko'rdi, eshik ochilay demasdi.

– Eshikni sindirishga to'g'ri keladi, – dedi hokimiyat vakili va lom izlab ketdi.

Biroq u bu dag'al qurolni izlab topishga ulgurmasdi. Politsiyachi kutish zalida o'zining eski tanishi Otmichka Dik (Ochag'on Dik) laqabli mashhur Dik Gomerni uchratib qoldi.

– Qani, men bilan yur, bir eshikni ochib berasan! – dedi unga politsiyachi.

– Hozir yonimda asbobim yo'q, – javob berdi o'z ishining ustasi Dik. – Qanday eshik ekan o'zi?

– Hojatxonaning eshigi. Eng oddiy avtomat eshik.

Shartli ozodlikka qo'yib yuborilgan qulfbuzar bir nafas xayol surib turdi-da:

– Bo'lmasa bir enlik sim yoki xotinlarning sochiga qadaydigan shpilka, hech bo'lmasa biron mix topib bering, – dedi.

Hokimiyat vakili bunday topshiriqdan sal norozi bo'lsada, harqalay, bir negr ayolidan uning shpilkasi-

ni olishga erishdi. Uni shu zahoti mister Gomer qo'liga tutqazdi.

– Qani, eshikni ko'rsat! – buyurdi mister Gomer.

Politsiyachi gulf ishlarining mohir ustasini erkaklar hojatxonasiga boshlab keldi. Bu yerda ularni kutib turgan mister Etkeson yopiq eshik orqali mister Jerri Finn bilan qizg'in suhbatlashmoqda edi. Bu suhbat shunday chuqur ildiz otgan ediki, mister Etkeson o'z portfelidan shartnoma varaqalarini olib shu damning o'zidayoq uni to'ldirishga kirishmoqchi bo'lib turgandi. Lekin ularning bu shirin suhbatini bir nafasga, ha, atigi bir nafas ham gapmi, bir daqiqaga bo'lindi, xolos. Bu Dik Gomerning sochga qadaydigan shpilka bilan birinchi marotaba eshik ochishi emas edi. Aql bovar qilmaydigan mohirlik bilan u shpilkani u yoq bu yoqqa egdida, kalit o'rniga soldi-yu, eshik lang ochilib ketdi. Hayrat va hayajonda qotib qolgan mahbus qimir etmay, unitaz qopqog'i ustida o'tirar, o'z xaloskorlariga kiprik qoqmay tikilib turardi.

– Qanday asbobda chalayotgan edingiz? – qiziqishdan yuragi yorilay degan mister Etkeson shoshilinch so'radi.

– Qani, ko'rsat, oshna. Bo'l deyman senga, tezroq ko'rsat, o'sha chalayotgan asbobingni! – bo'kirdi politsiyachi.

– Menda hech qanday asbob yo'q, – dedi soddalik bilan Jerri.

– O'zningni jinnilikka solma! – qichqirdi politsiyachi Jerrini bu ajoyib musiqaxonadan sudrab chiqararkan. – Baribir, seni iqror bo'lishga majbur etamiz.

Dik Gomer zaharxandalik bilan jilmayib qo'ydi. U Chikago politsiyasini juda yaxshi bilardi. Jerri nochor nazarda mister Etkesonga tikildi.

– Nima uchun dag'dag'a qilyapsizlar menga? – so'radi u titroq ovozda.

– Jamoat joyida madaniy betartiblik qilganingiz uchun, – javob qaytardi politsiyachi va Jerrining

yengidan ushlamoqchi bo'lgan edi, oraga mister Etkeson tushdi.

– Siz aralashmang, – dedi u politsiyachiga.

– Hali shunaqami!.. – ming'irladi barvasta, jussador tartib-qoida jonkuyari.

– Ha, endi siz o'z ishingizga ketavering.

– Bir dollar berishingizga to'g'ri keladi, – so'z qistirdi qulf ochish ustasi.

Mister Etkeson cho'ntagiga qo'l solib, ilinib chiqqan bir hovuch mayda pulni unga uzatdi. Shundan keyin o'zining barkashdek yumaloq yuziga yorqin jilmayish olib, Jerriga murojaat qildi:

– Siz meni nihoyatda qiziqtirib qo'yingiz, ha, ha, juda qiziqtirib qo'yingiz...

Politsiyachi Jerriga yana tahdid qila boshlagan edi, mister Etkesonning jahli chiqib ketdi. U orqasiga bir necha qadam chekinib, keyin chopa kelib, politsiyachini musiqa xonasiga itarib kiritib, eshikni shaq etib yopib qo'ydi. So'ngra Jerriga qaradi:

– Qani yuring, biz siz bilan yaxshi biznes qilishimiz mumkin.

Kichik hujrachadan bolaxonador so'kish, so'ngra zo'r berib eshikni itarish eshitildi. Biroq qulf yana yopilib qolib, hech qanday itarish, turtish, siltash, mushtlash bilan eshikni ochib bo'lmadi. Mister Etkeson bilan Jerri bahavo binodan darhol chiqib ketishdi. Ular chiqib ketishar ekan, quloqlariga politsiyachi bilan Dik Gomerning suhbatini chaldindi.

– Men hali ularga ko'rsatib qo'yaman! – g'azabdan qaynab-toshib bo'kirardi politsiyachi. – Eshikni och, Dik!

– Nima bilan?

– Shpilka bilanda.

– Men uni allaqachon tashlab yuborgan edim.

– Bo'lmasa yangisini top! Tezroq bo'la qolsangchi!

Mening navbatchilik vaqtim hozir tamom bo'ladi.

Ochag'on Dik shu topda o'zining eski zulmkashidan biron nima undirishga qulay imkoniyat tug'ilganini yaxshi bilib turardi.

- Qancha toʻlaysan?
 – Bir chaqa ham. Eshikni och deyman, naq kishanlab qoʻyaman.
 – Yaxshi. Unday boʻlsa kishan ura qol.
 – Toʻxta, bir dollar beraman! – qichqirdi politsiyachi shu fursatda oʻzining ilojsizligini sezib.
 – Juft boʻlsa, mayli.
 – Muttaham, tovlamachi! Qarab tur hali, seni bir boplab savalatmasammi!
 – Ol rayt! Boʻlmasa savalata qol. Men ketdim.
 – Yoʻq, yoʻq... Ketma! Ikki dollar beraman.
 – Masala ravshan, – dedi qulf ochishning ustasi choʻntagidan kichik ochqich olib, eshikni ochar ekan.

* * *

Jerri yap-yangi kadillak mashinasining oldingi oʻringidigʻida mister Etkeson bilan yonma-yon oʻtirarkan, oʻzini yana buyuk imkoniyatlar mamlakatida ekaniga qattiq ishonch hosil qildi.

– Men Gollivudga bormoqchi boʻlib turgan edim, – dedi mister Etkeson, – lekin ertaga borsam, birov qoʻlimdan ushlab qolarmidi! Shunday, mister Finn, boya aytganimdek, sizning musiqangiz meni qiziqtirib qoldi. Agar, bordi-yu, uni lentaga yozib ola bilsak, unda sizga hech qachon xor boʻlib xiroamaliyot yoki pedagogika bilan shugʻullanib oʻtirishga toʻgʻri kelmaydi.

Jerri oʻzining qisqacha tarjimai holini mister Etkesonga roʻy-rost gapirib berdi. Ular endi grammofon musiqalari Xalqaro birlashmasining studiyasi tomon ketmoqda edilar.

– Siz qachon boʻlmasin, boshqa musiqachilar bilan joʻr boʻlib chalganmisiz? – soʻradi mister Etkeson.

– Men hech qanaqasiga chalgan emasman, – javob berdi musiqaning boʻlajak porloq yulduzi.

– Ha, aytganday, soʻrab ulgurmovdim, siz yozish-oʻqishni bilasizmi?

– Bilaman...

– Savolim turgan gap, ahmoqona savol, lekin iloj qancha, artistlar orasida to'la savodxonlik kamdan-kam uchraydigan hol. Shu tufayli sizga ana shu behuda savolni berishga majbur bo'ldim,

Ular Shimoliy Michigan-Avenyuga kirib borishganda mashinalar to'planib qolgan tirbandga duch keldilar. Tezlik soatiga o'n besh milga tushib qoldi. Mister Etkeson o'z hamrohiga issiqxonada yetishtirilgan bodringday keladigan sigara tutdi va bo'lib o'tgan, ishtirokchilari hali ham hayot qiziq bir voqeani gapirib berdi:

– Alabamada paxta yetishtiradigan bir ferma bor. Unda Miriam Nekkerbokker degan yoshgina qiz ishlardi. O'zi juda yoqimtoy edi. Alabamaning o'g'it ishlab chiqaradigan bir zavodi bundan uch yil muqaddam go'zallik tanlovi o'tkazdi. Nimayam bo'ldi-yu, ana shu Miriam Jozefina Nekkerbokker tanlovda g'olib chiqdi. Tezak xonim darhol Gollivudning e'tiborini o'ziga tortdi. Uning uchun maxsus «Fermerning jozibali qizi» degan senariy yozildi. Film juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Betti Bondi xonim (bu Nekkerbokkerning artistlik taxallusi edi) kutilmaganda o'zining tabassumi bilan dong taratdi, shuhratiga shuhrat qo'shildi. Siz, balki uning suratlarini tamaki buyumlarda va pivo reklamlarida ko'rgan bo'lsangiz kerak? Chindan ham uning tabassumi beqiyos, jozibali edi. Shu sababdan ham kinoprodyusserlar uning tabassumini yuz ming dollarga sug'urta qildirdilar. Har qanday odam ham suratga tushayotganda, albatta kulishi e'tiborga olinsa, turgan gap, bu g'oyat katta boylik. Gap mana shundoq, xo'sh, undan keyinchi? Undan keyin Betti Bondi uchun: «Jahondagi eng jozibali tabassum» degan maxsus kinosenariy yozildi. Xuddi mana shu yerda sira kutilmagan hodisa ro'y berdi: Bondi xonim to'satdan butunlay kulmay qo'ydi. Kinoprodyusserlar, film direktorlari, muxbirlar, sug'urta jamiyatining vakillari va reklama xodimlari uvvalo urindilar, o'zlarini ming yoqqa urdilar, hatto Bondi xonimni qitiqlab ko'rdilar, baribir uni iljay-

tira olmadilar. Aksincha, u zo'r berib ko'z yoshi to'kar, g'am-g'ussa ichida qayg'urar va ko'rinishi ham odamning rahmini keltirardi. Shundan so'ng vrach chaqirishdi. Vrach Bondi xonimga odatda beriladigan savollardan bir nechasini berdi.

– Nima uchun kulmaydigan bo'lib qoldingiz? Bondi xonim, axir tabassumingiz millionlab dollar turishini bilasizmi?

Bondi xonim stol ustiga ishora qildi. Stol ustida uning muxlis va muhiblaridan kelgan bir to'da maktublar – otashin, ehtirosli, ko'klarga ko'tarib maqtagan, telbalik bilan yozilgan xatlar yotardi.

– Axir kunda besh yuz va undan ortiq maktublar olib turganimdan keyin qanday qilib kulishim mumkin? – dedi g'amgin Bondi xonim.

– Siz bundan benihoya xursand bo'lishingiz kerak, – doktor unga tasalli berishga urina boshladi.

Bondi xonim hasratli bosh irg'ab, ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Men xursand bo'lolmayman, – dedi u. – Chunki men o'qishni ham, yozishni ham bilmayman...

Mister Etkeson Jerri tomon o'girilib, undan so'radi:

– Mister Finn, balki meni nima uchun o'qish, yozishni bilish-bilmasligingiz bilan qiziqqanim sababiga endi tushungandirsiz? Ha, aytmoqchi, sizning vataningizda hamma yoppasiga savodxon bo'lib ketgan deyishadi, shu rostmi?

– Ha, rost, mister Etkeson. Finlyandiya garchand kichik mamlakat bo'lsa ham, aholisining savodxonligi jihatidan dunyoda birinchi o'rinni egallaydi.

Mister Etkeson jilmayib qo'ydi.

– Men bunga ishona olmayman, mister Finn.

Jerri unga e'tiroz bildirmadi. Chunki u endi o'zining kelajagi haqida o'ylardi.

Grammofon musiqasi Xalqaro birlashmasining studiyasi ulkan firma binosining o'n oltinchi qavatiga joylashgan edi. Mister Etkeson Jerrini g'oyat serha-

sham qilib jihozlangan xonasiga boshlab kirdi. Xona derazasidan kambar poyonozday osmono'par binoning yonboshi, oynasiz va rangpar devor ko'zga tashlanardi. Mister Etkeson g'oyat g'ayratcha, doimo harakatdagi kishi bo'lib, odamlar bilan dollarni ishga solish yo'lini yaxshi bilardi. U ikki texnikni chaqirib, ularga qisqagina ko'rsatma berdida, keyin Jerri tomon o'girildi.

– Qani, bir sinab ko'raylikchi, sizning ovozingiz lentaga qanday tushar ekan. Siz notani ham bilasizmi?

– Bilaman... umumiy tarzda...

– Yaxshi. Men sizga boya yo'lda kelayotganimda aytgan edim, ommabop, engil mazmundagi qo'shiqlarni aytish uchun katta ovozga ega bo'lish shart emas, ovoz bir oktavadan sal ortiqroq bo'lsa bas. Shuning o'zi kifoya. Kuyning sofligi biroz buzilishi mumkin, chunki shu as-noda yangi ritm tug'iladi. Hozir bizga, mister Finn, yangilik, ha, yangi narsa kerak. Xo'sh, bir harakat qiling, o'zingizning nimaga qodir ekaningizni ko'rsating. Mister Etkeson o'zining topilmasini texniklar qo'lga topshirib, dam olgani divanga o'tdi. U, nomi hech shak-shubhasiz jahon musiqasi tarixiga kirib qoluvchi hozirgi zamon musiqasi yozuvining otashin va dovyurak Kolumbi edi. Allaqanday Toskanini, Valter yoki Stokovskiylar, turgan gap, e'tiroz bildirishlari mumkin, bu borada ular butunlay boshqa fikrda bo'lishlari ehtimol, lekin buning hech qanday ahamiyati yo'q, chunki ularning fikrlari hech qachon jamoat fikri, ko'pchilikning fikri bo'la olmaydi: demokratiya uchun ular butunlay xavf-xatarsiz.

Lentaga yozish boshlanganini bildirib, devordagi signal lavhachaning qizil chirog'i yondi. Mister Etkeson dinamikni burab, butun vujudi bilan quloqqa aylandi. Yangi paydo bo'lgan qo'shiqchi birinchi navbatda «Tug'ilgan kunimdan buyon hasrat chekaman» degan fin xalq qo'shig'ini, undan keyin fortepyano jo'rligida «O'rmon orqasida» ashulasini aytdi.

Mister Etkesonning butun a'zoi badaniga tintroq kirdi. Uning yuragi xuddi pul bosib chiqaradigan mashina

kabi ura boshladi. U keskin harakat bilan telefon trubkasini olib, studiyaga qo'ng'iroq qildi.

– Juda ham soz, faqat ritmni sal o'zgartiring. Siz bu qo'shiqlarni sokin vals shaklida aytdingiz, bizga hozir fokstrot bilan rumba kerak.

U telefon trubkasini joyiga qo'yib, yana xotirjam, orom olayotgan qiyofaga kirdi. Taroqda kuy chalayotgan musiqachi o'z kelajagini ijod qilmoqda edi. Bu safar Jerri fortepyano jo'rligida: «Tezroq qoch, mening kiyik-cham» va «Kim mening hammomimga o't yoqib beradi?» degan fin xalq kuylarini ijro etdi.

Mister Etkeson o'rnidan irg'ib turib, yumshoq qo'llarini bir-biriga ishqaladi. Uning ichidagi gapi tashiga tepdi:

– Bir parchagina hojatxona qog'ozini bilan oddiy bir taroqda millionlar yashirinib yotganini kim xayoliga keltiribdi deysiz!..

Texnik hamrohligida xonaga qaytib kelgan Jerri xuddi ich suradigan dori ichgan odamga o'xshardi. Mister Etkeson o'z tajribasidan yaxshi bilardiki, bunday qo'shiqchilar bilan shartnoma tuzmay turib, ularni maqtash kerak emas. Shu tufayli u o'zining yangi kashf etgan nodir qo'shiqchisini xiyla vazminlik va sipogarchilik bilan tabrikladi.

– Mister Finn, sizdan biron ish chiqadiganga o'xshaydi.

Ovoz yozib oluvchi texnik farmoyish va ko'rsatma kutib, eshik yonida turardi. U mister Etkesonga zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'ldirish uchun varaqa uzatdi. Mister Etkesop unga ko'z yugurtirib chiqqach, Jerridan ijro etgan qo'shiqlari nomini, ularning avtorlari kimligini so'radi. Bu qo'shiqlar asosan fin xalqining umum mulki ekanini eshitib, mamnun jilmaydi:

– Juda soz! Biz ularning tezligini biroz o'zgartirib, boshqacha qilamiz, ularning muallifi mashhur Bob Pegler bo'ladi. Yoki sizning e'tirozingiz bormi, mister Finn?

Jerri telbalarcha bosh chayqadi, chunki u o'zining kelajagi to'g'risida o'ylardi. Shundan so'ng mister Etkeson texnikka murojaat qildi.

– Bob Peglarga telefon qoqib ayting, u ana shu kuy-lar bilan darrov tanishib chiqsin va ularga o'zining mualliflik huquqini rasmiylashtirib, ro'yxatdan o'tkazsin. Ha, yana bir gap, kuylarning nomini nima g'ila-miz? «Tug'ilgan kunimdan buyon hasrat chekaman» – shuyam nom bo'ptimi? Bordi-yu, u osiyocha kuy bo'lganda boshqa gap edi, Amerikada har bir odam tug'ilgan kunidan boshlab shod-xurram bo'ladi. Men u ashula nomini «Muhabbatning mangu sog'inchi» deb atashni taklif qilaman. Musiqasini Bob Pegler yozgan, ijro etadi Jerri Finn.

Mister Etkeson Jerrining fikrini, uning nima deyishi-ni kuta boshladi. Ammo bizning qahramonimiz hamon o'zining kelajagini o'ylab, faqat ma'qul ishorasini bildirib bosh chayqab qo'ydi. «O'rmon orqasida» ashulasi-ni «Seni kutaman sevikli yorim, sokin tunda, kel ko'zi xumorim» deb o'zgartirishdi. «Tezroq qoch, mening ki-yikcham» – yorug' olamga «Ehtirosli sevgi» nomi bilan yoyiladigan bo'ldi. Qadimiy «Kim mening hammomimga o't yoqib beradi» degan xalq kuyi Bob Peglarning hozir-gi zamon o'ynoq kadrili «Kovboyning beparvo sevgisi»ga aylandi.

Jerrining yuragi orqasiga tortib ketdi, lekin Bob Peglarning Brams bilan Betxovenning ajoyib asarlarini sho'x va yengil jaz musiqalariga aylantirib yubor-ganini eslab, indamadi. Shunday qilib, yangi gunoh eski an'ana asosiga qurilib, ish birpasda xamirdan qil sug'urgandan silliq bitdi.

Texnik yana nimanidir kutib, chiqib ketmay turardi. U varaqani barmoqlari orasida aylantirib, deyarli shivirlab:

– Necha nusxa yasash kerak? – deb so'radi.

Mister Etkeson javob bermadi. U texnik qo'ldan varaqani olib, har bir kuy yoniga kamtarona raqamlar – uch yuz ming nusxadan, deb yozib chiqdi.

Texnik orqasiga tisarilib xonadan chiqib ketdi. Jerri o'zining valine'mati bilan yolg'iz qoldi. Mister Etkeson stolga o'tib, haddan tashqari chaqqonlik bilan bir ming dollarga chek yozib, uni olam fuqarosiga uzatdi. Jerrining ko'zi chekdagi raqamga tushib, lablari titray boshladi:

– Yo'q, yo'g'-ey, mister Etkeson... men buni ololmayman...

Valine'mat chekni qaytarib olib, yangisini yoza boshladi. Jerrining ko'zi chekdagi raqamda edi: boyagi bir ming o'rniga ikki ming degan yozuv paydo bo'ldi. U ortiq e'tiroz bildirmadi. Jerri boshi aylanib ketganini sezib, ko'zlarini yumdi. Mister Etkeson xiyla taajjubga tushib, unga izoh berdi.

– Mister Finn, bu hali kichik bay puli, ya'ni xamir uchidan patir, – davom etdi u. – Agar hamma ishimiz o'ngidan kelib, men o'ylaganday yurishib ketsa, siz bundan ancha yirik qalam haqi olasiz.

Jerri chekni paypaslab ko'rarkan, hovlima-hovli yurib konsert beruvchi, «Oasis»da qorin to'yg'azib kun ko'ruvchi, Nyu-Yorkning san'atkorlar xarobalaridagi nomi ma'lum bo'lmay qoluvchi yuzlab virtuozlar – o'z san'atining mohir ustalari, chin san'atkorlarni esladi. Ularni hech kim, hech qachon kashf qilmaydi. Qayta ular ham biron vokzalning hojatxonasida musiqa cholib, baxtlarini sinab ko'rishsa bo'lardi. Skripkada emas, taroqda...

Mana endi, mister Finn, – dedi qisqagina pauzadan keyin musiqa san'atining hali odam oyog'i yetmagan bo'z yerini birinchi bo'lib ochgan kashfiyotchi. – Siz ust-boshingizni yaxshilab tartibga solib oling. Mening kotibam bu ishda sizga ko'maklashadi. «Gollandiya» mehmonxonasida turishni tavsiya etaman. Ishga indindan chiqing.

Mister Etkeson o'z kotibasini chaqirib, qisqa, ammo aniq ko'rsatma berdi. yosh kotiba qiz quyib qo'yganday Merilin Monroning xuddi o'zginasi edi. Uning ko'zlari chorlovchi ifodaga ega bo'lib, nozik va shirali lablari

toppon tuzini eslatardi. U stenografiya bilan jazb etish hunarini bilardi. Uning bashang kiyinishi kamdan-kam aytiladigan qadah ko'tarishga o'xshardi: bor narsani ta'kidlab ko'rsatish uchun yetarli darajada kalta edi...

Mister Etkeson taroqda chalish mo'jizakorini kotiba ixtiyoriga topshirib, o'zi reklamalar mudirini chaqirtirdi. Yangi mahsulotni darhol reklama qilish kerak edi. Frenk Sinatra bilan Eddi Fisher endi bir chekkaga chiqib turishlari kerak edi, chunki ularning plastinkalari Yevropa bozorlarida yetarli darajada keng tarqalgan va yaxshi daromad berdi. Ertagi kundan boshlab yangi nom – dunyoda yagona, beqiyos musiqa virtuozi, hozirgi zamonning yangi Paganinisi JERRI FINN nomi tillardan tushmaydi!

Amerikacha baxt kulganda, bu kulgidan dollar yog'iladi. Hozirgi zamon musiqasining mo'jizakor ustasi, uning yangi so'zi bo'lgan olam fuqarosi Jerri Finn ham ana shu xush yoqadigan yangilikni kutilmaganda bilib qoldi. Uch hafta ichida uning plastinkalari olti million nusxadan ortiq miqdorda sotildi. Jerri Finn ijro etgan, kuyini Bob Pegler qayta ishlagan mashhur qari qizlar haqidagi qadimiy fin xalq qo'shig'i birinchi kundanoq bestsellerlar qatoriga kirdi. Har bir odam sarlavhasida «Muhabbat» so'zi bo'lmagan ajoyib musiqali adabiy asarni eshitishni istardi. Bu asar – mo'jizakor ashulachi Jerri Finning eng zo'r, shoh ashulasi – «To'rtinchi umurtqa» deb atalardi. Endi Jerri Finning ismi har bir savodxon va savodsiz fuqaroning tilidan tushmasdi, qulog'ida uning ovozi jaranglardi. Jahondagi eng yirik taroq zavodi Jerri markali taroq ishlab chiqara boshladi. Ulkan qog'oz kombinatlari rulon-rulon Jerri degan hojatxona qog'ozlari bilan butun bozorlarni to'ldirib tashladi. Ana shu shon-shuhrat va hurmatdan tashqari firmalar Jerriga pul uchun cheklar va o'z mahsulotlaridan namunalar yuborib turishdi. Kunlarning birida Jerri ana shu sovg'alarni – besh mingdan ortiq taroq bilan shu miqdordagi hojatxona qog'ozini ko'tara savdo

qiluvchi bazalarga sotib yubordi. Hisoblab ko'rilganda, shuncha taroq musiqa chalish uchun va qog'oz kerakli joyda ishlatish uchun kattakon bir davlatning aholisiga qariyb bir yildan mo'l vaqtga yetar ekan.

Shon-shuhrat bilan birga la'nati dongdorlik, mashhurlik illati ham keldi. Jerri o'zini mahbusday his etardi, chunki grammofon musiqasi Xalqaro birlashmasi Jerrining o'zi bilan raqobat qiluvchi boshqa biron kompaniyaga yoki radioga, televideniyege, yo bo'lmasa kinostudiyaga o'tib ketishidan qo'rqib, uning huzuriga maxsus soqchilar qo'yg'an edi. Mister Etkeson maoshini to'lab turgan ikki xususiy izquvar Jerridan bir qadam orqada qolmay, soya kabi ergashib yurardi. Gazetalarining muxbirlari va suratkashlar uning oldiga, mehmonxonaning eng serhasham va dabdabali nomeriga faqat mister Etkesonning maxsus ruxsatnomasi bilanгина kiritilardi. Oradan ikki oycha o'tib, qit'a etarli darajada Jerri Finn plastinkalari bilan to'ldirib yuborilgach, unga ixtiyoriy ravishda yurishga, radio orqali va xayr-ehson niyatida uyushtirilgan konsertlarda ashula aytishga ijozat berishdi.

Fevral kunlarining birida Jerri Bobo to'g'risida surishtirib bilgani qidiruv byurosiga kirdi. Ammo u yerdan quruq qaytishga to'g'ri keldi. Psixologdan hech qanday nom-nishon topib bo'lmadi. Oradan ancha vaqt o'tib, Jerri «Xobo»lar tojdorini saylash Nyu-Yorkda o'tkazilganini eshitib qoldi. Bauerining xarobalarida «Xobo»lar qirolichasi ham saylanib, uning surati Nyu-York tayms gazetasining siyosiy yangiliklar sahifasida bosilib chiqdi.

Jerri ozodlikka chiqib, butun kuchi bilan ozodlikdan qocha boshladi. U uchratgan har bir odam hojatxona qog'oziga o'ralgan taroqni labiga ishqalar, «To'rtinchi umurtqa» milliy epidemiyaga – keng taralgan yuqumli kasalga aylanib ketgandi. U endi yo-yo kasali va chaynaladigan reznikadan ham xavfliroq ko'rinardi. Hozir uylarda, cherkovlarda, restoranlar-

da, kasalxonalarda, transportning hamma turlarida, jamoat hojatxonalarida – hamma yerda faqat «To'rtinchi umurtqa»ni chalishardi. Xaloyiqning eng sevib qolgan kuyi Jerri uchun jirkanch, nafrat qo'zg'atuvchi narsaga aylanib ketdi. U asta-sekin, taroqni labiga olib borishni butunlay tark etdi.

Keyingi to'rt oy mobaynida u uch yuz mingdan ortiq dollar ishlab oldi. Shunga qaramay, u o'zini baxtli deb bilmasdi. U orom olishni, biron «To'rtinchi umurtqa» eshitilmaydigan joyga qochib ketishni istardi. Jerri mister Etkesonning maslahatiga ko'ra pullarini uch ishonchli bankka topshirdi. Har uchala bank ham dunyodagi eng yirik va eng ishonchli banklar edi.

Bir kuni mister Etkeson unga «Jerri Finn plastinkalariga qiziqish kundan-kunga kamayib borayotgani»ni aytganda, Jerri o'zicha, epidemiya ham to'liqninga o'xshab harakat qilar ekan, degan qarorga keldi. Bu gaplarning bari Jerriga qilinayotgan nozik bir shama bo'lib, uni mister Finn agar xohlarsa Chikagodan jo'nab ketishi va kerak bo'lganda yana qaytib kelishi mumkin, degan ma'noda tushunishi kerak edi. Jerri hisobidagi barcha mualliflik, qalam haqini yig'ishtirib olib, yo'lga otlana boshladi. Xayollar uni Janubiy Amerikaga va Vest-Indiya orollariga chorlardi. Biroq u avval psixolog Minvegenni, xiroamaliyotchi Riversni, qolaversa, keyingi oylarda yuzdan ortiq maktub yozgan xotinini ko'rmoqchi edi. Jerri Joan xatlarining birontasini ham ochib o'qimadi. U xatlar mazmunini taxminan bilardi: Joan ham, ehtimol, hojatxona qog'oziga o'ralgan «Jerri» markali taroqda musiqa chalishni mashq qila boshlagan bo'lsa ajab emas.

YIGIRMANCHI BOB

**OXIRGI BOB, OLAM FUQAROSI JERRI FINNING
JAHONGASHTALIKNI TUGALLAB, SAFARGA
CHIQQAN JOYIGA QAYTGANI YOKI OT AYLANIB
QOZIG'INI TOPGANI**

«Uoldorf-Astoriya» mehmonxonasi xarajat qilib ulguriganiga qaraganda kirimu daromadi ancha mo'l bo'lgan odam uchun g'oyat qulay va bopta mehmonxona edi. Artist Jerri Finn o'zining saylab olgan ana shu sohasi-da zo'r muvaffaqiyat qozonmoqda edi. U samolyotda Nyu-Yorkka uchib kelib, hozircha «Uoldorf Astoriya» mehmonxonasiga joylashdi. Bu voqea bir ming to'qqiz yuz ellik uchinchi yilning birinchi aprel kuni, butun Amerika senator Makkarti tashkil qilgan birinchi aprel – hazil kunini o'tkazayotgan paytda yuz berdi. Tasodifni qarangki, har ikkala hazilkash ham – senator bilan taroqda chalish virtuozi mehmonxonaning bitta qavatidagi ikki nomerga joylashdilar. Shunday qilib, dastxat ishqibozlari, agar shunday deyish joiz bo'lsa – bir kesak bilan ikki qarg'ani urish imkoniga ega bo'ldilar.

Jerri portega telefon qilib, o'zini xufiya yashamoqchi, tinch-osoyishtalik quchog'ida orom olmoqchi ekanini ta'kidladi.

– Juda kechikib ogohlantiryapsiz, mister Finn, – deb javob berdi porte. – Radio o'zining so'nggi axborot eshittirishida, sizni bizning mehmonxonamizda yashayotganingizni xabar qildi. Buning ustiga, gazetachilar bilan suratkash muxbirlar allaqachon...

– Ularga, keldi-yu, shu zahoti ketib qoldi, deb ayting, – uning so'zini bo'ldi Jerri. – Men taxminan ikki kuncha hech kim bilan uchrashishni istamayman.

– Shundayku-ya, biroq mister Finn, harqalay, ochiq-chasiga ish ko'ra berganingiz ma'qul bo'lardi. Siz yana nimanidir yashirmoqchi bo'lsangiz, to'ppa-to'gri sena-

tor Makkarti qo'liga tushib, so'roq berib o'tirishingiz mumkin. O'zingiz ham yaxshi bilasizki, haligi...

Jerri gap davomini eshitmay, telefon trubkasini joyiga ilib qo'ydi. Uning qovoq-tumshug'i osildi. Soat endigina o'n bo'lishiga qaramay, quyosh allaqachon balandlab qolgandi. Jerri derazani ochgan edi, xonaga chang-to'zon bilan bir necha pashsha kirib ketdi. Bugun bahor boshlangan, baholarning yangi oshgan kuni edi. Manxettenning savdo qon tomiri – Beshinchi avenyu xaridorlarga baholari birinchi aprel haziliga daxli bo'lmagan moda yangiliklarini taklif etardi. Garlem-River sohilida bemalol oyoq uzatib, yashab kelgan yalangoyoqlar o'zlariga yangi uy-joy izlab topish tashvishiga tushib qoldilar. Chunki ular shu damgacha qayiq-larni to'nkarib olib yashab kelgan edilar. Hozir ana shu qayiq-lar suvga tushirildi. Chindan ham havodan bahor nafasi kelib turardi. Lekin shunga qaramay, Jerri derazani yopib, divanga cho'zildi. Uning tashqaridan kelayotgan bahor taronalarini eshitishga qilcha hushi yo'q edi. Hamma yoqda, hamma «To'rtinchi umurtqa»ni chalar va ashulasini aytardi...

Muvaffaqiyat orzular qanotini sindirdi. Jerri tubanlikdan ko'tarilib, cho'qqida o'ziga keldi. Muvaffaqiyat siri hamma vaqtdagiday sirligicha qolib ketmoqda edi, juda kamdan-kam odamga bunday muvaffaqiyat qozonishga to'g'ri kelardi. Jerrining muvaffaqiyat siri esa darhol oshkor bo'lib ketdi. Uning qo'lini sovuq suvga urmay, osongina katta boyluk orttirgani har bir odamga ma'lum edi.

Hech nima sir bo'lib qolmaydi. Hatto juda oz miqdordagi Jerrining uch bankka qo'yan pul cheki ham allaqachon hammaga ma'lum edi. Choshtgohga yaqin uning huzuriga o'zlarining hayotlaridagi eng muhim vazifa Jerrining pullariga g'amxo'rlik qilish deb bilgan, shinam kiyingan ikki janob kirib keldi. Ulardan biri taxminan Jerri bilan tengdosh, mamontday bahaybat, qarashlari tik, yuzlari qip-qizil bo'lib, nomi Rot edi. Ik-

kinchisining oti Ritter ekan. Ular zo‘r tirishqoqlik bilan nomlarini harfma-harf aytib, boshlaridan shlyapalarini olib, odamni ishontiradigan, faqat bank xodimlarigagina xos bo‘lgan tilda gap boshladilar. «Dollar» so‘zi ham ular og‘zidan g‘oyat jozibali va jaranglab eshitildi. Mister Rot asosiy ma‘ruzachi bo‘lib, mister Ritter hamkasabasi so‘zini ma‘qullab, kerakli joyda unga qo‘shimcha qilib turdi.

– Mister Finn, – deya tantanali ohangda so‘z boshladi mister Rot. – Mening chikagolik do‘stim Govard Etkeson – siz uni juda yaxshi tanisangiz kerak?

– Ha, albatta. Men uni juda yaxshi bilaman.

– ...ma‘lum qildiki, so‘z o‘zingizning xiyla yirik pularingizni uch yerdagi banklarga: Milliy savdo banki, Birinchi milliy bank va o‘rta Shtatlarning Yangi savdo banklariga qo‘yibsiz. To‘g‘rimi gapim, mister Finn?

– To‘g‘ri, ammo, lekin...

– Ruxsat eting, mister Finn, men sizga barini batafsil tushuntirib beray! Men hozirgina nomlarini birma-bir sanab o‘tgan banklar, hech shubhasiz, chuqur ishonchga molik bo‘lgan asl moliyaviy tashkilotlardir. Men ularning moliyaviy ahvolini o‘zinning hamyonimdek yaxshi bilaman. Hozir men masalaning eng muhim nuqtasiga, ya‘ni sizni ovora qilib o‘tirishga jur‘at etgan asosiy maqsadga o‘taman. Hamma gap shundaki, bu banklar qo‘yilgan omonat pul uchun yiliga atigi bir yarim foizdan foyda to‘laydilar. Shundaymi, mister Finn?

– Xuddi shunday, lekin...

– Kechirasiz, ruxsatingiz bilan men davom etaman, mister Finn. Men va mister Ritter o‘sha banklardan qolishmaydigan, yanada baobro‘roq moliyaviy tashkilotning vakillarimiz: bizning, moliyachilarning Milliy banki mayda-chuyda omonat pullarni qabul qilib o‘tirmaydi. Bankimiz qoidasiga ko‘ra omonatchi kam deganda ikki yuz ellik ming dollar qo‘yishi kerak. Endi biz to‘laydigan foydani aytay – yiliga ikki yarim foizni naqd sanab

olaverasiz. E'tibor qilinga, har ming dollar uchun boshqa banklarga nisbatan bizdan o'n dollar ortiqroq foyda olasiz. Yana shuni ham aytib qo'yay, qo'yilgan butun omonat inflyatsiya xavfidan kafilga olinadi, shunday qilib, omonatchi uchun hech qanday xavf-xatar tahdid qilmaydi.

Jerri allamahalgacha dovdirab o'tirdi. U bunday aniq va foydali gaplarni ilgari sirayam eshitmagan edi. Jerri o'zida, butun yurak qo'rini, muhabbat va iltifotlarini dollarga baxshida etgan ana shu moliyachilarga nisbatan allaqanday hurmat-e'tibor hissi sezdi.

– Bu taklif bilan siz qanday manfaatni ko'zda tutasiz, mister Ro... Ro...

– Er-o-te. Rot, mister Finn.

– Ha, janoblar, sizlarning bundan maqsadingiz nima?

– Sizga yordam berish, mister Finn. Biz pullaringizning ishonchli joyda saqlanishini, boshqa banklardagiga nisbatan ko'proq foyda tug'ishini istaymiz. Turgan gap, bizlar filantiroplar emasmiz. Mutlaqo unday emasmiz, mister Finn. Biz o'z omonatchilarimizning manfaatlari yo'lida harakat qiluvchi va shu kabi ayni vaqtda o'z manfaatini ko'zlab ish tutuvchi moliyachilarmiz. Mening do'stim Govard Etkeson bugun ertalab telefon qoqdi – siz uni juda yaxshi bilasiz. Etkeson mendan sizga yordam berishimni qattiq iltimos qildi.

– «Mister Finn yaqinda Yevropadan kelgan, – dedi u. – Mamlakatimiz tartib-qoidalari bilan hali yaxshi tanish emas. Unga pul ishlarini saranjom qilishda yordam beringlar». Mister Etkeson shunday dedi.

– Ha, u xuddi shunday deb aytdi, – uning so'zini tasdiqladi mister Ritter, birinchi marotaba qattiq qisib olgan lablarini ocharkan.

Mister Rot yana so'zida davom etdi:

– Shunday qilib, mister Finn, biz sizga o'z pullaringizni moliyachilarning Milliy bankiga qo'yishni tavsiya etamiz. Siz darhol chek hisobi ochishingiz mumkin. O'zingiz bir o'ylab ko'ringa, butun boyligingiz bir joyda

bo'lsa qanday yaxshi va qulay! Eng muhimi, ular mutlaqo xavf-xatardan xoli. Sizga yana bir maslahat shuki, bank daftarchangizni shartli bo'lishini unutmang.

– Bu nima degani? – so'radi Jerri.

– Bumi, mister Finn, bu demak, sizning chek daftarchangiz bilan faqat maxsus, yashirin parolingizni bilgan odamgina pul olishi mumkin, degani. Boshqacha qilib aytganda, shaxsan o'zingiz yoki siz ishongan va vakolat bergan shaxsgina pul olish huquqiga ega. Bordi-yu, siz chek daftarchangizni yo'qotib qo'yan taqdirda ham hech qanday ziyon-zahmat ko'rmaysiz. Chunki sizning yashirin parolingizni baribir hech kim bilmaganidan keyin undan foydalana olmaydi, pulingiz omon turaveradi.

Pul odamni gapirtirib yuborish va uni so'zdan to'xtatish qobiliyatiga ega. Pul qanchalik oson yo'l bilan topilsa, shunchalik baland ovozda qichqirib gapiradi. Kimki o'z ixtiyorida juda katta boylikka ega bo'lsa, faqat o'sha odam kibr-havo bilan olamda eng muhim narsa yolg'iz pul emas, deb aytishi mumkin.

Yarim soatlik g'oyat ishchan va sermazmun tushuntirishlardan keyin Jerri Finn o'z pullarini yangi joyga, nomi unda ishonch, ayni mahalda ko'nglining bir burchagida jirkanch uyg'otgan bankka qo'yishga rozi bo'ldi. U moliyachilar orqasidan pastga tushib borar ekan, umrida birinchi marta o'ziga ko'rsatilgan chin iz-zat-ikromni ravshan sezdi. Mister Rotning sakkiz o'rinli kadillac mashinasi rulida livreya kiygan haydovchi o'tirardi. U birinchi galda Jerridan dastxat berishini iltimos qildi. Mashina yo'lga tushdi, haydovchi «To'rtinchi umurtqa»ni boshladi.

* * *

Jerri mehmonxonaga soat to'rtlarga yaqin qaytib keldi; uning cho'ntagida kichik bank daftari va chek daftarchasi yotardi. Mister Rot, yolg'iz fermerlar bilan kontrabandistlargina pullarini yonlarida olib yurishadi,

haqiqiy jentelmen faqat chek daftarchasida saqlaydi, deb uqtirgan edi. Mana endi u ajoyib musiqali voqea tufayli birdaniga boyib ketdi va moliyachilar Milliy bankining faxrli omonatchisi, eng hurmatli mijozi bo'lib qoldi...

Jerri mehmonxonaning restoranida yengil-yelpi ovqatlanib, taksi chaqirdi-da, Baueriga qarab ketdi. U qariyb besh oy ko'rmagan eski oshnasi Bobo bilan uchrashmoqchi edi. Bauerida navbahorning eng qizg'in pallasi bo'lib, bolalar oyoq yalang yugurishib yurishardi. Yo'lkalarda o'zaro suhbatlashib erkaklar va xotinlar o'tirishardi. Jerri ular bilan ko'rishib o'tdi, lekin ularning ko'pchiligi javob qilmadi. Ular notanish odamning bashang ust-boshiga shubhali nazarda qarab qo'yishardi. Ko'chirilmas mulk bilan savdo qiluvchi savdogarlar va gangsterlargina ana shunday bashang kiyinishlari mumknn edi.

Riber Avenyu maydonida allaqanday yangi diniy mazhab miting o'tkazmoqda edi. Yig'ilgan xaloyiq o'rtasida o'nlab avtomobillar turardi. Jerri olomoni aylanib o'tib, o'zining sobiq uyiga kirib bordi. Bu yerda istiqomat qiluvchilar yana o'zgaribdi. Har balo qalab tashlangan yerto'lada ikki qariya o'tirishardi. Ostonada paydo bo'lgan Jerrini ko'rib, ular tashvish ichida bir-birovlariga qarab olishdi.

– O, bu yerning xo'jayinlari yangi odamlar-ku! – dedi u tetik ovozda.

– Yangi odamlar deysizmi? – ulardan biri hayrat bilan so'radi. Uning o'ng qo'lida faqat bosh va ko'rsatkich barmoqlari bor edi, xalos.

– Ha, ilgari sizlarni bu yerda ko'rmagan edim.

Oyoq yalang qariyalar yana bir-birlariga qarab olishdi.

– Sizlar professor Minvegenni bilasizlarmi? – so'radi Jerri.

Qariyalar «yo'q» ma'nosini bildirib bosh chayqashdi.

– Uni Bobo deb ham atashadi, – qo'shib qo'ydi Jerri.

– Men uning do'stiman. Mening nomim Jerri. O'tgan yili kuzda shu uyda yashagan edim.

Odamzotdan qo'rqadigan jamiyatning quyqalari o'zlarini sal erkin sezib, dadilroq qaray boshladilar. Nihoyat, o'ng qo'lida atigi ikki barmog'i bo'lgan qariya tilga kirdi:

– Ha, u hozirgina chiqib ketdi, – dedi

– Qayoqqa?

– Ko'chaga. Bugun uning «ko'r odam» bo'ladigan navbati...

Peshanasida kattakon mo'mataloq qashqasi bor ikkinchi qariya gapga aralashdi:

– Balki sen o'sha, haloxona qog'ozida kuy chalib yurgan musiqachidirsan?

Jerri bir irg'ib tushdi.

– Ha, menman...

– Ana xolos, – deya gapda davom etdi peshanasida qashqasi bor. – Bu Bobo bo'lsa, umuman, haligiday, jinni bo'lib qolgan. Uni jinnixonaga eltib tashlash kerak... unga bir balo bo'lgan, miyasi ishlamaydi.

U barmog'i bilan peshanasiga bir necha bor niqtab ko'ydi.

– Ehtimol, – vazminlik bilan uning gapiga qo'shildi Jerri. – Bobo qay vaqtda qaytib keladi?

– U chorakta viski va biron nima yegulik topib keladi. Biz, agar quruq qaytib keladigan bo'lsang tumshug'ingga musht tushadi, deb aytib yuborganmiz. Quruq qaytmasligi kerak.

«Bechora Bobo», – xo'rsinib ko'nglidan o'tkazdi Jerri va stolga o'tirib, yonidan chek daftarchasini oldi. U ikki yuz dollarga chek yozib, peshanasi qashqaga uzatdi.

– Manavini Boboga berib qo'y va mendan salom ayt.

Jerri chiqib ketayotib, yana ostonada to'xtadi. Bir nafas xayol surib turgach, dedi:

– Boboga aytinglar, ertaga menga telefon qilsin. Men «Uoldorf Astoriya» mehmonxonasidaman...

Uoldorfda... – hayrat bilan dedi qashqa. – U yerda mening o'z odamim bor. Liftida ishlaydi, ukam.

Xaroba kulbada turuvchilar bir-birlari bilan kim ko'p narsani bilish borasida musohaba qilib ketdilar. Ular-

ning tasavvuri shataloq otib ketib, gapirilayotgan barcha narsalari haddan tashqari bo'rttirib yuborilmoqda edi. Musohaba asta-sekin dahanaki jangga aylandi. Qo'lida yettita barmog'i bor qariya – mehmonxona oshxonasida kartoshkani sof viskida pishirib, bulochkalar uchun xamirni likyorga qorishlarini aytib, astoydil ishontirishga tirishar va bu gaplarni ishonchli odamdan eshitganini qayta-qayta ta'kidlardi. Peshanasi qashqa esa, bu gaplarni cho'pchak deb hisoblab, o'zining liftchi ukasidan anig'ini so'rab bilishga va'da qildi. Ular bir-birovlarining yoqalaridan olishganda, Jerri ikkalasiga bit-tadan sigara berdida, qariyalardan hozir professor Pekk bilan Maksuell Bodenxeymning qayoqda ekanini so'radi. U ham, bu ham yo'q ekan. Ajoyib, so'lim tonglarning birida professor Uolter Ervin Pekkning boshidan o'q yegan murdasi odamsiz bir jin ko'cha ichidan topib olinibdi. Shoir Bodenxeym esa alkogollar davolanadigan allaqanday shifoxonaga tushib qolibdi.

– Bobo ham ichishning rosa mashqini olgan, – dedi peshanasi qashqa. – Yaqinda u ham o'sha joyga tushib qolsa kerak. U shu darajada miyasini yeb qo'yganki, ertadan kechgacha inson ruhi to'g'risida gapirgani-gapirgan...

Jerri yerto'la ahlini sigara chekayotgan holda qoldirib, o'zi ko'chaga chiqib ketdi. Quyosh ulkan tosh devorlar orqasiga cho'kib, politsiyaning radioavtomobili navbatdagi kezib kelishga chiqqan edi. Baueriga bahorgi tunning qanoti endigina soya solgan bir lahzada Radio Sitida millionlab neon chiroqlari lov-lov yonib ketdi.

Jerri ikki kuncha tinch va xotirjam yashadi. U hayotdagi mavjud qulayliklardan foydalanib, huzur-halovat ko'rdi. Qiladigan ishi faqat chek yozish bo'ldi. U hech mahal shunday huzur qilib yozmagan edi. Bu damlar uning butun adabiy faoliyatidagi eng ajoyib ijodiy daqiqalar edi. Shundan keyin rohatbaxsh xotirjamlik asta-sekin tashvish va notinchlikka aylana boshladi. Bir kuni erta bilan nomerga Bruklinli Govard xonim otilib kirdida:

– Doktor, endi siz Lauraning bolasini olishingiz mumkin, – deb iltifot ko'rsatdi. – Ah, mister Finn! Kuchuk bolaning qanday katta bo'lib ketganini bir ko'rsangiz edi! Quloqlarini aytmaysizmi?! Doktor, agar siz ertaga-yoq kuchuk bolani olib ketgani kelsangiz, men sizga darhol Bruklin Spanel-klubga kirishingiz uchun tavsiyanoma yozib beraman. Doktor, bordi-yu, biz kuchuk bolaga Gerbert degan nom qo'ysak, siz bunga nima deysiz? Chunki u erkak kuchuk.

Jerri uning barcha takliflariga rozi bo'ldi va oradan ikki kun o'tmay, Gerbertni olib ketgani borishga va'da qildi. Eshik Govard xonim orqasidan hali yopilib ulgurmay, Amerika musiqa-havaskorlari Ittifoqining olti kishidan iborat delegatsiyasi nomerga kirib keldi. Ular, Ittifoq artisti Jerri Finni o'zining faxriy a'zosi etib saylaganini xabar qilishdi. Shu bilan birga delegatsiya o'zining yangi faxriy a'zosiga balandparvoz tabriknoma topshirdi. Unda faxriy a'zoning Yangi dunyo musiqa san'atini rivojlantirish yo'lida hormay-tolmay fidokorona mehnat qilayotgani, butun kuch-bilimini ayamay shu sevimli ishga bag'ishlagani va bu o'zining yaxshi samaralarini berayotgani uchun qizg'in minnatdorchilik izhor etilgan edi. Jerri bunday kutilmagan va ulkan hurmat-ehtiromdan ko'ngli erib, Ittifoq foydasiga bahorgi mablag' to'plash kampaniyasi davrida «Jerri» degan taroqning eng so'nggi navidan besh yuz dona va bir tonna hojatxona qog'ozi in'om etishga va'da qildi.

Delegatsiya chiqib ketgani hamono Jerri nomeriga qarovchi mehmonxona xodimini chaqirib, huzuriga boshqa hech kimni qo'ymaslikni buyurdi.

– Mening tobim yo'q. Hech kimni ko'rishni istamayman.

– O'key, mister Finn, – javob qildi yigit.

– Menga qarang, to'xtang! Kichik bir mustasno gap bor. Agar meni professor Minvegen degan odam qidirib kelsa, uni kiriting. Mening xususiy vrachim u.

Xizmatkor yon daftariga kiritish mumkin bo'lgan odam nomini yozib olib, chiqib ketar ekan:

– O'key, mister Finn, – deb qo'ydi. – Faqat xususiy vrach Minvegen qo'yiladi...

Jerri vannaxonaga kirib, endi soqolini qirmoqchi bo'lib turgan edi, birdan koridor tomondan qichqiriq va taraq-turuq eshitildi. U eshik yoniga kelib, quloq soldi. Kimdir eshik naryog'ida kurashayotganga va yumdala-shayotganga o'xshadi. Birdan taraqlagan ovozdan keyin eshik lang ochilib ketdi. Koridorning qirmizi gilami ustida bu kurashning g'olibasi – Joan Finn xonim yotardi.

– Qanday uyatsiz, benomus bola ekan bu! – xitob qildi u. – Meni kiritmayman, deb turib olsa-ya!

Joan o'rnidan turib, xonaga kirdi va eshikni yopib oldi. Jerri qo'rqib ketmadiyu, ozgina xijolat bo'lib, dovdirab qoldi. Allaqanday ko'rinmas kuch unga dalda berdi. U shu topda xotinidan ko'ra dalda muhim ahamiyatga ega bo'lgan gladiatorga o'xshardi. Chunki u bari-bir, na unisiga ega edi, na bunisiga.

– Jerri, – dedi Joan uning bo'ynidan quchoqlab olar ekan. – Nima uchun mening maktublarimga javob qay-tarmading?

– Ulgurolmadim...

– Voy xudo-ey, qanday yoqimtoysan-a! Men seni hali ham sevishim mumkin edi.

Joan erini o'pib, bo'ynidan qo'llarini oldi. Keyin xo'rsinib dedi:

– Ammo endi kech. Ha, vaqt o'tdi. Sen, hatto menga o'tirishniyam taklif qilmayapsan-a?

– Marhamat qil, qani o'tir! Chekasanmi?

– Albatta.

Jerri xotiniga sigareta berib, gugurt tutdi. Keyin yoniga o'tirdi. U o'zini gunohkor odamdek sezardi. Uning vazifasi faqat savolga javob berish bo'ldi. O'zining so'rashga haddi sig'masdi. Joan ilgariga nisbatan xiyla tetik, yana ham nazokatli va juda ochilib ketgan edi. Ustidagi to'q ko'kish neylon ko'ylagi, chamasi, birinchi marta kiyib kelinganga o'xshaydi. Chunki uning etagidagi do'kon yorlig'i hali olib tashlanmagan, boshi-

dagi shlyapasi bilan oyog'idagi tuffisi ham yangi edi. Nasiyaga mol sotish sistemasi modadan ortda qolmay, xotin-qizlarni bahor libosiga burkagan edi.

Joan zebo, malohatli ayol edi. U qochoq erni jon-ga teguvchi ta'na bilan egovlab o'tirmadi. Yo'q! Uning haqiqiy xushbichim og'zi ishchan qo'ng'iroqchaga o'xshab bir nafas tinim bilmasdi. Jerri jimgina eshitib o'tirishning rosa mashqini olgani uchun lom-mim deb e'tiroz bildirmadi. Orombaxsh musiqaga o'xshagan shiddatli so'zlar oqimi valeryanka dorisiday yoki bola beshigi ustidagi alladay unga ta'sir ko'rsatmoqda edi.

– Meni ortiq sevmasligingni o'zim ham yaxshi bilaman. Agar sevganingda meni sira tashlab ketmagan bo'larding. O Jerri, azizim! Hayot qanday go'zal. Chiroyli bo'lib tug'ilish xotin kishi uchun qanday baxt ekanini bilsang edi! Avvaliga men, o'zimning nafis va nozik suratlarimni qo'shni uyning yerto'lasida ko'rib, g'oyat umidsizlikka tushdim. Men ularning qanday qilib bu yerga kelib qolganini bilmay garang edim. Keyin sening g'alati va to'satdan g'oyib bo'lib qolganiga o'zini o'zi o'ldirgan, degan xayolga bordim. O, mening zor-zor yig'lab, ko'zlarimdan qonli yosh oqqanini ko'rsang edi! Ha, rosti bilan yig'ladim. Shundan keyin Charli qo'lga tushib qoldi. Mutlaqo arzimagan narsa uchun-a! Ba'zida odamlar o'zi ana shunday pastkash, bachkana bo'lishadi! Qiziq, agarda odamda pul bo'lmasa – u albatta qamoqqa tushib qoladi. Charlini uch yilga hukm qilishdi. Men, bu hordiq uning uchun foydali bo'ladi, deb ishonaman. Kecha uni ko'rgani bordim, kayfi chog', ruhi tetik. Uning kelgusiga tuzib qo'ygan rejalari ham chakki emas. Qamoqdan bo'shagani zahoti davlat xizmatiga kirmoqchi. Davlat departamentiga Charlzga o'xshagan bir qancha sohada yaxshi tajribaga ega bo'lgan odamlar juda kerak. Turgan gap, Charlz bundan boshqa ham ko'p imkoniyatlarga ega. Jumladan, u jurnalist yoki ofitser bo'lishi, juda bo'lmasa, josuslikka ishga kiri-

shu mumkin... Jerri, qani aytchi, sen meni hali ham sevasanmi? Bilasanmi, sevish – hamisha moda.

Jerri hech nima deb javob bermadi. Joan biroz o'ylab olib:

– Yo'q, sevmaysan, – dedi. – Biroq men seni ayblamoqchi emasman. Axir, erkak kishi bir umr atigi bit-ta xotinni sevishi mumkin emasda. Garchand u ayol go'zallik sohibasi, oqila va iste'dod egasi bo'lsa ham. Mana endi sen butun olam faxrlanayotgan buyuk artistsan. Yevropada sendan hech nima chiqmasdi. Chunki u yerda hech baloga tushunishmaydi. Sening omading keldi. Men bundan behad xursandman. Azizim Jerri, men ham qo'limni qovushtirib o'tirganim yo'q. Sen meni tashlab ketganingdan keyin ikki kun o'tib, bir kishi bilan tanishib oldim. U g'oyat savodxon odam: kam deganda olti million dollari bor. Nomi Milton Doro, De-oe-er-o. Milton ikki qimorxonaga, serhasham bar – mayxonaga, yana ancha-muncha shunga o'xshagan narsalarga ega. Uning puli bor, xotini bilan ajrashgan. Yanvar oyida biz u bilan Floridada uch hafta dam oldik. Qanday ajoyib vaqt edi u! Turgan gap, Miltonning yoshi sendan ko'ra kattaroq, lekin o'zi hali juda tetik, qirchillama yigit deysan. O, xudoyim-ey, sen uning muskullarini ko'rsang edi! U meni telbalarcha sevadi, Floridada meni deb o'n martacha mushtlashsa bo'ladi-mi?! Jerri, azizim, butun erkaklar meni deb aqldan ozib, telba bo'lib yurishsa – mening ilojim qancha? Ular meni zo'rlik bilan egallashmoqchi edi. Ammo Milton yo'l bermadi. Agar erkak kishi rashk qiladigan bo'lsa, demak, u o'z mahbusini sevadi. Xotinlar bo'lsa hamma vaqt rashk qilishadi. Hammasi, mendan mustasno, albatta. Men ko'zga yaqinman, shu tufayli hech qachon rashk qilib o'tirmayman. Erkaklar mening ko'zlarimni va iste'dodimni yaxshi ko'rib qolishadi: Milton nuqul ikki gapning birida, sen olijanob qalb egasisan, deydi. O, u ba'zida shunday chiroyli gaplar aytadiki, eshitib og'zing ochilib qoladi... Ha, aytmoqchi, Jerri, azizim,

mening belim mutlaqo tuzalib ketdi. Qani, aytchi, sen «To'rtinchi umurtqa»ni menga bag'ishlab yozdingmi?

– Ha, senga bag'ishlab.

– Men ham shundaydir, deb o'ylovdim! Ammo buni Miltonga aytgani botinmadim, chunki uyam shu ashulangni butun jon-tanidan sevadi. Ba'zi vaqtda biz «To'rtinchi umurtqa»ni birga, jo'r bo'lib chalamiz. Umuman, biz juda inoqmiz. Miltonning ham musiqaga qobiliyati zo'r. O'zi ilmi odam. U xohlasa butun olamni sotib olishi mumkin. Jerri, jonginam, qani aytchi, meni sevasanmi?

Jerri tili uchida turgan so'zni aytib yuborishdan o'zini zo'rg'a tiyib qoldi. Nihoyat, u ohista va jiddiy ohangda:

– Yo'q, – dedi.

Joanning ko'zlarida sho'xlik o'ti lov etib yonib, erining qo'lidan mahkam ushladi, shodiyonalik bilan qichqirdi:

– Juda soz, Jerri! Unday bo'lsa, hoziroq mendan ajralishga rozilik ber.

– Rozilik beraman.

– O, Jerri! Sen qanday olijanobsan! Sen xudovandi karimning o'ziday saxovatlasan! Sening bu tomonlaring meni qoyil qoldiradi!

– Qancha pul talab qilmoqchisan? – jiddiy ohangda so'radi er.

– Bir dollar ham. Ko'rib turibsan-ku – Miltonda pul ko'p.

– Menda ham.

– Miltonda senikidan ko'ra ko'proq. Ont ichishim mumkin, unda xiyla ko'p. U hamma yerda faqat choy-chaqa uchun o'n dollar beradi, o'zi Shotland viskisini ichadi. Milton, agar ering darhol nikohni bekor qilishga rozi bo'lsa, senga shu zahoti uylanaman, yaqinda bo'ladigan saylovda kongressga nomzodimni qo'yaman, dedi. Mana ko'rdingmi, Jerri, jonginam, kongressmenga saylovoldi reklamalarini olib borishda

yordam bermoq uchun ko'rkam va savlatli xotin kerak. Men ashula aytishni, raqsga tushishni bilaman.

Jerri zavq bilan xotiniga qarar, u esa tibetliklarning ibodat mashinasiga o'xshab bir dam tinmasdi. Joan birdan o'rnidan turib, sochlarini tuzatdi-da, Jerriga qarab:

– Biz endi pastga tushib borishimiz kerak, – dedi. – Agar men bu yerda uzoqroq o'tirib qolsam, Milton, seni hali ham meni yaxshi ko'radi, deb o'ylashi mumkin. U o'lguday rashkchi, meni qo'riqlagani-qo'riqlagan. Uning birinchi xotini, aytishlariga qaraganda, o'larday bevafo xiyonatchi bo'lgan ekan. Bir safar ular mehmonga bori-shibdi. Juda baobro' odam uyiga. Shu desang, Milton atigi zarurat joyiga kirib chiqquncha xotini xiyoiat qilib ulguribdi. Gap mana shunday, azizim, qani bo'l, tez-roq kiyin, biz pastga tushishimiz kerak. Milton o'z advokati bilan bizni mehmonxonaning mayxonasida kutib o'tiribdi.

Jerri galstugini bog'lab, kostyumini kiydi-da, keyin liftda o'n oltinchi qavatdan bo'lajak Doro xonim hamrohligida pastga tushib keldi. Milton Doro Jerriga sinovchan nazar tashlab, hech nimaga shama qilib o'tirmay, dangal gap boshladi:

– Xo'sh, qani oshna, qanday qarorga kelding? Hoziroq nikohni bekor qilishga rozimisan? Shuni ham aytib qo'yay, o'z xotiningni qarovsiz tashlab, o'zing daydilik yo'lga kirib ketganing uchun butun ayb va javobgarlik sening zimmangga yuklanadi. Barcha sarguzashtlaring to'grisida menda aniq ma'lumotlar bor. Meni aldab bo'psan! Agar xo'p desang, nikohni bekor qilish vaqtini o'tib ketgan fevral oyi deb ko'rsatamiz, senga to'la ozodlik, menga Joan tegadi.

Jerri uchun biron nima deyish og'ir edi. U hali savdo va hayot ishida yetarli saboqqa ega emas edi, lirika va drama kamsuxan prozaga nazokat bilan yo'l berishi mumkinligi sirlariga tushunmasdi.

– Qani Jerri, javob qilsangchi, qara, Milton sendan qanday yaxshilikcha so'rayapti, – uni shoshirdi Joan.

– Men sizlarning hamma shartlaringizga roziman, – dedi Jerri jiddiy ohangda. – Qancha nafaqa to‘lashim kerak?

Mister Doro xoxolab kulib yubordi:

– Ashulachining puli nima – dengizdan tomchi, bizneschining qo‘li doimo baland. Joan sening qora chaqalaringga zor emas.

Shundan keyin mister Doro o‘zining yuristiga murojaat qilib:

– Ishning bu yog‘i senga havola, – dedi. – Qani, ishga kirishaver.

Bir bitimga kelingani munosabati bilan ichildi. So‘ngra Jerri mister Doro va o‘zining sobiq xotinini tabriklab, ularga uzoq umr va shunga o‘xshagan bir talay ajoyib istaklar bildirib xayrlashdi-da, o‘z nomeriga chiqib ketdi. Bu yerda uni norg‘ul gavdali ikki jentlmen kutib o‘tirardi. Ular FBR nishonlarini ko‘rsatib, o‘zlarning kim ekanlarini tanitishdi.

– Mister Finn, – dedi izquvarlardan biri. – Manavi chekni siz yozganmisiz?

U Jerrining professor Minvegenga yozib bergan chekini ko‘rsatdi. Jerri sarg‘ish qog‘ozga qarab, o‘zining imzosini tanidi:

– Ha, hech shubhasiz, – dedi.

Shundan keyin izquvar unga yana bir dasta cheklarni ko‘rsatdi.

– Bular ham siznikimi? – so‘radi u.

Jerri o‘zining shu bir talay adabiy ilhomlari mevasiga ko‘z tashlab, tasdiqladi:

– Bularning barini men yozganman. Nima, bularda biron nuqson bormi?

– Ha. Bu cheklaringizga pul to‘lanmaydi, – quruqqina dedi izquvar.

– Bunday bo‘lishi mumkin emas! – xitob qildi Jerri. – Axir, bankda mening uch yuz ming dollarim bor. Hujjatlarni ko‘rsatishim mumkin. Mana, hisob daftar-cham.

Izquvar chiroyli qilib muqovalangan daftarchani varaqlab chiqib, bosh chayqadi va ma'yus dedi:

– Mister Finn, sizga hamdardlik izhor etishga ruxsat bering...

– Nimaga? Men gapingizga to'shunolmayapman.

– Siz qo'pol tovlamachilikning qurboni bo'libsiz. Bunday qo'lga tushganlar yolg'iz siz emas, ammo boshqalarga qaraganda sizni kattaroq pulga tushirishibdi. Bunday bankning o'zi dunyoda yo'q. Ruxsat eting, ikki soat vaqtingizni olamiz.

Yuksaklikka ko'tarilish tezu, lekin harqalay, sekin-asta yuz bergan edi. Yuqoridan pastga qulash esa bir daqiqa ichida sodir bo'ldi qoldi. Bir necha tomonlama so'roq qilish, protokollar, imzolar chektirish, tantanali va'dalar – bularning bari g'oyat tez va shiddatli suratda o'tdi. Izquvarlar u bilan bundan uch kun oldin pul qo'yg'an bankka borishdi. Eshiklar qulf edi. Ulkan xizmat xonasi bo'm-bo'sh. Yangi moliyaviy tashkilot bu yorug' olamda atigi uch soatgina umr ko'rgandi. U ana shu uch soatdan keyin mangu yopilgan edi. Ko'rinishidan izzat-ikrom uyg'otuvchi moliyachilar ham, g'oyat go'zal xizmatchi qizlar ham ana shu ulkan boyliklar bilan nom-nishonsiz g'oyib bo'lishgan edi.

So'roqdan keyin qo'yib yuborilgan Jerri o'z nomeriga qaytib kelib, erkaklarga xos ko'z yoshi to'kmay yig'lab yubordi. Uning cho'ntagida yigirma dollarli bir dona qog'oz pul qolgan edi, pastda, birinchi qavatda esa hali to'lab ulgurmagan mehmonxona haq-hisobi kutardi. Xuddi shu qo'llab-quvvatlashga, tasalliga muhtoj bo'lib turgan bir fursatda soliqlar boshqarmasidan u maktub oldi. Maktubda, nima sababdan u daromadlarini berkitib kelgani va soliq to'lash qoidasini buzgani sabablari shoshilinch ma'lum etishi talab qilinardi. Jerri Chikagoga telefon qildi, aksiga olib, mister Etkeson tushki tanaffusga chiqib ketgan ekan. Jerri uning kotibasiga qisqa mazmunda: «Butun pullarimni yo'qotdim. Mehmonxona haqini to'lolganim yo'q. Soliqlarniyam

to'lagan emasman. Sizning yordamingizni kutaman», degan telefonogramma yubordi.

Oradan ikki soat o'tmay Jerri Chikagodan telegramma oldi:

Jerri Finnga Otel Uoldorf Astoriya
Nyu-York Siti

Afsuski joriy hisobingizda atigi 60 dollar bor ekan Shunga qaramay 200 dollar yuboryapman. Sizning plastinkalaringizni hech kim sotib olmayapti 150 million odam hozir taroq chalib yuribdi. Yangi biron asbob topishga harakat qiling innaykeyin sal arzonroq mehmonxonaga ko'chib o'ting.

ETKESON

Bizning eski tanishimiz Isaak Rivers yolg'iz o'zi uyida televizor ko'rib o'tirardi. Ko'zga ko'rinmas qotil o'z qurbonini qitiqlab va bo'g'ib o'ldirishini ko'rsatuvchi bu sadistlarning – birovlarini azoblab lazzatlanuvchilarning jinoiy dramasidan badanlar jimirlab, tanadagi har bir mo'y nayzaga aylanar edi. Shunga ko'ra Isaak hadeb pivoga zo'r bermoqda edi. Eshittirish har zamon-har zamonda tamaki mahsulotlarini reklama qilish uchun bo'linib-bo'linib turardi. Isaak boshqa durustroq dastur izlab, Al Kaponening g'oyat maroqli, afsonaviy hayoti haqidagi ajoyibotlar olamiga sho'ng'ib ketdi. Tez orada bu ham ko'ngliga tegib, yana boshqa qiziqroq tomosha qidirishga kirishdi. Nihoyat, u televizorni o'chirib, o'zini o'zi tomosha qila boshladi. U juda kamdan-kam o'zini o'zi kuzatish bilan band bo'lardi, bundan o'zi hech nima yo'qotmaganiga iqror bo'ldi.

Ba'zi odamlar yashaydilar va o'qiydilar, boshqalari esa faqat yashash bilan cheklanadi. Isaak Rivers ham so'nggi toifadagi odamlar qatoriga kirardi. Uning hayoti asosan tep-tekis, har turli baland-pastliklari bo'lmagan ravon yo'lga o'xshardi. U butun olam optimistlariniki ekanini ko'rib turgani uchun o'zi ham optimist bo'lish-

ga intildi. Hech narsaga qaramay shu maqsadga intildi.

Soat o'nlarga yaqinlashib qolgandi, Nyu-Yorkning yotoqxonasi o'zining tungi hayotiga hozirlik ko'rardi. Isaak bir nafas derazadan ko'chaga qaradi. Ko'chada keti uzilmas odamlar oqimi suzib borardi: keyin u og'zini katta ochib esnadi-da, o'rniga toliqqan va xumorli ko'z tashlab, sekin-asta yechina boshladi. Kutilmagan-da botinmaygina eshik taqillatilgani eshitildi. Isaak: ochsammikin yo ochmasammikin, deb o'yladi. Bugun u turli-tuman xayrli ishlar manfaati uchun, chunonchi, Ist-Rivers ko'prigida suvga cho'kib ketayotganlar qutqazib olinadigan najot chambari sotib olgani, janubiy shtatlarda savodsizlikni bitirish ishiga, Koreya urushida bo'lgan kino va sirk artistlariga pensiya fondi tashkil etishga va nihoyat, Pokistondagi Amerika koloniyasiga beysbol jihozlari sotib olishga to'rt dollar in'om etgan edi. Isaak o'zining butun fuqarolik burchini bugun to'la ado etgan deb his etdi va eshikni ochmaslikka qaror qildi. Ammo oradan sal o'tmay eshik yana taqilladi. Shu bilan bir vaqtda qo'ng'iroq jiringladi. Isaak ehtiyot shart, qo'liga yarim dollar – hadya puli hozirlab istamaygina eshik tagiga keldi. U eshikni asta ochib, tashqariga qaradi. Ostonada uning qimmatli assistenti, birpasda amerika-cha shuhrat cho'qqisiga chiqib olgan Jerri Finn turardi. Yangi olamning Paganinisi, musiqada yangilik ijodkori, umumxalq harakatining tashabbuschisi, musiqani sevgan allaqanday kongressmen unga Amerika fuqarosi huquqini berish uchun hozirgi amaldagi qonunlarga maxsus tuzatish kiritishni taklif etgan, uning hamkasabasi Jerri turardi. Har ikkala do'st bir daqiqa hang-mang bo'lib, bosib kelayotgan his-tuyg'ulardan eslari og'ib qoldi. Nihoyat, Jerri quchog'ini keng ochib turgan homiysi bag'riga otildi va ohista:

– Isaak... Sen menga kafolat bergan eding... – dedi.

– Sen endi unga muhtoj emassan, – dedi xiroamaliyotchi va musiqachini quchoqlab turgan bag'rini sal bo'shatdi.

– Qani yur, bolakayim, oz-oz otaylik endi.

Jerrining qovoq-tumshug‘i osilgan, yuz-ko‘zi oqarib ketgandi. U ruhi tushgan, dilxasta, lom-mim demasdi. Isaak bularning bari hozirgi uchrashuv tug‘dirgan quvonch va judolik dard-alamining oqibati, deb o‘yladi.

– Sen meni allaqachon unutilib yuborgan bo‘lsang kerak, deb qo‘rqqan edim, – dedi xiroamaliyotchi uchrashuvni nishonlamoqchi bo‘lib, o‘zining sobiq yordamchisiga qadah to‘ldirar ekan. – Xo‘sh, og‘ayni, ana shuncha muvaffaqiyat va izzat-ikromlardan keyin hayot qanday ko‘rinyapti?

Jerri yuziga odatda xudoyixonalaridagi kabi zo‘raki iljaygan ifoda olib, ma‘yus va g‘amgin so‘radi:

– Isaak, seningcha mendan chinakam xiroamaliyotchi chiqadimi?

– Sendanmi! Sendan, istagan kasbdagi odam chiqadi. Sen jahondagi eng iste‘dodli odamsan, bir vaqtlari menga hamkasaba bo‘lganingdan benihoya faxrlanaman.

– Rahmat, Isaak, – dedi Jerri hayajon ichida ko‘ngli buzilib. – Huzuringga meni ishga olishingni so‘rab keldim.

– Sen axir, olamdagi eng ajoyib martabaga erishding-ku, tag‘in nima kerak senga?

Jerri nimadir demoqchi bo‘lib og‘iz juftlagan edi, lekin lablari tosh qotib, fikri muzlab qolganday bo‘ldi. Uning tashabbusi yo‘qqa chiqdi, buni hatto davlat komitetida muhokama qilishga hojat bo‘lmadi. Doktor Rivers hayron edi. Keyin u Jerrining bunday kamsuxanligiga uning haddan tashqari dongdorligi sabab bo‘lsa kerak, deb taxmin qildi. Ha, albatta, u axir g‘oyat dongdor, tengsiz shon-shuhrat egasi, endi u qora ko‘zoynak taqib yurishi kerak.

– Sen bu gapni jiddiy aytayapsanmi? Rosti bilan yana mening hamkasabam bo‘lishni istaysanmi?

– Istartim, – dedi Jerri xuddi nikoh paytidagi kuyovday salmoqlanib. – Taroqda har kim ham chalaberadi, ammo, xiroamaliyot bilan har kim ham shug‘ullana bermaydi...

– Faqat mumtoz odamlar, – aniqlik kiritdi Isaak. – Bu ishga tug'ma qobiliyat, asl iste'dod kerak. Ke, yana bittadan otaylik!

Ular ichishdi, shundan keyin Isaak ilhomi jo'shib so'zini davom ettirdi:

– Menga qara, biz yana avvalgiga o'xshash zo'r reklama uyushtirsak, sen nima deysan? Endi sening noming butun olamga mashhur!..

– Men hamma narsaga tayyorman. Hatto bu yo'lda kichik jinoyat qilishdan ham qaytmayman, – javob berdi «To'rtinchi umurtqa» muallifi. – Olomon zavq-havasini musiqa sadolari bilan namoyishlar ko'pirtirib beradi, bundan oson ish yo'q o'zi dunyoda...

– Nima? – g'amgin o'ylar asiri bo'lib o'tirgan bebaxt Jerrining nima deyayotganiga tushunmay so'radi Isaak.

– Shuhrat zig'ir yog'day ko'nglimga urdi, charchadim bu shov-shuvlardan, – hamon xayolga botib davom etdi Jerri. – Men o'zimni kafolatingga munosib odam ekanimni amalda ko'rsatmoqchiman.

U go'yo o'zini o'zi sochidan tortib yuqoriga ko'tarmoqchi bo'lganday ikki qo'llab boshini mahkam ushladi, lekin faqat qadahini ko'tarish bilan cheklanib, uni lablariga olib borib, xo'jayinga gapirish imkonini berdi. Isaak allanimani eslashga tirishardi. Nihoyat, uning cho'chqa bolasining ko'zlariga o'xshash ko'zlarida sho'x alanga ko'rindi. Isaak quvonchli yangilikni hikoya qila ketdi.

– Ha, sal bo'lmasa esimdan chiqay debdi! Qiziq voqea! O'tgan hafta ikki olifta erkak sening manzilingni so'rab keluvdi. Men manzilingni qayoqdan bilay?

– Izquvarlar bo'lsa kerak-da, – so'radi rangi qum o'chib Jerri.

– Yo'q, yo'q! Finlyandiya elchixonasining vakillari ekan, Vashingtondan kelishibdi.

Jerri sal o'ziga keldi. U juda yaxshi bilardiki, xalqaro huquq ehtirosli egotsentrik orzular armiyasini o'z zanjirlari bilan mustahkam bog'lab turadi. U qo'rqib ketmadi ham. Chunki Jerri yaxshi biladiki, qo'rquv dushman

orttiradi. Dushmanlarni esa o'ylab, ehtiyotkorlik bilan tanlash kerak. U xo'jayinining ko'ziga tik qarab, undan:

– Ular qamoqqa olgani order olib kelishdimi? – deb so'radi.

– Nimalar deyapsan o'zing? – ikkinchi marta takrorladi Isaak. – Gapingdan latta hidi keladi-ya! Ular sening adresingni bilishmoqchi edi, deyapman-ku. Senga allaqanday xushxabarni yetkazishmoqchi ekan. Sen oliy orden bilan taqdirlanibsan...

– Nima uchun?

– Finlyandiya manfaatini ko'zlib olib borgan targ'ibot ishlarining, ayniqsa, chet elda fin musiqasini keng yoyganing uchun... Kelgan janoblar shu mazmunda nimadir deyishgan edi. Gap mana bundoq, oshna...

Jerri ko'zlarini yumib, chuqur xo'rsindi. Ammo oradan ikki soatcha vaqt o'tib, u o'z sha'niga munosib qi-yofada mister Kronikopelosning o'yinchoqlar do'koniga kirib bordi-da, reflekslarni tekshirib ko'rgani o'ziga yangi bolg'acha sotib oldi. Inflyatsiya yuz bergani sababli bolg'achaning bahosi o'ttiz sentga chiqib ketgan edi. Ammo bahoning oshgani musiqachi-umurtqalar dokto-riga hech qanday hayratda qoldiradigan ta'sir ko'rsatmadi. Chunki Jerri bolg'achani ola turib, sotuvchiga:

– Men uchun nasyaga buyum oladigan hisob oching!
– dedi.

MUNDARIJA

BIRINCHI BOB. Qissamiz qahramoni Ieremiya Suomalaynenning qanday qilib olam fuqarosiga aylangani.....	3
IKKINCHI BOB. Jerri Finning xiroamaliyotchiga assistenti bo'lgani va bolg'acha sotib olgani.....	12
UCHINCHI BOB. Jerri Finning xiroamaliyot bilan tanishgani, o'zining mashhur nutqini so'zlagani.....	29
TO'RTINCHI BOB. Jerrining xiroamaliyot bilan shug'ullana boshlagani va o'z bolg'achasini birinchi marta ishga solgani.....	41
BESHINCHI BOB. Jerri Finning olamga mashhur doktor Albert Xinseyga xodim tushgani va yo'ldan ozib aldangani	52
OLTINCHI BOB. Jerri Finning ikkinchi marotaba bolg'achasini ishga solgani, lekin shunga qaramay o'z ozodligi va mustaqilligini yo'qotgani	68
YETTINCHI BOB. Joan Finn o'zining g'amgin qissasini gapirib bergani va eriga hayotini qimmatroq sug'urta etishni maslahat qilgani	89
SAKKIZINCHI BOB. Restoran metrdoteli orasiga cho'chqa yog'i tiqilgan novvos biqin go'shti bahosini asoslab bergani, kitobfurushning durdonalar bilan briket sotmoqchi bo'lgani.....	102

TO‘QQIZINCHI BOB. Jerri Finning o‘z hayotini yuz ming dollarga sug‘urta qildirgani va shundan keyin g‘amga tushib qolgani	123
O‘NINCHI BOB. Joanning beli lat yegani va mutaxassisga yordam so‘rab murojaat qilgani	139
O‘N BIRINCHI BOB. Hozirgi zamonning mislsiz oilaviy mojarosi yuz bergani va Jerri Finning jomadonini olib, chiqib ketgani	161
O‘N IKKINCHI BOB. Jerri Finning ishsiz qolgani va uning oyga uchmoqchi ekanini aytgani, shuningdek, Joanni erining yangi manzilini bilolmay xunob bo‘lib o‘tirgani	177
O‘N UCHINCHI BOB. O‘n uchinchi bo‘lgani uchun ham baxtsiz bu bobda Jerrining kulgi psixologiyasi haqida ma‘ruza eshitgani va boshpanasiz daydilar «xobo»sining buyuk qardoshligiga a‘zo bo‘lib kirgani	193
O‘N TO‘RTINCHI BOB. Jerrining ziyolilar orasiga tushib qolgani va unga shaxsiy o‘rin ajratib berishgani.....	222
O‘N BESHINCHI BOB. Jerri bilan Boboning Nyu-Yorkdan chiqib ketgani va ularning siyosiy kurash hamda diniy islohot girdobiga tushib qolgani.....	243
O‘N OLTINCHI BOB. Jerri bilan Boboning bo‘rondan jon saqlab qolgani va o‘qituvchilik qila boshlagani.....	269
O‘N YETTINCHI BOB. Jerri bilan Boboning hazilni bilmagani va hozirgi zamon pedagogik faoliyatning boshqa shart-sharoitlariga tushunmay, o‘qituvchilik o‘rnidan ayrilgani	288

O'N SAKKIZINCHI BOB. Jerrining bir xotin qo'liga tushgani va Boboning o'z baxtiga yoki psixologiyaga umid bog'lashiga qo'yib bergani... ..	322
O'N TO'QQIZINCHI BOB. Hojatxona qulfining buzilib qolib Jerri Finnga izzat-obro' va shon-shuhrat qozonishga ko'mak bergani.....	340
YIGIRMANCHI BOB. Oxirgi bob, olam fuqarosi Jerri Finning jahongashtalikni tugallab, safarga chiqqan joyiga qaytgani yoki ot aylanib qozig'ini topgani	360
Etkeson	376

Adabiy-badiiy nashr

MARTTI LARNI

ZO'RAKI MUTTAHAM
YOKI
TO'RTINCHI UMURTQA

Roman

Muharrir
Muhayyo RIXSIBEKOVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Musahhih
Sayyora MELIQO'ZIYEVA

Sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 02.10.da berilgan.

Bosishga 2016-yil 04.05.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tabog'i 24,0. Shartli bosma tabog'i 40,32.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 102.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14; 129-09-72;

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87 faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru